



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OZARBAYJON
ZAMONAVIY
NASRI
ANTOLOGIYASI

71



**OZARBAYJON
ZAMONAVIY
NASRI
ANTOLOGIYASI**



“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Boboxon Muhammad Sharif, Shahlo Qosimova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tili davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

SO‘ZBOSHI

Ozarbayjon nasrining ildizlari, hech shubhasiz, ozarbayjon xalq og‘zaki ijodidan suv ichadi. Xususan, nasrning shakllanishi va rivojlanishiga “Dada Qo‘rqut kitobi” katta ta’sir o‘tkazgan. XIX asrdan boshlab ozarbayjon realistik adabiyoti shakllana boshlagan. Bu hodisaga turk va rus adabiyotining ta’siri sezilarli bo‘lgan. Mulla Panoh Voqif asarlari ta’sirida ulg‘aygan Sulton Majid G‘anizodaning “Muallimlarning g‘ururi”, “Allohning devoni”, “Qurbon bayrami” kabi hikoyalari va “Kelinlar javohiri” qisasi o‘z davrining muhim voqealaridan bo‘lgan. Muhammad Taqi Sidqining nasriy asarlari ham shu davrda yaratildi. Asr o‘rtalariga kelib, ozarbayjon dramaturgiyasi maydonga keldi. Mirza Fatali Oxundov dramaturgiyaning asoschisi bo‘ldi. Jalil Mamatqulizoda va Narimon Narimonov asr oxirida adabiyotga kirib keldilar va realistik adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Jalil Mamatqulizodaning “Pochta qutisi”, “Usta Zaynal”, “Qurbonalibek” singari hikoyalari tanqidiy realizmning mumtoz asarlari qatoridan joy oldi.

Ozarbayjon hikoyachiligi XX asrda gullab-yashnadi. Bu davrda ozarbayjon nasrining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Yusuf Chamanzaminli, Mirza Ibrohimov, Yusuf Samado‘g‘li, Anar, Sobir Rustamxonli, Elchin, Hidoyat kabilar uztoz maqomiga ko‘tarildilar. 50-yillarning o‘rtasidan keyin esgan erkinlik ekinidan keyin ozarbayjon adabiyotida muayyan rivojlanish yuz berdi. Adabiyotga kirib kelgan yoshlar dadilligi bilan ajralib turdi. Bu jihatdan ozarbayjon va o‘zbek adabiyoti o‘rtasida o‘xshashlik borligini kuzatish mumkin. Ammo ko‘p o‘tmay hur fikrga to‘siq solindi. Millat va vatan ozodligi tuyg‘ularini ochiq aytishga imkon berilmadi. Faqat 80-yillarning o‘rtalariga kelibgina o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Adabiyotga yangi to‘lqin, o‘z fikriga ega bo‘lgan va fikrini adabiy vositalar yordamida dadil ayta oladigan yoshlar kirib keldi. Adabi-

yotda turli uslublar, yo‘nalishlar ko‘rina boshladi. Realistik va sur-realistik uslublar o‘z zuhurini topdi. Ozarbayjon mustaqilligidan keyingi davr adabiyot rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratilgani bilan xarakterlanadi.

So‘nggi o‘ttiz yillik davrda Qorabog‘ masalasi, bu yerda yashagan vatandoshlarning achchiq va fojiali qismati adiblarni qattiq tashvishlantirganiga shohid bo‘lishimiz mumkin. Qorabog‘ haqida yozmagan ozarbayjon shoiri va yozuvchisi yo‘q desam, mubolag‘a bo‘lmas. Zotan, adabiyot hayotning badiiy in‘ikosidir. Binobarin, ojarbayjon adiblarining mana, qariyb o‘ttiz yildan o‘tdiki, bitmas va og‘riqli jarohatga aylangan Qorabog‘ muammosi haqida, vatanidan quvg‘in qilingan xalqning dard-u armonlari haqida yozi-shi, adolatni himoya qilishi g‘oyat tabiiy va zaruriy bir holdir. Zero, xalqning dardiga malham bo‘lmaydigan, adolatni himoya qilmaydigan, badiiy vositalar orqali ezgulikni tarannum etmaydigan, yovuzlikni qoralamaydigan adabiyotning keragi ham yoq.

Dunyoda eng dahshatli kulfat — urushdir. Jahonda hech bir xalq urushni istamaydi, barcha tinch-farovon yashashga intiladi. Bosqinchilik urushi xalq ichidan chiqqan, tomirida toza qon emas, jirkanch yiring oqadigan, to‘ymas nafsni yo‘lida ulusni balolarga giriftor etib, moddiy ne‘matlarga, kursiga ega bo‘lishni ko‘zlaydigan bir hovuch ekstremist doiralari manfaatiga xizmat qiladi. Bu o‘rinda vatan, mustaqillik, ozodlik va el manfaatlari uchun olib boriladigan adolatli urush bilan o‘zgalarning tuprog‘i, sarvatini tortib olish, boshqalarni asoratga solish maqsadini ko‘zlaydigan adolatsiz urushni farq qilmoq darkor. Vatan, xalq ozodligi uchun olib boriladigan urush — bu adolatli va muqaddas urushdir. Bunday urushlarda shahid ketgan farzandlarini xalq shuning uchun ham qahramon deya e‘zozlaydi, hech qachon unutmaydi. Bosqinchilarni esa jahon hamjamiyati doim qoralaydi. Chunki ayni adolatsiz urush tufayli millionlab kishilarning yostig‘i quriydi, ular vatanidan, tug‘ilib o‘sgan yurtidan, yaqinlaridan, uy-joyidan, xullas boridan judo bo‘ladi. Vatandan mosuvollik vatan hasratini maydonga keltiradi. Jahonning eng mashhur adiblari asarlarida urushga qarshi nafrat g‘oyat kuchli va mahorat bilan tasvirlangan. O‘qimishli o‘zbek kitobxonlari jahon va o‘zbek adiblarining bun-

day durdona asarlari bilan yaxshi tanish ekanini hisobga olib, bu yozuvchilarni nomma-nom sanab o‘tirishni ortiqcha deb hisoblayman. Qo‘lingizdagi to‘plamdan joy olgan hikoyalarda bosqinchilik urushi xalq boshiga yog‘dirgan behisob kulfatlar va buning oqibatida qahramonlar qalbida kechgan evrilishlar, bitmas hasratlar qalamga olingan. Hikoyalarni o‘qib, bunga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz, vatanidan, bor budidan ayrilgan qahramonlarning achchiq qismati sizni kuchli iztirobga ko‘madi, ularga qoshilib yig‘laysiz, sizda qardoshlaringizga nisbatan hamdardlik tuyg‘si uyg‘onadi, jigarlaringizning dardiga darmon bo‘lgingiz keladi. Adabiyotning kuchi ham shunda. Mazkur hikoyalar badiiy saviyasiga ko‘ra turlicha bo‘lishidan qat’iy nazar, ular, mohiyat e‘tibori bilan, sizni befarq qoldirmaydi, deb o‘ylayman.

Iqtidorli adiba Ganira Pashayevaning qahramoni eng buyuk mukofotlardan biri — “Turk dunyosiga xizmat” mukofotini olganida ham zarracha quvonmaydi. Mukofotlanganlar bu oqshomda g‘oyat mamnun va masrur, lekin uning qalbi iztiroblarga to‘la. Bu hol kitobxonni hayratga soladi va beixtiyor buning sababiga qiziqib qoladi. Hikoya davomida qahramonga Bokudagi 20-yanvar voqealari (o‘sha kuni sho‘ro qo‘shinlari Bokuda qatliom uyushtirgan), Qorabog‘ fojiasi bilan bog‘liq achchiq xotiralar orom bermayotgani, yuraklari bolaligidanoq tilka-pora bo‘lgani ma‘lum bo‘ladi. “O‘sha dahshatli manzaralar... Qonga belangan, jasadlar bilan to‘lgan maydonlar... Vahshiylarcha qilingan ishlardan lavhalar... Go‘yo ichimda nimadir chirt etib uzilgandek bo‘ldi. Yuragim tilka-pora bo‘lgani sari yuzimdagi tabassum, bolaligim, yoshligim erib, yo‘q bo‘lib ketayotgandek edi...” Hikoya so‘ngida qahramon bunday xulosa chiqaradi: “Shunda anglab yetdimki, qalbidan uzila-uzila ado bo‘lgan o‘sha “nimadir” — quvonch ekan...” Haqiqatan ham insonning sevina olmasligi, quvonchini yo‘qotishi katta fojia. Insonning mas‘ud bo‘lmog‘i uchun bunday fojialarni yuzaga keltirgan omillarni tag-tomiri bilan quritmoq kerak. Asardan chiqadigan ma‘no shu.

Bugungi Ozarbayjon adabiyotining iste‘dodli va umidli qalamkashlaridan bo‘lgan Akbar Qo‘shali “Hasrato‘g‘li yoxud uchar tobut”, Elchin Husaynbeyli “Quyoshda qamashgan ko‘zlar” va

Arslon Quliyev “Ko‘r jangchi” hikoyalarida o‘z g‘oyaviy niyatini ro‘yobga chiqarish uchun mubolag‘a yo‘lini tanlaganlar. Akbarning qahramoni asli qorabog‘lik Hasrato‘g‘li (ismga e‘tibor bering) Vatan hasrati ichida vafot etgach, uni Boku yaqinidagi “Qochoqlar qabristoni”ga dafn qilishlari lozim bo‘ladi. Ammo muayyan yo‘l bosib o‘tilgandan so‘ng tobutni yelkalab ketayotganlar ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi, biroq Hasrato‘g‘lining tobuti xuddi qanot chiqarganday ilgarilab ketaveradi. Tobutdan ancha orqada esa faryod ko‘tariladi: “Yaratgan Egam, jonini olgan bandang o‘z-o‘zini Qorabog‘ga olib ketyapti, uning yo‘lini o‘zing och, qabrini o‘zing qaz, bizni ham o‘zing mag‘firat ayla...”

Arslon Quliyevning “Ko‘r jangchi” hikoyasi qahramoni to‘rt muchasi sog‘ yigitlar jang maydonini tark etgan bir mahalda, so‘qirligiga qaramay, yog‘iylar bilan tengsiz jangda Vatan yo‘lida shahid bo‘ladi. Zotan, Vatanning har bir qarich tuprog‘i muqaddasdir, uni o‘zgaga berib qo‘yishni o‘ylashning o‘zi kechirilmas gunohdir. Dushman so‘raganida, beklarining e‘tiroziga qaramay, oltin-kumushini, tillarda doston otini, hatto, go‘zallikda tengi yo‘q qizini ham bergan, ammo giyoh ham o‘smaydigan qaqragan bir qarich tuproqni talab qilganida muqaddas urushga chiqqan Metexon (O‘g‘izxon)ni eslaylik. Bu jami turk ulusu uchun bir o‘rnakdir.

Elchinning tuzalmas dardga yo‘liqqan keksa qahramoni mayitini otalari ko‘milgan qabristonda dafn qilishlarini istaydi va dushman ishg‘oli ostidagi qishlog‘iga yo‘l oladi. Uning yov askarlari qo‘li ostidagi hududga borib, o‘sha yerda vafot etishi ham, Hasrato‘g‘li tobutining uchishi ham, ko‘r jangchining dushmanlarni qirishi ham, albatta, mubolag‘ali, lekin yozuvchilar o‘quvchini ishontira olganlar. Hikoyalarni o‘qib, kitobxon Vatan muhabbati har narsadan kuchli ekanini anglab yetadi.

Gunel Anar qizining “Otamga” asarini o‘qir ekansiz, oldin buni chet ellarga tashlab ketilgan, xor-zorlikka mahkum etilgan farzandning otasiga g‘am va ta‘na to‘la maktubi deb o‘ylaysiz. Farzandning maktubida shunday satrlar bor:

“Siz muhim ishlaringizni tashlab nega meni o‘ylashingiz, meni deb siqilishingiz kerak? Ishoning, kayfiyatingizni tushirib,

sizni xafa qilish niyatim ham yo‘q. Mayli, meni kechiring, lekin siqilyapman, ota! Ruhim iztirobda! Atrofimda hech kim yo‘q. Bit-tagina bo‘lsa ham tanish ko‘rmayapman. Har yerda, har qadamda faqat ular bor. Meni o‘zgartirish, o‘zlariga o‘xshatish uchun, so‘ng esa: “Qarang, buning badanida tug‘ma va bizga tegishli nishona bor” deyish uchun badanimga tamg‘a bosmoqchi bo‘lganlar bor! Ota, boshqa chidolmayman, bardoshim yetmaydi. Sukut saqlayapman. Barcha haqoratlarga, tahqirlarga chidab, sabr qilyapman, lekin asta-sekin so‘lib bormoqdaman”. Hikoya nihoyasida qo‘yilgan imzodan maktub yozayotgan o‘g‘ilning Qorabog‘ ekanini va u mushkul ahvolidan otasi – Ozarbayjonga shikoyat qilayotganini bilib, larzaga tushasiz.

Komron Nazirlining “Keksa go‘dak” hikoyasida Qorabog‘ qochqini bo‘lgan, o‘g‘ir sharoit ichida yashagan ayolning tibbiy yordam olish u yoqda tursin, og‘ir ahvolda yashagani, ilma-teshik chodirda bola tug‘ganini, chaqaloqning g‘am-g‘ussa sababli ona qornidayoq, tug‘ilmasidanoq qarib ketganini o‘qib dahshatga tushasiz.

Xullas, hikoyalarni o‘qib, ozarbayjonlarning vatanparvarlik, vatansevarlik tuyg‘ulariga oshno bo‘lasiz, chekayotgan azob-uqubatlariga qaramay tinchlik, sulh, haqiqat va adolat tarafdori ekanini teran anglab yetasiz. Do‘stingning g‘amiga sherik bo‘lsang, bu g‘am ikki barobar kamayadi, quvonchiga sherik bo‘lsang, quvonchi ikki barobar ko‘payadi, degan hikmatli so‘z bor. Biz ozarbayjon qardoshlarimiz dardiga hamisha sherikmiz va bu g‘amning ikki barobar emas, balki butunlay yo‘q bo‘lib ketishini, qalb jarohatlari bitishini, ularning tinchlik, huzur va quvonch ichida yashashini xohlaymiz.

Qo‘lingizdagi to‘plamda katta avlodga mansub va hozirgi kunda ham faol ijod qilayotgan Anar, Elchin, Firuz Mustafo kabi adiblar bilan birga o‘rta va kenja avlodga mansub yozuvchilar ijodidan ham namunalar berildi.

Boboxon Muhammad Sharif,

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

UMRDAN UZUN KECHA

Uyda gilar uygʻonmasin deya kalitni ohista buradi. Yaxshiyamki, eshik ichkaridan tambalanmagan ekan. Aks holda boʻsagʻada ancha kutgandan soʻng, xotining toʻngʻillagan ovozi ostida eshik ochilgan boʻlardi. Xotining zahil, norozi qiyofasi koʻz oldida dafʻatan jonlandi.

“Shuyam hayotmi, odamni yarim kechasi kallaxush qiladi. Odamlar hozir uch uyquni urib boʻldi”.

Odatda bunaqa iddaolarga eri javob qaytarmasdi. Biladi: bir ogʻiz gapirsa, xotini oʻn ogʻiz qilib qaytaradi. U ayoli bilan xolavachchasi Diloraning tugʻilgan kunida tanishgan. Tanishuvlari qanchalik oddiy kechgan boʻlsa, toʻylari ham xuddi oʻshanday oʻtdi. Oʻrtalarida nima bor edi? Sevgimi? Yoʻq, ularning sevishga, toʻgʻrirogʻi sevgisini sinovdan oʻtkazishga vaqti boʻlmagandi. Keyingi paytlarda ishdan kech qaytgani uchun xotiniga hisobot bermay qoʻygan. Xotini ham mingʻirlab-mingʻirlab yotogʻiga kirib ketadigan boʻldi. Devorda osilgan soat tungi uchni koʻrsatib turibdi.

Hozir kech qaytganining sababini aytganida xotini javrashi mumkin boʻlgan gaplarni xayolan ipga tizib koʻrdi:

“Voy-voyey! Keksalarga jon buncha shirin boʻlmasa? Kasal boʻlsa, borib yotsin! Ana, qizi bor yonida. “Tez yordam”ga sim qoqsin. Siz doʻxtirmassiz-ku, har qalay”. Shu soʻzlari qulogʻi ostida jaranglashi bilan Tavakkalning mushtlari tugildi.

Hamma mast uyquda. Kiyimlarini almashtirdi. Negaligini oʻzi ham oʻylab koʻrmadi. Axir odamlar “uch uyquni urib boʻldi”. Buning ustiga, ertangi byuro masalalarini koʻrib chiqishi kerak. Qahvarang pijamasini kiydi. Bu pijamani unga Kalkutta shahri meri sovgʻa qilgandi. Koʻz oldida 35–37 yoshlardagi xushbichim, xuddi taniqli aktrisalarga oʻxshab ketadigan hind ayoli jonlandi. “Pijamani kiyganingizda meni eslab yurarsiz!” degandi u oʻshanda.

Merning ismi Rani edi, yanglishmasa! Eri muhandis ekan. Agar sinfdoshi Salmon “zaporoj”ga mundir kiydirib qo‘ysa, xuddi o‘shaning o‘zi bo‘ladi. Er-xotinni yonma-yon ko‘rib, buvisining bir matali esiga tushgan: “Qovunning yaxshisini it yeydi!”

Yuragi yonayotganini his etdi. Muzlatgichni ochdi. Arab pivosidan tortib, fin sharoblarigacha terib qo‘yilgan edi. Negadir ko‘ngli hech nima tusamay, muzlatgich eshigini qayta yopdi.

Yotoqxonaga o‘tdi. Dahlizda ko‘zi telefonga tushdi, yana simini uzib qo‘yishibdi. Xotining odati shunaqa, soat sakkiz bo‘ldimi, darrov telefon simini uzib qo‘yadi. O‘zi bilmagan holda telefonni qayta tarmoqqa uladi. Xuddi shuni kutib turgandek, telefon “sayrab” qoldi.

Nega dastani ko‘tarmayapti? Nega joyida qotib qoldi? Telefon esa hamon jiringlardi. Bor kuchini to‘plab, dastakni qulog‘iga bosdi:

— Labbay...

Narigi tarafdin avvaliga tushuniksiz shovqin eshitildi.

— Aka, o‘zingizni qo‘lga oling! Lekin... tez yetib keling!

Yana qandaydir yig‘i tovushlari eshutilgandek bo‘ldi. Tavakkalning ichida nimadir chirt etib uzildi. Ikki qo‘li yoniga osilib tushdi. Dastak avval ma‘lumotlar kitobiga, keyin esa polga taraqlab tushdi. Yuragi to‘xtab qoldimi?.. Yo‘q, yuragi urishdan to‘xtagan odamlar tikka turolmaydilar. U esa haykaldek qotib turibdi. Oradan qancha vaqt o‘tganini o‘zi ham anglamadi. Balki bir daqiqa, balki bir soat, balki butun umr...

Hushini yig‘ib oldi. Hali hodisaning tub mohiyatiga yetib bormasdan, xotini yotgan xona tomon odimladi, keyin o‘g‘li va qizining xonalariga mo‘raladi. Ular ham mast uyquda edilar.

Keyin Chitada yurgan Ilg‘orni esladi. U tomonlarda hozir peshin bo‘lsa kerak! Ilg‘or bobosini juda yoqtirardi. Agar shu yerda bo‘lganida, Tavakkalning yarim yukini yelkalagan bo‘larmidi?

Ko‘cha eshikni ochib, tashqariga chiqdi. Tugmani bosishi bilan lift eshigi ochildi. Lift devoridagi ko‘zguda aksini ko‘rib, uy kiyimida chiqqanini payqadi. Negadir esiga Kalkuttaning meri emas, boya kiyim almashtirgani tushdi.

Bu paytda lift birinchi qavatda to‘xtagandi. Yana to‘qqizinchi qavat tugmasini bosganida, lift ham og‘ringandek g‘ichirlab, yuqorilay boshladi. Liftdan chiqib, kalitni olish uchun savqi tabiiy

holatda cho‘ntak kovladi. Jin ursin! Kalit ham uyda qolibdi. Ishqilib, eshik qulflanib qolmadimikin?

Yelkasi bilan eshikni ichkari itardi. Xayriyat, ochiq ekan. Ko‘ylagini almashtirib, pastga tushdi.

* * *

...U tanish yo‘llardan odimlab borardi. Sohil xiyoboni tungi chiroqlar nuriga g‘arq bo‘lgandi. Atrofda tirik jon ko‘rinmaydi. Ikki tomondagi anvoyi gullar ham sokin mudrayotgandek.

U odatda, har kuni ertalab soat yettida uydan chiqar, qirq-qirq besh daqiqa xiyobonni kezardi. Xizmat mashinasi uni xiyobonning narigi tarafida kutib turardi. Yaqinda shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘ining yaltoqlangani esiga tushdi:

“Har kuni ertalab siz yuradigan yo‘llarga suv sepib qo‘yaman. Ko‘chalarga yangi gul ko‘chatlari topib ektirdim!”

Tavakkalning ertalablar xiyobon aylanishini qanday bildiykin?

Soat sakkizlarda ishxonasiga yetib borardi. Sport zalida badan-tarbiya qilar, nonushtani yer, soat to‘qqizga yaqinlashganida kabinet eshigini ochardi. Mana, hozir ham o‘sha, ikki chetiga gullar ekilgan yo‘lkadan ketyapti. Xayolida bir necha yil avvalgi muloqot kechgani uchun go‘yo notanish yo‘lkadan ketib borayotganday edi. Yo‘l-yo‘lakay quyidagilar yodiga tushdi:

“Tavakkal, bolam! Anchadan beri Zangezurga bormadim. Juda sog‘indim-da, bir oborib kelsang!”

“O‘zingiz ko‘rgan-bilgan Zangezura-da, ota! Undan ko‘ra Kislovodskka yo‘llanma olib beray, borib dam olib keling!”

“Gorus darasidan tushayotganingda katta kashtan daraxti bor. Haliyam turganmikin?”

“Qo‘yib bersa, yantoq-shuvoqlarni ham so‘raysiz, ota!”

“O‘sha daraxtni men ekkanman, bolam! Minglab odamlar uning soyasida dam olib, otamga rahmat aytib ketgan. O‘sha daraxtning tagida bir chashma otilib turadi”.

“Uniyam siz ochganmisiz?”

“Yo‘q, avvaldan bor edi. Suvi ko‘z yoshidek tiniq, muz kabi sovuq. Bitta qo‘yni yeb, ustidan o‘sha chashmaning bir qultum suvini ichsang, yana qorning ochqaydi”.

“E ota, sizga o‘xshab, o‘z erkim o‘zimdandiki, yo‘llardagi chashma-yu kashtanlarni qidirib yursam!”

“Qidirsang nima qipti? Toshlar, qoyalar, buloqlar, daraxtlar... hammasi yo‘lingda-ku? Ular shoh-u gadoga barobar. Aytishlaricha, hozir yo‘llarni tuzatishibdi, ikki-uch soatda yetib borsa bo‘larmish...”

“Undan ko‘ra, Kislovodskka boring!”

O‘z ovozi o‘zi eshitib, ijirg‘andi. “Senga ham, amalingga ham tupurdim, — dedi o‘ziga o‘zi ovoz chiqarib. — Nahotki bir kungina vaqt ajrata olmading, otang uchun? Dam olish kuning yo‘qmidi? Ta‘til kunlari-chi? Bor, ana ish kuni bo‘lsayam, yarim kunda borib kelsang, ish to‘xtab qolarmidi? Birinchi o‘rinbosaring bajarib turardi o‘sha “olamshumul” ishlaringni? Loqaqal xizmat mashinangni jo‘natsang, haydovchining o‘zi ham eplardi-ku! Tupurdim sengayam, ishinggayam!”

Odamlari tezlasha boshladi. Otasi uning ishxonasi tarafga tez-tez o‘tib turishini xotirladi. Lekin binoning ichiga kirmasdi. Eshik oldidagi posbonlar temir panjara ihotasida qad rostlagan chiroyli bino atrofidagi parkda ishlaydigan qariyalar tanish bo‘lib qolgan, ular bilan tez-tez gurunglashardi. Keyin gap orasida o‘g‘lini surishtirar, ammo otasi ekanini aytmadi.

— U o‘zi yaxshi odammi? Fe‘li qanaqa? Odamlar bilan muomalasi qanaqa?

Garchi o‘zini xotirjam tutishga intilsa-da, xoh yaxshi gap eshitsin, xoh yomon, bari bir qizarib olardi.

Bir gal yoshgina, qorako‘z serjant yigit qariyadan so‘radi:

— Amaki, o‘rtoq Karimlini juda ko‘p so‘raysiz-da, qarindoshingizmi deyman?

— Yo‘q, hamyurtim bo‘ladi, — degandi o‘shanda qariya.

— Ha, ishqilib hozir shu yurtdoshingiz sizni ko‘rsa, salom berrarmikin?

— Salom deysiz-a, — gapga qo‘shilgandi farrosh ayol. — Sizni tanirmikin deng! Bir kuni huzuriga kiruvdim. “O‘rtoq boshliq”, dedim. “Ellik yildan beri qo‘limdan shu supurgi tushmaydi. O‘zim bir yerto‘lada yashayman. Belim shamollaganiga o‘ttiz yildan oshdi. O‘g‘limning yuragi kasal. Bir xonali bo‘lsayam, bitta uy olishga yordam bersangiz, hech bo‘lmasa, nevaralarim

tuzukroq uyda unib-o'ssin", dedim. "Xola, uy masalasi bilan biz emas, shahar kengashi shug'ullanadi", dedi. Koshki bilmasam ekan, bunaqa ishlar uning bitta imzosi bilan hal bo'lishini.

Qariyaning rangi o'zgardi. Indamay ortiga, o'g'lining uyiga qaytdi. O'zi keyingi paytlarda o'g'linikiga kamqatnov bo'lib qolgandi. O'g'lini kutib o'tirdi. Tavakkal, yarim kechasi kirib keldi. Otasi hamma gapni bir boshdan aytib berdi.

— Ota, nimalar qilib yuribsiz? Kimlardan men haqimda surishtirasiz? Nima keragi bor edi? Men ertaga ularning ko'ziga qanday qarayman?

— Rost gapni ana o'shalar aytishadi, bolam. Qadimgi podshohlar ham qalandar libosida yurib, xalqdan o'zlari haqidagi fikrlarni so'rab yurishgan.

“O'sha farrosh xotin uy oldimikin?”

Ayni chog'da Tavakkalning xayolidan ana shunday o'y kechdi.

O'sha hodisadan keyin ota o'g'lining ishxonasiga yaqinlashmadi. O'g'il ham yilda bir-ikki marta ota hovlisidan xabar olar, besh-o'n daqiqa otasi va singlisi Salbi bilan hamsuhbat bo'lar, keyin ortiga qaytardi. Oxirgi olti oyda otasining uyidan boshqa hamma joyda bo'lib qaytdi. Har-har zamonda telefonda yo'qlardi:

“Ota, Hindistonga ketyapman! Qaytishim bilan oldingizga boraman!”, “Ota, Italiyaga ketadigan bo'lib qoldim!”, “Ota, ertaga Indoneziyaga uchypman. Undan Avstraliyaga o'taman...”

Qaytishi bilan yana allaqanday majlislar, kengashlar, rasmiy uchrashuvlarning keti uzilmas, ular tugashi bilan samolyoti boshqa tarafga qarab uchardi.

“O'g'lim, dunyoning har burchagiga borishga vaqt topyapsan, faqat ota yurting Zangezurdan boshqa!” Bu otasi aytishi kerak bo'lgan, ammo aytmagan gap...

Bugun ertalab Salbi telefon qilgandi. Ovozi hayajonli edi.

— Aka, otamning toblari qochib qoldi.

— Doktor yuboraymi?

— Yo'q, shart emas, ishdan keyin vaqtingiz bo'lsa, kelib keting.

— Nega? Doktorning keragi yo'qmi?

— Mahallamizning do'xtiri bor-ku, o'shani chaqirdik.

— E, ular nimani bilishardi... Ha, mayli, boraman!

Keyin Sog‘liqni saqlash vaziriga sim qoqdi. Konsilium o‘tkazishdi. Peshin paytida vazirning o‘zi telefon qilib, umid yo‘qligini aytdi.

“Shu paytgacha yashaganining o‘zi mo‘jiza. Yurak shuncha kasallikni boshdan kechirib, yana urib turganiga hayronman!”

Vazirning aytishicha, uch-to‘rt oy ilgari murojaat qilinsa, asrab qolishning iloji bo‘larkan. Demak, otasi uch-to‘rt oydan beri og‘ir kasal ekan-da? Nega bir og‘iz aytishmadi?

Ishdan yana kech chiqdi. Haydovchisiga borar manzilni aytdi. Bu safar mashinani otasining uyidan ancha berida to‘xtatmadi, darvozaning oldigacha haydattirdi. Uni G‘affor amaki qarshi oldi. Yuzini tuk bosib ketganiga qaramay, hushyor edi. Xotini Sona xolaning aytishicha, qariyaning tobi qochganidan beri ichmayotgan emish, bemorning boshida o‘tirib, qiziq-qiziq hangomalar bilan uni ovutib o‘tirganmish. Ikki kundan beri taraddud ko‘ra boshlabdi...

Taraddud?.. Shundagina hovlining usti brezent bilan yopilgani, temir xarraklar keltirib qo‘yilganini ko‘rdi. To‘y-ma‘rakada ishlatiladigan qozon-o‘choqlarni ham keltirib qo‘yishibdi.

Otasi yotgan xonaga kirdi. Uy ikki xonadan iborat bo‘lib, ikkovining eshigi ham oshxona tomonga ochilardi. Otasiga “Yuring shaharga olib ketay, istasangiz men bilan yashang, istang boshqa shart-sharoit, yaxshi bir uy olib beray”, dedi. Otasi unamadi. “Bu uyda men ota-onam, oyingning isini tuyaman, shular meni odam qilib turibdi” derdi.

Otasi o‘zini bardam tutishga tirishardi:

— E o‘g‘lim, bu yorug‘ olamda anchagina yashab qo‘ydim. Sulaymon payg‘ambarga vafo qilmagan dunyoga biz ustun bo‘lar-midik? Sen ko‘pam o‘zingni oldirib qo‘yma. Bir-ikkita iltimosim bor, shularni esingdan chiqarmasang bas!

Otasi shu yerda ham o‘g‘lini ayadi. “Qil” demadi, “esingdan chiqarma” dedi, xolos. Bajarish-bajarmaslikni o‘zing bilasan, demoqchi-da!

Otasi o‘nglanishga urindi, ammo kuchi yetmadi. Salbi va Sonaning yordami bilan xiyol o‘nglanib oldi.

Qariyaning ko‘zlari shiftga termildi, og‘ir bir gapni aytmoqchi bo‘lgandek, chuqur nafas oldi:

— Meni... onangni yoniga qo‘y, bolam. O‘sha yerdan joy ajratib qo‘yganman. Bilasan...

Siyrak kipriklari orasidan yosh sizdi. Salbi uning yonoqlarini artib qo‘ydi.

— Men-ku yoshimni yashab bo‘ldim, — dedi qariya xirqirab. — Onang sho‘rlik tushdi esimga! — biroz nafasini rostlab, qiziga yuzlandi. — Salbi, choy damlab kel, bolam!

Qizi otasining niyatini tushundi. Demak, o‘g‘liga aytadigan biror gapi bo‘lsa kerak. Qizining qadam tovushlari uzoqlashgach, ota gap boshladi:

— Tavakkal, o‘g‘lim! Salbidan xabar olib tur! Faqat shundan ko‘nglim to‘lmayapti. Bechora qizim... Meni deb... Men uning baxtiga zomin bo‘ldim.

Albatta, bilardi Tavakkal. Hammasidan xabari bor edi.

Salbi otasini o‘ylab turmush qurmadi. Onasi vafot etgach, goh ilmiy ishini bahona qildi, goh yuragini... Sovchi yuborganlar ko‘p bo‘ldi. Hammasiga rad javobini berdi. Endi esa yoshi qirqqa qarab ketyapti.

— Qornini to‘yg‘iz, kiyim olib ber demayman. Xudoga shukurki, o‘z yukini o‘zi uddalaydi. Maoshi ham o‘ziga yetib ortadi. Faqat kelib-ketib, qo‘ng‘iroqlashib tursang, bas. Mendan keyin yakkalanib qolmasin, deyman.

“Yakkalanib qolmasin!” Tavakkal singlisining kelgusi hayotini ko‘z oldiga keltirib, biror yorug‘lik topa olmasdi. Oila qurib, bola-chaqali bo‘larmikin... Salbini olaman deguvchilar hozir ham topiladi. Aqlli, samimiy, chiroyli qiz. Yoshlik tarovatini yo‘qotganicha yo‘q.

Ammo, unga uylanadigan erkakning o‘zi qanaqa chiqadi? Salbiga munosib bo‘larmikin? Agar unga loyig‘i uchramasa, Tavakkal bir umr vijdon azobida yashashi tayin. Negaki, oilada katta farzand bo‘lishiga qaramay, shu oilaning asosiy tashvishini, keksa otaning zahmatini, bevaqt bu olamni tark etgan onaizorning ma‘raka-marosimlarini ham Salbining o‘zi yelkasiga olgandi. Yo‘q, u Tavakkal uchun singil emas, opa o‘rnini bosdi.

Tavakkal institutda o‘qib yurganida ham Salbi undan ko‘magini ayamadi. U o‘qishdan tashqari paytlarda uyda tikuvchilik

bilan shug'ullanardi. Tavakkal Moskvaga akademiyaga ketgani-da, Salbi institutga ishga kirdi. Shunda ham tikuv mashinasi to'xtamadi. Shu tariqa akasiga pul, sovg'a-salom yuborib turdi. Tavakkal yuqori lavozimlarni egallaganidan keyin ham Salbining sovg'a-salomlari uzilmadi. Bir qarasa, eron paypog'i, bir qarasa, fin sovuni... "Salbi, bularni qayerdan topasan?" deb so'rganida, u indamay bosh irg'ab qo'ya qolar, o'sha paytlarda o'ta kam-yob sanalgan bu mollarni sotib olish uchun soatlab magazinlarda navbatda turganini aytib o'tirmasdi.

Xo'sh, endi Salbining qismati ne kechadi? Tavakkalni bu og'ir lahzalarda hammadan ko'ra shu savol qiynardi.

Otasi esa xirillab, to'xtab-to'xtab so'zida davom etardi.

— Iloji boricha, — hansiradi ota, — ertaga... yuqoridagilarga xabar qilib o'tirma. — Keyin biroz jim qolib, buning iloji yo'qligini tushundimi, ilova qildi. — Agar juda imkoni bo'lmasa, juma oqshomi hammasi bir bo'lib, fotihaga kela qolsin. Otamning vasiyati shunaqa edi, deya qolasan...

Yana sukut...

— Menga uch kun aza tutsang, yetar. Payg'ambarimiz ham shunday deb marhamat qilgan ekanlar. Mayda-chuyda ishlarga aralashma. Hamma narsani G'afforga topshirganman.

"Topshirganman!" Otasi bu so'z ortida yana bir sirni yashirgandi: ma'raka xarajatlari ham oldindan tayyorlab qo'yilgan!

— Salbi, akangga choy damlab kel. Ishdan charchab kelgan.

Bu otaning oxirgi so'zlari edi. Salbi choy olib keldi. Ota jim. O'g'il jim. Choy sovib bo'ldi. Salbi yana issiq choy keltirdi. Keyin yana... Yana...

Hech kim gapirmas, hamma sukutning chinqirig'idan boshqa narsani eshitmasdi.

Oqshom shu tariqa erib borardi.

— Tavakkal ukam, bir daqiqaga mumkinmi?

G'affor akaning taklifi bilan Tavakkal tashqariga chiqdi.

— Siz ishingizga boravering! Qaytishda kirib o'tarsiz. Juda zarur bo'lib qolsangiz, o'zimiz telefon qilamiz.

Tavakkal biroz jim qoldi, keyin esa mashinasiga o'tirdi. Soatiga qaradi. O'n oltita kam ikki...

Xiyobonning narigi boshiga yetib keldi. Odatdagidek atrofiga alangladi. Jin ursin! Mashina chaqirgani yo‘q, buning ustiga ertalab emas, yarim kechasi bo‘lsa. Kecha bo‘lganda ham avvalgilari-ga o‘xshamaydigan, umuman boshqacha kecha. Mashina ushlash-ga to‘g‘ri keladi. Qo‘lini cho‘ntagiga suqdi. Pul olib chiqmabdi. O‘zi odatda unga pul kerak bo‘lmasdi. Telefon qilib, ishxona gara-jidan mashina chaqirmoqchi bo‘ldi. Avtomat telefon uchun yonida ikki tiyinlik tangasi ham yo‘q edi. Piyoda ketish esa... kamida bir yarim soat vaqtni oladi. Keyin majoli ham qolmagan, badani sovuqdan junjika boshladi. Sigaret chekkisi keldi. Sigareti yo‘q. Nima qilishni, qayoqqa borishni bilmasdi. Beixtiyor otasining bir necha bor aytgan so‘zlarini xotirladi:

— O‘g‘lim, erkak kishining yonida har doim puli bo‘lishi kerak. Kambag‘alimi, boymi, farqi yo‘q. Aslo pulsiz yurmaslik kerak. Bir kun pulga shunday ehtiyoj sezasanki, boshingdagi telpagingni ham sotishga majbur bo‘lasan, agar xaridor topolsang...

Otasi har doim yonida pul olib yurardi. Hatto, urush paytida, qattol ocharchilik yillarida ham cho‘ntagidan pul chiqararkan. Qa-yerdan, qanday topishini hech kim bilmas ekan.

Bittagina sigaret topilsa edi... Qanaqasidan bo‘lsa ham farqi yo‘q. Mashina signali eshitildi.

— Ha, og‘ayni, biror yordam kerak emasmi?

Tavakkal haydovchiga o‘girildi.

— Iye, Tavakkalmisan? Tanimadim, boy bo‘larkansan.

— Salmon!

Bu o‘sha Salmon “zaporoj” edi. O‘n yil birga o‘qishgandi. Shahar atrofidagi qishloqlarda quduq qazish bilan shug‘ullanardi. Bir marta Tavakkalning qabulxonasiga ham borgandi.

— Shaharda quduq qazimoqchiman. Shahar kengashi qo‘y-mayapti. Anavi Valiyev deganini bir qulog‘idan cho‘zib qo‘y, — degandi.

Valiyev shahar hokimligida bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlardi.

— Iye, shaharda quduqning nima keragi bor?

— Og‘ayni, quduqdan qanday suv chiqarishimni bilsang edi. Shahrimizning tagi bus-butun suv ekan, yaqinda o‘qib qoldim.

— Qiziq odamsan-da, nimalarni o‘ylab yurasan, — keyin soatiga qaragandi. — Narigi xonada majlisim bor. Bo‘pti, Salmon!

Shunday deb chiqib ketgandi.

Salmon bir-ikki daqiqa xonada yolg‘iz qolgandi. Telefonlarga tikilib, o‘zicha xayolga tolgandi: “O‘sha majlisini shu yerda qilsa bo‘lmasmikan? Xonaning kattaligini qaranglar! Tavakkal bitta o‘zi bu yerda zerikib ketmasmikin?”

Bir kuni Salmon Tavakkalning uyiga qidirib keldi.

— Mashina oldim. O‘rtoq! Shanba biror yoqqa boraylik. Mashinani yuvamiz.

— Qanaqa mashina? — so‘radi Tavakkalning xotini istehzo bilan.

— Zaporojets! Zo‘r mashina ekan.

O‘shanda Tavakkalning xotini o‘zini kulgidan to‘xtatolmagan-di. Salmon “zaporoj” degan laqabi ham o‘sha kundan qolgan.

Keyin Tavakkalning uyiga, ishxonasiga ko‘p martalab telefon qildi. Topa olmadi.

“Tavakkal, bolalaring bilan bir kelmaysanmi? Xashni ja yoqti-rarding. Bir maza qilib xash ichardik”.

“Tavakkal, qatiqli mantini rosa tushirarding, esingdami? Oyim bunaqa ovqatlarga ja usta. Yakshanba kuni kelishning iloji bormi?”

Yo‘q, Tavakkal xash ichishga ham, manti yeyishga ham bor-madi. Undan-da muhim ishlari bor edi. Har gal telefon qilganida, yo majlisga tayyorlanayotgan, yo safar tadorigini ko‘rayotgan bo‘-lardi...

— Ha, og‘ayni, yarim kechada qayoqqa?

— Otamnikiga.

— Bo‘ldi, yur ketdik.

“Zaporoj”ning torgina salonidan joy oldi.

— Axiyri shaharda ham quduq qazidim, — dedi u mashinani o‘t oldirarkan. — Butun Sartepa mahallasi yashnab ketdi. Ko‘z yoshidan ham tiniq suv chiqdi. Ichib to‘ymaysan. Ekin-tikinga ham yetib ortadi. Bu deyman, Valiyevni rosa ta‘zirini beribsan-da?

— Men Valiyevga hech narsa demagandim.

— Unaqada nega rozi bo‘ldi?

— Sendan qutulolmasligini bilgandir-da!

— Qo‘ysang-chi? Dimog‘idan qurt yog‘ayotgandi. Yoningga borganimni bilgan-da! Yana bir-ikki joydan quduq ochsam deb yuribman. Ariza berib qo‘ydim.

Tavakkal jim edi.

— Yarim kechasi qayerdan kelyapsan, deb so‘ramaysan ham.

— Sen so‘radingmi?

— Sen ishli odamsan. Bir shaharning tashvishi boshingda. Kechasi o‘n ikkida telefon qilsam ham uyda bo‘lmaysan. Ko‘pincha ishda ham bo‘lmaysan. Qayerlarda bo‘lasan?

— Ko‘chalarda! Salmon, sigareting bormi?

Salmon avval “Kosmos” chiqardi. Keyin biroz o‘ylab, cho‘n-tagiga soldi.

— Anavi yerni ko‘r, “Kent” bo‘lishi kerak.

— Yo‘q, beraver o‘shani.

Mashina saloni tutunga to‘ldi.

— Onamning mazasi yo‘q, Tavakkal, — dedi Salmon ovozi titrab. — Kasalxonadan kelyapman. Hozirgina uyquga ketdi. Bolalardan xabar olay, deb ketyapman. Kunduzlari Farangiz qarab o‘tiradi. Kechalari men.

Farangiz Salmonning xotini edi.

— Qaysi kasalxonada? Telefon qilib bir og‘iz...

— Rahmat, shart emas. Farrux bor-ku, sinfdoshimiz. Hozir o‘sha yerda bosh shifokor ekan.

Farruxni birinchi kurs paytida bir-ikki marta ko‘rgandi. O‘shandan beri aloqalari uzilgan.

— Ha, Farrux yuribdimi? Qalay?

— Kayfiyati a‘lo! Dimog‘i chog‘! Yaxshi hurmat qozonganga o‘xshaydi. Seni ko‘p gapiradi. Tunov kuni seni televizorda ko‘ribdi. Rosa qulog‘ingni qizitdik. Bilasanmi, nimani esladik. O‘shanda sak-kizinchi sinfda o‘qirdik. Sohilda Gular sening ko‘ylagingni bekitib qo‘ygandi. O‘g‘irlab ketishibdi, deb o‘yladik. Pul yig‘dik, senga shahardan yangi ko‘ylak olib kelmoqchi bo‘ldik. Men avtobus bekatiga ketayotganimda, Gular sumkasidan ko‘ylagingni chiqarib, bayroqdek hilpiratdi. “Pulni endi menga beringlar!” deb qichqirdi. Keyin o‘sha pulga do‘kondan mayda-chuyda oldik. Maza qilganmiz o‘shanda. Esingdami? Gular seni yoqtirardi. Nega unga uylanmading?

Gular bilan sevgi mojarolari yodida edi. Ammo, ko‘ylak voqeasini unutgan ekan.

— Gularni kecha kasalxonada ko‘rdim. Qaynanasi onam bilan bir palatada yotgan ekan. U Gularni og‘zidan bol tomib maqtaydi.

Chamasi Tavakkal hech narsani eshitmadi. Yana bitta sigaret yoqdi. Mashina keng yo‘ldan chapga, tor, ilonizi ko‘chaga burildi. Taajjub, Salmon haliyam ularning ko‘chasini unutmabdi-da! Axir bu ko‘chalarni hali tez-tez buzib, ta‘mirlashadi.

Salmon mashinasini ularning hovlisi oldida to‘xtatdi.

— Men ham tushaman, — dedi taklifni kutib o‘tirmay kalitni cho‘ntagiga solarkan. — Onam kasallanganidan beri otangdan xabar olmagandim. Sen kelding, endi uyg‘onib qolsa kerak.

Demak, Salmon bu yerga kelib-ketarkan-da! Tavakkal joyida qotib qolgandi. Salmon Tavakkal o‘tirgan tarafdand kelib, eshikni ochdi.

— Tush, kimni kutyapsan?

Tavakkal jim edi.

* * *

Darvoza ochiq edi. G‘affor amaki bilan taksichi Volod hovlida stol-stullarni joylashtirish bilan band edilar.

— Voy otam, — dedi Salmon boshini changallab. — Voy otam, nega menga bir og‘iz aytib qo‘ymadinglar?

— Rahmatlining joni hozirgina uzildi, — dedi taksichi Volod ohista.

— Salbiga aytuvdi, — pichirladi G‘affor amaki. — Bir farrosh xotonga uy to‘g‘rilab berar ekansan. Ismi esimdan chiqib qoldi. Kim bilsin, jon talvasasida alahsiradimi? Yo‘q, bu alahsirash emas, keksa otaning butun umri davomida o‘g‘lidan yagona iltimosi edi.

Tavakkal o‘zini tutolmasdan ho‘ngrab yubordi. O‘zini ichkariga urdi. Hamma jim, ichkaridan faqat Tavakkalning bo‘g‘iq yig‘isi eshitalardi, xolos.

Tong otay demasdi. Umrndan ham uzun edi, bu kecha...

BULBUL HAQIDA ERTAK

Tong otdi, kun chiqdi va bu kuni qo‘qqisdan ushbu billur chilchiroqning, ushbu tilla shamdonlarning, Tabriz ustalari yasagan ushbu kumush deraza panjaralarining yallig‘lari bosma qog‘ozga tomgan sariq siyoh kabi yoyilib ketdi, yoyildi-yu ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, ushbu gilamlarning, poyandozlarning lovlov yonib turgan ranglari, yostiqlar, ko‘rpachalar ustiga tikilgan, eshik-derazalarga osilgan chin shohisining, hind movutining jilolari, qiz-kelinchaklarning barmoqlarini, bilaklarini, bellarini, bo‘yinlarini, quloqlarini, yigitlar xanjarlarining qin va dastalarini bezagan la‘l-javohirlarning shu‘lalari yo‘qqa chiqdi, cho‘ri-kanizaklarining ichkin bir hazinlik bilan faqat uning uchun kuylagan qo‘shiqlari, uning uchun chalgan ud sadolari tinib qoldi, hamma tomonni chulg‘ab olgan bu bo‘z tuman asta-sekin yorishib, tiniqlashib bordi va bu yorug‘lik og‘ushida o‘sha kichkintoy, kimsasiz yetim bir bolakayning so‘lg‘in chehrasi namoyon bo‘ldi.

Mana, necha kundirki, u cho‘ri-kanizaklarning unga atab aytgan qo‘shiqlari nafasida, ular chalgan ud ohanglarida ushbu pinhona hazinlikni vujudining har bir hujayrasida his etib, qiz-kelinchaklarning ko‘zlari tubida cho‘kib yotgan qayg‘uni anglab, yigitlarning bir-biriga tikilgan nigohlaridan bo‘lg‘usi shiddatli ur-yiqitlarning uchqunlarini sezib turar edi.

Mana, necha kundirki, kimlardir hech toliqmasdan uning quloqlariga Dada Qo‘rqut tili bilan pichirlar edi: “Qiz-kelining chah-chah qilib kulmas bo‘ldimi, oq qo‘liga qizil xino qo‘ymas bo‘ldimi?”. Bu kimsalarning ushbu pichir-pichirlarida oshkora bir xursandchilik bor edi, go‘yo ular yillar bo‘yi o‘zlarini ezib kelgan hasad yukidan xalos bo‘lgan, yillar bo‘yi ushbu so‘zlarni aytish ishtiyoqi, aytish dardi oxiriga yetgan, endilikda ular tangrilariga shukrona aytar, yuraklari taskin topar, nuqul pichirlagani-pichirla-

gan edilar: “Oppoq sochli xotinlarning mo‘ldir-mo‘ldir yig‘lar bo‘ldi, g‘oz qomatli qiz-kelining ko‘z yoshini to‘kar bo‘ldi, achchiq tirnoq oq yuzlarga yo‘l-yo‘l izlar solar bo‘ldi, qizil yuzlar tilinar, qarg‘a kabi qora sochlar yulinar, oq liboslar yechilibon qora to‘nlar kiyilar, bo‘z otlarning quyruqlari kesilar, yigitlarning qora kiyib ko‘k bog‘lar, hovli-joyingni dod-faryod dog‘lar bo‘ldi”.

So‘ngra bu pichir-pichirlardagi ehtirosdan, zavq-shavqdan, harislikdan bu kimsalar uzundan uzoq yillar davomida asta-sekin dunyodan o‘tgan mol-dunyo egalari, tanish-bilishlari ekanligini tanidi, bu ochiq-ravshan sezilib turgan xursandchilik go‘yo unga, sening ham umring poyoniga yetdi, sen ham tamom bo‘lding, deb ta‘kidlayotgandek edi; bu kimsalarning qiyofasini ko‘z oldiga keltira olmas, basharalarini tasavvur qila bilmas, biroq hamma-hammasini tanib turardi; ulardan ko‘pchiligini bu talon-toroj qilgan, aksariyatining oltinlarini, la‘l-javohirlarini, cho‘ri-kanizaklarini, gulbadan qizlarini o‘ziniki qilib olgan, hammasini yiqqanicha yiqqan edi.

Mana, necha kundirki, unda dodimga imdod qil degulik bir kuch-quvvat, bir boshpana, bir madadkor yo‘q edi, hamma narsa tugab borar, qarshisida faqat bir bo‘shliq, tubsiz bir quduq turar va ushbu qop-qorong‘i quduqqa qulab tushishiga ozgina fursat qolganini butun vujudi bilan his qilib turardi, chunki bu dunyo xonlar xoni Bayandurga ham vafo qilmagan edi.

Bo‘y bo‘ylab, so‘y so‘ylab o‘g‘uznoma tuzgan Dada Qo‘rqut bunday degan edi: “Ular tag‘in bu dunyoga kelib ketdi. Karvon kabi qo‘nib ketdi. Ajal oldi, yer yashirdi, foniylar dunyo tag‘in qoldi... Kelimli-ketimli dunyo. Oxiri o‘limli dunyo”.

Mana, necha kundirki, u o‘lim to‘shagida yotar, buni hamma, shu jumladan uning o‘zi ham bilar, go‘yo yo‘l-yo‘lakay tunab ketayotgan bir qo‘noq edi u; bu hazilakam gap emas, yo‘q, bu keksalik degani edi, go‘yo u kech kuzga qolgan bir daraxt edi, vujudidagi sharbat tugagan, shoxlari, novdalari tirishib qolgan, go‘yo butun tanasi boshdan-oyoq qurib bitgan, tomchi ham suvi qolmagan bir og‘och edi, bu og‘och mana hozir to‘kilib tushgudek, bir qop kuchalaga aylangudek bir ahvolda edi.

Va qo‘qqisidan uning o‘lim taxtini hamma tomondan qurshab olgan bu sap-sariq oltin yallig‘lari, la‘l-javohir jilolari g‘oyib bo‘ldi, ular evaziga bir shaffoflik paydo bo‘ldi va ushbu shaffoflik, ushbu pokizalik, poklik ichidan o‘sha yetim bolakayning so‘lg‘in chehrasi qalqib chiqdi.

U parqu ko‘rpa-to‘shakda ko‘zlarini yumgancha uzanib yotar ekan, butun kuch-quvvatini, butun diqqat-e‘tiborini jamlab bu so‘lg‘in chehraga tikilar edi; yillar o‘tib, u Erondan tortib Turongacha dunyoning eng badavlat kishisi bo‘lishidan, xazinasining oltin-kumushlari botmonlab tortilishidan, yilqilariga ne-ne shahzodalar hasad bilan boqishidan, toy-toy shohi, ipak karvonlari Eron-u Turondan ayqirib, Mag‘rib sahrolaridan sakrab, Andalusgacha bo‘lgan el-yurtlarni o‘krab kezishidan, kemalari daryolarga to‘lqin solib suzishidan bu bolaning hali xabari yo‘q edi, albatta; oqni oq, qorani qora demasdan, goh halol, goh harom yo‘llar bilan, goho yaltoqlik, goho do‘q-po‘pisa qilib, goh kimningdir oyog‘iga yiqilib, goh kimningdir boshini dorga ilib, goh yolg‘ondan ko‘z yosh to‘kib, goh yolg‘ondan qah-qah chekib bir umr mol-dunyo to‘plashidan, o‘z dunyosini kim ko‘rsa lol-hayron qoladigan, hammani vahm-u dahshatga soladigan bir ertak dunyosiga aylantirishidan, va nihoyat, yillar o‘tib mana bundoq o‘zi bilan o‘zi yuzma-yuz qolishidan hali bu bolakayning xabari yo‘q edi, albatta.

U ko‘zlarini yumgancha bu so‘lg‘in chehraga sincha solib tikilar ekan, bu zaifgina vujud shunchalik kuch-qudratni, shunchalik ehtirosni, hech narsa to‘xtata olmagan, yo‘qdan endilikda olim-u ulamolari ham hisoblab oxiriga yeta olmaydigan bundoq mol-dunyoni yaratgan kuch-qudratni, ehtirosni qaydan oldi ekan, deb taajjubga tushar edi; so‘ngra u nega qo‘qqisidan o‘sha bolakayni eslab qolganiga hayron bo‘ldi; olis yillar to‘zonida u bolakay xotirasidan butunlay o‘chib ketgan, juda uzoq-uzoqlarda, tovush yetmas olisliklarda qolib ketgan edi-ku, axir; qandoq qilib u bundoq bir shaffoflik bunyod etdi, qandoq qilib u bu shaffoflik ichidan sirg‘alib chiqdi?

U bu so‘lg‘in chehraga zo‘r berib tikilar, zero, hozir dunyoda ularning ikkalasidan boshqa hech kim yo‘q edi; dunyoda faqat bir shaffoflik, tag‘in ko‘pdan beri unutilgan bir poklik, tozalik mav-

jud bo‘lib, bu poklik ichida faqat o‘sha so‘lg‘in chehra namoyon edi; va qo‘qqisdan unga bu shaffoflik suv shaffofligi bo‘lib, u so‘lg‘in chehra ham go‘yo suv ostidan boqib turgandek tuyuldi, uning sochlari suv ostida yoyilib yotar, ko‘zlari suv ichida qotib qolgandek edi, u yana shularni his etar ekan, birdaniga nafasi tiqilib qolgandek bo‘ldi, go‘yo u yangidan o‘n yilliklar, yigirma yilliklarning ustidan ortga sakrab o‘tib, tag‘in o‘sha so‘lg‘in chehrali bolakayga aylanib qolg‘an, go‘yo suvning ostida ko‘zlari bundoq qotib qolgan bolakay ham uning o‘zi edi; lekin bundoq bo‘lishi aslo mumkin emas, chunki Dada Qo‘rqut bundoq degan edi: “O‘lgan odam tirilmas. Chiqqan jon ortga qaytmas”, ushbu lahzada uning o‘zi o‘zligidan judo bo‘lib, o‘z ichidan sug‘urilib chiqib, xuddi havo kabi, vaznsiz bir holatda o‘z taxtining ustiga qo‘ndi va boshdan-oyoq o‘ziga tikildi: oppoq sochlari, oppoq soqollari uzayib ketgan, ko‘zlari yumilgan, ozg‘in basharasining qonsiz dudoqlari dir-dir titrab turgan bir qariyani ko‘rdi va uni ko‘rgan zahoti cho‘chib ketdi, bu qariyaning ahvolidan, uning ko‘karib ketgan aft-angoridan qo‘rqdi, bu qariya yashab o‘tgan uzundan uzoq, cheksiz yillardan dahshatga tushdi, xuddi shu soniyalarda go‘yo bu vaznsizlikni, bu havoni nimagadir parchinlab, mahkam siqib qo‘ydilar, chunki dunyodagi hamma narsa yo‘qqa chiqqan, faqat dunyoda mana shu oppoq sochlar, ko‘m-ko‘k bashara qolgan edi, xolos; uzundan uzoq yillar davomida yig‘ilgan, qo‘lga kiritilgan butun mol-dunyo, butun hoy-u hasham yo‘qqa chiqqan, butun dunyoda faqat mana shu qariya qolgan edi.

Tag‘in hamma tomonni shaffoflik qoplab oldi, lekin haligi bolakayning so‘lg‘in chehrasi bu shaffoflik og‘ushida erib yo‘q bo‘ldi, qariya endilikda bu shaffoflik og‘ushida boshqa nimaningdir namoyon bo‘lishini butun vujudi bilan his etdi, bu “nimadir” ko‘pdan unutilgan boshqa bir manzara bo‘lib, biroq uning nima ekanini qariyaning o‘zi ham bilmas, lekin ana shu nimadir” mavjud bo‘lib, u yana shu shaffoflik og‘ushida namoyon bo‘lishi, yillarning metinga do‘ngan qatlamlari orasidan, yillarning horg‘inligi ostidan, yillarning shiddat bilan kechishi, fursatning tangligi ostidan, hisob-kitoblar ostidan u albatta chiqib kelishi, bu shaffoflik og‘ushidan ko‘rinish berishi lozim edi.

So‘ngra uning yumuq ko‘zlari qarshisidagi shaffoflik zumrad bir yashillikka aylandi va qariya avvaliga zumrad shu‘lasi ushbu shaffoflikka qanday kirib bordi ekan deb hayron bo‘ldi, so‘ng bu yashillik zumrurad, feruza toshlarning yashilligi emas, bu huv o‘sha o‘rmonning moviyligi, o‘rmonning yashilligi ekanligini, bag‘ri to‘zal tog‘lardagi o‘sha o‘rmonga kun shu‘lalari tushganini va bu shu‘la ham o‘sha o‘rmonning shu‘lasi ekanini anglab yetdi.

U ana shu “nimanidir” xotirlar ekan, hamma tomonni qurshab olgan o‘rmon yashilligi og‘ushida bundan necha-necha yillar avvalgi sariq bulbulni ko‘rdi, uning xonishini eshitdi, eshitganda ham bulbulning o‘rmondagi xonishini emas, undan oldingi hazin, kadarli xonishini eshitdi.

Hozir qiz-kelinlari uning boshiga yig‘ilib, o‘g‘illari, kuyovlari uning taxtini qurshab turganini, cho‘ri-kanizaklar uning uchun qo‘shiq aytib, ud chalib o‘tirishganini bilar, biroq hech kimni ko‘rmas, hech narsani eshitmas, ko‘zlarining oldida faqat o‘sha o‘rmon yashilligi, bu o‘rmon yashilligi og‘ushidagi o‘sha sariq bulbul bor bo‘yi bilan namoyon bo‘lib turar, qariya ham faqatgina o‘sha sariq bulbulning xonishini, o‘rmondagi xonishini emas, undan oldingi hazin, kadarli xonishini eshitmoqda edi.

O‘shanda bahor bo‘lib, uning yangi qurdirgan bog‘ida boshdan oyoq gul-chechaklar ochilib yotar, bu yangi bog‘ning sohibi yosh bir savdogar — shuhrati kundan kunga yuksalib, davlati kundan kunga ortib borayotgan va bu shuhrat uchun, bu davlat uchun kechani kecha, kunduzni kunduz demay yelib-yugurgan, birini Habashistondan, birini Chindan, birini Hindistondan, birini esa Dajla sohillaridan olib kelgan go‘zallarning go‘zali bo‘lmish to‘rt xotinning xonasiga mundoq kirish uchun ham vaqti bo‘lmagan bu savdogar bir paytlar och-yalang‘och bir yetim bo‘lgani, bu yetim ochlik balosidan omon qolish uchun aqlga siqqan ishlarni ham, sig‘magan ishlarni ham qilgani, so‘ng o‘zini to‘xtata olmay qolgani, ko‘pni oz deb ko‘rgani, to‘ymoq nimaligini bilmay qolgani, buning ustiga bu dunyoda uning baxti chopib qolgani, zehni o‘tkir, farosatli bo‘lgani uchun rosa yig‘qanicha yig‘qani, qop-qop oltin to‘plagani, dunyoning eng yirik va eng toza olmoslari, zumradlari,

yoqtlari, feruzalari, marvaridlari bilan sopol xumlarni to'ldirgani va bu sopol xumlar sonini tobora ko'paytirish harisligini u dunyoning hamma narsasiga alishtirgani hech kimning xayoliga ham kelmas edi.

Sopol xumlarning ko'lkasi go'yo uning yumuq ko'zlari qarshisida namoyon bo'lib turgan o'sha o'rmon yashilligini, o'sha sariq bulbulning shu'lasini so'ndirmoqchi bo'ldi, biroq u butun kuchini to'plab, o'sha o'rmon yashilligiga soya tushgani qo'ymadi; tag'in dunyoda hech narsa va hech kim yo'q edi: na o'sha sopol xumlar, na o'sha harislik, na bir mol-davlati aldab olingan, ipdagi tasbeh donalaridek uzundan uzoq yillar zanjiriga tizilgan son-sanoqsiz kimsalarning oh-fig'onlari — hech narsa qolmagan, faqat bag'ri go'zal tog'lardagi o'sha o'rmonga kun tushib turar, tag'in bir bulbul bo'lib, bu bulbul o'rmondagi xonishini emas, undan oldingi nag'masini o'qir, o'qiganda ham juda kadarli, hazin bir ohangda o'qirdi, tag'in uning ko'z o'ngida sochlari, soqollari oppoq, yuzlari ko'karib ketgan bir qariya turar edi.

O'shanda bahor kelgan bo'lib, yangi bog' boshdan-oyoq gul-chechaklarga burkangan, bog'ning o'rtasidagi yetti joyiga quy-ma oltindan o'rnatilgan baliqlar og'zidan favvora otilib turgan oq marmar chorhovuz bu bog'ga dunyoning eng harir shabadasini olib kelar, mushk-anbarli bu chorhovuz suvlarining atri gul-chechaklar atri bilan qorishib yotar, anor, olcha, o'rik, shaftoli, olxo'ri daraxtlari qiyg'os gulga kirgan edi; ushbu mushk-anbarlarga, gul-chechaklar atriga belanib yotgan bahor kunlarining birida bog' yonidan bir darvish o'tib qoldi; bu darvish ko'tarib olgan oyboltaning hilolsimon temiriga bir sariq bulbul qo'nib o'tirar, darvish ipdek nozik temir zanjircha bilan bulbulning oyog'ini oybolta sopiga bog'lab olgan bo'lib, bu bulbul o'shanda dunyoning eng dardli-alamli nag'masini xonish qilib bormoqda edi.

Uning ko'zi oyog'i nozik zanjircha bilan bog'langan ushbu sariq bulbulga tushdi va hech narsa demasdan darvishning hind yong'og'idan qilingan kashkuliga birin-ketin o'n tilla tashladi-da, zanjirni uzib, bulbulni bog'ga olib bordi, oltindan kattakon bir qafas yasattirib, uni chorhovuzning eng so'lim joyiga ostirdi, bulbulni ushbu kattakon oltin qafasning ichiga solib, har kuni bir

sahar mardonda, bir kechqurun vaqt topib bu kattakon oltin qafas ichidagi bulbulni tomosha qilish uchun keladigan bo'ldi.

Sariq bulbul bu kattakon oltin qafas ichida, bu gul-chechaklarga burkanib yotgan bog'da, bu yetti favvorali salqinlik bahrasida, bu gul-chechaklar atri og'ushida erta-yu kech xonish qila boshladi, u shu qadar yonib-o'rtanib kuylar ediki, u kuylagan bu nag'malar erta-yu kech dunyoning dard-g'amlaridan xabar berar, bu mittigina vujud yon-atrofga shu qadar ko'p g'am, dard taratar ediki, go'yo bu bog'ning gul-chechaklari yozning jazirasidan, kuzning izg'iridan emas, bulbulning ushbu xonishlaridan sarg'ayib-so'lib borardi.

U sariq bulbul yolg'iz qolmasin deya yana boshqa bir bulbul toptirib qafasga soldi, lekin bu kor qilmadi, u qafasni yanada kattalashtirib, kengaytirdi, biroq bu ham kor qilmadi, oxiri kunlardan bir kuni shu tashvishini bir chetga tashlab, yilqisining eng oldi bo'lgan chavkar tulporini mindi-da, bog'ga choptirib kirdi, oltin qafasning og'zini ochib, sariq bulbulni qafasdan ozod etdi-da, chavkar tulporini bulbulning ortidan yeldira ketdi, endigina savdogarlikni boshlagan bir o'smir uni yolg'izlatib qo'ymay, u bilan yonma-yon ot choptirib borardi.

Sariq bulbul tog' oshib, daralardan o'tdi, daryolarda cho'milib, buloqlardan suv ichdi, yo'l bosdi, yo'l bosganda ham mo'l bosdi, oxiri bag'ri go'zal o'sha tog'lardagi bir o'rmonga yetib bordi, o'rmondagi bir bolud daraxti kavagidagi indan joy oldi; bu sariq bulbul shunchalik uzoq uchgan ediki, butunlay holdan toygan edi, ammo u boshini zo'rg'a ko'tarib o'rmonga boqdi, shu zahotiyoyq o'rmonga kun tushdi, o'rmonning yashil ranglari kun shu'lalari ostida ko'zni qamashtirib lov-lov yona boshladi va bulbul bor kuchini to'plab xonish qila ketdi.

Bag'ri go'zal ul tog'lardagi o'rmonda bulbul dunyoning eng yoniq nag'masini o'qidi, bu nag'ma dunyoning ezgu, go'zal ishlaridan xabar berdi, bu nag'ma guldand, chechakdan so'yladi, dunyoning ajoyib o'rmonlaridan, sof buloqlardan, tiniq daryolardan kuyladi; sariq bulbulning bu nag'masi yuraklarga sevinch, shodlik olib kirdi, bu nag'maga bag'ri g'o'zal tog'lar quloq soldi, ko'lkali

qoyalar, kaklikli ungurlar, shu'lali chamanlar quloq soldi va tag'in bu nag'maga o'smir savdogar bilan u quloq soldi.

U yuguraverib boshdan-oyoq ko'pikka botgan chavkar tulpor ustida o'tirganicha, ushbu keksa bolud daraxtiga boqqanicha, bu daraxt tepasidagi kichkina kavakka tikilganicha bulbulning nag'masiga quloq solar edi; u ushbu nag'ma bulbulning so'nggi nag'masi ekanini, sariq bulbulning o'zi ham buni his etib turganini anglar, bulbulning o'zi ham bu o'zining so'nggi nag'masi ekanligini anglagancha xonish etmoqda edi.

Va bulbulning ovozi tindi, nag'masi oxiriga yetdi.

O'rmonni sukunat qoplab oldi.

Bag'ri go'zal ul toklardagi o'rmonga cho'kkan bu sukunatni o'smir savdogar buzdi:

— Ahmoq bulbul, — dedi u. — Oltin qafasda, gul-chechaklar og'ushida to'yibgina yurgan eding, u joyni mensimading, bir daraxt kavagini undan avlo bilding, oxir-oqibat yuraging yorilib o'lib ketding.

U nigohini bolud kavagidagi indan uzib o'smir savdogarga tikildi, biroq hech narsa demadi.

So'ngra chavkar tulporini yeldirib o'rmondan chiqdi.

Bag'ri go'zal ul tog'lardagi o'rmon ortida qoldi.

So'ngra u o'rmon batamom yodidan chiqdi va u sariq bulbul batamom unut bo'ldi.

Kunlar, oylar, yillar o'tdi va bu uzundan uzoq yillar mobaynida o'sha o'rmon ham, o'sha bulbul ham hech qachon yodiga tushmadi.

Endi esa qo'qqisdan o'sha o'rmon yashilligi hamma tomonni chulg'ab oldi, biroq bu zumurrad yashillik og'ushida sariq bulbul o'rmondagi nag'masini emas, huv undan avvalgi nag'masini, dardli-alamli nag'masini xonish qilmoqda edi.

U ko'zlarini yumib olganicha har tomonni chulg'ab olgan bu o'rmon yashilligiga tikilar ekan, ushbu soniyalarda bulbul uning quloqlari ostida o'sha nag'masini xonish qilishini, dunyoning go'zal o'rmonlaridan, sof buloqlaridan, tiniq daryolaridan xabar berishini, dunyoning ezgu, xayrli ishlaridan so'ylashini istar, lekin sariq bulbul uning nigohlari qarshisidagi bu yashillik og'ushida

nuqul o‘zining dardli nag‘masini kuylamoqda edi, shunda u aslida bu nag‘ma uning o‘z ko‘ksidan otilib chiqayotgan nag‘ma, uning o‘zining so‘nggi nag‘masi ekanligini va bu so‘nggi nag‘ma hech qachon u o‘rmon nag‘masi bo‘la olmasligini anglab yetdi.

So‘ng har tomonni chulg‘ab olgan o‘rmon yashilligi g‘oyib bo‘ldi, bulbulning nag‘masi tinib qoldi, uning chor-atrofni tag‘in bir bo‘z rang qurshab oldi va bu bo‘z ranglar og‘ushida yana bir bor o‘ziga boshdan-oyoq razm solib chiqdi, tag‘in o‘sha oppoq sochlarni, oppoq soqolni, ko‘karib ketgan ozg‘in basharasini ko‘rdi, lekin bu daf‘a u cho‘chib ketmadi, chunki cho‘chish uchun vaqt qolmagan, ushbu qop-qorong‘i quduq uni o‘z tubiga tortib ketmoqda edi.

Uning soz tinglashga, Dada Qo‘rqut kalomlarini eshitishga mundoq vaqti ham bo‘lmagan, nuqul yugur-yugur bilan bo‘lib bunga fursat topa olmagan edi, ammo ushbu oxirgi nafasda unga Dada Qo‘rqut ovozi bilan xitob qilishdi; uni o‘zi hech qachon diydorini ko‘rmagan otasi chaqirmoqda edi: “O‘g‘lim, o‘g‘lim, hoy o‘g‘lim. Qarshidagi tog‘ning cho‘qqisi bo‘lgan o‘g‘lim. Kuchli belimga quvvat bo‘lgan jonim o‘g‘lim. Qorong‘i ko‘zlarimning oydini bo‘lgan o‘g‘lim”.

U o‘ziga boshdan-oyoq razm solib chiqdi va shunaqangi oppoq sochli, oppoq soqolli o‘g‘il ham bo‘lar ekanmi deya taajjublanish uchun majol topa oldi, xolos; va tag‘in bag‘ri go‘zal o‘sha tog‘lardagi o‘rmonda turgan o‘spirin savdogarni xotirlash va qolgan-qutgan butun kuchini, so‘nggi kuchini to‘plab o‘z-o‘ziga pichirlash uchun zo‘rg‘a imkon topdi: “Ahmoq o‘spirin”; so‘ng ushbu qop-qorong‘i quduq tubiga qulab tushdi va hammasi tugadi.

O‘N YILDAN SO‘NG...

So‘ngra yomg‘ir shivalay boshladi va u kuragini eski masjid devoriga tirab, kamzulining yoqasini ko‘tarib oldi; juda sigaret chekkisi keldi, biroq cho‘ntagidan sigaret olib tutatmadi — atigi ikki dona sigaret bor edi — ikki dona “Pomir” — bu sigaretlarni anavi yerda chekmoqchi edi; kamzuli ostidan kamariga qistirib,

yarmini shalvori ichiga tiqib olgan kitoblar — aslida bir dona kitob — “Geografiya”, ikkita umumiy daftar — qornini shu darajada siqib qo‘ygan ediki, zo‘rg‘a nafas olardi; kamarini biroz bo‘shatib qo‘ydi.

Qattiq shamol esar, shamol esganda bu yerda chidab turib bo‘lmasdi; unga hozir mo‘ylovli kishi boshini masjid minorasining qalin derazasidan chiqarib: “Ha, tag‘in bu yerlarda o‘ralashib yuribsanmi”, — deb o‘dag‘aylaydigandek tuyuldi. Bu ham o‘z navbatida: “Senga nima, ota-bobongdan qolgan mahallami bu?” — deb javob beradi; mo‘ylovli kishi unga, hozir pastga tushib onangni ko‘zingga ko‘rsataman, deb o‘shqiradi, bu ham, erkak bo‘lsang, tusha qol, deydi; mo‘ylovli kishi pastga tushmaydi, albatta, chunki ikkala oyog‘i ham yo‘q. Bir gal uni ko‘chada nogironlar aravachasida ketayotganini ko‘rib qolgan, mo‘ylovli kishining bundan xabari yo‘q, xabari bo‘lmagani yaxshi, yo‘qsa o‘ksib qoladi, o‘zi bir tentaknamo kishi bo‘lsa. Biroq bu gal mo‘ylovli kishi boshini masjid minorasining qalin derazasidan chiqarib pastga qaramadi.

Uch oy avval bu masjid poyabzal fabrikasiga aylantirilgan edi, oldinlari yaxshi edi — bu masjid tinch-sokingina kar va gunglar idorasi edi, so‘ng kar va gunglarni yangi binoga ko‘chirishdi, shekilli, o‘rniga bular kelishdi, manavi mo‘ylovli kishini ham farishta kabi osmonning yettinchi qavatiga — minoraga chiqarib qo‘yishdi.

Havo juda sovuq, bu yil hali hech bunaqangi sovuq bo‘lmagan edi, qor yog‘adi, shekilli; u paltosini Vovalarnikiga qoldirib kelgan edi; paltosi juda ko‘rkam bo‘lib, otasi bundan ikki oy avval Moskvadan olib kelgan edi, biroq u Sanobarning yoniga ushbu paltoda borishni istamasdi; hatto bir gal pul yig‘ib paxtalik kamzul sotib olmoqchi, hamisha Sanobarning yoniga borganida ana shu paxtalik kamzulini kiyib bormoqchi ham bo‘ldi, biroq keyinchalik bu fikridan voz kechdi — shunday qilganida g‘irt bolalik qilib qo‘ygan bo‘lardi.

Qishning qorong‘iligidan yomoni yo‘q, hali soat kechqurun besh bo‘lgani yo‘g‘-u, hamma yoqni zulmat qoplab olgan; mo‘ylovli kishi ham minoraning chirog‘ini yoqdi — qalin deraza go‘yo

minoraning dunyoga tikilib turgan yagona ko‘zi edi. Sanobarlar ham chirog‘ini yoqqan bo‘lishsa kerak — bu yerdan ko‘rinmaydi — ham derazalarining pardasi qalin, ham chiroqlari juda zaif. Sinfda ham chiroqlarni yoqqan bo‘lishsa kerak; bolalar hozir geografiya darsida o‘tirilshibdi: Isroil Solomonovich xaritaga orqa o‘girib, sinfga yuzma-yuz turganicha bolalarni bir-bir sinf taxtasiga chiqarib darsni so‘rayapti; kimki xaritadan qaysi joyni ko‘rsatsa — mana bu Kosta-Rika, bu Dardanel bo‘g‘ozi, bu yana allaqayer — Isroil Solomonovich yelkasiga ko‘z bitgan kabi hamma-hammasini ko‘rib turadi.

Isroil Solomonovich, shubhasiz, unga bitta gajakdor “ikki” bahosini yopishtirgan bo‘lar, so‘ng uni tuzatguncha ona suting og‘zingdan kelardi — lekin u “ikki” olishdan qo‘rqib qochmagan edi bu darsdan, kitob kamarining ostida bo‘lib, boshqa darslarda uni o‘qib olsa bo‘lar, chunki Isroil Solomonovichning darsi to‘rtinchi soat bo‘lib, u darsni bir o‘qishdayoq eslab qolardi; u Sanobar uchun qochgan edi darsdan, Sanobar uchun.

Ular birinchi darsdan so‘ng Vova bilan birgalikda qochdilar, Isroil Solomonovichning darsi bo‘ladigan bo‘lsa Vovaning vujudiga qaltiroq kirardi, bu Isroil Solomonovich deganlari naq azroyilning o‘zi bo‘lsa, Vova sho‘rlik nima qilsin — avvaliga Vovalarnikiga borishdi, bunday paytlarda ularnikida hech kim bo‘lmasdi, so‘ngra u paltosini o‘sha yerda yechib qo‘yib, tentiray-tentiray shu yerga kelib qoldi; Sanobarning onasi ham mundoq tezroq chiqib keta qolmaydi.

Sanobar uchun u bu yerda, yurakni siquvchi bu qorong‘ilikda, bu shamolda, bu qish izg‘irinida, bu bir ko‘zli minora ostida allazamondan beri turibdi, Sanobar uchun. Buni dunyoda hech kim bilmaydi, bir o‘zi biladi, bir Sanobar, boshqa hech kim bilmaydi, hech kimga aytgani yo‘q, aytmaydi ham. Avvallari hech gap yo‘q edi oralarida, bolalarga qizlar bilan yurishi haqida yuzlab yolg‘onlarni to‘qib tashlardi, endi esa hech kimga hech narsa demas, go‘yo buni boshqalar bilib qolsa, unga bu go‘yo o‘g‘rilikka o‘xshab tuyular, go‘yo ulardan — undan va Sanobardan nimanidir o‘g‘irlab oladigandek edilar.

Nihoyat, Sanobarning onasi eshikdan chiqdi.

U masjidning devoriga siqila-siqila biroz ilgari yurib, muyulishdan burilgach to‘xtab qoldi.

Sanobarning onasidan so‘ng yana bir kishi ham eshikdan chiqdi, ikkalasi ko‘chada suhbatlashgancha ketib borishardi.

U biroz kutib turdi-da, so‘ng muyulishdan burildi, qayroqtosh to‘shalgan ko‘chani kesib o‘tib Sanobarning ko‘cha eshigidan ichkari kirdi; yarim qavatgina yuqori ko‘tarilgan bu zinapoyalar, bu qarong‘i dahliz biroz chang-g‘ubor, biroz ohak hidi anqib turgan bu havo doimgidek uning ko‘ksiga bir iliqlik olib kirdi; barmog‘ini buklab dahlizdagi eshikni sekingina taqillatdi.

Ichkaridan Sanobarning ovozi eshtildi:

— Kiraver, eshikni qulflaganim yo‘q.

U eshikni itarib ichkari kirdi, so‘ng eshikning lo‘kidonini o‘tkazib, torgina dahlizdan xonaga kirib bordi.

Sanobar doimgi joyida — divanning bir burchagida har doimgi kabi cho‘kkalagancha lafsan yubkasi ustidan sonlariga tashlab olgan kattakon jun ro‘molning sochiqlarini nozik barmoqlari bilan o‘ynab o‘tirardi. O‘sha-o‘sha Sanobarning qarshisidagi taxta kursi ustida kerosin pilta zaifgina yonib turar, bu piltaning hidi va tafti butun xonani egallab olgan edi. U bu xona haqida o‘ylaganida na derazadagi bu qalin pardalar, na xona o‘rtasidagi bu chorkunj stol, na uniqib ketgan jigarrang charm qoplamali bu divan, na burchakdagi bu eski nemis radiopriyomnigi, na uch tavaqali ko‘zguning har uchala tomonidagi har xil fotosuratlar, na yerga to‘shalgan bu palos ko‘z oldiga kelar, ushbu xona haqida o‘ylar ekan, birinchi navbatda mana shu kerosin piltaning hidi va taftini his etardi; bu piltaning hidi va tafti uning besh oydan beri yurgida yashirib kelgan, hech kimga aytmagan va hech kimga aytmaydigan baxtiyorligining o‘ziga xos bir pardasi edi. Bir gal u “Baxt uyi”ning yonidan o‘tib ketayotganida nikoh libosidagi bir kelinchakka ko‘zi tushgan edi. Kelinchakning yuzida juda nafis oq harir parda bor edi. Mana bu kerosin piltaning hidi va harorati ham o‘sha parda kabi uning baxtiyorligining pardasi edi — o‘shanda u ana shunday xayolga borgan edi.

— Tag‘in muyulishda poylab turdingmi? — Sanobar bo‘ta-ko‘zlari bilan unga boshdan oyoq razm solib chiqdi.

Albatta, u har doimgidek, yo‘q, hozirgina keldim, deb javob qildi. Sanobar ham odatdagidek ayyorona kulib qo‘ydi. Sanobar ba‘zan uni yosh bolakay o‘rnida ko‘rib, kamsitmoqchi bo‘lib, goh uning yoshidan, goh maktabdan gap ochib qolar, goh esa shunaqangi xatti-harakatlar qilardiki, bu xatti-harakatlardan u pufakdek qizarib, shishib ketar, sichqonning ini ming tanga bo‘lib qolar, biroq har qancha achchig‘lanib, har qanchalik g‘azablansada, Sanobardan ranjimas, chunki undan ranjiy olmas, chunki Sanobar uni juda-juda sevishini yaxshi bilar, bu gaplarni esa Sanobar shunchaki uning jig‘iga tegish uchun aytardi.

Bu torgina xonada u o‘zini ich-ichdan haqiqiy erkak kabi his etar, darsda Isroil Solomonovichning mazammatlarini eshitib o‘tirar ekan, yaxshiki, bu mayda-chuyda gap-so‘zlar, bu maktab g‘avg‘olari, uylaridagi ta’na-dashnomlar, ukasi bilan urush-janjallari — hamma-hammasi bu torgina uydan tashqarida, degan xayollarga borardi. Sanobar tag‘in doimgidek qo‘llarini pilta ustiga cho‘zib o‘tga tutdi, so‘ng unga karab, kel, sen ham qo‘llaringni isitib ol, dedi. U piltaga yaqinlashib qo‘llarini o‘tga tutdi, piltaning harorati butun vujudiga yoyildi, so‘ng Sanobar uning qo‘llarini o‘z hovuchiga olib ezdi, uni o‘zi tomon tortib:

— Qani, bu yoqqa kel-chi, — dedi.

U har doimgi kabi palos ustiga tiz cho‘kdi, Sanobar uning boshini o‘z siynalariga qattiq bosib, qalin qora sochlarini siladi va yuzidan o‘pdi. U darhol boshini tortib olib o‘rnidan turib ketdi, chunki hamisha bunday paytlarda u negadir — negaligini o‘zi ham bilmaydi — bo‘shashib ketar va yig‘lab yubormasaydim deb cho‘chirdi.

Nimadir gap topish maqsadida u, boya onang bilan uydan chiqqan kishi kim edi, deb so‘radi. “Og‘a Husayn degan odam”, dedi Sanobar. “Og‘a Husayn kim”, deb so‘radi u. Sanobar, “uzoq qarindoshimiz bo‘ladi”, dedi...

— Nima ish qiladi?

— Tramvay haydaydi.

— Sizlarnikiga nega keladi?

— Men qaydan bilay, — deya Sanobar yelkalarini qisdi. — bu uchinchi marta kelishi.

U tag'in nimanidir so'ramoqchi bo'ldi, lekin so'ramadi — Og'a Husaynning nomi bu torgina xonadagi zaif elektr chirog'i bilan, bu piltaning hidi va harorati bilan, Sanobarning ushbu bo'tako'zlari bilan qovushmay turar, begona eshilar edi, shuning uchun ham u bu nomni boshqa tilga olmadi; hozir esa u divanda, Sanobarning yoniga o'tirishi, bir qo'lini uning yelkasiga tashlab, ikkinchi qo'lini sekingina Sanobarning astari quyon terisidan qilingan yengsiz kamzuli ustidan qizning siynasiga qo'yishi kerak edi, u to turib ketgunga qadar ikkalasi ana shu alpozda o'tirishardi.

U kamzulini yechib divanga o'tirmoqchi bo'ldi, biroq kitob-daftarlarini kamariga qistirib olgani yodiga tushdi, boya Vovalarnikiga paltosini yechib kelganida bu kitob-daftarlarni ham o'sha yerda qoldirish esiga kelmagan ekan; endi bu yerda ularni chiqarib bo'lmas.

Sanobar qo'qqisdan "Geografiya" kitobini ko'rib qolishi mumkin edi. "Geografiya" kitobida sakkizinchi sinf uchun darslik deb yozilgan, Sanobar esa uni to'qqizinchida o'qiydi deb o'ylardi. Aslida avvallari Sanobar uni o'ninchi sinfda o'qiydi deb bilardi.

Ular maktab hovlisida somsa olayotganda tanishib qolgan edilar. Sanobar 132-ozarbayjoncha maktabda, u esa 154-ruscha maktabda o'qir edi. Maktablari yonma-yon bo'lib, hovlisi ham bitta edi. O'shanda Sanobarning somsapazga berish uchun mayda puli yo'q, somsapazning ham Sanobarning bir manatiga berish uchun qaytimi yo'q ekan. U Sanobarga mayda pul bergan — chunki ikkalasi ham somsa olayotgan edi. Sanobar ham uch-to'rt kundan so'ng maktab hovlisida uni ko'rib qolib, qarzini qaytarib bergan edi.

Sanobarni go'zal deb bo'lmas, doimo nimdoshgina kiyinib yurardi. U o'shanda bu somsa olgan qiz bir kuni kelib uning ilk muhabbati bo'lishini xayoliga ham keltirmagan — endilikda u buning ilk muhabbatligiga, ilk buyuk muhabbati ekanligiga ishonar edi. To'g'ri, u bundan bir yarim yilcha avval bir qo'shni ayolni sevib qolgan bo'lib, o'zi uyda bo'lsa ham, qulog'i ayvonda edi: o'sha ayol ayvonga chiqib kir yoyayotganida dor ipini tortar, dorning g'ildiraklaridan g'irchillagan ovoz chiqar, sevgilisi ayvonda ekanligini bilib u shosha-pisha o'zini ayvonga urar va ayolga tikilib

o'tirar edi; lekin bu pars aста-sekin so'nib ketdi — chunki bu haqiqiy muhabbat emas edi — buni u keyinchalik anglab yetdi. Sanobarlarnikiga kelgan ilk kundan keyin. Avvallari ular shunchaki salomlashib yurishdi, so'ngra kunlardan bir kuni maktab hovlisidan birgalikda chiqishdi, nima uchundir u Sanobarni uyigacha kuzatib qo'ydi, Sanobar ham, uyimizda hech kim yo'q, deya uni o'z uyiga taklif qildi, u ham ichkari kirdi, qanday kirib qolganini o'zi ham bilmaydi.

Bu xonani ilk bora ana o'shanda ko'rgan, bu piltaning hidi va haroratini ham ana o'shanda his etgan, Sanobarning bo'tako'z ekanini ham ilk bora ana o'shanda sezgan edi. O'shanda Sanobar-ga u o'ninchi sinfda o'qiyman, o'n sakkiz yoshdaman, degan edi. Lekin keyinchalik Sanobar uning o'ninchi sinfda o'qimasligini tasodifan bilib qoldi, biroq uning sakkizinchi sinfda o'qishini ham bilmas, go'yo u to'qqizinchi sinfda o'qiydi, o'n yetti yoshga kirgan deb o'ylar, uning o'n olti yoshda ekanligidan xabari ham yo'q edi. Sanobarning o'zi o'n yetti yoshni to'ldirgan bo'lib, o'ninchi sinfda o'qir edi.

U hamisha Sanobar haqida o'ylaganida gunohkor kishi kabi yuragi uvishib ketar: Sanobar ertami-kechmi o'zining yoshi undan katta ekanini, u o'zidan ikki sinf quyida o'qishi haqida bilib olishini sezardi. To'g'ri, ertami-kechmi Sanobar buni bilib qoladi, lekin o'shanda buning hech qanday farqi qolmaydi, chunki o'shanda ular turmush qurgan bo'ladilar.

— Nega kamzulingni yechmayapsan?

Yechgim yo'q, birozdan so'ng ketaman, zarur ishim bor, dedi u. Bu gap qo'qqisidan uning og'zidan chiqib ketdi, aslida kechqurun to'qqizgacha shu yerda qolmoqchi edi, tush payti uydан chiqayotganida, bugun darsdan so'ng Vova bilan kinoga tushmoqchimiz, deya uydagilarni ogohlantirib ham qo'ygan edi.

— Nima ishing bor, oying bilan mehmonga borasanmi? — Sanobarning bo'tako'zlarida sho'x tabassum paydo bo'ldi.

U Sanobarning savoliga parvo ham qilmadi, chunki, aftidan, Sanobarning tag'in hazillashgisi, uni yerga urgisi kelar, u esa negadir bu oqshom boshqa oqshomlardan ham ko'ra ko'proq yumshalib qolgan, asabiylashishni istamas, umuman, negadir bu

oqshom unga boshqa oqshomlardan ko‘ra juda aziz tuyular, nega bunday ekanligini o‘zi ham bilmasdi.

U suhbat yo‘sinini o‘zgartirib:

— Og‘a Husayn nega sizlarnikiga keladi — deb so‘radi Og‘a Husayn tag‘in nega esiga tushganini o‘zi ham bilmay.

— Men qaydan bilay? — Sanobar har doimgi kabi pastki labini tishladi, go‘yo sovqotgan kabi junjikib ham qo‘ydi. — Onam unga erga tegmoqchi, shekilli.

— Onang erga tegar ekanmi?

— Shunaqa, shekilli.

Sanobarning onasidan boshqa hech kimi yo‘q edi. Onasi temiryo‘lda vagon kuzatuvchisi bo‘lib ishlar, goh ikki kun uyda, uch kun safarda, goh uch kun uyda, ikki kun safarda bo‘lardi. Bugun ham safarga ketgan bo‘lib, ertaga qaytishi kerak edi. Ikki kundan so‘ng yana ketar edi. U hech qachon Sanobarning onasini yaqindan ko‘rmagan, u bilan bir og‘iz ham gaplashmagan bo‘lsa-da, negadir uni yoqtirmas, nima uchun uni yoqtirmasligidan o‘zi ham hayron edi.

— Nega endi erga tegar ekan?

— Nega deganing nimasi? Erga tegish nima ekanini bilmaysanmi?

U erga tegish nima ekanini bilardi, albatta, uning yuragida pinhona bir qo‘rquv paydo bo‘ldi: Sanobarning onasi erga tegsa, ularning uchrashuvlari nima bo‘ladi? Nahotki u shu yerda, shu torgina xonada, ularning ushbu torgina xonasida qolsa?

— Qo‘rqma, o‘zining xarobasi bor, yangi binodan uy olgan. — Sanobar hamisha uning ko‘nglidan kechganini o‘qiy olardi. U hech qachon Sanobarga, sen menga yoqasan, seni yaxshi ko‘raman, deb aytmagan, bunday so‘zlardan uyalar edi, ammo Sanobar hamisha uning ko‘nglidan kechganini bilib turar, hamisha uning xayolidan kechgan fikrlarni aytar, hamisha uning yuragidagi gapni topa olar, u qanday suhbatni yoqtirmasligini, qanaqangi xatti-harakatni yaxshi ko‘rishini o‘sha zahotiyoyoq his etar, hatto ba‘zan shunaqasi bo‘lardiki, u biron-bir qo‘shiqni xayolidan o‘tkazsa, qo‘qqisidan Sanobar ham o‘sha qo‘shiqni nozik ovozi bilan xirgoyi qila boshlardi.

Sanobar, qo‘rqma, men bu xonadan hech qayoqqa ketmayman, degandek tag‘in uning qalin sochlarini silay boshladi, so‘ng unga xumor-xumor tikilib turdi-da, yana uning boshini o‘z siynasiga bosib, yuzlaridan o‘pdi.

U bir umr mana shu tarzda o‘tirishga, uyiga ham, maktabga ham bormay, o‘rtoqlarini ham unutilib, hech qayoqqa ketmay, hech narsa qilmay butun umr bo‘yi shu alpozda o‘tirishga rozi, faqat mana shu barmoqlar hamisha uning sochlarini tarasa, faqat u hamisha mana shu mittigina yurakning dukullashlarini eshitib tursa, faqat mana shu kerosin pilta hamisha mana shunday yonib tursa bo‘ldi edi; lekin u tag‘in boshini ortga tortdi, tag‘in yig‘lab yubormasaydim deb cho‘chidi, hamisha mana shunday o‘tirishganda uning yuragi o‘rtanib ketardi.

U qo‘lini Sanobarning yelkasiga tashladi. Sanobarning o‘zi uning ikkinchi qo‘lidan ushlab astari quyvon terisidan qilingan yengsiz kamzuli ustidan siynasiga qo‘ydi.

Hamisha qo‘li Sanobarning siynasiga teginishi bilanoq yuragi dukullab ketar, yutinib qo‘yar, tomog‘i qurib qolar, qo‘llari, butun vujudi titroqqa tushar, Sanobar ham buni his etib jilmayib qo‘yar, Sanobarning bu tabassumini u muhabbat deb o‘ylardi.

So‘ngra Sanobarning o‘zi uning har ikki qo‘lini kamzuli ustidan o‘z siynalariga bosib bor kuchi bilan siqdi, keyin uning yuzlarini o‘ziga qaratib, lablaridan o‘pmoqchi bo‘ldi. U Sanobarning qo‘llari orasidan boshini tortib oldi — u ko‘pincha ana shunaqangi narsalardan qattiq uyalar edi.

— Xudo haqi, bolasan, xuddi yosh bolaning o‘zisan, bilmayman sening nimangni yoqtirib qolganman? — Sanobarning bo‘tako‘zlariga tabassum yoyildi. — Qaddi-qomatingni, jinniligingni yoqtirib qolgandirman-da.

U hech narsa demay yuzini Sanobarning yelkasiga bosdi. U hozir yuzlari lov-lov yonib ketayotganini bilar va buni Sanobar ko‘rishini istamasdi. Birozdan so‘ng vujudidagi bu titroq o‘tib ketishini, Sanobar yuragining bir maromidagi ohangi uni orzular olamiga boshlab borishini yaxshi bilardi.

Bu orzular olami ushbu torgina xonadan — ularning xonasidan, ushbu torgina xonadagi pilta hidi va haroratidan, bu pilta

hidi va haroratini butun vujudi bilan his etadigan Sanobar va uning o'zidan iborat edi; bu juda kichkina bir olam bo'lsa-da, lekin shunchaki arzimas kichik olam emas, ularning kichkina olami edi.

U Sanobar haqida boshqa ayollar borasida o'ylagani kabi xayollarga borishni istamasdi. U hech qachon Sanobarni yalang'och holda ko'rish uchun jahd etmagan edi. U yalang'och qizlar ko'rsatiladigan kinolarga uch-to'rt marta tushgan bo'lsa-da, Sanobarni yalang'och ko'rishni istamasdi. Ba'zan kechalari tushida Sanobarni yalang'och holida ko'rib qolar, shunda darhol uyg'onib ketib, qizning yalang'och vujudini tezda yodidan chiqarish uchun futbol haqida, kelajakda yozmoqchi bo'lgan ssenariylari, suratga olmoqchi bo'lgan filmlari haqida o'ylay boshlar, shu tariqa anchadan so'ng qayta uyquga ketardi. Agar shunday bo'lmasa, Sanobar uning boshini o'z to'shlariga qattiq siqar ekan, yuragi o'rtanmay qo'yishini u savqi tabiiysi bilan his etar edi. To'g'ri, u bunaqangi o'rtanishidan cho'chir, Sanobar uning bu holini ko'rib: "Xudo haqi, yosh bolaga o'xshaysan!" — deya kulishidan qo'rqar, biroq yuragining teran-teranliklaridan — shu qadar teranlikdanki, buni oshkor etishga yuragi betlamasdi — bu garchi yosh bolalik bo'lsa-da, aslida ushbu o'rtanish onlari uning uchun hayot ekani, tiriklik ekanini his etardi. Sanobar ham buni yaxshi bilar va shuning uchun ham ba'zan shaytoni qo'ziganda uni jig'ibiyron qilib yuborardi.

— Bolasan hali, yosh bolaning o'zginasisan! O'n yetti yoshga kirganing yolg'on! Bu mumkin emas, gavdang katta bo'lsa ham, nari borsa o'n to'rt yoshdasan. Yuzimga tuk chiqsin deb har kuni yolg'ondakamiga soqol olasan.

— Yo'q, endigina o'n ikkiga kirdim. — U o'n yettiga kirganligi to'g'ri chiqsin uchun hamisha shunaqa deb javob qilardi, bu gal ham shunday dedi, lekin asta-sekin jahli chiqa boshlaganini his etdi. Jahli chiqishiga yana bir sabab Og'a Husaynning nomi tag'in esiga tushib ketgani edi; u qo'lini astari quyon terisidan qilingan yengsiz kamzuldanda tortib oldi. — Endigina o'n birga kirdim.

— Bo'пти, bo'пти, doim jahling burningning uchida turadi. — Sanobar uning burnidan tutib tortdi, shu qadar ishva bilan tortdiki,

uning yuzidagi qizillik yo'qolib, asli holiga qaytdi. — Chindan ham otang katta odammi?

Qayerdandir Sanobarning miyasiga, uning otasi katta odam, idorasiga ham mashinada kelib-ketadi, degan fikr o'rnashib qolgan edi.

— Odamga o'xshagan odam-da... — U har qancha urinsa ham boshqacha javob topolmasdi; bir safar otasi haqida juda ta'sirli, fojiali bir voqeani uydirmoqchi ham bo'ldi, biroq aytmadi, chunki Sanobarga o'z yoshi va nechanchi sinfga o'qishidan boshqa yolg'on gap aytishni istamasdi; otasi teatrda rejissor bo'lib ishlar-di, ammo Sanobar otamning rejissor ekanini bilsa, bundan kuladi, men ham uning nazaridan qolaman, deb o'ylar, nega bunday deb o'ylashini o'zi ham bilmasdi.

— Agar katta odam bo'lsa, nega senga palto olib bermaydi?

U ko'pincha ana shunaqangi so'zlardan xafa bo'lar, chunki bunday so'zlardan so'ng u o'zining bu torgina xonada haqiqiy erkak kabi his eta olmas, hamisha bunday so'zlarni eshitgach darhol chiqib ketar, anchagacha o'zini vaqtida tug'ilmagan, vaqtida hayotga kelmagan deb hisoblab yurar, hech kim meni tushunmaydi, hamma menga begona degan xayollarga borar, o'zini fojiali bir tanholikda his etar, biroq vaqt o'tib tag'in shu piltaning hidi dimog'iga urilar, tag'in shu pilta haroratini sog'inardi. Tag'in Sanobarning bo'tako'zlariga tikilar, o'z kafti ostida uning nozik qovurg'alarini his etarkan, yaxshiki, dunyoda mana shu torgina xona bor, yaxshiki, dunyoda man shu kerosin pilta bor, yaxshiki dunyoda Sanobar bor, uning bo'tako'zlari bor, deya chuqur xo'rsinib qo'yardi.

— Men ketdim.

Sanobar divandan turib uning qo'llariga yopishdi.

— Birpas o'tir. Yana jinday o'tira qol.

U aytgan so'zidan qaytmas, har holda, o'zi o'zini shundoq deb bilardi.

— Zarur ishim bor.

— Birpas o'tirsang nima qipti Xudo haqi, boshqa hech narsa demayman. Tag'in jinday o'tira qol.

U egilib palos ustiga sirg'alib tushgan kattakon shol ro'molni olar ekan, chindan ham yana biroz o'tirishi lozimligini his etdi, chunki Sanobar xuddi yosh boladek yolvorib turardi; u juda hayron qoldi, chunki Sanobar hech qachon bunaqangi yosh boladek yolvormagan edi, agar hozir chiqib ketsa, Sanobar ushbu torgina xonada yetim qoladigandek tuyuldi unga.

U divanga o'tirdi.

— Sen mening yolg'izimsan, sendan boshqa hech kimim yo'q, sen mening yakka-yu yagonamsan, — Sanobar uning yonida cho'kkalab o'tirdi va pinjiga kirib bo'ynidan quchdi.

— Bo'pti, bas qil. — U tag'in o'zini haqiqiy erkak deb his etmoqda edi.

Sanobar unga yanada qattiqroq suqildi. Bugun negadir u boshqacharoq, go'yo kimsasiz, ojizona bir ahvolda edi. Qo'qqisidan u o'zini xuddiki Sanobarning hayotdagi yagona ma'naviy tayanchi kabi his etdi va uning sochlaridan o'pdi. Qiz sochlarining hidi hamisha uni mast etar, u ushbu hiddan o'zini olib qochar, chunki bunday daqiqalarda u dunyoning eng ko'ngilchan kishisiga aylanib qolar, buni o'zi ham bilar, lekin qo'lidan hech narsa kelmasdi.

Cho'ntagidagi sigaretlardan birini chiqarib piltatomon egilganicha tutatdi — bu xonada sigaretni doimo ana shunday tutatardi. Aslida sigaret chekishni yoqtirmas, hech qachon bundoqtuzukroq kashanda bo'la olmasligini bilar, biroq bu torgina xonada ba'zan shunday vaziyatlar yuzaga kelardiki, bunday paytlarda u nima deyishini, nima qilishini bilmay qolar va ana shunda alamini sigaretdan olardi.

Sanobar bugun chindan ham juda g'alati bo'lib qolgan, gohundan nari surilib, uni ilk bor ko'rib turgan kabi mo'ltirab tikilar, so'ng tag'in uning pinjiga suqilardi. U esa bu boqishlar ostidago'yo o'zini Sanobarning vasiysi kabi his etar, qizga qandaydir balandparvoz so'zlar aytmoqchi bo'lar, ammo nima deyishini bilmasdi.

Sanobarning sochlaridan tag'in o'pib qo'yar ekan:

— Turmush qurganimizdan so'ng hamisha bu xonada birga bo'lamiz, — dedi.

U chindanam shunday deb o‘ylar va bunga ishonar, hozirdanoq o‘z uylarida o‘zini mehmon deb hisoblay boshlagan edi. U bolalik paytlaridanoq kinorejissor bo‘lishni orzu qilar, maktabni tugatgach Moskvaga borib kinematografiya institutiga kirmoqchi edi, biroq endi maktabni tugatgandan so‘ng Moskvaga ketish fikridan voz kechgan, Bokuda qolmoqchi, uydan chiqib ketib biror joyda ishlamoqchi edi; balki shofyorlik qilar, chunki mashina haydashni biladi, so‘ng uylanadi va mana shu xonada yashay boshlaydi. Avvallari faqat bir narsa — biz turmush qurganimizdan keyin Sanobarning onasi qayerda yashaydi, degan fikr uni qattiq tashvishga solardi. U ushbu xonada faqat ikkalovlari — Sanobar va o‘zi yashashni istardi, boshqa hech kim. Sanobarning onasi ham ana shu “boshqalar” sirasiga kirardi. Mana, endilikda Sanobarning onasi o‘z uyidan o‘z oyog‘i bilan chiqib ketmoqda, Og‘a Husaynga erga tegmoqda — mayli-da, har kim hushiga kelganini qiladi.

— Xonadagi hech narsaga tegmaymiz, hammasi qanday bo‘lsa shundayligicha qoladi.

Qo‘qqisidan Sanobar o‘zini ortga tashladi va u hech qachon guvohi bo‘lmagan bir nafrat bilan qichqirib yubordi:

— Xudo ko‘tarsin bu xonani! Yomon ko‘raman bu xonani! Bezib ketganman bu xonadan. Tupurdim har bir toshiga bu xonaning!

U hayrat bilan Sanobarga tikilar, Sanobar esa uning bu hayratiga e‘tibor ham bermasdi. U Sanobarning bu torgina xonadan — ularning xonasidan — bu qadar nafratlanishini tasavvur ham qilmagan edi. Axir, nega, nima uchun — u Sanobarga bag‘rini pora-pora qilayotgan bu savolni berishni ep ko‘rmadi, negadir unga rahmi keldi, sababini o‘zi ham bilmagan holda yana Sanobarning sochlaridan o‘pmoqchi bo‘ldi, biroq Sanobar boshini ortga tashladi:

— Tegma menga! Qo‘yib yubor meni — dedi. — Onamdan kamida o‘n yosh kichik! Men nima qilay? Chiqib ketishadi, kayf-safo qilishadi. Xo‘sh, men nima qilay? Bu to‘rt devor ichida qolib nima qilay?

Sanobar nima deyapti o‘zi, bu xonada qolib nima qilay degani nimasi, axir u bor-ku!

U yuragining eng teran-teranliklarigacha o'zining tahqir etilganini, bunga chidash mumkin emasligini darhol his etdi; o'rnidan turib chiqib ketdi. Sanobar ustidan sovuq suv quyilgandek darhol tinchlandi, uning ortidan otilganicha, “ketma, boshqa hech narsa demayman, yolg'on aytdim, shunchaki bilmasdan aytib yubordim, ketma, men yolg'iz qolishni istamayman, istamayman bu yerda toq-tanho qolishni, ketma”, dedi.

U shosha-pisha dahlizdan o'tib tashqari chiqdi-da, darhol ortidan eshikni yopdi, tag'in chiday olmay, yana bu yerda qolib ketishidan qo'rqdi; sigaretini uloqtirib yuborib, zinapoyalardan yugurgancha pastga tushdi.

Tashqarida ho'l qor yog'ardi. Uning tagcharmi kauchukli poyabzali qayroq yo'lda toyilib ketib, qulab tushishiga bir baxya qoldi, biroq chekkadagi yo'lkaga chiqishni xayoliga ham keltirmas — bunday g'azablangan paytlarida doimo qayroq to'shalgan bu ko'chaning qoq o'rtasidan ketar, bu xuddi kinolarga o'xshash bir vaziyat bo'lib, u o'zini go'yo ekrandagi kabi his etardi.

Bu gal ham tag'in hayotning bevafoqligi haqida o'y surib borar, o'zini hech kim tushunmagani uchun yurak-bag'ri o't bo'lib yonmoqda edi.

Qo'llarini shimining cho'ntagiga tiqqancha ko'chaning o'rtasidan bosh egib ketar ekan, tag'in kerosin piltaning hidi va haroratini his etdi, ammo bu tuyg'u uni har doimgi kabi darhol o'z domiga tortib ketmadi — u Sanobarning boyagi so'zlaridan keyin qattiq dovdirab qolgan edi: “Men bu to'rt devor ichida qolib nima qilaman?” Xo'sh, u-chi? Sanobarga u kifoya emasmi?

U tag'in baxtsiz taqdiri haqida o'ylay boshladi. Sovuq esa vujudini xanjar kabi tilar edi.

Ortidan bir mashina qattiq signal berdi, haydovchi derazadan boshini chiqarib, “nega ko'chaning o'rtasiga tushib olding, joningdan to'ydingmi”, deb baqirdi. U jon holatda yo'lakka sakrab o'tdi, haydovchiga javob bergani ham majoli yo'q edi — mashina o'tib ketdi va bu mashina qo'qqisidan uning badbin fikrlarini tarqatib yubordi, u hozir tag'in ortga qaytib, Sanobarnikiga borishdan, pilta oldida cho'kkalab o'tirgan Sanobar tag'in bo'tako'zlarini unga

tikkanicha: “Ha, nima bo‘ldi, chiqib ketgan eding-ku?” deya kulishidan qo‘rqdi.

U paltosini olish uchun Vovalarnikiga ketib borar, biroq paltosini olgisi kelmayotganini o‘zi ham his etib turar, chunki Sanobar anavi torgina xonada yakka-yu yolg‘iz qolgan edi; u Sanobarni hech qachon bu ahvolda ko‘rmagan, Sanobarning ushbu nozikkina jussasiga shu qadar nafrat sig‘a olishini hech qachon tasavvur ham qilmagan edi; nega, nima uchun axir u bu torgina xonadan — ularning har ikkisinining xonasidan — bu qadar nafratlanadi? Demak, mana shu o‘tgan besh oy mobaynida Sanobar undan pinhona bu torgina xonadan — ularning xonasidan — nafratlanib kelgan ekan-da... Hozir u kerosin piltada oldida yolg‘iz o‘tiribdi, har doimgi kabi divan ustiga cho‘k tushib olgan, tizzasining ustida shol ro‘mol, ko‘zlarini piltaga tikkànicha ushbu shol ro‘molning sochiqlarini o‘ynab o‘tiribdi; yuzi oqarib ketgan, g‘azabdan lablari titrayapti, hammasiga mana shu torgina xona sabab — nega, nega, axir?

U bir necha daqiqadan so‘ng yana Sanobarlarnikiga qaytib borishini angladi, Sanobarning, ojiz, kimsasiz bir ahvolda qolgan Sanobarning kerosin piltada oldida bundoq toq-tanho o‘tirishiga chidab bo‘lmasdi.

Vovalarning uyi karamel fabrikasining yonida bo‘lib, bu mahalladan hamisha qiyom hidi anqib turardi. Bu qiyom hidi negadir uning yodiga fojiali filmlarni solib yuborar, bunday paytlarda u o‘zini ich-ichdan boy, badavlat bir kishi deb his etar, chunki uning hammadan yashirin torgina xonasi, bu xonada Sanobar, Sanobarning goh kulib, goh ma’yus tortib qoladigan bo‘tako‘zlari bor edi.

U hech qachon och qolmagan, hech bir tor-u tanglik chekman, hech qanday fojiaga uchramagan bo‘lsa-da, o‘zicha bularning hammasini ko‘rgandek his etar, go‘yo ochlikni ham, fojialarni ham boshidan o‘tkazgan, och-yalang‘och odamlarning ahvolini juda yaxshi bilar — har holda, o‘zi shundoq deb hisoblar edi. Goh-gohida o‘zini turli-tuman fojialarni ko‘rgan kishi sifatida tasavvur etar va bunday paytlarda o‘zining yagona ma’naviy boshpanasi — hammadan pinhona bir torgina xonasi va bu xonada Sanobar borligidan g‘ururlanib qo‘yardi.

Tag'in kaftlari ostida Sanobarning nozik qovurg'alarini, uning yurak urishlarini his etdi...

Eski masjid minorasidagi chiroq o'chgan, aftidan, mo'ylovli kishi ham pastga tushgan, to'rt g'ildirakli aravachasini minib uyiga ketgan, hozir bola-chaqasi bilan tamaddi qilib o'tirgan bo'lsa kerak. Balki uning bola-chaqasi yo'qdir? Har holda, kimidir bo'lmasligi mumkin emas.

U barmoqlarini bukib eshikni taqillatdi.

Ichkaridan Sanobarning tovushi eshtildi:

— Kiraver. Qulflaganim yo'q.

U jinday qizarib oldi, chunki Sanobar uning qaytib kelishini bilardi va chindan ham, mana, u qaytib keldi.

Sanobar hamon oyoqlarini yig'ishtirganicha divan chetida o'tirar, tag'in tizzalari ustiga shol ro'mol tashlab olgan, tag'in kerosin pilta divan qarshisidagi taxta kursi ustida yonib turar, tag'in u nozik barmoqlari bilan shol ro'molning sochiqlarini o'ynar edi; qiz ko'zlarini ko'tarib unga boqdi — endi butunlay boshqacha edi bu ko'zlar.

U eshik oldida tik qotib turar, nimadir demoqchi bo'lar, biroq hech narsa deya olmas va shuning uchun ham jahli chiqmoqda edi. Sanobar uni yoniga chaqirdi, shunday ohangda chaqirdiki, go'yo o'zining ham toqati toq bo'lgandek edi. U Sanobarning bunaqangi chaqirishini hech eshitmagan edi, bu ohang uning yuragiga allaqanday bir vahima soldi, gunohkor kishilardek divanga kelib Sanobarning yoniga o'tirdi, Sanobar ham darhol uni quchoqlab olib, boshini siynasiga bosdi, u o'zini butunlay yo'qotib qo'ygan bo'lsa-da, Sanobarning hiq-hiq yig'layotganini sezdi. Avvaliga nima qilishini bilmay qoldi, so'ng, nima bo'ldi, deb so'radi. Qanday qilib so'raganini o'zi bilmaydi. Sanobar chinqirib yig'lab yubordi. Qiz o'ksinib-o'ksinib yig'lar, butun vujudi dir-dir titrar edi.

U o'zini yo'qotib qo'ydi. Umrida hali hech kim uning yonida bunaqa yig'lamagan edi. U Sanobarning sochlaridan o'pa boshladi; o'zini tutib tura olmay, alamidan bo'g'ila-bo'g'ila: "nima bo'ldi senga, axir — deb so'radi. — Nima bo'ldi o'zi?" Sanobar hech narsa demay qo'qqisdan uning yuzlarini qo'llari orasiga olib,

jinni kabi yuz-ko‘zlaridan o‘pa ketdi, sho‘r ta‘mli ko‘z yoshlari uning butun yuz-ko‘zlariga yoyildi, bu gal u chindan ham o‘zini tuta olmay qoldi; Sanobar tag‘in uning boshlarini o‘z siynasiga bosdi, qalin sochlarini siladi, yuzlaridan o‘pdi; u har doimgi kabi boshini Sanobarning siynasidan olmadi, chunki u o‘z ko‘z yoshlaridan uyalalar edi.

— Mening sendan boshqa hech kimim yo‘q! Hech kimim yo‘q sendan boshqa. Har kuni kelishing kerak mening yonimga. Bir kunim ham sensiz o‘tmasligi kerak. Mening yakka-yu yagonamsan sen — Sanobar qo‘qqisdan uning boshini ko‘tarib, ko‘zlarining ich-ichiga boqqancha dedi: — Hoziroq men seniki bo‘lishimni xohlaysanmi?

U avvaliga bu so‘zlarning ma‘nosiga tushunmadi, hoziroq seniki bo‘lishimni xohlaysanmi, degani nimasi, nima, shundoq ham Sanobar uniki emasmi? So‘ngra yuragi uvishib ketdi, keyin esa jahli chiqdi. Sanobarning tentakligidan jahli chiqdi.

— Xo‘sh, xohlaysanmi? — Sanobar yer yuzidagi barcha azob-aziyatlarga ko‘krak kerib turgandek bir ohangda so‘radi takroran.

U boshini Sanobarning qo‘llari orasidan tortib olib o‘rnidan turdi, nima qilishini bilmay deraza oldiga bordi, zo‘rg‘a majol topib, “ahmoq bo‘libsan”, deya oldi, xolos. So‘ngra derazaning qalin pardasini tortib ko‘chaning narigi tomonidagi masjidga boqdi, unga go‘yo kimdir masjid devoriga suyanib bu derazaga tikilib turgandek tuyuldi, so‘ng bu kishi uning o‘zi ekanligini angladi.

— Ahmoq bo‘libsan, — deya tag‘in takror etdi u va Sanobar tomonga o‘g‘irilib qaray olmasligini, uyalayotganini his etdi. — Senga nima bo‘ldi o‘zi?

Sanobar ortdan kelib uning yelkalarini quchdi:

— Hech narsa, hech narsa bo‘lgani yo‘q menga. Faqat sen meniki bo‘lishingni xohlayman. Sen hamisha meniki bo‘lishingni istayman. Sen hech qachon meni yolg‘iz qo‘ymasligingni istayman. Yolg‘iz qolishdan qo‘rqaman. Qattiq qo‘rqaman yolg‘iz qolishdan.

U ortga o‘g‘irilib Sanobarni quchoqlab oldi. Ular hech qachon bunaqangi oyoq ustida quchoqlashmagan edilar. U o‘zlarining bu

turishlarini chekkadan tasavvur qilib ko'rdi: teatrda artistlarning bir-birlarini quchoqlashlariga o'xshardi bu quchoqlashish, biroq Sanobar juda kichik, juda ozg'in bo'lib, uning og'ushida qush kabi potirlar, teatrda artistlar bir-birlarini quchoqlaganda bunaqangi potirlamas edilar.

— Nega yolg'iz bo'lar ekansan? Men-chi? Xo'sh, men-chi?

Sanobar xuddi shu so'zlarni kutib turgandek tag'in jinni kabi uning yuz-ko'zlaridan o'pa ketdi. Qiz hech qachon bu qadar ehtirosli, bu qadar parishon, bu qadar ojiz ahvolga tushmagan edi.

U Sanobarni hammadan, hamma narsadan himoya qilgandek qattiq quchoqladi, shu qadar qattiq quchdiki, uning beli sinib qolmasaydi, deya o'zi ham qo'rqib ketdi.

— Men-chi? Xo'sh, men-chi? — u hadeb shu so'zlarni takror etar, chunki boshqa so'z topa olmas edi.

— Sen hamisha meniki bo'lib qolasanmi? — Sanobar uning og'ushidan qutulib chiqib, yoshdan yaltirab turgan ko'zlarini uning ko'zlarining ich-ichiga qadadi.

— Albatta. — U tag'in nimadir demoqchi, nega buni so'rayapsan, juda g'alati ekansan-ku, boshqacha bo'lishi ham mumkinmi, axir, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, deb aytmoqchi bo'ldi, biroq ayta olmadi.

— Sen bir umr meni yolg'iz qoldirmaysan-a?

— Albatta.

— Sen har kuni mening yonimga kelasan! Men hamisha seni kutib o'tiraman.

U tag'in hech narsa demadi, chunki Sanobarning bu so'zlari unga ma'nosiz bo'lib tuyular, bu o'z-o'zidan ayon gaplar bo'lib, bunday gap-so'zlar ushbu torgina xonaga yarashmay turardi.

Sanobar uni divanga o'tqazib, qo'lidan tutganicha astari quyon terisidan qilingan yengsiz kamzuli ustidan siynasiga bosdi, bu Sanobarning unga tashakkuri, mukofoti, hadyasi ekanini tushundi.

Sanobarning rang-ro'yi so'lib qolgan, bu so'lg'inlik uning jussasini ham kichraytirib qo'ygandek edi; qizning nozik iyagi ostidagi tomirlari ko'karib ketgan, bo'tako'zlari o'z rangini yo'qotib qo'ygan, ular qanday rangda ekanini bilib bo'lmas, yuragi esa xuddi hozir to'xtab qoladigandek nihoyatda sokin tepmoqda edi.

Qo‘qqisdan u, Sanobar o‘lib qolishi mumkin, deb o‘yladi. Bu favqulodda fikrdan uni sovuq ter bosdi.

— Senga nima bo‘ldi? — Sanobar cho‘chinqirab uning ko‘zlariga tikildi.

— Hech nima. — U qo‘lini Sanobarning siynasidan tortib olib peshanasining terini artdi.

Sanobar ko‘zlarini undan uzmay turib:

— Sen fikrlaganda ruscha fikrlaysanmi? — deb so‘radi.

Sanobar goho shunaqangi savollarni o‘ylab topardiki...

— Ham ruscha, ham ozarbayjoncha.

— Yo‘q, sen doimo ruscha fikrlaysan, men bilaman, ozarbayjoncha gapirasan-u, lekin ruscha fikrlaysan.

Sanobar jilmayib uni quchoqladi.

— Sen ruscha romanlarni o‘qishing kerak, bilasanmi qanaqa romanlar? Hind filmlariga o‘xshagan romanlarni, keyin menga ozarbayjoncha qilib aytib berasan, bo‘ptimi?

— Juda g‘alati qizsan-da. — Uning kulgisi qistadi.

Sanobar har bir hindcha filmni uch-to‘rt martalab ko‘rar, so‘ng hammasini unga hikoya qilib berar, hikoya qilayotganida ko‘zlariga yosh to‘lib kelar, u ham tishini tishiga bosib eshitib o‘tirardi.

— Aytib berasan-a?

— Ha. — U tag‘in kuldi.

Sanobar ko‘zlarini kerosin piltaga qadaganicha o‘yga toldi. U hech qachon Sanobarning nima haqida o‘ylayotganini topa olmas, qizning nima haqida fikrlashayotganidan fol ochib ko‘rar, biroq Sanobar butunlay boshqa narsani o‘ylayotgan bo‘lib chiqardi.

Qo‘qqisdan Sanobar sakrab o‘rnidan turdi:

— Istasang, hozir senga ovqat pishirib beraman?

U uydan hech narsa yemay chiqqan bo‘lib, faqat endigina juda ochiqqanini his etdi. Lekin Sanobarning bu so‘zlari uning uchun g‘ayritabiyy bo‘lib eshitildi, chunki hozirgacha bunday so‘zlarni faqat onasidan eshitib kelgan, “nima yesang pishirib beraman”, der edi onasi, va hozir bu so‘zlarni eshitar ekan, tanishishlari davomida Sanobarda o‘z onasining qiyofasini ko‘rib kelganligini angladi,

o'zi buni bilmagan, albatta, lekin hamisha shunday bo'lib kelgan. Qo'qqisdan xayoliga kelgan bu fikr uni sehra qo'ygandek, go'yo Sanobarga ham qayta jon bitgandek bo'ldi, chehrasidagi so'lg'inlik g'oyib bo'lib, o'jizligi, yolg'izlig'i qaygadir chekindi, go'yo bu xira elektr chiroqning shu'lasini xonani charog'on qilib yuborgandek, xona ham kengayib ketgandek edi, biroq baribir bu ularning, u bilan Sanobarning o'sha-o'sha xonalari edi va o'sha-o'shaligicha qoldi.

— Hozir sen uchun ovqat pishiraman, so'ngra o'tirib birga yeymiz. — Sanobar uning javobini kutib ham o'tirmay dahlizga chiqdi, dahlizda deraza tokchasi ostidagi karton qutidan olti-etti dona kartoshka, bir-ikki dona piyoz olib kelib, birpasda archdi-da, cho'yan tovaga tashladi, dahlizdagi kichkina javondan bir shisha kungaboqar yog'i olib kelib tovaga soldi-da, so'ng tovaning kerosin piltaning ustiga qo'ydi, birozdan so'ng xonani kungaboqar yog'i-ning hidi va jiz-bizi tutib ketdi.

U ikkinchi sigaretni ham chiqarib taxta kursi tomon egildi va tovaning ostidagi o'tda tutatib oldi, so'ng ichiga yutoqib bir tutun tortgach, kungaboqar yog'ida kartoshka qovurayotgan Sanobarga qarab-qarab qo'yar ekan, o'zini dunyoning eng baxtiyor kishisi deb his etdi; so'ng o'rnidan turib bu tovgina xonada — Sanobar bilan ikkovlarining xonalarida u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi, keyin kerosin pilta yonida to'xtab, lablarini Sanobarning sochlariga bosdi. Sanobar unga yuzlanib:

— Hozir tayyor bo'ladi, — dedi, bu so'zlarni shunaqangi navozish bilan aytib, shunaqangi boqdiki, u o'zini tutib tura olmay tag'in lablarini Sanobarning sochlariga bosdi.

U to'shagida qo'llarini ensasiga chambarak qilganicha cho'zilib yotar, qo'shni xonadan otasining xurragi eshitilib turardi. Onasi ham, ukasi ham, buvisi ham uxlab qolgan, ammo uning uyqusi kelmasdi. Aslida u uxlashni istamas, ko'zlarini yumgan zahoti qarshisida Sanobarning chehrasi namoyon bo'lar, Sanobar kungaboqar yog'ida kartoshka qovurar ekan, ahyon-ahyonda unga qarab-qarab qo'yar, u ham lablarini Sanobarning sochlariga bosar, bu sochlarning atrini his etar, shuning uchun ham uxlagisi kelmasdi, chunki bu sochlar ifori uni kelajakka boshlab ketar, bu kelajak-

da dunyoning ikki nafar eng baxtiyor insonlari umrguzaronlik qilishar, bu ikki inson o'zlarining torgina xonalarida o'tirganlaricha kungaboqar yog'ida qovurilgan kartoshka yer va hamisha bir-birlarini sevar edilar.

Ularning necha oylardan beri davom etib kelayotgan uchra-shuvlari bugungidek shirin bo'lmagan edi. U hozir Sanobar ham o'z tungi ko'ylagida divanda cho'zilib, guldor ko'rpasiga burkan-ganicha u haqda xayollar surib yotganini his qilib turardi.

Ular hech qachon kelgusi hayotlari haqida suhbatlashmasdilar, ba'zan u divan ustiga o'tirib Sanobarning sochlaridan o'payotganida — yuragi orziqib ketganida — shu haqda so'z ochib qolar, biroq har safar Sanobar uning ustidan kular, u ham darhol gapni boshqa yoqqa burardi. Bugun esa Sanobarning o'zi shu haqda gap ochib qoldi: kelajakda ikkovlari birga yashashlaridan, unga nimadir pishirib berishidan, u ishdan qaytganida qanday kutib olishlaridan, kechqurunlari piltada suv isitib uning boshini yuvish-laridan, kasallanib qolsa, uning beliga qanday qilib banka qo'yish-laridan...

U qanday uxlab qolganini o'zi ham bilmadi va butun tun bo'yi tushida o'zini samolyotda uchib yurgan kabi his etdi — ko'kda parvoz qilib yurgan emish, goh yuksalib ketar, goh pastga enar emish, uxlab yotgan bo'lsa-da, buning tush ekanini, o'z uyida chorpo-yada cho'zilib yotganini bilar, ammo qalbi yuksak-yuksak-larda uchib yurardi.

Ertasi kuni maktabda bolalar, “kecha birinchi darsda Isroil Solomonovich sizlarni — seni ham, Vovani ham ko'ribdi, darsdan qochganingizni sezib qolibdi”, deyishdi. Qo'rquvdan Vovaning rangi oqarib ketdi, u esa bu xabarga parvo ham qilmadi, chunki endilikda u dunyoning eng mustaqil kishisi bo'lib, hech narsadan tap tortmas, hech narsadan qo'rqmas, faqat oradan ikki kun tezroq o'tib ketishini, Sanobarning onasi tag'in safarga yo'l olishini, u tag'in Sanobarlarnikiga borishini, yana o'zlarining torgina xonalaridagi divan ustiga, kerosin pilta qarshisida o'tirishlarini, yana qo'lini astari quyvon terisidan qilingan yengsiz kamzul ustidan Sanobarning siynasiga qo'yishni, yana kechagi kabi suhbatlar qurishni, yana kelajakda birgalikda kechiradigan kunlarini, torgina

xonada birgalikdagi hayotlarini oynadagidek tomosha qilishlarini, bir-birlarini sevishlarini kutmoqda edi.

Kechqurun onasi, senga nima bo'ldi, ko'zimga boshqacharoq ko'rinyapsan, deb so'radi. U ham onasiga qarab:

— Nima bo'lishi mumkin, hech narsa bo'lgani yo'q! — deb javob berdi nega bunaqangi tajang bo'layotganini o'zi ham bilmay.

Vaqt shu qadar sekin o'tmoqda ediki, nima qilishini ham bilmasdi, u hech qachon Sanobarlarning maktabiga bormas, zarur bo'lib qolganda uni hovlida kutib turar va gapini aytib nari ketardi. Ular hech qachon birgalikda sayrga chiqmagan, birgalikda kinoga tushmagan edilar. Bir gal Sanobar bo'tako'zlarini qisib: "Bilaman, sen mendan uyalasan, boshqalarning ko'ziga men bilan ko'rinishdan or qilasan, men senga munosib emasman", — degan edi. U bu gapidan qip-qizarib ketgan edi. Keyinchalik Sanobarni bir necha marta sayrga taklif etgan, biroq Sanobar avval kulib yuborgan, so'ng esa, yo'q, shu uychamizda o'tirishimizdan yaxshisi yo'q, degan edi.

Bugun tush payti maktab hovlisida Sanobarni rosa kutsa ham, uni ko'ra olmadi, aftidan, u bugun darsga kelmagan edi.

Ikkinchi kuni Isroil Solomonovichning darsi bor edi va sinfga kirib kelishi bilanoq uni o'rnidan turg'azib, shishasi qalin ko'zoynagi ostidan jahl bilan tikilganicha, "o'tgan kuni qayerda eding", deb so'radi.

— Darsdan qochgan edim.

Sinfga shunday bir sukunat cho'kdiki, pashsha uchmasdi. Isroil Solomonovich taajjublagancha unga ancha tikilib turdi, biroq hech narsa demadi, u o'z o'rniga borib o'tirdi.

Sanobarining onasi eshikdan chiqqach, u tag'in masjid devo-ridan panalab borib, muyulishga yetganda to'xtadi.

Qo'qqisdan mo'ylovli kishi minoradan boshini chiqarib baqirib qoldi:

— Ha, yana keldingmi?

U boshini yuqori ko'tardi. Mo'ylovli kishi har doimgi kabi unga ko'z olaytirib qaradi. U o'zi ham bilmagan holda bu gal gap talashish o'rniga yuqoriga qarata salom bergandek qo'l silkib qo'ydi. Mo'ylovli kishi avvaliga hech narsani tushunmadi, so'ngra

bosh tebratgancha jilmayib qo‘ydi-da, minora ichida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Sanobarning onasi ham ketib bo‘ldi.

U muyulishdan burilib, qayroq yotqizilgan ko‘chani kesib o‘tdi va Sanobarning ko‘cha eshigidan ichkari kirib, ko‘z ochib yumgunicha yo‘lakdagi zinapoyalardan yuqori ko‘tarildi-da, barmog‘ini bukib eshikni taqillatdi.

Ichkaridan Sanobarning tovushi eshtildi:

— Kiraver, eshik ochiq, qulflanim yo‘q.

U eshikni ochib ichkari kirdi, eshikning lo‘kidonini o‘tkazib, torgina dahlizdan xonaga kirdi, kirdi-yu turgan yerida toshday qotib qoldi.

Sanobar xonaning o‘rtasida tik turar, egniga u hech qachon ko‘rmagan yashil ko‘ylak kiyib olgan edi. Bu yashil ko‘ylak go‘yo hozir o‘t olib yonadigandek par-par tovlanardi. Sanobarning butun chehrasi — ko‘zlari ham, yuzlari ham kulib turar edi. Sanobar ushbu yashil ko‘ylagi bilan bu xonaning ichini to‘ldirgan bir baxtiyorlik og‘ushida edi, yashil ko‘ylagining etaklarini silab-silab qo‘yar ekan, go‘yo o‘z qomatidan o‘zi ham lazzatlanayotgandek edi. Divan oldida na taxta kursi bor edi, na kerosin piltasi. Bu xona ularning xonasi emas, supurib tozalangan butunlay boshqa bir xona edi, endigina yuvilgan taxta polning hidi kelar edi bu xonadan.

— Ikki kundan beri qayerlarga yo‘qolib ketding? — Sanobar ko‘zlarini yashil ko‘ylagidan uzib unga tikildi.

Uning yuragi orqaga tortib ketdi. Qandaydir favqulodda bir hodisa ro‘y berganini, bu hodisa uning hayoti bilan bog‘liq ekanini va bu yomon bir hodisa ekanini his etdi; aslida u eshikni ochib dahlizga oyoq bosishi bilanoq nimadir avvalgiday emasligini, nimadir — kerosin piltasining hidimi yoki boshqa bir narsami — yetishmayotganini sezgan edi.

Sanobar yashil ko‘ylagining etaklaridan tutib, xonaning o‘rtasida xandon tashlab kulganicha gir-gir aylandi va aylanib turib dedi:

— Men erga tegyapman!.. Og‘a Husayn biznikiga meni deb kelar ekan... Yaqinda unashtirilamiz, yozda men maktabni bitirganimdan keyin to‘yimiz bo‘ladi!

U hozir yugurib borib Og‘a Husaynni o‘ldirish lozimligini his etdi, biroq yuragining teran-teranliklarida hamma narsa tugaganini, hammasi tamom bo‘lganini, uning hech kimi va hech narsasi qolmaganini angladi.

— Xo‘sh... xo‘sh, sen bundan xursandmisan? — Bu savol-ni qanday berganini o‘zi ham bilmaydi, ovozi butunlay begona odamning ovoziga o‘xshab chiqdi.

— Erga tegyapman, hoy jinni, — Sanobar tag‘in yashil ko‘ylagining etagidan tutgancha kula-kula xona o‘rtasida gir-gir aylandi. — Kecha kinoga tushdik... Bilasanmi, qanaqangi ajoyib kino ekan, yigit mashina ostida qoladi. Ikkala oyog‘ini ham kesib tashlashadi. Sevgilisi avval buni bilmaydi. Yigitim menga bevafoqlik qildi, deb o‘ylaydi, keyin...

U Sanobarning nimalar deyayotganini eshitmas, faqat hozir Sanobarnikida ekanini, Sanobar kecha ko‘rgan kinosini gapirib berayotganini bilar, biroq nimalar deyayotganini eshitmas edi.

U hech narsa haqida o‘ylamas, hech narsani anglamas, faqat shunchaki xona eshigi oldida turgancha Sanobarga tikilar, aslida Sanobarni ham ko‘rmas, hamma tomonni qoplab olgan yam-yashil rangni ko‘rardi, xolos, butun atrof par-par yonayotgan yashillik og‘ushida edi.

— Birpasdan keyin tag‘in keladi, bugun teatrqa boramiz. Endi men yolg‘iz qolmayman bu yerda. Men qachon istasam sayr qilgani chiqamiz, ertaga borib uning uyini ko‘rib kelamiz. Uning uyi yangi binoda — tramvay parkining ishchilari uchun qurgan emishlar. Ichida hammomi ham bor ekan...

U hamon hech narsani eshitmas, hamon ter bosgan shisha ortida faqat yashil ranglarni ko‘rar, shishani rosa ter bosgan, yashil shu‘lalar tomchilarga aylanib ketgan edi, bunday bo‘lmasligi kerakligini, bunday serrayib turish, bunday tikilib turish mumkin emasligini his etib turar, biroq hech nima qila olmas, faqat shunchaki xona eshigi oldida qotib qolgan edi.

— I-ye... Senga nima bo‘ldi... Yig‘layapsanmi?.. — Sanobar yaqin kelib unga tikildi, so‘ngra qo‘lidan tutdi.

U endilikda o‘zini tuta olmay ikkinchi qo‘li bilan ko‘zlarini bекitib oldi. Bunday bo‘lishi mumkin emasligini, bu sharmandali

bir hol ekanini uning o‘zi ham bilib turar, ammo qo‘lidan hech narsa kelmas edi.

— Bo‘ldi... O‘zing mening jonimsan-ku, bo‘ldi endi... Xuddi yosh bolaga o‘xshaysan-ey... Men seni hech bunaqa deb o‘ylamagan edim, yosh bolaning o‘zisan-ey... — Sanobar uning qo‘llarini siqa-siqa gapirgandan-gapirar, gapirganda ham chin yurakdan gapirmoqda edi. — Bas qil-da endi... Istasang yana o‘paman seni. Yetar-da endi... Hali yana uchrashamiz... Sen hali o‘qiysan, maktabni tugatasan, keyin institutga kirasan, so‘ng institutni ham bitirasan, o‘shanda sen bilan yana uchrashamiz... O‘n yildan so‘ng yana uchrashamiz sen bilan... Ko‘rasan hali, men rost aytyapman... Yana uchrashamiz sen bilan... O‘n yildan so‘ng sen kattakon erkak bo‘lib qolasan...

U Sanobarning yuzlariga qaray olmay ortga burildi, oyoqlari chalkasha-chalkasha dahlizdan o‘tib, titrab turgan barmoqlari bilan lo‘kidonni ochdi-da, qop-qorong‘i yo‘lakka chiqdi. Eshik ortidan bekildi.

Taxta zinapoyalardan pastga tushib, birpas yo‘lakda turib qoldi. Hozir u hammadan ko‘proq o‘zidan uyalar, shuning uchun ham qorong‘ilikda turishni istardi. So‘ng cho‘ntagidagi uchta sigaretdan birini olib tutatdi va yutoqib so‘rdi, birpasda ko‘z oldi qorong‘ilashib, boshi yengilgina aylana boshladi, sigaretni yerga uloqtirib, oyoqlari bilan ezg‘ilab o‘chirdi va ko‘cha chiqdi.

Qo‘llarini cho‘ntagiga tiqqancha yo‘lakdan bosh egib keta boshladi. Qo‘qqisidan osmon-u falakdan mo‘ylovli kishining ovozi eshtildi:

— Ha, ketyapsanmi?

U o‘girilib masjidning minorasi tomonga qaradi: mo‘ylovli kishi tag‘in boshini minoraning qalin derazasidan chiqarib unga tikilib turardi. Mo‘ylovli kishi jilmayib, yaxshi bor, degandek bosh silkib qo‘ydi. U ham mo‘ylovli kishiga qarab qo‘l silkidi va negadir ancha yengil tortgandek bo‘ldi.

O‘n yildan keyin... U o‘n yildan so‘ng chindan ham Sanobar bilan uchrashishi mumkinligini tushunar, biroq savqi tabiiysi bilan his etardiki, u paytda na bu ko‘cha bunaqangi bo‘ladi, na torgina

xonalarini bunaqangi seva oladi, na kerosin pilta bunaqangi yonib turadi.

U o'n yildan keyin bugungi kabi bu dunyoda kimsasiz qolmasligini his etar, biroq o'shanda faqat va faqat yakka-yu yolg'iz Sanobari bo'lmasdi, u esa hamisha yakka-yu yolg'iz Sanobari bo'lishini istardi.

U savqi tabiiy bilan o'n yildan keyin lablarini Sanobarning sochlariga bosganida yuragi o'rtanib ketmasligini bilar va hozirdanoq ana o'sha o'rtanishlarni deb qayg'urmoqda edi.

U o'n yildan keyin Sanobar bilan mana bunaqangi uchrashuvlar bo'lmasligini, shunchaki ko'cha-ko'yda uchrashib qolishlarini, yo salomlashib, yo salomlashmay o'tib ketishlarini, u o'shanda bu kunlarni kulib yodga olishini, bu kunlarga tepadan turib nazar tashlashini his etardi. Biroq u hozirdanoq o'n yildan keyin bu kunlarning ustidan kulishni, bu kunlarga tepadan turib nazar tashlashni istamas edi.

So'ngra qo'qqisdan u o'zini o'n yilga kattarib qolgandek, endi avvalgi yosh bola emasdek his etdi.

Uning xayoliga tag'in boshqa turli-tuman fikrlar quyilib kelmoqda edi, ana shularning hammasini bir boshdan o'ylab olish uchun dengiz qirg'og'iga borib kursilardan biriga yolg'iz o'tirmoqchi bo'ldi, lekin ertaga Isroil Solomonovichning darsi borligi, bu darsga yaxshilab hozirlik ko'rishi lozimligini ang'ladi, chunki hazillashib bo'lmas edi Isroil Solomonovich bilan. Cho'ntagidagi sigaretlarni chiqarib bir chekkaga uloqtirdi — kechalari onasi uning cho'ntaklarini titib ko'rar edi — va paltosini olib o'z uylariga ketish uchun Vovalarnikiga yo'l oldi.

BO'RILAR

*"Dunyodagi barcha jonzotlar ichida
eng zaifi — inson..."*

Ilyos Afandiyev

...So'ngra Bo'z bo'ri boshini quyi solganicha yo'lda davom etdi. Qovjiragan butalardagi shox-shabbalar uning suvsizlikdan quruqshab, yorilib ketgan lablarini tirnardi. Oldinda o'zi, orqada ona bo'ri ketayotgandi. Ona bo'ri vaqt-vaqti bilan o'rtalari-da lo'killab borayotgan bolalariga qarab-qarab qo'yib, ularning quloqlari, dumlarining yengilgina qimirlab qo'yishini ham eshitib ketayotgan bo'lsa-da, fikri-zikri Bo'zda edi. Bo'z to'xtaganda u ham taqqa to'xtar, dumining sezilar-sezilmas titrog'i, yag'rinidagi, kuraklaridagi tuklarining tikka bo'lishi unga nimadandir xabar berar, nimagadir ishora qilar, o'z jonivor qalbining tub-tubigacha his qilganlari ko'z qarashlarida namoyon edi.

Shu yerdan qachonlardir o'tgan yosh bo'rining hidini sezgan Bo'z qurigan butaning ildiziga burnini suqib, yerni iskab ko'rdi va beixtiyor unda xuddi shu yerda o'z belgisini qoldirish istagi uyg'ondi. Buta tomon o'girildi, orqa oyog'ini ko'tarib harchand kuchanmasin, loqal bir tomchi ham tommadi. Qornida sanchiqmi, yoki boshqa bir og'riqmi uning tanasini jizillatib o'tdi. Bo'z alamli irillab boshini ko'tardi, havoni hidladi, so'ng yana boshini quyi solib, sharq tomonga yurishda davom etdi.

Ona bo'ri Bo'z bilan bir vaqtda to'xtadi. Kirtaygan ko'zlari bilan uning barcha harakatlarini nazardan qochirmay kuzatib turdi, keyin yana Bo'zning ketidan intilib keta boshladi. Qurib qolgan buta yonidan o'tar ekan, u ham yosh bo'rining hidini sezdi. Ammo parvo ham qilmadi, butun fikri hali ham Bo'zda edi.

O'sha paytlar Bo'z kuchukcha davridan o'tib, yosh va baquvat bo'riga aylanganida, va bu navqiron, kuchli jonivor o'z uyasi

va oilasini qurish istagida tugʻilib oʻsgan uyasini, galasini umrbod tark etgan vaqtda, tabiat uni yosh urgʻochi boʻri bilan birlashtirganda, oʻshanda oʻziga makon qilgan va hozirda doimiy nazoratida boʻlgan yer boʻrilarning yashashi uchun, endigina oyoqqa turgan oilasi, tugʻilib, ulgʻayib, galadan tarqalayotgan avlodi uchun dunyodagi eng qulay yer boʻlgandir balki. Unumdor tuproq, tez-tez yogʻadigan hayotbaxsh yomgʻirlar, oʻrmonlar, yil boʻyi qorli togʻlar bagʻridan otilib keladigan daryolar bu zaminni turli-tuman jonivorlar — jayronlar-u quyonlar uchun sevimli goʻshaga aylantirdi. Uddaburon ovchi, bu joylarning dahshatli va qatʻiyatli hokimi boʻlgan Boʻz necha yillardan buyon oʻzing hayot yoʻldoshi bilan oʻziga oʻxshagan sogʻlom va kuchli boʻrilarni tarbiyalar, ularni tabiatning cheksiz olamiga kuzatardi.

Bunday mudhish qurgʻoqchilikka biror bir ishora, qandaydir bir belgi yoʻq edi. Hoynahoy Boʻz ham, ona boʻri ham (hamda bu yerda doimiy makon topgan jonzotlar ham) qurgʻoqchilik nimeligini bilmasdilar. Oʻzogʻ yili tugʻilgan boʻrichalar mustaqil yashashga tayyor boʻlsalar-da, uyada qolib, yangi tugʻilgan kuchukchalarga onalari bilan birgalikda koʻz-quloq boʻldilar. Kuchukchalar biroz katta boʻlgach, kuzning boshlarida yosh boʻrilar uyani umrbod tark etdilar.

Aynan oʻsha paytlarda qurgʻoqchilik boshlandi. Kunlar oʻtar, jazirama issiq hech tugay demasdi. Boʻzning yerlarida oʻt-oʻlan, dov-daraxt qolmadi, daryolardagi suv quridi, qaqragan yer yorilib-yorilib ketdi, ochlik tuyoqli jonivorlarni Sharqqa, suv tomonga haydadi. Ular ortidan qadrdon makonini tashlab, yoʻlga tushgan Boʻz va ona boʻri kuchukchalar sababli biroz kechikishdi. Podalar ancha uzoqlashib ketgan, hatto hidi ham kelmasdi.

Necha kunki Boʻz oʻzining ochlik va tashnalikdan holdan toygan oilasi — ona boʻri va ikki kuchukchasi bilan yalangʻoch daraxt va butalar oralab Sharq tomonga ketib borardi. Qurigan daryolar oʻzanida qolgan nam balchiqni yalab tashnalikni bir amallab qondirsalar-da, yegulik umuman yoʻq edi, ochlik ularning tinkasini quritayotgan, asta-sekin oʻldirayotgan edi.

Gohida Boʻz toʻxtab, qoziq tishlari bilan butalar ildizpoyalarini gʻajib sugʻurardi. Agar butunlay qurib qolmagan boʻlsa, ularni

bolalari va ona bo'ri tarafga tashlardi. Kuchukchalar avval odatdagi yeguliklariga o'xshamagan o'ljaga ochko'zlik bilan tashlanar, biroq iskab ko'rib, umidsizlik bilan hatto jirkangandek o'zlarini chetga olishardi.

Shunda ona bo'ri ildizpoyalarni hafsala bilan uzoq chaynar va hosil bo'lgan suyuq bo'tqani yerga tupurardi.

Kuchukchalar bu atalaga otilishar, yana hidlab ko'rib, nari ketishardi. Ba'zan Bo'zning o'zi ham sug'urib olingan ildizpoyalarni g'ajir, bu lahzalarda xuddi ashaddiy yirtqich uchun nomunosib yemakni chaynayotganini ona bo'ri va kuchukchalar ko'rishlarini istamagandek ularga teskari o'girilib, dumini orqa oyoqlari orasiga tushirib olardi.

Ochlikdan tinkasi qurigan kuchukchalar Bo'z va ona bo'ri-ning o'rtasida ko'zlarini yumib yotishar, bo'm-bo'sh qorinlaridagi yupqa terilari nafaslariga monand ko'tarilib tushar, uyquda hol-siz ingrab qo'yishar, nimadandir cho'chib uyg'onib ketishardi. Ona bo'ri yonboshlab olgancha bu azobli qochqinlikdan charchagan, umidsizlik to'la ko'zlarini Bo'zdan uzmasdi. U bo'lsa diqqat va xavotir bilan uzoqlarga, qovjiragan chakalakzor tomon tikilardi. U yerda, changalzorning shitirlyotgan qa'rida nimadir zo'rg'a ko'ringan soyadek yashirinib olgan edi. U soya butun vaqt mobaynida ular bilan izma-iz kelayotgan och shoqol ekanini Bo'z yaxshi bilardi. Hamda o'sha och va yolg'iz shoqol Bo'zning oilasidan birining o'limini kutayotganini, hamma tiriklar ketgach, o'limtik bilan qornini to'yg'azish dardida ekanligini u instinktiv ravishda sezardi.

Ammo bo'rilar olamining o'z qonunlari bor.

Bu qonunlarni na dahshatli qurg'oqchilik, na ularni olg'a undayotgan ochlik buza olardi... Bo'rining sillasi qurigan, avvalgidek chaqqonlik bilan changalzorga otilib, u yerda pisib yotgan shoqolning bo'g'ziga tishlarini botirgancha sudrab olib chiqib, yangi go'sht bilan ona bo'rini, bolalarini to'yg'aza olmasligini o'ylab, changalzorda lipillayotgan soyadan nigohini olib qochib, g'amgin ko'zlari bilan ona bo'riga qaradi. Ona bo'rining shu paytgacha beparvo boqayotgan ko'zlari bir zumda o'zgardi, bu oniy ifodani faqatgina Bo'z tushunardi.

Yana sabot bilan Sharq tomon qochish davom etdi... Quyosh chiqib-botar, ochlik va tashnalik vasvasasida mashaqqat bilan harakat qilayotgan to‘da yo‘lining oxiri ko‘rinmasdi... Oldinda ketayotgan Bo‘z qo‘qqisidan to‘xtadi, sezgirlik bilan quloqlarini dikkaytirdi. Uning bezovtaligi ona bo‘ri va bolalariga ham o‘tib, ular ham turgan joylarida qotib qoldilar. Sal o‘tmay odamlar ovozi elas-elas eshitila boshladi.

Bo‘z yerga yotib oldi, ona bo‘ri orqa oyoqlariga o‘tirib, dumi bilan bolalarini o‘ziga yaqinroq surdi. Odamlarning g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘iri yanada aniq eshitildi, nihoyat butalar orasidan bir necha odamning sharpasi ko‘zga chalindi.

Ularning yo‘li qarama-qarshi tarafga — Shimolga yo‘nalgan edi.

Bu odamlar geologlar edi. Tabiiyki, buni Bo‘z ham, ona bo‘ri ham bilmasdilar. Ularga faqat bir narsa aniq va ravshan edi — bu odamlardan porox hidi kelmayotgandi.

Bo‘z ham, ona bo‘ri ham porox hidini darhol sezishar, bu hid qon hidi bilan birga kelar, Bo‘z va u bilan ovga chiqqan ona bo‘ri bekinib olib, porox hidli odamlarni kuzatishardi. Har doim o‘q ovozini eshitganda ikkalasi ham diqqat bilan kutganicha dong qotar va sal o‘tmay uzoqlardan birdaniga esgan yengil shabada olib kelgandek taralayotgan o‘sha yurakni junbushga keltiruvchi hidni his qilar, zo‘r berib ovozlar va shitirlashlarga quloq tutardilar.

Gap shundaki, ovchilar orasida no‘noqlari ham oz bo‘lmas, tajribasiz, havaskorlar hamisha topilar, ular ko‘pincha jonivorni yaralar edilar.

Ba‘zan yegerlar — asl kasbi ovchilik bo‘lganlarda ham bunday xatoliklar uchrab turardi. Har safar Bo‘z va ona bo‘ri yarador jonivor qoniga bo‘yalib, oson o‘lja xabarini tarqatib chopayotganini ko‘rganda ovchilarni unutib, holdan toygan o‘ljani — jayron, ohu yoki qobonni ta‘qib qilishga otilishar, unga tashlanib, bo‘g‘zini g‘ajib tashlashardi.

Ana shunday qismat o‘q ovozidan cho‘chib, tog‘ning tik jarliklariga qulaganda oyoqlari, umurtqa suyaklarini sindirgan tog‘ echkilarini ham chetlab o‘tmasdi va yana Bo‘z, ona bo‘ri, ularning

kuchuklariga osongina erishilgan, qon sizib turgan yangi go'sht nasib etardi.

Ammo bu gal Shimolga ketayotgan odamlardan porox hidi kelmayotgandi. Lekin bu is kelganida ham odamlar iziga tushib, ular yaralagan va ularning ta'qibidan qutilishga urinayotgan o'ljaga yetib olishga Bo'zning kuchi yetmasdi. Aftidan Bo'zning o'zi ham buni anglar edi, chunki uning Shimolga ketayotgan odamlarga tikilgan ko'zlarida tamomiy loqaydlik ifodasi ko'rinib turardi va albatta, bu ifodani ona bo'ri sezmay qolmasdi.

* * *

Biroq bu tinka-madorni qurituvchi og'ir yo'lning adog'i ko'rinay demasdi... Bo'z bexosdan to'xtab, yerga burnini tiradi, so'ngra o'sha joyni oldingi panjalari bilan tatalashga boshladi. Ona bo'ri ham bolalari bilan to'xtadi. Bunday shoshilib yer kovlash albatta yegulik bilan bog'liq ekanligi sezgan ona bo'riining ko'zlarida ochlik yangi kuch bilan yarq etdi, hammasi umid bilan ozg'in, qovurg'alari turtib turgan kattakon bo'ri — Bo'zga qarab turishardi.

Axiyri Bo'z yerdan yirik qo'ng'izni sug'urib oldi (bu ayanchli qurg'oqchilikda ro'y bergan g'aroyib mo'jiza edi) va boshining keskin harakati bilan uni sabrsizlik bilan qanaqa bo'lsa ham ovqat kutayotgan kuchuklar tomon otib yubordi. Viz-viz qilib yerga urilgan qo'ng'izning hali qimirlashga majoli yetardi, u nariroqqa o'rmalab qochmoqchi bo'ldi. Ammo ochlik avvaliga g'alati o'ljani ko'rib, dovdirab qolgan kuchuklarni darhol o'ziga keltirdi. Ulardan biri oldinga otilib, tishlari bilan qo'rqqanidan gangib qolgan, o'ta sassiq bo'y chiqarayotgan, qutilish uchun jon-jahdi bilan harakat qilayotgan qo'ng'izni tishlab olib, shu zahoti karsillatib ezdi va yutib yubordi.

Ikkinchi kuchuk akasiga tashlandi, kechiksa-da uning og'zidagini yulib olmoqchi bo'ldi. Lekin urinishlari behuda ekanini sezdi, alam bilan g'ingshidi va onasining oyoqlariga yopishdi.

Ular yana azob-uqubatli yo'lda davom etdilar... Sharqqa yurishning eng qiyin vaqti choshgoh edi. U kirishi bilan Bo'z yerga, biror bir so'lg'in buta soyasiga yotib olardi; ona bo'ri ham,

kuchuklar ham dam olishni istasalar-da, ochlik hissi bir necha barobar kuchli edi. Ochlik uyqu bermas va bu — holsiz mudroq bilan och voqelik orasidagi vaqt ular uchun o'lja va hayotga intilishlaridagi eng og'ir sinov pallasi edi.

Bo'z bu safar yong'oq daraxtining kichikkina soyasiga uzanib, kelgan tomonlariga nazar tashladi; izma-iz kelayotgan shoqolning sharpasi ko'rinmadi. Asosiysi Bo'z shoqolning hidini sez-madi, bundan biroz xotirjam bo'ldi. Uning ko'zlari chaqnadi, bu chaqnash bir soniyalik edi xolos, lekin bolalari yonida uzala tushib yotgan ona bo'ri buni payqadi va ichida g'ayriixtiyoriy umidvor-lik tug'ildi shekilli, tumshug'ini ko'tardi. Biroq umid Bo'zning ko'zlaridagi chaqnash kabi shu zahoti so'ndi. Ona bo'ri zaif g'uldirashga o'xshagan ovoz chiqardi, uning avvalgidek irillash, tishlarini irjaytirishga holi qolmagan edi. Bu ovozda chorasizlik, ojizlikni his qilgan kuchuklar qo'rqanlaridan onalariga yopishib, emmoqchi bo'ldilar.

Bo'z kuchuklarga qarab qo'ydi. Uning sinovchan nigohi kuchuklar qanchalar charchaganini, darmonsizlanganini tekshirayot-gandek va ichida nimalarnidir reja qilayotgandek tuyulardi... O'z navbatida ona bo'ri ham Bo'zga ana shunday sinovchan boqdi. Uning xavotirda ekanligi tanasining sezilar-sezilmas titrab turishi-dan aniq ko'rinib turardi.

Bo'z kuchuklardan yuzini chetga burdi.

* * *

Quyosh asta-sekin botayotgandi. Hademay qosh qorayadi, tun boshlanadi. Bo'z ko'zlarini qisgancha yonboshlab yotar ekan, qu-yoshning xiralashayotgan nurlariga qaradi. Ona bo'ri ham nafasni qaytaradigan jim-jit oqshomda o'ziga yopishib olgan kuchuklarni isitmoqchidek boshini qorniga bosib yotib oldi.

Navbatdagi avlodlar tug'ilganidan so'ng quyosh ufq orqasiga yashiringan paytda tungi ovchi — Bo'zda odatda o'zgacha bir tuyg'u uyg'onardi.

U ungurda aylanar, tashqariga chiqar, quloqlarini dikkaytirib, dumini likillatgancha atrofni ko'zdan kechirar, bir muddat churq etmasdan qotib turar, keyin ohista yurib ketar, qalin o'rmon ich-

karisida g'oyib bo'lardi; yarim kechada yoki erta saharda uni kutayotgan va kelayotganini payqagan, hatto o'ljaning — yangi go'sht hidini — o'zi ovlagan, hali sovib ulgurmagan jayronlar, yosh qobonlar, quyonlar hidini sezgan ona bo'ri va kuchuklarga ovqat keltirish uchun g'oyib bo'lardi. Bularning hammasi tunning saxiyliga bog'liq edi.

Ko'pincha choshgohda to'yib, xotirjam uxlagan ona bo'ri va kuchuklar yana ochlikni seza boshlashardi. Bunday paytlarda kuchuklar bir-birlarini turtib, onasiga yopishib olib, ema boshlardilar. Lekin kundan kunga o'sib kelayotgan kuchuklarga ona suti yetmasdi, ularda borgan sari yangi go'shtga ishtiyoq uyg'onar, Bo'z tun qa'rida g'oyib bo'lganida ona bo'ri ham, kuchuklar ham quloqlarini qimirlatib, havoni iskaʃ, sabrsizlik bilan uning qaytishini kutishardi.

O'sha davrlarda goho ularga ma'qul bo'lgan yerlar birdaniga bo'shab qolgandek bo'lardi, ba'zida esa shunday vaqtlar bo'lardiki, Bo'z soatlab izlab topgan o'lja chap berib, qochib ketardi, bunaqa paytlarda Bo'z g'azablangan va xafa holda quruq qaytar edi. Ammo yegulik yo'qligi uzoqqa cho'zilmasdi, ko'pincha kelasi tunning o'zidayoq Bo'z navbatdagi ovlangan jonivor tanasini sudragancha qaytardi.

Kuchuklar tug'ilguncha ona bo'ri ham Bo'z bilan ovga chiqardi. Ko'p yillik birgalikdagi hayot tarzi ular orasida shunday hamjihatlikni yuzaga keltirgandiki, bir-birlarini oniy bir nigoh, salgina qimirlashdan tushunishar, his etishardi. Bunday inoqlik xususan, ovda ko'rinardi: qanday, qachon va nima qilishni juda yaxshi bilishardi. Lekin ona bo'ri kuchuklarni dunyoga keltirgach, Bo'z ovga yolg'iz chiqadigan bo'ldi. Ona bo'ri esa kuchuklar bilan uyada qolardi.

Avvallar shunday edi...

Sharqqa olib boradigan yo'lning esa oxiri ko'rinmasdi... o'sha oqshom, navbatdagi tun arafasida Bo'z yonboshlab, xiralashayotgan osmonga qiya ochiq ko'zlarini tikarkan, bo'rining qalbida loqaydlikdan boshqa hech narsa vujudga kelmaganligi ko'rinib turardi.

Tanasidagi har bir hujayrani ochlik hissi qamrab olgan edi. U botayotgan quyoshdan ko'zini uzib, yana kuchuklarga qaradi.

Oxirgi paytlarda u kuchuklariga tez-tez ana shunday qarab qo'yardi... Dahshatli qurg'oqchilik boshlariga tushgan, jon saqlash umidida Bo'z va ona bo'ri ortidan tentirab ketayotgan kuchuklar hoynahoy ona bo'rining dunyoga keltirgan va mustaqil hayot boshlashlaridan oldin Bo'z bo'ri bilan birgalikda voyaga yetkazish istagida bo'lgan so'nggi avlodi bo'lsa kerak, chunki har ikkisi tabiat in'om qilgan umrning katta qismini yashab bo'lgan edilar.

Nihoyat, Bo'z kuchuklardan ko'z uzib, ona bo'riga boqdi.

Ona bo'ri shu ondayoq Bo'zning nigohini his qildi va ko'zlarini ochib Bo'z tarafga tumshug'ini cho'zdi, bo'rilar bir muddat bir-birlariga tikilib qoldilar...

Bo'z ona bo'ridan ko'zini olmay o'rnidan qo'zg'alib, orqa oyoqlariga o'tirdi.

Xuddi xavfni his qilgandayek ona bo'ri irg'ib o'rnidan turdi va onadagi bu nogahon paydo bo'lgan hayajon kuchuklarni hurkitib yubordi. Ular ham titrab-qaqshab, bir-birlarining pinjiga qirib, orqa oyoqlariga o'tirib oldilar.

Ona bo'rining quloqlari xavotirli dikkeydi. Qovurg'alari yaqqol ko'rinib turgan, ozib-tuzib ketgan tanasiga dumi urilardi. Og'zini sal ochib, borgan sari kuchayayotgan tashvish va hayajon bilan irillab yubordi. Botayotgan quyosh shu'lalarida uning irjaygan tishlari, ayniqsa qoziq tishlari yana ham oq bo'lib ko'rindi.

Bo'z ona bo'rining kayfiyatini go'yo sezmagandek, uning ogohlantiruvchi irillashini eshitmagandek undan horg'in, qiya ochilgan ko'zlarini uzmas edi. So'ng birdaniga, balki oxirgi kuchini to'plabmi, avvalgi vaqtdagidek chaqqonlik bilan sakrab o'rnidan turdi, tumshug'ini kunbotar tomonga ko'tarib, baland ovozda uvillab yubordi; keyin ufq orqasiga o'tayotgan quyoshga orqa o'girib, boyagidek cho'zib-cho'zib uvillaganicha boshini goh o'ng, goh chap tomonga bura boshladi. Qosh qorayayotgan bu pallada uning uvillashi yon-atrofga taralayotgan edi.

Ona bo'ri esa tor qafasga qamalgaandek hayoti so'ngan yerlarining cheksiz kengliklarida joy topolmay, Bo'zning orqasida o'zini

u yoqdan bu yoqqa otar edi. Kutilmaganda Boʻzning uvillashi, bolalarini tamomila unutib, boʻri atrofida gir aylanayotgan, oʻzini har tarafga otayotgan onasining holi kuchuklarni shunchalik qoʻrqitib yubordiki, ular nima qilishlarini bilmay, sarosimada bir-birlariga battar yopishib, ota-onasi tomon qoʻrqa-pisa qarab-qarab qoʻyishardi. Ochlik kuchuklarning sillasini quritib, ezib tashlagan, bu lahzada boshidan kechirgan vahimasini kuchaytirgan, jajji badanlarini titrashga majbur etgan edi.

Boʻz balki oʻzining uzun hayoti davomida hech qachon bunchalik — butun vujudi bilan uvillamagandi. Uning jaziramanadan kuyib ado boʻlgan biyobonlar uzra choʻkkan jimjitlikdagi uzun-uzun uv tortishi yolgʻiz boʻrining oddiy ulishi emas, judoliklar, oʻlimlar va uni iskanjaga olgan umidsizlik dahshatining u uddasidan chiqa olgan ifodasi edi.

Boʻzning kuragidagi va yagʻrinidagi juni tippa-tik boʻldi, tumshugʻidagi muskullari taranglashdi, dumi tepaga qayrildi, va birdan, qanday bexosdan boshlagan boʻlsa, shunday jimib qoldi, qatʼiyat va epchillik bilan ona boʻri tomon yurib, uning oyoqlari ostiga oʻzini tashladi.

Ona boʻri yanada ortgan alam va gʻazab bilan Boʻzning atrofida aylanishni davom ettiraverdi, lekin goʻyo uni koʻrmayotgandek edi. Uning soqqasidan chiqib ketayozgan dumaloq koʻzlari qorongʻilikda yaltirar, boʻgʻzidan qahrli naʼra kelardi; kuchuklar koʻzlarini uzmay onalariga tikilishardi.

Bu hol abadiy davom etdimi yoki bir lahzami... Birdan Boʻz koʻzlarini katta ochdi, boshini orqaga tashlab, allaqanday ichki kuch bilan olovdek lovullagan nigohini ona boʻriga qadadi, ogʻzini katta ochib, unga vahshiyona irilladi. Bu onlarda Boʻz avvalgi yosh, baquvvat va hukmron boʻriga aylandi. Uning dargʻazab irilishi, shubhasiz, buyruq kabi yangrardi.

— Qani, meni tilka-pora qilinglar, yenglar! — deya hayqirardi Boʻz. Bu nihoyatda qoʻrqinchli buyruqqa boʻysunmay iloj yoʻq edi.

Boʻrilar olamining oʻz qonunlari bor... Ehtimol, ona boʻri qu-yosh nurlari soʻngani sayin Boʻzning yarim ochiq koʻzlaridan shunday buyruq boʻlishini uqib olgan, his qilgandir, ammo u oʻzini

holdan toydirgan ochlikni yengib, alam bilan tishlarini g'ijirlatib, asabiy irillab, butun vujudi bilan qarshilik ko'rsatar, noroziligini bildirar, Bo'z o'zini mahkum qilayotgan qarorni qabul qila olmas, ayni damda uning qarshiligida chorasizlik va asrlar davomida tarbiyalangan itoatkorlik yashiringan edi.

Va ona bo'ri sustkashlik qilmay hamla qildi... Bir zumda qoziq tishlarini Bo'zning bo'g'ziga sanchdi, tajribali ovchi chaqqonligi bilan yorib tashlangan tomog'idan hiqildog'ini yulib oldi, tishlari qonga belangan jag'ini ochib, kuchuklarga irillab qo'ydi. Onasining irillashi, yangi qon hidi qo'rquvdar dir-dir titrayotgan kuchuklarni o'ziga keltirdi. Ko'z ochib-yumguncha ular ham yiqilib yotgan Bo'zga tashlanishdi va ochko'zlik bilan uning tomog'idan oqayotgan qonni yalashga tushishdi.

Bo'z titrar, xirillar, lekin ona bo'ri bunga e'tibor qilmay (balki tezroq bu jarayonni tugatish uchunmi), jag'idagi hiqildoqni tupurdi va bir siltashda qoziq tishlari bilan qornining yupqalashib ketgan terisini yirtib yubordi. Chatnagan yerga bo'sh qorindan ichak-chavoqlar to'kildi. Ona bo'ri tumshug'ini ichkariroq suqib, yuragini sug'urib olmaguncha Bo'z hali tirik, yirtilgan tomog'i bilan nafas olayotgan edi.

Keyin hammasi tugadi... Ona bo'ri yulingan yurakni og'zidan tushirib yubordi, va ehtimol, ilk marotaba bolalariga munosabati jihatidan o'ziga mos bo'lmagan holda alamli va zolimona tikildi. Bir-birini turtishib, chiyillab, Bo'zning qonini yalayotgan kuchuklar onaning nigohidan qo'rqib ketib, dong qotishdi va shu zahoti bu qarashdan boshqa bir ishorani payqab, yerda yotgan iliq go'sht bo'lagini — yurakni tilkalashga tushishdi. So'ngra o'ljani yutib bo'lib, o'lik bo'rining qorniga tumshuqchalarini suqdilar.

Ona bo'ri ancha bo'shshandek edi. G'azabi biroz tinchib, sabrsizlik bilan chapillatib, bo'rining ichak-chavog'ini parchalayotgan kuchuklariga qaradi, erinchoqlik bilan ulardan ko'zini uzib, o'lik Bo'zning kallasiga boqdi, keyin yana shunday erinibgina kuchuklarga, bo'ri qoldiqlariga orqasini o'girdi, orqa oyoqlariga cho'kib, tumshug'ini tungi osmonga ko'tardi va asta-sekin kuchayib borayotgan ovoz bilan uvillay boshladi.

Ikkala kuchuk ham Bo‘zning qornidan qonga bo‘yalgan tumshuqchalarini chiqardilar, ular o‘z hayotlarida onalarining bunday uv tortishini ilk marotaba eshitayotgan edilar; ona ovoqidagi mudhish ohanglar ulardagi ochlik tug‘dirgan ochko‘zlikni yenggan edi. Ular xuddi qoqib qo‘ygandek bir muddat qotib turib qolishdi. Agar ular Sharq tomon bunday uzoq, chorasiz qochishdan omon qolish baxtiga muassar bo‘lsalar, onalarining ulishi bir umrga xotiralarida qolsa kerak.

Tez orada ochlik o‘z kuchini ko‘rsatib, kuchuklar yana Bo‘zning qon hidi kelib turgan iliq qorniga bosh suqdilar.

Tong otmoqda edi.

Kuchuklar miriqib to‘yib, balki butun yo‘l davomida birinchi marta tinch uyquga ketgandilar. Ona bo‘ri boshini oldingi panjalariga qo‘ygancha, bo‘ri qoldiqlariga orqa o‘girib yotardi. Uning sal qisilgan ko‘zlari uzoq-uzoqlarga tikilgan edi. Tong yorishgani sayin ona bo‘rining nigohi, uning terisi osilib qolgan, qovurg‘alari turtib turgan ozg‘in tanasi, bo‘ynidagi, kuraklaridagi, dumidagi jonsiz yungi jonivorning o‘lar darajada charchaganini borgan sari kuchliroq bildirayotgandi.

Ona bo‘ri qo‘zg‘alib, uxlab yotgan kuchuklarni aylanib o‘tdi va Bo‘zning tilkalangan jasadiga yaqinlashdi. Lekin unga qaramay to‘xtadi. Kuchuklar Bo‘zning eng mazali joylarini — o‘pkasini, qoratalog‘ini yeb, ozib ketgan sonlarini g‘ajib tashlagan edilar. Hatto ba‘zi joylarda suyaklarga ham borib yetgandilar; otayotgan tong nurida bo‘rining suyaklari yirik qoziq tishlar misoli oqarib turardi.

Ona bo‘ri, hali ham g‘ajilgan qoldiqlarga qaramay, ular atrofida bir necha marta aylandi, yana to‘xtadi. Xuddi navbatdagi o‘ljaning bo‘g‘izini mo‘ljallab Bo‘z bilan birga ta‘qib qilib, uzoq quvgandan keyingi damlardagidek tez-tez nafas ola boshladi. Uning nafasiga monand qoziq tishlari orasidan yopishqoq so‘lak oqardi.

Bu hol uzoq davom etmadi. Nihoyat, u ehtiyotkorlik bilan bir-bir bosib jasadga yaqinlashdi. Suyaklarni yalay boshladi. Keyin shoshilmay, kuchuklarning mayda tishi yeta olmagan joylardagi go‘shetni qirib yedi. Son suyaklarni top-toza qilib kemirdi, umurtqa suyagini g‘ajib tashladi va to‘xtadi. Bo‘rining orqasi batamom

yeyilgandi. Ona bo‘ri to‘ymagani aniq bo‘lsa-da, son terisini biroz chaynadi xolos, keyin tananing yuqori qismini ajratib olib, uxlayotgan kuchuklar tepasiga sudrab olib bordi. Orqaga qaytib, Bo‘zning oyoq suyaklarini g‘ajib, iliklarini so‘rishga boshladi.

* * *

Ona bo‘ri Bo‘zdan qolgan qoldiqlarni tishlagancha oldinda, uning ortidan kuchuklar Sharq tomon ketib borardilar; to‘ygunlaricha go‘sht yegan kuchuklar avvalgi farovon paytlardagidek tetik, uch kun ichida sezilarli o‘sganligi ko‘zga tashlanar, buning sababi faqat to‘lishib qolganliklari emas, balki qarashlaridagi jonlanish, xulq-atvorlarining, quloqlari va dumlari harakatining o‘zgarishi edi.

Ularning sezilarli darajada ulg‘ayganligi ona bo‘ri mehribonligi va g‘amxo‘rligining kamayishiga olib kelganga o‘xshardi.

Bo‘z halok bo‘lgandan keyingi uch kun ichida ona bo‘ri kuchuklariga munosabatda ancha dag‘al va qat‘iyatli bo‘lib qolgan edi. Tez-tez asabiy irillar, tishlarini g‘ijirlatar, panjalari bilan tarsaki tushirar, boshi bilan chetga turtar edi. Lekin bu kunlarning kutilmagan tasodifi shundan iborat ediki, kuchga to‘lib qolgan kuchuklar onalariga xuddi shunday tishlarini irjaytirib, irillashardi.

Sharqqa ketadigan yo‘l esa hech tugamasdi... Ular kechalari yo‘l yurishar, ertalab ona bo‘ri kuchuklarga qolgan go‘shtdan yeyishga ijozat berar, kuchuklar o‘zgacha ochko‘zlik bilan, o‘zaro gijillashib, sal-pal hidlangan va shu sababli yumshagan go‘shetni yerdilar. Ona bo‘ri biroz narida ularni diqqat bilan kuzatar, va ma‘lum bir vaqtdan so‘ng ularni ovqatdan haydar edi.

To‘ymagan kuchuklar alam bilan irillab, qancha urinishsa ham, onalarining panjalari orasidagi yegulikka yeta olmasdilar. Charchab uxlab qolgan kuchuklar yoniga yotib, panjalari bilan ularni bag‘riga bosgancha ona bo‘ri ham mudrardi. Kechqurun yana yo‘lga tushishar, lekin ona bo‘ri hali ham namlik hidini sezmayotgan edi.

Namlik o‘lja, ya‘ni hayot degani edi.

Ona bo‘ri hech narsa yemas edi, faqatgina kuchuklarning kuchi yetmagan suyaklarni qarsillatib sindirar, iligini so‘rardi.

Endi kuchuklar onalarining yara bosib ketgan bag‘riga emish uchun suqilmasdilar.

* * *

Bo‘zning jasadida bosh yo‘q edi. Ona bo‘rining qoziq tishlaridan oldingi panjalar terisi osilib turar, kuchuklar qovurg‘alar orasidagi go‘shetni yeb bo‘lishgan, lekin bo‘yinda, panjalarda hidlangan ozroq go‘sh t qolgan edi; qurg‘oqchilik esa avjida, Sharqqa olib boruvchi yo‘l davomida hayot deb atalgan hamma narsani kuydirib tamom qilgan, chiriyotgan go‘sh t hidiga na zog‘, na qirg‘iy kelar, atrofda bir dona ham pashsha yoki boshqa hasharat ko‘rinmas edi.

Ona bo‘rining to‘xtaganini ko‘rgan kuchuklar ovqat payti kelganligini anglashdi. Ona qarshisiga turib olib, so‘laklarini oqizib, sabrsizlikni yaqqol ifoda qilgan holda bu vaqtni kutardilar. Bu safar ona bo‘ri shoshilmadi, nihoyat Bo‘zdan qolgan oxirgi qoldiqni ular oldiga tashlab, o‘zi nari ketdi. Kuchuklar ovqatga tashlanishdi. Hovliqib, bo‘laklarni yulib olishar, deyarli chaynamay yutib yubirishardi.

Yerga cho‘kkalab, kuchuklarni kuzatgan ona bo‘rining horg‘in ko‘zlarida dard namoyon edi: go‘sh t tugadi, hozirgi ovqatlanish oxirgisi edi. Buni ona bo‘ri tushunib turardi.

U boshini ko‘tarib, sezgirlik bilan havoni iskadi, hayotbaxsh hidni payqagisi kelgan ko‘rinardi.

Kuchuklarga esa bularning barchasi baribir edi. Bir-biriga irillab, qolgan yegulikni talashib-tortishib yeyishardi.

So‘ngra ona bo‘ri boshini ko‘tarib, uzoqlarga — Sharqqa — najot kutayotgan tarafga tikildi, sekin ko‘zlarini yumdi.

Shu onda ona bo‘ri nimalarni his qildi ekan, nimalar ko‘ngli-dan kechdi ekan?

Bo‘zdan faqat suyaklar, g‘ajilgan teri qolgandi. Qorni to‘ymagan kuchuklar qoq-quruq suyaklar va teridan nari ketolmay qo-lishgandi, axiyri yegulik biror bir narsa qolmaganini tushunib, bir-birlariga jahl bilan irillashdi. Aftidan, bu irillash uyg‘onib, yu-

zaga chiqishga boshlayotgan bo'riga oid shafqatsizlik edi. Keyin yarim och bo'richalar quturib, tishlash, tirnash uchun bir-birlariga tashlanishdi.

Ona bo'ri o'rnidan qo'zg'alib, kuchuklarga yaqinlashdi. Panjalari bilan urib, ularni ajratdi, jahl bilan irilladi. Endi u kuchuklarga qaramasdi, yerga tikilardi, uning irillashi faqatgini kuchuklar uchun emas, ularni o'rab turgan butun borliqqa qaratilgan edi.

U Bo'zning qoldiqlariga yaqinlashdi va yana achchiqlanib g'udrandi, terining ichki tarafini yalay boshladi, keyin o'tirib, kuchi yetganча suyaklarni qarsilatdi. Kuchuklar onasining yoniga yugurib kelib, orqa yoqlarida turib, bir-birlarini turtkilab, sal qolsa ona jag'iga kirib ketay deyishardi.

Ulardan chetga burilib, og'zidagi maydalangan suyaklarni tupurdi. Kuchuklar ona so'lagi va ilik bilan birga maydalangan suyaklarni shoshilib yutishar, yuta olmaganlarini yutoqib yalashardi.

* * *

Ona bo'ri oldinda, uning ketidan kuchuklar yo'lda davom etishardi. Endi ular uchun kun va tunning farqi qolmagan, imkon bo'lganda yurishar, kuchlari tugaganda yerga yotib, g'alati yarim-mudroq holga tushishardi.

Bo'zning terisi, ona bo'ri maydalay olmagan suyaklari uzoqlarda qolib ketgandi.

Namlik isi sezilmasdi... Bo'zni yeb tugatgandan so'ng kuchuklarning ishtahasi kuchaygandek edi, lekin hech qanday yegulik yo'q edi va ular yana ozib ketishdi. Ona ortidan sudralib ketaverish kuchuklar uchun chidab bo'lmas azobga aylandi. Ona bo'ri ham sillasi qurib, sekin yura boshladi, ammo hatto shunday yurishda ham kuchuklar unga yetib olishga ulgurolmay qolishardi. Shunda ona bo'ri orqaga qaytib, tumshug'i bilan ularni turtib-turtib, olg'a yurishga undardi.

Bunday paytlarda kuchuklar g'ingshib akillar, zaiflashgan ovoz bilan chiyillashardi. Ular ovozida mung, hasrat bilan birga yolvorish ohanglari eshitilardi. Bu esa umidsizlangan ona bo'riining g'ashiga tegar, u tishlarini irjaytirib, qoziq tishlarini qisib, kuchuklarga irillar, biroq buning ularga hech qanday ta'siri yo'q edi: ku-

chuklar g'amgin ingillashar, yana sut umidida onasining qoraqo'tir yarali bag'riga intilishardi.

Nihoyat kuchuklar umuman yurishga holi qolmagan kun ham keldi.

Ona bo'ri o'girildi: bolalari undan bir necha odim narida turishardi. Onaning ularni chaqirib, norozi irillashlari zarracha ham ta'sir qilmagan kuchuklar joylaridan siljimidilar. Ona bo'ri qaytib ularni panjalari bilan turtib, oldinga yurishga undadi. Ammo yo'lda davom etish o'rniga kuchuklar yerga yiqildilar, qiynalib o'rinlaridan qo'zg'alib, titroq oyoqlarida turar ekanlar, yana yolvoruvchi ohangda ingillab yubordilar.

Ona bo'ri, hoynahoy, hammasi nihoyasiga yetganini tushundi, kuchuklarni boshqa undamadi, ular atrofida aylana boshladi. Shu payt yengil shabada orziqib kutilgan namlik isini keltirgandek bo'ldi; ona bo'ri turgan yerida toshdek qotdi, boshini ko'tarib Sharq tomonga qaradi, va chamasi, bir necha lahzadan so'ng suv hidini yanada aniqroq his qila boshladi. U sergak tortib, quloqlarini dikkaytirdi, kuragidagi, yag'rinidagi yunglari hurpaydi, dumi taranglashdi. Ona bo'ri birpas qimirlamay turdi, so'ngra kuchuklarga yaqinlashib, ularning yuz-ko'zini yalay boshladi.

Kuchuklar tilini osiltirib, onasi yalagan joylarni yalashga harakat qilar, aftidan, onasining so'lagi bilan to'ymoqchi bo'lishar, ammo onaning og'zi quruq edi.

Endi kuchuklar ingillamay qo'yishgandi, ona bo'ri ehtiyotkorlik bilan ularni yurishga undamoqchi bo'ldi. Kuchuklar zaif chiyilashdi, onasi biroz qattiqqo'llik bilan harakat qila boshlaganda esa yana yerga yiqilishdi.

Onaning barcha urinishlari zoye ketdi.

Ochlik kuchuklarni adoyi tamom qilgan edi.

Ona ularni turib, olg'a yurishga endi chorlamay qo'ydi. Chet-roqqa borib, o'tirib oldi. Sharqdan kelayotgan namlik hidi tobora yaqqol sezilar, ona bo'riga azobli yurishlari tugaganidan darak berardi. Biroz o'sha tarafga qarab turgan ona bo'ri g'udrana-g'udrana kuchuklariga qaradi. Onasining vaysashlaridan qandaydir muhim ma'no uqqan kuchuklar jimib qolishdi, titroq oyoqlarida zo'rg'a turgancha, o'sib borayotgan sarosimalik bilan onasiga tikilishdi.

Ona bo‘ri dumini qimirlatib, kuchuklarga sinchkovlik bilan qaradi. Bu lahzalarda faqat o‘zi emas, kuchuklarning ajdodlardan qolgan xotirasi ham uning nima demoqchi bo‘lganini tushuntirardi.

Birdan ona bo‘ri xuddi Bo‘zga o‘xshab o‘zini kuchuklar oyog‘i ostiga otdi. Dovdirab qolgan kuchuklar orqaga tislandilar. Keyin nimadir ularga kuch bergandek oldinga otilishdi, va ikkisi ham onasining bo‘g‘ziga yopishishdi. Lekin shuncha urinsalar ham, uning terisini yorib tashlashga kuchlari yetmadi, va bu ojjizlik ona bo‘rining g‘azabini qaynatib yubordi.

Ochlik hissi uning o‘zida shunchalar kuchli ediki, ona og‘riqni umuman sezmasdi, to‘g‘rirog‘i, ochlik va og‘riq bir-biri bilan qorishib ketgandi. Ona g‘ayri ixtiyoriy holda hammasi tezroq tugashini istardi. Lekin tajribasizlik, kuchsizlik va hali ularni tark etmagan tug‘ma bog‘liqlik kuchuklarga ona bo‘g‘zini g‘ajib tashlashga, uni o‘ldirishga yo‘l bermayotgan edi.

Onaning bo‘ynidan qon siza boshladi, yangi qon ta‘mi kuchuklarda vahshiylik, ochko‘zlik hissini uyg‘otdi. Tobora kuchayib borayotgan g‘ayrat bilan ona bo‘g‘ziga tishlarini botirishdi. Lekin hiqildog‘iga yetish ular uchun mushul bo‘layotgandi.

Ona itoatkorlik bilan jimgina ko‘zlarini yumib yotardi. Birdan u tomog‘idan chiqayotgan o‘z qoni hidini tuydi. Bu his ochlik uqubatlari bilan bog‘liq his bo‘lib va u ona bo‘rining jig‘iga tegar, jalb qilar, uning bo‘rilik mohiyatini, jonzotlik mohiyatini uyg‘otayotgan edi.

Onaning ko‘zlari ochildi. U beixtiyor sof, ko‘m-ko‘k samoga tikildi. So‘ngra go‘yo ana shu soflikda Sharqdan kelayotgan nam nafasni yanada aniqroq his qilgandek, uning ko‘zlari holsiz yumildi. Bu hid uning bo‘ynidan chiqayotgan qon hidi bilan aralashib ketdi va bu hayot islarining qovushishi bilan ona bo‘ri yangidan kuchga kirgandek g‘azab bilan irilladi. So‘ng boshini bir silkib, kuchuklar tishidan bo‘ynini ozod qilgach, nariroqqa borib, kuchuklarga qornini o‘nglab yotib oldi.

U instinktiv ravishda kuchuklarga yordam berishni istardi.

Ona bo‘ynini kuchuklar tishidan ozod qilganida ular avval onasini tushunmay, dovdirab qolishdi. Keyin ikkilanishlari qayoq-qadir g‘oyib bo‘lib, ana shu damlarda ham ona bo‘ridan kelayot-

gan mehr, iliqlik, tug‘ishganlik hissi xiralashgandek bo‘ldi. Oxirgi marta g‘azab bilan irillagan ona bo‘ri bolalarining tishlariga qornini o‘nglar ekan, onalarining nima demoqchi bo‘lganini, so‘nggi onlarida nima talab qilganini, nima tilaganini kuchuklar darhol tushundilar. Siyrak junli, yumshoq terini osonlik bilan yorib tashlab, ona qorniga tumshuqlarini suqдилar. Jigarini parchalab, ichki suyuqlik, qonga belangan holda yulingan bo‘laklarni shoshilib yuta boshladilar.

Ona hech qanday og‘riqni sezmay yotardi. Ehtimol, hislari ham tomirlari kabi to‘silib, miyasi endi hech nimani qabul qila olmayotgandi.

Jigarini parchalayotgan kuchuklarining chiyillashi ona bu hayotda eshitgan oxirgi tovushlar edi. Keyin unga bolalari emayotgandek tuyuldi, xuddi ularning tilini, so‘laklarini his qilgandek bo‘ldi, va bu hayotni tark etdi.

* * *

Qorni to‘yib biroz kuchga kirgan kuchuklar dadillik va sabot bilan bir-birlarining ketidan ketishardi... Instinkt ularni Sharqdan kelayotgan namlik isi tomon boshlab borayotgan edi.

IMTIHON

Qaniydi, yomg'ir yog'sa, salqin tushsa, u ham xuddi bolalik paytlaridagidek yomg'ir tagida oyoqyalang chopqillab yursa... Qulog'ining ostida otasining ovozi jaranglasa:

— Ulvi, bu yoqqa kel, yomg'irning tagida shamollab qolasan!

Xuddi shu onda Ulvi orqasiga o'girildi. Oyog'i sirpanib, ko'l-makka yiqildi.

“Ulvi, qo'rqma, tur o'rningdan, yiqildingmi, darhol turishga harakat qil” — otasining ovozi bu gal shundoqqina yaqindan eshitdi. O'rnidan turdi. Yuz-ko'zlari, tizzalari loyga botgandi. Otasi uni ko'tarib, vannaxonaga olib kirdi. Iliq suvda yuvintirdi...

Ulving issiqda tomog'i qaqrab ketgandi. Uyqusizlikdan ko'zlari qizargandi. Poyezdning ichi xuddi tandırdek qizigan. Kechasi bilan uxlolmay, endigina ko'zi ilingan ekan... Tog'asinikida uch-to'rt soat uxlab olishni, keyin turib yuvinib, tamaddi qilib, imtihonga borishni mo'ljal qilgandi. Lekin bunday bo'lmadi.

Vokzalning kutish zali gavjum. U arang bo'sh o'rindiq topib joylashdi. Imtihon boshlanguncha shu yerda bo'lib turadi. Hali soat besh yarim. Shuning uchun hali suv ichishga ham bormadi. Qaytib kelgunicha joyini birov egallab olishi mumkin. Hech bo'lmasa shu o'rindiqda yonboshlab, bir-ikki soat mizg'ib olishi mumkin.

Onasi u bilan Bokuga kelmadi.

— Ortiqcha xarajatning nima keragi bor? Ertaga non puli ham qolmadi. Bokuga borsang, tog'ang besh-to'rt manat berar, faqat tejab ishlat.

Bokuga chiptani ammasi olib berdi. U Ulvi bilan birga otasining qabrini ziyorat qilgani bordi. Ammasi mozor boshida ancha ko'z-yosh qildi. Bir paytlar, otasining jasadini Jojuq Marjonlidan Ganjaga olib kelishganida ham ammasi dod solib yig'lagandi. Le-

kin bu gal ammasi boshqacha yig‘ladi. Xuddi tirik odamning oldida diydiyo qilayotgandek edi:

— Aka, ko‘ryapsizmi? Atrofga qarang, Vatanni, yurtni sotganlar izzatda, Vatan deb yonib-kuyib yurganlar xor-u zor. Sizga zaril kelganmidi? Juvonmarg bo‘lib nima topdingiz? Loaqal shu bolani o‘ylamadingizmi?

Ulvi ich-ichidan xo‘rligi kelib yig‘ladi. Kechqurun uni ammasi kuzatib qoldi.

— Jiyan oxirgi uzugimni Mudofaa vazirligiga bermaganimda, men ham sen bilan borgan bo‘lardim, endi shuni amallarsan, — deb jiyaniga yigirma manat (taxminan 120 ming so‘m — tarj.) tutqazdi. Ulvi pulning yarmini onasiga tashlab ketmoqchi edi. Onasi olmadi. Ulvining ko‘ngli g‘alati bo‘lib ketdi. Axir uyda non puli ham qolmagan...

Uch oydan beri onasi ishlayotgan kutubxonadan oylik berishgani yo‘q. Otasining nafaqasini ham berishmaypti. Shu vaqt ichida onasi qarz-havol qilib ro‘zg‘orni tebratib turgandi. Ikki kundan beri uyda kartoshka ham, non ham ham qolmadi. Sovutkichda bir stakan qatiq, uch to‘g‘ram non qolgandi, xolos. Onasi shu qatiq bilan nonni o‘g‘liga uvvalo yedirishga urindi. Ulvi “o‘rtog‘imnikidan do‘lma yedim” deb onasini aldadi. Onasi ham “ishxonada qizlar bilan ovqatlandim” deb uni aldashga tirishardi. Aslida ikki kundan beri ona-bolaning ichiga issiq kirmagandi. Ik-kovi ham suv ichib ochlikni yengishdi...

Ulvi kutish zalini ko‘zdan kechirdi. Hayot ham xuddi shu vokzalga o‘xsharkan. Odamlar kelib ketaverarkan. Imtihondan oldin shu yerda tunab qolishini xayoliga ham keltirmagandi. O‘z tog‘asining uyida ham unga joy topilmadi. Tog‘asi Bokuda katta lavozimda ishlaydi. Uning Antaliyada, Italiyada muhtasham vil-lalari, xizmatkorlari, tansoqchilari bor. Tog‘asi tez-tez televizorga ham chiqib turadi. Ulvi har gal tog‘asining so‘zlarini televizordan eshitib, xijolat chekadi. Chunki uning gapi boshqalarnikidan farq-lanmaydi. Televizorda asosan maosh bilan arang kun ko‘radigan-lar, olimlar, muallimlar, talabalar, qochoqlar gapirardi. Ularning uyida bir chaksa unlari yo‘q, ammo, butun hayotlarini kimlar uchun qurbon qilishga tayyor.

Ulvini lablari quruqshab borardi. Ochlik va uyqusizlikdan ko‘z oldi qorong‘ilashdi. Besh manat pulini ishlatasa, bitta do‘ner, bir stakan choy olishi mumkin. Qolgan puli bilan bir amallab, avtobusda Ganjaga yetib oladi.

U tog‘asining o‘g‘li uni vokzalda kutib olishini, mashinasida uyga borib, mehmon qilishini kutgandi. Lekin bunday bo‘lmadi. Hechqisi yo‘q. Yaxshiyam bu dunyoda vokzallar, vokzallarda esa kutish zallari bor.

Kechagidek esida: urushdan ilgari tog‘asi perionit tufayli operatsiya stoliga yotqizilganda unga shoshilinch qon kerak bo‘lib qoldi. Tog‘asi o‘lim to‘shagida yotardi. O‘sha paytda otasi Ulvi bilan birga Bokuga, do‘stining uyiga kelgandi. O‘shanda Sog‘liqni saqlash vazirligida ishlaydigan qaynisinikiga telefon qilgan otasining rangi o‘zgardi:

— Qaysi kasalxonaga?

U taksi tutib, Ulvi bilan qaynisi yotgan kasalxonaga yetib bordi. Uning yonidagi karavotga yotib, o‘z qonini unga berdi. Tog‘asi tirik qoldi. Kasalxonadagilar tog‘asining atrofida parvona edilar. Otasi Ulvining qo‘lidan tutib, zinapoyalardan tushayotib, munkib ketdi.

Ulvi “otamga yordam bering” deb qichqirdi. Bolaning ovo-zini eshitib yugurib kelgan hamshiralalar otasiga ukol qilishdi. “Tez yordam” mashinasida uni Ahmadlida yashaydigan do‘stinikiga jo‘natishdi. Otasi mashinada ketayotib, o‘g‘liga qarab jilmayishga urindi, ammo uddasidan chiqolmadi.

Otasining do‘sti ham xuddi u kabi oddiy ishchi edi. Bir maktabda o‘qishgandi. Yaxshi odam edi. “Do‘xtirlar otangdan juda ko‘p qon olib yuborishibdi” degandi o‘shanda. Ikki kun o‘tib, Ulvi otasi bilan Ganjaga qaytdi. Ikki oy o‘tib, ko‘ngillilar qatori urushga ketdi. Jojuq Marjonlini armanlardan ozod qilish vaqtida shahid ketdi.

Ayni damda Ulvi o‘sha tog‘asiga umid bog‘lagandi. U poyezddan tushishi bilan otasiga telefon qildi. Telefonni yangasi oldi.

— Ha, Ulvi, yaxshimisan? Onang qalay? Tog‘angmi? Tog‘ang uxlayapti. Uyimizda odam ko‘p, qarindoshlarimiz bolalarini o‘qishga olib kelgan... Sen qayerga hujjat topshirding?

— Huquqqa.

— Chakki qipsan, hozir bilim bilan o‘qishga kirib bo‘larkanmi? Otangni do‘stining uyida turibsanmi?

— Men... haligi...

— Bo‘pti, mayli omad...

Ayol shunday deb go‘shakni ilib qo‘ydi. Ulvini sovuq ter bosdi. Daf‘atan o‘zini olomon orasida qanchalik yolg‘iz ekanini his etdi. Telefon-avtomat yonida Qorabog‘ urushi qatnashchisi harbiy guvoohnomasini odamlarga ko‘z-ko‘z qilib, tilanib o‘tirardi.

Birdaniga otasining ham nogiron ahvolda tilanib o‘tirishini tasavvur qilib, yuragi uvushdi.

Oxirgi bor otasi urushga ketayotganida ko‘rgandi. Otasi bag‘ri-ga bosdi. Keyin orqasiga o‘girilmasdan ketdi.

Oyog‘dan mador ketganini his qildi. Agar hozir tamaddi qilsa, imtihon boshlanguniga qadar yana qorni ochqaydi. Keyin imtihon-ga och-nahor kirishiga to‘g‘ri keladi. Demak, chidaydi. Imtihon-gacha suv ichib qornini aldasa bo‘ladi.

Ulvi yo‘lga chiqishdan avval o‘sha yerda bir piyola choy ichib, chiptani oldida, xayrlashdi. Besh-olti qadam yurmay orqasidan ammasining ovozi eshitdi:

— Bolam, to‘xtab tur.

Ulvi to‘xtadi. Ammasi uning cho‘ntagiga pul solib, yig‘ladi. Ulvining ham tomog‘iga nimadir tiqildi. Yonidan har daqiqada bir chet el mashinasi shitob bilan o‘tib ketardi. Darvozalarning aksari-yati “uy sotiladi” degan jumlar bitilgandi. Ulvi orqasiga qaradi. Ammasi oqsoqlana-oqsoqlana uyi tarafga ketib borardi. Gaz, chi-rodan mahrum shahar xuddi bu yurt uchun o‘gay hududga aylangandi.

Ulvi ham o‘zini tangrining o‘gay bandasidek his qildi.

U ketib borardi. Shamol uning ko‘zlariga qum ufurardi. Ko‘z-lari achishdi. Ko‘zlari achisha-achisha otasining kulib turgan cheh-rasini xotirladi. Otasi urushga ketishidan avval uning ko‘zlariga tikilib shunday degandi: “Bolam erkak kishi yig‘lamaydi. Erkak kuchli bo‘lishi kerak!”

Ulvi ayni damda kutish zalida yig‘lamoqdan beri bo‘lib turganida otasining so‘zlarini esladi.

U arang joylashib olgan chogʻida yonida oʻtirgan semiz odam oʻrnidan turib ketdi. Uning oʻrnini ikkita chelak koʻtarib olgan oʻrta yoshli ayol egalladi. Ayol qattiq charchagani uning horgʻin yuzlaridan koʻrinib turardi.

- Senga yoʻl boʻlsin, yigitcha?
- Men... boya keldim.
- Bu yerda nima qilib oʻtiribsan?
- Boradigan joyim yoʻq.

Otasining Ahmadlida turadigan doʻstini esladi. U uch yil avval Rossiyaga koʻchib ketgandi. Ulvining javobidan keyin ayol ancha payt jim qoldi. Keyin uning ismini soʻradi.

- Meniki esa Saritel... imtihon topshirgani keldingmi?
- Ha.
- Yaxshi tayyorlandingmi?
- Oʻqituvchilarim yaxshi deyishdi-ku...
- Qayerga hujjat topshirding?
- Huquqshunoslikka.

Ayol kulib qoʻydi va “niyatingga yet” dedi.

— Meniyam koʻrib turibsan, meva sotyapman. Uch yetimchani boqishim kerak. Erim aprel urushida shahid ketdi.

Shu gaplarni eshitgach, negadir Ulvi qadrdon odamini topgan-dek ichi yorishdi.

- Maosh bilan yashash qiyin boʻlib qoldi, — xoʻrsindi ayol.
- Ishlaysizmi?

— Ha, men oʻqituvchiman. Universitetni imtiyozli diplom bilan tamomlaganman. Keyin akademiya aspiranturada oʻqidim. — dedi u boʻsh chelaklarga mahzun tikilib qolarkan. — Bu yurtda aqlli, or-nomusli odamlarga joy yoʻq ekan.

Saritel Ulvini soʻroqqa tutdi. Tarix, geografiya, adabiyot, ingliz tili boʻyicha maslahatlar berdi, tushishi mumkin boʻlgan ayrim savollarning javobini yozdirdi...

QON HIDI

Qon hidi daydi itlarni o‘ziga tez jalb etardi. Ular och va tashna ko‘zlarini qon to‘la o‘raga tikkancha qimir etmay turishar, dam-badam so‘laklarini oqizib, tillarini osiltirishardi.

Chamasi, bu xaroba, badbo‘y kushxonada hammasiga Shami balogardon edi. Bolaligidan ota-onasining yugur-yugurlari, ilm-u amallariga qaramay, sho‘rlik Shamjining aqli noqisligicha qoldi. Aslida Shami bo‘lmagani bilan bu yerda jonivorlarni so‘yish ishlari to‘xtab qolmasdi.

Shami anchadan beri bu kushxonaning egasi Homiddinga ko‘maklashib keladi. Yaratgan uni aqldan qisgan bo‘lsa-da, kuchquvvatdan siylagan. Bir o‘zi uch kishi amallab yiqitishi mumkin bo‘lgan buqalarni bir musht bilan ag‘dara olardi. Shu bois, u qishloqda “Shami ho‘kiz” degan laqab ham orttirgan.

Kushxonaga yangi olib kelingan semizgina buqacha Homiddinning qontalash ko‘zlariga befarq qaragancha kavsh qaytarar, bu paytda Homiddin egovni topolmay xunobi chiqayozgandi.

Nihoyat g‘udrana-g‘udrana egovni ham, o‘tkir pichog‘ini ham, go‘sh t maydalaydigan boltasini ham topdi. Qassob pichoqni chaqqonlik bilan charxlarkan, chiroqning xira yorug‘ida ham uning o‘tkir tig‘i yaraqlab ko‘zni olar, egovga ishqalanayotgan pichoq odamning g‘ashini keltiruvchi g‘alati ovoz chiqarardi. Ishga kirishishdan oldin Homiddin osmonga qarab, nimalarnidir pichirladi, chamasi mol so‘yishda o‘qiladigan duo bo‘lsa kerak.

Buqacha esa hamon beparvolik bilan kavshar, yelpig‘ichsimon dumi bilan sag‘risiga qo‘nayotgan pashshalarni haydar, qarshisidagi bu beshafqat kimsa uning qoniga tashna ekanidan bexabar edi. Buqachaning shoxlari o‘tkir, peshonasidagi uchburchak qashqasini aytmasa, yaxshi boqilgani uchunmi, tanasidagi bilqillama et va yog‘ mumdek qop-qora yaltiroq terisini yorib yuboraman derdi.

Uning shu ko‘rinishi hamon pichoq charxlash bilan mashg‘ul qassob Homiddinning ham zavqini keltirdi shekilli, egovni tashlab, sag‘risiga shapatilab qo‘ydi:

— Vah-vah, manavini buqa desa bo‘ladi! Go‘shiyam ipakning o‘zi bo‘lsa kerak, yegan odamning badani yayraydi-da!

Shami kushxonaning dim havosida terlagan peshonasini kir yengi bilan artarkan, buqachadan ko‘z uzmay g‘o‘ldiradi:

— Homiddin, qara, juda chiroyli buqacha ekanmi?

— Naq suvratning o‘zginasi deysan, — o‘zi bilmagan holda uning gapini ma‘qulladi Homiddin.

Shami kushxona eshigi oldida o‘sgan o‘tlardan bir tutam yulib, jonivorning tumshug‘iga tutdi. Buqacha Shamining kaftidagi may-salarni tili bilan chaqqon ilib olarkan, unga minnatdor termilgan-cha yana kavshanishga tushdi.

— Yuraging tosh sening, Shami, tosh, — to‘ng‘illadi qassob. — Bechorani nimaga aldaysan? Unga bergan yemishing oshqozoniga tushmay turib, men uning ishini bitiraman.

— Homiddin, nahot shunaqa chiroyli buqachani o‘ldirishga ko‘zing qiysa? Unga rahming kelsin, o‘ldirmay qo‘ya qol! — yalindi Shami.

— Hazillashyapsanmi, — ermakladi qassob. — Odamlar och, ularga go‘sh kerak. Sen bo‘lsang, qayerdagi bir molga rahming kelsa? Gapni ko‘paytirmay ishga kirish.

Qassob qon va najas yuqli peshbandini bog‘lab, molga qisilib keldi. Yaqinlashayotganini ko‘rgan jonivor bir noxushlik hidini sezdimi, betoqatlanib, arqonni uzishga chog‘landi. Ammo, bu harakati zoye ketgach, norozilik bilan mo‘lab qo‘ydi.

— O‘chir ovozingni, — o‘shqirdi qassob, negadir sun‘iy dag‘allik bilan. — Gapini qara-ya! Bilasanmi, Shami, u nimalar deyapti?

— Sen bularning tilini tushunasanmi? — soddalik bilan so‘radi Shami. — Nima deyapti?

— Tushunganda qandoq? Aytishga til bormaydi. Yaramas, hayvon! Men-ku, mayli, yoshimni yashab bo‘ldim. Ammo, manavi sho‘ring qurg‘ur notavon bolani nimaga qarg‘aysan? Uni shundoq

ham Xudo qarg‘agan bo‘lsa? Butun avlod-u ajdodi bilan qo‘shib qarg‘aysanmi?

Homiddinning hiylasi ish bergandi. Shamining rangi oqarib, keyin ko‘zlari g‘azabdan qisilib ketdi. Qo‘llari musht bo‘lib tugildi.

— Voy, yaramas, voy ho‘kizdan tarqagan. Hali meni ota-onam-niyam qo‘shib qarg‘adingmi? Ular senga nima yomonlik qiluvdi? Hozir senga ko‘rsatib qo‘yaman.

U bor kuchini to‘plab, ho‘kizning gardaniga musht tushirdi. Buqacha shataloq otsa-da, yiqilib tushmadi. Bundan battar g‘azabi qo‘zigan Shami jonivorning manglayiga, yag‘riniga ayamay musht yog‘dira ketdi. Buqacha og‘riqdan noligandek cho‘zib mo‘ladi.

— Voy hayvon, Shamini jinji deypasanmi? — battar qitmirligi tutdi Homiddinning. — E, chidab turibsanmi? Darrov moyagidan burab tort, yiqiladi.

Qassobning o‘zi ham chetda turishni istamadi, jonivorning burun kataklariga qo‘lini tiqib, omburdek qisa boshladi. Ikki nozik yeridagi ayovsiz og‘riqqa dosh berolmagan jonivor nihoyat gursillab yerga quladi. Sho‘rlik buqa bo‘g‘ziga tig‘ qadalgan chog‘da jonini xalos qilmoqqa urinib, ovozi boricha bo‘kirdi.

Jonivorning bo‘g‘zidan otilayotgan qon favvorasi pasayib, jon talvasasidagi harakatlari zaiflashgani sari Shamining ham qahri so‘na boshladi. Nihoyat, o‘spirin uning oqarib qolgan jon-siz ko‘zlariga tikilarkan, badaniga titroq yugurdi. Xuddi buqacha “meni sen bo‘g‘izlading” deganday unga ta‘nali boqib turardi.

Qon o‘rani to‘ldirib, torgina irmoqcha orqali kushxona eshigi oldidan oqib o‘tuvchi ariqqa qo‘shila boshladi. Daydi itlarning biri ariqning qondan qizara boshlagan jildiroq suvini yutoqib chalpilatishga tushdi. Ammo, bundan uncha qoniqmadimi, yana junlari to‘kilgan yarg‘oq dumini likillatganicha orqaga chekindi. Uning sheriklari esa o‘z ulushlarini kutib, kushxona eshigiga umidvor boqib turishardi.

— Ey, Xudobexabar-a, qara, ho‘kizning kallasi qibladan og‘ibdi. O‘girib qo‘y, gunohiga qolma tag‘in!

Homiddin uchun molni qay tariqa so‘yish baribir bo‘lsa-da, vijdonini sal bo‘lsa ham poklab olish uchun shunday degandi.

Shami itoatgo'ylik bilan buqaning dumidan sudragancha boshini aytilgan tarafga o'ngladi.

Qassobning qo'llari jonivorning yangi, issiq qoniga obdan belangandi.

— Vah, buning qonini qara-ya! Qo'lni kuydiraman deydi-ya! Bu qonni xuddi qimizdek ichsa ham bo'ladi. Ming dardga davo.

— Men ham ichsam, tuzalamanmi? — ma'sum, umidvor ko'zlarini xojasiga tikdi Shami.

Homiddin bunaqa savolni kutmagani uchun shoshib qoldi. Nazarida chindan ham ana shu qonni ichsa, Shami tuzalib ketadigandek edi. Bordi-yu, u tuzalgudek bo'lsa, ikki dunyoda ham bu sassiq kushxonaga, Homiddinning yoniga qaytib kelmasligi aniq. Shuning uchun tezroq bu qonni itlarga berib tugatish kerak.

— E, Shami, gap-da buyam, — tishlarini g'ijirlatgancha gapirishga tushdi Homiddin. — Hozir shundog'am aqllilar ko'payib ketgan, kesak otsang, dononing boshiga tushadi. Aslida jinnilar dunyodagi eng baxtiyor odamlardir, agar bilsang. Jinnilar bilan hatto davlatning ham ishi yo'q. Qanday johillik qilsang ham, birov seni oborib qamamaydi. Ba'zan sening o'rningda bo'lib qolgim keladi, Shami!

Shami esa, uning gapini eshitmayotgandek edi:

— Qanday chiroyli ho'kizcha edi, peshonasida qashqasiyam boriydi, — beozor ming'irladi. Homiddinga qarab qo'ydi-da, yana o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi.

“U nega bunchalar muloyimlashib qoldi? Endi bu yerga boshqa kelmay qo'ysa-ya! Unda men tekin, beminnat yordamchini qayerdan topaman? Uni bu yo'ldan qaytarish kerak”.

Shaming bu yerda qiladigan boshqa ishi qolmagandi. U indamay ortiga burilib ketayotganida, Homiddin to'xtatdi.

— Shami, buqaning kallasi seniki. Olib bor. Onang ham suyunib qoladi. — Homiddinning bo'g'iq, jur'atsiz ovozi uning bu himmati o'ziga qimmatga tushganini anglatib turardi.

Shami iltifotsizlik bilan xo'rsindi-da, buqaning boshini shoxidan tutib, yelkasiga ortmoqlagancha kushxonani tark etdi. Uning ortidan xuddi munchoqdek qonli izlar qolar, bu qon tomchilar buqaning boshidan emas, baayni uning yuragidan tomayotgandi.

Shaminging butun kiyimlari, a'zoyi badani qonga belangan, ko'z yoshlari esa yuzlarini ivitib borardi:

— Shunday chiroyli buqachani so'ingan qo'llaring akashak bo'lsin, iloyim, Homiddin, — deya ming'irlardi o'ziga o'zi. — Senga o'ldirma, degandim, bari bir so'yding-a? Endi kushxonangga qaytib kelmayman. Endi hech qachon sen so'yadigan mollarni yiqitmayman. Sening yordamching bo'lmayman endi.

Uning qadam tovushlari itlarni sergak torttirdi. Butun a'zoyi badanidan qon hidi anqib ketayotgan yigitning orqasidan bir gala it ergashdi. Ko'p o'tmay butun dara et va qon talashayotgan itlarning vahshiyona shovqiniga to'ldi.

OQLOV

Xom g'ishtdan tiklangan bir qavatli kommunal turar joy binosi qasabaga kiraverishda tiklangan edi. Uzoqdan qaraganda, stansiyaning ehtiyot yo'lagiga kiritib qo'yilgan esdan chiqarilgan vagonni eslatardi bu uy. Eshigi ensiz dahlizga qarab ochiladigan torgina pastqam xonalar vagon kupelaridan farqlanmasdi. Bu oshiyonlarda umrguzaronlik qilayotganlar baayni g'am-qayg'udan yiroqdek ko'rinar, har qanday qiyinchilik va mashaqqatga sabr qilib kelishar, bir-biriga aka-uka, opa-singildek mehribon edilar.

“Jildom” deya nom olgan bu miskin qarorgoh ahli ertangi kunga qandaydir umid bilan boqar, go'yo bir kun kelib bu unutilgan “vagon-uy”ni chor tarafga pishqirib chopayotgan poyezdlar yorqin kelajak sari olib ketadigan o'xshardi.

Abutolib amaki ham urushdan qaytganidan beri shu yerda, “jildom” xonalarining birida tanholikda kun kechirardi. Bir eshikdan kirib chiqadigan qo'shnimiz edi u kishi.

Azondan, parovoz pishqirig'ini eslatuvchi bir ovoz meni uyqudan uyg'otardi. Derazadan mo'ralaganimda, Abutolib amaki qo'nji uzun etigini cho'tka bilan ishqalab tozalayotgan bo'lardi. Etigi yarqirab turgani uchun bir necha yeriga solingan yamoqni ham payqash qiyin edi. Shu tarzda har kuni ertalab Abutolib amaking ortidan termilganicha ishga kuzatardim. Tosh pillapoyalar

osha pastlab tusharkan, avval qo'nji uzun etiklari, to'pponcha qistirilgan enli kamari, yelkalaridagi qizil pogoni, oxirida harbiy-cha qora telpagi ko'rinmay ketar, xuddi yerga botib ketayotganga o'xshardi. Shundan keyingina hovli bola-baqraning baqir-chaqiriga, shovqin-suroniga to'lib toshardi. Gohida bolalarcha qiziqish bilan deraza osha Abutolib amakining xonasiga bo'ylanardim. Surp parda tutilgan, nim qorong'i, torgina xona menga xuddi ayiq yashaydigan ungurdek vahimali, shuningdek, allaqanday sirli va sehrli ko'rinardi.

Enkavede — mahallamizda kattalar kasbi-koriga ko'ra unga ana shunday laqab qo'yishgandi. Biz bolalar orqavarotdan uni Enkavede amaki deb atardik. Bu laqabning ma'nosini tushunmasak-da, eshitganimizda nechukdir vahimaga tushardik.

— Kelyapti, Enkavede amaki kelyapti.

Klubga olib chiquvchi tosh zinapoyaning boshida turgan “soqchi”ning xitobi o'yin bilan mashg'ul bolalarnigina emas, qari tutning tagida gap sotib o'tirgan xotin-xalajni ham in-iniga kiritib yuborardi.

Zinapoya ortidan avval Abutolib amakining qizil yulduz qadalgan qorako'l telpagi, keyin tund basharasi, uzunasiga qirmizi tasma o'tgan pogonlari, enli kamari, oxirida yarqirab turgan qo'njli etiklari ko'rinar, go'yo yerdan o'sib chiqayotganga o'xshardi.

Qosh-qovoqli, yuzlari cho'tir bu odam paydo bo'lishi bilan mahallamizdagi ob-havo tamomila o'zgarardi. Jimlik cho'kardi. U tengi kattalarning ham undan o'zini olib qochishi bizning yuragimizdagi tahlikani yanada orttirardi. Murg'ak tasavvurimizdan bu odam uch boshli ajdar timsolida joy olgandi. U uyiga kirishi bilan bolalarning ovozi tamomila o'chardi. O'ynayotgan o'yinlarimiz ham chala qolib ketardi. Kattalar kechasi uxlamay xarxasha qilayotgan bolakaylarni Abutolib amakining oti bilan qo'rqitishardi.

— Uxla, bo'lmasa, Enkavedega aytaman, seni opketadi.

Nazarimizda, u chindan bolalarni o'zining — uch boshli ajdar makoniga olib ketishga qodir edi. Hatto... bir gal olib ketdi ham. Kimni deysizmi? Zobuta xolaning o'g'li Farmon bezorini. Xabar mahallaga tezda yoyildi. Xotinlar chekka-chekkada o'zlaricha pichirlashardi:

- Bechora mujarradgina bola edi. Endi uni nima qilisharkin?
- Enkavedega ham boqqan balo bordir.
- Yo‘g‘-e, u bechorayam nima qilsin. Ushla degan bo‘lsa, ushlab ketgandir-da!

Abutolib amakini oqlab gapirishganini ilk marta o‘shanda eshitganman. Farmon bir otliq chegarachining charm xurjunini o‘g‘irlab, undan o‘ziga etik tiktirgan ekan. Yana bir-ikki nojo‘ya ishlari bo‘lgan ekan, hozir aniq esimda yo‘q.

O‘sha kuni qari tutning tagida faqat Zobuta xola qolgandi. Abutolib amaki zinapoya boshida paydo bo‘lishi bilan Zobuta xolaning bombadek portlab, qiyomat ko‘tarishi bir paytga to‘g‘ri keldi.

— Sen bir yetimni qaqshatgan bo‘lsang, seni Xudoyim qaqshatsin! Otasi frontda dushmanga qarshi urushib, jon bergan. Sen ham o‘shanga o‘xshab mard, oriyatli bo‘lganingda qaytmasding. O‘sha yerda o‘zingni panaga olib yurgansan (Biz u paytda Abutolib amakining badani dushman o‘qidan ilma-teshik bo‘lganini bilmasdik).

Zobuta xola bisotidagi bor qarg‘ishlarini to‘kib-sochardi. Abutolib ayolning diydiosiga quloq solmay, bee’tibor o‘tib ketolmadi.

— Zobuta, tushunsang-chi, o‘g‘lingdayam ayb bor-da! Maktabni bitirganiga ikki yil bo‘ldi, bir ishning boshini tutgani yo‘q. O‘g‘irlik, bezorilikdan boshqasini bilmasa. Uyam boshqalarga o‘xshab...

Zobuta xola uning og‘zidagisini yoqasiga yopishtirdi:

— O‘v, menga qara. Enkavedemisan, go‘rmisan, yermisan! Sen farzand nimaligini qayerdan bilarding? Na oilang, na bola-chaqang bor, Xudo qarg‘agan bepusht zormandasan!

Abutolib amaki ham undan bunchalik andishasizlikni kutmangandi, chamamda. U bir chayqalib, hatto yiqilib tushishiga ham oz qoldi. Ammo, hech narsa demay, og‘ir qadamlar bilan uyiga kirib ketdi.

Bir kuni yon qo‘shnimiz Murod akaning eshigi taqillab qoldi. Bu ovoz birgina meni uyg‘otib yubormagandi. Ammo, birov yurak yutib chiroqni ham yoqmadi, tashqariga ham chiqmadi. Murod

akaning eshigini taqillatgan Abutolib amaki edi. Yonida qurollangan bir mirshab ham bor edi. Derazaga yaqin turishgani uchun ularning ovozi bemalol eshitish mumkin edi.

— Murod, tez kiyinib chiq, seni chaqirishyapti. Biz bilan ketishing kerak.

— Yarim kechasi-ya, tinchlikmi starshina?

Savolni bemavrid, noo‘rin hisoblagani uchunmi, Abutolib amaki indamadi. Birozdan so‘ng asta gap qotdi:

— Ustingdan chaquv bo‘lganga o‘xshaydi, oshna.

— Nimalar deyapsan, qanaqa chaquv? — Murod akaning ovozi titrab ketdi. Kimdir gugurt chaqib papiros tutatdi. Chamasi, Abutolib amaki bo‘lsa kerak, bir ikki marta o‘jiz yo‘talgani ham eshitildi.

— Zamon yomon, oshna, — afsusnamo ovozi eshitdim. — O‘zing bilasan-ku. Tushungan odamsan? Balki tilingga ehtiyot bo‘lmagandirsan? Og‘zingdan biror nojo‘ya gap chiqib ketgandir? Yo bo‘lmasa...

— Abutolib, urushda birga xizmat qilganmiz. Meni yaxshi bilasan-ku! Aldam-qaldam ishlarga aralashmasligimni ham bilasan, axir.

— Bilaman, oshna, bilaman. Hammasi esimda. Okopda bita shinelga o‘ranib tong ottirganimiz ham esimda, harbiy qism orqaga chekinayotganda bitta o‘zing fashistlarning yo‘lini kesib chiqqaningni ham unutganim yo‘q. O‘limdan ham qo‘rqmagansan o‘shanda.

Keyin jimlik cho‘kdi. Sukutni yana Abutolib amaki buzdi.

— Xuddi oradan besh yil emas, besh kun o‘tganga o‘xshaydi. Payti kelib, shunaqa paytda eshigingga kelishimni qayerdan bilay? Xizmatchilik-da, o‘zing bilasan-ku, meni kechir, oshna... Bo‘pti, biz boraveramiz. Ertalab narsalaringni yig‘ishtirib, o‘zing borarsan. Issiqroq kiyimlaringni olishni unutma.

O‘sha kuni tong ham boshqacharoq otdi. Kattalar u yer-bu yerda to‘planganicha pichirlashib nimalarnidir muhokama qilishar, ovozlari chiqarishga ham qo‘rqishardi. Mahalla ahlining bu tushkun kayfiyati bizga — bolalarga ham ta‘sirini o‘tkazgan edi. Faqat Zobuta xolaning shovqini olamni buzardi:

— O‘z ko‘zlarim bilan ko‘rdim-a, tusingni yel olgur Enkavede, to‘rtta qurollangan mirshab bilan keldi. Murod bechoraning qo‘llarini orqasiga qayirib, chakkasiga miltiq tirab olib ketishdi-ya, uying kuygurlar. Hammasi o‘sha baloga uchragur Enkavedening ishi. Hali bu ketishda butun mahallani sotib, avaxtaga tiqadi bu odamfurushtan shi.

— Yolg‘on, yolg‘on bu, unaqamas, Murod akaning qo‘lini qayirib ketishmadi. Ertalab o‘zing borasan, deyishdi. Katta odamlar ham aldar ekan-da, — o‘zimni tutib turolmadim... Ammo, mening gapimga kim ham quloq solardi? Bir-ikkita turtkilab tanbeh bergan bo‘ldi:

— Tek o‘tirsang-chi, zumrasha, kattalarning gapiga aralashma.

Keyin bir o‘zim bolalarni yig‘ib, kecha tunda eshitganlarimni ularga gapirib berdim. O‘sha vaqtlarda ko‘p narsaga aqlimiz yetmasa-da, shuni bilardikki, Abutolib amaki yomon odam emas, odamlarni ushlab kelishni buyuradigan, avaxtaga soladigan kattalar bor. Hammasiga aybdor ana o‘shalar. Bora-bora quvlashmacha, bekinmacha, urush-urush o‘ynayotganimizda klub binosiga olib chiqadigan zinapoya boshida soqchi qo‘ymaydigan bo‘ldik.

Bir kuni futbol o‘ynayotganimizda men tepgan koptok to‘ppa-to‘g‘ri Abutolib amaking derazasiga urildi-yu, chilparchin qiladi. Uyida ekan, bilmabmiz. Bolalar tum-taraqay bo‘lishdi. Men esa turgan yerimda toshdek qotgandim. Borliq o‘lik sukunatga cho‘mgandi. Nazarimda hozir Abutolib amaki qo‘lida to‘pponcha bilan chiqib keladigandek, kinodagi kabi qo‘limni qayirib olib ketadigandek edi. Ko‘zlarim jiqqa yoshga to‘lgan, ammo kipriklarim orasidan quyi oqishga ulgurmagandi.

Eshik ochilib, Abutolib amaki ko‘rindi. Qo‘lida derazani sindirib kirgan koptok. Ohista menga yaqinlashdi va koptokni tutqazib, ortiga qaytdi. Keyin egilganchoq yo‘lda sochilgan shisha siniqlarini terishga tushdi. Ko‘z yoshlarim yuzlarimni yuvib, qo‘limdagi koptokni ham ivita boshlaganini keyinroq sezdim. Men sassiz, entika-entika yig‘ladim, ammo bu yig‘i aslo qo‘rquv nishonasi emasdi.

Navro‘zdan uch-to‘rt kun avval shahardan usti yopiq, kumushrang, uzun avtodo‘kon kelardi. Uni mahalladagi katta-yu kichik in-

tizorlik bilan kutardi. Qishlog‘imizga bayramni ham o‘sha mashina boshlab kelardi, go‘yoki. Mashina kelib to‘xtashi bilan uning oldida Chinorquduqqa qadar uzundan uzoq navbat paydo bo‘lardi. Mashinada yog‘, un, qand, guruch, turli matolar sotilardi. Aslida bu mollar o‘zimizning do‘konlarda ham bor edi. Ammo, kattalarning aytishicha, avtoda‘konda keladigan xonguruchdan damlanadigan palovning mazasi, hidi boshqacha bo‘larmish. O‘sha kuni Murod akaning oilasidagilardan boshqa hamma do‘kondan ul-bul xarid qildi.

Shu kuni butun mahallamiz bo‘ylab xonguruch palovining xushbo‘y hidi taraldi.

Bu yilgi Navro‘z mahallamizda avvalgidek fayzli, farahli emas, allaqanday so‘nik, sokin kechdi. Yer taqsimoti idorasida ishlaydigan Shomil otaning o‘g‘li Orif hovlida chordana qurib, tor chertib qo‘shiq aytmadi, buni hech kim undan iltimos ham qilmadi. Biz bolalar turli bayram o‘yinlarini ham o‘ynamadik.

Hamma bayramni o‘z uyida o‘zicha nishonladi. Biz ham oilamiz bilan dasturxon boshida yaxshi niyatlar qilib Yilboshini qarshi olayotgan edik.

Shu chog‘ deraza tagidan ikkita sharpa o‘tib ketdi. Ko‘p o‘tmay, eshigimiz ohista ochilib, xonamizga ikkita qalpoq kelib tushdi. Onam kulimsiragancha qalpoqlarga shirinlik, qizilga bo‘yalgan tuxum solib, egalariga qaytardi. Murod akaning kichkina o‘g‘li ichkari kirib, hovliqqancha gapira ketdi.

— Dilora xola, otamni qo‘yvorishibdi. Boyagina uyimizga kirib keldi.

Bolaning quvonchi ichiga sig‘masdi. Bu xabarni eshitib, biz ham sevindik, albatta.

Garchi Murod akaning qaytganini butun mahalla eshitgan bo‘lsa-da, kech tushgani, hamma bayramni nishonlayotgani uchun “Karvon ko‘rdi”ni ertaga qoldirishgan edi.

O‘sha oqshom butun mahalla ahli bir umid chirog‘i yog‘dusida uyquga ketdi.

Zulmatga burkangan sukunat pardasini yarim tundagi qichqiriq yorib o‘tdi. Murod akaning eshigi oldida qurollangan mirshablar turishardi. Xotini, bolalarining yalinib-yolvorishiga hech kim qu-

loq solmadi. Bechorani ensasiga miltiq tirab opketishdi. Bu safar Zobuta xola aytgandek, qo‘lini orqasiga qayirib olishgandi.

O‘sha kechasi Abutolib amaki ishda edi. Odatda navbatchilikdan tong saharda qaytib kelardi. Negadir o‘sha kuni qaytmadi. Uning yo‘qligini hazm qilolmayotgandim. O‘yinga kirishib ketgan bo‘lsak-da, ora-sirada zinapoya tarafga qarab qo‘yardim. Xuddi zinapoya ortidan Abutolib amakining yulduzli telpagi ko‘rinib qoladigandek edi. Kun bo‘yi uning yo‘lidan ko‘z uzmadim.

Kattalarning gaplariga quloq solib eshitdimki, Navro‘z kuni kechqurun Abutolib amaki avaxtaning eshigini ochib, Murod akani chiqarib yuboribdi. Ertasi kuni mahbuslarni “etap“ga qo‘shib jo‘natishmoqchi ekan. Bechora oxirgi kun, ya‘ni bayramni oilasi bag‘rida o‘tkazsin, degandir-da! Faqat shuning uchunmikan? Yo‘q, albatta. U Murod akani yaxshi tanirdi. Aybi yo‘qliginiyam bilardi. Biz bolalar o‘zimizcha bir narsaga oydinlik kiritgan edik: agar hamma avaxtaxonalarning kaliti Abutolib amakining qo‘lida bo‘lganda, u begunoh mahbuslarning hammasini uylariga qo‘yib yuborgan bo‘lardi...

O‘shandan beri Murod akani ham, Abutolib amakini ham hech kim ko‘rgani yo‘q. Faqat, Stalin o‘lganidan keyin oradan bir necha yil o‘tib, Murod akaning uyiga pochadan bir parcha qog‘oz keldi. “Ishida jinoyat tarkibi bo‘lmagani sababli Murod Kozim o‘g‘li Murodov oqlansin (o‘limidan keyin)”.

Agar Abutolib amakining ham oilasi, biror yaqin odami bo‘lganida, unga ham ana shunday bir parcha qog‘oz jo‘natishardi, albatta. Faqat bitta narsadan tasalli topardik: biz bolalar Murod aka va Abutolib amakining ustidan ancha yil avval oqlov hukmini o‘qib bo‘lgandik...

OQ RAQS

Yaver muallim daraxtga suyangancha o'ynayotganlarni kuzatardi. Raqs maydonchasi yosh-yalanglar bilan liq to'lgandi. To'g'ri, atrofda yoshi kattaroqlar ham oz emasdi. Hozirgina ular ham yoshlar bilan birgalikda raqsga tushdilar. Ammo cholg'uchilar musiqa sur'atini o'zgartirgach, quvnoq kuy yangray boshladi. Ohanglar jadalroq harakatni talab etar, bunga kattalarning yuragi dov bermayotgan edi. Raqsga tushayotganlar esa hech narsaga parvo qilmasdan, musiqaga uyg'un tarzda g'alati ovozlari chiqarishar, beton maydonchada deysinib, sakrashardi. Qizlarning bari yigitlardek shim kiyib olgan, ilk boqishda qizni yigitdan farqlash ham mushkuldek edi. Hammasining sochi yuziga yoyilib tushgan, ko'zlari mudroq bosgan odamdek yumuq edi. Ammo Yaver muallim o'n kundan beri dam olish uyida bunday manzarani ko'raverib ko'zi pishgan, yigitlar qizlardan oriq va balandroq ekanligi uning uchun kundek ravshan edi. Ha, albatta, mustasno holatlar ham uchrab turardi. Masalan, tunov kuni Yaver muallimni raqsga taklif etgan qiz tashqi ko'rinishidan boshqalarga umuman o'xshamas edi. Novchagina, uzunoyoq bu qiz tushmagur chunonam qaqqaygan ediki, naq xoda yutgan, deysiz. U odamlar orasida o'z qad-qomati bilan nihoyatda ajralib turardi. Aslida, Yaver muallimning bo'yi basti ham, ko'z tegmasin, bu mallasochdan hech qoladigan emasdi. Sal oldinga egilibroq yurishini aytmasak, u ham o'yinchi-yu tomoshabinlar orasida baland bo'yi bilan ko'zga tashlanardi.

Bu ziyoli ko'rinishli kishi hafsala bilan dazmollangan, chinidek oppoq ko'ylagi va kulrang shimi, qirov bosgan sochlari, qora gardishli ko'zoynagi bilan e'tiborni tortardi. Hoynahoy, ana shu qiyofasi sabab daroz qiz ham tap tortmay uni raqsga taklif qilgan bo'lsa kerak. Yaver muallim qizdan uzr so'rab, raqs tushishni eplolmasligini aytdi va so'zining so'ngida yengilgina ta'zim ham

qilib qo‘ydi. Qiz biroz noqulay ahvolda qolsa-da, o‘zini yo‘qotmadi. Vaziyatni hazilga burib, o‘zimga munosib odamni topdim deganimda, shu ham buyurmadi, deya kulimsiradi. Bugun qiz yana raqs maydonchasida edi. Endi uning yonida bo‘yi bo‘yiga mos bir necha yigitni ko‘rish mumkin edi. Ular yangi kelganlardan bo‘lsa kerak, ko‘rinishlaridan boltiqbo‘yilik odamlarga o‘xshardilar. Bu oqshom qiz o‘sha oq-sariqdan kelgan yigitlardan birini bo‘ynidan quchganicha, nozlanib, eshilib raqsqa tushardi.

Yaver muallim kecha qizga yolg‘on so‘zladi. U raqsqa tushishni yaxshi bilar, hamda yoqtirardi. Biroq shu paytgacha biror marta raqs maydonchasiga chiqmagandi. Ba‘zan oqshom chog‘lari bor jasoratini yig‘ib, to‘planganlardan birini raqsqa taklif etishga jazm qilmoqchi ham bo‘lardi. Lekin nimagadir hech botinolmasdi. Bir tarafdin kechagi mallâsoch qizdek so‘zi yerda qolib, o‘sal bo‘lishdan cho‘chirdi, bir tarafdin esa uyalardi. Kimdan? Uyda uni kutib o‘tirgan rafiqasidanmi, o‘g‘il-qizidanmi, nabiralaridanmi? Yo‘q. Unda kimdan? Balki, o‘zining oq sochlaridan, yoshidan uyalardimi? Yo‘q, Yaver muallim qoloq odam emasdi. U gapso‘zdan qo‘rqadiganlar toifasidan ham emas edi. Qarindosh-urug‘, yor-u birodarlar orasida Yaver muallimning namunali oila boshlig‘i sifatida hurmati baland edi. To‘g‘ri, umr yo‘ldoshi avvallar uni juda qizg‘anardi. Ammo endi bular uzoq xotiraga aylangan edi. Ehtimol, insonning qalbi, xotirasi bilan bog‘liq bo‘lgan hazin taassurotlar hamisha yoshligicha qolar — odamning yoshi o‘tganda ham xotiralar o‘zining dastlabki sofligini saqlasa kerak. Endi rashk muammolari, oiladagi tortishuvlar orqada qoldi. Rafiqasi Yaver muallimning dam olish tadorigini ko‘rar ekan, men endi qaridim, sizga xizmat qilishga holim qolmadi, qaytishda o‘zingiz bilan yoshroq ayol olib keling, deb hazillashgandi. Yaver muallim ham tabiatan quvnoq va hozirjavob odam bo‘lgani uchun, mehribonimdan o‘rgilay, ishonaver, topib kelaman, deya hazil bilan javob bergandi... Yaver muallim naqadar nekbin inson bo‘lsa-da, kelganidan beri tuzukkina istirohat qila olmasdi. Avval bolalaridan xavotir oldi. Uyga ikki-uch marta qo‘ng‘iroq qilgandan keyin xotirjam bo‘ldi. So‘ngra unga qon bosimi tushib-chiqayotgandek tuyuldi. Shifokorga borib, o‘zini tekshirtirdi. Salomatligi ham joyida edi.

Dam olish uyida kunduzlari osoyishtalik hukm surardi. Dam oluvchilarning aksariyati ko‘l bo‘yiga, o‘rmonga sayrga chiqardi. Nisbatan yoshi kattalar, betoblar, tanholikni sevguchi romantiklar esa qolardi. Shundaylardan biri Yaver muallim edi. U juda ham zerikkani tufayli hech qayerga ketmasdi. Ko‘pincha odam zerikkanda shovqin-suronli joylarga intiladi, ammo Yaver muallim boshqalardan farqli o‘laroq, yolg‘izlikni xushlardi. O‘zi o‘ziga hamsuhbat bo‘lib, nimalarnidir asta pichirlab so‘zlash uning yoqtirgan odati edi. Uyda ham dili xufton bo‘lgan paytlarda xonaning bir burchiga o‘tirib olib, soatlab churq etmasdi. Bu ishda, olimlar deganlaridek, kasbiy odatning ham muhim ahamiyati bor edi. Chunki Yaver muallim olim, ilmiy-tadqiqot institutlarining birida bo‘lim mudiri edi. Ishda ham uni nihoyatda hurmatlashardi. Hazilkashliga, ochiq ko‘ngilligi uchun bo‘lsa kerak, hamkasblari tez-tez uning atrofiga yig‘ilishardi. Bu hol Yaver muallimning ishlaydigan joyga xos bo‘lmasa-da, chindan ham shunday edi. Chunki ish joyi odamlarni ko‘rinmas bir qolipga solib, hammaga o‘zining yurish-turish tarzini singdirgandi: u yerda ishlaydiganlarining g‘alati takabburligi, deyarli hammasining ayni fe‘l-atvori, ayni olami, hatto Yaver muallimning ta‘kidlashicha, ayni zohiriy alomatlarini bor edi. Bu holatning qay darajada yaxshi yoki yomonligini tadqiqotchilarga qo‘ya qolaylik. Biroq Yaver muallimning tabiati bu “inkubator” avzoyidan keskin farq qilar, balki ana shu farq uni turli-tuman soha sohiblari bilan yaqinlashirgandi. U hamma bilan til topishib keta oladigan odamoxun inson edi.

Yaver muallim dam olishga kelganining ertasi kuni hovliga chiqib, ancha kezib yurdi. Havoni atirgulning muattar isi tutgandi. Samo ham ham pushti rangda edi. Yaqin-atrofdagi tog‘lar ham pushti rangli nafis darparda orqasidan mo‘ralayotgan bulutlarga o‘xshar, go‘yo bu “bulutlar” sal o‘tmay qayoqqadir g‘oyib bo‘ladigandek edi... Dam olish uyi yonidagi maysazorda yonboshlagan cha oftobda toblanayotganlar, gazeta, kitob mutolaa qilayotganlar ham diqqatni jalb etardi. Yaver muallim ham shu maysazorga keldi-da, hozirgina matbuot do‘konchasidan olgan yangi gazetalarni ko‘zdan kechira boshladi. Ro‘parasidagi rang-barang rasimli xorijiy jurnallarni varaqlayotgan o‘rta yoshli, sport kiyimidagi ayol boshi-

ni ko‘tarib, “gazetalar bugungimi”, deya qiziqdi. Yaver muallim indamaygina ayolga gazetalarni uzatdi va uning jurnallariga nazar solish uchun ijozat so‘radi. Ayol mayin tabassum bilan, “marhamat”, — deya javob berdi. Jurnallar qaysi tilda ekanligini Yaver muallim bilolmadi, sahifalarni naridan beri ko‘rib chiqib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Nimadandir ko‘ngli xijil edi. O‘z xonasiga borib orom olishni istardi. Ayol uning bezovtaligini his etdi va tezgina gazetalarni qaytardi. Yaver muallim olmadi, “bemalol o‘qiyvering, keyin qaytararsiz”, — dedi. Ayol minnatdorchilik bildirdi. Oqshom kechki taomga ketayotganida ayol unga eshikning yonginasida yetib olib, gazetalarni unga tutqizdi. Yaver muallim biroz xijolat bo‘ldi. Bir nimalar deb g‘udranib ham qo‘ydi, lekin og‘zidan chiqqanni burni eshitdi xolos. Agar ayol unga gazetalarni berish uchun o‘zi yaqinlashmasa edi, turgan gapki, Yaver muallim uni tanimasdi. Ayol kunduzgi ko‘rinishda, ya‘ni sport kiyimida emas, zangori rangli ko‘ylakda edi. Ko‘ksida esa kapalak shaklidagi bejirim to‘g‘nog‘ich yiltirar, qo‘ng‘ir sochlari orqaga taralib, chiroyli turmaklangandi. Oppoq, nozik amirkon tuflisi nafis tovlanardi. Ayol go‘zallik sohibasi edi. Yaver muallim xijolatlikdan, tushunib bo‘lmas g‘udranishidan yer yorilmadiki, kirib ketsa. Oshxonadan chiqqanda ayolga yaqinlashib bir-ikki kalima xush so‘z aytmoqchi bo‘ldi-yu, ammo darhol fikridan qaytdi — buni yengiltaklik deb hisobladi. So‘ngra ayolning qo‘shni xonaga joylashganligi ma‘lum bo‘ldi. O‘sha oqshom raqs maydonchasidagilar tarqalishgandan so‘ng Yaver muallim zinadan o‘z xonasiga ko‘tarilayotgan paytda kimdir uni orqadan chaqirdi. Ismini aytishmasa-da, murojaat o‘ziga qaratilganini his etgan Yaver muallim o‘girildi. Chaqirgan o‘sha ayol edi. Ayol unga yetib oldi va mabodo o‘qishga o‘zingiz bilan biror bir kitob olmaganmidingiz, — deb so‘radi. Mutolaa Yaver muallimning sevimli mashg‘uloti bo‘lib, xususan tarixiy asarlar juda qiziqtirardi. Vaqti yetgancha o‘qish niyatida yo‘l sumkasiga ham uch-to‘rt tarixiy roman solib qo‘ygan edi. Hozir ayolga shu kitoblarning nomini aytdi. Ayol hayratdan qoshlarini kerib, anchadan beri bu kitoblarni axtarayotganini aytdi va hech bo‘lmasa birini o‘qishga berib turishini iltimos qildi. Kitobni bir-ikki kunda qaytarishga so‘z berdi. Yaver muallim odob yuzasidan ayolni o‘z

xonasiga taklif qildi. Ayol rozi bo'ldi. Xonaning eshigi ochiq edi. Hamxonasi raqsdan qaytgandi. U pastbo'yli, ko'kko'z, dumaloq yuzli va bir qarashda vazmin, kamtar odamdek ko'ringan bir yigit edi. Har holda Yaver muallimga shunday tuyulgandi. Yigit aspiranturada tahsil olardi. Qo'shnisining ilmiy-tadqiqot institutida bo'lim boshlig'i ekanligini eshitganidan beri unga nihoyatda iltifotli edi. Ayol xonaga qadam bosmasdan avval Yaver muallimning yigit haqidagi fikri ijobiy edi. Ammo ayol kitobni olgan zahoti tashakkur aytib, chiqib ketishi bilanoq uning bu ko'kko'z aspirantga bo'lgan munosabati tamomila o'zgardi... Chunki bu onda yigitning yuziga ayyorona iljayish yoyildi, ko'zlarining rangi ham quyuqlashgandek bo'ldi va u Yaver muallimga g'alati bir imo-ishora qildiki, Yaver muallimning aft-angori o'zgarib ketdi, g'azabdan yurak urishi ham tezlashdi. Keyin yigit Yaver muallimning ayol bilan munosabatiga shama qilib, gapni aylantira-aylantira agar lozim bo'lib qolsa, xonani tark etib, ularning yolg'iz qolishiga imkon yarata olishini bildirdi. Yaver muallimning do'st-tanishlari orasida yoshlar oz emasdi, hamda bo'limda ishlaydiganlarning aksariyati ham yosh yigit-qizlar edi. Biroq u, kattalar va kichiklar o'rtasidagi chegaraga rioya qilishni asosiy shart, deb hisoblardi va o'rinsiz so'zlarga hech vaqt yo'l qo'ymasdi.

Hali og'zidan ona suti ketmagan bu bolaning surbetligi Yaver muallimga xuddi tarsakidek tegdi. Qoni qaynagan Yaver muallim dam olish uyi ma'muriyatiga murojaat qilib, hamxonam kechalari qattiq xurak otarkan, deb bahona qildi va bir kishilik xonaga ko'chib o'tdi.

Ikki kun o'tgach, ayol kitobni qaytarganda Yaver muallim u bilan biroz yaqinroq tanishdi. Suhbatlari ham ko'ngilli o'ta boshladi. Ayol musiqa muallimasi edi, o'z kasbi haqida hayajon bilan, bolalardek quvona-quvona so'zlardi. Ba'zan Yaver muallim ham o'z ishi, kasbi, qo'l ostidagi xodimlar, oilasi haqida suhbat ochar, ayolning kutilmaganda hazil aralash bergan savollariga tutila-tutilla javob izlar, har zamonda unga qo'shilishib kulardi. Ayol Yaver muallimning choy damlash qobiliyatiga qoyil qolgandi. Oppoq piyolalardan choy ho'plab, choyxo'rlik qilishganda damlashning qonun-qoidalari haqida maroqlanar va ayni vaqtda o'zining kulgili luqmalaridan qolay demasdi.

Yaver muallim ayoldan besh-o‘n yosh katta bo‘lsa ham uning yonida o‘zini xuddi bolalardek soddadil tutar, ha desa qizarib, izza bo‘laverardi... Keyingi kunlar dam olish uyining klubida birgalashib kino ko‘rishar, uncha uzoq bo‘lmagan o‘rmonga sayrga ketishardi. Gohida, xususan o‘rmondagi yuqorilab ketgan tik so‘qmoq yo‘lga yetganda ayol astagina Yaver muallimning qo‘lini ushlab olardi. Bunday vaqtlarda kishining yuragini ajib hislar chulg‘ab olar, go‘yo qachonlardan beri qalbida zaif mil-tirab turgan cho‘g‘ bu onlarda yarq etib o‘t olar, lovullab yona boshlardi. Uning nuri Yaver muallimning ko‘nglini ich-ichidan yoritir, bu yog‘du ummonining to‘lqinlarida u o‘zini boshqa bir olamga tushib qolgandek his qilardi. Xuddi oyoqlari yerga tegmayotgandek yengil qadam tashlar, o‘rmonning narigi chekkasiga bir zumda yetib olish uchun kuchiga kuch qo‘shilganini sezardi. Aslida bunday holatning, havasning sababi birgina ayolda emas edi. Asosiysi ayolning diqqati, va balki eng muhimi, so‘nggi yillar so‘na boshlagan o‘ziga ishonch hisining ayol bilan birga qaytadan yuragiga qaytishi edi. Yaver muallim yosh deganlari odamlar o‘ylab topgan uydirmadan boshqa narsa emasligini endi anglay boshladi. Yosh bir kishan bo‘lib, uni ma‘lum muddat o‘tgach, inson o‘z istagiga bog‘liq bo‘lmagan holda majburlab tutqizilgan arzon narxli hadyadek qabul qilishga mahkumdir, degan fikr kechardi xayolidan. Ayol uning qo‘lidan tutgan onda Yaver muallim bolakaylardek entikib dam olish uyining ro‘parasidagi daraxtga chiqib olgisi yoki atlas qanotli kapalaklarning ortidan quvib ketgisi kelar, lekin o‘zini zo‘rg‘a tiyib turardi. Atrofdagilarning masxaraomuz nazarlari, istehzoli kulishlari bo‘lmaganda edi, ayolni dast ko‘tarib, ko‘l tarafga yugurib ketardi. Ammo ko‘pdan bo‘yniga olgani — keksalik degan g‘ov unga to‘sqin edi.

Ayol o‘z ishlari borasida so‘zlashni yaxshi ko‘rsa-da, oilasi haqida lom-mim demasdi. Qiziq, uning hayot yo‘ldoshi, bolalari bormikin? Bu savollar bir-ikki marta Yaver muallimning tiliga kelay degan, ammo bo‘g‘izida qolgandi... Ayolning qaddi-qomati g‘oyat jozibali edi. Ammo bu jozibaning naq markazi uning ko‘zlari edi, katta-katta ko‘zlarining quyuq kipriklari orasidan ma‘noli boqi-

shii ayol chehrasiga sehrli bir ko‘rk baxsh etardi. Charos ko‘zlar qiziqsinib, go‘dak ma‘sumligi bilan uzoqlarga tikilganda Yaver muallim berishga og‘iz juftlagan savollar andishasi bilan hayajonlanar, va har daf‘a bu savollarni berolmagani uchun o‘zini oqlardi. Chunki bunday paytlar — ayol nigohi bolalardek soflikdan xabar berganda, Yaver muallim, balki u hech qachon turmushga ham chiqmagandir, degan fikrga tolardi. Biroq bu fikr ham ayolning oilasi bor yoki yo‘qligi haqidagi taraddudlantiruvchi tushunchalarini bir yoqlik qila olmasdi...

Hozir Yaver muallim jo‘ka daraxtiga suyanib, raqsga tushayotganlarni tomosha qilgancha ayolni kutardi. Aslida u ayol bilan uchrashuv vaqtini belgilamagandi. Umuman olganda, ular bu kunlar davomida hech bir kelishuvsiz qay vaqt, qayerda ko‘rishishlarini yaxshi bilardilar. Kundalik uchrashuvlari raqsdan keyingi sayr bilan tugardi. Sayrdan so‘ng har biri o‘z xonalariga kirib ketishardi. Yaver muallim o‘z xonasida iliq dush qabul qilib, biroz kitob o‘qigandan so‘ng uyquga ketardi. Ayolning chirog‘i esa allamahalgacha yonib turardi. Hoynahoy, u kechalari mutolaa bilan mashg‘ul bo‘lar, juda kech yotardi. Kech yotsa-da, tonglari ayol chehrasida horg‘inlikning asar-alomati ko‘rinmasdi, ko‘zlari hamisha yonib turar, bolalarcha soddalik bilan olislarga termulardi...

... Ayol bu tunda jo‘nab ketishi kerak edi. Kecha Yaver muallimga bu haqda o‘zi aytgandi. Dam olish uyidan elektr poyezdida shaharga, keyin taksida aeroportga yetib olmoqchi edi. Albatta, bundan ham Yaver muallimni o‘zi xabardor qilgandi. Kecha bu so‘zlarni eshitarkan, Yaver muallim kadarlansa-da, bu kadardan tez orada qutulishiga amin edi. To‘g‘risini aytganda, buni kadam deb ham bo‘lmasdi, chunki bu dunyoda har bir inson yo‘l-yo‘lakay tanish bo‘lib qolgan, nihoyatda qisqa muddat bo‘lsa ham so‘z-suhbati qovushgan odamlar bilan ayrilishganda ana shunday tuyg‘ularni boshidan kechiradi. Va tabiiyki, bu hissiyotlar Yaver muallimga ham begona emas edi. Ha, hozir ayol keladi, ular kechki sayrga chiqishadi, birpas yonma-yon kezib, keyin o‘z xonalariga qaytishadi. So‘ngra u biroz dam oladi, kech soat ikkida poyezdda shaharga yo‘lga tushadi, u yerdan esa aeroportga. Uchish vaqti saharga yaqin, soat beshda.

Bu qanday reys ekan, tavba, shunaqa vaqtga ham uchishni belgilaydimi? Yaver muallim reys vaqtini belgilaganlarning sha'niga allanarsalarni ming'irladi. Ayol ketishi kerak. Vassalom... Yaver muallimning yana o'n-o'n ikki kuni bor hali. Ularni bir amallab o'tkazib oladi, Xudo xohlasa. Yana birov bilan tanishishni esa xayoliga ham keltirmasdi. Chunki qalbiga issiqlik bera olgan odamdan ayrilmoq qiyin ish. Yo'q, albatta, masala hech ham bugun ayrilishi kerak bo'lgan insonning ayol bo'lganida emas edi. Yaver muallimning bu ayol bilan jiddiy munosabat bog'lash niyati ham yo'q edi. Gap shunda ediki, Yaver muallim o'z fe'l-atvorini yaxshi bilardi, odamlar bilan tanishib, do'stlashmoq, keyinchalik butunlay ayrilish unga juda og'ir edi.

Xususan, o'tkinchi tanishuvdan keyingi ayriliqdan cho'chirdi: xo'sh, bu qanday, so'zi so'zingga uyg'un kelgan odamligini sezib turasan, amma bir necha soatdan keyin uni bir umrga yo'qotishingni va boshqa hech qachon ko'rmasligingni ham bilasan? Mayli... Ayol ketadi, Yaver muallim bir-ikki kun siqilib, sog'inadi, so'ngra hayot yana o'z iziga tushib ketadi.

Ayol keldi. O'zi bilan chinnigul atri olib keldi. Maydonchada esa dunyo yangidan ostin-ustin bo'layotgandi. Yoshlar yana irg'ishlab, sapchishda biri biridan o'tardi. Musiqaning jarangi olamni zirillatar, bu shovqin-suronda raqs etayotganlarning jazavasi tutgandan tutardi. Cholg'uchilar mikrofonlar ovozi eng yuqori darajaga chiqarib qo'ygandilar. Buning sababi bor edi, albatta. Dam oluvchilarning ko'pchiligi bugun ketish arafasida bo'lib, musiqada ham, odamlarining yuz-ko'zida ham, hatto raqsda ham jo'shqinlik bilan birga qandaydir dard bor edi. Qiziq, nima uchun bunday edi? Ayol ham aynan shu bugun, aniqrog'i bir necha soatdan keyin ketishi kerak edi. Yaver muallim buni yaxshi bilsa ham, o'zini ular kabi tutmasdi. Ayol ohista qadamlar bilan unga yaqinlashib, qo'lidan tutdi.

Egniga yoqasi chiroyli o'yilgan, kalta yengli, moviy rangdagi ko'ylak kiygandi. Ayolning yuziga kapalak misoli mayin bir tabassum qo'ngandi, lekin ko'zlarining tub-tubiga sovuq qayg'u cho'kkandiki, uni faqat yurak bilan tuymoq mumkin edi va Yaver muallim bu qayg'uni yurak ko'zlari bilan ko'rib turardi. Har ikkisi bir muddat sukut saqladi.

Yaver muallim raqs maydonchasidan uzoqlashmoqchi bo'ldi. Endigina bir qadam tashlashga ulgurgan ediki, ayol to'xtang degandek uning tirsagini asta siqdi. Yaver muallim yelkasini qisib, to'xtadi, ayolning istagini tushunolmay taajjub-la unga qaradi. Axir ayol shuncha kundan buyon aqalli bir marta bo'lsa ham raqs-ga tushmagandi.

Go'yo bugun o'tgan kunlarning ham hissasini chiqarishni istayotgandek ko'rinardi. Shu payt yangi musiqa e'lon qilindi: "Oq raqs". Ayollar erkaklarni taklif qila boshladilar. Ayol Yaver muallimning qarshisida turib, yengil ta'zim qildi va nigohi bilan uni raqs-ga taklif etdi. Yaver muallim avvaliga o'zini yo'qotib qo'ydi va taklifni rad etmoqchi bo'ldi, lekin ko'zi ayolning tilni lol etguvchi nazari bilan to'qnashganda, o'jarligidan butkul voz kechishdan boshqa iloji qolmadi...

Yoshlar turgan joylarida dong qotdilar. Ulardan yoshi ulug' bo'lgan bu juftlikning davrada charx urishi ularni asir etgan edi. Cholg'uchilarning ham havasi yanada ortgan edi. Yaver muallim o'zini havoda suzayotgandek his qilardi. Chinnigul atri esa uning ixtiyorini olgandi...

Raqs tugadi. Hamma olqishlab, qarsak chaldi. Yaver muallimni ranjitgan ko'kko'z, orsiz aspirant odamlar orasidan otilib chiqib, uning yuzi va qo'lidan o'pdi. Ayol bu salqin oqshomning o'zidek dardli va g'amgin edi...

Ayol tungi soat ikkida yo'lga tushdi. Yaver muallim uning jomadonini ko'tarishib, poyezd bekatigacha kuzatib qo'ydi. So'ngra qo'l siqishib, xayrlashdilar. Endi hammasi orqada qolgandi: "oq raqs", olqishlar, xayrlashuv onlari, hazin vido so'zlari. Yaver muallim qaytib, o'z xonasida yotib oldi. Uyqusi tamom qochgandi. Yuragi tepalikka chiqqan odamning yuragidek tez urardi. Nimadandir ko'ngli g'ash, qalbining tubiga cheksiz bo'shliq cho'kkandi. Anchagacha goh u, goh bu tarafga ag'darildi. Uyqu kelmadi.

Keyin qanday qilib o'rnidan turdi, qanday kiyindi, qanday qilib ko'chaga chiqib qoldi, hech biri yodida yo'q.

Yomg'ir maydalab yog'ayotgan edi...

Yaver muallim yonidan g'izillab o'tayorgan mashinalarga qo'l ko'tardi. Aksiga mashinalar to'xtamas, allaqaylarga shoshili-

shardi. Nihoyat, taksilardin biri to‘xtadi. Yaver muallim haydovchiga aeroportga olib borishni iltimos qildi. Haydovchi yo‘lning juda uzoqligini, kamida bir soatda yetib olishlarini aytdi. Yaver muallim haydovchini ko‘ndirarkan, xarajatni ortig‘i bilan to‘lashga so‘z berdi...

Haydovchi rozi bo‘ldi.

Mashina tezlikni oshirdi.

Mashina aeroportga yetganda samolyotga chiqish e‘lon qilingandi. Oftob chiqib, kun ham yorishgan edi. Ayol birovni axtargandek atrofga boqqancha zinapoyadan ko‘tarilib borardi. Kuzatuvchilar chekkada turib, ketayotganlarga qo‘l silkishardi. Ayol ham bir to‘xtab, atrofga nazar solganda Yaver muallim ham unga qo‘l silkidi... Ayol kulimsiradi va qo‘lini silkitdi.

O‘z xonasiga qaytib kelgandan keyin ham uzoq vaqt ayol meni ko‘rganmikan, deya uzoq o‘yladi... Axir u kulimsirab qaradi va hatto qo‘l ham silkidi. Balki ayol uni ko‘rmagandir, shunchaki bu yerlar, hamda kechirgan kunlariga qo‘l silkib, vidolashgan bo‘lsa ajabmas. Balki, endi hech qachon bu taraflarga yo‘lim tushmasa kerak, demoqchi bo‘lgandir... Yo‘q, yo‘q, ayol uni ko‘rgan va bunga Yaver muallim amin edi...

Yaver muallim kelasi yoz ham o‘sha dam olish uyiga keldi. Bir haftagina o‘tmay zerikdi. Samolyotga bilek olib, o‘tgan yil ayol uchib ketgan aeroportdan uchdi.

Yo‘l bo‘yi unga xuddi o‘tgan yilgi dam olishdan qaytayotgandek tuyulaverdi. Quloqlarida esa hamon “oq raqs” kuyi yangrardi. Bu kuyni samolyot motorining guvillashi ham bosib keta olmasdi.

ESKI KITOBLAR DARDI

U Rahmon bilan kitob do‘konida uchrashib qoldi. Anchadan beri ko‘rishmagan edilar. Avvaliga bir-birlarining turish-turmushlari haqida surishtirdilar. So‘ngra jiddiy suhbat ruhi o‘zgarib, olis yoshlik yillaridagidek yengil hazil-mutoyibaga o‘tdilar.

Rahmon qo‘lini bahaybat kitob javonlari tomon uzatib, ko‘zlarini ayyorona qisgancha dedi:

— Bu deyman, kitob o‘qish kasaling haligacha tuzalmaganga o‘xshaydi.

Nodir ham do‘stining kinoyasiga ayni tarzda javob qaytardi:

— Hoynahoy senda endi boshlanyapti.

Kulishdilar.

Ular eski tanish edilar. Talabalik chog‘larida bir xonadonda ijara turishgandi. Rahmon o‘sha davrlardayoq Nodirning kitobga o‘chligini yaxshi bilardi. Nodir qiziqsindi:

— Behazil, nima izlayotgan eding bu yerda?

Rahmon:

— Boya to‘g‘ri topding, men ham kitob o‘qishni boshladim, — dedi va qo‘shib qo‘ydi, — ammo sen o‘qiydigan kitoblardanmas. Men umrim bo‘yi bor-yo‘g‘i bittagina kitob o‘qiyman, u ham bo‘lsa muhosibat, ya‘ni buxgalteriya kitobi. Shu kunlarda yangi nashri chiqqanmish, biroq sotuvchi qiz shuncha qidirsada topa olmadi. O‘sha yangi kitobni topsam, eskisini bahridan o‘taman. Eski kitoblarga tob-u toqatim yo‘q. Kitob deganlari yangi puldek bo‘lishi kerak... Sahifalari sharaq-sharaq qilib ochilsin.

Keyin Rahmon xuddi nimadir yodiga tushgandek qo‘lini do‘stining yelkasiga qo‘yib, jiddiylashdi.

— Menga qara, Nodir, bu yerdagi kitoblarni ko‘rib, bir narsa esimga tushdi. Kel, senga istaganingcha kitob beray. Bilaman, sen kitob desa o‘zingni tomdan tashlaysan.

— Bugun kun qayoqdan chiquvdi?

— Uyimni almashtirdim. Yangi uyimning egasi kitoblarini olib ketishni xohlamayapti. Chunki u mening eski uyimga ko‘chishi kerak, u yer esa ancha-muncha tor.

— Yangi uy muborak bo‘lsin...

— Rahmat... Ha, aytmoqchi, uyning sohibasi keksa, kasalmand, yolg‘iz ayol. Bir o‘g‘li bor xolos, u ham bo‘lsa chet elda yashaydi, eri esa olim ekan, allaqachon vafot etgan emish. Butun bir xona poldan shiftgacha kitob javoni, javonlarni ko‘rsang, kitoblar bilan liq to‘la. Axir boshimga uramanmi shuncha kitobni? Yig‘ishtirib, uloqtiraman-qo‘yaman. Yaxshiki, seni uchratdim. Kel, shu kitoblarni senga bera qolay, mashina, yuklash haqi ham mendan. Xo‘sh, ko‘ngillari yana nima tusaydi?

Nodir bir onlik taraddudlanishdan so'ngra:

— Xo'p, mayli. Kitoblar qaysi soha bo'yicha?— deb so'radi.

— Ayolning aytishicha, eri yirik olim bo'lgan ekan. Ochig'i, ism-sharifini ham aytgandi, eslab qolmadim. Javonlardagi kitoblarga ko'z yugurtiruvdim, menimcha har sohaga tegishli kitob topiladi.

— Modomiki sen taklif etarkansan, va'dalashib shu kunlar ko'rishga qolamiz.

Ikki kundan so'ng ko'rishdilar. Avval yangi xonadonni ko'zdan kechirishdi.

Katta xonalarning birida marhum uy sohibining kitoblari to'plangandi. Haqiqatan, Rahmon aytganidek, bu yerda har sohaga oid kitob bor edi. Negadir Nodirga uzoq yillar mobaynida bu javonlarga inson qo'li tegmagandek tuyuldi. Kitoblarning muqovasi va yonidagi yozuvlardan, mulliflarning ism-sharifidan ularning asosiy qismi matematikaga oid ekanligini bilib olsa bo'lardi. Balki bu kitoblarning bunchalar tez diqqatni tortishi Nodirning bir vaqtlar matematiklik ixtisosini olganligi sabablidir. Keyinchalik boshqa sohada, korxonalarining birida programmachi sifatida ishlada-da, bu asarlarning aksariyatini ancha oldin, hali talabalik paytlaridayoq o'qib chiqqandi.

Nodir kitoblarning nomini va mualliflar ismini xuddi qo'shiq xirgoyi qilgandek o'qiy boshladi.

— Kramer, Markus, Godunov...

Oshxonadan ahyon-ahyonda choyga dasturxon yozayotgan Rahmonning ovozi eshitalardi:

— Ha, qalay endi, uy senga yoqdimi? Men o'zim anchadan beri shu tomonlarga ko'chishni xohlardim. Bolalarimning onasi ham bu yerlarda katta bo'lgan. Qarindosh-urug'larning ko'pchiligi ham yaqin-atrofdagi yashaydi. Uyni almashtirdam, ustiga yana biroz pul ham berdim...

Nodir esa qisqa javoblar bilan kifoyalanardi:

— Yaxshi uy ekan, yaxshilikka buyursin... Eyler, Paskal, Ibrohimov... To'ylarga, xursandchiliklarga kelish nasib etsin...

— Nimagadir gaz pastroq...

— Aybi yo'q, gabsiz o'tiraveramiz... Samarskiy, Ivanov, Xalilov...

Tartib bilan yonma-yon tizilib turgan kitoblar devor g'ishtlari kabi terilgan edi.

Kitoblar javonlarga muayyan sohalar bo'yicha joylashtirilgandi. Ilmiy kitoblar bir tarafda, badiiy asarlar esa mualliflar yashagan davrlarga qarab boshqa javonlardan joy olgandi. Go'yoki bu yerdagi eski kitoblar bilan to'lib-toshgan javonlarda vaqt to'xtab qolgandek, aniqrog'i, kitoblarning asiriga, garoviga aylangandek edi.

Kitoblar orasida juda qadimgilari ham ko'zga tashlanardi. Ularning muqovasi jimjimador naqshlar bilan bezatilgandi. Javondagi kichik hajmli kitoblar yonida turgan bu xildagi kitoblar qabristondagi ixcham qabrtoshlari orasida turgan yirik yodgorliklarni eslatardi.

Nima uchundir Nodirga bu xona ham, javonlar ham, hatto ularga taxlangan kitoblar ham juda tanish va nihoyatda qadrdon tuyulardi. Nazarida u qachonlardir bu uyda bo'lgan, ammo yuz foiz amin ediki, bu yerga uning birinchi da'fa kelishi.

Nodir kitoblardan birini qo'liga oldi, muqovasini ochib, titul sahifasini ko'zdan kechirdi. Past ovozda yozuvlarni o'qiy boshladi: "Aziz do'stim, buyuk olim Yilmaz G'ulomzodaga muallifdan".

Birdan tomog'iga nimadir tiqildi. Kitob esa go'yo cho'g' bo'lib qo'llarini kuydirardi. Bu dunyoning ishlarini ko'r! Bir vaqtlar Yilmaz G'ulomzoda uning muallimi edi. Nodir qo'llari dir-dir titragancha birma-bir kitoblarni olib, varaqlay boshladi. Ularning aksariyatini mualliflar o'z imzolari bilan sovg'a qilishgandi. Dastxatlarning deyarli hammasi ayni jumalalar bilan boshlanardi: "Hurmatli Yilmaz G'ulomzodaga...". Demak, bu yer muallimining uyi ekan-da. Nodirning ko'z o'ngida G'ulomzodaning siymosi jonlandi. U kishi qoracha, to'ladan kelgan, nigohlari o'ychan, qoshlari qalin odam edi. Ma'ruza o'qiganida uning baland ovozi qo'shni auditoriyalarga ham yoyilar, xuddi bir necha guruhga mashg'ulot o'tayotgandek bo'lardi. Yilmaz muallim hamma uchun, xususan talabar uchun g'oyatda sevimli bir inson edi. Nafaqat matematika fani, dunyo adabiyotidan ham chuqur bilimga ega edi. Ko'tarinki kayfiyatda bo'lgan chog'larda, oddiy bir yig'inlarda, do'stlar uchrashuvlarida tor yoki sozda xalq kuylarini zavq ila ijro etar, hattoki biroz dag'alroq, ammo maftun etuvchi yoqimli ovoz-

la qadimiy xalq qo‘shiqlarini kuylardi. Aytishlaricha, Yilmaz G‘ulomzoda chiroyli raqsga tushishni ham bilar ekan. Nochor ahvolda bo‘lgan talabalarga qo‘lidan kelgan yordamni ayammasdi.

Bir kuni guruh faollaridan biri Nodirni darsdan so‘ng poyafzal do‘koniga taklif qildi. Aniq yodida, ayozli qish edi, butun shaharni qalin qor qoplagandi. Oyoq kiyimining tumshug‘i chokchokidan so‘kilib, ustma-ust kiyilgan paypoqlardan zarracha naf yo‘q edi. Paypoqlari doim jiqqa ho‘l, oyoqlari muzlab qaqshardi. Do‘konda gap nimadaligi ayon bo‘ldi. Guruh faoli ochig‘ini aytdi qo‘ydi. O‘shanda Nodir chunonam izza bo‘ldi, uyaldiki... Ma‘lum bo‘lishicha, Yilmaz muallim pulni yigitga berarkan, uning ismini aytmaslikni tayinlagan. Agar Nodir pulning qayerdan kelganini bilishni istab, o‘jarlik qilib turib olsa, ko‘mak tashkilotidan a‘lochi talabalarga ajratilgan mablag‘ yoki mukofot deyishni iltimos qilgan. Biroq o‘shanda yigit og‘zi bo‘shlik qilib, pulni G‘ulomzoda berganligini aytgandi. Bir tarafdin to‘g‘risini aytgani yaxshi bo‘luvdi. Turgan gapki, Nodir bironing sadaqasini qabul etmasdi. Ammo Yilmaz G‘ulomzoda... Bu butunlay boshqa gap... Bu inson har ishni beg‘araz, xolisona amalga oshirar, yagona maqsadi esa yaxshilik edi. Issiqqina poyafzallarni kiyib, ko‘chaga chiqqanida taniga yoqimli bir iliqlik tarqala boshlagani hali-hanuz yodidan chiqmaydi.

G‘ulomzoda dars o‘tarkan, ba‘zida mumtoz shoirlardan yoki faylasuflardan misol keltirardi. U klassikani juda sevardi, negaki uning ham o‘z davrining asl klassiklaridan biri edi...

Nodir yaxshi eslaydi, universitetning oxirgi kursida o‘qib yurganida Yilmaz G‘ulomzoda to‘satdan vafot etdi. Marhum bilan vidolashuv ham uning ish joyida, dars bergan universitetning majlislar zalida o‘tkazildi. Derdilarki, Yilmaz G‘ulomzodaning orqasida kasalmand rafiqasi va g‘oyat iste‘dodli o‘g‘li qolgan. Hamma ko‘z yoshi to‘kkandi uning dafn marosimida. Keyinchalik hayot yana o‘z iziga tushdi. Yodda qolganlar xotiralarda yashay boshladi, unutilganlar eslanmay ketdi. Dunyoning ajablanarli ishlari ko‘p ekan. Necha-necha yillar avval deyishardiki, qalbi hayot ishqii bilan to‘lib-toshgan Yilmaz muallimning umr yo‘ldoshi xasta. Oradan shuncha yil o‘tib, ehtimol rahmatli G‘ulomzodaning

xokidan ham nom-u nishon qolmagan bo'lsa-da, uning rafiqasi hamon hayot, shu kunlargacha eridan meros qolgan uyini ichidagi kitoblari bilan asrab-avaylab yashar, endi esa manzil sohibi o'zgarib, bu yerda Rahmon o'z oilasi bilan yashashi kerak edi. Yilmaz G'ulomzodaning kasalmand rafiqasi bu dunyoda yana qancha umr ko'rishi yolg'iz Yaratganga ma'lum. Iloj qancha, bu dunyo shunday dunyoki, unda har kim o'z toleyini yashamoqqa mahkumdur. Endi yagona muammo bu ko'hna xonadondagi kitoblarning toleyi edi.

Nodir og'ir xo'rsindi. Ko'zidan oqqan yoshlar kitobning ustiga tomdi.

Oshxonadan Rahmonning ovozi keldi:

— Nodir, ko'nglingga yoqqan nimadir topdingmi? Qo'rqma, evaziga hech narsa so'ramayman. Sen bularni olib ketmasang, tashlab yuborishga majburman. Menga buncha kitob-daftarning keragi yo'q... Gapim noto'g'rimi? Menga bor-yo'g'i bittagina kitob zarur, ya'ni muhosibat... Buyoqqa kel, qo'lingni yuv. Choy tayyor. Istasang bu uchrashuvimizni aroq bilan nishonlaymiz. Ammo shuni nazarda tutki, men ichmayman, chunki bu kunlarda dori qabul qilyapman. Ha, nima bo'ldi, miq etmaysan?

Nodir kaftlarini bir-biriga ishqadi.

Rahmonning oyoq tovushlari eshitildi.

INSPEKTOR VAYSMAN

G'ulom Husaynli Fanlar akademiyasi hovlisiga qadam qo'ydi-yu, kutilmagan manzaradan sarosimada qoldi. Chamasi, shaharni mo'r-malaxday bosib ketgan, duch kelgan muassasa-yu do'kon va yemakxonalar peshtoqiga har turli lavhalarni osib, ko'cha-ko'yda beg'amgina kavshanib yuradigan, yuzlari qip-qizil ajnabiylar, nihoyat, bu dargohga ham boshini tiqqan ko'rinadi. Asriy sarvzor qo'ynida joylashgan, rango-rang gulxonolari ko'zni quvontiradigan muqaddas ilm maskanida, odatan, qalin-qalin papkalarni qo'ltiqlab olgan olimlar salmoqlanib sayr etib yurishardi. Endi esa bejirim asfalt yo'lkalarda tumshug'iga xorijiy davlatlarning bayroqchalari qadalgan hashamdor qop-qora mashinalar tizilishib turardi. Ular yalt-yult etib ko'zni qamashtirar, ulkan guldastalarni quchoqlab olgan ilmiy xodimlar o'zlarini qo'yarga joy topolmas edi. Bu holni ko'rib G'ulom Husaynlining kuraklari orasida sovuq ter tomchisi o'rmaladi... Serrayib turish noqulay edi, u tez-tez yurib, ostonada uymalashib turgan odamlar orasidan ichkariga kirdi. Biroq foyeda ham soxta tantanavor manzaraga duch keldi. Hovlida hukmron bo'lgan bayramona ko'tarinkilik go'yo opichlab ichkariga olib kirilgan edi.

Ikkinchi qavatga chiqiladigan marmar zinapoya tepasiga ajnabiy tilda bir nimalar yozilgan oppoq matolar, moviy bayroqlar osib qo'yilgan.

G'ulom Husaynli bu yerda his-hayajonini arang jilovlab turgan tarixchi, filolog professorlar davrasiga tushib qoldi. Ularning ko'zlari allanechuk g'amgin edi. Lekin bo'lajak tadbir to'g'risida baland-baland tovushda safsata sotishar, tilyog'lamalik bilan kimnidir maqtashar, bir-biriga quloq solmasdan savol berishar, javobini esa hech kim eshitmas edi — eshikdan baayni hazrati Xizr kirib kelishini hamma intiq bo'lib kutmoqda. Bir kishidan

naqd hammomdan chiqqan oqavadek zax hidi anqir, bulbuligo‘yolik qilayotgan bu kimsa shu tobda, kuppa-kunduz kuni chirib, po‘panak bosib borayotganga o‘xshar edi.

G‘ulom Husaynli professorlarning baqir-chaqirini eshitmaslik uchun o‘tgan kunlarni — unutilmas jo‘shqin yillarini eslab ketdi. U vaqtda endigina akademiyaning aspiranti bo‘lgan edi. O‘shanda bu dargoh unga muhtasham ilm ibodatxonasidek ko‘rinar, u kezlarda hali yosh bo‘lgan hozirgi ilmiy xodimlar institut direktorlariga yoki so‘roq alomatidek bukchayib qolgan akademiklarga taqlidan salmoq bilan odim otishga harakat qilar edi. Xotiralar G‘ulom Husaynlini to‘lqinlantirib yubordi, u mijjalarida paydo bo‘layozgan yoshni yashirish uchun foyening naqshinkor ustunlarini, shiftlarni talmovsirab tomosha qila boshladi.

Nafsilamrini aytganda, o‘tgan kunlar hali unchalik uzoqlashib ketmagan. Ammo, G‘ulom Husaynlining nazarida, bugun barhayot o‘sha professorlar avlodi nihoyatda abgor bo‘lib qolgan, go‘yo akademiyaning tovush o‘tkazmaydigan qalin devorlarini qulatilib, vayron qilib beso‘naqay bir traktor o‘tib ketgan-u odamlarni ham ezib-yanchib yuborgan edi.

Akademiyaning o‘zi ham o‘zgarib ketgan. Xiyla cho‘kib, torayib qolganga o‘xshaydi. Yo‘laklari ham avvalgidek charog‘on emas, xira tortgan. U hozir G‘ulom Husaynliga tasodifiy yo‘lovchilar bilan to‘lib-toshgan besaranjom vokzal perronlarini eslatdi...

Hamma narsa ayanchli, xor-u zor, tashlandiq.

Ikkinchi qavatdagi majlislar zaliga kirilgandan keyingina professorlarning jag‘i tindi. Bu zal allaqachon ta‘mirtalab bo‘lib qolgan, nihoyatda aftoda edi. G‘ulom Husaynlining yon-veriga joylashib olgan ilm ahli savatchalarga solingan gullar bilan bezatilgan sahnani, tobora gavjumlashib borayotgan zalni betoqat qiyofada kuzata boshladi.

G‘ulom Husaynli ham sahnadan ko‘z uzmasdi, ammo u shu tobdagi dabdababozlikka qarab negadir “Qalam” adabiy sho‘basida o‘tayotgan nochor kunlarini, ochin-to‘qin kechayotgan hayotini o‘ylardi. Qadrdon “Qalam” sho‘basi sharti ketib parti qolgan eski trolleybusga o‘xshardi: o‘ydim-chuqur yo‘llarda har yonga tashlab

og'ib ketsa ham, davr sinovlariga mardonavor dosh berib, talay yillardan buyon o'zining kamtarona yo'nalishini o'zgartirmas edi...

Sho'ba a'zosi bo'lmish qalamkash birodarlari bir-bir xayolidan kechdi. O'tgan hafta Shoirning tavallud kuni nishonlandi, ammo "chaqaloq" bayramni qizitish o'rniga — sovutdi: ko'karib-bo'zardi, dardini sirtiga chiqarmadi, so'z qudrati haqida lom-mim demadi; undan keyin nutq irod qilgan kaltatoy Faraj ham kalavasining uchini yo'qotib qo'ydi — bir nimalarni ming'irlab, tezgina minbardan tushib ketdi; oxirida Og'aali tasavvuf durdonalarini dunyoviy adabiyotga almashtirmayman deb, ikki oyog'ini bir etikka tiqib oldi, so'ng kutilmaganda Sadayning yuziga shapaloq tortib yubordi... G'ulom Husaynli ana shunga o'xshagan noxush voqealarni eslarkan, sochlari o'rasida chumoli o'rmalab ketdi — xijolatdan boshi terladi.

Go'yo ahli zamon es-hushidan ayrilgan, dunyo ostin-ustun bo'lgan, hamma narsa pul bilan o'lchanadigan, hech kimni qorin dardidan boshqasi qiziqitirmay qo'ygan edi. Hatto muqaddas maskan sanalmish, g'arazli maqsadlardan nihoyatda uzoq hisoblangan akademiya ham nafsi ammora yo'lida allaqanday ajnabiylar bilan hamkorlik qilishga majbur. Qadrdon "Qalam" sho'basi esa na odamlarga, na adabiyotga bir chaqalik foyda keltiradigan abadiyat qonunlarini tadqiq etish bilan ovora! Balandparvoz da'volar shu zamonda kimga kerak, axir?! Undan ko'ra ko'rpaga qarab oyoq uzatgan ma'qul emasmi?.. Bariga o'zi, o'zining o'jarligi sababchi. Adabiyotga mutaassiblarcha sajda qiladi, shu bois boshi balodan chiqmaydi. Faqat o'zi qiynalsa go'rga edi, sho'baning barcha a'zolari, yor-do'stlari ham yelkasiga oftob tegmay o'tib ketyapti. "Baliq boshidan..." degan naql bekorga aytilmagan ekan.

Ajablanarli joyi shundaki, G'ulom Husaynli balchiqqa botib qolganini juda yaxshi biladi, jonholatda undan xalos bo'lishga intiladi, ammo qimirlagan zahoti botqoq battar komiga tortib ketaveradi. Hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. U go'yo yomon tush ko'rib, alahsirab yotgan odamga o'xshardi — uyg'onib uyg'ona olmas, uxlab orom neligini bilmas edi; bir chigallikdan qutulsa, ikkinchisi ro'parasida ko'ndalang bo'laverardi. Xullas, adabi-

yot qurbonlik talab etar, uni uncha-muncha narsa bilan rozi qilib bo‘lmas edi.

“Xo‘sh, abadiyat qonunlarining kimga keragi bor o‘zi? — deb ba‘zan o‘tirgan joyida xunob bo‘lardi u. — Bu so‘fiyona vasvasalardan nima foyda?!”

Aslini olganda, o‘zi ham, do‘stlari bo‘lmish kaltatoy Faraj, Shoir, Dengiz va sho‘baning boshqa a‘zolari ham qandaydir shubhali mazhabning mutaassib muridlariga o‘xshardi. Sirtidan qaragan odam ularni jinni-pinni bo‘lsa kerak deb o‘ylamog‘i tayin.

Boshqa yozuvchilar esa kecha-yu kunduz tadbirkorlik bilan puxta rejalar tuzib, qanday qilib farovon turmush kechirish to‘g‘risida bosh qotirar, kitoblarini chet ellarda bostirib pul topish payida edi. Bular-chi, tamaki tutuniga to‘lib, dimiqib ketgan xonalarida badiiy so‘z qudrati, biron bir asarning fazilatlarini to‘g‘risida, teran ramziy ma‘nolar haqida tomoqlari xirillab qolguncha bahslashar, biror so‘zning ma‘nodoshini qidirib antak-tentak bo‘lar, so‘ngra ko‘zlari kosasidan chiqqudek bir alfozda bu kashfiyotlarini bir-biriga aytib ma‘qullatar edi... Haqiqatan ham, bunday yig‘inlar adabiy kechadan ko‘ra, yashirin mazhab a‘zolarining maxfiy uchrashuviga ko‘proq o‘xshab ketardi.

Mana shularni o‘ylaganda G‘ulom Husaynlining yuragi har gal g‘alati hapriqib tushadi. Lop etib qalamkash do‘stlarining dilbar misralari, mumtoz shoirlarning shohbaytlari xayoliga keladi. Bular uni nafaqat ma‘naviy halokatdan, balki rasmona ajal changalidan ham asrab qolgan. O‘lim — haq, hech kim undan qochib qutula olmaydi. Lekin o‘lim boshqa, o‘z joniga qasd qilish boshqa narsa. Xudkushlik o‘yiga borgan onlarida G‘ulom Husaynli mardlik qilyapman deb, aslida nomardlik qilmoqchi bo‘lganini daf‘atan his etar, so‘ngra es-hushini yig‘ib olib, shum niyatini qog‘ozdek g‘ijimlab, keraksiz qoralama nusxa kabi uloqtirib yuborar edi...

Bugungi dabdaba-yu as‘asalar avvalgilariga o‘xshamasdi. Shu tobda akademiyada hukmron bo‘lgan muhit, uddaburonlik namoyishi ko‘ngilni aynitib yuborgudek darajada edi. Beixtiyor allaqachon ta‘mirga muhtoj bo‘lib qolgan sho‘ba binosi, uning g‘alvirdek ilma-teshik tomi, bechorahol xodimlarning ozib-to‘zib ketgan

qiyofalari bir yonda-yu adabiyotni tirikchilik manbaiga aylantirib olgan semiz qurtlar yana bir yonda namoyon bo'ldi...

Nimadir qilish, nimanidir o'zgartirish kerak. Ehtimol, Adabiyot Qal'asining bulutlarga qadalib turgan biror arkonini qulatish kerakdir? Sho'bani ham bulut bosgan, bulut ostida ingrab yotibdi. Zohiran batartib akademiyaning majlislar zalida ham oqimtir bulutlar ko'zga tashlanadi. Xuddi kafanga o'xshaydi.

Zal odamlar bilan limmo-lim bo'ldi.

G'ulom Husaynli keyingi o'n yil mobaynida bu yerga qadam bosmagan edi; akademiya a'zolarining tarkibi deyarli yangilanibdi. Yig'ilganlarning ko'pchiligi yoshlardan iborat, kekxa yoki o'rtayashar kishilar ham bor, lekin aksariyat yangi odamlar G'ulom Husaynliga notanish edi. Ular amaldor ustozlariga taqlidan qator oralab kekkayib yuri'shar, kiborlar misoli tishlarining oqini ko'rsatib bir-biriga ta'zim bajo keltirar, qandaydir hujjatlarni oldingi qatorda o'tirgan zotlarga qo'lma-qo'l uzatishar edi.

Ahli ilm orasida bir necha tanish akademik ham ko'zga chalinardi, ular allaqachon keksayib, bukchayib qolgan edi. Akademiya kazo-kazolari yon tarafdagi pastak eshikdan engashib kirib, chumoli galasidek tizilgan, ehtiyotkorlik bilan sahna yonidan o'tdi-da, qat'iy tartib bo'yicha birinchi qatordan joy oldi, handalakdek vaznsiz kallalarini har yonga burib past tovushda o'zaro ming'irlasha boshladi.

Chamasi, ular boshqalar tushunmaydigan xos bir lahjada so'zlashardi. G'ulom Husaynlining esida: ular bundan o'ttiz yil ilgari ham xuddi hozirgidek rangpar va bujmaygan ko'rinardi. O'tgan yillar mobaynida yanada bukchayib, yanada zahil tortib, zamon va makondan chetda qolib ketishibdi.

Nihoyat, anjuman boshlandi. Sahnada akademiyaning vitse-prezidenti paydo bo'ldi — miqtidan kelgan, o'rtayashar bir gumbaz, u shodligidan lab-lunjini yig'ishtira olmas, go'yo anovi "yangilik"ni tezroq aytmasa, naq yuragi yorilgudek edi. Sahnaga chiqqach, teatr qoidasiga ko'ra, noma'lum nuqtaga tikilib xiyla sukut saqladi-da, so'ng vazmin ohangda so'z boshladi. Aftidan, mog'or hidi anqib turgan eski sahnada vitse-prezident o'zini noqulay his etardi.

Shu bois g'ayritabiyy ravishda ovozini baland qo'yib gapirishga harakat qildi. Nutqining o'rtalarida allomaligini pisanda qilib murakkab ilmiy istilohdan foydalanmoqchi bo'ldi-yu, oddiygina nayrangbozlikni ham eplay olmadi — duduqlanib qoldi, qiyshanglab nodonligini xaspo'shlashga urindi. Boz ustiga, birinchi qatorda qotib o'tirgan keksa akademiklar uni battar sarosimaga solib qo'ydi. G'ulom Husaynli ham o'z faoliyati davomida mana shunday loqayd nigohlarga ko'p bora duch kelgan. U dimog'dor vazirlarning kabinetlarida, yuqori mansablarga qo'qqaytirib qo'yilgan amaldorlarning huzurida adabiyot sho'basining og'ir iqtisodiy ahvoli, tomdan chakki o'tayotgani, yo'laklarda yelvizak o'ynayotgani, bir chetga uyub qo'yilgan bebaho qo'lyozmalar po'panak bosib, yaroqsiz holga kelayotgani to'g'risida gapiraverib charchagan. Uning diydiyolarini cho'yanbashara kimsalar qilt etmasdan eshitardi, G'ulomboy esa bitta gapni to'tiqushdek takrorlayverardi, ba'zan tutilib qolar, jahli chiqar, ichida o'zini so'kar edi. Goho asablari chatnab, chakka tomirlari bo'rtib ketar, oxiri ovoz chiqarib bir nimalar deb do'ng'illardi-yu kalovlanib tashqariga otilardi. Barcha tavallolari yana-tag'in havoga sovurilganini ostonadayoq his etardi.

O'lik ko'zlarning bunday loqaydligi birpasda har qanday ishtiyiqni so'ndiradi, unga duch kelgan odamning qo'li ishga bormay qoladi.

...Vitse-prezident darhol o'zini qo'lga olib, shakarguftorlik bilan nutqini poyoniga yetkazdi. Keyin ajnabiy sarmoyadorlarning gumashtalari sahnaga taklif qilindi. Balandparvoz maqtovlardan dovdirabroq qolgan vakillar sahnaga chiqdi. Ovrupocha olaquroq shim kiygan ikki yigit birin-ketin o'z tilida bir nimalar deb chuldiradi. Yuz-ko'zini sepkil bosgan, qotmagina mallatob yigitchani G'ulom Husaynli zimdan kuzatdi.

Mallatob ajnabiy Olmoniya elchixonasining bir xodimiga juda-juda o'xshardi; besh-olti oydan buyon G'ulom Husaynli salmoqdor kitob nashr etishga buyurtma olish ilinjida inspektor Vaysman huzuriga zuv-zuv qatnaydi. O'sha inspektorning yuzini ham sepkil qoplagan, ammo suhbatdoshidan hazar qilayotganini basharasidagi sepkil ham yashira olmasdi.

Elchixonona shahar markazidagi muhtasham binoning quyi qavatida joylashgan. Mana shu balkonlari oynavand binoda bir vaqtlar xokisor Xalq shoiri istiqomat qilardi. U nihoyatda odamoxun inson edi. Hozir imoratning devorlari qayta suvoqdan chiqarilgan, negadir kulrang tusga bo'yalgan, olisdan xo'mraygandek ko'rindi, tovush o'tkazmaydigan oynavand eshiklari doim yopiq turadi. Xuddi o'lim lagerlariga qamalgan mahbuslar misoli oyoq uchida yuradigan elchixonona xodimlarining tund basharalari G'ulom Husaynliga bolalik chog'larida ko'rgan olachalpoq filmlardagi fashistlarni eslatardi.

“Olmon adabiyoti antologiyasi”ni tayyorlashga qaror qilgan sho'ba nomidan elchixonona rasmiy xat bilan murojaat etildi. Biroq hozircha olmonchadan bir misra she'r ham ozarbayjon tiliga o'girilmagan. Xavfsizlik yuzasidan devorlari zirhlangan elchixonona qabulxonasida har gal G'ulom Husaynlini chiroyli bir ozarbayjon qiz kutib oladi. U oynavand to'garak stol yonida alchayib o'tiradi, uyat-puyatni bilmaydi, allaqachon olmonlashib ulgurgan; ona tilida zo'rg'a chaynalib gapiradi, dudmal javoblari kishining ensasini qotiradi. Ustiga ustak, uchlari o'tkir tuflisi bilan goh oyoqqa tepib, goh o'tkir tirnoqlari bilan yuzni chimdib olayotgandek tuyuladi. U sizga gumonsirab qaray-qaray, tovush yutadigan yumshoq to'shama qoplangan yo'lak bo'ylab mallavoy xodim o'tirgan xonaga boshlab boradi. Inspektor bilan uchrashuvga qadar kechadigan bu savdolar G'ulom Husaynlining ta'bini har gal tirriq qiladi.

Allaqanday vahimali elektr asbobiga o'xshagan Vaysmanning haddori hidi anqib turgan xonasiga kirib, uning ro'parasida ikki-uch daqiqa mulzam bo'lib o'tirganidayoq G'ulom Husaynli bu yerga bekor kelganini anglaydi, ichidan zil ketadi. La'nati rasmiy xatni xayolan yuz marta mayda-mayda qilib yirtib tashlaydi, lekin endi Vaysmanning baqraygan sovuq ko'zlaridan qochib qutulishning iloji yo'q.

O'sha xat yuzasidan inspektor Vaysman yana bir necha marta G'ulom Husaynlini huzuriga chorladi. Inspektorning xonasi vaznsizlik holatida muallaq osilib turgan kosmik kemanding kayutasi kabi tor, dimiqib ketgan edi. U qildan qiyiq axtaradigan bezbet ter-

govchiga o'xshab suhbatdoshini erinmasdan so'roq qiladi; "Agar Olmoniya elchixonasi antologiya chop etish uchun mablag' ajrat-sa, pul qay yo'sinda, nimalarga sarf etiladi?.." deb qayta-qayta so'raydi. Odamning jonini hiqildog'iga keltiradi. Antologiya xarajatlariga ajratiladigan puldan hali darak yo'g'-u, o'tgan haftadan beri Vaysman har kecha G'ulom Husaynning tushiga kirgani kirgan. Boz ustiga, tasqara bir qiyofada namoyon bo'lardi: gohida mahalliy kampirlarning etaklari yer supurib yuradigan ro'dapo ko'ylagiga burkanib, sap-sariq tuk qoplagan qo'llari bilan G'ulom Husaynning bo'ynidan quchoqlab, yuzini yuzlariga bosganча erkalanib ozarbayjon tilida bir nimalar deb chuldirasa, gohida politsiyachilar libosida ro'parasida o'tirib olib, G'ulomning basharasiga qizil chiroqni to'g'rilab ko'zlarini qamashtirar, she'r-pe'ni eslatadigan allaqanday matnni olmon tilida o'qib berar edi. Keyingi marta ko'rgan tushida G'ulom Husaynli Vaysman olqishlab turgan eshakdek tozidan zo'rg'a qochib qutuldi. So'ng chag'ir toshloq bo'ylab yuguraverib o'pkasi bo'g'ziga tiqildi, yalang oyoqlari tilinib ketdi; qandaydir ilonizi so'qmoqlardan o'tib, tong mahali holdan toyib yerga quladi va shu zahoti yana ustiga qutur-gan it tashlandi...

G'ulom Husaynli qora terga botib uyg'ondi, bezgakka chalin-gan bemor misoli vujudi dag'-dag' titrardi, qalin ko'rpani ustiga tortib o'ranib oldi. Endi elchixonasiga qadam bosmayman, u yer-larni yelkamning chuquri ko'rsin, deb qasam ichdi, Vaysmanni esa ashaddiy bir dushmandek xotirasidan batamom o'chirib tashlaydi. Afsuski, oradan ikki soat o'tar-o'tmas sho'baga bordi-yu zinapoya-da qisilib-qimtinib, mung'ayib turgan, saratonda suvsiz qolgan gullardek so'lib-sarg'aygan xodimlarga ko'zi tushib, beixtiyor elchixonaning qadimiy qal'a darvozasiga o'xshash og'ir-vazmin temir qopqalarini, tovush o'tkazmaydigan qalin oynalarni, Vays-manning malla basharasini yana esladi, yana undan umidvor bo'ldi...

* * *

Professorlardan birovi alam bilan bosh chayqab, asta enga-shib yonida o'tirgan sherigining qulog'iga nimanidir shivirladi.

Ularning sadaqa tilab o‘tirganidan G‘ulom Husaynning ko‘ngillari aynib ketdi. “Namuncha yaltoqlanadi? Odam bolasi shu qadar ham tubanlashadimi?..” Uning yuragi duk-duk urar, asablari charsillar edi. O‘zini bosib o‘tirishga harakat qilardi-yu, lekin eplayolmasdi.

Nima uchun ko‘plab kitob, ssenariy va yirik tarjima asarlar muallifi bo‘lgan G‘ulom Husaynli kelib-kelib qandaydir chalasavod ajnabiya hovuchini cho‘zib tilanchilik qilishi kerak? Vaysman kim bo‘pti — Olmoniyaning gadoytopmas bir kindigida tug‘ilgan, oilasi ham elektr asboblari jamuljamiga o‘xshasa ajab emas, o‘zi amal-taqal qilib birorta o‘quv yurtini tamomlagan bir ko‘ppak, xolos! Nega ana shu galvarsning bema’ni savol-so‘roqlariga chidashi kerak ekan? Undan ko‘ra, yer yorilib, yerga kirib ketgani ming marta afzal emasmi?! Dod, ming dodkim, o‘sha la’nati dargoh ostonasiga bosh urib borishga majbur. Insoniy or-nomusini toptab, betini qattiq qilib elchixonaga borib kelganidan so‘ng har gal yana navbatdagi uchrashuv to‘g‘risida bosh qotiradi. Bundan ortiq haqorat bo‘lmas...

Umr bo‘yi o‘zlarini olim-u fuzalo hisoblab kelgan, rahbarlikni ham o‘rniga qo‘ygan, uyum-uyum ilmiy asarlar yaratgan kalondimog‘ professorlar nima uchun sochlari oqargan bir vaqtda betayin, yengiltak ajnabiylar qarshisida dumlarini lik-lik o‘ynatyapti?..

Og‘ir o‘y-xayollarga g‘arq bo‘lib o‘tirgan G‘ulom Husaynli qanday qilib diqqinapas akademiyani tark etganini ham sezmay qoldi. U g‘ir-g‘ir shabada esayotgan so‘lim ko‘chalar bo‘ylab ohista odimlab borardi.

* * *

Bu gal Vaysman xonasida yolg‘iz emas ekan, yonida baland bo‘yli, istarasi issiq yana bir olmon o‘tirardi. U nimasi bilandir mashhur bastakor Shtrausni eslatardi. Ular G‘ulom Husaynliga bir qarab olgach, o‘zaro olmonchalab past ovozda g‘o‘ng‘iray boshladi.

Olmon tilini bilmagani uchunmi yoki keyingi vaqtlarda Vaysman to‘g‘risida ko‘p o‘ylagani sababmi, G‘ulom Husaynning nazarida olmonlar uni kalaka qilayotgandek tuyuldi. Ikkinchi ol-

monning ko‘z qorachig‘ida, qizlarnikidek qirmizi lablarining burjida istehzo alomatlari paydo bo‘ldi.

Vaysmanning qiyofasida yaxshilikdan nom-nishon ham ko‘rinmasdi. U yum-yumaloq itko‘zlari bilan G‘ulom Husaynlining qop-qora mo‘ylovini, tugunchasi g‘alvayib turgan, ertalab apiltapil bog‘langan bo‘yibog‘ini, ohori to‘kilgan ko‘ylagining sho‘r bosgan yoqasini birma-bir ko‘rikdan o‘tkazdi; oppoq barmoqlari esa zo‘r hafsala bilan stolga taxlab qo‘yilgan hujjatlarni silab-siy-palardi. Bu silliq janoblar ko‘zini lo‘q qilib o‘tirgani sari G‘ulom Husaynli o‘zini noqulay his etar, yuzi qip-qizarib, sochlarining ostidan ham ter chiqa boshlagan, boshi g‘uv-g‘uv aylanar, allanechuk qichishar edi. Nogahon bugungi uchrashuvga kelishdan oldin tuflisini yaraqlatib artganini esladi. Odatda ko‘chaga chiqayotib oyog‘idagi poyabzalga qiyo ham boqmasdi. Bu gal negadir “do‘st boshga, dushman oyoqqa qaraydi”, degan naqlga amal qildi. Oyog‘idagi poyabzal yaraqlab turgan bo‘lsa-da, uchlari pachoq. G‘ulom Husaynli buni bir oycha muqaddam shahar markazidagi olmonlarning do‘konidan sotib olgan edi. Mana, bir oy o‘tarmo‘tmas, avvalgi hashamidan asar ham qolmadi. Battar bo‘lsin. Aslida, xotin kishining gapiga ahmoq ergina quloq soladi. Uning xotini ham arzonroq poyabzal xarid qilgin deb quloq-miyasini yeb qo‘yadi, bir oydan so‘ng esa tumshug‘i pachoq, poshnasi yemirilgan tuflini keraksiz buyumdek, qo‘li yupqaroq biror qarindoshiga in‘om etib yuboraveradi...

Vaysman hamon yoqimtoy olmon bilan shivir-shivir qilib muzokarani davom ettirardi. Aftidan, ular ro‘parada bir odam muntazir bo‘lib o‘tirganini ham eslaridan chiqarib yuborgan ko‘rinadi. Zero, birortasi G‘ulom Husaynli tarafga qiyo boqmasdi... Niho-yat, boyadan beri Vaysman siypalab o‘tirgan papkani ochib, hujjatlarni ko‘zdan kechira boshlashdi; ba‘zan olamshumul sir saqlanayotgan qutichadan ilon chiqib qolgandek ko‘zlarini olakula etib yuborishar, shunda qog‘ozlardan ko‘z uzib G‘ulom Husaynliga yovqarash qilib qo‘yishar, go‘yo har xil belgilar-u so‘roq-undov alomatlari bilan to‘lib-toshgan hujjat asl nusxasiga — G‘ulom Husaynning basharasiga taqqoslanar edi. G‘ulom Husaynli o‘tirgan joydan Vaysmanning botinkasi baralla ko‘rinar-

di: poyabzal yap-yangi bo'lsa-da, narigi olmonning botinkasidan siporoq; xuddi ikki juft botinka do'kon peshtaxtasidan unga tikilib turgandek... Har ikkala olmonning bilaklari xivichdek ingichka, bo'yni qiltiriq, kasalmand kishiniki kabi sarg'imgir edi. G'ulom Husaynli ularning boshqa tana a'zolarini ham ko'z oldiga keltirdi; oyoqlari tovuqnikiga o'xshasa kerak, deb o'yladi. So'ng birdan fikri ravonlashdi: ha-a, gap bu yoqda ekan-da, olmonlarning poyabzali qiltiriq oyoqlarga mo'ljallangan, unday oyoq mo'rt poyabzalni yirtmasdan, poshnasini yemirmasdan bir yil sudrab yurishi mumkin... Inspektorlarning ko'ylaklari ham yap-yangi edi: yoqalari asl holida tikrayib turibdi, hali dazmol nimaligini bilmaydi, demak, tog'oraga tushmagan, yuvilmagan. Ularning kiyim-boshi aslida yangi emas... G'ulom Husaynli xayol surib o'tirib ro'molchasi bilan bo'ynidan oqayotgan terni artib oldi... Ammo badanga yopishib turgan bu sho'rlik kiyim-kechak chinakam hayotdan bexabar, shu bois eskirmaydi, yitmaydi...

— Bu nima?!

Tuyqus berilgan savoldan G'ulom Husaynli cho'chib tushdi. Vaysman qoqshol qo'lida unga tanish hujjatni tutib turardi. Bu antologiya nashriga mo'ljallangan xarajatlar hisob-kitobi edi. Vaysman ayniqsa mana shu qog'ozni juda yomon ko'rardi. Har gal savol-javob hujjatlar orasidan ajratib olingan mana shu hisob-kitobdan boshlanar, G'ulom Husaynli esa ijkilab izoh berar edi. U yod bo'lib ketgan gaplarni to'tiqushdek takrorlashga kirishdi: “Biz antologiya nashr etmoqchimiz, ozarbayjon kitobxonlarini olmon adabiyoti bilan tanishtirmoqchimiz, shu yo'sin olmon-ozarbayjon madaniy aloqalarini rivojlantirishga munosib ulush qo'shmoqchimiz” va hokazo. Bosiq, past tovushda gapirdi, o'zini ziyolidek tutdi, ovrupoliklar kabi kulimsirab turdi, dona-dona qilib so'zladi, iboralar orasida sukut saqladi, ishqilib, jizzaki elchixonada xodimining jinini qo'zitmaslikka harakat qildi. Biroq u gapirayotgan paytda Vaysman qog'oz ushlab turgan qo'lini pastga tushirmadi, kiprik qoqmasdan, yum-yumaloq ko'zlarini lo'q qilib o'tiraverdi. Boz ustiga, narigi olmonning lablarida yana zaharxanda alomati zohir bo'ldi. G'ulom Husaynli rasmiy xat mohiyatini batafsil

izohlagach, og‘ir jinoyatning ashyoviy dalilidek, boyadan beri Vaysman qo‘lidan qo‘ymay turgan hujjat haqida tushuncha berdi. Gapiroyotib, bular hozir menga bir balo bo‘lishini kutyapti, deb o‘yladi negadir. Xo‘sh, menga nima bo‘lishi mumkin?.. G‘ulom Husaynli birdan to‘xtab, o‘ylanib qoldi. Vaysman esa hamon hisob-kitob yozilgan qog‘ozni tutganicha unga qarab o‘qrayib turardi. Sas-sadosiz ta‘na-dashnom G‘ulom Husaynlining suyak-suyagidan o‘tib ketdi. U yana terlay boshladi. A‘zoyi badanidan quyilib kelayotgan ter yupqagina chit ko‘ylagini birpasda jiqqa ho‘l qildi. Terlab-pishib ketganini sezib o‘zidan uyaldi, asabiylashdi, natijada battar terlay boshladi. Bir necha oy muqaddam shosha-pisha, buxgalter bilan antologiya xarajatlarini hisob-kitob qilganini esladi. Shu narsa boshga bitgan balo bo‘ldi-ku, deb o‘yladi ijirg‘anib.

Undan voz kechsam qutulamanmi?.. G‘ulom Husaynlining nazarida, olmonlar uning terlab-pishib xijolatdan qovurilayotganini maroq bilan tomosha qilib o‘tirgandek tuyuldi. Kutilmaganda Vaysman G‘ulom Husaynlining izohlaridan qoniqish hosil qilgandek qo‘lini pastga tushirib, hisob-kitob yozilgan qog‘ozni papkadagi hujjatlar orasiga avaylabgina tiqdi-da, boshqa varaqni olib yoqimtoy olmonning oldiga qo‘ydi. G‘ulom Husaynli uzoqdan turib o‘zlari olmon tilida tuzgan — antologiyaga kirishi rejalashtirilgan yozuvchilar ro‘yxatini darrov tanidi.

— “Kristian” so‘zi noto‘g‘ri yozilibdi. Olmonchada bu atoqli ot “Xh” harfi bilan yoziladi, sizlar “K” bilan yozasiz...

Shtrausga o‘xshagan yoqimtoy olmon chuchukroq tilda so‘zlar ekan. Hechqisi yo‘q, ajnabiylar talaffuzidagi nuqson kechirimli. Muhimi, u ozarbayjoncha gapirdi. Ammo nutqida xiyla qusur seziladi. Xususan, undosh tovushlarni olmoncha yo‘sinda halqumidan chiqarib, tishlarining orasidan o‘tkazib o‘qday otib yuborsa, yumshoq unli tovushlarni qattiq ohangda talaffuz etardi. Bolalik chog‘laridan quloqlariga o‘rnashgan mayin, musiqiy tovushlar xuddi bir arava shag‘aldek G‘ulom Husaynlining ustiga ag‘darilardi.

“Shtraus” gapini tamomlab zo‘raki jilmaydi, lekin bu jilmayish mamnunlikni emas, qahr-g‘azabni ifodalardi.

— Qolaversa, bizga taqdim etilgan hujjatda qayd etilishicha, kitobning yuz nusxasi har xil idoralarga sovg‘a qilinar ekan. Buni nima deb tushunish kerak?..

“Yo‘q, endi chidab bo‘lmaydi! — deya xayolan e’tiroz bildirdi G‘ulom Husaynli g‘azabini arang jilovlab. — Nima, bular meni muttaham deb o‘ylayaptimi?!”

Yoqimtoy olmon birdan Vaysmanga o‘xshab G‘ulom Husaynliga o‘qrayib tikildi; G‘ulomboyning yuragi tovoniga tushib ketdi go‘yo, tizzalari bilinar-bilinmas qaltiray boshladi, tomog‘iga mushtdek bir nima qadalib qoldi. Ajabo, u hech qachon bunday ahvolga tushmagan edi. Lekin odamning tizzasi qachon qaltirashini yaxshi biladi... Voy ablahlar-ey, odam bolasini shu qadar xo‘rlash kerakmi?!

Yillar davomida so‘lib-so‘nib qolgan to‘fon birdan ko‘krak qafasini larzaga keltirib yubordi.

— Nima demoqchisiz o‘zi? — dedi G‘ulom Husaynli o‘smoqchilab. Guldurak yanglig‘ ovozidan o‘zi ham ilhomlanib ketdi. Bir juft amaldorvachcha baqrayib o‘tirgan bu xonada, darhaqiqat, uning tovushi momoguldirakdek yangragan edi. — Balki o‘sha idoralardan ishonchnoma ham keltirib berishim kerakdir? Nima balo... — deb birdan aytmoqchi bo‘lgan gapini unutgandek to‘xtab qoldi. — Siz... meni kim deb o‘ylayapsiz o‘zi?!

G‘ulom Husaynli hayajon girdobiga tushgan, hiqildog‘iga qadalib qolgan mushtdek bir narsa hamon tovushini bo‘g‘ib turar, shu boismi, so‘zlari olmonlarga deyarli ta’sir etmas edi. Ular ko‘zlarini lo‘q qilib, qilt etmay o‘tirardi. Haddan ziyod hayajonlanganidanmi yoki o‘zi aytgan so‘zlar ta’siridami, G‘ulom Husaynlining ko‘z oldi qorong‘ilashib qoldi.

— Odamni yana qancha xo‘rlash mumkin?! Sizlar beradigan o‘sha hisob-kitobli pulni o‘marib ketamanmi?! Nima, meni hech narsani tushunmaydigan ahmoq deb o‘ylayapsizlarmi?! Siz...

U diydasida yosh aylanayotganini sezdi-yu ajnabiylar oldida yig‘lab yubormaslik uchun sapchib o‘rnidan turdi.

Bu dimiqqan binoda yo‘q bo‘lib ketishni, insoniy sha‘nini yer bilan yakson etishni istamadi — yana birpas tursa, yo‘laklarga

to'shalgan qalin gilamlar qadam tovushlariga qo'shib uni ham yutib yuborishi hech gap emasdi go'yo!

Yugurib ko'chaga chiqdi.

Ko'chalar gavjum edi. Yengil-yelpi kiyinib olgan odamlar qahvaxonalardan taralayotgan musiqa sadolari ostida sayr etib yurishardi.

U halloslab borib muyulishdan burildi-da, Favvoralar maydoniga chiqdi. Endi eslab ko'rsa, hali ko'zlarida yosh halqalanib o'rnidan turayotgan paytda olmonlardan birining labi titrab ketgan, so'ng loqayd basharasida qoniqish alomatlarini paydo bo'lgan ekan. U buni ko'z qiri bilan ko'rgan, yaqqol his etgan edi.

Xudo bilsin, bir insonning xor-zor bo'lishini, ikki qo'lini tos ko'tarib maydondan chiqib ketishini lo'ttibo'z amaldorvachchalar qancha kutgan ekan! Mana, endi ular murodigaga yetdi.

"Xuddi rosmana urushga o'xshaydi-ya!" dedi ichida G'ulom Husaynli.

U tamaki tutatib chekdi. O'sha la'nati uchrashuvni tezroq unutishga ahd qildi.

Ko'chalarda bamaylixotir aylanib yurdi: birovning boshiga qaradi, birovning oyog'iga... Goh-goh miyig'ida kulib qo'yardi: bosh yoki oyoqqa qarab do'st kim, dushman kim — bilib bo'lmaydi-ku, birodar!

Ko'cha-ko'ya odamlar kiyib yurgan poyabzallarni G'ulom Husaynli olmonlarning o'sha poyabzal do'konida ko'rgandek edi. Ularning barchasi Vaysmanning botinkasidek yarqirar, g'ashin-gizni keltirib g'irchillar edi.

Hamma olmon tufilisini kiyib olgan, mana, o'zi ham o'shanaqa boshmoqni sudrab yuribdi. G'ulom Husaynlining yuragi siqildi, tezroq uyga ketgisi keldi — ajnabiy poyabzallarini ortiq tomosha qilishni istamasdi.

U sigaretini axlatdonga otib yuborib, qadamini tezlatdi.

"Eng ajablanarli joyi shundaki, mana shu bema'ni hodisaning ham qandaydir ma'nisi bor, — deya yo'l-yo'lakay xayolidan o'tkazdi G'ulom Husaynli. — Vaysman har qancha pastkash bo'lmasin, lekin u ham o'zicha haq..."

Oradan bir hafta o'tgach, G'ulom Husaynli shaxsan elchi janoblarining nomiga maktub yo'llab, saforatxona xodimi uni nechog'liq xo'rlagani, sarson-sargardon etganini batafsil bayon qildi.

Keyingi haftada elchixonadan javob keldi. Elchixonaning madaniy ishlar bo'yicha vakilasi frau Zibek uni suhbatga taklif etgan edi.

“Ular kim bilan o'ynashayotganini bilgan bo'lsa kerak!..” Bu fikr G'ulom Husaynliga xiyla taskin berardi. Adabiy mushohadalardan, jiddiy dalil-dastaklardan iborat maktub har qanday fahm-farosatli odamni befarq qoldirmaydi.

...Belgilangan kuni u elchixonaga yetib bordi. Har ehtimolga qarshi, Vaysman bilan “Shtraus”ning xurmacha qiliqlari, olmonlarning e'tiborsizligi haqida muxtasargina, ammo sermazmun nutq qoralamasini ham hozirlab olgan edi.

Qabulxonaga kiraverishda oynavand to'garak stol ortida alchayib o'tirgan, allaqachon olmonlashib ulgurgan anovi ozarbayjon qiz telefonda kim bilandir shivirlashib gaplashayotgan ekan. Unga ko'zi tushgan zahoti go'shakni kafti bilan to'sib:

— Qulog'im sizda, — dedi.

— Men soat o'n uchga taklif etilganman, — dedi G'ulom Husaynli ich-ichidan g'ururlanib. Aslida, shu choqqacha mana shu qizga ham tilyog'lamalik qilishga majbur edi; endi hammasi boshqacha bo'ladi — eski teraklar kesilib ketgan.

— Kim taklif etgan?

— Frau Zibek.

Qiz narigi telefon go'shagini ko'tarib, bir tugmachani bosdi va kim bilandir olmon tilida qisqagina gaplashib, go'shakni joyiga qo'ydi.

— Siz to'rt daqiqa kechikdingiz, — dedi u keyin. — Hozir frau Zibek bandlar. Qayta uchrashuv tayin qilinishini so'rab elchixonaga ariza bilan murojaat etishingiz mumkin...

G'ulom Husaynli chap tomon devorga osib qo'yilgan soatga qaradi.

Darhaqiqat, soat o'n uchdan to'rt daqiqa o'tgan edi...

QO‘RQINCHLI MUHABBAT

“... Ozodlik deganlari shumi? Turgan-bitgani qo‘rquv va tahlika-ku!” Bu so‘zlarni ko‘nglidan kechirgan novcha, qotmadan kelgan odam adoqsiz qishloq yo‘lida ketib borarkan, butun borlig‘ini qamrab olgan vahimadan xalos bo‘lmoqqa oshiqardi. Biroz avval miyasidan boshqacha o‘ylar kechayotgandi. Hammasi qabriston tarafga burilganidan keyin boshlandi. Nogoh kimdir uni orqadan chaqirgandek bo‘ldi. O‘girilib qaradi. Hech zog‘ ko‘rinmasdi. Yana o‘sha ovoz. Bu safar juda yaqindan eshitildi. Yana odam qorasini ko‘rmadi. Yurishini sekinlatgan payti ortidan qadam tovushlarini eshitdi. Keskin harakat bilan qayrilib boqdi va...

Xudo haqqi, nimadir ko‘rdimi-ko‘rmadimi, xuddi yuragining ichiga birov bir parcha muz tiqib qo‘ygandek bo‘ldi. Keyin esa qo‘rquvdan o‘zini yo‘qotdi.

Turmadan chiqqanlar ozodlikda yurganlardan ko‘ra jasurroq bo‘lishadi, qo‘rquv, vahima kabi hislarga o‘rinsiz narsalardek qaraydilar. Ilgari u ham shunaqa deb o‘ylardi... Shu oqshomga qadar. Avvaliga orqadan ovoz eshitganida qaragisi ham kelmandi. Chunki bu pallada kimdir u bilan hazillashishga jur‘at etolmasligiga amin edi. Ammo, so‘nggi marotaba orqasiga o‘girilib, izma-iz kelayotgan farishtasifat, o‘zidan ikki baravar uzun, oppoq libosga burkangan qanotli mavjudot unga yetay-yetay deb turganini ko‘rdi-yu, oyoqlariga titroq kirdi, badanini sovuq ter bosdi. Shundan keyin orqasiga qayrilmadi va qochishga tushdi. Tahlika ichida past ovozda so‘kinganini ham sezmay qoldi. Hibsda ligida ham bunaqa qo‘rqan paytini eslolmaydi. Qamoqda kechgan o‘n besh yillik umri davomida birov uning iziga tushishga jur‘at qilolmagandi. Biroq, shu muddat ichida bunaqa bahaybat va antiqa, qanotli odamga duch ham kelmagan edi. O‘zi bu maxluq qayerdan paydo bo‘lib qoldi va nima uchun uning payiga tushdiykin?

Qishloq yo‘li uncha uzoq emasdi. Ammo, qorong‘i bo‘lgani uchunmi, juda cho‘zilib ketgandek tuyuldi. Baxtga qarshi uch kundirki qishloqda chiroq yo‘q edi. Kecha kechqurun turmadan chiqib, kirakash mashinaga o‘tirganida ham qishloqqa tun yarmidan oqqanda kirib borishni ko‘zlagandi. Odamlarning ko‘ziga ko‘rinmagani ma‘qul. Birortasi ko‘rib qolgudek bo‘lsa, “Mirzamatning o‘g‘li bor-ku, Zahimaning nishonlisi Yovarni pichoqlagan yigit, o‘sha turmadan qaytibdi” degan ovoza bir zumda butun qishloqqa tarqaladi. Har xil gap so‘zlar ko‘payadi: “Nega qaytibdi? Qaysi yuz bilan qaytibdi?” Axir roppa-rosa o‘n besh yil oldin sudda ham qarindosh-urug‘lari unga rosa malomat qilishgandi-ku: “Bizni sharmanda qilding, yuzimizni yerga qaratding, bitta qizni deb odam o‘z amakivachchasini ham o‘ldiradimi?”

Rost, Zahimaning unda ko‘ngli bor edi, ammo Yovar oraga tushdi-yu, ish buzildi. Ota-onasi qizini Yovarga beradigan bo‘ldi. Qizning ko‘ngli bilan esa hech kim hisoblashib o‘tirmadi. Yovarning katta akasi Ilyos, onasi Kubroxonim shu qizni kelin qilmasak qo‘ymaymiz, deb ikki oyoqlarini bir etikka tiqib olishdi. Shundan keyin esa... orada xunrezlik yuz berdi. Qarindoshlar orasida qon da‘vosi tushishiga uning o‘zi sababchi bo‘ldi. Sud paytida qizning, Yovarning akalari unga “Turmadan chiqsang, qishloqqa qaytib o‘tirma, bu yerda seni tirik qo‘ymaymiz”, deyishgan edi.

Yo‘l-yo‘lakay hammasini o‘ylab keldi. Biroq, qishloqqa kech qaytishining o‘n besh yil avvalgi sud zalidagi tahdidlarga hech qanday aloqasi yo‘q edi. U endi hech bir bandadan qo‘rqmaydi. Qamoq unga qo‘rqmaslikni, jasurlikni o‘rgatdi. Diydasini qotirdi. Turmadagi safdoshlari unga bejiz “Temir odam” degan laqab qo‘yishmagandi. Chunki asablari temirdek mustahkam edi. Temir odamni mahv etishga kimning quvvati yetardi? U birinchi navbatda Zahimani ko‘rmoqchi edi. Axir sevgisini o‘n besh yilki, yuragida ardoqlab, saqlab kelardi. Endi o‘sha tutqun muhabbat ham erkinlikka chiqmoqni istaydi. “Mening qalbimda ham, miyamda ham faqat erkin, ozod sevgi yashaydi. Men qishloqqa o‘sha sevgini deb kelyapman”.

Boya qabristonga yetgunicha ana shunday shirin, sirli hislar qurshovida qushdek uchib keldi. Qishloqda faqat birrov onasi

bilan ko‘rishadi, xolos. Zahimani olib, shu oqshomning o‘zida Rossiyaga jo‘naydi. Yonida bileti ham bor. Bo‘lmasa, bu yerlarga qaytib kelmasdi ham. Uni qishloqqa sudragan ham ana shu sevgi. Ozodlikdan ham shirinroq bo‘lgan sevgi. Qiziq, hozir Zahima nima qilayotgan ekan? Ba‘zan miyasiga turli noxush o‘ylar kelar, shunda yuragi g‘azab va nafratga qorishgan rashk bilan to‘lib toshar, kimdir ayni chog‘da Zahima haqida biror yomon gap yetkazgudek bo‘lsa, uni pichoqlashga ham tayyor edi. U o‘z muhabbatini bir yo‘la o‘ldirish yoki qayta tiriltirish shavqida yonardi, vassalom.

Yo‘l ham tugay demasdi. G‘alati. Xuddi chirildoqlar ham uxlayotgandek; itlar, mushuklar, shoqollar ham ko‘zga ko‘rinmaydi. Tiq etgan sado yo‘q. Hammayoq soqov sukunat, basir zulmat qo‘ynida. Qishloq ham shunaqa o‘limtik bo‘ladimi?

Shu fursatda boyagi qo‘rqinchli ko‘lanka uni chaqirdi:

— Shu paytgacha birov mendan qochib qutulmagan. To‘xta!

Temir odam yana qo‘rqib ortiga boqdi. Hech kim ko‘rinmasdi. Qorong‘i, kimsasiz yo‘lning qo‘rquvi yanada shiddatli tus oldi. Qadamlari biroz sekinlashdi. Yo‘q, orqadan kimdir kelayotgandi. Kimningdir zalvorli qadamlari uni zimdan kuzatib kelardi.

“Bu nimasi? Men alahsirayapmanmi yoki kimdir meni ta‘qib qilyaptimi? Yovarning qasosini olmoqchimi?”

— Senga aytyapman, to‘xta! Mendan qocholmaysan!

Yana o‘sha ovoz. Ko‘rinmas ovoz! Yo Rabbiy! Bu ovoz qayerdan kelyapti, o‘zi?

U daf‘atan qadamini tezlatdi. Og‘zidan uchayotgan so‘kishlar ham qaltirlashdi.

— Voy enangni... Mendan nima istaysan o‘zi, la‘nati? Menga topshirib qo‘yganing bormidi, dayus? Senga aytyapman, meni tinch qo‘ymaydigan bo‘lsang falon-pistondaqa qilaman, — deya go‘yoki o‘ziga taskin bermoqchiday so‘kindi.

Qara-ya! O‘n besh yil turmada “avtoritet” bo‘lgan odam, kelib-kelib qishloq yo‘lida bir ko‘lankadan qo‘rqib o‘tirsaya? Kim o‘zi bu ko‘lanka? Kunduz bo‘lganida-ku, naq enasini ko‘ziga ko‘rsatib qo‘yardi-ya! Basharasini ezg‘ilab, ichagini boshiga salla qilmasmidi?

Mana, o'z hovlisining darvozasiga ham yetib keldi. Darvozani bir zarbada ochib, o'zini ichkariga oldi. Bu ularning hovlisi, bu yerga hech qanaqa ko'lanka-po'lanka kelolmaydi. Har qalay o'z uying — o'lan to'shaging-da! Temir odam xom g'ishtdan tiklangan pastak uyning chap tarafidagi tutning bir shoxini sindirib oldi-da, orqasiga o'girildi. Yo'l bo'yi uning ketidan qolmay kelgan qo'rqinchli ko'lankadan nom-nishon yo'q.

Temir odamni sovuq ter bosdi. "Men yaxshigina alahsiradim, chog'i", deya o'yladi. Uyning tog' tomonga qaragan (tog' sarisidagi) derazasidan zaifgina shu'la ko'zga tashlanardi. Temir odam yosh boladek quvonib ketdi. "Onam hali uxlamabdi".

Eshikni ochib, ichkari kirdi. Onasi burchakdagi sandiq yonida, eski chorpojada yotgan edi.

— Oyi, men keldim. Oyi deyaqman, turing o'rnizdan.

Onayizor ustidagi adyolni jahd bilan uloqtirib, turmoqqa chog'landi. Temir odam tiz cho'kib, onasining oyoqlaridan quchdi.

— Oyijon, men qamoqdan chiqdim.

— Aylanib ketay bolaginamdan. Onaginang o'rgilsin, bir og'iz xabar qilmabsan-da, a? O'n besh yildan beri yo'lingga ko'z tikaman-a, qo'zichog'im. Bu qorong'i zimistonda qanday kelding, o'g'lim. Uch kundan beri to'kni uzib qo'yishgan. Go'ristondagi go'rcho'p bo'li-ib o'tiribmiz-da, bolam. Kunduzginada kemapsan-da, onaginang qoqindi.

— Oyi-i, nimadan qo'rqaman? Yosh bolamanmi? Aytganча, Zahima yaxshimi? Qayerda hozir?

— ...

— Nega jimsiz oyi? Nima... erga tegib ketdimi? Kimga?..

— ...

— Hozir yorilaman, oyijon, gapirsangiz-chi?

— Zahima... qo'shni qishloqda, — dedi onayizor arang o'zini qo'lga olib.

— Demak... tegib ketibdi-da! Kimga tegdi? — Temir odam g'azabdan o'zini bosolmay yer mushtladi.

— Anavi... rahmatli amakivachchang... Yovarning akasiga... Ilyosga! — onaning ovozi titrab ketdi.

— Oh yaramaslar, benomuslar! Men hali u itvachchaga ko‘rsatib qo‘yaman. — Shunday deya uydan o‘qdek uchib chiqdi.

— Onang o‘lsin bolam, qayoqqa? Xudodan qo‘rqin, jon bolam. Yana bir baloni boshlamagin, jon o‘g‘lim. To‘xtasang-chi, vaqti bemahal qayoqqa ketding?

Temir odamning qulog‘iga bu gaplar yetib bormadi. Oshxonada osig‘liq turgan go‘sht chopadigan boltani olib, shartta ko‘zdan yo‘qoldi. Boyagi qo‘rquvdan urvoq ham qolmagandi. Uning ko‘zlari yo‘lbarsnikidek vahshiyona chaqnaq zulmat bag‘riga sanchildi. Shu lahzada o‘sha benomuslardan biriga duch kelgani hamono chopib tashlashga ahd qilgandi.

Nomus tufayli qamoqqa tushganlarga turmada ayricha munosabatda bo‘lishadi. Onasi, singlisi yoxud xotinini oyoqosti qilganlarning adabini berib, panjara ortiga tushganlarga hamisha alohida hurmat-ehtirom ko‘rsatishadi. Turmaning ana shunday yozilmagan qonunlari kishiga o‘zgacha kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Bemalol nafas olasan, hatto, o‘zingning qamoqda ekaningni ham unutib qo‘yasan, izzat-hurmating joyida bo‘ladi, daxlsizlik huquqing ta‘minlanadi. Temir odamning jinoyati boshqacha xususiyatga ega edi. Ochig‘i, unga avvaliga qanday maqom berishga ham ikkilanib qolishdi. Temir odamni nimaga qamashgandi o‘zi? Bir qarashda uning jinoyati nomus kategoriyasiga to‘g‘ri kelmasdi. Bu holatni shunchaki qotillik deyish mumkin edi, xolos. Qamoqdagi dastlabki oylar Temir odam uchun biroz qiyin kechdi. U qotillikni nima uchun, kim uchun sodir etganini ham aniq-tiniq izohlab berolmagandi.

“Razborka” uzoqqa cho‘zildi va nihoyat, Temir odamning irodasi va kuchi soyasida turma hayotining yozilmagan qonunlari qatoriga qo‘shimchalar kiritildi: sevgi tufayli sodir etilgan jinoyatlar ham nomus kategoriyasiga kiritilsin. Zahimaga bo‘lgan telbavor muhabbati uni o‘n besh yil muddatda ozodlikdan mahrum etdi. O‘n besh yil. Valloh-billoh, bu o‘n besh yilda dunyo va undagi narsalar bir necha bor turlandi, ammo uning Zahimaga bo‘lgan sevgisi bir misqol ham ozaygani yo‘q. Uning qalbida birgina niyat bor: uni qidirib topish va u bilan qo‘shilib Rossiyaga qochish. To‘g‘ri, bir necha marta qishloqqa xat yozdi (garchi, xat yozishni

jini suymasa-da), ammo javob qaytmadi. Yo xatlar yetib bormagan, yoxud unga yetkazishmagan. Nima qipti? Kutish lozim. Uning nazarida Zahima ham xuddi shunday fikrda bo'lishi, erga tegmasligi, uni kutishi lozim edi. Unga "ha" degandi, sevgisini qabul qilgandi, "sevaman" degandi. Lekin ota-onasi Temir odamdan ko'ra boyroq, savodliroq bo'lgani uchun qizni zo'rlab Yovarga unashtirdilar. Yovarni o'ldirdi, ehtimol, boshqa odam bo'lganida o'ldirmasmidi? Yovar ko'ra-bila turib o'z amakivachchasiga nisbatan nomardlik qilgani uchun jazosini oldi.

Endi uning akasi nomardlik qipti. Temir odamning lablari titrardi. Tun zulmatida ko'ziga Zahimadan bo'lak hech kim ko'rinmasdi.

Ilyoslarning uyi qishloqqa kiraverishda, tegirmonning o'ng tarafida edi. Tegirmondan bir necha yuz metr narida kichkina bir yemakxona bor edi. Yemakxona hovlisidagi manqal o'chirilgan bo'lsa-da, u yerdan tutun buruqsib turar, allaqanday badbo'y is kuygan go'sht hidiga qo'shib atrofga taralardi. Aftidan, biroz avval bu yerda kimlardir o'tirib ovqatlangan, suyak-savoqlarni yon-atrofga irg'itishgandi. Yaqin-oradagi qishloq chiqindixonasidan kelayotgan noxush islar ko'ngilni ozdirgudek bo'lardi. Bu is yemakxonaning yonidan o'tib ketayotgan Temir odamning asab torlarini taranglashtirib yubordi. Kerakli hovlini topib borgach, eshikni zarb bilan tepib ochdi. Ayvonga qanchalik shiddat bilan otilib kirgan bo'lsa, kutilmagan shovqindan ichkari uyda uxlayotganlar shunchalik tez oyoqqa turishdi. Ilyos ich kiyimda bir qo'lida moychiroq bilan eshikni ochar-ochmas, bir musht bilan yerga dumaladi. Temir odam esa baqirdi.

— Haromi, hoziroq seni burdalab tashlayman!

Moychiroq yerga tushib chil-chil sindi. Uy ichidagi palos yona boshladi. Uyda bir zumda qiyomat qo'pdi. Zahima nima hodisa yuz berganini tushunolmay qoldi. Uyga bemavrid bostirib kirgan begona odamning niyati erini o'ldirish ekanini payqab, qo'rquv va dahshat ichida joyidan sapchib turdi. Avvaliga bolalarini o'ylab, o'zini ularning ustiga otdi. Bu odam kim bo'lishidan qat'i nazar ularni o'ldirish uchun kelgani aniq edi. Bemahalda boshqa kim ham bironing eshigini buzib kirardi?

Ilyos Temir odamning bolta ushlagan qo‘lidan mahkam changallab olgandi. Temir odam yana bor ovozida bo‘kirdi:

— Benomus itvachcha! Seni o‘ldiraman!

Zahima shundagina bu ovoz egasini tanidi va oldinga otildi, kuchi boricha qichqirdi:

— Uni o‘ldirma! Qonsiragan bo‘lsang, mana, meni chop!

— Sen bolalarni olib qochsang-chi! Ajdarni chaqir, bu it ham-mamizni o‘ldirmoqchi!

Xonada yakkama-yakka olishuv boshlandi. Zahima yana chinqirdi:

— Bizga rahming kelsin, erimni o‘ldirma!

Shu tobda atrof yaraqlab ketdi. Chiroq yongandi. Hamma turgan yerida bir zumgina qotib qoldi. Zahima Temir odamning ko‘zlariga tik boqdi:

— Mana men! Shu kerakmidi senga? O‘ldirma uni!

Temir odamni, go‘yo tok urgandek bo‘ldi. U chap tizzasini hushsiz, yuztuban yotgan Ilyosning yelkasiga bosgancha, boltani uning boshi uzra ko‘tarib turardi. Qo‘lidagi qurolni endigina mo‘ljalga urishga chog‘langan payti chiroqlar yondi-yu, daf‘atan Zahimaning ochiq siynasiga ko‘zi tushdi. Yuragiga kimdir igna qadagandek bo‘ldi. Avvaliga Zahimani tanimadi, boshqa uyga kelib qoldimmikin, degan xayolga ham bordi. Ammo, ro‘paradagi ayol Zahima edi. O‘n besh yil avvalgi sohibjamol, kokili to‘pig‘ini o‘pgan, xipchabel, ofatijon malak emas, jin chalgandek ko‘rimsiz bir ayol turardi qarshisida. Faqat uning ovozigina o‘zgarmagandi. Ana shu ovoz uni to‘xtatib qoldi.

Ayolning qoqsuyak yelkalari, ma‘nosiz, ich-ichiga botib ketgan ko‘zlari atrofidagi son-sanoqsiz ajinlar, yuzlarini to‘sib turgan parishon sochlaridagi oq tolalar qo‘qqisdan yonib qolgan chiroq nurida uning butun vujudini ilma-teshik qilib yubordi. Yerga to‘shalgan palosning lovullab yonayotgani, olov bolalari tarafga surilib borayotganini ko‘rgan Zahima birdan hamma narsani unutib, chinqirib yig‘layotgan bolalarini tashqariga olib chiqmoqqa oshiqdi, ammo kuchi yetmadi. Olov esa xuddi och bo‘riday, bu torgina kulbada boyagina dunyoning ishlaridan bexabar yotgan, keyin olatasirdan uyg‘onib, ko‘z oldilaridagi dahshatli sahna qar-

shisida dir-dir titrayotgan bolalarni yutmoqqa chog'langan edi. Erini behush, bolalarini nochor ahvolda ko'rgan Zahimaning boshi aylanib ketdi va uying o'rtasida muvozanatni yo'qotib, yiqilib tushdi.

Temir odam shu asnoda mumday eriy boshladi, qo'llari bo'shshadi. Zahimaning paxmoq, oq oralagan sochlari suyaklari chiqib turgan ochiq yelkalarini bekitmoqchidek behol to'lg'anardi. Peshonasidagi ajinlar, yuz-ko'zlaridagi g'am-g'ussa, so'lg'inlik uning o'tgan o'n besh yil davomida muddatidan ancha avval qariy boshlaganini ko'rsatardi.

Temir odamning o'n besh yil avvalgi muhabbati ham birdaniga keksaya boshladi va uning ichida o'ziga ham ma'lum bo'lmagan g'alati bir tuyg'u bosh ko'tardi.

Axir, shu sevgi emasmidi, umrining eng gullagan o'n besh yilini panjara ortida kechirishga majbur qilgan kuch? Yo Rab, u go'zal, pariruxsor Zahimadan asar ham qolmabdi-ku? Bu ne balo edi? Axir, insonning aqlidan ozishi hech gap emas ekan. Nahotki, shu ta'viya dovrug'i yetti iqlimga doston bo'lgan malaksiymo Zahima bo'lsa?

Zahima hozirgina unga nima dedi? "Sevgimiz haqqi hurmati, uni kechir, dedimi? Yo Alloh, endi nima qilmoq kerak?"

Birdan hamma-hammasi boshqacha tus oldi. Parvardigorning hikmatini ko'ring! Temir odam ko'z ochib yumguncha Zahimani qo'lida ko'tarib, hovliga tushdi. Uni astagina quduq yoniga yotqizib, yana osmonga o'rlayotgan alanga ichiga o'zini urdi. Bolalarning yurakni larzaga keltirguvchi qichqiriqlari quduq yonidagi tarashalar ustida abgor yotgan Zahimani hushiga keltirdi. Ayol jon holatda o'rnidan turib, ixtiyorsiz faryod soldi:

— Voy do-od, musulmonlar, bolalarim kuyib kul bo'lde-e-e! Yordam beringlar! Bolalari-i-m!

Ammo, shu asnoda ko'rdiki, Temir odam har ikki bolasini qo'ltig'iga qistirgancha uydan chiqib kelyapti. Salgina ilgari bu xonadonga qotil qiyofasida kelgan bu odam endi xaloskorga aylangan edi. U to'ppa-to'g'ri quduq tepasiga kelib, bolalarni Zahimaning qarshisiga o'tqizib qo'ydi. Ayol ikki jigarbandini bag'riga bosgancha, paydar-pay yalab-yulqashga tushdi. Bu manzarani

kuzatib turgan Temir odamning qovoqlariga ko‘z yosh qadalib achishtira boshladi va indamay darvoza tarafga odimladi. Ammo, Zahimaning nogahoniy nolasi uni to‘xtatib qoldi.

— Voy do-od! Bolalarim yetim qoldi! Kim bor, qutqaringlar! Dadasi-i-i-i!

U bir lahza taraddudlanib qoldi. Keyin biroz o‘ylanib turgach, ilkis ortiga qaytdi va yana to‘ppa-to‘g‘ri otash bag‘riga o‘zini urdi. Hamon behush yotgan Ilyosni ko‘tarib, tashqariga olib chiqdi va Zahimaning oyoqlari ostiga irg‘itganicha, o‘zini la‘natlab ko‘chaga otildi.

Ilyosning uyi o‘t ichida qolgandi. Sal bo‘lmasa, olov narigi xonaga ham o‘tayozgandi. Qishloq ahlining deyarli teng yarmi shu hovliga to‘plangan, hech kim nimalar yuz berayotganini anglolmasdi. Erkaklar yong‘inni o‘chirishga urinishar, ayollar Zahimaga tasalli berib, bolalarni ovutishar, ba‘zilar esa Ilyosni o‘ziga keltirish uchun yuziga shapatilashardi. Qo‘qqisdan Ilyos hushiga keldi. Sakrab turdi-da, hali olov tutashmagan narigi xonaga o‘zini urdi. Ko‘p o‘tmay qo‘shotar miltiqni ko‘tarib chiqdi. Odamlar uning nima qilmoqchi ekani tushunolmay turishardi, boshqalar esa hamon o‘t o‘chirish bilan mashg‘ul edilar. Zahima erining maqsadini payqab, uning yo‘lini to‘sdi. Yalinchoq ovozdagi pichirladi:

— Nima qilyapsiz, u bizni qutqarib qoldi-ku!

— Yo‘limdan qoch, qanjig, — qora quzg‘undek hurpayib olgan Ilyos miltiq qo‘ndog‘i bilan xotining yelkasiga aylantirib urdi, sho‘rlik ayol orqasi bilan yiqildi.

Yonayotgan uydan shiddat ila uzoqlashayotgan Temir odamning bo‘g‘zidan kutilmagan hayqiriq otilib chiqdi. Ho‘ngraganicha yig‘lab yubordi. Qayoqqa borayotganini o‘zi ham bilmasdi. Dunyo va undagi bor narsalarni bo‘ralab so‘kar, orqasiga qaramasdan tez-tez yurib borardi. Sevgi yo‘q narsa ekan! Yolg‘on ekan! Hamma narsa qo‘rqulik ekan. U faqat sevgidan qo‘rqmasdi. Yo Rabki, u ham mudhish va qo‘rqinchli narsa ekan. Demak, dunyoda ozodlikdan ham qo‘rqinchli narsa bor ekan-da? U sevgi, ha sevgining o‘zginasi...

Kutilmaganda... Temir odamning kulgisi keldi. O‘z-o‘zidan kula boshladi.

Boya qishloqqa kelayotganida uni izma-iz ta'qib qilgan sharpa yana ortida paydo bo'lganini his qildi. Ammo, bunga ahamiyat bermadi. Bir martagina orqasiga qarab qo'y-madiyam. U kular, uyatsiz so'zlar bilan so'kinardi.

Kel, kelaver, qani qo'lingdan nima kelarkin, Shayton! Men sendan qo'rqadiganlardan emasman. Endi men uchun hamma narsa keksaygan, o'z ma'nosini, go'zalligini, tarovatini yo'qotgan. Sevgi ham qarirkan-da, sevgi ham o'larkan-da? Sevgi ham qo'rqinchli tus olarkan-a? Temir odam xuddi o'z-o'ziga gapirayotgandek g'alati ovozda g'o'ldirab borardi.

Buni qara-ya! Shaytonning ko'lankasi! Heh, odamni ja qo'r-qitib yubording-ku? Oladiganimni olib bo'ldim bu dunyodan, endi meni nima qilmoqchisan?

Xuddi shu asnoda orqadagi ko'lanka tarafdin ikkita o'q ovozi eshitildi. Temir odam yuztuban yerga quladi va qaytib o'rnidan turmadi.

UCH MILLION DOLLARLIK YURAK

“Boing” yerdan uzildi va taxminan bir necha soniyadan keyin uning ostiga, ya'ni yo'lovchilar o'tirgan salonning tubiga tag tarafdin kattakon tosh otilib ketgandek bo'ldi: samolyot yengilgina siltandi. Yo'lovchilarning aksariyati siltanish sababini bilganlari uchun hech kim samolyot havoga ko'tarilganidan keyin g'ildiraklarning bukilishi asnosida eshitaladigan bunday shovqinga e'tibor ham bermadi.

“VIP” atalmish salonda nari borsa, sakkiz-to'qqiz kishi ketayotgandi. Salonnin qoq o'rtasidan bo'lib turgan nozik, sariq ipak parda orasidan salonning narigi tomoni odamlar bilan liq to'la ekanini ko'rish mumkin edi. Narigi taraf biroz arzonroq chipta olgan yo'lovchilar uchun edi. Vip-salonning so'l tarafidagi illuminatorning zihiga tirsagini qo'yib ketayotgan mallasoch go'zal ayol salgina avval yaxshi niyat bilan xayrlashgan Yerga — Nyu-Yorkdek muhtasham va azim shaharni bag'riga olgan muazzam Yerga tikilardi.

Uning ro‘parasida qulay va kengish o‘rindiqa xavfsizlik kamarini mahkam bog‘lab olgan, bo‘yni uzun ko‘ylak kiygan ko‘zoynakli kishi yerga ko‘z uchida bo‘lsa-da, qarashga qo‘rqardi: xuddi o‘rindiqa mixlab qo‘yilgandek, joyidan qimirlolmasdi. Boyagi g‘ildiraklar ovozi uning ichini ham qattiq silkib o‘tgandek edi, yonidan o‘tgan kuzatuvchi qizga:

— Miss, e gles of vate pliz, — deya g‘aliz talaffuzda inglizcha lab murojaat qildi.

— Oldingizdagi tortmaning tugmasini bosing, janob! U yerda hamma narsa bor, — kuzatuvchi qiz turkcha javob qaytarib, narigi salonga o‘tib ketdi.

Ko‘zoynakli kishi kichkina, dumaloq ko‘zlarini hozir uyg‘ongan odamdek bir-ikki marta pirpiratib, qarshisidagi tortmani birinchi marta ko‘rdi. Keyin esiga tushdi: axir bu Amerikaning samolyoti-ku! O‘n yildan beri shu tugmadan foydalanib keladi, nega yodidan ko‘tarildi ekan.

Tugmani bosib, tortmani ochdi: unda qush sutidan tortib turfa xil ichimliklargacha, qora, qizil ikradan qirg‘ovul go‘shdigacha, g‘oz jigaridan qilingan pashtet-u xilma xil buterbrodlargacha bor edi. Ustiga “Jon darmoni” deb yozilgan ma‘danli suv idishining og‘zini ochdi. Bu suvni juda ham sog‘inib ketgan edi.

Uning qarshisidagi go‘zal juvonning xayoli samolyot kabi haliyam ko‘k yuziga sochilib ketgan oppoq, to‘da-to‘da bulutlar bag‘rini yorib, yuksaklarga parvoz etardi. Shu bois erining qo‘rqanini, cho‘ntagidan ro‘molcha chiqarib, peshonasidagi sovuq terni artib tashlaganini ko‘rmadi. Stuardessa qizning qachon yonidan o‘tganini, eri bilan qisqacha gaplashganini ham sezmay qoldi.

Ko‘zoynakli kishi suvdan bir qultum ichib, o‘ziga kelgandek bo‘ldi va bu vahimali ovoz har doim eshitaverib, qulog‘i o‘rganib ketgan g‘ildirak tovushi ekanini angladi. U so‘nggi o‘n yilda necha marotaba va qay yurtlarga uchganini bilmaydi. Lekin, bunday holatga birinchi marta tushishi.

Ko‘zoynakli kishining quloqlari boshqa narsani eshitgandi. Uning kichkina, qisiq ko‘zlari ham boshqa narsalarni ko‘rgan edi. Birdaniga ko‘zoynakli kishining ko‘ksiga sovuq oralagandek bo‘ldi. Beixtiyor qo‘lini ko‘kragiga olib bordi. Shu topda uning

chap siynasi uzra salqin shabada yelib o'tdi, go'yo. Bu salqinlik bir zumda uning vujudini egallab, junjika boshladi.

U oltmish olti yillik umri davomida bunaqa narsani his etmagandi. Uning avvalgi, ikki oy oldingi yuragi ham bunaqa tushunik-siz sovuqqa uchramagandi.

Eridan yigirma besh-o'ttiz yoshlar chamasi kichikroq bo'lgan go'zal mallasoch xonim katta, xurram va shahlo ko'zlarini yerdan uzdi va ehtimolki, dunyodagi eng go'zal bu ko'zlarni o'sha oppoq, to'da-to'da bulutlar charchatib qo'ygandi. Keyin daf'atan eriga o'girildi.

— Senga nima bo'ldi, Misha, — so'radi xavotirli ohangda (U erini turmush qurganidan beri Misha deb chaqirardi). Aslida erining ismi Mamad bo'lsha-da, turk pasportida Mehmet, rus pasportida Mixail, Amerika pasportida Maykl, fransuz pasportida esa Mishel deb yozilgan edi.

— Hech... Shunchaki yuragim uvushib ketdi, — deya haligi kishi ro'molchasi bilan peshanasining terini artdi.

Xotini boshqa hech narsani so'ramadi va bulutlar to'pini shiddat bilan yorib borayotgan samolyot qanotlariga yuzlandi. Ayol qanotlarning silliq parvozidan, qalin bulutlar orasini omonsiz yorib borayotganidan qalbida cheksiz zavq uyg'onganini his qildi. Bu zavq unga kechagi oqshomni eslatdi.

Kecha kechqurun Las-Vegasdagi eng mashhur yurak do'xtirlaridan biri Pol Jekson tashkil etgan kuzatuv marosimida vrachning o'zi ayolni raqsga taklif etgani va eri Mamadning bunga nazokat ila ruxsat bergani, keyin o'sha qari, ammo jo'shqin va ehtirosli do'xtir ayolning belidan quchib, uni mehrli va sirli nigohlari ila ko'mib tashlagani yodiga tushdi. Ehtimolki, ayni lahzada ayolning oq va ma'nosiz chehrasiga dunyoning eng go'zal tabassumi qo'ndi.

O'shanda ayol umrida qora mehnatga urilmagan, idish-tovoq, kiyim-kechak yuvmagan nozik qo'llarini vrachning yelkalariga qo'ydi. Tabiiyki, professor Jekson bundan bag'oyat mamnun bo'ldi.

— Men sizning afsonaviy go'zalligingizga va irodangizga qoyilman, — deya keksa professor mamnuniyatini shu tarzda ifoda

etishdan chekinmadi va darhol qo‘shib qo‘ydi: — Ozarbayjonning barcha xotinlari sizdek go‘zalmi?

Ayol xayol bilan bo‘lib, uning oxirgi gaplarini anglayolmay qoldi va noqulay vaziyatga tushmaslik uchun:

— O yes, ser, — deya inglizchalab javob qaytardi.

Ayol erining yuragini o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshli amerikalik yigitniki bilan o‘ta mohirona almashtirgan bu mashhuri jahon shifokor-ga so‘ngsiz minnatdorlik hissini ifoda etishdan ojjiz edi.

— Sizning eringiz sabr-toqatli va jasoratli odam ekan. Shuncha amaliyotga matonat ila bardosh berdi.

— O‘zingiz ham juda dovyurak odam ekansiz, doktor. Aftidan, bu jasoratingizdan ayollar bilan raqs tushayotganda mohirona foydalanar ekansiz.

— Faqat go‘zal va bardoshli ayollar bilan raqs tushayotganda jasoratli bo‘lib ketaman, — kuldi professor.

— Biz sizni Bokuda kutamiz, — suhbat mavzusini o‘zgartirishga tirishdi ayol. — Albatta, borasiz-a?

— Boraman, albatta, boraman, Ozarbayjonni ko‘rmaganman. Kelgusi yil boshqa biror ishim chiqib qolmasa, mehmonga borishim aniq.

— Professor, sizga yana bir bor tashakkur bildirmoqchiman. Hammasi uchun. Siz erimga qaytadan hayot bag‘ishladingiz. Xuddi o‘zim ham qayta tug‘ilgandekman. Siz uning bundan keyin kamida yana o‘n yil yashashiga kafolat berdingiz. Lekin yana bir narsani so‘rasam maylimi?

Ayol bir lahza so‘zsiz qoldi.

— Buyuring, istagan narsani so‘rayvering. Sizni bezovta qiladigan har qanday masala bo‘yicha savol beravering.

Ayol mamnuniyat bilan kulimsiradi va bir qadar dadillandi. Boshini o‘zidan ancha yoshi katta vrachning yelkasi uzra egib, sekin so‘radi:

— Erim men bilan...

Professor qattiq kulib yubordi. Uning kulgisini sal nariroqda professorning do‘stlari davrasida kivi vinosini ichib o‘tirgan ayolning eri ham eshitdi. Yuz birinchi qavatni o‘z izmiga olgan klassik musiqa sadolari bu kulgini eritib yuborolmadi va professor aytdiki:

— Albatta, azizim, albatta. Faqat sizdek go‘zal ayol bilan hozircha oyda bir marta...

Bu safar har ikkovi kulib yubordi va raqs shu bilan tugadi. Bugun Nyu-Yorkdagi hovlilaridan aeroportga qadar “Limuzin”-da xuddi shu haqda kula-kula gaplashib kelishdi. Mamad sakvoyajlarni aeroport xodimiga topshirayotgan zanji haydovchiga hozirgina pul qirqadigan mashinaning og‘zidan chiqqandek qar-sillab turgan o‘nta yuz dollarlik kupyurani uzatib, nazokat ila dedi:

— Marhamat, bu pulga bola-chaqangizga ul-bul olib borarsiz.

Shunda haligi zanji ham Mamadning xotini qo‘lidan o‘pib, rozi holda ketdi. Ayol chet ellarda erining himmati oshib-jo‘shib ketishini ko‘p ko‘rgan bo‘lsa-da, har doim buni hayrat ila qabul qilardi. Samolyotga minguncha er-xotin shu tariqa anchagina pulni sovrub bo‘lishdi.

...Mamad hanuz yuragini changallab borar, u ayni damda xotini haqida o‘ylamasdi. Nihoyat, u ham o‘zi tarafdagi illuminatordan tashqariga boqa boshladi. Hali bulutlarning orasidan Yer tamomila yo‘qolib ketmagan edi. Yon uzra tikilgan osmono‘par binolar, ularning poyida o‘rmalayotgan mashinalar ignaning teshigidan o‘tadigan darajada kichrayib borardi. Bora-bora ular ko‘z ilg‘amas darajada maydalashib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

U endi Boku haqida o‘ylardi. O‘ylardiki, hali oldinda uzun yo‘l turibdi. Bu yo‘l osmon yo‘lidir. Samoda na bekat bor, na sve-tofor. Yer esa allaqachon ko‘rinmay ketgan. Ana shunisi xavfli, qo‘rqinchli. Ha, agar balandlikka chiqqan bo‘lsang va yuksaklik-dan hech narsani ko‘rolmasang, bu juda qo‘rqinchli. Shu qo‘rquv uning butun jonini va siynasida urib turgan amerikancha yurakni ham titratib turardi. Balki shuning uchundir, endi uning ko‘klarga uchishga havasi qolmagandi. Bu parvozlar uni holdan toydirgandi.

O‘tgan yili ham xizmat safaridan qaytayotgandi. Bexosdan yuragi xuruj qilib qoldi. Samolyot Parijga qo‘ndirildi. Shifoxonaga olib borishdi. Vrachlar yuragingiz yaroqsiz holga kelibdi, almash-tirish kerak, deyishdi.

Shundan keyin er-xotin yangi yurak qidirishga tushishdi. Las-Vegasdan topishdi. Yaxshiyamki, Polning klinikasida las-ve-gaslik bir yigitning yuragi hali sotilmay turgan ekan. Hammasi

oson ko'chdi. Ammo, ayni daqiqalarda Mamad ozarbayjonlik erkak singari fikr yuritar, amerikalik kabi his etardi. Xotini so'rab qoldi:

— Misha, yuraging qalay?

— Otday.

Birdaniga Mamadning kayfiyati ko'tarilib ketdi va uning dilini g'ash qilib turgan chuchmallik ham yo'qoldi-qoldi. Agar narigi tarafda o'tirgan galstukli ishbilarmon kishi yoki xotining orqasida o'tirgancha "Vashington Post"ni varaqlayotgan yoshgina yigit yoxud burchakdagi kreslolarda nima haqdadir gap sotayotgan italiyalik chol-kampirlar bo'lmaganida, xotinini raqsga tortgan bo'lardi: xuddi Polning uyidagidek.

— Uch milyonlik yurak bo'ladi-yu, otday bo'lmasinmi? O'zing ham xuddi yigitlardek ko'rinyapsan ko'zimga. Bokuga borguncha o'zingni saqla. — Xotini erining ko'nglidagi gaplarni uqqandek ayyorona ko'z qisib qo'ydi.

— Sog'inib ketdim... — dedi er ehtirosli past ovozda.

— Menimi?

— ...

— Nega iljayasan? Yosh yurakni orzu qilarding. Niyatingga yetding. Endi... nima qilmoqchisan?

— Sara, Bokuga qo'nishimiz bilan to'g'ri Mardakonga ketamiz.

— Tinchlikmi?

— Borsak, bilasan.

— Qunduz-chi?

— Qunduz oyning o'n to'rtinchisida keladi.

— Yo'q, kecha London bilan gaplashdim. Uyda yo'q ekan. Mira aytdiki, darsdan hali qaytmabdi. Biletni o'n ikkinchi kunga olgan.

Qunduzni o'tgan yili o'qishga yuborishgan. Ayol Londondan o'g'liga uy olib berganidan keyin bir haftalik dam olish uchun Ruminianing Kanstansiya shahriga uchdi. U bu shaharni juda yoqtirardi.

Charchagandi. Qora dengiz sohilida biroz ko'ngil yozmoqchi bo'ldi. Istirohatning ikkinchi kuni "yovvoyi plaj"da Mira ismli ru-

min qizi bilan tanishdi. Qiz issiq qum uzra onadan endi tug‘ilgan-dek yastanib yotardi. Uning tavsiflashga til ojiz bo‘lgan badani, siynalari, oyoqlari ayolni maftun etdi. Shu kunga qadar u o‘zini dunyodagi eng go‘zal ayol deb bilardi. Rumin go‘zali qarshisida bu fikri botil ekanini tan oldi.

Ma‘lum bo‘lishicha, Mira o‘ziga ish qidirib yurgan ekan. Yana qayerdan — Angliyadan. Ayol darhol unga Londondagi uyida xizmatchilik qilishni taklif etdi. Qiz oylik ish haqi uchun besh ming funt-sterlingga rozi bo‘ldi. Ertasi kuni shu vaqtda Mira Londonda, Qunduzning qo‘ynida nozlanib yotgandi. Ayol o‘g‘liga shunday go‘zal xizmatkor topib berganidan bag‘oyat shod edi.

— Mayli, unda No‘vxonidagi uyimizga boramiz. — Mamadning ko‘zlari porlab ketdi.

— Nega endi?

— Borsang bilasan-da!

Ayol kulimsiradi. Eriga boshdan-oyoq nazar soldi. Keyin pichirladi:

— Yaxshisi, aeroportdan bira-to‘la Nefttoshga uchamiz. Bir kecha o‘sha yerdagi uyimizda qolamiz. Dengizning o‘rtasi... So-kin to‘lqinlar...

— Yo‘q, azizim. Buni orqaroqqa suramiz. Chuquryurtdagi uyimizga boramiz. Ershodga aytamiz, Qunduzga kelganimizni bildirmay turadi. Ertasi kuni Bokuga qaytaveramiz-da!

— Bo‘pti, janob uch milyon dollarlik yurak egasi.

Erkak mamnun bo‘lib bosh irg‘adi va Bokuga qadar Chuquryurt haqida o‘ylab ketdi.

...“Boing” qo‘nishga hozirlanardi. Mamad endi oq ko‘ylak va galstukda edi va derazadan pastga boqardi. Samolyot Yerga yaqinlasharkan, uning yuragi yana bezovta ura boshladi. Samolyotning tezroq yerga qo‘nishini istardi. Qo‘nish yo‘lagi va samolyot orasidagi masofa qisqargani sari yerdagi binolar, yo‘l chetidagi daraxtlar, ko‘chalardagi mashinalar kattalasha boshladi. Uning ko‘z o‘ngida hamma narsa sekin-asta ulg‘aya bordi. Va umrida birinchi daf‘a yuqoriga ko‘tarilgan sayin yerdagi narsalar kichik, bachkana va ma‘nosiz bo‘lib qolishini anglab yetdi. Lekin Yerga yaqinlashgan sari har bir narsa kattalashadi, mazmun-mohiyat

kasb eta boradi. Tavba! Ko'kdagi ma'nosiz bo'shliq nahot zerik-
rib qo'ymasa? "Juda bezdim, tezroq qo'na qolmaydimi?"

Qo'nishdi. Ularni aeroportda kutib turganlar orasida muxbirlar
ham bor edi. Muxbirlar hid bilgan kabi unga savol ketidan savol
yog'dira ketishdi:

— Janob vazir, operatsiya qanday o'tdi?

— Yuragingizni almashtirishgandan keyin o'zingizni qanday
his etyapsiz?

— Shifokorlar sizning yashab ketishingizga kafolat berdi-
larmi?

— Yurak almashtirish qanchaga tushdi?

— Uch million dollar pulni qayerdan oldingiz?

Bu savollarning ba'zilariga xotini javob berardi. Mamad yor-
damchilari va muxbirlar ihotasida shoshila-shoshila uni kutib
turgan shaxsiy vertolyoti tomon borar, ora-sira Saraning qo'lidan
tutib, o'zi tomonga tortardi. Keyin yordamchilaridan biriga yuz-
landi:

— Qunduz kelishi bilan uni kutib ol va uyga boshlab ket, erta-
lab biz shaharga qaytib kelamiz.

Vertolyot yerdan uzildi va yana ko'kka parvoz qildilar. Faqat
farq shunda ediki, vertolyotning oynasidan hamma narsa aniq-ti-
niq ko'rinardi: odamlar, qo'y suruvlari, daraxtlar, uylar, binolar,
katta-kichik chodirlar tikilgan qochoq manzilgohlari va hokazo.

Bokuda va Chuquryurtga qadar yo'l bo'yi ko'rganlari ko'z
o'ngidan yashin tezligida o'tar va har zamonda Saraga der ediki:
"Vallohi, Ershod to'g'ri aytarkan, kezmoqqa qurba, o'lmoqqa Va-
tan yaxshi, deb..."

Pilot boshi bilan tasdiqlasa ham, u aslida boshqa narsani o'y-
lardi. Taxminan mana bunaqa: "Buni Ershod emas, undan ming
yillar burun ota-bobolarimiz aytgan" yoxud "Puling bo'lsa, ham-
ma joy sening Vataning, pul bilan hamma narsani, hatto senga
o'xshab yurakni ham almashtirish mumkin".

Vertolyot to'ppa-to'g'ri hovlining o'rtasiga qo'ndi. Er-xotin
tushishi bilan yana havoga ko'tarildi. Chuquryurtda uch qavatli
hashamdor dala-hovlining xizmatkori, qoramag'iz, istarasi issiq
qiz ularni tavoze ila qarshiladi. Mammad jiddiy qiyofada bosh

irg‘ab uning salomiga alik olarkan, cho‘ntagidan o‘n dollar chiqarib, qizga uzatdi:

— Sona xonim, sen bundoq qil. Bugun mehmonxonaga borib yot, ertalab o‘n birlarda kelarsan. Bu kecha bizga xalal berishing mumkin.

Sona xonim pulni olmadi. Ich-ichidan xojasini qarg‘adi: “Yuzingni yel olsin, ileyim. Ertalabgacha o‘linging chiqsin. Ikki oydan beri yo‘lingni poylayman, uyingni qo‘riqlayman. Itdek sadoqatim uchun sendan eshitganim shu bo‘ldimi? Yurgan yo‘lingni yitirgin, iloyo”.

Keyin lablarini qimtigancha, xayr-xo‘shsiz ko‘chaga chiqib ketdi. Mamad Saraga o‘girildi.

— Qorni to‘yib qopti, chog‘i. Chet elliklarning madaniyatiga qara-yu, o‘zimizning odamlarga boq. Tavba qildim-ey! Odamga o‘xshab yashagilari ham kelmaydi. Ertagayoq lash-lushini qo‘ltig‘iga qistirib yubor. Qorasini o‘chirsini!

Sona xonim ertasi kuni kelmadi. To‘g‘rirog‘i, saharlab butun mamlakatga juda noxush bir xabar yoyildi.

Gazetalarning birinchi sahifalarida taxminan quyidagi sarlavhalar paydo bo‘ldi:

“Ozarbayjon vaziri yurak xurujidan vafot etdi”. “Vazirning amerikancha yuragi urishdan to‘xtadi”. “Havo noziriga havo yetishmadi”. “Sara xonim amerikalik shifokorni sudga bermoqchi...”

KEKSA GO‘DAK

Oqshom chog‘i, soat yetti atrofida. Shosha-pisha tog‘lar ortiga shopqillayotgan va botay deb qolgan quyosh hali ham atrofni kuydirardi.

Bir tomondan holdan toydiruvchi jazirama davom etar, ikkinchi tomondan qop-qora, qalin bulutlar yopirilib kelar, osmonni butunlay qoplab olayotgan edi. Chodirdan besh qadam narida tinch oqayotgan soy bo‘yida, toshlar ustida o‘tirgan odamlar besh daqiqaga bo‘lsa ham nafasni bo‘g‘ib yuboruvchi yoz issig‘idan qutulishardi.

Hamma sharros yomg'irni kutib o'tirardi; qariyalar osmondagi bu ishoralarni yuz marta sinab ko'rishgan va doim taxminlarida adashishmagan.

Ammo na yomg'ir yog'ar, na quyoshni to'sib qo'ygan, osmonni boshidan oxirigacha qoplagan qora bulutlar tarqalar, na qilt etgan shamol esardi. Ob-havoning bu holidan bir gap aytilish mushkul. Erta-indin nima bo'lishini bilishning iloji yo'q. Qariyalardan biri tomog'igacha taqilgan ko'ylak tugmalaridan ikkitasini yechdi va:

— Pishdik, nafas olib bo'lmayapti-ku, a! Shunaqayam havo bo'ladimi? — deb norozi qiyofada taxminan o'ttiz besh kilometr uzoqlikda bo'lsa ham yaqqol ko'rinib turgan tog'lar qo'ynidagi qishloqlariga qaradi. Qishloqlar xira, kulrang ko'rinardi. U davom etdi. — Hozir qishlog'imizda havo salqin bo'lsa kerak. O'sha o'rmonning yuqori tarafida mayin shabboda esadi...

Hech kim uning gaplarini eshitmadi. Yoki eshitsa ham parvo qilmadi. Chunki ular 1992-yildan beri armanlar bosib olgan qishloqlarini o'ylaydigan ahvolda emas edilar. Masalan, hozirgina noligan, eski ko'ylak kiygan qariya yonida o'tirib, chilim chekib, atrofnii tutunga to'ldirayotgan oltmish besh yoshlardagi Abbas amaki butun diqqatini boyagi chodirga qaratgandi. Bu chodirda kelini bor edi va Abbas amaki birozdan so'ng dunyoga keladigan nabirasining ilk yig'i ovozi eshitishni istardi, xolos. Kelini shunchalik dodlaganidan hovliqib qolgan ayollar chodirning bo'z devorlariga urilib ketishardi. Abbas amaki to'lg'oqdan ingrayotgan kelinining ovozi eshitganda, uyatdan yuzlari qip-qizarib ketardi.

Abbas amaki shu bir necha daqiqa ichida qarib ketgandek bo'ldi. Biroz avval "bu po'lat belim jazirama issiqdan ikkiga bukilib qoldi-ya!" degandi. Endi aytganidek, chindan ham ikki bukilib qoldi. Narigi chol ham xuddi unga o'xshardi. Har ikki gapning birida issiq havoni qarg'ar, so'ng esa nursizlangan ko'zlarini qisib, uzoqlarda ko'rinib turgan qishlog'iga tikilardi. O'sha qishloq bu ikki cholning qishlog'i edi. Ular o'sha yerda tug'ilib o'sishgan. Ularning otalari, bobolari, bobolarining bobosi ham yuz yillab o'sha yerda yashagan, u yerda boshpana qurib, bola-chaqali bo'lgan. So'ng esa yov homiylarining yordami bilan qishloqqa

kelib, ularni uylaridan quvib chiqardi. Buning ustiga uzoqqa emas, atigi o‘ttiz besh kilometr masofaga, shu yerga... Bu masalaning asosiy og‘riqli nuqtasi ana shu! Xullas, bu ikki chol haqida aytarli gap hozircha shuning o‘zi.

Biroz narida, soyning chap tomonidagi chakalakzorlar yonidagi devorga suyanib, o‘ziga o‘xshagan soqolli yigit bilan gap sotib turgan yigit o‘sha qishloqni xayolining bir chekkasidan ham o‘tkazmagani ko‘rinib turibdi. Bu tekislikka, bu issiq joyga o‘rganib qolgan yigit taxminan o‘ttiz yoshlar atrofida edi. Lekin uning yuziga qaragan odam uni o‘ttiz yosh emas, oltmish yosh ekanligiga ishonchi komil bo‘lishi turgan gap. Yoshi ancha katta ko‘rinadigan bu yigit — Mahmat birozdan so‘ng ota bo‘ladi, farzandini bag‘riga oladi. Keyin esa dunyoning eng baxtli insonidek quvonadi.

Mahmatning yonida yutoqib sigaret chekayotgan, sochlari halitdan oqarib ketgan yosh yigit uzoqlarga tikilib qolgan. Qayerga qarayapti, nega qarayapti, o‘zi-yu Allohga ayon. Bu yigitning hujjatiga qaralsa, yo 1971-yil, yoki 1972-yilda tug‘ilgan. Lekin u ham yoshidan ancha katta ko‘rinadi, ustiga-ustak 1993-yilda urushdan bir oyog‘ini yo‘qotgib qaytgan. Bu bir oyoqli yigit chodir ichida to‘lg‘anayotgan kelinning ukasi. 1993-yildan beri, ya‘ni urushda bir oyog‘ini yo‘qotgandan so‘ng uni yosh yigit deyishmasdi. Urushda yelkama-yelka jang qilgan do‘stlari unga “Keksa rais” laqabini berishgan.

Mug‘onlida, Shixbobolida, Chamanlida armanlar bilan jang qilar ekan, birga kurashayotgan do‘stlari unga: “Rafiq, sen bizning qo‘mondonimiz rahmatli Shirinning egizagiga o‘xshaysan. Bundan keyin seni “Keksa rais” deb chaqiramiz, soch-soqoling ham oqarib ketibdi, bu laqab senga juda mos tushadi”, deyishgandi. Chindan ham shunday bo‘ldi. Bu laqab aynan unga, ko‘rinishiga mos tushgandi. “Keksa rais” uyga (agar shuni uy deb bo‘lsa!), chodirlar qurilgan tekislikka qaytib kelgach, hamma uni jabhadagi laqabini aytib chaqira boshladi.

Ana shu “Keksa rais” ham birozdan so‘ng tog‘a bo‘ladi, shuning uchun bo‘lsa kerak, bugungi bo‘g‘ayotgan va qishlog‘ining ustini qoplagan kulrang tutun havoga parvo qilmasdi.

Tog‘a bo‘lish gashtini tasavvur qilardi. U aslida tog‘a bo‘lishning keltiradigan lazzatini anchadan beri his qilardi. Endi esa bu sirli lazzatni sigaret tutuniga qo‘shib ichiga yutardi. Kecha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ijtimoiy yordam bo‘limi olib kelgan va ustida “Amsterdam” deb yozilgan sigaret qutisini barmoqlari orasida yaxshilab ezg‘ilagach, o‘pkasida raqs tushayotgan sigaret tutunining yarmini og‘zidan va burnidan tashqariga chiqarardi. Lekin uning og‘zidan chiqib, havoda yumaloq bulutga aylanayotgan tutundan qanchalar lazzat olayotganini hech kim bilmasdi.

Aslida bu tumandan lazzat olayotgan odamga o‘xshamasdi. Keksa rais pochchasiga o‘girildi:

— Buncha rasvo bu, xuddi achigan qatiqdek sasiyapti, — deya qo‘lidagi sigaretga imo qildi va so‘zida davom etdi: — Bundan birinchi marta chekyapman. “Astra”dan bo‘lsa qaniydi. Bitta “Astra” chekish yetarli. Bir marta ichingga tortsang, tutunidan huzur qilasan. O‘sha lazzatni totish uchun bu sigaretdan eng kamida bir quti chekishing kerak.

Pochchasi miq etmadi, yerga cho‘kib, soyda vaqillayotgan qurbaqalarning ovozigacha quloq soldi. Aslida u bu suvdan boshqa narsa eshitgisi kelardi, o‘sha boshqa narsada o‘zgacha nimadir bo‘lishi kerakdek go‘yo. Nimaligini o‘zi ham bilmas, lekin o‘sha ovozni eshitishni juda istardi. Albatta, qurbaqalarning tovushini ertalabdan kechgacha eshitardi, xuddi bu tovushlardan bezib ketgandek, endi boshqa ovozlarni eshitgisi kelardi. Chodir ichidan dabdurustdan otilib chiqqan ayollardan biri hayajonda soy bo‘yidagi tosh ustida yalang oyoqlarini suvga tiqib o‘tirgan bolani chaqirdi:

— Hoy, Vidodi, buyoqqa kel! Mana bu chelakni ol, to‘ldirib olib kel! Tez bo‘l, imillama!

Bola ham xuddi chaqirishlarini kutib o‘tirgandek, sakrab turib yugurdi, chelakni ayolning qo‘lidan olib, soy tomonga chopdi.

Boyadan beri soy bo‘yida chilim chekayotgan Abbos amaki tosh ustidan turib, shimining orqasini qoqa-qoqa ayoliga gapirdi:

— Kelinning ahvoli qalay, Tarlon?!

— Ahvoli yaxshimas! Doya qay go‘rda qoldi?! Kelinning dar-di kuchayib ketdi, kuchanaverib bechora qizning holi qolmadi...

Ovozlar kelgan joyga burilib qaragan kelinning eri xuddi uyqudan uygʻongandek, quloqlarini soydan kelayotgan ovozdan ayirib, onasiga:

— Oyi, Ridvon ketdi, hozir doyani olib keladi, yana biroz sabr qilsin... — dedi.

Tarlon oʻgʻlining betiga ham qaramadi, suv toʻla chelakni bolaning qoʻlidan olib, chodirga kirib ketdi. Bola ham buvisining aytganini bir zumda bajargani uchun oʻzida yoʻq xursand holda soy boʻyiga keldi va yana oʻsha tosh ustiga oʻtirdi.

Bir oyoqli, soqoli oʻsib ketgan Keksa rais bolani yoniga chaqirib dedi:

— Vidodi, Latifning doʻkoniga bor, bitta “Boku” yoki “Qora-bogʻ” sigaretidan olib kel. Latifga ayt, menga yozib qoʻysin, pulini keyin beraman...

Bolakay soy boʻylab oʻsib yotgan oʻtlar orasidan chopib ketdi. Shu payt Tarlon chodirdan yana shosha-pisha chiqdi, oʻngga, chapga alanglagach, ota boʻladigan oʻgʻliga qarab baqirdi:

— Bolani qayoqqa joʻnatding?

Keksa rais pochchasining oʻrniga javob berdi:

— Men joʻnatdim, sigaret olishi uchun doʻkonga joʻnatgandim...

Ayol boʻsh chelakni koʻrsatdi:

— Buni kim toʻldiradi?

Kelinning eri Mahmat oʻrnidan turib, chelakni ayolning qoʻlidan oldi, soyning narigi boshiga, toshloq joyga qarab xohlamayroq yurdi. Keksa rais ham hassasini olib, oqsoqlana-oqsoqlana ayolga yaqinlashdi va yoniga kelib soʻradi:

— Tarlon xola, nima boʻldi?

Tarlon rangi oʻchgan holda Keksa raisga oʻgirildi:

— Allohning marhamati keng! Koʻraylikchi, nima boʻlarkin? Kech tushmasdan, ikkisi ham sogʻ-omon qutuladi Xudo xohlasa... — Keyin esa uning yutoqib chekkan sigaretlarini koʻrib achchiqlandi: — Shu juvonmargdan nima foyda topgansan, buncha ona suti koʻrgan goʻdakday soʻrmasang! Shu qurib ketgur seni tamom qildi! Ahvolingga qara! Bir hovuch suyak boʻlib qolibsən. Hech boʻlmasa opangga achin...

Keksa rais kulib:

— Uning o‘g‘li tug‘ilishi bilan sigaretni tashlayman, — dedi va chodirdan nari ketdi.

Uzoqlarda, o‘sha taqir va qirrali tog‘lar etagidagi qishloq ustidan o‘tayotgan qora bulutlar orasida kuchli chaqmoq chaqdi. Osmon xuddi ayg‘ir otdek kishnay boshladi.

Eski-tuski ko‘ylak kiygan odam: “Xudoga shukur!” deb yonidagi do‘stidan suyunchi olmoqchidek qaradi.

Abbos amaki esa qimir etmadi va bu harakati bilan aldamchi shovqin bo‘lsa kerak, ishonma, demoqchi bo‘ldi. Aslida u to‘g‘ri o‘ylagandi. Chunki osmonda atigi ikki-uch marta momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq ora-chora chaqdi, xolos. So‘ng esa yana eski hammom eski tos. Yana o‘sha kuydiradigan, diqqinafas jazirama issiq, ko‘kda suzib yurgan qora bulutlar, sassiz-sadosiz oqayotgan soy va qurbaqalarning tinmayotgan tovushlari...

Chodir ichidan ovoz eshitildi. Kelin ingrayotgan edi. Bu ovozdan odamning eti junjikib ketardi. Chodir ichidagi ayollarining qiy-chuvi odamning ko‘ngliga g‘ulg‘ula solardi.

Yosh kelin bolasini tug‘olmay ingrar, to‘lg‘oqdan chinqirardi. Ayollardan biri kelinni tinchlantirishga, unga dalda berishga urinardi:

— O‘zingni qo‘lga ol, o‘zim o‘rgilay, bo‘shashma, kuchan! Pastga qarab itar! Qani, yana ozgina... Ha, ha... Yana bir marta... Qo‘rqma, girgитton bo‘lay, qo‘rqma! Baraka topgur, qo‘rqma! Yana ozgina kuchansang, qattiqroq egilsang, qutulasan! Jon bolam, bo‘shashma! Alloh o‘zi yo‘lingni ochadi, inshaolloh!

Negadir bu yo‘l ochilmas, yosh onaning qornidagi go‘dak dunyoga kelishni, ozod bo‘lishni istamasdi! Lekin uning yo‘liga intizor bo‘layotganlar shunchalik ko‘p edi-ki! Butun qishloq, qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shni, tanish-bilish — hammasi uning yo‘liga ko‘z tikkandi. Qiziq, u dunyoga kelganida nima bo‘larkin?

Yeti yildan beri bu bolani ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutishadi. O‘sha chodir ichida ingrab, to‘lg‘anayotgan Manzar — bu nursiz chodirning bo‘z devorlari orasida, ba‘zan qup-quruq, ba‘zan muzdek sovuq, ba‘zan nam tufayli chirigan ovqat hidini beruvchi tuproq to‘shagi ustida eriga ayollik, qaynanasi va qaynatasiga kelinlik,

ukasiga opalik, onasiga farzandlik burchini bajargan bu ayol rop-pa-rosa yetti yildan beri tirnoqqa zor. Qish payti birdaniga eriga: “G‘alati bo‘lib ketyapman, boshim aylanib, ko‘nglim behuzur bo‘lyapti” degandi. Eri Mahmat, ya‘ni chilim chekib o‘tirgan Abbos amakining o‘g‘li esa bunga parvo qilmadi. Manzarning onasi Sug‘ra xola esa qizining ahvolini darrov tushungan, lekin qiziga miq etmagandi: “Ijtimoiy yordam tashkiloti tarqatgan yog‘lardan bo‘lgandir, biz o‘rganmaganmiz-ku, shuning uchun ko‘nglimiz ayniyapti” degandi. Chunki jo‘xori yog‘dan foydalan-gan qo‘shnilari ham bir vaqtning o‘zida behuzur bo‘lgan, bolalari qusib, ertalabgacha ayron, suv ichib chiqqandi. Hech kim bu yog‘ning ichida qanday qo‘shimcha moddalar borligini bilmaydi. Lekin kun o‘tgani sari Manzar o‘z badanidagi o‘zgarishlarni sezardi, qorni esa kattalasha boshladi. O‘shanda hamma yetti yildan beri tirnoqqa zor Manzarning homilador ekanligini bildi. Qorni kattalashgani sari goh sevinib kular, goh siqilib yig‘lar, goh esa ma‘yus holda uzoqda ko‘ringan tog‘ etagidagi qishlog‘iga termulib qolardi.

Qishloqning o‘n kilometr berisida askarlarimizning qarorgohi bor edi. Armanlar esa qishloq ichiga joylashib olgan. Ularning qishlog‘i biroz yuqorida bo‘lib, u yerdan qarasa, butun tekislikni ko‘rish juda oson edi. Muvaqqat sulh tufayli o‘q ovozlari eshitilmasdi. Ustiga-ustak ular bitta o‘q uzsa, biznikilar o‘sha zahotiyog javob qaytarardi. Ba‘zan shu tarzda otishma boshlansa, bir-ikki soat davom etardi. So‘ngra o‘q ovozlari tinib qolar, bir zum o‘t-may qishloq osmonini qop-qora tutunlar qoplardi. Hoynahoy qishloqda kimningdir o‘t g‘arami yoki uyi yonib kul bo‘lgani uchun qishloqdan ko‘tarilgan tutun osmonni burkab olardi. Qishloqliklar “nima bo‘lganda ham o‘z uylarimas, armanlardan nima ketdi? Ularning nima ishi bor, U uylarni armanlar qurmagan-da, yonishi bilan darrov o‘chirisharmidi?”, deb hasratlashib qolishardi.

Har otishmada qishloqdagi bo‘sh, kimsasiz uylarning biridan olov chiqib, yonib kul bo‘lardi. Manzarning ukasi Keksa rais bu voqeani ko‘rib, shunday izohlardi:

— Dushmanlar buni ataylab qilishdi, bizga azob berishmoqchi. Bizga “ey, turklar, uy-joyingiz ko‘z oldingizda qanday yonyapti!

Biz dushmanni yuragini mana shunday sug‘urib olamiz” de-yishmoqchi!

Ba‘zan do‘zaxga o‘xshagan bu jazirama Keksa raisga yomon ta‘sir qilardi. Yagona oyog‘i bilan cho‘loqlanib, askarlar orasiga qo‘shilar, ular bilan tortishardi:

— Erkak kishi biroz mard bo‘ladi! Nega anqayasiz! Sizda g‘urur bormi? Menga miltiq bering, o‘zim boraman!

Ana shunday! Manzar va oilasi qishloqlarini tashlab ketishga majbur bo‘lishgan vaqti o‘zlari bilan hech narsa olishmagan. Faqat jonlarini asrab, qishloqdan shoshilinch qochib chiqishgan. O‘sha ilk oylarda qayerlarga borishmadi, deysiz... U vagon seniki, bu chodir meniki... Goh otxonalarda, goh eski maktablarning to‘kilib yotgan binolarida yashashdi. Nihoyat shu kichik qishloqning oqsoqollari to‘planib, qaror qilishdi va bu tekislikka, qishloqlarining to‘g‘risiga yangi o‘tov tikishdi. Qochqinlar komissiyasidan kelganlar:

— Bu yer bo‘lmaydi, bu yer soy bo‘yi bo‘lsa ham hech qanday aloqa va transport vositasi yo‘q. Buning ustiga front chizig‘iga yaqin, armanlardan o‘ttiz kilometr uzoqda, juda xavfli, — deyishdi.

Mahmatning otasi Abbas amaki juda qaysar odam edi, ularga:

— Biz bu yerga, qishlog‘imiz yaqiniga yangi qishloq quramiz. Bunga to‘sqinlik qilmoqchi bo‘lganlar meni va oilamning o‘ligini bosib o‘tmasdan, bu qarorimdan voz kechtira olishmaydi, — dedi va umid bilan qo‘shib qo‘ydi. — Bugun-erta armanlarni quvib chiqarib, uyimizga qaytib boramiz...

Abbas amaki bugun-erta degandi, lekin o‘sha kundan beri roppa-rosa to‘qqiz yil o‘tdi. Bugun lampamoy xira yoritib turgan bu chodir ichida to‘lg‘anayotgan Manzar doktorsiz va doyasiz tug‘ishi yetti uxlab tushiga kirmagandi. Hozir bu bolani yetti yildan beri kutgan, yetti yilning og‘rig‘qlarini, sovug‘ini, ayozini tanida his qilgan bo‘lsa ham: “Doim shunday davom etmaydi, hammasi yaxshi bo‘ladi, hammasi joyiga tushadi...” deb o‘ylardi. Ba‘zan yeyishga bir burda non topisholmasdi, lekin baribir sabr qilardi. O‘z-o‘ziga: “Rizqni beruvchi Alloh, u nima desa, shu bo‘ladi, Allohdan umid uzib bo‘lmaydi”, derdi. Lekin bu chodir

xuddi bandalarning, davlatning va astag'furilloh, Allohning unutgan joyiga o'xshar edi!

Ba'zan onasi ham, qaynonasi va kichik qayni Vidodi ham ular bilan bir chodirda tunashardi. O'rta parda tutib qo'yishar, ayollar bir tomonda, erkaklar ikkinchi tarafda yotardi. Turmush qurishganiga yetti yil bo'lgan esa-da, Manzar eri bilan birga to'yib uxlaganini eslolmaydi. Ba'zan bu ahvol ikkoviga ham og'ir botar, o'zlariga kelolmay, asabiylashishardi.

Manzar ko'p gapirolmasdi, chunki bo'yida bo'lmagani uchun ularning oldida tili qisq edi. Bormagan mullalari, bosh urmagan folbin ostonasi qolmadi. Ag'chabadidan Ganjagacha hammayoqni kezishdi, ustiga-ustak bir dunyo pul sarflashdi. Lekin bularning hech biri kor qilmadi. Kimdir ayb kelinda, kimdir kuyovda dedi... Har kim har narsa deyvergach, chorasiz qolgan Manzar va Mahmat bevaqt qarib ketishdi. Manzarning qo'llari, yuzlariga ajin tushdi, barmoqlarining nozikligidan asar qolmadi, sochlari oqara boshladi. Yoshi esa nari borsa yigirma beshlarda edi! Mahmat ham uningdek, yetti yilda go'yo yuzlab dardni yelkasida tashigan, ko'radiganini ko'rib qo'ygan odamlarga o'xshab ketdi. Soqolini bir oyda bir marta olardi. Manzar bilan eri barvaqt qarigani sari qon-qarindoshlari ham ulardan o'rnak olib, yana ham tezroq qariyotgandek bo'lishardi. Mana shu chodir atrofidagilarning hammasi yoshidan ikki barobar keksaroq ko'rinishardi.

Bu "keksa erkak va ayollar" bugun saraton kechasida necha yillik umrlari o'tgan qishloqni o'ylashga majollari yo'q edi. Qishloqlarini burkagan qora bulutlarga ham parvo qilishmasdi. Bu insonlar hozir faqat go'dakni kutishar va bu go'dak ular uchun hamma narsadan ustun edi.

Bu safar chodirdan Manzarning onasi Sug'ra xola chiqdi. U hech kimga baqirib-chaqirmadi. Tashqariga chiqishi bilan qo'lga bog'lagan bo'z matoni bo'yniga ildi va yirik, dumaloq tog'orani qo'lga olib, soy bo'yiga qarab yurdi.

Uzoqdan qaynonasini ter bosgan ahvolda ko'rgan Mahmat o'tirgan joyidan sakrab turdi. Birdan oldida turgan bu ayolning ellik yoshlardagi qaynonasi emasligini sezdi. Bu ayol chodir ichida og'riqdan to'lg'anayotgan Manzarning beli ikki bukilib, yurishga

qiynalayotgan to‘qson yoshlardagi onasiga o‘xshab qolgandi. Yo tavba! Sug‘ra xola bir kunda sunchalar qarib ketibdi.

Mahmat qaynanasi doim shunday bo‘lganini, buni o‘zi sezganini, lekin ayolning hali ham chaqqon, uying har yumushini qiluvchi, kir yuvuvchi, tandirga o‘t qalab, non yopuvchi chayir ekanini o‘yladi.

Chodir ichidan yana g‘ala-g‘ovur tovushlar keldi:

— Xudo, o‘zing madad ber! O‘laman! Voy, oyi, o‘lyapman, yordam bering! Oh! Allohim! Allohim! Voyyy! Oyi, iltimos, yordam bering! O‘lib qolaman!

— Qo‘rqma, qizim! O‘zim o‘rgilay, yana biroz chida! Dardingni olay, bolam! Oh, bolam!

— Manzar, jon singlim, yana biroz kuchan, yana ozgina kuchansang qutulasan!

Manzarning onasi yana shoshilib ichkariga kirib ketdi. Chilim chekayotgan Abbos amaki eski ko‘ylak kiygan kishiga qaradi:

— Havo yetishmayapti, bo‘g‘ilib ketyapman, Ahmad, — dedi. — Yur, nariroqqa boraylik.

Ikkovi chodirdan uzoqlashdi. Narigi tomondagi chodirlardan xira chiroqlar ko‘rinib turardi. Tun zulmat to‘nini vaqtdan avval kiydi. Go‘yo osmonga qop-qora parda tortib qo‘yishgandek edi. Bu pardani faqat yomg‘ir yirta olardi, lekin u ham hadeganda yog‘a qolmadi. Yomg‘ir bu odamlarni jazirama issiqdan qutqarish uchun yerga bir tomchi quyishni ham istamadi.

Kechalari bu yerlardan uzoqlashsang, sigaret uchquniga o‘xshash kichik chiroqlar ko‘zga tashlanadi. Bu chiroqlar aslida atrofda chodirlardan tushayotgan lampamoylarning xira nurlari bo‘ladi. Hozir chilim chekayotgan Abbos amaki o‘g‘lining qaynotasi Ahmadga dedi:

— Demak, Ridvon shahardan yaqinda keldi, shundaymi?

— Ha... Shahar yomon issiq, u yerlar yonyapti, bu yer yaxshiroq, — dedi.

— Eh, Abbos! Men qishlog‘imizga qaytish endi xomxayol bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Nima deysan?

— Unday dema, nafasingni yel olsin! Rivdonning aytishicha, “AGIT”mi, balomi, battarmi, yana kelibdi. Shu yerlargacha kel-

ganmish... Xudo haqqi! Gazetalarda shunday yozibdi. Shundoq-qina burnimizning tagida ekan, Xonkandida... Ko‘raylikchi, bos-qinchi haromilar bu safar nima qilarkin...

— Meni aytdi dersan. Qorabog‘ni “Otamiz” ololmasa, hech kim ololmaydi! Na AGIT, na Amerika, na Rossiya! “Ota”ning yonida bular hech kimmas. “Ota” bularning hammasini chiqqan joyiga tiqib yuboradi... Lekin bu haromilariga nega ko‘rsatib qo‘ymayapti, hayronman!

— Bu narsa oson hal bo‘lib ketadigan masala emas! Biz bilmagan qanchadan-qancha gap bor. Mayli, ko‘raylikchi, Alloh mehribon... Birozdan so‘ng ikkovimiz ham bobo bo‘lamiz. Balki nabiramizning qadami qutlug‘ kelar, tuprog‘imizga qaytib borarmiz!

— Aytganing kelsin... Oh, qaniydi, nabiramiz tug‘ilishi bilan radiolar “biznikilar Qorabog‘ni qaytarib olishdi” degan xabar bersa... Shunday xabar bo‘lsa, nabiramni bag‘rimga bosib yalangoyoq yo‘lga tushishga roziman. O‘ttiz kilometr nima bo‘libdi? Qishloqqa borishim bilan uyning tomorqasidagi qora qo‘chqorni qurbon qilaman!

Bu so‘zlarni shunday orzumandlik bilan aytdiki, xuddi qishloqdan kecha kelgandi-yu qora qo‘chqori hali ham uyining tomorqasida turgandek.

— Bir jonliqni men so‘yaman... Sen bu gapni aytganingda ishtaham ochilib ketdi... Xo‘p, mayli, yur, chodir yoniga boraylik. Ko‘raylikchi, nima bo‘larkin. Qiziq, nabiramiz nega uyimizga kelishni xohlamayotgan ekan?! Tomog‘im qaqrab ketdi. Nabiramiz tug‘ilsin, sen bilan ertalabgacha o‘tirib ichardik.

Ikkovi ham yurgan yo‘llaridan jimgina orqaga qaytishdi. Chodirdan hali ham o‘sha ovozlari kelardi:

— Jon qizim, Alloh dardingni menga jo‘natsin!

— Jon singlim, oz qoldi! Yana biroz harakat qil! Ana shunday! Boshi ko‘rindi! — Bu Manzarning opasi Mohizarning ovozi edi.

— Hoy qiz, biroz nari tur, sen esa borib tog‘orani olib kel...

— Hoy qiz, manavi bo‘zni alishtir, stol ustidagisi toza, o‘shani ber... Ha, barakalla! Voy, ko‘z tegmasin! Kamida besh kilo, xuddi bobosiga o‘xshaydi!

Bobolar quloqlarini ding qilishdi. Ikkovi ham sevinib ketishdi, lekin ikkisining ham paytavasiga qurt tushib qoldi. Xuddi bobosiga o'xshaydi, degan Tarlon kimni aytyapti ekan?! Ikkovi ham chaqaloq o'g'il bola ekanini tushunishdi. Besh kilo... Lekin chodirdan boshqa ovoz chiqmadi. Hech kim lom-lim demasdi. Kelin ham endi oh-voh qilmas, ayollar ham miq etmasdi. Chaqaloq ham yig'lamadi. Qiziq, nima bo'ldi ekan?

Bobolar xavotirga tushib qolishdi. Sekin-asta uzoqlashishdi. So'ng betoqatlanib yana qaytishdi. Chodirdan hali ham ovoz chiqmasdi. Abbas amakining toqati qolmadi. O'g'li Mahmatni chaqirdi:

— O'g'lim, Vidodi qani?

— Latifning do'koniga ketgandi, hali kelmadi...

Ortidan Ahmad amaki so'radi:

— Rafiq qayerda? Qayoqqa yo'qoldi?

— U ham Vidodining orqasidan ketdi...

— O'glim, Mahmat! Buyoqqa qara! Chodirda nima bo'ldi? Bu ayollar nega tashqariga chiqib, xabar qilishmadi?

Abbos amaki bu savolni bergach, cho'ntagidan dastro'molini olib, peshonasidagi terni artdi. Tarlon xola o'qdek uchib chiqdi, qo'lidagi bo'sh chelak bilan soyga tushmoqchi edi, Mahmat qo'ymadi, jiddiy gap bo'lganini bildi shekilli, qo'lidan chelakni yulib olib, soyga yugurdi.

Tarlon xola hayajonlanar, gapira olmasdi, hushidan ketar aflozda turardi.

Abbos amaki hayajonlanib so'radi:

— Nima bo'ldi, Tarlon! Nega gapirmaysan?

— Yaxshi bo'ladi, Xudo xohlasa...

— Ha, Xudoga shukur, yaxshi bo'lsin... Gapimiz gap! Bu kecha ertalabgacha ichamiz, shundaymi?

Abbos amaki endi sevinayotganda, Tarlon uning gapini shartta bo'ldi:

— Shoshilmang! Kelinning ahvoli yaxshi emas... Ridvon kelmadimi?

Bobolar yana tashvishga tushishdi. Bu safar chodirdan Sug'ra xola chiqdi va Tarlon xolani chaqirdi:

— Tarlon! Tarlon, buyoqqa kel! Bu bola nega bunday bo‘ldi? Buvilar yugurib chodirga kirib ketishdi.

— Qizim, tuzukmisan? Xudoga shukur, eson-omon qutulib olding, muborak bo‘lsin!

Bobolar sevinishdi.

Sug‘ra xola:

— Hoy, Tarlon, bu bola nega bunday? Umuman yig‘lamayapti, — dedi. So‘ng qizi Mohizarga dedi: — Lampani buyoqqa tut! Tashqariga chiqib Mahmatga ayt, Sakinani ham chaqirsin, ularning lampasini ham olib kelsin!

Mahmat bu gaplarni allaqachon eshitib, qo‘shnilari Sakina xolaning chodiriga qarab yugurdi. Birozdan so‘ng Sakina ham qo‘lida lampa bilan chodirga kirdi.

— Muborak bo‘lsin, hamsoyalar! Mayli-yu... bu bola nega yig‘lamayapti?

Bobolar yana bezovtalanishdi. Chaqaloq chindan ham yig‘lamasdi. Faqat yig‘lamasa ham soppa-sog‘ edi. Ko‘zlari yumuq, uni yaxshilab cho‘miltirishdi. Lekin baribir yig‘lamadi. Birdan ayollardan biri baqirib yubordi:

— Voy! Bismilloh! Bu bola nega bunday?

— Voy, Xudoyim! Allohim, o‘zing asra! Buni qaranglar!

Bobolar va yosh otaning ortiq toqati qolmadi. Ichkaridan ke-
layotgan tovushlar, hayratli nidolar tashqaridagilarni tashvishga soldi.

— Tarlon, bu chaqaloqning peshonasi nega bu ahvolda?

— Yo, tavba! Barmoqlari nega bunday?

— Nauzanbilloh! Sochlari ham oppoq! Eh, Xudoyim! Ab-
boooos! Mahmaaat!

Erkaklar bir zumda chodirning ichini to‘ldirishdi. Hammasi ayollarning hayrat to‘la nigohlarini ko‘rib hayron qolishdi.

Bolani yo‘rgaklab qo‘yishibdi. Sochlari lampalar yog‘dusida oppoq ko‘rinardi. Yuzida va peshonasida sakson yoshli qariyalar kabi chuqur ajinlar bor edi. Mittigina ko‘zlari ham chuqurdek botib ketgan. Abbas amaki birinchi bo‘lib o‘zini qo‘lga oldi:

— Nima bo‘pti! Guldek bola! Nima qilibdi? — dedi. Bu bilan pardaning narigi tomonida yangi qutulgan kelinini tinchlantirish,

hammasi joyidaligini his ettirish va aytganlarini eshittirishni istardi. Faqat ayollar uning bu niyatini tushunishmadi. Ular hamon bolaga hayrat bilan tikilishardi.

Bobolar chodirdan chiqishdi. Mahmat nima qilishini bilmas, u hayotida yangi tug‘ilgan chaqaloqni ko‘rmagandi. Mahmat dunyodagi hamma chaqaloqlar ana shunday tug‘iladi, yuzlari, sochlari ham ana shunday bo‘ladi deb o‘ylardi.

Ichida yetti yilda tug‘ilgan o‘g‘liga mos ism o‘yladi. Aslida ism emas, unga mos laqab o‘yladi. “Keksa go‘dak!”

Mahmat chodirdan chiqdi va shu onda qo‘shni chodirlardan chiqqanlarning ularning chodiriga quyundek yopirilib kelishayotganini ko‘rdi. Chodirning ichiga kirib chaqaloqni ko‘rganlar hayratlari yashirolmasdi:

- Allohning mo‘jizasini qara!
- Bola chindan ham qari odamlarga o‘xshaydi!
- Alloh rahmdil! Bola umuman yig‘lamaydi-ya!

O‘sha yoz oqshomi Manzarning xolavachchasi Ridvon ham qishloqqa yolg‘iz qaytdi. Yonida doya ham yo‘q edi:

— Doya Susanni Soatlidagi o‘tovga olib ketishibdi, u yerda ham bir ayol tug‘ayotgan ekan, — dedi.

Keksa rais bilan Vidodi ham kelishdi. Boshqa chodirlarda qancha qon-qarindosh bo‘lsa, hammasi shu yerda edi. Odamlar hayratda! Muborak bo‘lsin deyishsinmi, yo bu g‘alati bola uchun sabr tilashsinmi, bilisholmadi. Chodirga kirib chiqqanlarning yuzlaridagi ifodalardan hali yer yuzida chaqaloqning ona qornidan kekxa go‘dak bo‘lib (Alloh o‘zi bilguvchidir!) tug‘ilganini eshishmagani ko‘rinib turardi.

... O‘sha tong ham yomg‘ir yog‘madi, lekin havo ochilib ham ketmadi. Eng dahshatlisi issiq chodirning ichida edi. Manzar o‘ziga kelgan, bolasini bag‘riga bosib yotardi. Ko‘kragi sutga to‘lgan, suti sizib oqardi. Bola esa onasining ko‘kragini emishni istamasdi. Uyg‘onsa, onasini albatta emadi, yana shunchalar ishtaha bilan emadiki, peshonasidagi ajinlar ham yo‘q bo‘ladi... Chunki kecha Manzar o‘z quloqlari bilan eshitdi. Bu ishlarni boshqalardan yaxshi biladigan Sakina: “Bolaning darmoni ona sutidir” degandi.

VOQIF SULTONLI

QUMRI NAVOSI

Mironshoh otasi Amir Temurning nazariga tushgan, shuhrati butun Sharqqa yoyilgan mashhur bastakor Abdulqodir Marog'iyning yangi asarini tinglamoq uchun muhtasham anjuman tashkil etdi. Bastakor bir oy avval yozgan asarining qo'lyozmasini unga taqdim etib, tortinibgina kichik bir anjuman o'tkazishni so'ragandi. Hukmdor mamnuniyat ila rozilik bildirgan, o'sha ondayoq uning bog'ida misli ko'rilmagan hozirlik ishlari boshlab yuborilgan edi.

Ikki oydan ortiq davom etgan qurilish va ta'mirlash ishlariga Tabrizning eng mashhur usta va hunarmandlari jalb etildi. Ayni damda bog' behad fusunkor manzara kasb etgan, rang-barang gullarning atridan bosh aylanar, jozibasidan ko'z qamashardi. Naqshinkor yo'laklarda bejirim Tabriz gilamlari to'shalgan, har qadamda o'rnatilgan fonuslardan taralgan shu'lalar kechasi ham xuddi kunduzgidek chor-atrofnı charog'on etardi.

Birozdan keyin majlis boshlanishidan darak berib, yengil musiqi sadolari yangradi. Garchi kechalari bu yerda aysh-ishratlar tez-tez o'tkazilsa-da, bog' yaqin orada bunday katta taraddudni ko'rmagandi. Buning boisi hammaga ma'lum edi: bastakorning yangi asari Amir Temurning suyuqli nabirasi, Mironshohning o'g'li Xalil Sultonga bag'ishlangan edi.

Mironshoh o'smirlik yoshiga qadam qo'ygan o'g'lini o'tgan yozda Movarounnahrğa, sohibqiron Amir Temur huzuriga jo'natgandi. Maqsadi o'g'lining ko'zlarini ochish, jahongirning siyosat va fotihlik borasidagi saboqlaridan bahramand etish edi. Biroq, ko'p o'tmay sohibqiron Xalil Sultonning saroydagi joriyalardan biri — Shodimulkka ko'ngil qo'yib, saltanat ishlariga qiziqmay qo'rganini Mironshohga yetkazgan, bir muddat yigitchani Tabrizga, o'z otasining huzuriga jo'natishni ma'qul ko'rgandi.

Mana, ikki oydirki, Xalil Sulton Tabrizda istiqomat qilayotir. Har kuni Samarqandga qaytish uchun izn so'rasa-da, Mironshoh turli bahonalar bilan o'g'lini yo'ldan qaytarar, hammasi vaqt hukmidida ekaniga ishonardi.

Saroyda uyushtirilayotgan bu majlis ham Xalil Sultonni oz bo'lsa-da, chalg'itishga qaratilgan edi.

Necha kundirki, Abdulqodir cheksiz bezovtalik ila mashq qilar, o'zi yozgan musiqaning go'zalligidan hayratini yashirmagan cholg'uchilari bilan asarni qayta-qayta ijro etardi.

Har gal ijroni ma'lum bir joyida to'xtatib, yangi ohanglar, yangi tuzatishlar kiritar, ushbu kuyni mukammal musiqiy asarga aylantirish uchun qo'lidan kelganicha harakat qilardi.

Ammo borlig'ini sariqpechak misol o'rab olgan bezovtalik unga tinchlik bermas, qo'llariga tushov solar, hayajonini tobo-ra oshirardi. "Ishqilib cholg'uchilar uning ko'ngliga yoqadigan tarzda ijro etishsin-da! Shuncha saddi-basga yarasha hukmdorga ma'qul kelsin!"

Musiqa sevikli o'g'liga bag'ishlangani uchun o'z a'yonlari ila majlisga tashrif buyurgan Mironshoh bog'ning yuqori qismida qurilgan taxtiga ko'tarilishdan avval ijrochilarga yaqinlashib, so'rashgan bo'ldi.

Hukmdorni olisdan ko'rgan, moviy yaktak kiyib, boshlariga zarhal qalpoq qo'ndirgan ijrochilar oyoqqa qalqib, muntazir turishardi. Mironshoh bir xil ko'rinisdagi saroy musiqachilarining har birini shaxsan tanirdi, faqat bittasini tanimadi. Bu xonanda yigitni bastakorning o'zi asar ijrosi uchun atayin taklif etgandi. Hukmdor taxtiga chiqishidan avval musiqachilarning yoniga kelishidan maqsad ham yangi yigit bilan tanishmoq edi.

Ozg'in, bug'doyrang, xushbichimgina xonanda Mironshoh bilan yuzma-yuz kelganida taomilga ko'ra tiz cho'kib, boshini egib turdi.

Mironshoh o'rnidan turishga ijozat berdi:

— O'g'lim, Ozarbayjonning qayeridansan? — deb so'radi.

— Marog'alikman, — dedi yigit.

— Senam marog'alikmisan?

Abdulqodir ta'zim ila bir qadam oldinga chiqdi:

— Hukmdorim, Marog‘ada tug‘ilgan har bir insonning go‘zal nafasi bo‘lur!

Mironshoh xonandaga ijozat berib, Abdulqodirning qo‘ltig‘iga kirdi va a‘yonlari qurshovida uni taxt tomon boshladi.

Hukmdor taxtiga joylashib olgach, xonanda-yu sozandalar uning qarshisida saf tortdilar. Hukmdorning o‘ng tarafida o‘g‘li Xalil Sulton, chap tarafda taxtning yoniga qo‘yilgan kursida bastakor o‘tirar, hammaning butun diqqat-e‘tibori cholg‘uchilarda edi. Ohista o‘z cholg‘ularini sozlay boshlagan ijrochilar bastakorning ishorasini kutishardi.

Ziyofat ahli bog‘da to‘shalgan gilamlar ustida o‘tirib olishgandi. Xizmatchilar qo‘llaridagi kumush kosalar bilan mehmonlarga xushbo‘y sharbat va qizil sharob, xilma-xil shirinliklar ula-shishardi.

Bastakor Mironshohning ijozati ila ijrochilarga ishora berdi. Zarif musiqa sadolari kechaning sukutini buzdi. Saroy majlislari an‘anasiga ko‘ra, avval Amir Temur, keyin esa Mironshoh sharafiga bastalangan kuylar chalindi. Keyin raqqosalar xirom etdi.

Biroz tanaffusdan keyin Xalil Sulton sharafiga bitilgan “Navoyi Qumri”ning ijro etilishi ma‘lum qilindi. Bir muddat bog‘ga sirli sukunat cho‘kdi. Boyagi xonanda yigitning g‘ayrioddiy ovozi yangrashi bilan majlis ahli bu ovoz sehriga maftun bo‘lib qoldi.

Ud xuddi yer ostida qolib ketgan mahkumlar singari nola qilar, tanbur navosi qonun sadolariga qorishib, ajib bir taronani yaratgan edi. Xonandaning nafis ijrosi esa har bir uyg‘oq yurakni sel qilishga qodir. Butun anjuman ana shu sohir ohanglar izmida edi. Nozik torlardan taralayotgan go‘zal unlar qorong‘ilik bag‘riga singib, kechani sokin allalardi...

Bu Abdulqodirning hozirga qadar yaratgan ijod namunalari orasida eng yaxshisi edi. Uning o‘zi ham ayni damda dilrabo kuy va ohanglar qanotida yettinchi falakda suzib yurardi.

... Abdulqodir Qumrining muhabbatini umrining eng gullagan damlarida yelib o‘tgan shabbodaga qiyoslar, faqat fojia bilan tugagan bu savdoning kadarli xayollarini har doim o‘zidan yiroqlatishga urinib kelardi. Biror marta ismini aytib chaqirmagan bo‘lsa-da,

u go‘zal chindan qumriga — mitti, xushalhon qushchaga o‘xshab ketardi.

Bastakor avval bu ilohiy sevgisiga qaytishni, Qumrini yodga olishni istagandi. Biroq bu sevgining hadik va hayajonidan qo‘rqardi ham. O‘sha qizning muhabbatiga loyiq emasligini, unga munosib javob berolmasligini o‘ylab, bu sevgidan o‘zini olib qochgan, bu muhabbat samara bermasligini o‘ylab, o‘zini, kelajagini aldagandi u.

Keyinchalik buning imkonsizligini tushundi. Samarqandda yashagan yillari Qumrini o‘ylab, tunlarni bedor o‘tkazadigan bo‘ldi. Vatani, yaqinlarining sog‘inchi o‘sha qizning timsoli qiyofasida namoyon bo‘lar, uni hayajon va anduhga solardi.

Qishloqma-qishloq, yurtma-yuz kezib Qumrini izladi. Uni topish umidida Samarqanddan Bag‘dod-u Arbilgacha bo‘lgan joylarni kezib chiqdi. Go‘yoki u qiz hech qachon bu yorug‘ olamda bo‘lmagan, tug‘ilmagan, yashamagandek edi. Shu tariqa Amir Temurning nevarasiga bag‘ishlangan bu asar o‘zi bilmagan holda “Navoyi Qumri”ga aylangandi.

Abdulqodir bu qo‘shiqni qo‘liga qalam olib yozmagandi. Bu ohanglar uning ruhidan, qalbidan sizib, ilohiy ijod mahsuli o‘laroq maydonga kelgandi. U barcha hislarini, tuyg‘ularini borlig‘idan sidirib, kuyga aylantirgandi. Bu qo‘shiq emasdi. Musiqa emasdi. Uni eshitib bo‘lmasdi. Tinglagan odam borki, ruhi, butun borlig‘i titroqqa tushar, inson ekanini, dard ichida tug‘ilib, o‘lguncha qayg‘u ko‘lankasida yashashini anglab yetardi.

Hozir musiqani tinglagan har kishi uning sadolari, ohanglari ichida yashiringan ilohiy ishqni tuyar, bu sevgining buyukligi, azamati va qudratini tan olardi.

Bastakor Qumrining saroy bog‘si yaqinidagi haramda, qorong‘i hujraning qalin pardali derazasi ortida o‘tirganidan, bu mahzun saslarini yurak yuragiga singdirayotganidan bexabar edi. Yillab axtargani — o‘zidan bir necha qadam narida, chaqirsa ovoz yetadigan joyda pinhon ekanini qayerdan ham bilsin u sho‘rlik? Bilmasdiki, ayni damda sohir kuyning o‘ziga atalganini anglagan qiz o‘z yog‘ida o‘zi qovrilar, nomsiz hislar haroratidan tobora erib borardi.

Bu ilohiy taronaning qudratiga taslim bo‘lgan Mironshohning qalbini yillar davomida egallab olgan qahr va kibr g‘uborlari to‘zg‘ib, ularning o‘rnini allaqanday soflik, beg‘uborlik ola boshlagandi. Uning quloqlariga shu nafis ohanglardan boshqa narsa kirmas, ko‘zlari noaniq kengliklarga mahzun termilib qolgandi.

— Kim bilsin, bizning qismatimiz qanday yakun toparkan?

Beixtiyor uning lablaridan uchgan bu so‘zdan Abdulqodir ajablandi. Bu qanday so‘z bo‘ldi? Nahotki, qudratli hukmdor, buyuk fohitning o‘g‘li o‘z qismatidan xavotirda bo‘lsa?

... Ilkis Mironshoh taxtidan qalqib turishi bilan musiqa to‘xtab qoldi. Hali musiqa ta‘siridan chiqolmay turgan majlis ahli ham sarosima ichida hukmdorga tikildi. Mironshoh boyagi, musiqa tinglayotgan chog‘dagi halim qiyofasini butkul unutgandi. Qat‘iyat chaq nab turgan ko‘zlari bastakorga qadaldi:

— Bu qo‘shiq kimga atalgan?

Bastakor kutilmagan savoldan o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. A‘lo-hazrat nega buni endi so‘rayapti? Asar uning o‘g‘liga atalganini shoh bilmasmidi? Agar bilmasa, bu kecha, taraddud kim uchun ko‘rildi?

U o‘zini imkon qadar qo‘lga olishga tirishdi:

— Shahzoda javonmard Xalil Sultonning sharafina yozmi-sham, onhazrat!

— Ne jasorat ila menga yolg‘on so‘ylarsen?

Abdulqodirning xayoliga ham kelmagan bu ayblov uni tamoman shoshirib qo‘ydi. Rang-quti o‘chdi, nima javob berishni bilmagani uchun jim qoldi.

— Bu asar muhabbat haqidadir!

Majlisda sukut hukm surardi. Hamma nafas olishga ham qo‘rqib, suhbatning qanday yakun topishini kutardi. Odamlar buyuk bastakorning Mironshoh g‘azabiga uchraganidan afsuslana boshlagan edilar.

— Qo‘shiqni qaytadin ijro etingiz! — dedi Abdulqodirga yuzlanarkan.

Yana bog‘ uzra musiqaning orombaxsh sadolari oqa boshladi. Hukmdorning yuziga qayta boshlagan muloyimlik ijrochilarga ham ilhom baxsh etdi.

Xalil Sulton ham o‘ziga baxshida etilgan musiqaning sehdidan mast edi. Bu sohir sadolar otasining nasihatlarini ila birmuncha sovgigan hishlarni yana alanga oldirgandi. Samarqandda qolgan Shodimulk begimning ishqini yana uning borlig‘ini o‘z izmiga solgandi.

Yo Rab! Bu bastakor uning dilidan o‘tgan tuyg‘ularni qanday sezdi ekan? Uning ishq qissasini Abdulqodirga kim yetkazdi ekan?

Yigit botinini ostin-ustun qilayotgan bu savollarning azobidan o‘zini qo‘yarga joy topolmasdi. Bu musiqani hozir Shodimulk ham eshitganida edi. Qiziq, u hozir nimalar qilayotgan ekan? Nimalarni o‘ylayotgan ekan? Bobosi uni o‘ldirib yubormoqchi ham bo‘lgandi. Bir amallab uni o‘limdan asrab qoldi. Endi uning hayotini kim qo‘riqlaydi? Nega uni ajal ostonasiga qo‘yib keldi. Yo‘q, ayni damda u Shodimulkning yonida bo‘lishi kerak. Shart.

Xalil Sulton o‘rnidan turib, sezdirmay majlisni tark etdi. Endi hech qanday kuch uni visolga eltuvchi yo‘ldan qaytara olmasdi. Musiqa uning-da qalbini afsunga solgan, o‘z izmi-ixtiyoriga olgandi. U yashirin yo‘l bilan saroydan chiqib, otiga mindi. Arg‘umog‘iga qamchi bosib, o‘zini xuddi tilsim kabi o‘ziga tortayotgan Samarqand sari yuzlandi.

... Musiqa tugagach, Mironshoh asar xususida o‘g‘lining fikrini bilmoq uchun o‘ng tarafiga o‘girilganida hech kimni ko‘rmadi. Ko‘ngli bir noxushlikni sezgandek, darhol xufiyaboshini chaqirib o‘g‘lining qayerdaligini so‘radi. Ko‘z ochib yumguncha tashqariga chiqib qaytgan xufiyaboshi Xalil Sulton otiga minib, saroyni tark etganini ma‘lum qildi. Ahvolni tushungan Mironshoh soqchilar sardoriga shaharning barcha darvozalarini, chiqish yo‘llarini yopib, o‘g‘lini ortga qaytarishni amr etdi. Ammo, endi bundan naf yo‘q, Xalil Sultonning oti qanot chiqarib uchgandi.

O‘N UCHINCHI PALATA

Xotining o‘limi uning tinch hayotini ostin-ustun qilib yubordi. Bugungacha hayot, taqdir, dunyoning boshi-yu oxiri haqida o‘ylab ham ko‘rmagandi. Faqat bu o‘lim zulmatni tilib o‘tgan chaqmoq singari uni sergak torttirdi.

Endi onasiz qolgan o'g'li nima qiladi? Yaxshiyam hali yosh go'dak, ko'p narsaga aqli yetmaydi. Aks holda uni qanday ovutardi? Bolani boshg'chadan olib, qishloqqa, buvisining yoniga tashlab keldi. Endi bir oy-ikki oyda bir borib xabar oladi. Bola ham buvisini juda yaxshi ko'radi. Ammo, sho'rlik go'dak endi ona mehridan ayro qolganini eslasa, ko'ngli buzilib ketadi.

Metro eshigida tumonat odam. Oldinroqda turgan qiz va yigitning suhbat qulog'iga chalindi:

— ... uyatdan yer yorilmadiki, yerga kirsam... Siz atayin otanamni yerga urish uchun o'sha odamlarni yuborgansiz... Sizdan voz kecholmadim. Bo'lmasa olib kelgan uzuklarini yuzlariga otardim...

Yigit jim edi...

Notanish yigit va qizning bir lahza uni o'tmishga olib ketdi. Uning uchun qaytib bo'lmas onlar ko'z o'ngida jonlanib, yuragi yana g'ussaga to'ldi.

Shaharga kelgan ilk kunlarda Mohpora ismli qiz bilan tanishib qolgandi. Qiz unashtirilgan bo'lsa-da, u bilan uchrashib turardi. Bir hafta ichida xuddi ming yillik qadrdonlardek bo'lib qolishdi. Qiz: "meni olib ket, istagan joyingga sen bilan boraman, o'sha ablahning yuzini ko'rmasam bas. Yaqinda to'yimiz bo'lishi kerak. Meni olib qoch, uch kun biror joyga ketaylik. Keyin nima bo'lsa bo'lar..."

Qizga achinsa-da, unga yordam berolmadi. Keyingi taqdiri nima kechganini bilmaydi. Faqat bir marta ko'chada qo'lida bolasi bilan ketayotganini ko'rib qoldi. Atayin uni ko'rib ko'rmaslikka oldi. Har qalay xush-noxush taqdiriga ko'nikkan bu ayolning xotirasidan o'chayozgan shirin damlarni qayta tiklagisi kelmadi.

...Xotini mana shu nashriyotda ishlardi. Har kechqurun bu binoning oldidan o'tayotganida, xodimlar ham ishdan chiqqa boshlardi. Xotini ertalab o'zi olib kelar, kechqurun olib ketar, shu bois, bu yerdagilar uni yaxshi tanishardi. Endi esa, o'sha odamlarning hech biri bilan yuzlashgisi yo'q.

O'tgan hafta xotining dugonasi Zamira bilan ko'rishib qoldi. Salomlashib o'tib ketmoqchi edi. Zamira uni to'xtatdi. So'rashdi, o'g'lini so'radi. U esa, bir og'iz ham gapirolmadi.

Bir paytlar Zamira ularnikiga kelib turadi. Bayramlarni birga o'tkazishardi. Xotining o'limidan so'ng Zamiraning ham qadami uzildi. Faqat shu yo'lda yuzma-yuz kelib qolishar, shunda ham o'zini ko'rmaganga olib o'tishni istardi. O'tmish bilan bog'liq hamma narsani unutgisi kelar, ammo uddasidan chiqolmasdi.

Biroq, hamma narsa, ko'cha yoki bino, har bir tanish-notanish qiyofa uni esga solaverar, beixtiyor xotini bilan yashagan damlarga qaytardi.

Mana o'sha tug'ruqxona... Har doim o'sha mash'um o'limni yodiga solib, yuragina qiymalaydigan joy. Aksiga olib, bu bino ham uning ishga borib qaytadigan yo'li ustida joylashgan.

Kattasi tug'ilganda, qalin qor yog'gandi. Sahari mardondan tug'ruqxona eshigida turib olgandi. Qiz tug'ilganini eshitib, sal ko'ngli cho'ksa-da, sezdimadi. Hali ikkovi ham juda yosh ekani, hammasi oldinda ekanini o'ylab taskin topgandi.

Har kuni o'zi bilan opkelgan narsalarni bir parcha xat bilan birga eshik oldidagi hamshiraga topshirar, hamshira unga xotining javobini yetkazar, shu tariqa xabarlashib turishardi.

O'tgan hafta eski qog'ozlar orasidan xotining o'sha paytlarda yozgan xatlari chiqib qoldi. Ayoli pul yuborishni, hamshiralarga, do'xtirlarga qistirma, bolasiga yaxshi qaramasligini yozgandi. O'shanda u pul kirita olmagan, pulsizlikdan siqilib turganini baho-na qilgandi...

Bola tug'ilishini, tashqarida turib kutolmagandi. Nimadir ish chiqib ketib qoldi. Tug'ruqdan so'ng xotini ko'p qon yo'qotgan, qon quyishga to'g'ri kelgandi. Baxtga qarshi uning guruhidagi qon tug'ruqxonada yo'q ekan. Tashqariga chiqib erini topa olmagach, ayolga bir hamshira qon beribdi.

Qiziq, o'sha hamshira hozir ham ishlayotganmikin? Bir paytlar qon berib kimnidir o'limdan qutqarib qolganini eslarmikin?

Xotini keyinchalik bir marta bo'lsin, bularning hech birini — tug'ruq payti uni tashlab ketgani-yu o'sha oqshom loaqal telefonda bo'lsa ham hol so'ramaganini yuziga solmagan.

Ikkinchi bolasi tug'ilganida, sho'rlik ayolning badanini rosa qiymalashibdi. Yarim kechasi tug'ruqxonadan mashina bilan kelib, uni ham olib ketishdi. Shifokor bolani (o'g'il bola ekan) chiqarib

olish uchun ayolini operatsiya qilgan, ayol esa, hushiga kelmasdan vafot etgan edi. Har qancha yalinmasin, uni ichkariga kiritishmadi. Jasadni zambilda olib chiqib, mashinaga solishdi.

Kutilmagan bu hodisadan hushi boshidan uchdi. Ishongisi kelmasdi. Mashinaning bir chetida, zambilda yotgan xotiningin murdasiga qararkan, o'zini dahshatli tush ko'rayotgandek his etdi. Chunki, o'lim bu qadar tez va qo'qqisdan inson hayotiga chang solishi mumkinligini tasavvur ham qilolmasdi. Nazarida xotini hozir ko'zlarini ochib, g'amgin tabassumlari bilan eriga boqadigandek edi. Ha, ayolining nigohlarida tilga ko'chira olmagan bir gina, yana allaqanday xijolatpazlik, uzrxohlik aks etadi. Shafqatlab ko'zlari ila eriga mo'ltiraydi. Bu nigohlardan xayolan shu so'zlarni o'qiydi:

“Kechiring, sizga o'g'li tug'ib bermoqchi edim, qo'limdan kelmadi. Sizni xursand qilsam degandim. Bolaning hayotini asrab qoling deb qancha yolvordim. Meni eshitishmadi. Bolani shundoqqina, burnimning tagida burdalashdi. O'rtada oppoq parda tutishgandi. Lekin men jigarbandimni ne ko'yga solishayotganini his etib turardim. Mana, bolamning mitti qo'lchasini kesishganida, qo'llarimdan jon chiqdi. Oyoqchalari qirqilganda, oyog'im muz qotdi. Bolamning murg'ak tanasini bo'laklab, jomga tashlashardi... Nazarimda qulog'im ostida bolam mudom chinqirayotgandek edi... Keyin... hushimni yo'qotdi...”

...Ayoli bo'yida bo'lgan ilk kundan boshlab, uning vujudini vahima qoplagan, nedir noxushlikni oldindan sezardi go'yo.

— Meni 13-palataga yotqizinglar, deyman. O'tgan safar ham o'sha palatada yotgandim, — degandi xotini tug'ruqxonaga ketayotganida.

Bu gal ham uni 13-palataga yotqizishdi...

Bu bino uning uchun turgan bitgani sir edi...

Ayol avval ham shu xonada yotgan, uning derazasidan dengiz ko'rinib turar, bu haqda eriga jo'shib gapirib bergandi. Ayoli bu xonani shu qadar aniq tasvirlab bergandiki, u bir marta bo'lsin, bu palataga kirishni, xotini yotgan karavot, ixchamgina tumbochka, oyoq ostidagi to'shama, derazadan ko'rinib turgan dengiz manzarasini o'z ko'zi bilan ko'rishni istardi.

... O‘zi istamagan holda tug‘ruqxonaning eshigi oldida turib qolgandi. Eshik har doimgidek yopiq edi. Tug‘ishga kirib ketgan ayollarning yaqinlari eshik oldida kuymalanishardi. Yo‘lkaning naryog‘ida turgan yashil rangli mashinada nimanidir hayajon bilan kutayotgan o‘rta yashar ayolning bo‘g‘riqqan yuzlari ko‘zga chalinadi. U ham birinchi bolasi tug‘ilganda, yo‘ldan tutib kelgan mashina ichida xotininig chaqaloq bilan chiqshini ana shu yerda turib kutgandi.

Ayni damda uni qanday kuch bu yerga yetaklab kelganini tushunolmadi. Qo‘llari ham oyoqlari singari unga bo‘ysunmasdi. Titroq barmoqlari bilan ko‘chaga eshigini qoqdi. Avvaliga javob bo‘lmadi. Biroz o‘tib, qadam tovushlari eshitildi. Eshik ochildi. Yana o‘sha ayol, o‘sha chehra... Nima desin? Nimani tushuntirsin? Baribir ichkariga qo‘yishmaydi. Ta’na-malomatlar bilan quvib solishlarini, loaqal eshikni yuziga taraqlatib yopishlarini kutgandi.

Biroq, bo‘sag‘ada hamshira unga jim qarab qoldi. Chamasi qiz bu erkakning kimligini eslolmay tikilib turardi. Kutilmaganda, qizning tund yuzlarida allanechuk muloyimlik qo‘nganini ko‘rib, dadillandi.

— Ichkari kirsam maylimi? — dedi — mumkin bo‘lsa, 13-palataga...

Qiz ortga chekinib yo‘l berdi. Uning uchun sirli va mardud tuyulgan bu eshik bu qadar oson ochilishini kutmagandi. Zinapoyalardan ko‘tarilayotib, oyoqlaridan darmon qochganini payqadi. O‘zini endigina to‘shakdan turgan xastadek his etdi. Nazarida boshi aylanib yiqilsa, qaytib turmaydigandek zinalarning panjarasini mahkam ushlab borardi.

Devorlar o‘ta sirli, ayni damda tanish ko‘rinardi. Uzoqdan, nimqorong‘i dahlizda navbatchi shifokorga ko‘zi tushdi. Palatani so‘rashga hojat yo‘q, eshiklarda yozib qo‘yilgandi: 7, 8, 9, 10...

Uchinchi qavatga chiqishi kerak. “O‘sha, xotiniga qaragan shifokorning ismi nima edi? Bilsa so‘rardi. Atigi ikki yil bo‘pti. Haliyam ishlarmikin? Afsus, otini eslolmadi.

... Yana zinapoyalardan ko‘tarildi: 11,12,13...

Bir lahza barini unutdi. Nazarida eshikni ochishgi bilan karavotda yotgan xotini bilan bolasini ko‘radigandek edi. Avval bo-

lasini qo‘liga olib, uni to‘yib tomosha qiladi, yuz-ko‘zidan o‘ziga o‘xshash chizgilarni qidiradi. Keyin xotinidan hol-ahvol so‘raydi. Xotini uyini juda sog‘inganini, tez kunda bolasini olib, uyga qaytishini aytadi.

... Butun badani titrab turganini his etdi.

... Eshikni asta chertdi.

... Ichkaridan qandaydir ovoz keldimi? Hech narsa eshitilmadi.

... Sekin itarib eshikni ochdi.

... Karavotda yoshgina juvon yotardi.

... U ohista ichkari kirib, stolga o‘rnashdi.

... Nimadir demoqchi edi — demadi.

... Ayoldan nimanidir so‘ramoqchi edi — so‘ramadi.

Kichkina, shinamgina, bir kishilik palata. Demak, ayoli mana shu karavotda yotgan. Kuchli og‘riqni yengish uchun karavotning ana shu sovuq tutqichlarini changallagan. Uyqusiz kechalarda mana shu shiftga, devorlarga tikilib, uning har bir chizgisini tomosha qilib yotgan. Mana shu stol ustida u keltirgan yemaklarni tanovul qilgan, shu yerda unga atab maktublar bitgan...

Qo‘li bilan xuddi gul ustiga qo‘ngan kapalakni tutib olayotgandek ehtiyotkorlik bilan karavotni ushlab ko‘rdi.

Endi bu xonada boshqa ayol yotibdi. Shu qadar tinch, xotirjam yotibdiki, ikki yil tugul, ikki hafta ilgari bu yerda kimlar yotganidan ham xabari yo‘q. Ayni onda u faqat o‘zini, o‘z bolasini o‘ylayotir. Bilmaydiki, bu olam faqat uning o‘zi va bolasidan iborat emas. Bilmaydiki, u yotgan karavot o‘zi yashayotgan dunyo kabi, hayot kabi omonat. Ertaga bu yerda boshqasi yotadi, indin yana birovi... bilmaydiki, dunyo ming yillardan beri charxrpalak singari aylanaveradi, aylanaveradi...

Deraza osha dengizga boqdi. Dengiz shu qadar yaqin ediki, to‘lqinlarning nafis titrog‘ini ham his etish mumkin edi. Botayotgan quyoshning qonrang shafaqlari qo‘ynida bir kema muallaq turib qolgandek edi go‘yo. Dolg‘alar siypalayotgan bu oq kema dunyoning cheksizligini, bepoyonligini eslatib turardi. Ajab, o‘sha oqshom, ma’sum go‘dakning hali dunyo havosi tegmagan badaniga tig‘ botgan onda, quyosh nurlarini ko‘rmagan ko‘zlari ochilmay turib yumilgan damda ham dengiz hozirgidek sirli, maftunkor va

beozormidi? Chidolmadi. Toqati yetmadi. Xuddi hamma narsani xotirasiga muhrlamoqchidek so‘nggi bor... so‘nggi bor atrofga nazar solib, og‘ir qadamlar bilan eshikka yo‘naldi.

— Sizga kim kerak edi? — so‘radi ayol holsiz sasda, o‘rnidan turib, istihola bilan ustiga choyshabni tortgan holda.

U xuddi bu yerda o‘zidan boshqa odam borligini hozirgina anglagandek ilkis seskandi. Ortiga burilmasdan:

— Hech kim... — dedi. — Endi... hech kim kerakmas!..

Eshikni ochib, koridorga chiqdi.

KO'R JANGCHI

Urush haqida eshitishi bilan tayyorgarlikni boshlab yubordi. Uning jabhaga ketishga hozirlanayotganini ko'rgan xotini esa dod sola boshladi:

— Bizni kimlarga tashlab ketasiz? Sigirlarni buqaga kim qo'shadi, echkilarni o'tlatishga kim olib boradi, bog'ni, dalani kim sug'oradi?

U to'rvasini olib, bandini yelkasiga osdi va:

— Men askarman, jangchiman, — dedi. — Urush boshlangan bo'lsa, frontda jang qilishim lozim. Dushmanlar shu yergacha kelishsa, faqat sigirlaring, echkilaring emas, bu tuproqda yashayotganlarning hammasi tamom bo'ladi. Dushman hech kimga rahm qilmaydi...

Xotini uning nima demoqchiligini tushunmadi ham... Hovli eshigidan uyga qaytib kirdi, o'ziga qo'l silkigan eriga qayrilib ham qaramadi. Chunki sigirlarni buqa tomonga haydash, echkilarni o'tloqqa olib borish vaqti kelgandi.

Jangchi tog'lardan, qirlardan, to'zonli yo'llardan, qo'rquvdan titrayotgan qishloqlardan o'tib, jabhaning eng oldingi qatorlarigacha keldi va bu yerda o'zi kabi ko'ngilli ravishda jang qilayotgan botirlarga qo'shildi. Ko'ngillilardan tashkil topgan guruhlar turli hududlarda jang qilishayotgandi. Ular hech bir qo'mondonga bo'ysunishmasdi. Ularga faqat o'zlariga o'xshagan ko'ngilli xalq vakillari yordamga oshiqar, jabhaga o'shalar oziq-ovqat va qurol-aslaha olib kelishardi. Parokanda bo'lgan, qo'shini, quroli bo'lmagan mamlakatning ko'ngillilari zamonaviy qurollarga ega, dunyoning to'rt tomonidan bu yerga kelgan, professional yollanma askarlarga qarshi kurash olib borishardi.

Qurollari, asosan, ov miltig'idan iborat. Bir safar bosqinchi arman askarlarini o'rab olib yo'q qilishdi. Ana o'shanda hamma

avtomat va yetarlicha o'q-doriga ega bo'ldi. Yirtilib ketgani uchun sim bilan o'ralgan oyoq kiyimlarini askar etigi bilan, titilib ketgan kiyimlarini mosh rangli askar kurtkalari bilan alishtirib olishdi. Endi hammaning kiyimi, etigi yangi edi, qurollari, o'qdonlari, o'q-dorilari bor edi. Ishonch bilan jang qilishardi.

Uzoq davom etgan to'qnashuvdan so'ng panalarga chekinishar, olov yoqib choy qaynatishar, choy ichayotganda esa jang qo'shiqlarini aytib, ortda qoldirib kelishgan yaqinlarini esga olishardi.

Bir kuni jangchi do'stidan so'radi:

— Hozir sigirlaringizni buqaga kim qo'shyapti?

U ham javob berdi:

— Bizda sigir yo'q!

— Xo'sh, echkilarni kim o'tlatadi?

— Bizda echki ham yo'q... — do'sti kuldi. — Men shahardan kelganman, shuning uchun bizda na sigir, na echki va na o'tloq bor. Men faqat hozir mensiz nima qilayotgan ekan deb, ayolimni o'ylayapman. Sening xayoling esa sigir-buzoqda...

Shu aflozda bir yil jang qilishdi. Kunlardan bir kuni shundoq yonlarida snaryad portladi... Uyog'ini eslay olmadi. Ko'zini ochganda kasalxonada edi. Hammayoq zimiston, ovozlarni eshitar, lekin hech kimni ko'rmas edi.

Ovozi notanish kishi yonboshida turib gapirardi:

— Endi senga haqiqatni aytmasak bo'lmaydi. Ikkala ko'zingdan ham ayrilibsan, umringning oxirigacha ko'ra olmaysan. Endi jang qila olmaysan, seni uyingga olib borishadi. Siqilma, shukur, tirik qolding-ku!

Askar achchiq kulimsiradi:

— Tirik qoldimmi?! Bu ahvolda yashashdan nima naf? Ko'zi ko'rmagan odam urush ketayotgan o'lkada kimga ham kerak bo'lardi?

Bir do'sti uni uyiga olib bordi. Xotini ayyuhannos sola boshladi:

— Sizga bormang, dedim! Quloq solmadingiz! Xudo jazoyingizni berdi. Endi nima qilamiz? Sigir-buzoqlarga qarash, echkilarni o'tlatish, bog'-u dalani sug'orish yetmagandek endi sizni ham boqamanmi?!

U ma'yus tovush bilan javob berdi:

— Meni boqishing shart emas!

Ko'zlari ko'rmasdi; lekin qishloqdagi har uy, uylar orasidagi tor ko'chalar, bog'lar, hovlilarni, toshini, kesagi-yu daraxtini xotirasida jonlantirar, qo'lida hassa bilan uylar orasida, bog'-u hovlida aylanar, ko'zlari ko'rmasa ham qishloqda bir o'zi kezib yurishga o'rganardi. Avvaliga juda qiynaldi, lekin kun o'tgani sari o'ziga bo'lgan ishonch ortib bordi. Borib kelgan yo'llarni tovushlarga, hidlariga qarab xotirasiga muhrlashga urinardi. Tong saharlab sigir-buzoqqa qarar, echkilarni o'tloqqa olib borar, keyin esa bog'-u dalani sug'orardi.

O'q ovozlari borgan sari yaqinlashib kelardi. Chang-to'zonli yo'llardan uy-joyidan quvilganlar parishon ahvolda o'tib ketishardi. Urush maydonidan kelganlar dahshatli voqealarni gapirib berishardi. Ko'r jangchi ularga quloq solar, so'ngra yetto'laga tushib o'zi tayyorlagan "tut arog'i"dan bir shisha olar, hovlidagi tut daraxti soyasida o'tirib ichardi. Bo'lib o'tganlarni xayolida jonlantirgani sari qon yig'lardi.

Oradan ozgina vaqt o'tib, qishloq ichidan mashinalar, tanklar, jangchi askarlar ham o'ta boshladi. Askarlar chekinar, qishloqliklarni ham ogohlantirishardi:

— Shoshilinglar, qishloqni bo'shating, dushman kelyapti!

Ko'r jangchi hassasini silkitib, ovozi boricha qichqirardi:

— Qayoqqa qochyapsizlar? Biz ov miltig'i bilan jang qilib, qishloqlarimizni, mahallalarimizni dushmandan tozaladik. Sizda qurol-yaroq, o'q-dori, tank bor. Nega kurashmayapsiz?!

Unga quloq soladigan odam topilmadi. Odamlar ham askarlarga ergashib, qishloqni tashlab ketishdi. Ayoli ham qishloqdan ketish uchun hozirlik ko'ra boshladi, unga ham tayyorlanishini aytdi.

Ko'r jangchi:

— Men askarman, jangchiman, — dedi. — Hech qayerga ketmayman. So'nggi tomchi qonim qolgungacha kurashaman. Men bu qishloqda, bu bog'da, bu hovlida, ko'r bo'lsam ham, ko'zi ochiqlardek yashay olaman. Bu yerdan boshqa joyga ketsam, yana ko'rga aylanaman!

Xotini uni majburlamadi, ko‘r erini o‘ziga yuk qilgisi kelma-gandek edi go‘yo. Yeyishi uchun ozgina non qoldirdi va:

— Yerto‘lada piyoz, kartoshka, tarvuz va aroq bor! Yeb ichar-siz! Biz ketyapmiz, yaxshi qoling, armanlar bilan to‘yguncha jang qilaqoling!

Ko‘r jangchi chekinayotgan askarlardan qurol so‘radi. Askarlar unga:

— Qurolni nima qilasan?! Agar juda ham xohlayotgan bo‘l-sang, beramiz. Yetarlicha qurol va o‘qlarimiz bor, — deyishdi. Unga bir avtomat, bir quti o‘q berishdi.

So‘ng esa oralaridan kimdir uni chaqirdi:

— Yur, ketamiz, bir o‘zing nima ham qila olarding?

— Ketolmayman, — dedi. O‘girilib qishloq janubidagi tepalik-ni ko‘rsatib, qo‘shib qo‘ydi. — Men o‘sha tepalikkacha bo‘lgan joylarni ko‘ra olaman, tepalikdan oshib, boshqa joyga borsam, chindan ko‘r bo‘lib qolaman! Yo‘q, ketolmayman...

Askarlar va hamqishloqlar ketishdi. U uyga qaytib, divanga cho‘zildi. Kechki paytgacha o‘rnidan tura olmadi. Kech tushganini kun sovishidan, chang va quruq havoning namlanishidan sezdi. Aslida uning uchun na kunduz, na kechaning rangi bor edi. Ham-masi qop-qora...

Qishloqqa sukunat cho‘kdi. Chekingan askarlar ham ancha uzoqlashib ketishgandi. Tiq etgan tovush eshitilmaydi. Qishloq ko‘chalariga aylanish uchun chiqar, qishloqqa cho‘mgan sukunat yuragini ezardi. Qishloqliklar hayvonlarini, hatto qishloq qush-larini ham o‘zlari bilan olib ketgandek edi go‘yo. Tunda ayvonga chiqib, bor ovozi bilan qichqirdi, lekin unga hech kim javob ber-madi. Shu payt urushdan qochgan bo‘rilar uning ovozigaga uvillab javob qaytardilar. “Men sizlarni chaqirmadim, siz boshqa bo‘ri-larga javob bering” deb o‘yladi. Ikkinchi kuni ham unga faqat bo‘rilar javob bergach, qayta ayvonga chiqib baqirmadi. Insonlar bir-birini chaqirishi lozim bo‘lgan tuproqlarda inson chaqirig‘iga bo‘rilarning javob qaytarishi yaxshilik alomati emas edi.

To‘rtinchi kun qishloqqa 11–12 yoshlardagi bir bola keldi. Otasi, onasi va aka-ukalari armanlarga asir tushibdi. U devordagi kichik teshikdan chiqib qutulib qolibdi.

Bolaning qornini to‘ydirdi. Suv isitib cho‘miltirdi, kiyimlari yirtilib ketgandi, o‘z bolalarining eski kiyimlaridan berdi:

— Qo‘rqma, ye-ich, bolam, qo‘l-oyog‘ingga quvvat kirsin. Keyin biznikilar ketgan hududga borasan. Bu yerda qolishing xavfli. Armanlar hali zamon kelib qolsa ajabmas.

Kunduzlari bog‘ga kirib pomidor terishar, tarvuz uzib, bog‘dagi tut daraxti soyasiga olib kelishardi. Gulxan yoqib, kuliga kar-toshkalarni ko‘mishar, tarvuzni suvga solishar, sovigach, so‘yib ishtaha bilan yeyishardi.

Dushmanidan esa hali-hanuz xabar yo‘q. Bir kun, ikki kun, uch kun, bir hafta...

Uning iltimosi bilan bolakay har kun ayvonga chiqib, qo‘lini peshonasiga pana qilganicha qishloq yo‘llariga qarab kelardi.

Bir kuni shomga yaqin shamolning g‘arbdan olib kelgan temir, porox va ter hidini his qildi. Shamol o‘qlar, bombalar vayron etgan, ilma-teshik qilgan tuproqdan chang bulutni ko‘tarar, o‘sha bulutni tekislik bo‘ylab yoyar edi. Demak, bosqinchilar yaqinlashib qoldi.

Bolakayni chaqirdi, undan yana bir marta qishloq tomon kelgan yo‘llarga qarashini iltimos qildi. Erta tongdan mashinalar ovozi eshitildi. Ayvonga chiqqan bolakay ichkariga halloslab kirdi va qo‘rquvdan qichqirib yubordi:

— Kelishyapti, ikki mashina! Ustida esa askarlar bor...

Birga hovliga tushishdi. Soy toshidan urilgan devor orqasiga yashirinishdi. U bolakayga dedi:

— Tinchlan, qo‘rqma, endi diqqat bilan qara. Chapda quyosh turibdi, o‘ngda esa tog‘lar. Mashinalar tog‘ga yaqinmi yoki quyoshgami?

— Tog‘ga!

— Juda yaqinmi?

— Ha!

— Boshingni ko‘tarma. Qayerdan kelishayotganini tushundim.

Ko‘r jangchi quloq solganicha ovozning uzoqligini bilishga urindi va tovush kelayotgan tarafdagi mashinalarning joyini tasavvurida aniqladi. O‘q uza boshladi. O‘q nishonga tekkandi. Bolakay qichqirib yubordi:

— To‘xtashdi! Mashinadan sakrab tushishdi. Qochishyapti.

— Tog‘lar tomongami yoki quyosh tomonga qochishdimi?

— Quyosh tomonga!

U dushman askarlarining qayerga qochayotganini taxmin qildi va qayta o‘q uza boshladi, biroq ularning ovozi eshitmagani uchun nishonga urdimi-yo‘qmi ishonchi komil emas edi. Bolaga qarab:

— Endi boraqol. Kun botgungacha to‘xtama, soyang doim o‘ngga tushsin. O‘shanda biznikilarga qo‘shilib olasan. Qani, kech qolma.

Bolakay ikkilanib qoldi:

— Siz ketmaysizmi? — ovozi titrab ketdi. — Birga ketaylik, qo‘lingizdan ushlab yo‘l ko‘rsataman. Ketaylik, bo‘lmasa ular sizni o‘ldirishadi. Ular hammani o‘ldirishyapti!

U bo‘g‘iq tovushda:

— Sen bor, tezroq bo‘l, kech qolma, — dedi. — Men jangchi-man! Men askarman! Askar hech qachon Vatan tuproqlarini tashlab ketmaydi! Men shu yerda yashadim, shu yerda o‘laman.

Nihoyat bolakay uylar orqasidan chopqillab ketdi. Orada soyasiga qarar, soyasini o‘ng tomonga tushganini ko‘rib, yana yugurardi...

Ko‘r jangchi yoniga ikki-uch o‘qdon olib joyini o‘zgartirdi, qo‘shnisining molxonasi orqasiga yashirindi. Armanlar uning yolg‘izligini sezib qolishgandi, qishloqni o‘rab olib, to‘satdan hujumga o‘tishmoqchi edi. Chuqur nafas olib, havodagi har tovushni, har titrashni eshitardi.

Ilk qadam tovushini eshitishi bilanoq tepkini bosdi. Har o‘q uzganida joyini o‘zgartirar, eshitgan tovushiga, his qilgan hidiga qarab qayta o‘q uzardi. Dushmanlarning oyoq tovushlariga, mashinalarning ovoziga, hatto havodagi titrashlarga ham o‘q yomg‘iri yog‘dirardi.

Nihoyat, uni tuzoqqa tushirib o‘qqa tutishdi. Badaniga sanchilgan yuzlab o‘qlar uni ilma-teshik qildi-yu, o‘sha yerning o‘zida jon berdi. Ko‘r jangchi tug‘ilib-o‘sgan tuprog‘ida halok bo‘ldi.

Hammasi tamom bo‘ldi. Uylarning devorlaridan, tuproqdan ko‘tarilgan to‘zon, o‘t ochganda anqigan porox hidi, yongan uy-

larning tutuni qishloq bo‘ylab yoyilardi. Bir soniyagina atrofga chuqur sukunat cho‘kdi.

Askarlardan biri uning jasadi ustida hayrat bilan qichqirib yubordi:

— Buning ko‘zlari ko‘r ekan! Lekin biz bilan jang qildi! Bu ham yetmaganday o‘nlab askarlarimizni o‘ldirdi. Ko‘zlarimga ishona olmayman!

Askarlarning Yevropa o‘lkalaridan kelgan soqolli qo‘mondoni ham lol qoldi:

— Bu voqeada g‘ayritabiiy nimadir borligini sezgandim. Aql bovar qilmaydi.

Askar g‘azab bilan xirilladi:

— Men hozir bunga biz bilan jang qilish qanday bo‘lishini ko‘rsatib qo‘yaman. Avval quloqlarini, burnini kesaman, ko‘zlarini o‘yaman. So‘ngra esa badanini ilma-teshik qilaman, jasadini quzg‘unlar, yirtqich hayvonlarga yem qilaman.

Qo‘mondon askarni jerkib berdi:

— Tegma!

— Nega?

— Chunki u haqiqiy jangchi! Asl jangchilardek ko‘milishga arziydi!

Askarlar norozi bo‘lishsa ham qo‘mondonga e‘tiroz bildirar olishmadi. Qabr qazib ko‘r jangchini ko‘mishdi, qabri yonida qator tizilib, uning sharafiga osmonga o‘q uzdilar. Keyin esa ko‘r jangchining Vatanini bosib olish va bu tuproqlarda yashayotgan insonlarni o‘ldirish uchun yo‘lda davom etishdi.

YO‘QOTILGAN QUVONCH

Hashamatli zaldamiz... Hammayoq charog‘on, fotoapparatlarning chiroqlari ketma-ket yonib-o‘chadi... Taqdirlash marosimidamiz... “Turk dunyosiga xizmat” mukofoti topshirilayotgandi. Men ham taklif qilinganlar, to‘g‘rirog‘i mukofotlanganlar qatorida edim... Bularning bari tush edi go‘yo...

Mukofotni olar ekanman, sahnadan turib atrofni kuzata boshladim. Juda ajoyib manzara. Rang-barang porlagan chiroqlar, samimiyat to‘la nigohlar — balki menga shunday tuyulgandir — olqishlar va hokazo...

Marosim tugashi bilan ko‘zlari kulib turgan jurnalist oldimga keldi va ilk savolni berdi:

— Xonim, xursandmisiz?

Seskanib tushdim. Zero, qalbimning tub-tubida qontalash bo‘lib yotgan jarohatga tegib ketadigan savol berishlarini kutmagandim. Savolni tushunmaganga soldim o‘zimni.

— Nima?

U savolini yana takrorladi:

— Xonim, xursandmisiz?

Savolni ikkinchi marta xohlamayroq qaytargan jurnalist javobimni ham kutmay so‘zida davom etdi. Balki hayajonlanib ketganimni payqagandir:

— Qarang, bu mukofotni olganlarning barchasi quvonchda. Siz nimalarni his qildingiz, hissiyotlaringizni biz bilan baham ko‘rasizmi?

O‘sha paytda jurnalistga nima deb javob berganim yodimda yoq. Faqat tilimiz o‘rganib qolgan odatiy jummalarni arang aytganimni eslayman, xolos. Aslida o‘sha jurnalist rost aytayotgandi. Mukofotlanganlarning yuzlarida yog‘du seli, tuyg‘ular jo‘shqinligi, shodonlik, quvonch bor edi... Men esa ulardan farqli o‘laroq

qalbimning tubidagi yaraga malham bo‘ladigan biror nimani his qilmasdim, his qila olmasdim. O‘sha onda g‘am-anduh ufurib turgan, turli savollar bulutdek yopirilib kelgan dunyoga g‘arq bo‘ldim go‘yo. Tasavvurimdagi o‘sha olamga ilk odimimda esa ushbu savol ko‘ndalang bo‘ldi: “Qiziq, bu insonlar qanday qilib quvonyapti?”

Ammo, savolimni ovoz chiqarib ayta olmasdim, biror kimsaga ham bera olmasdim. Chunki ularning menga qarab ajablanishlari, “Qiziq, bunga nima bo‘lgan?” deyishlari tayin edi... Atrofimdagilarga yana bir-bir qarab chiqdim, rang-barang yog‘dularni tomosha qilgan bo‘ldim. Sal bo‘lsa ham qalbinga quloq solishga, hattoki tabassum qilishga urinib ko‘rdim... ammo... Anglab yetganim shuki, o‘sha daqiqalarda qalbim bo‘m-bo‘sh edi! Mana bu bezatilgan zaldagi insonlarning hayajon-u hissiyotlarining bir chaqalik qiymati yo‘q edi...

Mehmonxonaga qaytganimda, vaqt allamahol bo‘lib qolgandi. Men ko‘pincha mehmonxonaga joylashganimda ajib xayollar ummoniga g‘arq bo‘laman... Najip Fozil Qisakurakning “Mehmonxona xonalarida” she‘ridagi yoki o‘zimizning xalq yozuvchisi Anorning “Mehmonxona xonasi” romanidagi kabi... bir tarafda zulmat, bir tomonda sovuq devorlar, yana boshqa tomonda bu “odamlarning quvonchi” ko‘nglimni g‘ash qilgandi. O‘yga cho‘mib, o‘zimga o‘zim savollar yog‘dira boshladim. Buguri o‘sha mukofotni olayotganda nega ko‘nglimda qandaydir sevinch, g‘urur tuyg‘usi uyg‘onmadi? Nega jurnalist ko‘rgisi kelgan o‘sha quvonchni tuymadim? Balki muammo o‘zimidir! Balki insonlar bilan, hodisalar bilan, kim bilsin, “quvonch” atalmish his bilan chiqisha olmasman...

Savollarim va xayollarim go‘yoki bir oynaga borib tegdi-yu, oynani chilparchin qildi. Bir yondan esa meni qaysidir mukofotni olayotganimda o‘zi hech sevinganmidim, degan o‘y qiynay boshladi. Olgan mukofotlarim, qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarim, menga aytilgan maqtov-u olqishlar, balandparvoz gaplarni eslashga urindim... O‘tgan kunlarimga qisqagina sayohat qilar ekanman, ikki qo‘lim bo‘sh qaytdim... Go‘yo xotiramni yo‘qotgan, hech narsani eslay olmayotgandek edim. Hayotda erishganlarimning barini

shu kungacha oddiy holdek qabul qilganimni sezdim. Hech bir ahamiyati bo‘lmagan oddiy voqealar...

Sal o‘zimga kelib, derazadan shaharning go‘zalligini tomosha qila boshladim. Kimdir quloqlarimga “baxtli emassan”, “baxtli emassan” deya shivirlagandek bo‘ldi. Seskanib, atrofimga alangladim, hech kim yo‘q... Bu balki qalbimning sasidir. Balki... Balki quvonish qo‘limdan kelmayotgandir, deb o‘zimni ayblay boshladim. So‘ngra yana o‘sha taqdirlash marosimini esladim... O‘sha jurnalistni esladim... Va ruhimni tanimdan ayirgan o‘sha savolni:

“Xonim, xursandmisiz?”

Aslida o‘sha kuni qalbimni larzaga solgan voqea kabi hollar tez-tez bo‘lib turadi. O‘sha kuni bo‘lib o‘tganlar meni xotiralar sari yetakladi. O‘sha kecha ko‘zimga uyqu kelmasligiga amin bo‘ldim... O‘tirib, o‘tmish tasmasini asta-sekin ortga qaytarib, ko‘zdan kechira boshladim... boshimdan o‘tganlarni qayta his qilishga, o‘z hayotimni o‘lchab-bichishga urindim. Ilk xotirlaganim esa bolalikdagi do‘stimning aytgan gaplari bo‘ldi:

“Nega to‘ylarda, bayramlarda chin dildan raqsga tushmaysan? To‘ylarda o‘ynasang ham go‘yo majburan, kimlarningdir ko‘ngli o‘ksimasligi uchun harakat qilasan. Yoshligingda bunday qiz emasding, shodon va xushchaqchaq, hayotga chanqoq eding, senga nima bo‘ldi?”

Men esa unga:

“Ishonasanmi, raqsga tushishga, quvonishga na havasim, na istagim bor. Ora-cho‘ra to‘ylarda, bayramlarda do‘stlarim xafa bo‘lmasin deb qo‘limni ko‘tarib qo‘yaman, xolos”, degandim.

U esa hayrat to‘la ko‘zlari bilan menga tikilib:

“Qanaqasiga? Hecham sevinmaganmisan?” degandi.

Men:

“Yo‘q, sevinmaganman”, degandim...

Xonadan turib shaharni tomosha qilar ekanman, eslashga urinib ko‘rdim... Shoir aytganidek: “Yillar to‘zoni bor edi xotiralar-da...” Hayotimning ba‘zi lahzalari qisqa metrajli filmdek ko‘z oldimdan o‘ta boshladi...

Endigina o‘n uch yoshga qadam qo‘ygan shaddodgina qiz edim. Hayot ham go‘yo mening quvonchimdan ming bir rang olib,

tabiat ila baham ko‘rayotgandek. Lekin bir kunda hammasi o‘zgarib ketdi, hammasi... O‘sha kuni buvimning uyi odamlarga to‘ldi. Kimdir yig‘lar, kimdir faryod urar, yana kimdir nimalarnidir aytib berardi. So‘zlar esa mening xotiramga uzuq-yuluq, chala-yarim shaklda yozilardi... Ayollar “Uyim..., joyim...” deb ingrar edilar. Ular Armanistondan surgun qilingan oilalar edi... Bir necha oilaga buvimning uyi boshpana bo‘lgandi. Ular bilan birga buvimning ham har bir kuni g‘am-g‘ussaga to‘lgan edi. Ularning anduhi, dardini biroz bo‘lsa ham yengillatish uchun buvim qo‘lidan kelgancha harakat qilardi, o‘z uylaridek his qilishlarini istardi. Lekin hech bir uy insonning o‘z uyidek bo‘la olmas ekan. Buni o‘sha damlarda tushunib yetdim...

Yillar bir-birining ortidan yugurgan, lekin hech qovusha olmagan g‘amboda sevishtanlarga o‘xshar edi... Shu alfozda ikki yilni ortda qoldirib, o‘n besh yoshga to‘ldim... Lekin o‘n besh yoshim, qayg‘uli, falokat olib kelgan yosh bo‘ldi. Hayotimda jonimdan ortiq ko‘rgan dadamning bir kechada qarib ketganiga guvoh bo‘ldim... Sababi nima deysizmi? Sababi 20-yanvar voqealari edi...Sovet qo‘shini 20-yanvarda Bokuda katta qatliom uyushtirgan edi. Biz o‘sha damda Tovuzda yashardik, lekin oilamizning ko‘pchilik a‘zolari Bokuda edi. O‘sha mahallar Boku bilan aloqa qilish, u yerdan xabar olish imkonsiz edi. Bir-biridan dahshatli xabarlar yetib kelar, ularning oxiri yo‘qday edi! Ukam, amakilarim, xolam, ammam, tog‘alarim... Hammasi Bokuda, biz esa ulardan xabar ololmasdik. Faqat ko‘p sonli begunoh insonlar qatl qilinganligi haqidagi shov-shuvlarni eshitib, xavotirdan o‘la-yozgandik.

Ertasi kun... O‘sha dahshatli manzaralar... Qonga belangan, jasadlar bilan to‘lgan maydonlar... Vahshiylarcha qilingan ishlardan lavhalar... Go‘yo ichimda nimadir chirt etib uzilgandek bo‘ldi. Yuragim tilka-pora bo‘lgani sari yuzimdagi tabassum, bolaligim, yoshligim erib, yo‘q bo‘lib ketayotgandek edi...

Keyin esa g‘am-g‘ussalarning keti uzilmadi... Armaniston bilan chegaradagi hududda yashaganimiz uchun har kecha hujumlar, to‘qnashuvlarning guvohi bo‘lardik... Odamlar aksariyat hollarda ko‘chalik kiyimlari bilan uxlashardi. Qurolsiz odamlarimiz av-

valdan yashirincha qurollanib olgan arman bosqinchilari bilan kurashar edilar...

1991-yil. O‘n olti yoshimda Ozarbayjon Davlat universiteti tibbiyot fakultetiga o‘qishga kirdim. O‘sha yillar biz uchun, biz qatori barcha uchun juda og‘ir va mashaqqatli yillar bo‘lgandi. Yo‘qchilik, qashshoqlik, yetishmovchilik, urush, to‘qnashuvlar, nizolar... Lekin eng katta iztirobimiz bular emasdi. Asosiy iztirobimiz, eng katta dardimiz bundan-da chuqurroq va og‘irroq edi...

Uy-joyidan quvilganlarni tashiyotgan mashinalar va o‘sha mashinalardagi odamlarning yig‘ilari yuraklarni tilka-pora qiladigan darajada ta‘sir qilardi. Hamma yer qochqinlar bilan to‘la, ular qayerdan joy topishsa, o‘sha yerga joylashishardi. Men ijarada turgan uy atrofidan ham joy olishgandi ...

Ularning hikoyalari... Tibbiyot fakulteti talabasi bo‘lganim sababli ko‘pincha kasalxonalarda bo‘lardim. Ishg‘ol qilingan hududlardan olib kelingan og‘ir yaradorlarning kasalxonada ko‘z o‘ngimda halok bo‘lishi... Yana nimalarni ko‘rmadim, deysiz...

O‘n olti yoshimda o‘lim men uchun oddiy holga aylanib ulgurandi... O‘lim qanchadan qancha yoshlarni, bolalarni, qariyalarni o‘z domiga tortib ketdi!

Yana kasalxonaning tez yordam bo‘limidamiz. Og‘ir yaralangan va jarohatlari xavfli bo‘lgan yoshgina qochoq juvon to‘shakda yotardi. Men unga hammasi yaxshi bo‘lishini, yaqinda tuzalib ketishini aytardim. Og‘riqdan to‘lg‘anayotgan ayol menga tikilib turib:

— Ertaga ancha yaxshi bo‘lib qolaman-a, — deb so‘radi.

— Ha, albatta, ancha tuzalib qolasiz, — dedim. Bir soniyaga bo‘lsa ham, yuzi yorishib ketdi. Ko‘ngli taskin topganini ko‘rib, davom etdim. — Menga qarang, men tibbiyot fakulteti talabasi-man, yaqinda doktor bo‘laman, shuning uchun ahvolingizni doktordek yaxshi bilaman. Ishoning, ertaga ancha o‘zingizga kelib qolasiz, — deb unga tasalli berdim.

— Bundan buyon yashaganimdan nima foyda? Bolajonimni asrab qola olmadim, — dedi juvon va yoshga to‘lgan ko‘zlarini derazadan uzoqlarga tikdi.

O‘sha kecha mijja qoqolmadim. Ayolni va dushman qo‘lida qolib ketgan bolasini o‘yladim... “Ertaga albatta o‘sha ayolni ko‘rishga boraman” deya o‘zimga so‘z berdim. Ertasiga ayol yotgan xonaga borganimda, uning o‘rnida boshqa odamni ko‘rdim. Ayolning qayerda ekanini so‘radim. “Kecha kechasi rahmatli bo‘ldi” deyishdi. Yuragimdan nimadir uzilib ketgandek bo‘ldi...

G‘am, iztirob, ko‘zyoshlari, jasadlar, parchalangan badanlar... Insonni dahshatga soladigan manzara. O‘sha vaqtlari Semashko kasalxonasi deb nomlangan kasalxona morgiga jasadlar olib kelinardi. Ba‘zi darslarimiz shu kasalxonada bo‘lgani sababli bu manzaraga tez-tez guvoh bo‘lardik.

Bir kuni morgga bir nuroniy odam keldi. U farzandini qidirayotgan ekan. Birdan keksaning haligacha quloqlarimdan ketmaydigan faryodini eshitdim.

— Ey, Xudoyim! Nega menga bu kunlarni ko‘rsatding? Endi o‘z bolamni qanday qilib tuproqqa qo‘yaman? Men kimning yelkasida ketaman? Allohim, menga farzand dog‘ini ko‘rsatding, boshqa ota-onalarga bolasining tobutini yelkasida tashishni ravo ko‘rma, Rabbim! Gunohim nima edi? Nega? Nega men?!

Qariya dodlab yig‘lardi. Bir zumga qariyaning yuziga, ko‘zlariga boqdim. Yo‘q, aslida uning ko‘zlaridagi yosh emas, isyon edi. Lekin tog‘dek odam ko‘z o‘ngimda so‘lib borayotgandek edi... O‘zimni tutolmay, ho‘ngrab yubordim. Ko‘z yosh to‘kar ekanman, qalbim yana chilparchin bo‘ldi...

Singlim Kamola hali bola edi, bir kuni kasal bo‘lib qoldi. Oyimga tinmay:

— Oyi, tashqaridagi g‘ala-g‘ovurni eshityapsizmi? Kelib bizni ham o‘ldirishadi, unda nima qilamiz, — deb alahsirardi.

Oyim esa uni tinchlantirishga urinib:

— Kamola, qo‘rqma, dushman yaqinlashsa, qochamiz, — der edi...

— Kiyimlarimiz, narsalarimiz nima bo‘ladi? Kasalman-ku, qanday qochaman...

Onam nigohlari bilan uni tinchlantirishga, hammasi yaxshi bo‘lishiga ishontirishga urinardi. Men esa bir chekkada turib, singlimning ahvolini kuzatardim.

Kamola beg‘ubor ko‘zlari bilan uyimizga alangladi. Yo Rab! Bu to‘qqiz yoshli qizning emas, boshidan ne-ne kunlar o‘tgan ellik yoshli ayolning nigohi edi...

U yana:

— Uyimiz-chi? Uyimiz nima bo‘ladi? — dedi...

O‘shanda bu savol javobsiz qoldi, onam bu savolga javob bera olmadi...

Hech birimiz bechora Kamolani tinchlantira olmadik... U tinmay yig‘lar, go‘yoki uyimizdan ayrilib qoladigandek edi. Men uy yo‘qotish nima ekanini ana o‘shanda dahshat ichida anglab yetdim... Qochoqlarning, surgun qilinganlarning uy-joy, yurt hasratini chuqurroq his qildim. Bu kishilarning ruhiy ahvolini, his-tuyg‘ularini tushunib yetgandim... Singlimga qo‘shilib onam ham yig‘ladi, men ham... Kamola esa tinmay takrorlardi:

— Biz kimga nima yomonlik qildik? Nega bizni o‘ldirishmoqchi? Uyimizdan hech qayoqqa ketgim kelmayapti... Oyi, nimadir qiling, — deb yig‘lardi, u yig‘lagani sari ichimda nimadir uzilar, nimalardir chilparchin bo‘lardi.

Otam juda qaysar odam edi, uyini tashlab ketish haqidagi o‘y uni ham bezovta qilayotgandi. Tinmay:

— Bolam, o‘ligimiz ham, tirigimiz ham shu yerda bo‘ladi, — derdi.

Har kunimiz qo‘rqinchli tushdek o‘tar, tong otib, quyosh chiqqanida:

— Xudoga shukur, yana bir kunimiz tinch o‘tdi, — derdim.

Qochish... Ko‘chmanchilik... Quvg‘in... Go‘ycha, Zangazo‘r, ortidan Xonkendi aholisining surgun qilinishi... Buning keti ko‘rinmas, har kuni Qorabog‘dan yangi qochqinlar, yangi oilalar kelardi...

Keyin esa Qoradog‘li, Ag‘daban qishloqlarida xunrezliklar ro‘y berdi... va nihoyat, Xo‘jali qirg‘ini bizni larzaga soldi...

So‘ngra Shusha ayrilig‘i, Lochin, Kalbachar, Ag‘dam, Zengilan, Qubadli, Jabroyil, Fuzuliy!

Har falokatda qalbim parchalanib, yuragim kuyib boraverdi ...

Sinfdoshtarim, do‘stlarim, tanishlarim xazon yaprog‘i kabi to‘kilib, falokat bo‘ronida sovrilaverdi...

Sinfdoshim Elshan... Uyimiz yonma-yon edi, qo'shni edik... Bir kuni shahid bo'lganini eshitdim. Ko'z oldimda maktabimiz, sinfimiz va Elshan bilan o'tgan kunlarimiz jonlandi. Yuragim yana chilparchin bo'ldi...

Oradan biroz vaqt o'tgach:

— Nag'i ham shahid bo'ldi, — deyishdi...

U bilan ham birga o'qirdik. Juda odobli, xushmuomala yigit edi... Qalbimda chidab bo'lmas og'riq turdi...

Keyin esa qardron ustozlarimizdan biri bo'lgan Temurbeyning o'g'li shahid bo'ldi...

Birga o'qir edik... Yana ichimda nimadir uzilib ketdi...

Hech qancha vaqt o'tmay:

— Shokir ham shahid bo'ldi, — dedilar. Hammamiz uni juda yaxshi ko'rardik...

Keyin esa Samir... Qardron do'stim Samir! Ko'z oldim qorong'ulashib ketdi... Samir qanchalar vatanparvar, qanchalar mard yigit edi! Juda zukko, yaxshi o'qir edi, juda katta orzulari bor edi! Ozarbayjonlar yashaydigan hududlarni o'zi chizgan xaritada bir-lashtirar, unga g'alati qaraganlarga:

— Hali ko'rasiz, albatta, shunday bo'ladi, o'sha kun keladi, — derdi.

Katta orzulari bor edi, juda katta... Hammasi armon bo'lib qoldi. Do'stim Samirni yo'qotdim. Qalbim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Ortiq yig'lay olmasdim, go'yo ko'zyoshlarim qurib bitgan edi.

Yana ozgina vaqt o'tib, Ozar shahid bo'ldi... Ozar bir paytlar boshidan ne-ne og'ir kunlarni kechirmadi, deysiz... Oilaning barcha yuki uning yelkasiga tushgandi...

Do'stlarimni birin-ketin yo'qotaverdim... Hamma singari...

Yo Rab! Qanday rejalarimiz bor edi. Maktabda nimalarni niyat qilmadik! So'nggi qo'ng'iroq chalganda nimalarni gaplashmadik! Xotira albomimni aytmam ham bo'ladi... O'sha albomga hali ham tega olmayman, hali ham...

Bir kuni:

— Ali urushda qo'lidan ayrilibdi, deyishdi. Sinfimizning suyukli Alisi! Qo'y og'zidan cho'p olmagan, yuvosh va muloyim

Alini bu ahvolda ko‘rish uchun o‘zimni tayyorlashimga ancha vaqt ketdi. Yig‘lamasligim, o‘zimni unga matonatli ko‘rsatishim lozim! Uchrashdik va bir-birimizga tikilib qoldik. Ikkimiz ham sukut saqlardik, ammo yuragimda chidab bo‘lmas og‘riq turdi, taranglashib turgan ip uzilib ketdi... Ikkimiz ham yig‘lamadik, lekin uyga kelib, o‘zimni bosolmay qoldim, o‘ksib-o‘ksib yig‘ladim. Yig‘laganim sari qalbim tilka-pora bo‘lardi...

Oradan ancha vaqt o‘tishiga qaramay, vaqt dardimizga malham bo‘la olmadi. Hayotning achchiq siymosiga yana o‘sha tuyg‘ular, iztirob to‘la ko‘zlar bilan boqardim. Bu tuyg‘ular qalbimda chuqur iz qoldirgandi. Kunlarning birida sinfdoshlarimizdan birining to‘yiga bordik. Sinfdoshlarim qo‘ymay meni ham raqsga tortishdi. Qo‘l ko‘targanimni bilaman, ko‘zim chetda turib bizni, ya‘ni sinfdoshlarini tomosha qilib turgan Aliga tushdi. Ali juda yomon ahvolga tushganimni sezdi va darhol sog‘ qolgan qo‘lini ko‘tarib, tabassum bilan raqsga tushayotgandek yonimizga keldi... O‘sha onda uning ichidan nimalar o‘tganini eng bag‘ritosh odam ham his qila olardi.

To‘ydan ko‘zim to‘la yosh bilan chiqdim. Qalbim yana vayron bo‘ldi...

Butun vujudimni chulg‘ab olgan bu iztirobni boshqa to‘yda o‘ynash uchun turganimda his qildim. Shahid bo‘lgan sinfdoshimning qora ro‘mol o‘ragan onasi menga qarab turganini ko‘rdim. Ey, Xudoyim! U nigohlarda nimalarni ko‘rmadim! Xuddi o‘z farzandiga qarab turgandek edi, umr daftarini varaqlab, xotiralarni yodga solardi... Kim bilsin, “Tirik bo‘lganida mening bolam ham shu yerda o‘ynardi, hozir bular bilan tengdosh bo‘lardi,” deb o‘ylayotgandir. Onaning nigohlari yuragimda bitmas jarohat ochganday bo‘ldi.

Ichimda har kuni nimadir uzilib borar, chilparchin bo‘lardi...

Kasalxona yaradorlarga to‘la. Yaqinlarini, oilasini yo‘qotgan kishilarning soni borgan sari ortib borardi. Ularning ichida ko‘zidan ayrilgan qiz bor edi...

Bir kuni uni ko‘rish uchun yoniga borib, biror nima kerakmi yo‘qligini so‘radim:

— Faqat va faqat ko‘zlarim kerak, — dedi...

Hayotining eng baxtli onlariga yeta olmagan bu qizni yana qanday iztiroblar kutmoqda edi! Hayhot! Qalbim tinmay vayron bo'laverdi...

Asli qorabog'lik bo'lgan bu qizning xonasida o'tirgandim, uning zulmat ummoniga g'arq bo'lgani yuragimga xanjar sanchar edi. Nimadir qilish kerak, lekin qo'limdan hech nima kelmasdi. U bilan uzoq suhbatlashar, ozgina bo'lsa ham yengil tortishini istardim. Bir kuni:

— Hatto shu xonadan ham tashqariga chiqa olmayapman, — dedi.

Bu so'zlari sabr kosamni toshirib yuborgan oxirgi qatra bo'ldi. Nimadir qilish lozim! O'sha qizga hech bo'lmasa sun'iy ko'z o'rnatish uchun pul yig'a boshladik...

Jurnalistlikni boshlagan vaqtlarim. Bir kuni qochqinlar yashaydigan chodir qishloqlaridan biriga bordim. U yerda bir soddadil oqsoqol bilan bo'lgan suhbatimizni hech qachon unuta olmasam kerak. Unga ajratilgan yordam mahsulotlarini olishni xohlamadi.

Qiziqib so'radim:

— Amaki, nega yordam ulushingizni olmayapsiz?

— Qizim, kimningdir qo'liga qarab qolish og'ir botyapti, bunga o'rganmaganman, — dedi.

Uning ulushini chodiriga olib bordim. Lekin o'sha daqiqalarda qalbim yana tilka-pora bo'ldi. Oqshom chog'i uyga qaytganimda, dadamni ko'rib o'sha odam yodimga tushdi. Dadamga o'sha mag'rur insonning gaplarini aytib berdim. Bu so'zlar dadamga o'qdek sanchildi, dadam bilan birga o'sha kecha rosa yig'ladik. Qalbim yana vayron bo'ldi...

Bosib olingan tumanlarning biridan quvilgan odamlar bilan reportaj tayyorlash uchun bordik. Tepalikda bir ayol o'tirardi. Unga yaqinlashib, biroz muddat jim qarab turdim. Keyin chiday olmay, qayerga qarayotganini so'radim.

— Qara, qishlog'imiz anavi yerda, lekin qishlog'imga bora olmayapman, — dedi.

— ...

Borib, ayolning yoniga cho'kdim.

— Anavi ko'rib turganing bizning qishlog'imiz, — dedi...

Go‘yo kimdir yuragimni sug‘urib olib, ombir bilan siqayotgandek bo‘ldi...

— Bolam, u yerlarning suvi, tuprog‘i, havosining o‘rnini hech qayerniki bosolmaydi. Bu yerda bo‘g‘ilib ketyapman. Qosh qorayganda, har kecha uyga ketgim keladi. Qara, bu yerdan 5-6 kilometr uzoqda, lekin bora olmayman. Borib o‘sha yerda o‘lsam edi, qabrimda tinch yotardim. Bu yoshimda bu yerlarda o‘lgim kelmayapti, hamma qon-qarindoshimning mozori o‘sha yerda.

Bir zum jimib qoldi. Keyin esa ko‘zlarimga tikilib so‘radi:

— Sen jurnalistсан, bilasan, biz qachon uyimizga qaytar ekanmiz?

— Xudo xohlasa... — dedim nochorlik bilan bo‘g‘iq ovozdada...

Uyiga qayta olmay qazo qildi... Ammo o‘sha ayolning umidvor nigohlari va ajinlari xayolimdan ketmaydi...

Qalbim tinmay vayron bo‘laverdi...

Xayollar mamlakatidan mehmonxonadagi xonamga qaytdim. O‘n uch yoshimda boshlangan kulfatlarga to‘la hayotim o‘ttiz yetti yoshimgacha shu aflozda davom etdi... Bu xotiralar og‘ushida kechasi bilan uxlay olmadim. Go‘yo o‘sha yillar film kabi ko‘z oldimdan o‘tib borardi...

Tong otay deganda, uyqu elitdi...

Elshan keldi va kulib:

— Qarab tur, dadang seni menga beradi, — dedi...

Men esa unga qichqirib:

— Yo‘q, bermaydi, sen yomon bolasan! Buning ustiga yaxshi o‘qimaysan, — dedim.

— Men hammadan yaxshi bolaman, ko‘rasan, senga buni isbotlayman...

— Yo‘q!

Cho‘chib uyg‘onib ketdim.

— Nega unday dedim, nega shahidni xafa qildim, — deb yig‘ladim. Qayta uxlashga urinsam ham uxlay olmadim. Tushning davomini ko‘rgim, tushda ham unga:

— Sen juda yaxshi yigitsan, — deb ko‘nglini olgim kelardi.

Nonushta uchun restoranga tushdim. Mehmonxona ofitsianti:

— Xonim, sizni televizorda ko‘rsatishdi, tabriklayman, — dedi, atrofdagilar ham menga qarab kulimsirashdi. Ba’zilar ofitsiant kabi tabriklaymiz, deyishdi. Men esa hech narsani his qilmasdim. Xayolim kecha ko‘rgan tushimda edi...

Meni xotiralarga, yaqin o‘tmishimga yollagan o‘sha jurnalist bilan yana uchrashuvimiz bor edi... Uning mendan so‘raydigan savollari va beradigan javoblarim haqida o‘ylay boshladim...

Bu xayollar bilan bo‘lib, o‘sha jurnalistning yonimga qachon kelganini ham ko‘rmay qoldim.

— Xonim, kecha juda hayajonda edingiz. Sizdan xursandmisiz, deb so‘radik, lekin javobini eshita olmadik... Endi hayajon ancha o‘tib ketgandir, shuning uchun qayta so‘ramoqchiman. Xonim, xursandmisiz?

— ...

O‘zimni quvongandek ko‘rsatishga qanchalik urinmay, qalbim bo‘m-bo‘sh. Hech nimani his qilmasdim. Shunda anglab yetdimki, qalbidan uzila-uzila ado bo‘lgan o‘sha “nimadir” — quvonch ekan...

GUNEL ANAR QIZI

OTAMGA

Qadrli otajon!

Qandaysiz? Sizda nima yangiliklar, bilmayman-u, lekin men har doimgidekman, buning ustiga juda sovqotyapman. Qish keldi. Bir necha kun ichida qor ham yog'adi. O'shanda bundan ham ko'p sovqotishim shubhasiz. Bilasiz, yolg'izlik...

O'n bir yil avval sizlar bilan yo'llarimiz ayro tushganidan beri, sizga juda ko'p maktub yozdim. Siz bu maktublarni yo olmagani, yoki umuman ochib o'qimagan ko'rinasiz. Kim bilsin, balki shunisi yaxshiroqdir. Maktublarimni olib o'qiganingizda, qay ahvoldaligimni bilib qayg'uga tushardingiz, balki vijdon azobida ezilardingiz. Shuni bilganim uchun sizdan gina qilmayman, og'ir vaziyatdaligingizni bilganim uchun ham indamayman. O'zimni hammasi joyidadek, hech narsa bo'lmagandek tutishga harakat qilyapman.

Tashqaridan qaraganda, hammasi o'z yo'lga tushib ketgandek ko'rinishi mumkin. Kim bilsin, balki chindan ham shundaydir.

Siz meni topshirib yuborganingizdan keyin ularning tilini o'rganishga majbur bo'ldim. Balki ishonmassiz, lekin hozir men faqat ularning tilida gapiraman. Avvallari bu tilni o'rganishga qiy-nalar edim. Ba'zan atrofimdagi insonlar men o'rgangan bu tilning o'z ona tilim ekanligini va shuurimda doim bo'lganini aytardilar. Go'yo siz bu tilni vahshiylik bilan kesib qatl qilgandingiz. Lekin ota, buning yolg'on ekanligini siz ham yaxshi bilasiz. Yodimda, siz har doim biz farzandlaringizga: "Turli tillarni o'rganib, kelgan mehmonlar bilan ularning tilida gaplashish lozim. Bo'lmasa mehmonlar ranjib, bizni mehmondo'st emas deb o'ylashadi", der edingiz. Rostini aytishim kerak, sizning bunday talabingizni hech ham tushuna olmasdim. Biz nega mehmonlar bilan ularning tilida gaplashishimiz kerak edi? Nega ular bizning tilimizni emas,

biz ularning tilini o'rganishimiz kerak edi? Buni endi tushunib yetyapman. Siz o'shanda uyalar edingiz. Mehmonlarning bizdan xafa bo'lishlaridan, bizni to'pori, qo'pol va dunyodan bexabar deb o'ylashlaridan qo'rqardingiz. Eh, ota!

Menga "Juda ko'rkamsan" deyishardi. Hammadan ajralib turishimni o'zim ham bilardim. Siz buni menga aytmasangiz ham yoqimli, kuchli va betakror ovozim borligini sezardim.

Esingizdami? Kayfiyatingiz yaxshi bo'lgan kunlardan birida menga: "Dunyo jannatga aylansa ham sen unutilmas mo'jizasan" degandingiz.

Endi o'ylab qolaman. Bularning bari kimga, nimaga kerak edi? Bu go'zallik bilan kimning oldida maqtanar edim? Kimga ham kerildim?

Endi tushunib yetdim. Holbuki, go'zallik baxtiqarolik ekan. Go'zallik atrofingdagilarni hasad o'tida yondirar, dunyoni ostin-ustin etar va oxirida esa hech kimga nasib qilmas ekan.

Menimcha, shunday bo'lishi kerakdek...

Bilasizmi? O'tgan yillar davomida ozib-to'zib ketdim, kasal bo'ldim, maftunkorligimni yo'qotdim va ancha badqovoq bo'lib qoldim. Menga harbiylardek jiddiy bo'lish yarashar ekan, shekilli. Rostini aytsam, bu jiddiylik, bu badqovoqlik menga nima uchun kerakligini o'zim ham bilmayman. Bu jiddiylik bilan kimni qo'rqitaman? Jigarlarimnimi? Siznimi?

Birga bo'lgan o'sha go'zal kunlarimizni sog'inaman. Ayrilganimizdan beri g'alati tushlar ko'raman. Bu tushlarda doim birgamiz. Ona tilimizda gaplashamiz. Men ham avvalgidek xotirjam, farog'atdaman, yasan-tusan qilib olganman.

Bemor ham emasman, hech qayerim og'rimayapti. Ha, yana-chi, o'tmishdagidek qo'shiq kuylayapman, ovozim yurtim tog'laridan oshib to'rt tomonga yoyilmoqda, yoyilmoqda, yoyilmoqda.

Ota, ismimni o'zgartirishganini bilasizmi? Hozir meni A... Yo'q! Ismimni tilga olishni ham xohlamayman. Ismimni eshitib dilingiz xufton bo'lishini istamayman.

Ota, balki sizga bu maktubni yozishim ham noto'g'ridir. Nega zozyapman o'zi? Siz muhim ishlaringizni tashlab nega meni o'ylashingiz, meni deb siqilishingiz kerak? Ishoning, kayfiyatini-

gizni tushirib, sizni xafa qilish niyatim ham yo‘q. Mayli, meni kechiring; lekin siqilyapman, ota! Ruhim iztirobda! Atrofimda hech kim yo‘q. Bittagina bo‘lsa ham tanish ko‘rmayapman. Har yerda, har qadamda faqat ular bor. Meni o‘zgartirish, o‘zlariga o‘xshatish uchun, so‘ng esa: “Qarang, buning badanida tug‘ma va bizga tegishli nishona bor” deyish uchun badanimga tamg‘a bosmoqchi bo‘lganlar bor!

Ota, boshqa chidolmayman, bardoshim yetmaydi. Sukut saqlayapman. Barcha haqoratlarga, tahqirlarga chidab, sabr qilyapman, lekin asta-sekin so‘lib bormoqdaman. Albatta, insonning o‘z ildizlarini butunlay qo‘porib tashlashi uchun o‘n bir yil yetmasligi mumkin; lekin bu ildiz ustida yangi nihollar va yangi nasl yetishtirish uchun o‘n bir yil yetib ortadi.

Mabodo bir kun ko‘rishsak, meni taniy olmasligingizga ishonchim komil. Chunki so‘nggi yillar azobi, iztirobi, nohaqligi va zulmi xotiramga o‘yib yozildi, yuzimda o‘chmas iz qoldirdi.

Ota, bularning barchasi uchun sizni aslo kechirmayman...

Sizga so‘nggi savolim bor:

Meni bularning qo‘lidan ozod qilishni istamaysizmi?

O‘g‘lingiz Qorabog‘ — 2002

UCHRASHUV

Avvaliga uning og'zi quriy boshladi. Asta-sekin tili taxtaga aylanib, tanglayiga qapishdi. Yutinmoqchi bo'ldi, uddasidan chiqolmadi. Borib, eski tashlandiq hovlining o'rtasidagi buloqqa engashib, suv ichmoqchi bo'ldi, o'rnidan turolmadi. Ko'zlarini arang ochdi. Oyoqlarini qidirdi. Tavba, nega oyoqlari ko'rinmayapti? Qo'li bilan paypaslamoqchi bo'ldi. Ajabo, qo'llari qani? Qo'rqib ketdi. Bolaligida tengqurlari bilan ba'zan chigirtkani tutib, qo'l-oyoqlarini uzib yerga tashlashar, bir-ikki soatda sho'rlik chigirtka chumolilarga yem bo'lardi. O'shanda jo'ralari bilan bu holatni zavq-shavqqa to'lib tomosha qilardi. Balki Xudodan qaytib, uning ham qo'l-oyoqlarini qirqib, qurt-qumursqaga yem qilish uchun tashlab ketishgandir?

Daf'atan onasining gaplarini esladi: “Bolam, tashqarida uxlama, itlar oyoq-poyog'ingni g'ajib ketmasin...” Kim bilsin, oyoq-qo'llari uni tashlab, yuvingani ketgan bo'lsa-ya! Ahmoqona fikr.

Birdan chirildoq bir ovoz qulog'iga chalindi. Kimdir g'ijjak chalayotirmi? Chirildoq sas quloqlarini teshib yuborgudek darajada kuchaya boshladi. Ich-ichidan so'kindi: “He, onasini... g'ijjak chalishni bilmas ekansan, chiyillab miyani achitishga balo bormi?” Tovush battar kuchayaverdi, u quloqlarini mahkam berkitdi. Barmoqlari qulog'iga tekkach, qo'llari qaytib kelganini payqab sevindi. Oyoqlarini paypasladi. Shukur, oyog'i ham joyida. Yana devorga suyandi. Chinqiriq asta-sekin azon ovozigga aylandi. Masjid yaqin edi. Zo'rg'a boshini ko'tarib, o'sha tarafga boqdi. Qiziq, masjid ham odamga o'xsharkan. Gumbazi kallaga, derazalari ikki ko'zga, ikkita minora esa najot so'rab tepaga ko'tarilgan qo'llarga o'xshab ketdi. Shu choq hushi minora tepasidagi muazzinga ketdi. Qiziq, shu choq masjidning “boshi” qichib qolsa-da, “qo'llari” bilan qashimoqchi bo'lsa, muazzinning holi ne kechardi?

Azon sasi tindi. Qosh qorayib kelardi. Ko‘chaning narigi tarafidan kelayotgan mashina ovozidan sergak tortdi. Shalog‘i chiqqan “Zaporoj” tarillagancha uning yonidan o‘tib ketdi-da, narigi ko‘chaga burildi. O‘zicha “Zaporoj”ga achindi. Jonivorning tili bo‘lganda, “Shuncha yil minib jonimni olding, loaqal endi tinch qo‘y, to‘kilib ado bo‘ldim-ku”, deya egasini so‘kib bergan bo‘lardi. Chindan ham bu mashina allaqachon nafaqa yoshiga yetgan.

Nafaqa deganda otasi esiga tushdi. Otasi ham xuddi ana shu eski “Zaporoj”ga o‘xshaydi. Allaqachon kuch-quvvatdan ketib, munkillab qolgan esa-da, qiltillab ishga borib keladi. Nafaqaga chiqqisi yo‘q. Boshqa nimayam qilardi bechora? Oilasini kim boqadi? “Qizlarimni chiqarsam, keyin dam olarman” degandi.

Oilasini eslab, xomush tortdi. Yana ko‘zlarini yumdi. Hamma narsani unutishga chog‘landi. Biroz shu holatda o‘tirdi. Qadam tovushlari eshitildi. Kimdir salom berdi. Ko‘zlarini arang ochib, yon-veriga alangladi. Birov ko‘rinmadi. “Hamsoyalardan biridir-da, hovlidan o‘tib ketdi-yov” deya xayollandi. Yaxshi bo‘lmadi. Odamni nazar-pisand qilmaydi, burni osmonda, deb o‘ylashadi endi. Mahalla-ko‘y xalqi yomon-da! Hamma narsani gap qilishadi.

Kimdir ko‘cha chirog‘ini yoqdi. Chiroq undan 20 qadamcha narida bo‘lsa ham yorug‘lik ko‘zlarini qamashtirdi. Beixtiyor ko‘zlarini yumdi. Burni qichimsiradi. Yana amallab ko‘z ochdi. Seskandi, burnining uchida qo‘nib turgan yirik bir chivin unga baqraygancha tikilib turardi. Biroz shunday turgach, chivin qo‘llari bilan yuzini ishqalay boshladi, ora-orada unga qarab-qarab qo‘yardi. Chivin unga oxirgi ish joyidagi boshliqni eslatdi. Tavba, odam chivindan ham jirkanchliroq bo‘larkan-da! Yaxshiyam u yerda ko‘p ishlamadi. Qochdi. Bechora otasi uni necha martalab kim-kimlarga yalinib-yolvorib ishga joylashtirdi. U bo‘lsa, nari borsa bir-ikki oy ishlab, qochib ketardi. Yo‘lini topolmadi-topolmadi-da!

Kutilmaganda, burni kattara boshladi. Burniga qo‘shilib, chivin ham kattalashdi. Kallasi bu ulkan burunni ko‘tarolmay quyi egildi. Bahaybat chivin beo‘xshov tilini chiqarganча uni ermaklay boshladi. Bu ne ko‘rgilik, hatto chivin ham ustimdan kulayotir,

deya o'kinib qo'ydi. Yana chivinning ko'zlariga termildi. Shu tobda chivinning ko'zlari unga juda-juda tanish, qadrdon tuyulib ketdi. Ha, bu o'sha, o'shaning tanish shahlo ko'zlari edi. Ko'zlariga ishonmadi. Axir, bu xuddi o'shaning o'zi, dunyoga kelib, dunyoni tanib, faqat bir martagina butun borlig'i bilan sevgani — o'sha qiz edi bu. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Asta-sekin qizning yuzlaridagi chizgilar ham tiniqlashdi. Qanchalik aqlga sig'mas, g'aroyib bo'lsa-da, ajablanmadi. U avvaldan qizning kelajagini sezgandek edi. Daf'atan ko'zlarini piri-piratdi, negadir qo'rqdi. Yo'q, qiz hech qayoqqa ketmagan edi. O'sha holatda jimgina unga termilib turardi. Oxirida chindan uning borligini his eta boshladi. Avvallari shu qiz uchun o'lishga ham tayyor edi, qizni o'ylamagan biror kun bo'ldimi? Ana shular xayolidan kechib, badaniga titroq yugurdi va bu titroqdan chekinmoq uchun yana devorga suyandi. Ammo, shu asnoda nazarida devor qulab tushadigandek, o'zi esa toshlar orasida qolib o'ladigandek tuyuldi. O'rnidan turib, gandraklagan qiz tarafga yurdi. Qiz joyidan qimirlamas, xuddi taslim bo'lganini bildirmoqchidek, qo'llarini tepaga ko'targan cha unga sokin tikilib turardi. Qizdan bir qadam berida to'xtadi. Qo'llari bilan qizning nozik vujudini quchmoq istadi. Olti yil oldingidek qizning chinqirishidan, yuziga tarsaki tortib yuborishidan qo'rqdi. Ammo, qizning vazmin va xotirjam qiyofasidan bu safar biror og'ir so'z aytilmasligini angladi. Qavarib, qorayib ketgan qo'llari bilan qizning yuzlarini siladi. Qiz qarshilik ko'rsatmadi. Unga yanada yaqinlashdi. Iliq nafasi yuzlariga urildi. Qizning belidan quchdi va ohista boshini nafis yelkasiga qo'ydi. Ko'zlarini yumgan cha, shu alfozda bir necha soniya qotib turdi. Ammo, ilkis ichida bomba portlagandek bo'ldi. Anchadan beri qurib turgan og'zi suvlandi. Daf'atan tilga kirdi. Hayqirdi:

“Ha, nega kelding, sog'indingmi? Yo siqilib ketdingmi? Endi esingga tushdimmi, yo ering uydan haydadimi? Sen nima deb o'ylovding? Puli, boyligi uchun tekkanding, oxirigacha baxtli yashayman, deb o'ylaganmiding? Aslida seni o'ldirsa yaxshi bo'lardi. Meni nazarga ilmading, boyvachchani tanlading. Seni baxtli qila olishiga ishonding. Nima bo'ldi? Olti oydan keyin qaynatangni ushlab ketishdi. Sen o'tirgan uyni ham pullab, o'sha

firibgarni turmadan chiqardilar. Endi olti jon bo'lib, ikkita xonaga tiqilib o'tiribsanlar. Ha, nima bo'ldi yana? O'shanda men qanchalar qaqshagan edim, uvolim tutibdi-da! Endi yo'qsillikdan qiynalib, mening yonimga keldingmi? Kechiradi, deb o'ylaganmiding? Chuchvarani xom sanabsan. Sen odam emassan. Sen... Sen... bevafo san, odam emassan..."

Birdan nafasi qisildi. Yig'lagisi keldi. Qizni quchog'iga olib, ho'ngrashga tushdi.

"Oh, men seni o'zimdan, o'z hayotimdan ortiq sevardim. Butun borimni fido qilishga tayyor edim-a! Nega men bilan qolmading? Nega? Axir, sen uni ham sevmasding-ku! U ham seni sevmagandi, bunga ishonaman. Nega turmush qurdinglar? Eh, mening ham hayotim sen tufayli barbod bo'ldi. Oradan ko'p yillar o'tgan bo'lsa-da, har kun seni eslayman. Tushimda har kuni seni ko'raman. Menda qolib ketgan birgina suratingni o'paveraman, o'paveraman".

U gapirarkan, ko'z-yoshlari yonoqlarini yuvib borardi.

"Ketganingdan keyin hech qachon uylanmaslikka so'z berdim. So'zimda turdim ham. Chunki sendan boshqasini sevolmayman. Bu menga bog'liq emas, qo'limdan kelmaydi. Necha bor o'zimni o'ldirmoqchi bo'ldim. Ota-onamga rahmim keldi. Dardimni hech kimga tushuntira olmayman. Olti yildan beri ichimda saqlab yuribman. Yaxshiyam o'zing kelding. Qurboning bo'lay. Endi hech qayoqqa ketma. Meni yolg'iz qoldirma, jonim, yolvoraman..."

Ikki ayol gaplashganicha hovliga kirib kelishdi. Ulardan biri ikkinchisining gapini bo'ldi:

"Anavi yigitni ko'ryapsizmi? Qo'shnimizning o'g'li. Tup-pa-tuzuk oilaning farzandi. Otasi binoyidek o'qituvchi. Afsus, o'zi ancha noboproq bola chiqdi. Har kun shu tashlandiq hovliga kirib olganicha nashami, "gera"mi, bir balo chekadi. Keyin mana shu naqa devona bo'p qoladi. Ota-onasining sho'ri bo'ldi, bu dardisar".

Yigit esa hovlining o'rtasidagi qari tutning tanasini quchganicha ho'ng-ho'ng yig'lardi.

HASRATO'G'LI YOXUD UCHAR TOBUT

Laqabi Hasrato'g'li bo'lgan, go'yo asl ismi butunlay unutilgan odam o'z istagi bilanmi, hayotdan olgan saboqlaridanmi, yoki san'at ta'siri bilanmi, butkul boshqa odamga aylangandek edi... Ehtimol, umrining qolgan qismini avvalgidek o'tkaza olmasdi, lekin "bundan buyon"ga, uning "qanday"ligiga, "nima"ligiga cho'mib, xayolini to'fonlarga g'arq etishdan ham chekinayotgandek edi... Xo'sh, u "bundan buyon" degan bosqichga qanday tayyorlanishi kerak? Qaysi imkoniyatlar bilan? Necha yildan buyon ich-etini yeb bitirgan Hasrato'g'lining na sog'lig'i, na "cho'ntagi" bunga yo'l qo'yardi! Shoir aytganidek: "Peshonamni o'qiy olmayman, peshonam sho'rmi?" kabi holatda edi Hasrato'g'li...

Hasrato'g'li poytaxtning taniqli "Xor" jamoasi a'zosi edi, to'g'rirog'i o'zi solo ijro bilan shug'ullansa-da, taqdir uni "xor"-ga olib kelgandi. Endi esa oldin hech kuylamagan qo'shig'ining yakunida edi go'yo. Parda yopilguncha o'zida kuch topib, bor ovozi bilan kuylashi lozim edi. Orqa zimiston, faqat bu qorong'ilik ko'pgina insonlarga nurdek ko'rinardi. Oldindan yog'du taralardi, faqat manbai o'ziga ham noma'lum bo'lgan nur edi u: nimadandir umidvor, kimga ishonmoqda o'zi va qayerga boradi?! Qaniydi dirijor tayoqchasini ko'z oldida aylantirsa-yu, faqat u bilan ish-lasaydi; bu ahvolda esa "o'y-fikrdan harakatga" o'ta olmaydi... Unga Tangri bilan orasidagi rishta uzilgandek, aloqa robitasi buzilgandek tuyulardi...

Kecha kiyinish xonasidan chiqayotganida "Xor"ning ayol a'zolaridan biri bilan to'qnashib qolgan, ikkovining shoshqin qadamlari, yarim-yorti kiyilgan kiyimlari biroz noqulay vaziyatni yuzaga keltirgan, ustiga ustak Hasrato'g'lining dori ichish uchun olgan bir stakan suvi chayqalib, qizning oyog'iga to'kilgandi.

Seskanib ketgan qizning og‘zidan “Uying kuygur!” degan so‘z beixtiyor chiqib ketdi va shu damda u endi juda uzoqda qolgan qishlog‘ning gul-chechakka to‘la etaklarida, bir buloq boshida, ufq qizargan chog‘da bo‘gan bir uchrashuvni esladi. O‘shanda Hasrato‘g‘li qo‘lida ko‘za tutgan begona qizdan suv so‘ragan, olgan bir jom suvining yarmini ichib, qolganini qizning yalang oyog‘iga sepib yuborgandi. Qiz bexosdan “Voy, uying kuygur, yaramas!”, degandi. O‘sha buloq boshidagi uchrashuvdan so‘ng uzoq muddat bir-birini ko‘rmaydigan bo‘lib ayrilgan bu ikki navqiron yillar o‘tib tor dahlizda dong qotib qolishgandi. Hasrato‘g‘li “Qarg‘ishning amalga oshdi, uyim kuydi, ko‘ngling xotirjam bo‘lsin”, degisi keldi-yu, aytolmadi...

Dirijor dedim-u, yodimga tushdi. Dirijorning xalqaro musobaqada yutib olgan oltin tayoqchasi bor edi. Maestro o‘sha oltin tayoqchasini juda muhim konsertlarda ishlatardi. Hasrato‘g‘li maestroning faqat unga ishonib topshiradigan bu tayoqchasini oxirgi marta qo‘liga olganida, qishlog‘ida so‘nggi dafn qilingan qariyaning qo‘ltig‘i tagiga qo‘yilgan buta shoxini eslab, peshonasidan muzdek ter chiqib ketdi. Ularning uzoqlarda qolgan qishloqlarida qadimdan qolgan odat-an‘analari bor edi. O‘lgan odamning qo‘ltig‘iga bittadan tayoqcha qo‘yishardi. Aytishlaricha, dafn tugab, ilk tunda qabr imtihoni boshlagach, o‘lik oyoqqa turadi va tayoq o‘shanda qabrdagi insonga yordamga shoshiladi...

“Tangrining so‘nggi elchisi buyuradi: “Insonlar uyqudadir, qachon o‘lishsa — o‘shanda uyg‘onishadi”. Hech kim qaytmagan qabr olami — dunyoning so‘nggi va oxiratning ilk manzilidir. Hasrato‘g‘li shu kunlarda o‘qigan kitobidagi bu satrlar tagini chizib qo‘ygandi.

Ha, Hasrato‘g‘lining o‘y-xayollari beqaror, halovatini yo‘qotgan. Qayergadir borishi lozim, ammo qanday qilib boradi? O‘zi nima uchun bormoqchi, nimaga? Uni kim, qayerda, qanday va nima uchun kutmoqda? Uyqulari notinch, turmushi parishon, kelajagi o‘zi tomonidan ham tasavvur qilib bo‘lmaydigan bir odam edi Hasrato‘g‘li. Bu kamlik qilgandek, Hasrato‘g‘lining doim qaysarlik qilishi ortiqcha... O‘z bilganidan qolmas, o‘zi istagandek kuylar, o‘z bilganidek o‘ynardi... Xuddi orkestr a‘zolari unga

moslashishi kerakdek, dirijor uni o‘ylab, tayoqchasini o‘ynatishi lozimdek... Hasrato‘g‘li uchun “nota”larning qorishib ketishi, to‘vushning yetti toni buzilishining ahamiyati yo‘q. Zamon, makon, miqdor, og‘irlik, hajm, son... — go‘yo hamma narsa bir onda shaklini o‘zgartirgan, qaytadan shakllangan va qaynar qozon ichida aralastirilgan, yangi o‘lchamli narsa yaralgandek tuyulardi...

* * *

Vaqtinchalik joylashishgan yotoqxonalarida Hasrato‘g‘li o‘tirgan joyida mudradi. Uning so‘nggi uyqusi tong otmasdan otabobolarining yurtiga safariga “bag‘ishlangandi”. Oxirgi tengdosh hamqishlog‘i ham urushda shahid bo‘lgani haqida xabar topgach, “sog‘lig‘im jangga borishga yo‘l qo‘ymasa ham, bu tor, katalakdek yotoqxonada jon berish yo‘q, hech bo‘lmasa o‘z qishlog‘imga borib, buloq boshida omonatimni topshiraman” degandi.

Ha, Hasrato‘g‘li “ketaman” dedi, eshitganlar esa buni hazilga yo‘yib, parvo qilishmadi. Nima bo‘lganda ham ismidan ma‘lum...

Boshingizni og‘ritib nima qildim, gapning qisqasi, ertalab hamma o‘rnidan turganida, u ko‘zlarini abadiy yumgani ma‘lum bo‘ldi... “Rahmatlining yuz-ko‘zida yo‘qotganini topgan odamning xush tabassumi qotib qolgandi. Tug‘ilib-o‘sgan yurtiga tushida borgan va o‘sha shirin hayotdan uyg‘onishni o‘ziga ep ko‘rmagandi... Aytgan so‘zini tutadigan odam edi, tushida bo‘lsa ham, so‘nggi so‘zining ustidan chiqibdi...” Hasrato‘g‘li u haqida boshqasining gapirayotganini eshitar-eshitmas uyqudan sapchib uyg‘ondi...

Hasrato‘g‘li... Hasrato‘g‘li. Hasrato‘g‘li! Umidingizni puchga chiqarishni istamayman-u, lekin bu uning so‘nggi uyg‘onishi edi. Go‘yo yuzida qotib qolgan tabassum erib yo‘qqa chiqmasdan oldin qaytadan boshini yostiqqa tashladi, uyquga ketdi-yu alahsi-ragancha jon taslim qildi. Boku tirbandligidan noliyotgan “tez yordam” doktori qisqacha izoh berdi: qora jigar sirrozi...

Hasrato‘g‘lining cho‘ntagidan bir parcha qog‘oz chiqdi. Egri-bugri yozilgan yozuv musiqa ishoralariga o‘xshab ketardi: “Ortga qaytmoq istamayman, olg‘a yurish qo‘limdan kelmaydi!”

Bu bir jumllalik “vasiyat“ning ilk variantini quyidagicha bo‘lgani ochiq-oydin ko‘rinib turardi: “Ortga qaytmoq istamayman, olg‘a yurishning esa imkoni yo‘q!” U o‘z yozganini yengilgina o‘chirib, tuzatgandi — xuddiki taqdiriga yozilganlarni o‘zgartirgandek...

* * *

“Xor” jamoasi o‘zlarining burchlari deb bilishgan chog‘i, dafn kuni qabristongacha oq-qora rangning, sasning, borliq va yo‘qlikning san‘at uyg‘unligi ramziday tuyulgan namunaviy kiyimda kuy chalib borishdi... “Xor” nimani chalishiga qaramay, atrofga faqat “Qorabog‘ shikastasi” taralardi... Sozandalar lol qolishgandi, ular nimani chalishsa ham taralayotgan kuy “Qorabog‘ shikastasi” bo‘lib chiqardi, “Qorabog‘ shikastasi!” Tinglovchilar esa ijrochilar ataylab “Qorabog‘ shikastasi”ni chalib, kuylashyapti deb o‘ylashardi...

Hasrato‘g‘li asli qorabog‘lik, uni Boku yaqinidagi “Qochoqlar qabristoni”ga dafn qilishlari lozim edi. Ammo go‘rkovlar Hasrato‘g‘lining tobuti ularning yonidan o‘tib ketganini ko‘rib ishlarini chala qoldirib, tobutni olib ketayotgan karvonga ergashishdi. Bir payt kuylay-kuylay Bokudan chiqib, Qorabog‘ga yo‘l olishganini sezib qolishdi.

Og‘ir dard go‘yo hammani yengillatgandek, xuddi charchoq, qo‘rquv hissi, uzoq masofa-yu kecha-kunduz duch kelishlari mumkin bo‘lgan tikanli to‘siqlar, minali maydonlar haqiqati unutilgan. “Xor” ham xorligidan chiqib, solo-ijroga aylangan... Biroz vaqt o‘tib, muayyan yo‘l bosib o‘tilgandan so‘ng esa tobutni yelkalab ketayotganlar ham ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, biroq Hasrato‘g‘lining tobuti hali ham ilgarilab borardi.

Tobutni kim olib ketyapti, yo Rab?! Tobut qanot chiqardimi? Yo‘qsa, yo‘qsa, Hasrato‘g‘li o‘zini o‘zi olib ketyaptimi?

*“Xalqimga foydam tegmadi
Kelganimdek ketmoqdaman,*

*Bir boshim shunday yuk bo‘ldi,
Boshim olib ketmoqdaman,*

*Uyatdaman, uyatdaman.
Daraxt bo‘ldim, daraxt qoldim,
Bitta meva berolmadim,
So‘lib-so‘lib ketmoqdaman,
O‘tin deb ham yondirmaslar,
Uyatdaman, uyatdaman.*

*Zotan yolg‘iz uyalishni o‘rgandim,
Uyalib yashadim, uyalib o‘ldim.
Qarang hozirda hech foydam tegmagan insonlar
Go‘yo tobutimni qasddan olib ketmoqdalar..
Yolvoraman, unday qilmang, ezilaman..
Tushiring, Xudo haqqi, ovora bo‘lmang,
Men o‘zim ketaman,
Uyatdaman, uyatdaman.” —*

Onado‘lilik shoir Zaim Go‘kning bu she‘rini yoddan aytayotgan o‘sha Hasrato‘g‘li emasmi bu?

...Tobutdan ancha orqada faryod ko‘tarildi: “Yaratgan Egam, jonini olgan bandang o‘z-o‘zini Qorabog‘ga olib ketyapti, uning yo‘lini o‘zing och, qabrini o‘zing qaz, bizni ham o‘zing mag‘firat ayla...”

Absheron,
2009-yil, 4-noyabr

TELEFON O‘YINI VA AYANCHLI INTIHO

Maktabni bitirar chog‘imiz...

Qishlog‘imizga bahor kelay deb qoldi. Haftada ikki-uch marta yomg‘ir yog‘sa ham darrov ortidan quyosh chiqib, namli tuproqdan bug‘ga qo‘shilgan shudring hidi atrofga taraladi. Qo‘y-qo‘zilar toshlar atrofida endigina ko‘kara boshlagan yap-yangi o‘tlarni chimdib-chimdib yeyishadi...

* * *

Qishloqlarimizda bittadan telefon kommutatori va ikkita uzatuvchi stansiya qurishdi. Telefon kommutatori ikki qishloq orasida o‘rnatildi. Ikki qishloq orasi besh daqiqalik yo‘l bo‘lgani uchun qariyalar: “Bugun-erta bu ikki qishloq birlashadi” deyishardi. Shu sababli ham telefon kommutatorini ikki qishloq orasida qurishni ma‘qul ko‘rishgan.

Telefon uzatgichlarini kommutator o‘rnatilgan hududga qo‘yishning iloji bo‘lmadi. Ikki qishloq orasidagi hududda qoyalar ko‘p bo‘lgani uchun u yerda uzatgichlarga ma‘qul joy topilmadi. Shu tufayli narigi qishloqning uzatgich stansiyasi bizning qishloqqa, bizniki esa ularning qishlog‘idagi tepalikka qurildi.

* * *

Hamma bir gapni takrorlardi:

“Uni unashtirishmoqchi...”

U bilan men hali to‘qqizinchi sinfda o‘qir edik, lekin hamma shu gapni aytardi. Faqat na sinfdoshlarimiz, na u, na men bu gap-so‘zlarga ishonmasdik. Ishonmaganimiz uchun “uni unashtirishadi” deb gap tarqatib yurganlarni ermak qilardik. Keyinroq esa bu gaplar butunlay yodimizdan ko‘tarilib ketdi. Bir kuni: “Kuyovning oilasi maktabni tugatishini kutyapti, maktab tugashi bilan

uni unashirib qo'yishadi" degan mish-mish tarqaldi. Lekin men uyimizda hech bir o'zgarish sezganim yo'q. To'g'ri, har kuz oyim men va akamga atab nimalardir olib kelar, ba'zilarini dadamga ko'rsatar, ba'zilarini esa uyat bo'ladi deb hech kimga ko'rsatmay tuguniga yashirib qo'yardi. Keyin esa olgan narsalarining hammasini taxlab, kichik xonaga olib kirar, u yerdagi taxta sandiqqa solib, sandiqni qulflar va kelib dadamning hisob-kitob jadvali oldida uzundan uzoq hisobot berardi. Oyim dadamga hisobot berishga majbur edi. Sarflagan pulining hisob-kitobini tiyinigacha dadamga aytar, dadam esa u sarflagan pulning miqdorini o'zi chizgan jadvalining kataklariga birma-bir yozib chiqardi. Hisob-kitob ishlari yakunlangach, jimgina xonalariga kirib ketishardi.

* * *

Har ikki qishloqdagi odamlar bir-birining telefonini yoddan bilishadi.

Telefon jiringlaydi:

— ... Maktabda o'qigan paytlarida ham uni yoqtirmasdim. Uni juda yomon ko'raman!

— Hoy! Aldama! Xudo uradi-ya! Og'zing qiyshayib qoladi...

— Otam haqqi, rost aytyapman. Nega bunday deyapsan? Uning basharasini ham ko'rgim kelmaydi. Ko'rasan, birortasi bilan qochib ketaman. Unga tekkandan ko'ra duch kelgan yigit bilan qochganim ming marta afzal...

— Qo'lingdan kelmaydi... Yolg'on gapiryapsan, — deb uni kalaka qilaman.

U esa asabiylashib, chiyillay boshlaydi. O'sha daqiqalarda yuzlarining qizarganini his qilaman. Bilaman, uning jahlini chiqarishim bilan yuzlari olovdek yonadi, menga esa ana shu qizarib ketishi juda yoqadi...

Bu qish maktabda qorbo'ron o'ynaganimiz yodimga tushib, dabdurustdan gapni burib yuboraman.

— Qayerdan esingga kelib qoldi, — deb so'raydi.

— Shunchaki, — deyman. — Esingdami, pechkaning yonida o'tirib isinayotgandim, yonimga kelib o'tirding, o'shanda hammamiz jimib qoldik. Xuddi qurbaqali ko'lga tosh otganga

o‘xshardi. Bu sukunatda senga suyanib, ko‘zi ilingan Ozarning barmog‘ini pechka ustiga bosib, baland ovozda “jizzzz” deb baqirdim, hammangiz birdaniga dod sola boshladingiz. So‘ngra bir-birimizni quvlashib, hovliga chiqdik va yuzlarimizga qor surtdik...

Suhbatimiz oxirlab qolganda u otamni so‘kar, men ham uning otasini... Bu so‘kinishlar oramizdagi maxfiy raqam, xayrlashuvning bir turi edi...

* * *

Yoz kelyapti...

Yaylovlarimiz alohida joylashgan. Har qishloqning yaylovi o‘z hududida... Yaylovlarimiz qishloqlarimiz boshida, baland tog‘lar yonbag‘rida. Yo‘l bo‘yi bir-birimizni ko‘rolmaymiz. Bizni faqat maktab bog‘lab turadi. Yana so‘nggi vaqtlarda qishlog‘imizga yangi kelgan telefon... Na televizor ko‘ra olamiz, na telefonda gaplasha olamiz, na maktub yozamiz. Yaylovdan maktub jo‘natilmaganidek, yaylovga maktub ham kelmaydi.

O‘t o‘rib qishloqqa olib borayotganimizda ham aravalarimiz boshqa yo‘llardan o‘tadi. Maktab bo‘lmaganida, boshqa sayyoralarda yashaymiz deb o‘ylaysan kishi. To‘g‘ri, ikki qishloqning bittagina do‘koni ham, maktab ham ularning qishlog‘ida joylashgani uchun men yaylovdan uyga olib kelgan o‘tni bo‘shatib g‘aram qilgach, dadamga sigaret olish yoki maktab kutubxonasidan kitob olish bahonasida traktorni omochdan ajratib, to‘g‘ri ularning qishlog‘iga yo‘l olaman. Ularning hovlisi devori oldidan o‘tar ekanman, bo‘ynimni cho‘zib hovlisiga, uyiga, derazalariga, hatto, uy ichiga ham nazar tashlardim.

Onasi yaylovdan tushishiga ruhsat bermaydi...

* * *

Kuz kelishi bilan hamma qishloqqa qaytadi.

Kelishimiz bilan telefonga yopishamiz. U meni boplab so‘kadi, men esa uni... Bu esa salomlashuv ma‘nosida qabul qilinadi.

— Otang naq ilonga o‘xshaydi, — deydi. — Fikri-zikri o‘tloqlarni, dalalarni qo‘shib olish...

— Sening otang esa Hoji Qora, — deyman. — Xasisligidan boshqa farzandi ham bo‘lmagan, uying yolg‘iz qizisan, dadang o‘sha pullarni kim uchun yig‘yapti? Dadangning dard-hasrati mol-holini ko‘paytirish-u, sotib oltinga aylantirish-ku...

— Qurib ketishsin, — deydi.

Jimib qolaman. Jim turishimga u battar achchiqlanib davom etadi:

— Alloh bu ikki qishloqqa tosh yog‘dirsin, bu soy, bu tepalik, bu ikki qishloq vayron bo‘lsin, o‘shanda biz ham qutulardik, bu xarobazordan bosh olib ketardik...

Men hamon jimman. U dadamni xotirjam haqorat qilib, javobimni ham kutmay go‘shakni qo‘yadi.

* * *

Odamlar yaylovdan qaytishdi. Endi kuz to‘ylari boshlanadi...

— ... Qishloqqa nega telefon keltirishdi o‘zi? Televizor kamlik qilgandek...

Odamlarga ham gap topildi.

— Qo‘ng‘iroq qilishim joningga tegdimi? — deb so‘raydi.

U birinchi marta bunday savol beryapti. “Joningga tegdimi?” deganida tovushi titrab ketganini yaqqol sezdim.

— Yo‘q, noto‘g‘ri tushunma! Nega jonimga tegar ekansan? Seni aytmayapman, Xudo haqqi...

Men ham birinchi marta menga ishonishi uchun ont ichdim, suhatimiz yana avvalgidek davom etdi.

— Bilasanmi? Men “Soyalar tush vaqti g‘oyib bo‘ladi” nomli serialni ko‘rmayman.

— Axir serialdagi qishloq qishlog‘imizga, odamlari qishlog‘imizdagilarga o‘xshab ketadi-ku...

— Yo‘q, u qishloqda keng tekisliklar bor, qishlog‘imiz kabi tog‘ yoqasida emas... Qishlog‘imizning odamlari ham bu serialdagi odamlarga sira o‘xshamaydi! Biznikilarni ko‘rmaysanmi? Harbiy xizmatdan qaytib kelgach: “Voy, ruslar undoq, voy, ruslar bundoq...” deb maqtayverishadi. Serialda esa qishloqda juda ajoyib insonlar bor. Bir-birlariga devonadek oshiq yigit-qizlar bor...

— Serialni ko‘rmayman, deganding-ku. Bo‘lmasa...

Uning gapini bo'laman.

— Rostdan ham ko'rmayman. Uyoq-buyoqdan eshitib qolaman, ba'zan bo'sh bo'lib qolsam, parchasini ko'raman, xolos... O'tirib boshdan-oyoq, hamma seriyalarini ko'rmayman... Faqat Hamida Umarovaning dasturini ko'raman...

— Hamida Umarova menga juda yoqadi. Senga ham yoqadimi? — deb ma'nodor savol beradi.

Qishlog'imizga televizor kelgandan beri deyarli har shanba oqshomi televizorda Hamida Umarovani ko'raman. Uning yuzlaridan o'pib, sochlarini barmoqlarim bilan tarayman. Qishloqqa televizor kelishidan avval Hamida Umarova boshini boshimga tirab jimgina termulishi mumkinligi yetti uxlab tushimga ham kirmasdi...

— Yo'q, menga umuman yoqmaydi, — deyman qat'iyat bilan.

Qishlog'imiz dengiz sathidan ancha yuqorida. Lekin undan ham teparoqda joylashgan qishloqlar bor. Qishlog'imiz tog' etagida, cho'ng qoyalar orasidagi baland tepaliklar ustida... Bizning qishloq joylashgan tepalik ularning qishlog'i joylashgan tepalikdan balandroqda.

Qishlog'imizning qaysi tomonidan qarasangiz ham ularning qishlog'i yaqqol ko'rinib turadi. Biz ularning qishlog'idagi maktabda o'qiyimiz, nimadir kerak bo'lsa, ularning qishlog'idagi do'konga boramiz. Ularning qishlog'i uyimizning derazasidan qaraganda ham ko'rinadi.

Derazamizdan ularning uyi ko'rinmaydi, ularning uyi boshqa uylar orasida g'oyib bo'ladi. Biroq u bilan telefonda gaplashganimda o'zimni ularning uyi oldididek his qilaman, hatto ularning uyi ichini ham ko'rgandek bo'laman.

* * *

Qishloqlarimiz bitta kolxozga birlashibdi. "Pravda" kolxozi...

Dadam o'zi chizgan katta hisob-kitob jadvalini olib meni yoniga chaqirdi.

Ularning qishlog'ida to'y bo'lsa, dadam hisob-kitob jadvaliga qarab, kimning to'yiga qancha berganini hisoblaydi, keyin qo'limga pul tutqazib, meni ularning qishlog'iga, to'yga jo'natadi.

Dadamning ularning qishlog‘idagi to‘yga borganini va dadasi bilan suhbatlashganini birinchi marta ko‘rdim...

Dadam yelkasidan sirg‘alib tushayozgan yangi to‘nini yelkasi-ga qayta tashlab, yirik donali tasbehini bilagiga o‘tkazdi, keyin esa qadrdon oshnalardek dadasini qo‘ltiqlab, chekkaga tortdi va ular bir nimalar haqida uzoq suhbatlashishdi.

Balki bu qishloqlarda yashaydiganlarning bari qarindoshdir, lekin bizning ular bilan qarindoshligimiz yo‘q. Ota-bobolarimiz haqida qiziq, lekin biroz g‘aroyib hikoya bor. Bu hikoyani hamma har xil aytib beradi, lekin kim aytishiga qaramay, bu hikoyaning yakuni bir xil...

* * *

Hikoya:

“... Hamma bir yaylovga — Olayozboshlar yayloviga chiqar, hamma bir buloqdan — Shirlon bulog‘idan suv ichardi. Hammaning o‘tlog‘i bir, pichani ham o‘rtada edi. Hamma bir tekislikda, bir nishabda, bir o‘rmon chetida, bir yo‘l ustida oilasi va bolalarini yig‘ib o‘t o‘rar, bir soyada dam olib, o‘t o‘rish vaqti kelguncha yiqqan pichanlari ustida uxlar edilar. Erkaklar orada ovga chiqar, baland qoyalar orasidan sizib chiqqan Shirlon bulog‘i boshiga, vodiyning narigi tomonidagi zich o‘rmonlargacha borib qaytib kelishardi...”

Aslida bobolarimiz orasida yaqin do‘stlik bo‘lgan ekan. Bir kuni bizning bobomiz Shukur bilan uning bobosi Jalil ovdan qaytayotganda qattiq janjallashib qolishibdi. Arzimas bir bog‘ o‘t uchun yaylovni boshlariga ko‘tarishibdi. Ikki oilaning pichani orasida kichkina bolalar yiqqan jimitdekkina o‘t g‘aramini deb shuncha to‘s-to‘polon bo‘libdi... Ikki oila bolalari bu kichik o‘t uyumidan chodir yasab, o‘sha yerda salqinlashayotgan ekan. So‘ngra o‘sha uyum atrofida quvlashmchoq, bekinmchoq o‘ynashar va o‘t uyumining ustiga chiqib sakrasharmish...”

Bu hikoyani aytib bergan yuz odamdan birma-bir “Janjalning sababi nima edi?” deb so‘rasangiz, hammasi: “bir bog‘ o‘t” deb javob beradi. Qiziq, bu dunyo ko‘rgan, yoshi bir joyga borib qol-

gan oqsoqollarni bir-biriga qarshi qilib qo‘ygan o‘sha la‘nati sabab chindan ham bir bog‘ o‘tmidi? Qiziq, ularning orasidan qanday qora mushuk o‘tib qolibdi-yu, oralariga tog‘dek to‘siq tushibdi ekan?!

Hikoya:

“... Aslida bu ikki oqsoqol o‘sha kuni ovdan qaytishayotganida, atrofni quyuuq tuman bosibdi. Yozning qoq o‘rtasida yomg‘ir, tuman bo‘ladimi? Demak, peshonalariga shu yozilgan ekan. Bular bir daraxtning tagida o‘tirib, yomg‘irning tinishini kuta boshlashibdi. O‘sha on birdaniga Shirlon bulog‘ining yuqorisida, tik qoyalar ustida go‘zal kelinni ko‘rib qolishibdi. U kelinni birinchi mening Shukur bobom ko‘ribdi va o‘rnidan turib unga yaqinlashmoqchi bo‘libdi. Uning bobosi Jalil esa bobomning qo‘lidan tutib, kelin tomon borishiga yo‘l qo‘ymabdi. Qoyalar ustida Shukur bobomni kutib turgan kelin uning bobosi Jalilning uni qo‘lidan tutib qolganini ko‘rgach, o‘girilib o‘zini qoyalardan pastga otgan cha ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Bu yerda bo‘lib o‘tganlarni har ikkisi ham o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, hammasiga guvoh bo‘libdi. Xuddi shu payt tuman birdan tarqalib, hammayoq tip-tiniq ko‘rina boshlabdi. Bobolarimiz Shirlon buloqning etagiga borib o‘sha kelinni qidirishibdi, lekin undan nom-nishon qolmagan ekan. So‘ngra bu mavzu haqida hech kimga lom-lim demaslikka so‘z berishibdi va bergan va‘dalarining ustidan ham chiqishibdi...”

Ertasi kuni uning bobosi bizning pichan bilan ularning pichani orasidagi bir bog‘ o‘tga panshaxasini sanchib, o‘zinikiga qo‘shib olmoqchi bo‘libdi. Mening bobom esa buni ko‘rib, bobosiga tashlanib qolibdi va bo‘ralab so‘ka boshlabdi. Avval bir-birini rosa haqorat qilishibdi. So‘ngra uning bobosi bobomni og‘izga olib bo‘lmaydigan so‘zlar bilan rosa so‘kibdi... Bobom ham unga xuddi shunday javob beribdi. Keyin esa Shukur bobom panshaxasini olib, bobosining qulog‘ining tagiga tushirib qolibdi. Uning bobosi Jalil bu zarbaning kuchidan yerga behush yiqilibdi. Ayollar, bolalar dod solib yugurib kelishibdi va ahvolni ko‘rib og‘izlari ochilib qolibdi. Shukur bobom panshaxasini uning jonsiz badanining yon tomoniga botirib, dahanini panshaxa sopiga tirab turar, tinmay gapirarmish:

— Jaliiiiil! Jaliiiiil! Qani, turaqol, tulkilik qilish vaqti emas, qani, tur!

Jalilning ayoli, bola-chaqasi esa uning jonsiz badani yonida kalovlanib turishar, hozirgina o‘t o‘rib yurgan Jalilda jon alomati yo‘q emish! Jalil o‘ldi!

Lekin Shukur bobom bu ayanchli haqiqatni tan olgisi kelmas-mish:

— Obboo! Jalil, do‘stim, oyoq-qo‘lingda quvvat qolmabdi-ku, senga nima bo‘ldi? — deb so‘rar, so‘ng esa u yerdagilarga qarab, Jalilning o‘lmaganini isbotlashga urinarmish. — Men bilgan Jalil panshaxaning bittagina zarbasidan o‘lib ketadigan odam emas!

Oxiri Shukur bobom voqea joyidan jimgina uzoqlashib, o‘r-monga kirib ketibdi va Shirlon bulog‘i ustidagi qoyaga chiqib, o‘zini jarlikka otibdi. Uning jonsiz badanini jarlikdan topishibdi.

Bobosi Jalilning naslidan bo‘lgan ba‘zi odamlarning aytishiga qaraganda, Shukur bobom jarlikda jon talashib yotar ekan, so‘nggi nafasida:

— Kelin! Mening kelinim! Meni qo‘yib yubor, Jalil! Qo‘yib yuborsang-chi... U meniki... Meniki, — deb bu dunyodan ko‘z yumibdi.

* * *

So‘ng esa har ikki tomonda ham odam o‘lganini va qon da‘vo-siga o‘rin qolmaganini hisobga olgan oqsoqollar hukm chiqarishibdi: “Shukurning oilasi va bola-chaqasi qishloqni tark etsin, atrof-dagi tepaliklardan biriga borib, chodir qursin, o‘zlariga yangi uy-joy qilsin va iloji boricha bu qishloqdan uzoqroq bo‘lsin. Shukurning Olayozboshlar yaylovidagi yeri va pichanzorlari ham Jalilning bolalariga o‘tsin...”

Keyinchalik bu hodisani hikoya qiluvchilar boshqacha gaplar chiqara boshlashibdi:

“... Ularni o‘sha kuni suv ichayotganida ajina chalgan...”

“... Ularni yashin urgan bo‘lsa kerak...”

“... Har ikkovining xotini bir-biriga Jalil bilan Shukurning o‘sha kecha juda g‘alati ahvolda bo‘lganliklarini, tinmay alahsirab chiqishganini aytganmish...”

Xullas, biznikilar qon da'vosiz, eson-omon hozirgi uyimiz joylashgan bu tepalikka chiqib, yangidan boshpana qurishibdi. Yaylovimiz, pichanlarimiz bir-biridan zo'rg'a ajralibdi va oramizdagi dilxiraliklar ruslar kelib bu joylarni bosib olgungungacha, sovet hukumati tashkil topgungacha davom etibdi. Sovet hukumati davrida bu hodisani ichiga yutganlar ham bo'libdi, hammasini unutib yarashganlar ham... So'ng esa ular bilan birga bitta maktabda o'qib, bitta do'kondan bozor qilgan ekanmiz...

* * *

Qish keldi...

Olxo'ri daraxtlarida qurib qolgan mevalar bo'lmasa, chumchuqlarning, o'rmon daraxtlaridan to'kilib yaproqlar orasida yashiringan eman yong'og'i bo'lmasa, olmaxonlarning holiga voy. Olxo'ri qoqilar chumchuqlarning, eman yong'og'i esa olmaxonlarning joniga oro kiradi. Qizlar bilan dastgoh boshida gap sotib, laparlar aytib gilam to'qiydigan "bekorchi" kunlarimiz va o'tin yonadigan tanchalar yonida ming bir kechaning sehriga maftun bo'lib o'tiradigan ertakli kechalarimiz boshlanmoqda.

Oshiq Hidoyat bir kecha bizning qishloqda, bir kecha ularning qishlog'ida doston aytadi...

Qor bosgan yo'llarni bir-birimizning izlarimizni bosib ochib, ularning qishlog'iga, maktabga yo'l olamiz. Bu qish biz u bilan qorbo'ron o'ynamaymiz, bir-birimizga suyanib pechka yonida ham o'tirmaymiz. Chunki hamma biladi, hamma shov-shuv qil-yapti, xuddi unashtirilgan bizmiz. Biz ham u bilan uzoqlashib qolganmiz va bir-birimizga bo'lgan munosabatimiz juda sovuq. Bu galgi qishning ham qahraton, ham qahri qattiq kelishini bilmagan ekanmiz...

Telefon jiringlaydi:

- ... Gap-so'zlarga ishonyapsanmi?
- ...
- Nega javob bermaysan? Tilingni yutib yubordingmi?
- Ham ishonaman, ham ishonmayman...
- Akang menga uylanishni xohlamaydi-ku.
- Nega, — deb so'rayman dabdurustdan.

— Chunki u menga umuman yoqmaydi. O‘zi ham buni yaxshi biladi...

— Yolg‘on gapirma...

— Xudo haqqi, rost aytyapman. Chin so‘zim...

Uning gapini shartta bo‘lib, jerkib tashlayman:

— Yana Xudoning nomi bilan qasam ichasan-a!

* * *

Va telefondagi suhbatning so‘nggi sahnasi...

Bir-birimizning otamizni haqorat qilib, go‘shakni qo‘yamiz.

* * *

Bahorning eng jonli, eng yoqimli dami...

Uni unashtirishyapti...

Akam kuzda keladi, to‘yga tayyorgarlik boshlanib ketgan. U kelishi bilan to‘y bo‘ladi. Mening esa harbiy xizmatga ketadigan vaqtim bo‘ldi, yo‘lga chiqish uchun tayyorlanishim lozim. Dadam harbiy xizmat sho‘basining boshlig‘iga bitta qo‘y beradi, u esa meni so‘nggi chaqiruv vaqtida harbiy xizmatga oladi. Shu tariqa aka-uka harbiy xizmatda bir-birimizni ko‘rishimiz mumkin...

Lekin Sovet Ittifoqi parchalandi va akam vaqtdan avval qaytib keldi.

Telefon jiringlaydi:

— ... Hamida Umarova qarib qolibdimi...

— ...

Tutilib qolaman.

— Nega gapirmaysan? Yoki ranjidingmi?

Men g‘azabimni ichimga yutishga harakat qilsam ham tovu-shimdan achchiqlanganimni sezilib qoladi:

— Hamida Umarovani boshimga uramanmi?

— Nega unday deysan? Bokuga borib topasan, o‘shanda ko‘nglingni ocharsan balki...

Gapini og‘zidan olaman:

— Bokuda nima qilaman?

— Sen menga o‘xshab qul emassan-ku... Qushday ozodsan...

Bu yerlardan bosh olib ket...

Men ilk bora uning xayrlashuv haqoratlarini kutmay go‘shakni qo‘yaman va televizorni yoqaman. Televizorda kechki dasturning takrori bor.

Chindan ham Hamida Umarovaning ko‘ylaklari sal qolsa yelkasidan sirg‘alib tushgudek turibdi. Bu ayolning bir kechada qarib ketganini, ko‘zlarida ham jiddiy bezovtalik borligini his qilaman. Yostiqqa suyanib yaxshilab joylashib olgach, diqqat bilan Hamida Umarovani tomosha qila boshlayman. Faqat o‘zimni qanchalik majbur qilishimga qaramay, uni ortiq seva olmasligimni tushunib yetaman...

* * *

Telefon jiringlaydi:

— Oshiq Hidoyat nima deyapti, bilasanmi?

— Bilmasam! Nima deyapti?

— Mendan xafamisan?

— ...

Jimib qolaman.

— Bugun juda gapdonmisan!

— ...

Yana lom-lim demayman.

— Oshiq Hidoyat doston so‘ngida gitarani kashf qilganlarning avlod-ajdodini so‘kdi! Kulaverib ichagimiz uzildi. Ramishni, Bal-o‘g‘lonni, Og‘adadashni va Zaynab Xonlarovani ham qarg‘adi, rosa so‘kdi...

— Nega?

— Go‘ro‘g‘li “Miltiq o‘ylab topilgach, mardlik yo‘qoldi” degan ekan-ku!

— Xo‘sh?

— Oshiq Hidoyat ham bularni miltiq o‘ylab topganlarga o‘xshatdi. Dostonning oxirida quloq solib o‘tirganlar “Go‘ro‘g‘li miltiq kashf etilganda nima qilayotgandi?” deb Oshiq Hidoyatni qitiqlab qo‘yishdi. U ham bu safar juda to‘lib turgan ekan. Qo‘shib-chatib Go‘ro‘g‘lining nomidan og‘ziga kelganni aytib, ularni haqorat qildi...

— Yana nima dedi?

— Hali sizning qishloqda ham aytadi. “Vasiyatimni bajo keltir-masangiz aytgan dostonlarimga rozimasman. Vasiyatim shu: Men o‘lsam, janozamni imom o‘qimasin” dedi. O‘sha paytda hamma Mulla Hamidning nabirasiga qarab kuldi. Lekin Oshiq Hidoyat yana gapiraverdi: “Men o‘lsam, janozamda “Ruhoniy”ni aytinglar, meni uning sadolari ostida ko‘ming” dedi...

Kutilmaganda so‘radim:

— To‘yingda gitara bo‘lishini xohlaysanmi?

Bu safar u xayrlashmay go‘shakni qo‘yib qo‘ydi...

To‘yni shu bahorda qilishga kelishishdi.

Dadam akamning to‘yini bir hafta keyinga belgiladi. Bir haftadan so‘ng to‘y bo‘ladi. Akam ichki xavfsizlikni ta‘minlovchi harbiy okrugda xizmat qiladi. Agar Oqdaradan keladigan mashinalar karvonini qo‘riqlovchi, ular bilan birga yuruvchi “OMON” qo‘shinlariga kira olsa, unga ham unvon berishadi. Afg‘oniston-dan, Germaniyadan kelganlar oltin, aqcha, kassetali magnitofon, ko‘ylaklar olib kelishadi, lekin negadir Rossiyadan qaytganlar och va yupun holda kelishyapti, yana qipyalang‘och holda. Dadam qo‘mondonga beshta qo‘y berdi. Uning dadasi ham bitta qo‘y so‘yib, terisini shilib, qo‘mondonning uyiga jo‘natdi.

Akam kelishi bilan to‘y bo‘ladi va u bizning uyga kelin bo‘lib keladi.

* * *

Akam uyga kelgan kuni meni ularning uyiga jo‘natishdi. Uning dadasi va onasi meni hurmat bilan kutib olishdi, xuddi o‘z farzandlaridek... Dadam menga: “Endi ular bilan bir oilamiz, sen ularning dalasiga, mol-holiga qarab, ularga yordamlashishing kerak. Ularning o‘g‘li yo‘q, akangning ham ularga ichkuyov bo‘lishi ma‘qul bo‘lmaydi. Yaqinda kolxozlar yo‘q bo‘ladi, kolxozga tegishli yerlar o‘zlashtiriladi...” dedi. Bilsam, dadam bilan uning dadasi ularning yeriga va mollariga qarab turishim uchun kelishib olishgan ekan...

Endi mening dadam yerlarini, uning dadasi esa qo‘y va mollarini ikki barobarga ko‘paytirishni mo‘ljallashgandi.

Daraxtlar yam-yashil. Biz u bilan hovlida o‘ynayapmiz. So‘ng esa ularning katta bog‘idan va uylarining orqasidagi tekislikdan onasi bizga ko‘katli non pishirishi uchun ismaloq, otquloq terib olib keldik. U boshqalar bilan o‘ynay olmaydi, faqat men bilan o‘ynashiga ruxsat berishgan. U yana bekorchi gaplarini boshlaydi.

U bilan birga o‘rmonga borib, nargis gullarini teramiz, tergan nargislardan guldasta yasab, o‘rtasiga qizil binashfalar qo‘yib, uyga olib kelamiz. Onasi narigi xonada uni uradi. “Qiz bola o‘rmonga borib sang‘imaydi” deydi...

Ularning g‘aramini tagini tozalashimiz kerak. Bu yerda kengroq g‘aram yeri tayyorlash kerak. Lekin hozircha qiz bazmi uchun to‘yga kelgan mashinalarning bu hovliga sig‘ishi uchun joyni kengaytirishimiz shart. Ertalabdan beri tinmaganimiz uchun tinka-madorimiz qurib qoldi. Yerdagi o‘tlarni, somonlarni, tezaklarni, shag‘al va qumlarni qirtishlab tozalab, bir joyga yig‘dik va chiqindilarni aravaga ortib, soy qirg‘og‘iga olib borib to‘kdik. Uning egnida gulli, kalta yengli ko‘ylak bor. Hovlini yonma-yon tozalar ekanmiz, ochiq qo‘li qo‘limga tegib ketadi. O‘sha daqiqalarda ikkimiz ham bir vaqtda qayrilib qaraymiz, ko‘zimiz ko‘zimizga tushadi. Bir muddat bir-birimizga tikilib qolamiz. Uning yuzlari loladek qizarib ketadi, kipriklari titrab, ko‘zlari yoshga to‘ladi. So‘ng esa burnini tortib, ko‘zyoshlarini artadi va xaskashni yerga uloqtirib, uyga yugurib kirib ketadi...

U mening o‘rnimni solib, narigi xonaga kirar ekan, sochlarini yoyadi... Xonam ostonasida onasining sharpasi birdaniga g‘oyib bo‘ladi...

Men uni uyimizga kelin bo‘lib keladigan, akamning xotini bo‘ladigan qiz deb tasavvur qilolmayman. Lekin akam uchun to‘y chodirini quryapman. Qo‘ng‘ir otga minib olgan bir otliq hovlimizga kiradi. Otliq tagidagi otni o‘ynatib, “muborak bo‘lsin” deb bizdan suyunchi so‘raydi. Oyim quvonib, uydan chopib chiqadi va otning bo‘yniga qizil bog‘ich bog‘lab qo‘yadi. Otliq otdan tushadi. Aslida bu odam mening sinfdoshim va eng yaqin do‘stim...

Gilam va kigizni uchlariga ip bog‘lab, hovliga qoqib qo‘yilgan temir qoziqlarga tortamiz va chodir quramiz. Bir chit matoga “To‘yingiz muborak bo‘lsin!” deya yozib, kelin-kuyov o‘tiradigan stol orqasiga osamiz. Musiqachilarning joyini ham tayyorlab, radiokarnaylarni chodirning burchaklariga, qulay joyga o‘rnatamiz. Organ va gitara uchun alohida elektr simi tortamiz...

To‘y uchun chodir tayyorgarliklarini yakunlab, o‘sha kunning o‘zida qiz uyiga qaytaman va kuyovnavkarlar kelishidan avval mollarni oldimga solib, o‘tlatishga olib ketaman. So‘ng esa mollarni yaylovdan qaytarib olib kelib, molxonaga joylashtiraman, to‘y uyida yoyilib yotgan lash-lushlar orasidagi o‘rnimga cho‘zilib, uyquga ketaman.

* * *

Kuz daraxtlarning yashil ko‘ylagini yechib olishga kirishdi, yaproqlar to‘kila boshladi.

Men ularning hovlisida xazonlarni supurib, o‘tlar ho‘l bo‘lmasligi uchun o‘t g‘arami ustiga chodir matosini yopaman. Avval g‘aram ustiga mato tashlab, atrofidagi teshiklardan arqon o‘tkazaman, arqon uchini yerdagi katta qoziqlarga bog‘layman. So‘ngra soyga tushib, yirik va yassi toshlarni olib kelaman, g‘aramga narvon suyab, bu toshlarni birma-bir o‘t g‘arami ustiga qo‘yib chiqaman.

Telefon jiringlaydi:

Qo‘ng‘iroq qilayotgan dadam edi.

— Uyga kel, o‘g‘lim! Boshimizga musibat tushdi, tez yetib kel...

Uyga boraman. Uni uyda qo‘llarini qovushtirganicha ko‘z yosh to‘kayotgan bir holda ko‘raman. Buning ustiga homilador... Katta divan oldida, telefon yonida yuzini deraza tomonga o‘girib, uzoqlarga, bir nuqtaga tikilib o‘tiribdi. Kelganimdan bexabar, meni ko‘rmayotir...

* * *

Dadam: “Aslida biz ruslar bilan jang qilyapmiz” deydi va bu gaplarni aytayotganida tomog‘iga nimadir tiqilib, yum-yum yig‘lay boshlaydi. Yig‘lab bo‘lib, qaytadan janoza chodiriga kela-

di, so‘ng esa tashqariga chiqib, akamning janozasiga kelganlarni kutib oladi. Dadam yelkasidan sirg‘alib tushayotgan to‘nini qayta yelkasiga otib, kelganlar bilan gaplashadi. Ora-chora choydan ho‘plab, chodirdagilar bilan tortisha boshlaydi: “Bizni urishtirib qo‘yib, yana yarashtirishadi hali. Armanlar bizning dushmanimiz emas, rusning boshini ezish kerak” deydi.

Kimdir gapga aralashadi:

— Rus nima qilsin? Rus hokimiyatining qo‘l ostida bo‘lgan vaqtimizda ahvolimiz yaxshiroq emasmi? Ruslarday millat yana qayda bor? Biz hali millat ham bo‘la olmadik.

Birdan janoza chodirida g‘ala-g‘ovur boshlanib ketadi, birov birovni eshitmay, baravar gapirib, olisha boshlashadi...

Oyim yuzlarini timdalab, ma‘nosiz nigohlari bilan atrofga tal-movsirab qaraydi, tizzasini mushtlab to‘lg‘anadi. Ora-chora ichka-rida faryod ko‘tarib, yig‘layotgan ayollarga qo‘shilib aytimchilik qiladi.

Ba‘zan esa ko‘zlarining yoshini artib, bolalardan:

— Qo‘ylar, sigirlar keldimi? Sigir sog‘ildimi? — deb so‘raydi.

Dadam shomga yaqin janozaga kelganlarning uy egasiga janoza marosimi xarajatlarini qoplashi uchun bergan pullar yozilgan daftarni oldiga qo‘yib, o‘z hisob-kitob jadvaliga ko‘chira boshlaydi. Men uydan tashqariga chiqib, hovlida biroz aylanaman, so‘ng esa hech kimga indamay, yana narigi qishloqqa, ularning uyi tomon yo‘l olaman...

* * *

Milliy qo‘shinga yozilyapman.

Jimgina, hech kimga sezdirmay, frontga qochib ketdim. Bilaman, bu ishim unga ham yoqadi...

* * *

Jabhadaman. Qish bo‘yi jang qilyapmiz. Bir qancha qishloqlarni qamaldan ozod qilamiz, qanchadan qancha qishloqlarni xavfdan asrash uchun aholini qishloqdan ko‘chiramiz, bir yerga yig‘amiz, so‘ng esa o‘sha qishloqqa hujum qilib dushmandan qaytarib olamiz... Oltin, aqcha, qimmatli gilamlar, hatto asirlarni ham

qo‘lga kiritdik. So‘ng esa bizga qaytadan hujum qilishadi, bir necha askarlarni yo‘qotib, qamalni amallab yorib chiqib qutilib qolamiz.

* * *

Men qurolimni qo‘yib, qishlog‘imizga yuguraman.

Qishlog‘imizga yetib borish uchun mashina bilan bir kunlik yo‘lni bosib o‘tishim lozim. Qishlog‘imiz joylashgan vodiydagi barcha qishloqlar qamal ostida ekanidan xabar topdik. Vodiyga yetib bordim. Borganimda hamma uy-joylar allaqachon yoqib yuborilgan, vayron bo‘lgan, kimdir o‘lib, kimdir qolgandi...

Ora-sira tizzasiga urib, yuzini timdalayotgan va boshini mushtalayotgan yosh, lekin boshiga tushgan dahshatli hodisa sababli bir kunda cho‘kib, yuziga ajin tushgan ayolning yoniga tiz cho‘kdim, ko‘zlariga termulib, hovliqqancha qishlog‘imiz haqida savollar bera boshladim. Ayol hayratdan og‘zini ochganda yuzimga termuldi. U menga termulgani sari, qo‘lidan tutib, uni silkitdim, ko‘rgan-eshitganlarini qanday bo‘lsa, shunday aytib berishini so‘rab yolvordim. Uning lablari titray boshladi. Tilini yutib yuborgandek, ma‘nosiz ko‘zlarini menga tikar va indamasdi. Xuddi men uni gapirtirishga uringan dushman askari edim... U esa asir tushgan ayol. Dushman tomonidan so‘roq qilinayotgan, ammo sir-larini dushmanga aytmaslik uchun o‘limga tik boqayotgan asirga o‘xshar, lom-lim demasdi... Qo‘rquvdan dir-dir titrayotgani uchun uni tinch qo‘ygim keldi, qo‘lini qo‘yib yuborib, o‘rnimdan turdim. Biroz oldinga yurdim. Shu payt ayol orqamdan gapira boshladi. Ayol xuddi shundoq orqamda, qulog‘im tagida ertak aytayotganga yoki marsiya kuylayotganga o‘xshardi. Qiynalib gapirar, nimalarnidir aytishga urinardi:

— Men ham boshqa ayollardan eshitdim. Sizning qishloq ayollari va bolalari avval yuqoriga qochishibdi. Erkaklar va yigitlar esa dushman vodiyan keladi deb qishloqda, soy qirg‘og‘ida kutishibdi. So‘ng esa yaylovga qochganlar dushmanning ham vodiyan, ham yuqoridan hujumga o‘tganini va yo‘llar yopilganini sezib qolishibdi...

Ayol birdaniga ovozini balandlatib, davom etdi:

— U yerda bir buloq bor...

Hayajon bilan soʻradim:

— Shirlon bulogʻimi?

— Ha, Shirlon bulogʻi... Ayollar va bolalar oʻsha oʻt tushgur buloqning tepa tomoniga chiqishganida birdan chaqmoq chaqib, sharros yomgʻir quyib yuboribdi, boʻron boshlanibdi. Ayollar va qizlar shu payt dushmanning yuqoridan kelayotganini koʻrib, bir qanchasi oʻzini Shirlon bulogʻi ustidagi qoyadan tashlabdi... Oralarida homilador kelin ham bor ekan. Bechora bir necha oylik kelin ekan...

* * *

Men traktor priseplari, yuk mashinalarini toʻldirilib, xavfsiz hududga olib kelinayotgan usti-boshi tilka-pora boʻlgan, qoʻllari, yuzlari tirnoq izlari bilan toʻlgan ayollarning oldiga yugurib borib, yuzi sepkilli, badani nozik, homilador kelinni qidirardim...

OYGUNNING TUSHLARI, YOXUD BAXTIYORLIK HAVASI

... Oyoqlarida qaymoq rangli tuflilari yaraqlab turar edi. Onasi sochlarini chiroyli o‘rib, uchiga ipak lenta bog‘layotgandi. U nimadandir o‘zida yo‘q xursand ko‘rinardi. Onasining sevinchi esa unikidan ham ziyoda edi. Qandaydir g‘aroyib, o‘zgacha bir kun edi go‘yo. Onasi ham binoyidek did bilan kiyingandi. Otasi eshik tagida sevimli qizini darsiga eltib qo‘yish uchun kutib turardi. Qizaloq quvnoq ovoz bilan qo‘shiq kuylardi: “Onajon, katta bo‘lsam, men ham quyosh bo‘laman”. “Qiziq, katta bo‘lganda qanday qilib quyosh bo‘lish mumkin? — deya uyqusirab o‘ylardi qizcha, — hoynahoy, mumkin. Bo‘lmasa, shunaqa qo‘shiq yozarmidilar... Men ham quyosh bo‘laman! Kunduzlar quyosh, kechalar oy! Balki shuning uchun ham ismim Oygundur! Balki shuning uchun ham bu qo‘shiqni yaxshi ko‘rman...”

Biram shirin uxlardiki... onasi uyg‘otmasa koshkiydi-ya. Baxtiyorligidan ayirmasa edi...

Jahl bilan qizini chaqirgan onaning yuzida har doimgidek g‘azab, nafrat, tushkunlik namoyon edi:

— Tur endi... ketdik.

— Qayerga?

— Jahannamga!

Jahannam uning kunduzgi hayoti, yorishayotgan tongi edi. U shunday tong ediki, uni shirin uyqusidan yulib, azob-uqubatlarga nihoyatda boy, achchiq hayot komiga uloqtirardi. Bu hayot ularning kichkina hovlisi edi hozircha. Eshikka suyab qo‘yilgan velosipedi-yu, eskib, suzilgan shalvari, uniqqan ko‘ylagi, taroq tegmagan patila sochlari bilan... xuddi tilanchi, lo‘liga o‘xshagan holda uydan chiqardi.

Sahardan oqshomga qadar hovlida tinimsiz kuymalanar, na isiqni, na sovuqni bilardi. Charchab, biroz nafas rostlaganda esa it-

lar, mushuklar bilan o‘ynar, so‘zning haqiqiy ma’nosida ular bilan do‘st edi.

Ajablanarlisi shunda ediki, hovliga qayoqdandir kelib qolgan, balki adashtirib ketilgan kichkina malla it va qizcha orasida behad o‘xshashlik bor edi. G‘amgin ko‘zlaridan tortib to achinarli tolelarigacha. Ular bir-birlariga juda mehr qo‘yishgandi. Qizaloqning mehribonchiliklaridan sevingan it turgan yeridan chir aylanar, o‘mbaloq oshar, “do‘stining” oyoq-qo‘lini yalab-yulqardi. Oygun ham quvonardi. Chunki quchgani, o‘pgani birov bor edi. Onasini o‘pa olmasdi. Avvalo, onasi kun bo‘yi uyda bo‘lmasdi, ikkinchidan, bunaqa narsalar uni qiziqtirmasdi. U tez-tez yig‘lab ko‘nglini bo‘shatar edi. Bunday paytlarda Oygun ham onasining yonida o‘tirib olar, boshini tizzalariga qo‘yib, uvvos tortib yig‘lardi. Nega yig‘layapti, o‘zi ham bilmasdi. Ammo onasi uning ho‘ngrashlariga e‘tibor bermas, vaqtidan avval ulg‘aygan qizaloqni ko‘rmayotgandek edi. Bu tinkasi qurigan, asabi qaqshagan ayol qomati kelishgan bo‘lsa-da, juda o‘xshovsiz kiyinardi — eski, ko‘rimsiz, ochiq-sochiq. Otam bo‘lganida edi, onam hech qachon bunday yurmasdi, deya o‘kinardi qizcha. Chunki otasi bor bolalarning onalari boshqacha kiyinishardi-da.

Otasi... uning otasi yo‘q.

Mahallada, sinfda do‘stlari, dugonalari... yo‘q.

Qaymoq rangli, yaltiroq tuflisi... u ham yo‘q.

Bolalar u bilan o‘ynamaydi. Ismini bilmaganlar uni “it bilan o‘ynaydigan qiz” deb chaqirishadi. It og‘ziga qo‘lini suqqan qiz bilan o‘z bolasini o‘ynashiga qaysi ona qo‘yar ekan? To‘g‘risi, o‘zining ham tengdoshlari bilan o‘ynagisi kelmaydi. Bir marta ko‘zoynakli, qitmir bola bilan g‘ijillashib qolishganda u “seni dadamga aytib beraman, ha!” deb po‘pisa qilgandi. Qizaloq cho‘chib, jimib qolgandi o‘shanda. Rostdan ham dadasiga aytib bersa, unda holim nima kechadi, degan xayolga borgan qizcha yomon qo‘rqan edi. Azbaroyi qo‘rqanidan ikki kecha ketma-ket tushida ko‘zoynakli bolaning dadasini ko‘rib chiqqandi. Biror marta ham ko‘rmagan, tanimagan odamni... Bu juda g‘alati edi...

Bolalardan, hatto kattalardan ham o‘zini olib qochishining yana bir sababi bor edi. “Yetim” so‘zi! “Yetimcha-da...” har safar

jon-jonidan o'tib, yuragiga o'qdek sanchiladigan, ko'nglini tilka-pora qiladigan so'z edi bu. Katta bo'lsam ham yetim deyishar-mikin, deb o'ylardi qizcha...

Onasi badbaxt. Bunga hech shubha yo'q edi. O'zi doim shunday deb o'ylasa-da, bir daf'a tamomila amin bo'ldi. Bobosi yoshi taxminan o'zi tengi bir keksa odam bilan suhbat asnosida onasi haqida "qiz ham badbaxt bo'ldi" degandi. O'sha payt Oygun, badbaxtlik oilaning buzilishi, degan xulosaga kelgan edi. Axir unda nega odamlar bilib turib o'zlarini badbaxt, bolalarini yetim qiladilar?.. Otasining qayerdaligini bilsaydi, shu savolni unga berardi. Onasidan so'rasa, hech qanday javob ololmasdi. Bunga qizcha amin edi...

Bir marta u bilan hamsuhbat bo'ldim. So'zlashi maroqli edi. O'z tengdoshlaridan o'zgacha dunyoqarashi bor ekan. Mana ko'ring, nimalar dedi: "Katta bo'lishni istamayman, bola bo'lish yaxshi... Hozir ta'til, hovlida o'ynayman. Ammo ulg'ayganda... institutga kirish, bola boqish, o'lish... biram qiyin ishlar borki...".

Bir kuni muallim insho yozib kelishni buyurdi. Nomi "Oila ishlarida ishtirokim". Insho yozishni yaxshi ko'radi, biroq bu inshoni qanday yozsin? O'ylab o'tirmay yolg'on, uydirma, taqlidni tanladi. Yozdiki, o'zidan ancha kichik do'mboqqina singlisi bor. Hamisha unga qarab turadi, o'ynatadi, bu uning onasiga yordamidir.

Aslida, bu singil bor edi, ammo xayollarida. Oygun hatto eski daftarlarini qirqib-qirqib, singlisiga daftarchalar ham yasagandi. Bu daftarchalarga u topshiriqlar yozar, muallimlardek baho ham qo'yardi. Xayoliy singlisiga Gunoy deb ism ham bergandi. Keyinchalik mening ham singlim bo'larmikin, deya ko'pincha uzundan uzoq o'yga tolardi. So'ng yana xafa bo'lib ketardi, chunki murg'ak aqli hali ko'p narsaga yetmasa-da, bir narsani anglardi, singlisi bo'lishi uchun oila butun bo'lishi kerak — ota va ona... Ammo bu taqlid nihoyatda maroqli edi... Umuman olganda, Oygunning taxayyuli havas qiladigan darajada kamol topayotgandi. Balki buning sababi yakkalanib qolgani, o'zi bilan o'zi ovora bo'lganidir... U har bir kelayotgan bo'z rangli kunga rang, jilo berishni o'rganib olgan edi.

Xayoli qochdi. Xo‘p, yaxshi, lekin o‘qituvchisi tasodifan uning hech qanday singlisi yo‘qligini bilib qolsa-chi? Unda nima bo‘ladi? Yolg‘on-yashiq to‘qiganiga xafa bo‘lib o‘zini koyidi. So‘ngra yana tasalli bilan ovundi. Xo‘sh, nima ham yozardi-e-e-ey?! Badbaxt onaning badbaxt qiziman deb yozardimi?! Bolalar ustidan kulishsinmi?.. Shusiz ham o‘zini sinfda noqulay sezadi. Qisilib-qimtinib yuradi doim. Bolalar to‘planishib gaplashayotgan yerdan yashin tezligida uzoqlashadi. Chunki ular ko‘pincha oilalari, darsdan keyin nimalar bilan mashg‘ul bo‘lishlari haqida suhbatlashardilar. U nima ham derdi? Buni qarang, musiqa, raqs, rasm to‘garaklari, suzishni o‘rganishga qatnaydigan tengqurlari hali pul qutichalariga pul tashlab turishga ham ulgurishadi.

Yo‘q, Oygun ular bilan til topisha olmaydi... Nega bu hayhotday hovlida hayoti, taqdiri menikiga o‘xshagan biror bir bola topilmaydi, deya o‘ylardi qizaloq. Yetimlik faqat mening peshonamga bitilganmi?

... Ba‘zida ko‘chadan onasi kabi bir ahvol kiyingan ayol o‘tib qolardi. Yo‘l-yo‘lakay “Oygun, qorning och, yur, magazindan biror nima olib beraman, yeysan” deb qo‘yardi. Oygun o‘ylab ham o‘tirmasdan bosh chayqab uzoqlashardi.

... Yomg‘ir sharros yog‘ib ketdi. Bolalarni uyga chaqirib olishdi. Hovlida bitta bola, bir malla it hamda velosiped qolgan edi. Sochlaridan suv tomchilayotgan qizaloq bir qo‘li bilan itni, ikkinchi qo‘li bilan esa velosipedni quchoqlab olgandi. Indamaygina osmonga tikilardi. Oqshom tushishini intiqib kutardi. Yo‘q, onasining qaytishini emas! Bu safar juda antiqa g‘oya aqliga kelgandi. Hovlidan chiqib, tor ko‘chadan o‘tib ketayotganida birdaniga shu fikr yalt etib xayoliga keldi. Ketayotib, kutilmaganda tosh devorga yozilgan so‘zlarga ko‘zi tushdi, bir zum to‘xtab, o‘qiy boshladi: “Sen xotirjamsan, Osiyo, mening esa tunlar uyqum kelmaydi... Meni yarim yo‘lda tashlab ketishingga hech ishonmasdim...”

Miyasida chaqmoq chaqnagandek bo‘ldi. Quyilib kelayotgan fikrlarini to‘xtata olmasdi: “Bu yerdan qanchadan qancha odam o‘tadi. Bu yozuvni ko‘rmay iloji yo‘q. O‘tgan ham o‘qiydi, ketgan ham. Hoynahoy o‘sha qiz ham o‘qigan. Balki men ham o‘z so‘zimni yozsam, hamma o‘qirmidi?”

G'oyasi o'ziga juda ma'qul bo'ldi. Xuddi kashfiyot qilgandek rosa sevindi. Qosh qoraygandi ko'mir bo'lagi, yo bo'r bilan yurak so'zlarini yozishga ahd qildi.

Taxminan shunday yozuv yozmoqchi edi: "Otalar, onalar, oila qurgan yigitlar va qizlar, iltimos, bolalaringizni otasiz yoki onasiz tashlab ketmang. Yo'q, agar ularni qachondir yolg'iz, yordamga muhtoj holda tashlab ketadigan bo'lsangiz, oila qurmang, yoki shunday qilingki, bolangiz bo'lmasin. Axir bolada nima gunoh? Yetimlik juda yomon, bilsangiz!".

... Balki otasi shu yerdan o'tayotib yozuvga ko'zi tushsa, shu zahoti Oygunning yoniga qaytarmidi... Bolalarini tashlab ketgan boshqa ota-onalar ham...

Hozirdan o'zini juda katta ishni qoyillatgandek va kutilgan natijadan ko'ngli to'lgandek his qildi.

Tezroq qorong'i tusha boshlasaydi...

... Tunda esa shirin, juda shirin tushlarining davomi uni kutardi. Qaymoq rangli, yaltiroq tuflisi, kulimsiragan otasi, xushbichim ko'ylagi yarashib turgan onasi va u — uyqusida baxtli bo'lgan qizaloq...

QOCHQINCHILIK

Dunyoda unumdor tuproqlarda bitadigan, ming xil parvarish bilan o'sadigan o'simliklar kabi azob bilan asfaltni yorib, yorug'likka, quyoshga intilib o'sadigan nihollar ham bor... Qarangki, ular hech qachon boshdan kechirayotgan azob-uqubatlari-dan shikoyat qilmaydilar.

— Ehtimol shikoyat qilishar, biz eshitmaymiz...

... Elmira xola shasht bilan stulga yaqinlashdi. Unga qaragancha men o'yga toldim: "Juda qiziq-da, agar men bu sho'rlik ayolning hayoti haqidagi hikoyam ovozli bo'lsa edi, unda birinchi jumladan, aniqrog'i, birinchi so'zlardan uning viloyatlik, qishloq odami ekanligi ma'lum bo'ladi. Viloyatda bunday ismlarni aytishda, shahardan farqli o'laroq, urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi. Taxminan qahramonimning hayotdagi o'rni, mavqeyi kabi".

Hoynahoy, tez-tez mavzudan chetga chiqyapman, lekin shuni ham aytay. Agar bu oddiy hikoya va mening qahramonim ham oddiy, kambag'al ayol bo'lsa edi, ehtimol, men ham boshqa barcha hikoyanavislar singari ushbu so'zlarni yozgan bo'lar edim: "Ko'zlari tubida achchiq qismat yashiringan bu keksa ayolning ust-boshi to'kilayozgan, singan qo'lini eski jun ro'mol bilan bo'yniga osgan edi."

Ammo gap shundaki, men qahramonimning ko'zlari tubida achchiq hayot alomatlarini ko'rmadim, aksincha, oddiyliklar ichida g'ayri-oddiyliklarni ko'rib, hayratda qoldim.

To'g'ri, u singan qo'lini eski jun ro'mol bilan bo'yniga osib olgandi, ammo o'zining achchiq taqdiri haqida shunday maroq bilan so'zlashi g'alati ediki... so'zlar og'zidan to'kilmayotgandi, so'zlar devorlarga o'qdek urilib, aks-sado berar, ming bir azob bilan asfaltni yorib, tiriklik qozongan o'sha nihollarning hayot sharoitidan naql etardi.

— Bu qochqinchilik davrida...

... Bizning so'z boyligimizda bunday so'z yo'q — qochqinchilik. Ammo borga o'xshaydi, Elmira xola yaratgan. Zero, har bir inson uzoq umri davomida nimadir yaratadi...

— Qizimni ham olib ketayotgandim, bilasiz-ku, nogironlar aravachasida. Tasavvur qiling, hamma chetga chiqib, bir-biriga "yo'l bering", "yo'l bering" derdi, qizimning nogironligi tufayli bizni qanday hurmat qilganlari hech yodimdan chiqmaydi.

... Qiziq, asfalt ostidan bir amallab bosh ko'targan bu mo'rt nihollar nimjon, egri-bugri vujudlari bilan nihoyatda yuksaklikda turgan quyoshni qanday ko'radilar? Balki ular quyoshni emas, quyosh ularni ko'rar, hayot, nurni ko'zlab olib borilayotgan bu mashaqqatli kurashda yordam berish uchun o'zi aylanib ularning boshi uzra turar?.. Buni quyoshdan (har holda, u qo'l yetmasdir) emas, hali niyashil rangda bo'lgan so'lg'in nihollardan so'rash kerak, majoziy iboradan chiqsak, Elmira xoladan. Elmira xola bo'lsa biror narsa so'rashimni kutmayotgandi.

U juda ajoyib edi, qochqinligi haqida shunday berilib gapirardiki...

— Ko'pchilikdan katta hurmat ko'rdim...

... Ba'zida odamlar yonidagining zaiflashishini kutishadi, tassalli berish paytida ular saxovatli, sertakalluf bo'lishadi.

... Asfalt zaif nihollarni, hayot esa Elmira xolani ezdi... Bema-jol kurtaklar boshlarini ko'tarib, Quyoshga qarab kulardi, xuddi Elmira xola hayotga, qochqinlikka kulgani kabi. Bundan keyin necha yil shu zaylda davom etishini hech kim bilmaydi, ehtimol, Elmira xolaning hayotiga shu nom ostida nuqta qo'yilar, buni ham hech kim bilmaydi.

Qo'shnilikda bahaybat gavdali, to'la ayol yashardi. Savdogarlik ishining ko'zini bilardi u. Eshik tagida kuniga bitta xori-jiy avtomobil markasi paydo bo'lardi. Qochqinlik ularning ham boshiga tushgandi, lekin semiz ayol (uning ismi ham Elmira edi) atrofdagilarni chalg'itish niyatidami, yoki boshqa sababdanmi, soxta parishonlik bilan, o'zini biroz saviyali ko'rsatish uchun televizorda eshitgan shablonli so'zlarni takrorlardi: "Eh, nima qilaylik, bizda tirikchilik bor, to'kinlik bor, ko'nglimizni ochishga vatan sog'inchi qo'yamaydi-da".

Mening uchinchi personajim epizodik bo'lsa-da qiziqish uyg'otadi. Uning ismi ham Elmira. Ammo bu xonimni chaqirgan-da, urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi. Goho uni "Ema" deyishadi. U qochqinlar haqida so'z ketganda, "menga u baxt qayda edi, qochqin bo'lay" deydi.

Nimjon nihollar shamoldan juda qo'rqardi, axir nima jon-lari bor, hali yomg'ir haqida gapirmayapman, yomg'ir yog'sa bormi...

... Elmira xola qizini cho'miltirolmasdi, majruh bola o'zidan og'ir edi; ikki qo'li mayib edi. U shifokorga bordingizmi, deb so'ralgan zahoti, "yo'q, yo'q" deya so'zni bo'ldi. Men bu pul masalasi ekanligini sezdim, indamay qo'ya qoldim.

Qochqinlar hayoti haqidagi suhbatlar tugamas edi. Ayni payt-da, ushbu suhbatlarga duolar ham qo'shib qo'yardi: "Men juda ko'p yashadim, shukur, Alloh sizga ham men kabi uzoq umr ko'rishni nasib etsin". Shu yerga kelganida, u yuklarini tepalikka tashib ol-gan odam kabi mamnun holda kulimsirardi. Ammo bu yuk nima ekanligini bilib bo'lmadi.

... Nimjon nihollar tuppa-tuzuk jonlangandi va garchi ular qu-yoshning o‘zini ko‘rmasalar-da, bir-birini quvgan bulutlardan siz-gan yorug‘lik nurlarini ko‘rishardi...

Elmira xola hali ham o‘zining “yoqimli” taassurotlarini hi-koya qilardi: “umrim davomida boshdan kechirmagan hurmatni ko‘rdim, hech qayerda yemagan ta‘mlarni tatib ko‘rdim, kiymagan narsamni kiydim”.

Eng dahshatlisi, Elmira xolaning shukronalik bilan naql etgan bu hayoti qochqinlik (!) edi. Men hayrat ichida qolgandim, men inson his etishi mumkin bo‘lgan eng kuchli tuyg‘uni boshimdan kechirayotgandim, hamda bu hayratga qo‘rquv aralashib ketgandi. Balki, Elmira xolaning o‘zi ham...

Bilaman, asfaltni yorib chiqqan o‘sha g‘arib nihollar ham hay-ratda edi...

QABR TOSHI

Jahon xonim birinchi qavatning zinalaridan endigina chiqa boshlagan edi, birdan nafasi qisa boshladi. Devorga suyanib, chiyillagan ovozda qichqirdi:

— Muzik!..

Uch yildan beri bu ovozga oʻrganib qolgan qoʻshnilarning hech biri qiziqsinib, tashqariga qaramadi. Uchinchi qavatdagi “M. Gulverdiyev” degan yozuvli birgina eshik toʻsatdan ochilib, pijamada Mazandali koʻrindi va koʻz ochib yumguncha Jahon xonimning oldida paydo boʻldi.

— E-e, yetim, qayerdasan? Men oʻlayapman, koʻrmayapsanmi?!

— Yoʻq, yoʻq, bunday dema, mening qushcham, sen oʻlmaysan.

Bu soʻzlar bilan xotining koʻnglini koʻtarib, qoʻltigʻidan olgan Mazandali uning yuqoriga chiqishiga yordam berdi. Aslida Mazandali bularning hammasiga hayron edi. Axir undan, shunday ozgʻin, nimjon odamdan bu yirik, toʻladan kelgan ayolga qanday yordam boʻlishi mumkin? Biroq, u gʻing demadi, ichida hayratlanib qoʻydi xolos. Eʼtirozga umuman oʻrin yoʻq edi. Chunki baloga qolardi!..

Jahon xonim esa, xuddi aksiga olgandek, agar Mazandali uyda boʻlganida tushib, yordamlashmasa, uchinchi qavat u yoqda tursin, uch zinapoyaga ham koʻtarilishni xohlamaydi. Chunki u shunga oʻrgangan. Hamda, uning oʻzi aytganidek, yuragi kasal edi. Mazandali uni qoʻltiqlab olganida, vujudiga kuch-quvvat quyilganini sezardi. Oʻn pudli gavda nozik qush tanasiga aylanardi...

Jahon xonim kirgan zahoti, kresloga oʻzini tashladi. Xonimning ogʻirligidan holdan toygan kreslo yana ayanchli gʻichirladi, lekin bu safar ham dosh berdi, sochilib ketmadi. Bir zumda

Mazandali keltirgan bir stakan suvni ichib, chuqur nafas oldi. U Mazandaliga boshdan oyoq takabburona qarash bilan razm soldi va bosqlik bilan dedi:

— Ee-eh, yetim...

— Nima bo'ldi, jonginam?

— Nahotki, sen o'lgansan? Nahotki, men ersiz qolganman?

Mazandalining ko'zlari peshonasiga chiqdi.

— Xudo ko'rsatmasin, nimalar deyapsan xotinjon? Mana, men sening ro'parangda, barcha buyrug'ingni bajarishga tayyor turibman-ku!

— Agar bu haqiqat bo'lmasa, narigi dunyoga mensiz ketasan! — bu so'zlar bilan u o'zini biroz zardasi qaynaganday qilib ko'rsatib, lablarini cho'chchaytirdi.

— Boshqalar xotinlari uchun ne ko'yg'a tushmaydi, sen esa har xil bo'lmag'ur narsalarni gapirasan.

Mazandali buning davomi borligini, Jahon xonim hujumga o'tmoqchi ekanligini sezdi.

Xotinini tinchlantira boshladi:

— Jahonoyim, jonim, bunchalar tashvishlanma. Nima bo'ldi o'zi, ochiqroq aytsang-chi?!

— Bo'ladi, senga aytsam! Yana bir qirg'in, dunyoning yana bir oxiri chunonam bo'ladiki!

— Hech narsani tushunmayapman! Nima yuz berganini aytib bera olasanmi?!

— Yaxshisi ayt-chi, markaziy qabristonga borganmisan?

— Qayer?! Qabriston?! Agar adashmasam, taxminan o'n yil oldin. Xo'sh, nima bo'пти?

— Ha ... bundan chiqdiki, sen hayotdan orqada qolibsanku, erjon?! Men hozirgina u yerdan keldim. Xudo hamma o'lganlarni rahmat qilsin! Gulbodomning qaynonasi olamdan o'tdi. Ana qabriston-u mana qabriston! Naq jannat go'shasi! Marmar yodgorliklar, qabr toshlari, mevali va manzarali daraxtlar ko'zni quvnatadi. Suv kranlari va qabrlardagi vannalarni aytmayсанmi?! Har kimning o'z o'rni bor u yerda. Hatto tirik va soppa-sog' odamlar ham borki, restoranlarda kayf qilishadi, bog'larda aylanishadi, lekin o'zlari, xotinlari, bolalari, nevaralari-yu evaralari uchun yarim

gektar maydonni egallab olishgan, shuning uchun o'lganlarida joy qidirib, azob chekishmaydi. Ha-a, bu haqda gapirsam adog'i yo'q. Endi bo'lsa, jamg'arma bankiga yugur.

— Nega?

— Chunki tosh sotib olaman.

— Sevgilim, qanaqa tosh?

— Qaytishda bir dugonamni uchratdim. Vazir muovinining xotini Belani. Qayoqqa ketyapsan, dedim. Aytidiki, yonlarida bir armani usta yasharkan, oltin qo'llari bormish. Bir hafta oldin, deydi u, mening Quljonim men uchun bir ming besh yuzga tosh buyurdi, bugun u tayyor bo'lishi kerak. Qanday chiqqanini ko'rish uchun ketyapman. Agar xohlasang, men bilan yur, yoqsa, sen ham o'zing uchun buyurtma berasan. Shunda o'yladim, Xudo mening Muzikimni asrasin, nega qo'rqishim, qandaydir pul haqida tashvish qilishim kerak, axir u yonimda-ku. Birga boraqoldim. Qoyil, Muzik, bu yaramas usta o'lgur toshdan Belaning o'zidan yuz marta yaxshi narsa yaratgan. Nimasini aytasan, menga juda yoqdi. Uning yana bir dona toshi qolibdi. Tosh emas, marvarid! Faqat men uchun. Shartta buyurdim. Ikki ming ikki yuz dedi, zo'rg'a ikki mingga ko'ndirdim. Ammo pulni zudlik bilan berish kerak. Aks holda, tosh qo'ldan ketadi.

Shu payt ignalar ustida o'tirgandek bir ahvolda xotinini tinglayotgan Mazandalining sabr kosasi to'ldi:

— Xo'sh, u qanaqa tosh, nihoyat menga aytasanmi?

— Qabr toshi.

— Nima?! Qabr toshi?!

Mazandalining eti junjikdi.

— Kim uchun?

Jahon xonim qahrli nazarini unga sanchdi:

— Qo'rqma, yetimgina, men buni o'zim uchun olaman.

— O'zing uchun?! O'ldingmi?

— Sen shuni xohlaysanmi?

— Yo'q, albatta yo'q. So'radim xolos. Ya'ni...

— Nima demoqchisan? Seningcha, men boyadan beri odamlar tirik chog'ida qabristondan joy egallashi, uni o'rab olishi, buning uchun qiyomat qoim qilayotganini aytdimmi yoki eshak-

ning qulog‘iga tanbur chaldimmi? Nima, shunday voqealar sodir bo‘layotgan bir paytda men o‘zim uchun loaqal qabr toshi yasattiray olmaymanmi? Agar bilsang, bugungi erkaklarga ishonch yo‘q. Sen ham o‘taketgan ziqnasan, men uchun qabr toshi qo‘yishingga ishonish qiyin.

Mazandali biroz tinchlansa-da, ko‘nglida xotining so‘nggi so‘zlariga rozi bo‘lsa-da, lekin tosh sotib olishdan hech qanday ma‘no topolmadi. Birinchidan, qabr toshlari uchun bu aql bovar qilmaydigan narx. Ikkinchidan, Jahon xonim nega buncha shoshmoqda? Pulni qachon berishning nima farqi bor? Dunyo ertaga ostin-ustin bo‘ladimi?

Jahon xonim esa buni tosh g‘ayrioddiy, to‘g‘rirog‘i qora marmar ekanligi bilan izohladi. Bu juda noyob, sen uni duch kelgan joyda ko‘rmaysan, dedi. Umuman, Jahon xonim qayoqda-yu, Bela qayoqda?! Agar Jahon xonimni tarozining bir pallasiga qo‘ysang, ikkinchisiga besh Belani qo‘yish kerak bo‘ladi. Jahon xonim aytganidek, qandaydir farq bo‘lishi kerakmi yoki yo‘qmi? Endi, oxirgi masala, nega bunchalik shoshilinch? Jahon xonim aniqlik kiritdi: Edik oilasini Bokudan Yerevanga ko‘chirayotgani sababli, u endi buyurtmalar qabul qilmaydi. Bu uning oxirgi ishi. Agar sen pulini bermasang, unda bizning toshimiz uchdi, kuydi, yo‘q bo‘ldi. Chapak chalib qolaverasan. Keyin kunduzi chiroq yoqib ham na Edikdaqa ustani, na toshni topasan. Shahar o‘limidan ancha oldin unga tayyorgarlik ko‘radiganlar bilan to‘la. Shunday qilib, azizim Muzik, vaqtni behuda sarflamay, oyog‘ingni qo‘lingga olib kassaga uch va pulni keltir.

Qaror qabul qilindi, hukm o‘qildi, Mazandaliga “xo‘p bo‘ladi, bosh ustiga!” deyish qoldi. Jahon xonim qaror qabul qildimi, bas, quloq qoqmay bajarishga majbursan. Bo‘lmasa, narigi dunyoga ravona bo‘lishing naqd.

Yarim soat o‘tdi. Jahon xonim eshik qo‘ng‘irog‘i chalinganda qabr toshidagi yozuvni o‘ylab o‘tirardi. Ostonada turgan Mazandalining g‘amgin, horg‘in qiyofasidan Jahon xonimning yuragi tovoniga tushib ketdi:

— Nima?! Nima bo‘ldi?!

— Jahonoyim, kassa bugun ishlamayapti!

— Vo-o-y-y?!

Jahon xonim shunday chinqirdiki, Mazandali turgan joyida sapchib tushdi. Yaxshiki, Jahon xonim kresloga yeta oldi. Biroq, u o'tirishi bilan kreslo chilparchin bo'ldi. Mazandali tezda sovuq suv olib kelib, uning yuzi va bo'yniga purkadi, Jahon xonim esa ko'zlarini zo'rg'a ochib, dedi:

— Dem-m-mak-k, to-o-shimizda-an ayrilibmiz-da, a-a?!

— Ha, Jahonoyim, ayrildik! — deya Mazandali javob berdi.

Javob bermagani tuzuk edi. Jahon xonim bu adoyi tamom qiluvchi javobni eshitgach, ko'zlarini yumdi. Endi sovuq suv ham yordam bermadi. Qo'rquvdan rangi devordek oqarib ketgan Mazandali telefonni oldi va qaltiraganicha tez yordam nomerini tera boshladi...

SINMAGAN VAFO

Odatda insonga ikki go'zallikning barobar berilishi kamdan kam uchraydigan hol. Aida xonimdan esa parvardigor o'z lutfini darig' tutmagan edi. Uni ham go'zal, ham aqlli qilib yaratgandi. Bo'limning erkaklari unga maftun, ayollari hasad qilardi. Ana shu ikki quroldan qay biri kuchliroq ekanini anglash mushkul edi. Indamay turganida malohati, so'zlaganida bilimi, aql-zakovati namoyon bo'lardi. Ayollarning ko'pchiligi o'zining ikkinchi o'rinda ekanini tan olmasa-da, bu yerda ishlayotgan har bir ayol ko'nglining tubidan "koshki shu Aidaning o'rnida men bo'lsam edim" degan fikr o'tar, erkaklar esa "u meniki bo'lganda qaniydi" deb xo'rsinib qo'yishardi. Orzularning haddi, sarhadi bo'lmaydi. Orzular o'z sohiblariga tegishli bo'lganlari uchun na axloq kodeksi, na qonunga bo'ysunadi. Ular tilga olingunlariga qadar ana shu salohiyatga egadirlar. Til bojxona mintaqasidir. Istalgan yashirin narsani olib o'tolmaysiz.

Bunga jahd qilgan kimsa o'z sha'nini asrash mas'uliyati, jazoga tortilish xavfi bilan yuzma-yuz keladi.

Aida xonim ertak qahramonlariga juda ham o'xshardi. Bekam-u ko'st qomati, sutga chayilgandek oppoq yuzi, pushti yonoqlari, kamon qoshlari, ma'noli chiroyli ko'zlari, me'yorida qilingan pardozi bilan shoirlar vasf etgan afsonaviy sohibjamolning o'zginasi edi. Did bilan turmaklangan sarg'ish sochlari o'z yoshiga nihoyatda munosib edi. Muloyim tabassumi, yoqimli kulishining jilovini doim tutib turardi. Ayollar gaplashishni xush ko'rishadi. Uning esa gaplashib o'tirishga vaqti bo'lmasdi. Vaqt topilganda ham so'zlari uzra tejamkorlik qaychisi shay turar, qisqa va lo'nda so'zlardi.

Aida xonim tabiatan nekbin inson bo'lib, atrofidagilarga yaxshi kayfiyat ulashar, savollarga xushmuomalalik bilan javob berar, maslahatini ayamasi edi.

Uning yaxshi ko‘rgan mashg‘ulotlaridan biri mutolaa edi. Hamisha o‘z ilmiy malakasini oshirishga intilardi. Qiziqarli maqolalari matbuot sahifalarida e‘lon qilinar, televizion kanallar vaqti-vaqti bilan ko‘rsatuvlarga taklif etishardi. Halollik bilan erishgan ilmiy darajasi ham bor edi. Bo‘lim boshlig‘i o‘zining ilmiy maqolalarini, ma‘ruzalarini unga ko‘rib chiqishga berar, mu-lohazalarini inobatga olardi.

Ayollar o‘z ustunliklaridan imkon boricha foydalanishga odatlangan bo‘lishadi. Albatta hammasi emas. Aida xonim ham ana shu kamchilikdagilar sirasida edi. O‘z ustunliklaridan suiiste‘mol qilgan holda zaiflarni ezishni, kamsitishni hech yoqtirmasdi. Bu esa muayyan qadar taajjubli hol edi, shunday emasmi?

Aida xonim boshqa bir ilmiy muassasada ishlaydigan nufuzli olimning umr yo‘ldoshi edi. Ikki farzandi uni mehr bilan “ona” deb atardi. U ham bu mehrni o‘n barobar qilib bolalariga qaytarishdan huzur qilar edi. Ahyon-ahyonda uchraydigan oila bilan bog‘liq so‘roq-savollarga qat‘iyat bilan oydinlik kiritardi:

— Oilada ham rahbar bitta bo‘ladi. Uyimizning rahbari — bolalarimning otasi.

Xodimlar qarshisida “istehkom bilan o‘ralgan mustahkam qal‘a” turardi. Oilasi bor yoki yo‘qligidan qat‘iy nazar, bu qalani fath etish orzusida yurganlar oz emas edi.

Bo‘limda hayot bir maromda davom etardi. Kunlarning birida kutilmaganda kadrlar almashuvi yuz berib, xizmatdoshlardan biri ketdi va uning o‘rniga boshqa biri qabul qilindi.

O‘sha yangi kelgan hamkasaba umrining bo‘ydoqlik-sultonlik qismining yuksak martabasida davron surayotgan Jobir ismli bir yigit edi. Bo‘lim xizmatchilari uni obdan elakdan o‘tkazib, ijobiy baho berishdi. Jobir bo‘yi-basti, sog‘lomligi, ilmiy malakasi, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishini ko‘rgan xodimlar uning yaxshi xizmatdosh ekanligini tan olishdi. Ishidan ham, maoshidan ham uning ko‘ngli to‘ldi. Lekin telba bir his, buning nomini “savdo” deydilar, uning yelkasiga uddasidan chiqib bo‘lmaydigan muammo yukladi. U ko‘zlariga xuddi ertaklar dunyosidan kelgandek ko‘ringan ko‘hlikkina Aida xonimga oshiqi beqaror bo‘ldi-qoldi. Bu oshiqlik to‘satdan chaqnagan chaqmoq misoli uning vujudini

larzaga soldi. Bu g'avg'odan qutulish oson emasligini Jobir aniq bilardi. Xalos bo'lish uchun qarshi taraf yordam qo'lini uzatmasa, ahvoli chatoq bo'lishi muqarrar.

Ishdagi ishq mojarolari tabiiy hol ekanligi hamma biladi. Baxtli oilalarning bir qismi aynan ish joyida tug'ilishi ham yangilik emas. Aql bir tomonga, yurak esa boshqa tomonga yo'nalganda muassasa ishlarining oqsashi ham mayliga, o'sha sevishganlardan to'y taklifnomasi kelsa bas.

Jobir Aida xonimning oila sharoitini e'tiborga olmay aqli, go'zalligi bilan hammani hayron-u mahliyo qilgan malakka chunonam shaydo bo'ldiki, asti qo'yaverasiz. Bir taraftan qaraganda uning bu harakatini hech oqlab ham bo'lmasdi. Lekin sevgi olamining o'z qonunlari, to'g'rirog'i, noqonuniyliklari ham bor-da. Bu tuyg'uni o'taketgan xomxayollik deya do'q-po'pisa qilib, sevgi yo'q deya ta'qiqlab, uni ta'na-yu nadomatlarga ko'mib bo'lmaydi. Uzoqqa borishga hojat ham yo'q, shu bo'limning o'zida ana shunday sevgi sohiblari bor axir. Ular xavf-xatar va malomatlardan nariroq bo'lish uchun sevgi nomli devona bulbullarini ko'ngil nomli qafaslarida jiddiy nazorat ostida saqlaydilar. Chetdan turib bahramand bo'layotgan nur, quvvat bilan kifoyalanadilar. Jobir bu guruhning oddiygina a'zosi bo'la olmasdi. Uning yuragi Aida xonimga bo'lgan sevgidan tug'yon urardi.

Bu sevgi Jobirga nima bera olardi? Oila hayotimi, yoki oshiq-ma'shuqlikmi? Bu savolga qanday javob berishni ham bilmasdi. Sevgi tumani ichida o'z yo'lini tamoman yo'qotgan edi. Faqat fikr-u xayolini o'g'irlagan Aida xonim bilan birga bo'lishni o'ylardi.

Aida xonim esa yo hech narsani ko'rmayotgan yoki ko'rmaslikka olayotgan edi. U o'zini avvalgidek xotirjam, bosiq tutar, shohona ayollik g'ururini avaylab-asrardi.

Jobir buni tushunib turardi. Odatda sevgi jang-jadallarini erkaklar boshlab beradi. Demak, ertami, kechmi sarhad devorlari qulab, Jobir bu qaltis qadamni bosishi muqarrar edi.

Jobir jur'atlanganida go'yo Aida xonimni ko'rmas, boshqa ayollarga maqtovlar bilan to'lib-toshgan xushomadlar yog'dirar edi. Yangi, yosh hamkasabaning diqqat-e'tibori, madaniyatini yuk-

sak baholagan xonimlar unga tashakkur bildirishar, lazzat qanotida huzur osmonida parvoz etardilar. Bunday paytlarda xushomadlar ustasi otashi kuydirib kul qilgan mahliqoga hatto ko‘z qirini ham tashlamas edi: “Meni kuydirganni javobsiz qo‘ymayman. Men uning “raqib”larini ko‘klarga ko‘tarib o‘zini kuydiraman”.

Aida xonim Jobir tarafdin yog‘ayotgan xush niyatli so‘zlariga ahamiyat bermasdi. Sinchiklab qaraganda aytilayotgan maqtovlar faqat uningagina munosib edi. Butun bu ta‘riflarni o‘zida jamlagan bir siymo gavdalanganda Aida xonim ko‘rinardi.

Bir daf‘a maqtovlar yomg‘iridan so‘ng Jobir Aida xonimning yonidan o‘tayotib asta pichirladi:

— Hech bezovta bo‘lmang, aytganlarimning sizga daxli yo‘q.

Aida boshini ko‘tarib, yigitning so‘zlariga biror javob qaytarmadi, shunchaki miyig‘ida kulimsirab qo‘ydi. Bu so‘zsiz tabassum birgina ma‘noni anglatardi: “O‘zingni qiynama, maqsading ayon”.

Jobir Aida xonimga bo‘lgan munosabati birtaraflama ekanini, uning Vasif ismli turmush o‘rtog‘i, ikki farzandi borligini eshitgan bo‘lsa-da, o‘zini tuta olmasdi. Bu nozik tabiat xonimning umr yo‘ldoshi ham o‘ziga munosib bo‘lsa kerak, deya o‘ylardi u. Hamkasblar orasida oila haqida suhbatlar chog‘i tashqariga chiqib ketar, tinglashni istamasdi. Nazarida Aida xonim faqat o‘zi bilangina uzukka ko‘z qo‘ygandek ko‘rinardi.

Axiyri bir kuni Jobir “yorildi”. Hamkasblaridan birining nikoh marosimida qulay fursatdan foydalangan Jobir Aida xonimga dardini ochiq-oydin bayon etdi:

— Sizning oilangiz yo‘q, o‘zingizni ham, boshqalarni ham chalg‘itmag. Eshigingizni qoqqan birinchi sovchi mendan bo‘ladi.

Bu kechaga hamma oilasi bilan kelgandi. Kasbdoshlar birgalikda raqsga tushar, o‘yin-kulgi qilishardi. Aida xonim raqsga tushayotib suhbat mavzusini boshqa tarafga burdi:

— Raqsga usta ekansiz.

Musiqaning Aida xonim Jobirni eri Vasif muallimga tanishtirdi. Ayolidan yoshi ancha katta ko‘ringan Vasif muallim bu tanishuvdan mamnunligini bildirib dedi:

— Bag‘oyat xursand bo‘ldim. Aida menga siz haqingizda juda yaxshi gaplarni aytgan. Bilimli, harakatchan deydi. Hali oila qur-

magan ekansiz. Uylanish niyatingiz bo'lsa, Aida bilan biz elchilik qilishga tayyormiz.

Bazo'r o'ziga kelgan Jobir bir amallab minnatdorchilik bildirib, tezgina ulardan uzoqlashdi.

Aida xonim ko'ngli keng ayol edi. Jobirning mag'lubiyatidan g'ururlanmadi. Hech narsa bo'lmagandek hammaga avvalgidek munosabatda bo'lib, chiroyli muomalasi bilan dillarni xushnud etib yuraverdi. Ko'p o'tmay bo'limga quyoshdek nur sochayotgan Aida xonimning chehrasida qora bulutlar soyasi ko'rina boshladi. Lekin u dardini dasturxon qilishni yoqtirmasdi. Imkoni boricha bu og'ir yukni o'zi ko'tarishga urinardi.

Lekin oilasida qo'qqisdan yuz bergan hodisalar toqatini toq qilayozgan edi. Uning chamandek yashnab turgan yuzini g'am qirovi qoplay boshladi. Bu qirov erta-indin qorga, muzga aylanishi ham ehtimoldan holi emas edi. Bu keskin o'zgarish hammaning ko'z oldida sodir bo'layotgandi. Atrofdagilar bu o'zgarishga befarq qololmasdilar.

Aida xonim ortiq sir saqlab o'tirishni foydasiz hisoblab, oila duch kelgan noxush hol haqida so'z ochdi. Eri Vasif muallim yurak xastaligi bilan kasalxonga tushgandi. Shifokorlarning ay-tishicha, jarrohlik yo'li bilan davolashdan boshqa iloj yo'q ekan. Bu qaror xatarli ekani kundek ravshan edi. Hamkasblar iliq so'zlar bilan unga tasalli berib, ko'nglini ko'tarishdi. Yurak jarrohligi hozirgi kunda qiyin amaliyot emasligini, hammasi yaxshi bo'lishini, bemor tuzalib ketishiga ishonishni, xorijsa chiqishga hojat yo'qligini, tibbiyot o'lkada ham taraqqiy etganini uqtirishdi. Hammasi pulga bog'liqligini, pul bo'lsa, salomatlik ham joyida bo'lishini ta'kidlashdi.

Bir qiyofadan ikkinchi qiyofaga kirish Jobirning qo'lidan kelmasdi. Na kadarlana, na sevina olardi. O'rtadan turgan to'siqning bartaraf bo'lishi uning maqsadiga oson yetishishga umidvor qilardi. Bu maqsad uni hayotning boshi berk ko'chalariga yetaklardi. Bu ko'chalarda deraza yo'qligi bois, chirog'i ham yo'q edi. Bu yo'lning insoniy yo'l emasligini Jobir his qilardi. Asl oshiqalar bu yo'lning yo'lovchisi bo'lolmaydilar. Boshqalar raqibi bilan kurashsa, Jobir o'zi bilan kurash olib borardi. O'z ustidan g'alaba

qozonishni eng buyuk g'alaba deb bejiz aytmaydilar. Bu uning qo'lidan kelarmikin?

Vasif muallimni yuragidagi jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli natijalandi. Aida xonimning go'zalligi yana o'ziga qayta boshladi. Hamkasblar guruhlariga bo'linib, Vasif muallimni ko'rishga borardilar. Agar bormay yakkalanib qolsa, shubha uyg'otishini anglagan Jobir bor kuchini to'plab, guruhlardan biriga qo'shib oldi. Bu harakatidan Aida xonimning xursand bo'lganini sezdi. Vasif muallim ham uni ko'rib sevindi. Hatto avvalgi va'dasini esga oldi:

— Birgina bo'ydog'ingiz bor, shuni ham uylantirib qo'ya qolaylik demaysiz. O'zimga kelib olay, Aidani yonimga olib, o'sha aytgan elchilik missiyamizni amalga oshirishga boshlaymiz. Bunday bo'lmaydi axir...

Tilaklar, duolar, shifokorlar zahmati o'z samarasini berib, Vasif muallim sog'aya boshladi. Shifokorlar bir oylar chamasi vaqt o'tgach uning yana o'z ishiga qaytishi mumkinligi aytishdi.

Bir kuni bo'limda kutilmagan hodisa yuz berdi. Hamma o'z ishi bilan mashg'ul bir paytda Aida xonimning ko'zlari ko'mak istagandek hamkasblariga javdiradi. O'sha kuni bu kichik kollektivning kayfiyati xush edi. Maoshlar plastik kartalarga o'tkazilgandi. Hamma ishdan chiqqan zahoti bankomatdan pullarini yechib olishi mumkin edi. Aida xonim esa bu xursandchilikka sherik bo'la olmasdi. U qo'lida nimanidir tutib turardi. Uning bezovtaligini hamkasblari nazaridan chetda qolmadi. Kimdir buning sababini so'radi:

— Aida xonim, nimanidir yo'qotganga o'xshaysiz. Yoki biron ko'ngilsizlik bo'ldimi?

— Ha bo'ldi, — deya Aida xonim o'ng qo'lini uzatdi, siqimini ochdi. Kaftida ikkiga bo'lingan maosh kartasi ko'rindi.

— Iya, qanday qilib kartangiz bu holga tushdi?

— Egilib, Vasifning tuflisini kiygizib, iplarini bog'layotgandim. Shu payt bir narsa "qirs" etdi. Shundagina plastik kartam xalatimning cho'ntagida ekanligi yodimga tushdi. Ne ko'z bilan ko'rayki, u ikkiga bo'lingandi. Endi nima qilaman? Pulga ehtiyojimiz bor. Hozir qayerga borishimni ham bilmayman. Tezgina bu muammoni hal qilishni kim biladi?

Bo'limdagilardan eng yoshi Jobir edi. Hamma beixtiyor Jobirga qaradi. Jobir esa shuni kutgandek tilga kirdi. Ammo uning so'zlarida ko'zlanilgan muddaoga — kartani almashtirishga oid biror bir fikr yo'q edi. Hali ham o'z istagidan voz kechmagan Jobir dedi:

— Siz Vasif muallimning oldida egildingizmi?

Jobirning so'zlaridan nimanidir oydinlashtirgan ziyrak Aida xonim oddiygina javob berdi:

— Ha, men uning tuflilarining ipini bog'lab qo'yay deb...

— Xo'p yaxshi, shunday ham bo'lsin, — deya Jobir qo'pollik bilan Aida xonimning gapini bo'ldi. — Sizdek yuksaklarda bo'lgan bir xonim... — so'zini davom ettira olmadi u.

Aida xonim bosiqlik bilan rashk otashida yonayotgan qalbni tiyishga intildi:

— Avvalo, bemor erining xizmatiga shay turmoq har bir umr yo'ldoshi kabi mening ham burchim, agar bilsangiz, vafo burchimdir. U mening bolalarimning otasi, boshimning tojidir. Bu tojdor esa barcha ma'nolarda hech qachon egilishimga yo'l qo'ymagan, shu kungacha e'zozlab kelgan. Bugun bu insonning tang xolida uning xizmatini qilish — egilib, tuflilarining ipini bog'lash men uchun bir sharafdur. Menga egilishga imkon bermaganning oldida egilish naqadar yoqimli ekanligini bilsangiz edi... Men qilayotgan xizmatlarimga mingdan ming roziman. Unga shifo tilab, tilim hamisha duoda. O'ylaymanki, o'z qadrini bilgan har bir ayol mening nuqtayi nazarimni ma'qullaydi.

Xo'sh, kartaning taqdiri nima bo'ldi? Singan karta ma'naviyat darsini o'tib, o'z ishini yakunlagan edi. Faqat uni almashtirish qolgandi. Hamma Jobirdan umidvor edi. Sevgi bobida butkul mag'lubiyatga uchragan Jobirni singan kartadan ko'proq o'zining singani o'ylantirardi: "Shamning parvonasi ko'p bo'ladi. Ulardan biri men. Demak, Aida xonimni bizdan ham ortiq sevgan, yuksak tutgan bor ekan. Shuning uchun ham Vasif muallimni boshiga qo'yar ekan. Mendaqalarning yuztasiga ham alishmaydi. Vasif muallimning ham, Aida xonimning ham baxti bor ekan". Jobir o'rnidan turib, tashqariga chiqar ekan dedi:

— Bu yerning havosi juda og'ir. Men bo'g'ilib ketdim, birpas toza havoda nafas olay...

QIRMIZI

Qo‘qqisdan paydo bo‘lishni yoqtiradi. Chang-to‘zonli, ilonizi qishloq yo‘lida birdaniga qarshingizdan chiqadiki, hatto yengilgina shitirni ham eshitmaysiz. Yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi bilolmay qolasiz. Egnida har doimgidek keng ko‘ylak, belida qalin belbog‘, oyoqlarida tagcharmi yeyilib, qiyshayib ketgan kavushlari, yuzida esa hech qachon so‘nmaydigan tabassum... Ko‘z ochib yumishga ham ulgurmaysiz.

Masim unga ko‘zi tushgan zahoti gap ota boshlaydi:

— Kecha Dilbar siz tarafga kelgandi, panjarangizdan mo‘ralayotgan ekan.

U esa kulib yubormaslikka tirishar, yetovidagi sigirni xivich bilan savalar, alamini azonlab o‘tlashga olib borgan moldan olish bilan ovora edi.

— Bilaman, keladi. Uyda yo‘qligimni bilib kelgan-da. Erim bilan apoq-chapoq.

— Eringni qizg‘anasanmi? — deydi Masim tinchimay.

— Erni qizg‘anish kerak, bo‘lmasa, qo‘ldan ketadi...

U qiyshiq kavushlarining uchi bilan yer chizar ekan, Masimga zimdan qaraydi. Nimalarni o‘ylayotgan ekan, ustimdan kulayotgan bo‘lmasin tag‘in, deya tikiladi.

Masim o‘zini bosib, jiddiroq bo‘lishga, biroz soddaroq ko‘rishga urinadi. Uni ancha-muncha gapga solgandan keyin kaftlarini bir-biriga urib sharaqlab kuladi. Bu bilan uning jahlini chiqargisi keladi. Ammo murodi hosil bo‘lmaydi. Boyaqish boshqalarga o‘xshab tuzukkina jahl qilishni ham bilmaydi. Bilgani — odamning achchig‘i chiqqanda dili xufton bo‘lishi, sevinish mumkin emasligi.

Uning esa yayrab sevingisi, boshqa ayollarga o‘xshab bir ro‘zg‘orning bekasi bo‘lgisi keladi, eridan mehribonlik, erkalash kutadi. Suyukli bo‘lsam deydi. Ming afsuski, eri kekxa va mijg‘ov

odam. Har holda yo‘qdan ko‘ra bori yaxshi, hechqursa, boshqalar boshi bog‘liqligini bilib turadi. Erini qishloqning eng go‘zal kelini, yoshgina tul qolgan Dilbardan rashk qiladi. Masim esa, nima desangiz deng, istasangiz qasam ham ichaman, bunga eri va qishloq to‘ylaridan boshqa hech narsa kerak emas, deydi.

— Shaharga boradigan bo‘lsang, menga qirmizi tirnoq bo‘yog‘i, kapalakli to‘g‘nog‘ich, bir shoda munchoq ola kel, — deb tayinlagani tayinlagan.

Men ham kula-kula so‘z beraman, terisiga sig‘may ketadi. Olib kelib, berganingni asti birov ko‘rmasin, bekitiqcha ber, deydi. Bosh silkib, rozi bo‘lganimni bildiraman. Yana bir karra qattiq ogohlantiradi: “Zuhra xola bilmasin-a”. Bosh irg‘ayman.

— Hoy, devonaning tentak qizi, yosh bola emassan-ku, — deydi Zuhra xola, bolalar seni mazax qilavermasin-da! Ular bilan hadeb o‘ralashma. Kel, xotinlarning yonida birpas o‘tir. Ko‘pni ko‘rgan, oqsoqolning xotinishan, loaqal uning yoshidan uyal.

U ham o‘zicha uyalib, yelka qisadi, o‘zini qo‘lga olmoqchi bo‘ladi. Bolalar nariroqda bir to‘p bo‘lib, piqillashadi. U esa jiddiy bo‘lishga intiladi, lekin eplay olmaydi. Bir chetda kulgidan ko‘zi yoshlangan Masimni topib, barmog‘i bilan po‘pisa qiladi, so‘ngra o‘zini tutgan bo‘lib, “ketdim”, degancha tezgina oradan chiqadi.

Zuhra xola — juda sergap ayol. U ketgach, oldidan kim chiqmasin, dardini to‘kib soladi, orqasidan javrashga tushadi: “Generaldek ayolning o‘rniga, ham cholga qarasin, ham xotin bo‘lib, bir tishlam nonini deb olib keluvdik. Chol kasalmand, keksa odam. Unga xizmatini qiladigan ayol kerak. Bu bo‘lsa, bolalarni ko‘rdi deguncha o‘zida yo‘q sevinadi, shataloq otib o‘ynagisi keladi, aqli ham bola aqli-da. Cholning katta qizi bugun-erta shahardan keladigan. Nima qilsa ham o‘gay-da, bu bilan murosasi kelishmaydi. Yana ta’na toshi yog‘iladi boshiga. Men esa uning yonini olishim kerak. Yetim-da, sho‘rlik. Bechoraning ko‘rgan kuni qursin...”

Ko‘zlari ola-kula bo‘lgan Masimning izg‘ib yurganini faqat endigina payqagan Zuhra xola unga o‘dag‘ayladi: “Juvonmarg bo‘lgur, gap orqalab yurma, tag‘in. Borib mayna qilasan hali. Tusingni yel olsin”.

Masim Zuhra xolaga parvo ham qilmaydi, qishloqda qo‘shibchatib kalaka qilish uchun gap kovlashtiradi. Xuddi birovni mas-

xara qilishdan boshqa ishi yo'qdek. Xudo ko'rsatmasin, bu xira pashsha bировga yopishsa, rasvoyi jahon qilmaguncha jag'i tinmaydi. Endi shu notavonga osilmasa, go'rga edi...

* * *

O'gay qizning ikki tomchi suvdoy o'xshash egizaklari bor. Ikkalasi bir xil, birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi. Mallasoch, lo'ppigina bolalar. Qishloqqa kelar-kelmas ko'chaga chiqishdi. Uni yonimizda ekanini ko'rib, yetib kelishdi. Biri unga yaqinlashib, oyoq kiyimi ipini bog'lashni buyurdi. U boladek bo'ysungancha iplarni bog'ladi. Ikkinchi egizak ham yaqin keldi-da, menikining ham iplarini boshqatdan bog'lab qo'y, dedi.

Nariroqda turgan o'gay qiz, bu otamga yaxshi qaramayapti, deya qo'shni ayolga shikoyat qiladi. Saranjom-sarishtalikni ham uddasidan chiqmaydi, ivirsigani-ivirsigan. Otam o'lgandan keyin kim ham uni bu yerga yo'latardi, deydi. U bu gaplarni eshitmaydi deysizmi? Albatta eshitadi. Bir lahzada quti o'chadi. Nega sevinganini bilmasa-da, dilxiraligi, g'amginligining sababini yaxshi anglaydi. Shoshilib chelaklarni ko'targanicha ko'zdan g'oyib bo'ladi...

* * *

Menga ko'zi tushgan payt chetga tortib pichirlaydi:

— Qishloqda to'y bor. Hammadan avval ketaylik, kun bo'yi o'tiramiz.

Chunonam xursand bo'ladiki, unga qo'shilib men ham sevina-man. Go'yo eng aziz odamimizning to'yi bo'layotgandek.

— Masim seni kamnamo deydi. Odam sog'inar ekan.

Yana yuziga tabassum yoyiladi. Ozg'in, cho'ziq yuzi yorishib ketadi, o'zicha kuladi.

— Qiz ketdi, Xudoga shukr, — deb qo'yadi.

Biz ham yelkamizdan tog' ag'darilgandek unga qo'shilib quvonamiz.

— Cholning bolalari bu yerga kelsa, menga kun yo'q, — deya zorlanadi. Hammasi meni tinmay turtkilib, o'tirsam o'poq, tursam so'poq deydi. Chol ham ham rozi bo'lay demaydi. Hammasi urishgani-urishgan...

Bolasan, deb qarab o'tirmaydi, bizga ham shikoyat qilib keta-
veradi. Teshik quloq bo'lsa bo'lgani.

Zuhra xola kayvoni ham, qo'shni ayollarni atrofiga yig'ib vay-
sagani-vaysagan. Qishloqqa yangi ko'chib kelgan yosh oila bormi,
maktabdagi ur-yiqit bormi, direktorning esini kiritib qo'yish bor-
mi — birini bog'dan, birini tog'dan qilib laqillayveradi. Birortasi
gapini bo'lmaydi.

Ma'qullashdan o'zga chora yo'q. Bu sho'rpehananing ham ay-
ollarga qo'shilgisi keladi, ammo ular nima deyotganini tushunmaydi,
bunaqa gaplarga xushi yo'q. Tushunmagan narsangdan sevina olmay-
san — faqat boshing qotgani qoladi. Uning dunyosi sayoz va oydin.
Ammo bir narsaga — ayollardan ajralmasligi kerakligiga aqli yetadi...
Qo'lini beliga tiragancha gapga quloq soladi. Ko'zlaridan toshayotgan
kulgini yuzidagi jiddiylik bilan zo'rg'a pana qiladi. Hammamiz unga
tikilib, har bir harakatini kuzatamiz. O'zini tuta olmagan Masim pi-
qillab kulib yuboradi. U ham bizga qo'shilib kuladi.

Zuhra xola uni koyimoqchi bo'ladi, ammo o'zini arang tiya-
di. Ayollardan biri, erim kecha aptekachining o'g'li Dilbarni o'z
mashinasida o'rmonga olib borganini ko'ribdi, deya gap boshlay-
di. Dilbarning egnidagi ko'ylagi alomat emish...

U yuzidagi kulgini bazo'r to'xtatadi, suhbatga diqqat qilgan-
dek bo'ladi. Birdan ko'zlari porlaydi, og'zi ko'piklanadi, Zuhra
xolaning bu yerda ekanini unutadi: "Bizning chol ham yuradi",
degan gap "lo'p" etib og'zidan chiqib ketadi. Ayollar bir zum ang-
rayib qoladi, so'ng kulib yuboradi. Biz ham maza qilib kulamiz.
Endi bemalol, hayiqmasdan kulsa bo'ladi. Hamma kulganda, biz
bo'zrayib o'tirmaymiz-ku.

U esa kulayotganlarga e'tibor bermaydi, gapini isbotlashga
harakat qiladi: "Yuradi, yuradi. Men sezaman. Hovlida Dilbar bi-
lan ko'rishadi... Itlar hurishidan uyqum o'chadi".

Zuhra xola unga g'azab bilan qaraydi, shu tobda, qo'yib bersa,
yerdan bir tayoqni olib, boshiga solishdan ham qaytmaydi. Lekin
ko'pning kayfiyati nash'a qilib, o'zi ham kulib yuboradi.

— E-e-e, u yosh kelin-ku, o'ziyam ko'hlikkina-da qurmagur.
Yosh, toparmon-tutarmon yigit bilan ilakishadi. Sening ering
uning otasidan ham katta bo'lsa.

— Nima qipti? Q... ga kimligining nima farqi bor? Har kecha cholning yoniga keladi...

— Qari, kasalmand eringni boshiga uradimi? Nimasiga uchadi?

U birpas talmovsirab, ko‘zlarini katta-katta ochadi, ammo taslim bo‘lmaydi. Aqliga kelganlarni jon-jahdi bilan isbotlamoqchi bo‘ladi.

— Pulini deb keladi. Chol nafaqasini olib, unga beradi. Erkaklarning hammasi bir go‘r.

Ayollar bir muddat jimib qoladi. Balki, bu lahzada hammasining xayolidan shu gap o‘tgandir, ko‘z oldiga ayni manzara kelgandir: aptekachining qimmatbaho mashinaga suyanib turgan sportchi o‘g‘li, yonida yasanib-tusanib olgan go‘zal Dilbar. Birdan hammasi kulib yuboradi.

Zuhra xola kula-kula deydi:

— Ha, qiz tushmagur-a, tentaksan-da, tentak. Tentakning boshida shoxi bo‘lmaydi-ku.

Qo‘shni ayollarning xolaning gapini tasdiqlashdan boshqa chorasi qolmaydi.

* * *

Hali yo‘lga tushmasimdan, saharlab yetib keladi.

— Ketyapsanmi?

Bosh irg‘ayman.

— Qiziq, Boku juda kattami?

Javobimni ham kutmay, qo‘shib qo‘yadi:

— Katta bo‘lsa kerak, har holda... Lekin bu yerlar ham kichkina emas. — Ko‘zlarini qisib, kulimsirab qaraydi. — Hoynahoy u yerda erga tegsang kerak, bo‘lmasa, “shahar”lab o‘tirmas eding.

Keyin birdaniga sevinib ketadi, ko‘zlari porlaydi:

— Qishloqda bir emas, uchta to‘y bor.

To‘ydan gap boshlashi bilan dimog‘i chog‘ bo‘ladi, sezaman. To‘yga bir-ikki kun bor ham demaydi, qo‘yib bersang, hozir o‘sha yoqqa qanot bog‘lab uchsa.

Egilib, kattakon chelaklari bandiga yopishadi.

— Men bora qolay, cholning mazasi yo‘q, ko‘ziga ko‘rinmay qolsam, tutaqadi. Aytganlarim yodingdan chiqmasin. Yaxshi bor!

Shahardan qaytar ekanman, qo‘limdagilarni unga yetkazishga shoshilaman. Aytganlari topildi. U ham bir sevinsin. Qishloqqa borgan zahotim uni izlab topishim kerak. Ozgina dam olib, Zuhra xoladan xabar olaman. Xola qoshlarini chimiradi:

— Eshitmadingmi, chol o‘ldi-ku?!

— Eshitdim. U-chi, uning holi nima bo‘ldi?..

Zuhra xola og‘ir xo‘rsindi.

— Boshqa qishloqqa, qari cholga erga berdik. Nachora, qizi hech ko‘nmadi. Akasining xotini ham chiqishtirmadi sho‘rligni. Bir amallab uzatdik. Nasiba tortgan-da.

Zuhra xolaning achchig‘i chiqqani ko‘rinib turardi.

Qishloqning chang-to‘zonli, ilonizi yo‘li birdan huvillab qol-gandek bo‘ldi. Chor-atrofga bo‘shliq yoyilgandek xuddi. Ma‘yus tortaman.

Kim nima desa, deyaversin, ammo u bu dunyoni qirmizi rang-da ko‘rar edi.

Har holda menga shunday tuyuladi... Qirmizi...

BO‘TAKO‘Z

Ahmadli mavzesida allaqachon to‘kilib, shalog‘i chiqib ketgan “marshrutka”lar bekatda yonma-yon tizilishib, “Ov” kutadilar. Bu hududdagi eski marshrut taksilar o‘g‘rincha ishlaydi. Ya‘ni, ular deyarli o‘zlarining dushmani deb hisoblaydigan yangi “Bokubus” nomli yo‘nalishlar bilan mushuk-sichqon o‘ynashadi. “Bokubus”larni mikroavtobus haydovchilari o‘zaro “changyut-gich” deb atashadi.

Aslida, bu yo‘nalishda yuradigan, yangi, qip-qizil, tumshug‘i ko‘tarilgan “Bokubus”larda ketsa ham bo‘ladi. Ammo bu marshrut taksilar odamga qadrdonroqdek tuyuladi, eskiga sodiq qolish ham yomon ish emas, hamda odat deb ataladigan narsa ham bor axir...

Birinchi epizod.

Buzuq mikroavtobusning haydovchisi katta-katta qora ko‘zli yosh yigit. Qoramag‘iz yuzidan horg‘inlik yog‘iladi. Egnida urfdan qolgan charm kamzul. Kamzulning ba‘zi joylari ishqalanaverib

oqarib ketgan. Yigitning ko‘zlari qop-qora va o‘ychan. Besh-olti yoshli bolakay mashina eshigi oldidagi tutqichga yopishib olgan. Poyabzalidan birining ipi yechiq. Bolaning ko‘zlari timqora, xuddi bo‘taloqning ko‘zlari kabi. Bola gohida yo‘lovchilarning qo‘lidan yigirma tiyinliklarni yulib oladi va mashinada mayda pul yig‘ish uchun qo‘yilgan qutiga tashlaydi. Bolaning qora, po‘mpaloq qo‘llari kir. U tez-tez qo‘llarini yuziga olib boradi, yuz-ko‘ziga kir yuqtiradi. Lekin uning yuzi ham, ko‘zi ham juda shirin, yoqimtoy.

Bolaning ko‘rinishi tinmay hind filmidan mashhur aforizمنى ta’kidlayveradi: “prokurorning bolasi prokuror bo‘ladi, o‘g‘ri-ning bolasi o‘g‘ri”. Hoynahoy, bolaning onasi biron joyga ketgan, bo‘lmasa, bu yoshdagi bolani otasining yonida qoldirarmidi?.. Bolaning aytishicha, onasi ikkinchi bolasini tug‘ish uchun tug‘ruqxonaga ketgan.

... Bolaning onasi inqillay-inqillay qoramag‘iz haydovchining yelkasini silkitadi:

— Turaqoling. Menimcha, vaqti keldi, sanchiqdan o‘lay deyapman.

Qoramag‘iz haydovchi ko‘zlarini uqalab, zo‘rg‘a uyg‘onadi. Uning ko‘zlari ayolining kattalashgan qorniga tushadi, shasht bilan adyolni ustidan uloqtiradi. Ayol bolani yotoqdan ko‘taradi, og‘riqdan bukchayganча kamzulini kiygizadi. Uning oyoq kiyimlaridan birining bog‘ichini bog‘laydi, ikkinchisini bog‘lashga holi kelmaydi. Qoramag‘iz yigit bolaning onasini o‘z marshrutkasida tug‘ruqxonaga olib borib, joylashtiradi, keyin bolani qo‘lidan ushlab, mashinaga chiqaradi, tug‘ruqxonaning allaqachon yoddan bilgan xarajatlarini chamalab ko‘radi. Kechgacha bir necha marta borib, kelsa bo‘ladi... Uyqusi o‘chib ulgurmagan bola tutqichga yopishadi.

Bolaning ko‘zlari qopqora, xuddi bo‘taloqning ko‘zlari kabi...

Ikkinchi epizod.

Bola otaga nimadir deydi. Ota bolani mashina gurillashidan eshitmaydi yoki eshitsa ham unga javob berishni istamaydi. Bola yana nimalarnidir g‘o‘ldiraydi. Birozdan so‘ng baland tovushda deydi:

“Bobo, hoy, bobo-o-o”.

Mashinaning shovqinidan uning gaplarini eshitolmaysiz, lekin “bobo” soʻzini eshita olasiz xolos. Bola kambagʻal oiladan ekanligini oʻjarlik bilan taʻkidlaydi. Yoʻqsa, nega yosh otasiga bobo deydi?.. Odatda kambagʻal oilalarning bolalari otalariga “bobo” deb murojaat qilishadi.

... Ayol singan divan ostiga taxta qoʻyadi, joyida toʻgʻri tursin deydi. Ayol bir qoʻli bilan kattalashib, pastga osilgan qornini tutadi. Bola, odatdagidek, ham oshxona, ham yotoqxon boʻlgan uyning bir burchagida turgan karavotda pishillab uxlayapti. Choyshab bolaning oyoqlari ostiga yigʻilib, yerga tushgan. Bolaning kiyimlari yerda betartib yoyilgan. Ayol xonadagi birgina derazaning pardasini tortadi. Xona yarim qorongʻi boʻladi. Oshxona qozonda qaynab turgan ovqat hidiga toʻlgan.

Deraza oynasini ter qoplagan. Bola uygʻonishi bilan yolgʻiz deraza tomon yuguradi. Terli oynada qingʻir-qiyshiq chiziqlar bilan mashina rasmini chizadi. Bola chizgan mashinaning gʻildiraklari oʻzidan ancha katta koʻrinadi.

Bolaning koʻzlari qopqora, xuddi boʻtaloqning koʻzlari kabi...

Uchinchi epizod.

Koʻhlikkina yosh ayol mikroavtobusga chiqadi. Egnida qimmatbaho moʻynali palto, koʻzlari qoʻngʻir. Umuman olganda, bu marshrutda bunday qimmat kiyim kiygan ayollar kam uchraydi. Bolani koʻrgan ayol bir zum oʻzni yoʻqotib qoʻyadi, darhol qoʻlini choʻzib, bolaning boshini silaydi, sochlarini toʻzgʻitadi. Bola boshini yon tomonga egadi, boʻtaloqkoʻzlarini bir necha marta pirpiratadi. Ayol borib, orqa oʻrindiqqa oʻtiradi. Sal oʻtmay mashina soʻnggi bekatga yetib keladi. Ayol mikroavtobusdan chiqib, yoʻlni kesib oʻtar ekan haydovchiga koʻz qiri bilan qaraydi va keyin mikroavtobusning oynasi yoniga borib, ichkariga moʻralaydi. Haydovchi etagi asta shitirlagan moʻynali paltoga qaraydi, ayol paltoda modelga oʻxshaydi. Haydovchi oʻz-oʻziga deydi: “bu menga mos emas, ketsin, tengini topsin”.

... Bir kishi oyna oldida qimmatbaho odekolon sepadi. U koʻzlari bilan qoʻngʻir koʻzli ayolni qidiradi, orqasida turgan ayol-

ni ko‘rib, bir on shoshib qoladi, xuddi xijolat bo‘lgandek oynadan unga qaraydi:

— Demak, shifokorning ham ishi qolmapti, hammasi behuda ekan-da... Nima qilamiz, deysanmi? Koshki, qo‘limizdan bir narsa kelsa. Lekin men bola istayman, bola! Tushunyapsanmi?! Bola!!!

Ayolning qo‘ng‘ir ko‘zlari yoshga to‘ladi. Erining yuziga qarashga qo‘rqadi. Umrida birinchi marta eng qimmatbaho narsasini yo‘qotish arafasida turganini his etadi. Kishi xuddi shoshayotgandek bu yerdan tezroq chiqib ketishga urinadi, shosha-pisha sumkasini joylaydi. Ayol uning ko‘rkam va hayajonli yuzini oyna orqali kuzatadi. Bu safar kishi eshikdan chiqqanda, odatdagidek ayolning burniga yengilgina chertib qo‘ymaydi, bir lahzaga to‘xtaydi va oxirgi so‘zni aytadi:

“Aftidan, ajrashamiz!”

Ayol ko‘zgu oldida o‘ralashadi. Hammasi tugadi! “Men o‘z jonimga qasd qilaman, — deya alam bilan o‘ylaydi ayol, — dori-xonadan anchagina dori olishim kerak. Mendan keyin kuyib kul bo‘lsin, bir umr eslab yuradi, meni unutilmaydi”.

Qoramag‘iz haydovchi qutidagi pulni sanaydi, yirik pullarni ajratib, ko‘krak cho‘ntagiga soladi. Maydalarini qayta-qayta sanaydi. Ro‘paradagi dorixonadan chiqib kelgan ayol qo‘lidagi dorilar solingan xaltachani sumkasiga solib, yana mikroavtobus oynasi oldiga boradi. U ko‘zi bilan ichkaridagi kimnidir qidiryotgani seziladi. “Qiziq, bu kimni qidiriyapti, nima unga tinchlik bermayapti?” — haydovchi oynadan uni kuzatadi. Ayolning yuzi sut kabi oq, qo‘ng‘ir ko‘zlari biror narsani ifoda etmaydi.

Haydovchining ko‘zlari yo‘lga tikiladi. Haydovchi bu pul hali ham yetarli emasligini biladi, kasalxonaga borishga ancha kam. Yana bir necha bor borib kelish kerak bo‘ladi, kamida uch marta...

Mikroavtobus ichida polda o‘tirib o‘yinchoq mashinasini o‘ynayotgan bola o‘yinchog‘ini tashlab, otasining yoniga o‘tirib oladi, ko‘zlarini yo‘lga tikadi.

Bolaning ko‘zlari qopqora, xuddi bo‘taloqning ko‘zlari kabi...

ALI JA'FARO'G'LI (ALIYEV)

BESH TIYIN

Shaharning nim qorong'i ko'chasidan ketib borayotgan past bo'yli, oq-sariqdan kelgan, ko'zlarida muruvvatli tabassum zohir bo'lgan o'spirin yigit orqasidan eshitilgan amirona ohangdagi ovozdan cho'chib tushdi.

— To'xta! — deya unga yetib olgan yigit buyruqni takrorladi.

Boyagina ko'rgan hind filmining yoqimli onlari yuragiga jo bo'lib, uni muhabbat olamining eng yuksak cho'qqilariga olib chiqqan muqaddas va sururli tuyg'ular bir lahzada qayoqqadir tarqab, ularning o'rniga qo'rquv hissi hokim bo'ldi. Xuddi bu tahdidli amrning zamirida nimalar yashirinligi yigitchaga kundek oydin edi.

— Eh, bu zavqdan tug'ilgan maftunkor daqiqalar bunchalar tez o'tib ketmasa, to'yguncha gashtini surishga ham qo'yishmadi, — deya keng peshonasiga qo'lini qo'yib, ko'nglidan kechirdi va donishmandlarning ehtiyotkorlik haqidagi hikmatli nasihatlarini esladi. Nima bo'lsa ham ehtiyotkorlik va sabrni qo'ldan bermaslikka qaror qildi. Axir arablar bekorga aytmaganlarku, sabr har yerda darmon, sabrga esa darmon yo'q, deb.

U sekin orqasiga o'girildi, naq ro'parasida gavdasi yirik, ko'rinishidan taxminan yigirma besh-yigirma sakkiz yoshli, soqoli o'sgan, yelkalari cho'kkan, ko'zlari ariqning bo'tana suvini eslatuvchi, beso'naqay bir odamni ko'rdi. Xirillagan ovoz qanchalar yoqimsiz bo'lsa, ko'rinishi ham shunchalik sovuq edi. Uni ko'zdan kechirarkan, bunday badbashaadan har narsa kutish mumkin, degan fikr ko'nglidan kechdi.

Et uvushtiradigan ovoz, yoshlangan ko'zlar, uzun jag', siyrak soqolli aft-angor — bularning hammasi uning tasavvurida noxush manzara yaratgandi.

— Eshitaman! — deya poytaxtdagi texnika institutlaridan birida me'morlik fakultetida tahsil olayotgan o'n yetti yoshli talaba hadiksirab javob berdi.

U odam esa og'zidagi saqichni chapillitib chaynar, bezbetlar-cha talabaga boshdan-oyoq tikilar va xirillardi. Qo'pol va keskin tarzda qarshisidagi yigitchaning yelkalaridan changallab silkitdi va buyrug'ini yangidan takrorladi:

— Qani, tez bo'l, cho'ntakni ag'dar! Pullarni chiqar buyoqqa! — deya qo'llari bilan po'pisa qilib jadalroq harakatlanishni buyurdi.

Talaba vahimaga tushdi. Yo'l chetida qad rostlagan qarag'ay daraxtlarining ko'lankasi, pastqam uylarning g'alati ko'rinishi undagi qo'rquv hisini yanada kuchaytirdi.

Yuragidan achchiq nola otilayozdi:

— Bunchayam xosiyatsiz joyda duch kelmasam...

Bir daqiqada tog'li qishloq, sersuv daryoda quloch otib suzishi, yaylovda qo'y-qo'zi o'tlatgan damlari yodiga tushdi. Qanday yugurib-yelardi u chog'larda! Vaziyatdan qutulish yo'li bo'lib tuyulgan yugurmoq istagi qalbini chulg'aladi. — Yagona yo'lim shu, unga baribir kuchim yetmaydi. Aks holda menga bir yomonlik keltiradi, — deb o'yladi.

Shu payt yigit uning yoqasiga yopishdi.

— Nima balo, karmisan?! Qo'l-oyog'im ishga tushmasdan pulni cho'z! — deya qistalang qildi bezori.

Talaba bir onda yoqasini uning changalidan xalos etib, orqasi-ga qaramay yugura ketdi. Yigit ham uni quvishga boshladi.

Keng ko'chadan o'tib, so'ngra muyulishdagi "Naxchivan" mehmonxonasi taraf pastliqqa chopib ketdilar. Do'konlarning ko'pi yopilgan, ayrim binolardan yorug'lik tushib turardi.

Yigitcha do'konlardan biriga kirmoqchi bo'ldi. Ham najot topmoq umidi, ham uni yana iskanjaga olgan ochlik hisini daf qilish uchun qulay fursat edi.

Lekin qo'lga tushishdan qo'rqib, fikridan qaytdi. Avtovokzalning yonidan o'tib, "Nizomiy" metrosi tomonga yugurdi. Bezori esa uning izidan kelar, bir zum ham ko'zini olmas, nazardan qochirishdan cho'chirdi.

Talaba shoʻrlik qora terga gʻarq boʻlgan edi. Hayajondan yuragi qinidan chiqayozgandi. Atrofda oʻtkinchilar koʻp boʻlishiga qaramay, hech kim ularni toʻxtatmas, bu quvdi-quvdining sababi bilan qiziqqan biror kimsa yoʻq edi. — Qishloqda boʻlsaydi, bu voqeaga befarq qolmasdilar. Shaharda nega bunday ekan-a? — deya koʻnglidan kechirdi.

Talaba yigit kutilmaganda oyoqlarida qattiq ogʻriq sezdi. Uzoq yugurganidan nafasi siqilib, harsillardi. Shuning uchun toʻxtashga majbur boʻldi. Orqasidan yetib kelgan bezori yana uning yoqasiga yopishdi va jahl bilan dedi:

— Ha, pakana, qayoqqa qochyapsan? Mendan qutulaman deb oʻyladingmi? Pulni buyoqqa ber, boʻlmasa boshingni majaqlayman.

Bu soʻzlardan talabaning yuragi orqasiga tortib ketdi. Shoshib qoʻlini oʻziga kattaroq turgan shimining choʻntagiga soldi. Roʻparasidagi nusxaning kaftiga qoʻliga ilingan bor-yoʻgʻi besh tiyinni qoʻydi.

— Bu nima? — surbetlarcha soʻradi bezori.

— Besh tiyingina pulim bor. Boshqa qolmagandi.

— Yoʻgʻe? — yugura-yugura tinkasi qurib, pishillab nafas olayotgan bezori qiziqsindi.

Dimlik tarqab, maydalab yomgʻir yogʻa boshlagan edi. Havoga yoqimli is taralayotgandi.

Bezori yigit bu javobdan talmovsiradi. Eshitganlariga amin boʻlmoqchidek asta kaftini ochdi. Ozroq qoraygan besh tiyinlikni koʻrarkan, shuncha yugurganiga achindi. Koʻcha chirogʻi ostida turib, sariq chaqaga tikilib qoldi.

Talaba esa xotirjamlik bilan koʻchadan oʻtdi-da, uyiga ravona boʻldi.

TOPILMAGAN TUPROQ

Yomg'ir ostida asirga aylangan bir necha odam parishon holda G'aribning so'nggi vasiyatini bajarish uchun nimanidir izlashardi...

Yomg'ir tinay demasdi. So'nggi vaqtlarda yomg'ir bunchalik sharros quymagandi. Lekin ular yomg'irga parvo qilmas, nimanidir qidirishda davom etishardi...

Amallab oyoqqa turib olganlar sel ostida G'aribning kulbasiga qarab yugurishdi.

Odamlar uyga yaqinlashishganda oqsoqol Muslimning oyog'i qayrilib ketdi, sal qolsa sel girdobiga kirib ketayozdi. Shu payt kimdir Muslimning qo'lidan tutib qolib:

— Sekin, oqsoqol, sekin, ulgurmasam oqib ketardingiz, — dedi.

Uy ostonasiga yig'ilgan odamlar birdaniga ikki tomonga ayrilib, o'rtani bo'shatib oqsoqol Muslimga yo'l berishdi. Oqsoqol Muslim ham shosha-pisha har tarafidan suv oqib turgan shapkasini silkitib ichkariga kirdi. G'aribni to'kilib yotgan uying bir xonasiga, yuzini qiblagga qaratib yotqizishgandi. Uyda qo'shni erkaklar yelkani yelkaga berib o'tirishardi. Bir burchakda o'tirgan uch-to'rtta ayol esa G'aribning sho'rlik ayoli Gulavatinni yupatishga urinishsa ham, uni tinchlantira olmayotgan edilar. Bechora ayol ko'zlarini har ochib yumganida, ulardan tashqaridagi kabi sel oqardi. Muslim oqsoqol G'aribning yonboshiga o'tib cho'kkaladi, shapkasini yoniga qo'yar ekan, bo'ynini cho'zib G'arib tomonga egildi va titroq tovush bilan so'radi:

— Alloh saqlasin, G'arib! Dabdurustdan senga nima bo'ldi?

G'arib Muslimning gaplarini eshitar, ammo javob berishga majoli yo'q edi. Ko'zlari kattalashdi... Hayajondan entikib nafas ola boshladi...

Yusuf iztirob to‘la ko‘zlari bilan “Eyvoh, juda kech bo‘ldi, boshimizga musibat tushdi, G‘arib ham shu aflozda ketadi...” degandek Muslimga qaradi.

Tashqaridan g‘ala-g‘ovur ovozlari kelar, ayollar va bolalarning faryodi, marsiya nolalari xonani to‘ldirardi.

Muslim oqsoqol qoq suyakka aylanib qolgan G‘aribning quruq qo‘lini kaftlari ichiga olib, xonadagilarga o‘g‘irilib qaradi va g‘am-nok ohangda:

— Ayollarga, bolalarga ayting, jim bo‘lishsin! Xudoga shukur, G‘arib soppa-sog‘. Biroz shamollab qolibdi... Doktor Rasim qayerda?! — deya ich-ichiga botib ketgan ko‘zlari bilan xonaga ko‘z yugurtirib, odamlar orasidan doktor Rasimni izlay boshladi.

Bu orada Yusufning zalvorli ovozi eshitildi:

— Doktor Rasim hozirgina keldi. U ham siz aytgan gaplarni aytdi: “G‘arib tashlab ketishga majbur bo‘lgan qishlog‘ini, uy-joyini o‘ylab siqilibdi, bu g‘amga chiday olmagan shekilli, yuragi xuruj qilib qolibdi! Boshqa hech gap yo‘q, bugun-erta oyoqqa turib ketadi” dedi. Keyin Baxshalining nabirasi ham kasal bo‘lib qolgani uchun o‘sha yerga ketdi. Dard ustiga chipqon bo‘ldi, Muslim! Baxshalining nabirasini it qopibdi, — dedi va yiqilib tushmaslik uchun tizzalariga tiralib oldi.

Alish Yusufning bu so‘zlaridan so‘ngra xonadagi tarang sukunatni yumshatmoqchi bo‘ldi:

— Eh, oshna, seni, meni yaratgan Allohga qasam bo‘lsinki, boshimga tushgan musibatni sen so‘rama, men aytmay... O‘tgan kuni boshimga ulkan tog‘ ag‘darilgandek bo‘ldi. O‘lib qolay dedim!

Shu payt G‘arib og‘riqdan ingradi. Balki nimadir demoqchi edi, lekin ingrashi-yu, tushunarsiz bo‘g‘iq ovozidan biror nima anglashilmadi. Yusuf: “Zolim dunyo, G‘aribni bizdan olyapti, bizning ham jonimizni oladi. U ketyapti, biz ham ketamiz. Shunday og‘ir dard bilan yashab bo‘ladimi? Yashab bo‘lmaydi! Xudo o‘z yurtimizda jonimizni olganida edi, hech bo‘lmasa qabrimiz o‘z tuproqlarimizda qolardi” deb o‘zicha g‘udrandi.

G‘arib yana ingradi... Yana nimadir demoqchi bo‘ldi, lekin aytmoqchi bo‘lgan gapini yana aytoilmadi. Madori qolmagandi,

qo‘l-oyog‘idan jon chiqqandek, tiliga esa tosh osib qo‘yilgandek edi go‘yo. Butun tanasi jonsiz-u, bor joni yolg‘iz ko‘zlarida qol-gandek edi. Ammo shu ko‘zlar han chuqur o‘raga tushib ketgan-dek... Bu so‘lg‘in ko‘zlarda ham o‘lim sharpasi aylanib yurardi. Qosh qoraya boshlaganda odamlar birma-bir uylariga tarqala boshladi. Qariyalar G‘aribning rafiqasi Gulavatinga tasalli berib, bolalari bilan birga qarindoshlarining yoniga jo‘natib yuborishdi va o‘zlari G‘aribning boshida o‘tirishdi ...

Yarim tun... Tinimsiz yog‘ayotgan yomg‘ir tagida qurilgan chodir va kulbalarda, xaroba uylarda yashovchilar allaqachon uyquga ketishgandi. G‘aribning yozda qamishdan, g‘ishtdan qur-gan pastqam uyining tomi kuz yomg‘irlariga bardosh bera olma-gan edi. Uyda tog‘ora, kosa, nima bo‘lsa chakka o‘tgan yerlarga qo‘yishdi. Uy tomi elakka aylangan, har yeridan chakka o‘tar, tomchilar zum o‘tmay chelaklarni, tog‘oralarni liq to‘ldirardi. Ichkaridagilar navbatma-navbat uyning taxta eshigini g‘irchillatib ochib, to‘lgan chelak va tog‘oralarni tashqariga to‘kishardi. G‘a-ribning ko‘zlari ochiq bo‘lsa ham hech nimani ko‘rmasdi. Aslida u chuqur uyquda, tush ko‘rayotgandi...

Tushida bolaga aylanib qolganmish. Onasining ortidan ketar, u bilan birga o‘rmonga, allaqanday notanish joylarga qarab bori-shardi. Charchadi. Ora-sira boshini ko‘tarib, onasidan so‘rarmish:

— Oyi, hali bormi?

Onasi har doimgidek uni ovutardi:

— Oz qoldi, bolam, juda oz qoldi...

Birdan yo‘l tugab, chuqur jarlikning boshiga kelib qolishdi. Onasi orqaga qayrilib, o‘zlari kelgan yo‘lga qaradi. Kelgan yo‘lla-rining tuprog‘i bir daryoga aylanib qolgan, asta-sekin toshib jar-likka oqib kelayotgandi. Onasi uning qo‘lidan tutib, titroq ovozda:

— Qo‘rqma, bolam, — dedi. Seni bu jarlikda tashlab ketmay-man. Bu yo‘l tugamaydi. Tugashi mumkin emas. Albatta, biror chiqish yo‘li bo‘lishi kerak.

Ammo boshqa yo‘l nihoyasiga yetgan, chiqish yo‘li yo‘q edi.

... G‘aribning ochiq ko‘zlari uyqudan uyg‘ongandek bo‘ldi. Ustunga osilgan lampaning xira nuri kulbaning tor xonasini yorit-gani sari G‘arib qamishdan urilgan devorlarda titragan sharpalarni

ko'rardi. Bu sharpalar boshi kesilgan qushlarga o'xshardi. Avval qo'rqdi, qichqirmoqchi bo'ldi, faqat sharpalar o'sha onda unga tanish ko'rindi. Ular o'z qishlog'ining, yurtining insonlari edi. Holdan toygan, toqati qolmagan, darddan, iztirobdan, uyatdan xayoli parishon insonlarni soyalaridan tanidi. Bu boshsiz sharpalar G'aribning yuragini yoqib kul qilardi. Ichi yonib, suv ichgisi keldi, faqat oddiy suv emas, aynan o'zi tug'ilib-o'sgan tog'larning, qonib ichgan buloqlarining muzday suvidan... O'sha sovuq suvlardan oxirgi marta, bir qultum bo'lsa ham icha olsaydi, yuragidagi bu yong'in ham o'chgan bo'larmidi...

O'lim tongga yaqin keldi... Ajal to'kilib yotgan uyning yon tomonidan asta-sekin kirib, G'aribni oldi-yu, sassiz-sadosiz chiqib ketdi...

Yomg'ir yog'ardi... Yomg'irda ivigan odamlar G'aribning so'nggi vasiyatini bajarish uchun nimanidir izlayotgandi...

Muslim oqsoqol esa qo'shni qishloqdan janoza o'qigani olib kelgan imomni chalg'itar, dafn marosimini yana biroz kechiktirishga urinardi:

— Jiyan, — dedi, — Ilohim bu bosqinchilarning uyiga o't tushsin! Qora daryodan esgan shamol bizni o'z tuproqlarimizdan yulib olib, bu yerga uloqtirgandan beri Vatanimiz bilan birga baxt yulduzimizdan ham ayrildik! Tuproq, Vatan hasrati yomon narsa, o'g'lim! Tug'ilib-o'sgan yerlardan ajralgan kunimizdan beri falak gardishi chappasiga aylanib ketdi. Tasaddug'ing bo'lay, o'g'lim, rahmatli ukamiz juda yaxshi odam edi. Armanlar qishloqni to'plardan o'qqa tutib bosib olishganida u o'zi bilan biror nima olishga ulgurmasdi, hech nimaga kuchi yetmadi. Yalang oyoq, bosh yalang yo'lga tushganida, balki unga suyanib yasharman deb, ro'molchaga bir hovuch tuprog'ini o'rab olib keldi. Bu bir hovuch tuproqni yo'qotmaslik uchun tez-tez joyini o'zgartirib turardi. Bizga ham qasam ichirgandi. "O'lganimda shu bir hovuch tuproqni ko'zimga to'kmasangiz, rozi emasman", degandi. Biz ham qasam ichib, so'z bergandik. Bechora to'satdan kasal bo'lib, tildan qoldi, tuproqni qayerga qo'yganini aytolmadi. Ertalabdan beri oyoqda tura olganlarning hammasi G'arib yashirgan o'sha bir hovuch tuproqni qidiradi. Qayerga yashirgan, qaysi tosh tagi-

ga qo‘ygan, Xudo biladi, lekin topa olmayapmiz. Shu bir hovuch tuproq yer yorilgan-u, yerning tagiga kirganga o‘xshaydi!

Imom peshingacha kutdi. Lekin tuproq topilmadi. Vaqt kutib turmaydi. Qosh qoraya boshladi. Imom janoza cho‘zilib ketganini ko‘rib, ketib qoldi...

Oradan yillar o‘tdi... O‘lim xaroba uylardan, kulbalardan odamlarni tashib ketyapti, uy-joyidan, Vatanidan quvilgan bir million odam esa hali-hanuz G‘aribning so‘nggi vasiyatini bajarish uchun o‘sha bir hovuch tuproqni qidiradi.

G‘aribning janozasi necha yillardan buyon o‘sha tuproqni kutib yotibdi...

O‘sha bir hovuch tuproq esa topilmadi, topilmadi...

SADOQAT

Bu rivoyatni buvimning tizzasiga o‘tirib tinglaganman. Naql qilishlaricha, arab sahrolaridan birida oq “kuloh”li baland bir qoya bor emish. Uzoqdan qaraganda, u boshiga oq ro‘mol o‘rab olgan qora kiyimli go‘zal qizni eslatarmish.

U qora otning beliga minib, biroz oldinga engashganicha yelib borayotganga o‘xsharmish. Go‘zal ot ustida borarkan, ko‘zlarini bekitayozgan ro‘molini bir qo‘li bilan nari surib, ortiga tashvishli nigoh tashlayotir... Yaqinlashib borganingiz sari qizdan nom-u nishon qolmashmish, qarshingizda viqor-la o‘shshayib turgan ulkan qoyadan bo‘lak...

Yo‘q, bu voqeani menga eski xotiralarim emas, aynan ko‘zlarim eslatdi, ko‘zlarim...

* * *

Entikib samoga termildim. Gapiirishga so‘z topolmasdim.

— Sadoqat, — deya pichirladim u tomon biroz surilarkanman. — Qara, sahnaga qancha ko‘zlar tikilib turibdi.

Qiz avval menga, keyin men qaragan tarafga boqib jilmaydi:

— Bir juft, ikki juft, uch juft...

U ko‘kdagi yulduzlarni, men esa, yerdagi — yashil kinoteatr sahnasiga qadalgan ko‘zlarni sanay boshladik. Birdan Sadoqat bolalarcha beg‘ubor hayrat bilan ko‘kda suzib yurgan Oyga ishora qildi:

— Qara, uning shoshib kelishini!

Oyga qaramadim. Sadoqatning yuziga boqdim. Nazarimda Oy ham nurini, xuddi to‘y atri misol qizg‘anmasdan ana shu zebo yuzlarga sochardi. Faqat uning ko‘nglini og‘ritib qo‘ymaslik uchun istar-istamas ko‘kka bo‘yladim. Chindan Oy qayoqqadir shoshilayotganga o‘xshardi. Ko‘p o‘tmay, shu‘lalar boshqacha

jilolanib, konsert boshlandi. Oy-yulduzlar bilan xayrlashib, sahna-ga ko‘z tikdik.

Sadoqat bilan yonma-yon o‘tirib, konsert tomosha qilayot-ganimga ishongim kelmasdi. Ish nimadan boshlanganini eslashga urindim. Ha, hammasi o‘zimga o‘zim yaxshilab tanbeh berganim-dan keyin boshlandi.

— Yigitga o‘xshasang-chi, bundoq, — dedim, — gaping bo‘l-sa, borgin-da, dangal ayt-qo‘y. Qachongacha tishi og‘rigan bemor-dek, tong otguncha to‘shagingda to‘lg‘anib chiqasan. Ko‘p o‘yla-gan, och qoladi. Ertagayoq borib, masalani ko‘ndalang qo‘y!

Ertasi kuni hamma ma‘ruzalar qulog‘im ostida kechagi xitob-ning takrori bo‘lib jarangladi. Oxirgi para tugashi bilan hammasini yana bir karra mulohaza qilib, Sadoqatning yoniga bordim. Ni-madir yozib o‘tirardi.

— Sadoqat, — dedim jur‘atimni to‘plab. — Ovozim titra-ganini sezdim. Boshini ko‘tardi. Jim turganimni ko‘rib, kulimsira-di. Keyin daftarlarini yig‘ishtirib, sumkasiga joylashtira boshladi. Uning ketib qolishidan qo‘rqib, fikrimni tamomlashga oshiqdim.

— Sadoqat, senga gapim bor edi, balki biroz... shoshilmay tu-rarsan?

So‘zlarim o‘zimga shu qadar quruq va kulgili tuyuldiki, nima qilishni bilmay, yuragimning dukillashiga quloq tutdim. Nazarim-da bu sokin auditoriyada hozirning o‘zida momaqaldiroq guldirab, to‘fon turadigandek edi. Bexos, Sadoqatning ovozidan o‘zimga keldim. Chamasi u ismimni tilga oldi. Keyin eshik tarafga odim-ladi. Balki u hech narsa demagandir? Balki nimadir degan bo‘lsa-da, eshitmagandirman? E Xudo! Odam degan shunaqa landavur bo‘ladimi?

Endi yana uni qachon xoli topa olaman? Yaxshiyamki, o‘zi to‘xtadi. Avvaliga ismini aytdi, keyin:

— Bugun shoshib turuvdim, — dedi. — Taklif etilganman. Bormasam bo‘lmas.

“Qayoqqa shoshilyapti? Kim qayerga taklif qildiykin? So‘ra-sam, to‘g‘ri bo‘larmikin? Nega yuragim buncha bezovta?

— Sadoqat, qayerga... bormoqchiyding?

Javob qisqa va lo‘nda bo‘ldi:

— Yashil kinoteatrga.

“Yashil kinoteatrga? Kim bilan boradi? Demak... Yo‘q, bo‘lishi mumkin emas. Buniyam so‘rasam bo‘lmas...”

— Bugun badiiy havaskorlik jamoalarining konserti edi. Opam ham chiqib qo‘shiq aytadi. Unga, albatta boraman deb so‘z berganman.

Bezovtaligimni yuzimdan o‘qidimi, har qalay, ana shunday, atroflicha ma‘lumot berdi. Yelkamdan tog‘ ag‘darilgandek bo‘ldi. Ko‘z oldim xiyol ravshan tortdi. Demak, opasi uni konsertga taklif qilgan. Men ham borsam bo‘larmikin? Sadoqat bilan birga. Ammo, chipta masalasi... Boradigan bo‘lsam, ikki kishiga chipta olishim kerak. Cho‘ntagimga qo‘l soldim. Barmoqlarim timirskilanib, pul qidira boshladilar. Chaqalar bir-biriga urilib, jiringlab ketdi. Uch manatli pulim bo‘lishi kerak edi. Qayerda qoldiykin? Manavi qog‘oz parchasi bo‘lsa kerak.

— Nima deding? — Sadoqat ko‘zlarini suzib, mening tushuniksiz g‘o‘ldirashimdan ma‘no izladi. O‘zimcha nimalardir degan bo‘lsam kerak?

— Shu...

— Nima shu? Nega buncha talmovsiraysan, ovsar? Gapir-sang-chi, javob kutypman.

— Shu... menam borsam, qarshimasmisan?

Indamay yerga qaradi. Yana o‘pkalarim to‘lib bo‘shashdi. Rostdan cho‘ntagimdagi pul uch manatlimikin? Balki bir manatlidir? Ertalab biror narsaga pul sarflamaganmidim?

— Qarshimasman, ketdik. Bari bir uyga boradigan bo‘lsam, konsertga kech qolaman. To‘g‘ri boraveramiz. Singlimning taklifnomasi senga nasib qilgan ekan...

...Hozir opam chiqadi. Eshitdingmi? Uning ismini e‘lon qilishdi.

Qo‘limga kimdir tegib ketgandek bo‘ldi. Seskanib Sadoqatga qaradim.

— Uyg‘otib yubordimmi?

Javob o‘rniga aybdorona iljaydim.

Qizargan yuzlaridan, dumaloq siynalari orasida bir-biriga mahkam chirmashgan barmoqlaridan uning hayajonda ekanini payqash

mumkin edi. Uning holati menga ham ta'sir qildi. Qisqa-qisqa nafas olarkanman, goh sahnaga, goh Sadoqatga tikilardim. Sahnadagi qiz malohat ila kuylardi.

Olqishlar boshlandi. Men ham hamma qatori o'rnimdan turib, qarsak chalar, zaldagi tomoshabinlarning olqishiga hamohang qichqirar, Sadoqatning opasini sahnaga chorlardim. Keyin Sadoqat yodimga tushdi. U tarafga o'girildim. Va... ko'z oldimda o't chaqnagandek bo'ldi. Sadoqat ko'zim aralash yuzimdan o'pib oldi. Konsert qachon tugaganini eslolmayman. Garangsib qolgandim. "Neftchilar" prospektiga tushdik. Sadoqat mening qo'limdan tutdi.

— Meni kechir, — dedi boshini quyi solib.

Hayajondan o'zimni yo'qotib qo'ygandim. Nimadir demoqchi edim, imkon bermadi. To'xtab, yo'limni kesdi.

— Mana, yetib ham keldik.

Chindan ham yetib kelibmiz (Sadoqatning uyini yaxshi bilardim). Tek qotgancha u bilan qay taxlit xayrlashish haqida o'y-lardim.

— Nima haqida o'ylayotganingni, menga nima demoqchi ekaningni ham bilaman. — Sadoqat ko'zlarini daf'atan yerdan yuzimga qadadi. Uning negadir ovozi titrab, tomchidek lablari orasidan sizib chiqdi. Ko'zlarim yumildi. Nazarimda turgan yerimiz asfalt yo'lak emas, bahor yomg'iridan so'ng kamalak ingan chamanzor edi. Bulutlar orasidan mo'ralagan quyosh nurlari ostida maysalar ustida turib qolgan shaffof tomchilar olmos zarralaridek tiniq shu'la sochardi. Biz ana shu go'zallik qo'ynida yolg'iz edik. Sadoqat qo'llarini keng yoygancha chamanzor uzra xuddi kamalakni bag'riga bosmoqchidek yugurib borardi. Uning yangroq ovozidan maysalar, chechaklar titrab, bag'ridagi tomchilarni poyiga durdek to'kardi. Birdan hushyor tortdim. Sadoqatning titroq lablari ohista pichirlardi.

— Men unashtirilganman... Qallig'im yaqinda xizmatdan qaytadi.

Ko'z oldimda zulmat quyuqlasha boshladi. Quloqlarim ostidan uning qadam tovushlari olislab borardi. Bora-bora "taq-tuq" tovushlar ham yo'qolib, qulog'im tom bitgandek bo'ldi.

Uyqudan uygʻongandek, u ketgan tarafga olazarak qaradim. U roʻparadagi qora toshdan qurilgan baland bino yonida mendan koʻz uzmay turardi. Kula-kula qoʻlidagi oq dastroʻmolini silkitib, men bilan xayr-xoʻshlashayotgan edi. U tarafga yugurdim. Yoniga yetib borganimda hayratdan tosh qotdim. Kimdir bexos yuzimga tarsaki tushirgandek boʻldi. Qiz turgan yerda qora toshdan tiklangan shu bino yuksalib borardi.

INSON

Keksa faylasuf sohil boʻyidagi xiyobonda dengizga yaqin qoʻyilgan oʻrindiqlardan birining yonida toʻxtadi. Barmoqlari bilan oq, jingalak sochlarini tarab, bilinar-bilinmas xoʻrsindi. Koʻzlari nomaʼlum nuqtaga qadalgancha qotdi. Keyin “Eh dunyo, dunyo” degancha oʻrindiqqa choʻkdi.

U mashhur olim, dunyoga dongʻi ketgan akademik edi. Jamiyatni taraqqiy ettirish borasida dohiyona fikrlari ila elga tanilgan, jild-jild kitob va darsliklar yaratgan edi. Oʻgʻil-qizlari ham ota izidan borib, ilm yoʻlini tanlagan edilar. U hammaning nazarida baxtiyor inson edi.

Keksa faylasuf hammaga oʻxshab fikrlamasdi. Hozir ham dengizga termilgancha, bosib oʻtgan yoʻli, dunyoyi dunning oʻtkinchi va bevafoligi haqida oʻy surmoqda edi.

— Amaki, Xudo yoʻliga xayr qiling!

Keksa olimning qarshisida yetti-sakkiz yoshlar chamasidagi yupun kiyingan bir bola qoʻl choʻzib turardi.

Olim avval nima qilarini bilmay turdi. Bolani quvib yuborishni ham, besh-toʻrt tanga sadaqa berib joʻnatishni ham bilmasdi. Nohoh bu goʻdak bilan suhbatlashish, uni bu noloyiq, yoʻldan qaytarish fikri tugʻildi.

— Bu yoqqa kel, bolam! Oʻtir yonimga.

Bola indamay uning aytganini qildi.

— Oting nima?

— Inson.

— Nima? Shunaqa ism ham boʻlarkanmi?

— Bilmasam.

— Bu ismni senga kim qo‘ygan? Inson o‘zini bunchalar yerga urmasligini aytmaganmi onang?

— ...

Qariyaning kayfiyati buzildi. U suhbatini qo‘r olmasligini anglab, bolaning javobini berish uchun cho‘ntak kovladi. Aksiga olib, mayda topolmadi.

Keyin gunohkor qiyofada bolaning yuzlariga tikildi. Uning nigohlari loqayd edi. Ketish uchun o‘rnidan turdi. Biroq, kekka faylasuf bolani quruq qo‘l bilan qaytarishni istamasdi. Hamyonini chiqarib, o‘n manatlik tutqazdi.

— Anavi muzqaymoq sotayotgan ayolga obor, maydalab bersin. Bir manatini o‘zingga opqolasan. Qolganini opqochib ketmasan, har qalay?

— Opqochib ketaman!

Qariyaning jahli chiqib, pul tutgan qo‘lini tortib oldi. Hayrat bilan bolaning ko‘zlariga tikildi. Bolaning qiyofasidagi avvalgi befarq ifoda yo‘qolmagandi.

— Bo‘lmasa, bor, ishingni qil, Inson!

Bola qimirlamay turaverdi. Qariyaning g‘ashi keldi. Bolani so‘kib, haydamoqchi bo‘ldi. Uning ko‘zlarida allaqanday mavhum bir uchqun chaq nab turardi. Bu uchqun qariyaning ham ko‘ngliga qandaydir qo‘r solgandek bo‘ldi. Fikridan qaytdi. Hamon qo‘lida tutib turgan pulni yana bolaga uzatdi, bu gal muloyimlik bilan gap qotdi:

— Mayli, bolam, olaqol. Hammasi senga!

Bola pulni olib, qariyadan uzoqlashdi. Olim anchagacha fikrini bir joyga jamlolmay turdi. Qiziq, bolaning nimasi uni o‘ziga buncheda bog‘lab oldiykin? Nega uning yuragi birdan bu qadar yumshab ketdi? Bu marhamat hissimidi yoki g‘azab? Kimdan, nima uchun g‘azablanishi kerak?

U bolani darrov jo‘natvorganidan xiyla afsuslandi. O‘ng-u so‘liga qayrilib qaradi. Bola ko‘rinmasdi. Keyin yana boshini egganicha o‘zining xayoliy olamiga g‘arq bo‘ldi.

... Ko‘p o‘tmay, qadam tovushlaridan sergaklanib, boshini ko‘tardi. Qarshisida boyagi bolakay turardi. Avvaliga quvondi,

keyin taajjublandi. Yana bir lahzadan so‘ng ich-ichdan g‘azab toshgandek bo‘ldi. Bolaga qarab baqirib berdi:

— Ha? Yana nimaga kelding? Tinchgina o‘tirgani qo‘yasanmi, yo‘qmi?

Qariya zarda bilan turib ketmoqchi bo‘ldi. Bolakay qo‘lini nimdosh shimining cho‘ntagiga solib, boyagi o‘ntalikni chiqardi va qariyaga uzatdi:

— Mang, amaki, oling pulingizni!

Keksa faylasuf hayratdan qotib qoldi.

— Nega? — so‘radi past ovozda.

— Oyim “Oborib ber, bu odamning puli bizga kerakmas, o‘ziga kafanlik olsun”, dedilar.

— Onang qani? — qariyaning yuragi muzlab ketgandek bo‘ldi. O‘rnidan turmoqchi edi, beli zirqirab ketdi.

— Ana, ketyaptilar-ku!

— Bor, tez borib, onangni qaytarib kel! — dedi qariyaning hayajondan nafasi bo‘g‘ziga tiqilib.

— Kelmaydilar, oyim sizni qarg‘adilar-ku!

— Onangni oti nima?

— Nargiz.

“Nargiz” — faylasuf xayolga toldi. Nargiz! Bu ism faylasufning, vijdonidagi qora dog‘ misol muhrlanib qolgan.

...Sakkiz yil ilgari hech kimi yo‘q, uzoq qishloqdan kelgan bir qiz o‘g‘lining to‘riga ilinib qolgandi. Albatta, o‘g‘li ham biroz yoshlik qilgan, hirsini jilovlay olmagan. Qizning bo‘yida bo‘p qolgan...

Ish hatto sudlashishgacha borib yetdi. “Adolat” sudining “adolat”li qozisi mashhur faylasufning hurmati yuzasidan, nozik odamlarning aralashuvi tufayli “odilona” qaror chiqardi. Nargiz hurmatli bir oilaning nomiga isnod tushirgani, tuhmat qilgani uchun bir yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi.

...Keksa faylasuf sud hukmini qayta tinglayotgandek bo‘ldi. U seskanib, boshini ko‘tardi. Bola onasining orqasidan ketib bordi.

— Inson! — Keksa faylasufning ovozi sohil bo‘ylab yoyildi.

Bola orqasiga o'girilib qaradi. Lekin yo'lidan qaytmadi. Qariyaning nazdida bola bilan birga yuragining bir parchasi uzilib borayotgandek bo'ldi. U ona-bolani orqaga qaytarish uchun hamma narsaga hozir edi. Lekin, Nargizdan ham, Insondan ham u ancha ilgari, bundan sakkiz yil muqaddam o'z INSONligini yo'qotgan damdayoq judo bo'lgan edi.

Inson uning kelajagi edi. U kelajagini yo'qotgandi. Xo'sh, uning o'rniga nima topdi? Keksa faylasuf yana qo'llari bilan oq sochini taradi. O'ng qo'lida turgan o'ntalik kaftini xuddi cho'g'dek kuydirardi...

UZOQLARDA BIR QISHLOQ BOR EDI

“Tiriklar asray olmagan yerlarda hasrat to‘la ruhlar yashaydi!” Oddiygina hovli edi... Uncha katta bo‘lmagan uy, meva daraxtlari, gullar va Sug‘ra onaning har safar yangi nom bergan o‘sha hovuzi... Shu qari ayol sababli hovuzni suv bilan to‘ldirishmagandi. Uning yonida hovuzda cho‘milish ham, hovlida quyosh tobida o‘tirish ham mumkin emas edi. Ora-chora chumchuqlar, qaldirg‘ochlar suv ichish uchun pastlashar, hovuz chetiga emas, quruq joyga qo‘nishganini bilgach, yana qanot qoqib uchib ketishardi.

Uyning shundoq oldidagi maysazorda gurkirab yotgan oppoq yasminlar uzra asalarilar g‘ujg‘on o‘ynashadi. Vaqt-vaqti bilan Sug‘ra ona bu arilarni boqayotganlar kim ekan va mening hovlimdan olingan gul shiralari kimning hovlisi yoki bog‘ida bolga aylanayotgan ekan, deb o‘ylab qolardi. Bu dunyoning ming bir tashvishini boshidan o‘tkazgan bu yuzi nurli ayol xotirasidan butunlay ayrilgandi. Bergan savollariga olgan javoblarini bir necha daqiqadan keyin unutar va bir xil savolni qayta-qayta beraverardi. Uni tashvishga soladigan yagona muammo, amalga oshmay qolgan orzusi va hech qachon unuta olmagan savoli shu edi:

“Qishloqqa qachon qaytamiz?”

Bu savol oldida hamma ojiz qolar, javob berolmas, kelinlarning ko‘zi yoshga to‘lar, erkaklarning esa tomog‘iga achchiq narsa tiqilgandek bo‘lardi. Sug‘ra ona qaytgisi kelgan qishloqning faqat nomi qolgan. Qishloq esa...

Ayro tushgan Vatanini, qishlog‘ini sog‘inmasin deb bolalari unga hovli sotib olishgandi. Nima desa, hammasini bajo keltirishar, aytganini ikki qilishmasdi. Lekin befoyda! Boshiga tushgan musibatlar, chekkan iztiroblar tufayli bechora ayolning xotirasi o‘chib ketdi. Ahvoli borgan sari yomonlashib boraverdi. Bolala-

rining, nabiralarning ismlarini adashtirib yuborar, gohida bolalarini vatan uchun jonlarini fido qilgan, shahid bo'lgan aka-ukalari bilan adashtirib yuborar, "ukajonim" deb quvonch bilan ularning boshlarini silar va o'zini turmush qurmagan yosh qiz deb bilar, dadasining uyini sog'inganini, necha haftadan buyon u yoqqa bormaganini aytardi.

Bir vaqtlar qishloqdagi to'ylarda, janozalarda bosh-qosh bo'ladigan, to'ylarda qozon-tovoqqa yelib-yugurgan, kelinlarga, qizlarga onalik qilgan, qishloqdagilarning hammasini tug'ilgan kunigacha yoddan biladigan ayolning endi mana shunday ojiza, bechoraga aylangani bolalarining yuragini tilka-pora qilardi. Lekin bir tomondan bolalari uning ko'rgan dahshatlarini, yo'qotgan insonlarini eslolmasligini yaxshilikka yo'yishardi. Balki uning xotirasi iztirob to'la hayotini unuttirish uchun ham butkul o'chib ketgandir.

Bu aflozda dunyodan va bo'lib o'tganlardan bexabar Sug'ra ona har kuni hovlidagi kursida o'tirib, atrofni tomosha qilar, hovlining toza havosidan, gul-chechakdan lazzat olar, unga choy damlagan, ovqat pishirganlarga va yordam berganlarga ham chin dildan minnatdorchilik bildirar, duosini kanda qilmasdi.

* * *

Buzovnada tong otdi. Mayin shabada esdi. Maysalar ustiga shudring qo'ngandi. Gullarning nam tuproq hidiga aralashib ketgan isi havoga o'zgacha ifor taratardi. G'ira-shira yorug'likda hali qushlar, arilar va insonni jonidan to'ydiruvchi xira pashshalar ko'zga tashlanmasdi. Sug'ra ona esa o'rganib qolgani uchun hali kun yorishmasdan uyg'onib, yuz-qo'lini yuvib hovliga chiqdi. Har doim yonida bo'lgan, yiqilib-netib qolmasin deb doim orqasidan qolmagan Kaklik ham yonida edi. Kaklik opasiga doimo yordam berib yurar, bu ahvolga tushib qolgandan beri yonidan bir qadam ham jilmasdi. Uning qiladigan ishi Sug'ra onaga ko'z-quloq bo'lib yurish edi. Chunki Sug'ra ona ikki marta gandraklab yiqilib tushgan va oyog'ini sindirib olgan. Shuning uchun ham Kaklik opasini hech kimga tashlab ketmas, atrofida parvona bo'lib yurgan kelinlarga ham ishonib topshira olmasdi. Aslida Kaklik ham yosh

emas, nari borsa, opasidan olti yosh kichik, lekin undan ancha baquvvat, sog'lom va chayir edi. Kaklik turmushga chiqmagani uchun bor-yu yo'g'i aka-ukalari, onasidek ko'rgan opasi edi. Butun umrini ularning yonida o'tkazgan, aka-ukalari o'lgach, butun mehrini opasiga bergan. Uning tashvishi ham, umidi ham Sug'ra ona. Sug'ra ona ham bu ahvolga tushib qolgach, Kaklik butunlay umidini uzib qo'ydi. Yolg'iz qolgan paytlari bir chekkada unisiz yig'lar, so'ngra ro'molining uchi bilan ko'z yoshlarini artib, qo'llarini ochib, duo qilardi.

Lekin u duosida nimalar deganini, nima so'raganini bir Alloh-u, bir o'zi bilardi. Bu duolardan keyin esa go'yo ko'ksiga shamol tekkandek, ko'zlariga nur qaytib kelgandek bo'lardi.

* * *

Yana har doimgi savol:

— Qishloqqa qachon qaytamiz?

Yostiqa yonboshlab mizg'iyotgan Kaklik cho'chib ketdi:

— Hoy, endigina tong otdi. Hozir qishloqqa boradigan paytmi? Jim bo'ling, bolalar biroz uxlasin...

— Qanaqa uyqu? Uxlaydigan paytmi? Itlarni bog'lab, mollarni o'tlatishga olib borish lozim. Mollar ochidan o'ladi-ku...

— Mollar allaqachon o'tloqqa ketdi, xotirjam bo'ling. Choy ichasizmi? Choy damlaymi?

— Sigirlarimchi? Sigirlarim qayerda? Ikkita sigirim bor edi. Yo armanlar olib ketdimi?

— ...

Sug'ra ona tizzasini mushtlay boshladi:

— Voy, do'zaxda kuygurlar! Bular buncha ham nomard ekan, a! Ey, Allohim! Nega hammasi juvonmarg bo'laqolmaydi?

— Hoy, opa! Bu yer Boku! Boku! Bu yer Buzovna, Bu-zovna... Yana unutingizmi?

— Nimalar deyapsan? Hoy, qiz, ota uyidan ketganimizga endi 3-4 oy bo'ldi, endi aka-ukalarimizga nima deymiz? Ikkovimizdan ham jahllari chiqadi. Menga qara, hozirdan aytib qo'yyapman-a, keyin bahona qidirib yurma!

Sug'ra ona birdan ma'yus tortib, jimib qoldi...

Tashqarida qo'shnining xo'rozi qichqirdi. Ayol atrofiga alanglab Kaklikka qaradi:

— Girgitton bo'lay, Kaklik, qichqirayotgan kimning xo'rozi?

— Qayerdan bilay, opa? Qaysidir qo'shniniki, shekilli...

— Abdol Shamining xo'rozimi?

Kaklik yig'lamoqdan beri javob berdi:

— Shami bu yerda nima qiladi, opajon? Bu yer Boku, Boku! Oh-h-h, Sug'ram, oh! Sen shunday ahvolga tushadigan ayolmi-ding! Xudoginamdan aylanay! Alloh yozgan taqdir shu ekan-da!

— Yana alahsirayapmanmi, a? Alloh battaridan asrasin, hali es-hushim joyida. Oh! Xudo jonimni olsa-yu, qutulsam! — degan Sug'ra onaning kayfiyati yana buzildi. Yuzidagi ajinlar ko'paydi. O'sha onda go'yo o'n yilga qarib ketgandek boldi. Etaging uchini g'ijimlab, g'udrana boshladi. Ularning ovozidan uyg'onib ketgan oila a'zolari ham birma-bir hovliga chiqdi. Kenja o'g'li Farid kelib, onasining qo'lini, yuzini o'pdi. Oldiga cho'kka-lab, boshini bolalardek onasining tizzasiga qo'ydi:

— Xayrli tong, oyijon!

— Xayrli tong, o'zim o'rgilay. Nega buncha kech turding? Qara, peshin bo'lay deb qoldi.

— Soat hali yetti bo'lgani ham yo'q-ku, oyijon. O'zingiz juda erta turasiz...

— Erta tongning havosi jonga davodir, ukam. Sen ham barvaqt tur, tong otmasdan uyg'on. Bog'da, hovlida aylan, nafas ol. Biroz avval sanab chiqdim, hovlida naq 28 ta archa bor. Biram chiroyli-ki!

Birdan ko'zi o'rtada qorayib turgan hovuzga tushdi. Qo'li bilan Kaklikni itarib davom etdi:

— Nari tur-chi! Anavi nima, ukam, qanaqa chuqur u?

— Chuqur emas, oyi, hovuz...

— Hovuzmi? Hovuz nimaga kerak?

— Cho'milish uchun, oyijon.

Sug'ra ona norozi bo'lib boshini silkitdi:

— Hoziroq chuqurning ichini tuproq bilan to'ldiring! Bolalar qorong'ida ko'rmay, yiqilib tushsa qo'li-oyog'i sinadi, Xudo asrasin!

Farid kulimsiradi. Onasi bu hovuzga har safar boshqa nom berar, goh xandaq, goh soy, gohida chuqur, juda asabiylashganda esa lahad der edi. Oilasining ham bu takrorlanaveradigan savolga beradigan javobi har safar o'zgaraverardi. Farid "Oyi, bu hovuz cho'milish uchun" deb rostini aytardi. Kelinlar va Kaklik "hovliga suv sepish uchun" der edilar. Nabiralari esa ermak qilib "O'zingiz aytdingiz-ku, buvi! Shu yerga bitta chuqur qazing, dedingiz, biz ham qazidik" derdilar. Bolalar u bilan hazillashganida, Sug'ra ona hayron qolar, bu chuqurni nega qazdirganini o'ylar, lekin arzigulik sababini topa olmasdi. Kaklik bunday vaqtlarda bolalardan jahli chiqar, "Buvingizni tinch qo'ying, shumtakalar!" der edi.

— Qishloqqa qachon ketamiz, ukajonim, — dedi Sug'ra ona. Ma'yus holda Faridning yuziga termulib qo'shib qo'ydi. — Uy qarovsiz qolib ketdi, Xudo biladi, bog'imiz, hovlimiz ham qovjirab ketgandir...

Yuragi ezilib ketgan Farid lom-lim demay o'rnidan turdi. Onasining oqarib ketgan sochlarini silab, peshonasidan o'pdi.

Sug'ra ona orqasidan chaqirdi:

— Menga bir necha kun avval aytib qo'y, narsalarimni yig'ishim kerak, aylanay, aytish esingdan chiqmasin tag'in! Xo'pmi? Aytgancha, bolalarimni ko'rsang ularga: "Onangiz sizni Boybo'rini, Bayrakni kutgandek, ko'zlari to'rt bo'lib kutyapti, insofsizlar" degin!

Oraga sukunat cho'kdi... Bu g'amboda ona uchun bir soniya bir kundek o'tardi. Lekin bir necha daqiqadan keyin ko'rganlarini unutar, yana hammasi boshidan, 25–26 yoshdagi qizlik davridan boshlanardi...

* * *

Tush vaqti jazirama issiq edi. Hamma kuydirayotgan quyosh tig'idan qochib uyda o'tirardi. Kimdir soya joy topib uxlar, kimdir o'z xonasida dam olardi.

Kaklikning uxlab qolganidan foydalanib, Sug'ra ona tashqariga chiqqisi keldi. Bir o'zi aylanib ko'ksiga shamol tegishini xohladi. Lekin hassasining ovozi uni qo'lga tushirdi. Cho'chib ko'zla-

rini ochgan Kaklik opasining yo‘qligini bilishi bilanoq, yoshiga xos bo‘lmagan chaqqonlik bilan o‘rnidan sakrab turdi.

— Meni uxlatib qochib chiqish qilg‘ingiz ham chiqdimi endi?! Yiqilib, u-bu joyimni mayib qilaman deb ham o‘ylamay-siz, a?!

Sug‘ra ona achchiqlandi:

— Nima, mendan donomisan? Odamlar mendan maslahat so‘rashadi, sen esa menga aql o‘rgatasanmi?

— Mayli-ku, opa, bir gapirsam yuztasini qo‘ndirib tashlaysiz, bu nima endi?

— Bekorchi gaplarni valdiraversang, shunday bo‘ladi!

— Xo‘p, mayli, gapirmadim.

Sug‘ra ona qo‘lini ko‘ziga pana qilib, mijja qoqmay bir nuqtaga tiqilib qoldi, keyin esa so‘radi:

— Anavi chuqur nima? Hovliga nega chuqur qazishdi?

— Suv to‘ldirib, hovliga sepish uchun...

Kaklik gapni qisqa qilish uchun yolg‘on gapirsa ham qutula olmadi.

— Hovliga suv sepish uchun shunchalik katta chuqur kavlaydimi? Bular quturib ketibdi! Hovliga suv sepishning boshqa yo‘li yo‘qmi? Qo‘shnilarda bunday chuqur yo‘q, ular qayerdan suv sepishyapti?

— Qayerdan bilay? Bolalar qazibdi-da.

— Ukamga aytaman. Chuqurni ko‘mib tashlasin. Odam payqamay qolib tushib ketadi. Bularning topgan g‘alvasini qara!

Kaklik o‘ylab topgan yolg‘onidan o‘zi pushaymon bo‘ldi, gapni aylantirmoqchi bo‘ldi:

— Daraxtlarni qarang, opa, qanchalar o‘sganini ko‘rdingizmi?

Sug‘ra ona o‘sha zahotiyoy chuqurni unutib, ko‘zlari quvonib ketdi:

— Ha! To‘xta, sanay-chi, nechta daraxt bor ekan. Bir, ikki, uch..., yigirma sakkiz. Roppa-rosa yigirma sakkizta daraxt! Buncha chiroyli bular!

Birdan esiga nimadir tushib qolib, oyog‘iga qaradi, atrofiga alanglab, boshini chayqadi:

— Ha, qorang o‘chgur, Tanya! Yana mendan so‘ramay tuflimni kiyib ketibdi. Ana endi tuflini qaytarib olib bo‘psan!

— Tanya kim, opa?

— Yuqori mahalladagi Seryojaning xotini Tanya bor-ku! Qachon hovlining eshigi ochiq qolsa, ichkariga kirib, qo‘liga tushganini kiyib ketadi. Keyin tan olmaydi.

Kaklik qahqaha otdi. Kulaverib nafasi yetmay qoldi. Opasi yana o‘tmishga qaytib qolib, aljiray boshlagandi. Sug‘ra onaning ahvoli hech qachon bunchalik yomon bo‘lmagandi. So‘nggi vaqtlarda ahvoli borgan sari og‘irlashib borardi. Kaklik ham tushkunlikka tushib qolar, so‘ng esa dahshatga soluvchi bu o‘ylarni xayolidan chiqarib yuborardi. “Bu ham Allohning marhamati” deb o‘ylardi. “Agar opamning xotirasi o‘chmaganida, kunda yuz marta qishlog‘ining nomini eslamasa edi, balki hamma narsa unutilib ketardi. Yoshlar esa vaqt o‘tishi bilan shunday qishloq borligini ham, u yerda bo‘lib o‘tgan voqealarni ham unutilib yuborishardi... Ey, Sayyid Suja ruhi! Avval Alloh, so‘ngra sen... Himmat qil, opamning dardiga shifo ber! Menga ham rahming kelsin... Undan boshqa hech kimim yo‘q. El-yurt oldida uni sharmanda qilma. U bunday ayol emas edi, sen uning qanday ayol bo‘lganini yaxshi bilasan. Sayyid Suja haqqi! Alloh joyingni jannat qilsin! Qurboning bo‘lay, opamni o‘zing qo‘lla!”

* * *

Sayyid Suja qishloqdagi eng obro‘li insonlardan biri edi. Uning shajarasi payg‘ambarimizgacha ulanib ketardi. Hamma hurmat qiladigan va xayrsevar odam bo‘lgan Sayyid Suja qishloqdagi maktabda tarix o‘qituvchisi edi. Uning bobosi ham, otasi ham juda obro‘li, insonlarning ko‘nglidan joy olganlardan bo‘lgan. Muqaddas dargohlari bor edi. Buning ustiga ajdodlaridan meros bo‘lib kelgan hikmat egasi edilar. Ularning yoniga borgan bemorlar shifo, dardlariga darmon topardilar. Qishloqliklar orasida bu oilaning muqaddasligiga va ularning ba‘zi karomatlar ko‘rsata olishlariga ishonmagan odam yo‘q edi.

Sayyid Suja bilan bog‘liq voqea esa haligacha kishilarning yodidan chiqmaydi.

... Sayyid Suja yoz payti bir necha o'qituvchi do'stlari bilan qishloq choyxonasida choy ichib o'tirgan ekan. Qishloq chetidagi arman mahallada yashovchi Agop nonvoy ham o'sha yerda ekan. Tushlikda bir-ikki qadah aroq ichgan Agop o'rnidan turib Sayyid Sujaga yaqinlashibdi va uning jig'iga tega boshlabdi. Sayyid Suja og'ir-bosiq odam bo'lgani uchun mast Agopning so'zlariga uncha e'tibor bermabdi. Qishloqliklar qanchalik uzoqlashtirishga urinsa ham Agop valdirayveribdi... Sayyid Suja bu mastga biroz toqat qilgach, o'rnidan turib, hammaning ko'z oldida Agorning qulog'iga nimadir deb pichirlabdi-yu, chiqib ketibdi. Agor o'sha zahoti dong qotib qolibdi, so'ng esa boshini egib u yerdan uzoqlashibdi.

Ertasi kuni tongda qishloqda "Agop aqldan ozibdi, qo'llarini yerga qo'yib, itdek huryapti" degan xabar tarqalibdi. Qishloqliklar yig'ilib, Agopni ko'rishga borishibdi. Qarashsa, chindan ham Agop it kabi to'rt oyoqlab akillar emish. Agopga savol berishsa, insondek gapira olmas, faqat hurar emish. Hatto, quturgandek har tomonga tashlanaveribdi. Bu voqeadan xabar topgan qishloq oqsoqollari uning Sayyid Suja g'azabiga duchor bo'lganini va la'natlanganini aytishibdi. Bir necha kun davom etgan bu hodisadan keyin Agopning barcha do'st-birodarlari to'planib, Sayyid Sujaning eshigiga bosh urib kelishibdi va Agopni kechirishini, uning dardiga chora topishini so'rab yolvorishibdi. Sayyid Suja tashqariga chiqibdi.

Hovlida irillab uyoqdan bu yoqqa yugurgan Agopga yaqinlashibdi va belidan kamarini yechib, uch marta yerga uribdi. Bir soniya ham o'tmasdan sho'rlik Agop silkinib oyoqqa turibdi. Sayyid Sujaga yaqinlashib, oyog'iga yiqilibdi. Ilk so'zi esa undan kechirim so'rash bo'libdi, o'sha kundan bunday yomonliklardan uzoq bo'lishga so'z berib tavba qilibdi.

Sayyid Suja ham bobosi va otasi kabi barvaqt vafot etgan... Uning ko'ngli bo'sh edi, urushning dahshatiga bardosh qilolmay, bomdod namozida bu dunyodan ko'z yumgandi. Lekin uning mo'jizalariga guvoh bo'lgan odamlar voqealarni har yerda hikoya qilishar, Sayyidlar ruhiga duolar qilib, ularga bu qudratni bergan Allohga hamd-sanolar aytishardi.

Kaklik chuqur o‘yga cho‘mdi: “Sayyidlarning ruhi nega boshqa bosqinchi armanlarga o‘z qudratini ko‘rsatmadi? Nega ularni yer bilan yakson qilmadi? Nega ruhlarini bezovta qilgan kofirlarni umrbod yer yuzidan supurib tashlamadi? Ularni ham itga, mushukka aylantirmadi? Shunday go‘zal qishloqlarni, uylarni, bog‘-u chamanzorlarni, yosh-qari begunoh insonlarni qirib tashlashlari uchun imkon berdi? ... Eh! Sayyid naslining nima aybi bor? Hamma ayb o‘zimiznikilarda. Bo‘ri bilan do‘st bo‘lsang, tayog‘ingni qo‘ldan qo‘yma, degan ota-bobolarimiz... Bu bosqinchilar asrlar davomida xalqimizning boshiga ne kunlarni solmadi, lekin biz baribir ular bilan yaxshi qo‘shnichilik qildik, o‘zimizga oshna qilib, uyimizning to‘ridan joy berdik. Bunday nomardlarga ishonganlarning boshiga falokat tushishi turgan gap ekan! Ularning popugini bir marta yaxshilab pasaytirib, boshlarida yong‘oq chaqish kerak edi, o‘shanda sabr kosasini to‘ldirish qanday bo‘lishini ko‘rar edilar... Lekin afsus, bo‘lmadi. Doim xato qildik...

... Qishlog‘imizda qo‘shnimizning bahaybat iti bor edi. Bu it bizdagi tovuq katagiga o‘rganib olgandi. Tinmay katakka kirib, eng yaxshi tovuqlarning ikki-uchtasini bo‘g‘izlab chiqardi. Qo‘shniga shikoyat qilsak ham foydasi yo‘q edi. U: “Katakka kirayotgan mening itim ekanini qayerdan bilasiz? Aytaylik, mening itim bo‘lsin... Endi sizni deb itimni o‘ldirmayman-ku!” deb, bizga parvo ham qilmasdi.

Bir kuni Sug‘ra opam katakda yana ikkita bo‘g‘izlangan tovuq topdi, qarg‘ay-qarg‘ay tovuqlarni tashlab yuborishga olib ketayotganida Qodirbey uni ko‘rdi. Tovuqlarni opamning qo‘lidan olib, qo‘shnining hovlisiga o‘tdi va o‘lik tovuqlar bilan itni boplab do‘pposladi. Shu-shu tovuqlar itning ustiga chiqib yotishsa ham, tumshug‘ining tagida don terib yurishsa ham qo‘rqqanidan qayirilib, ko‘z qiri bilan qaray olmadi...

Yovlarni ham ana shunday jazolasaydik, bizdan tuproq tortib olishga jur‘at qilarmidi? Xalqimizni qirib, qishlog‘imizni, uy-joyimizni talon-taroj qilishga haddi sig‘armidi?

Esiz! Qishlog‘imiz qanday chiroyli edi! Chiroyli ham gapmi... Bir tomonda bepoyon bog‘-u rog‘lar, bir tomonda esa sharqirab

oqayotgan suvlari shaffof soy... Suvi muzdek edi. Oyog'ingni suvga tiqsang, tishlaring taqillab qolardi. Lekin qishloqliklar bu soyning sovug'iga ham, issig'iga ham o'rganishgandi... Bir marta bolaligimizda Sug'ra soyga tushib oqib ketgan. Cho'kib o'lishiga sal qolgan. Tag'inam qo'shnilardan biri ko'rib qolib, Sug'rani qutqarib qoldi. O'sha kundan so'ng qishloqliklar uni mazax qilib, "Sora" deb chaqira boshlashdi. Yigitlar uni ko'rishlari bilan "Olib ketdi sellar Sorani..." qo'shig'ini xirgoyi qilishardi. O'n to'qqiz yoshida Qodir (Sug'raning bo'lajak turmush o'rtog'i) shunday qo'shiq aytadiganlardan birining quloq-chakkasiga tortib yuborgach, qaytib hech kim uni ermak qilmay qo'ydi. Qodir o'sha kuni Sug'rani o'ziga rom qilgan, bir yil o'tib turmush qurishgan edi. To'rt farzandning onasi bo'lsa ham u doim Qodirning ko'zida yagona go'zal ayol bo'lib qolgandi.

Malla, jingalak sochlari, sarvdek nozik qomati... Har ishni eplay olishi va chaqqonligi Qodirni o'ziga maftun etardi. Turmushlari go'zal edi, o'g'illarini uylantirib, qizlarini turmushga berishgandi. Lekin bularning hammasi o'sha hodisagacha, ular quvg'in bo'lgungacha davom etdi, xolos...

Arman bosginchilarning xunrezliklari endigina boshlangan vaqt edi. Qishloqlardan bir qancha odamlar shoshilinch ravishda Bokudan va boshqa shaharlardan uy olgan, ba'zilar esa allaqachon ko'chib ketgandi.

Qodirbey, uning jondan aziz ukasi Hasrat, boshqa aka-ukalari hech narsadan qo'rqmagani uchun qishloqni tashlab ketishmadi. To'g'ri, ov miltiqlarini tozalab, har ehtimolga qarshi tayyorlab qo'yishdi. Lekin qurollar kerak bo'ladi, deb o'ylamadilar. Hammasi joyiga tushib, davlat rahbarlari bu muammoni hal qilishadi, deb umid qilishgandi. Lekin...

Bir kuni hovlida yurakni titratib yuboruvchi faryod ko'tarildi. Uydagilar tashqariga yugurib chiqishgan, ko'rgan manzaralari oldida dahshatdan toshdek qotib qolishgandi. Armanlar shomga yaqin mollarni haydab kelayotgan Hasratni tutib olib, boshini kesgan, boshini esa buqaning shoxiga osib, qishloqqa jo'natgan edi. Bechora hayvon qonga belangan boshni ko'tarib hovliga kirib kelgandi. Ana o'sha kuni Sug'ra onaning sochlari bir zumda oqarib ketdi.

Hasratning “uch” marakasi endi o‘tgandi. Qodirning ukalari bilan birga bir guruh qishloqliklar Hasratning jonsiz badanini dushmandan olish uchun armanlar bilan uchrashgani ketishdi. Ammo yo‘lga qo‘yilgan minani bosib parcha-parcha bo‘lishdi. Oradan hech qancha o‘tmay yov hujumga o‘tdi... Qishloqqa yarim kechasi bostirib kirishdi, o‘lgan o‘ldi, omon qolganlar esa qochib jonlarini zo‘rg‘a qutqardi. Qodir ayollar va bolalarni yuk mashinasiga chiqarib, urush maydonidan olib chiqar ekan, bir necha joyidan o‘q yegan, shunda ham rulni qo‘yib yubormay ularni qutqarib qolgandi. Qodir Sug‘ra onaning qo‘llarida jon berar ekan: “Bolalarimning omonati...” deb ko‘zlarini yumgandi. Uysiz-boshpanasiz qolgan Sug‘ra ona do‘st-birodarlarini ham yig‘ib, ne-ne g‘am-g‘ussaga ko‘krak kerib yashashga urindi...”

* * *

Sug‘ra ona zo‘rg‘a nafas olardi... Yuzi so‘lib, ko‘zlaridan nur ketgandi.

— Bolalarim, bolalarim! Kaklikni ko‘rmadingizmi?

Sug‘ra onaning ovozidan uyg‘ongan Kaklik uyqisiragan holda esnab ko‘zlarini ishqaladi:

— Bismillahir rohmanir rohiym! Shu yerdaman, opa!

— Kaklik, Qodir meni so‘rab kelmadimi? Nega mendan xabar olmaydi? O‘likmanmi, tirikmanmi, Qodir biladimi? Odam odamdan hol-ahvol so‘raydi! Otdan, tuyadan hol so‘rarmidi! Ichkari-ga kirishi shart emas edi, hech bo‘lmasa ostonadan so‘rab ketsa bo‘lardi! Eh! Menday ayol shunga arziydi o‘zi. Qodirning haqqi bor! Borgan joyimga zulukdek yopishaman-u oylab qolaman. Uyjoy nima bo‘ldi, bola-chaqa nima bo‘ldi, mol-holga kim qaradi deb so‘rash yo‘q! Ertaga birorta mashina gaplashib, uyimizga qaytaqolaylik...

Kaklik nima deyishni bilmay, g‘amgin bosh chayqadi.

— Bu yerlarda boshpana bormi, Kaklik? Kechasi qayerda yotamiz? Bizning ko‘ch-ko‘ronimiz qayerda? Ko‘ch-ko‘ronimizni olib, yayov bo‘lsa ham uyga qaytaylik.

— Bu yer Boku, Sug‘ra opa! Boku deyapman, eshitmayapsizmi? Qayerga ketamiz? Qishloq qoldimi? Qishloq yonib kul bo‘ldi,

qishlog‘imizdagilarning bari qirilib ketdi! Siz ham buni tan oling! O‘zingizni biroz qo‘lga oling, baxtiqaro opam!

Sug‘ra onaning ko‘zlaridan tirqirab yosh oqdi. Kaklikning tomog‘i qurib qoldi. Opasining ahvoli yaxshi emasligini tushunib yetdi. U shu yoshga kelib hali Sug‘ra onaning yig‘laganini ko‘rmagandi... Eri ko‘zi o‘ngida o‘lganida ham, qaynilarining jasadi kelganida ham, Hasratning kesilgan boshini ko‘rganida ham yig‘lamagandi... Hatto, uy-joyi vayron bo‘lsa ham... Oxirgi paytlarda balki barcha iztiroblarini ichiga yutgani uchun, yig‘lab siqtamagani uchun shu ahvolga tushgandir. Kaklik:

— Voy, o‘lay! Ko‘nglimdan o‘tgani bo‘ldi, — deb hovliqa-hovliqa kiyinib, tashqariga otildi va bolalarni chaqirdi.

... Sug‘ra unsiz yig‘lar, duduqlana-duduqlana nimalardir derdi:

— Ey Xudoyim... Sayyid Suja keldi... “Qishloq juda issiq” deyapti. Uyimiz gurillab yonayotganmish.

U har gapirganida, Kaklik sochini yulardi.

— Naslidan o‘rgilay, Sayyid Suja: “Yaylovga chiqqanlar ham qishloqqa qayta olishmaydi, qishloq yonyapti... Tuproq yonyapti... Tuproqqa oyoq bosib bo‘lmaydi” deyapti...

O‘g‘illari onalarining burushgan qaltiroq qo‘llarini o‘par, chorasizlikdan uni qayerga o‘tqazishni bilishmasdi. Uyning nuroniy onasi endi titroq tovushi bilan marsiya o‘qir, o‘z-o‘ziga gapirib yig‘lardi:

Saksondan, to‘qsondan oshibdi yoshim...

Azroil hamdamim, mozor yo‘ldoshim...

Mozorni sog‘indi baloli boshim,

Chaqiryapman seni, kel, qaro baxtim!

Sug‘ra ona yosh to‘la ko‘zlari bilan o‘zi hech o‘rganolmagan uyining devorlariga qarab chiqdi. Bema‘no nigohlari bilan ismlarini allaqachon unutgan, ammo doimo mehr bilan erkalagan bolalari, nabiralari va kelinlaridan rozi-rizolilik tiladi.

Sug‘ra onaning boshiga to‘plangan katta-kichik hammasi yig‘lardi. Yer bilan yakson bo‘lgan katta qishloqning badbaxt onalaridan yana biri o‘zining azobli umrining so‘nggi daqiqalarini yashayotgan edi...

TUMAN

Qishloqqa birdan sukunat cho'kdi. Qishloqning hozirgi sukuti-ni ko'rganlar ham ishona olmagan bo'lardi. Chunki ikki-uch soat avval o'qlar, zambaraklar va og'ir tank zanjirlari ovozidan yer-u osmon larzaga kelardi.

Bu ovozlarning odamlarning eshitish imkoniyatlaridan ham oshib ketib, quloqlar bitib qolgandi.

Osmonni qop-qora bulutlar qopladi. Yoz edi. Holbuki, tong saharlab osmon musaffo, ko'm-kok bo'lardi. Endi esa to'plar-ning, o'qlarning tutuni, gurillab yonayotgan uylardan chiqayotgan qop-qora kullar osmonga ko'tarilib, qop-qora bulutga aylangan-cha osmonda turib qolgandi.

Qishloqda hech kim qolmadi, hamma yoq huvillab yotardi. Dushman to'satdan hujumga o'tib, qishloqqa bostirib kirganida, ulgurgan qochib jonini qutqardi, xastalar, qocholmaganlar esa dushman o'qlaridan halok bo'ldi.

Atrofda bir zog' ko'rinmas, qishloq sukunatga g'arq bo'lgandi.

Birdan vahshiyona qahqaha sukunatni buzdi. Arman ofitser egilib, devor orqasiga yashirinib qishloqdan qochmoqchi bo'lgan-larni ko'rib qolgan edi. Dushman askarlari darhol avtomatni ular-ga qaratib, tepkini bosmoqchi bo'lishdi. Lekin ofitser askarlarga buyurdi:

— Otmanglar! Menga bular tiriklayin kerak! Ushlab olib ke-linglar!

... Qochishga urinayotganlar uch nafar edi. Biri qariya, biri o'rta yoshli, biri esa yosh yigit! Qariya chuqur xo'rsindi:

— Bizni avtomat bilan otib tashlashganida bir umrga qutulgan bo'lardik...

O'rta yoshli kishi ham lablarini shunday tishladiki, lablaridan qon chiqib ketdi...

Yosh yigit esa hech narsa bo‘lmagandek xotirjam, uning ahvolidi hech qanday o‘zgarish bo‘lmadi.

Askarlar asirlarni nayza bilan turtkilay boshladilar. Qariya oyoq tirab, yurmaslikka urindi. O‘rta yoshli odam ham avvaliga qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Ular dushmanga qarshi ko‘krak kerishni istadilar, boshlari ustida o‘lim ko‘lanka solib turganida ham bo‘ysunishni xohlamadilar.

Faqat o‘spirin yigit egilmasdan, qaddini tik tutib, yura boshladi. Xuddi o‘limning ko‘ziga tik boqmoqchidek.

Ashkarlar qariya bilan o‘rta yoshli kishini qo‘mondon huzuriga sudrab kelishdi. Dunyoni fath etgan qo‘mondondek qo‘llarini beliga qo‘yib turgan ofitser sudrab olib kelingan qariya va o‘rta yoshli odamga qiyo ham boqmadi, nafrat to‘la ko‘zlarini yigitga qadadi va xayolidan nima o‘tgan bo‘lsa, ochiqchasiga bayon qildi:

— Qahramon askarlarim bir necha soat dam olgach, bu vayrona qishlog‘ingizni tark etamiz, dedi. — Albatta, sizni asir olib ketish niyatimiz yo‘q. Ishingizni shu yerdayoq bitirib, yo‘lda davom etamiz. Avtomatlarimiz o‘qlangan. Qorningizni ilma-teshik qilib tashlash uchun o‘qlarimizni ayamaymiz, ammo...

Arman qo‘mondon bir soniyaga jim bo‘lib qoldi. Uning har so‘ziga diqqat bilan quloq solayotgan asirlarga qayrilib qaradi:

— Ammo...

Qo‘mondon yana jim bo‘ldi. Keyin asirlarga boshdan-oyoq razm soldi va to‘satdan ularning yuziga sinovchan tikildi. Qariya va o‘rta yoshli kishining ko‘zlarida tirik qolishlariga yashirin umid uchquni yonganini, ularning nigohlarini his qilib, g‘urur tuydi. Lekin o‘spirinning qilt etmay turganini ko‘rib, jazavaga tushdi, buni sezdirmaslikka harakat qildi.

“Ko‘ramiz hali!” dedi ichida va g‘azabini yutib, nihoyat so‘zlarini tugatdi:

— Lekin men botir askarlarimning qahramonliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan guvohlardan birini o‘ldirmay, ko‘rganlarini hamma aytib berishi uchun tirik qoldirishga qaror qildim...

Qo‘mondon bu gaplarni aytib bo‘lgach, yigitning ko‘zlariga tikilmoqchi bo‘ldi, lekin uning ko‘zlaridagi ifodani anglay olmadi. Shu sababli yana-da yo‘g‘onroq tovush bilan:

— Faqat bir shartim bor. Kimning tirik qolishini, istasangiz, o‘zingiz hal qilasiz, — dedi va kibrli harakatlar bilan davom etdi. — Unvonim bilan qasam ichamanki, tanlovingizni hurmat qilaman, siz kimni tanlashingizdan qat’iy nazar, uni o‘ldirmayman. Sizga besh daqiqa muhlat, o‘zingiz kelishib, qaror qiling...

Qo‘mondon shu gapni aytib, askarlarga imo qildi va o‘zi ham biroz uzoqlashdi.

Uch asir yolg‘iz qoldi, oraga o‘lim sukunati cho‘kdi...

Avval qariya es-hushini yig‘ib oldi:

— Shaytonga la‘nat bo‘lsin! Quloq soling! Balki bu ahmoq va‘dasida turar!

O‘rta yoshli odam “Bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda bo‘lsa ham o‘lgisi kelmaydi” deb o‘yladi. O‘sha ondayoq butun vujudida o‘qning zahrini his qildi.

Faqat yosh yigit gapirmasdi. Jimgina kutdi. Qora bulutlar asta-sekin yo‘qolib borayotgan osmonga boqdi. Go‘yo quyoshni izladi.

O‘rta yoshli odam ikkilanib:

— Bu yigit yashasin, hali juda yosh, hayotda nima ko‘rdi, — deb pichirladi. O‘rta yoshli odam bu taklifni aytib, qariyani uyaltirgisi keldi. Ichida yana dedi: “Yoshingni yashab, oshingni oshagansan, davroningni surib qolgansan, lekin hali ham dunyodan to‘ymabsan. Sendan yoshlar bor, ular ham yashagisi keladi, deb o‘ylamaysan ham...”

Qariya lom-lim demadi. Qiziq, oradan necha daqiqa o‘tgandi, qancha vaqt qolgandi?

Qariya birdan hayajon bilan:

— Yoki... Yoki qur‘a tashlaymizmi? — dedi.

O‘rta yoshli odamning ichida tirik qolishiga umid uyg‘ondi, hayotga tashnaligini his qildi. Ovozi titrab ketdi:

— Unda yigitchadan ham so‘raylik, u ham rozi bo‘larmikin? Uning ham roziligini olish lozim, — dedi.

Qariya vijdonini tinchlantirishga urindi:

— Qo‘y, hammasi adolatli bo‘lsin, omad kimga kulib boqsa, o‘sha tirik qolsin, — deb pichirladi...

Qariya va oʻrta yoshli odamning tizzalari titray boshladi, peshonalaridan munchoq-munchoq ter oqa boshladi, terlarini artib tiz choʻkishdi.

Askarlar qoʻmondonlariga qarashdi, qoʻmondonning xayoli boshqa joyda edi, negadir chuqur oʻyga choʻmgan, ogʻiz ochmasdi.

Birdan bu beomon sukunatni yigitning kulgusi buzdi, bolalar-cha bu sof kulgi keyinchalik toʻxtovsiz qahqahaga aylandi...

Qariya va oʻrta yoshli odamga qarab, kula-kula ichagi uzilgan oʻspiringa yuzlangan arman qoʻmondon yana kech qolganini tushundi. Chunki oʻspirin undan avval qahqaha otgan edi va oʻq ovozlari ostida ham yigitning qahqahasi biroz muddat eshitilib turdi. Qoʻmondonning yuragiga sanchilgan va uni qoʻrqitgan narsa ham shu edi...

Soʻngra qishloqqa yana chuqur va qaygʻuli sukunat choʻkdi. Bu jimlikni buzayotgan narsa esa qishloqdan borgan sari uzoqlashayotgan dushman askarlarining qadam tovushlari edi.

SANDIQ HIKOYASI YOXUD QO'SHNICHILIK BURCHI

Hammasi o'sha qorasi o'chgur eski sandiqdan boshlandi. Men uy eshigini yopib, zinapoyadan chiqayotgandim, zinapoyaning tepasida kattakon sandiqqa duch keldim. Ehtiyotkorlik bilan bir amallab o'tdim, chunki u juda ko'p joy olgandi.

Ehtimol, kimdir vaqtincha qo'ygandir, erta-indin olib ketar deb o'yladim... Ammo keyingi kunlarda bu eskidan qolgan, "ko'pni ko'rgan" sandiqqa duch kelaverib kimdir uni keraksiz narsa deb uydan chiqarib tashlab yuborganini angladim...

Yuzi devorga qaratib qo'yilgan sandiqning kamida oltmish-yetmish yoshi bor edi. Qanday bildim deysizmi... Hozir aytaman, siz ham bilib olasiz...

Men bu binoda yashayotganimga o'n yildan oshdi. Hali ham qo'ni-qo'shnining aksariyatini tanimayman, aytishim mumkinki, na birov bilan iliq munosabat bor, na kim bilandir o'rtamizda gap qochgan. Yozning issiq oylarida ayollar kechqurun bolalarini, qariyalar esa nabiralarini olib hovliga tushishadi. Bolalar o'ynashadi, kattalar ham o'tirib vaqtini "o'ldirishadi".

Erkaklar dumaloq stol atrofida o'tirib, domino o'ynashadi, orada mamlakatda va hatto uning chegaralaridan tashqarida sodir bo'layotgan voqealarni o'zlari tushungancha tahlil va talqin qilishadi. Bu bilan ular go'yo "hamma narsadan xabardor ekanliklarini" namoyish etishga harakat qilishadi. Jinoiy voqealar, ajrashishlar, mahallada kim nima qilayotganidan boshlab, yana allaqanday katta-yu kichik masalalar ayollar tilida yangramasa, saralanmasa bo'lmaydi...

Bolaligimdan bunday g'iybatlarni yoqtirmaganimdan indamay o'tib ketaman va xuddi shu tarzda uyga qaytaman. Agar biz uydan bir yoki ikki nafar bo'lib chiqadigan bo'lsak, men hech kim bilan "Salom-alik" ham qilmayman. Zarurat bo'lmasa, mahalla do'koni-

ga ham kirmayman, chunki u yerga ham g'iybatsiz kirib chiqmaydilar. Sotuvchi daxli bormi-yo'qmi, qilayotgan ishingizdan, qayerga ketayotganingizni va qayerdan kelganingizni so'ramasa kuni o'tmaydi! Va keyin ma'lumot almashish boshlanadi... O'ylaymanki, men qilayotgan ish to'g'ridir...

Odatda deyarli bir xil qishloq odami yashaydigan ko'p qavatli binolarda yashab, qo'shnichilik munosabatlariga to'liq rioya qilishning iloji yo'q. O'tmishning ko'plab qimmatli an'alaridan bo'lgan qo'shnichilik aloqalari ham biroz buzilgan va zaiflashgan...

Yon qo'shnimiz esa mendan battar damduz odam edi. Qayerga ketgani, nima qilayotgani bilinmaydi. Bayramlarda biz bir-birimizga ostonadan ulushimizni beramiz va qaytamiz. Men keksa, oppoq sochli ayoldan boshqa hech kimni tanimayman. Yaqinda uning ismini bilib oldim. U tez-tez kasal bo'lib, shifokorga borish uchun uydan chiqadi. Yumshoq tabiatli, past ovozda gapiradigan ayol. Qo'shnilar ham uni tinch fe'li uchun yaxshi ko'rishadi, unga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi...

Ha, men sizga sandiq haqida so'zlayotuvdim axir... Vaqt o'tishi bilan, boshqa qo'shnilar ham keraksiz narsalarni, sotib olgan yangi televizor yoki muzlatgich solingan qutilarini olib chiqib, sandiqning yoniga qo'yib ketganini ko'rib, chiday olmadim. Go'yo ular zinapoyaning yuqori qismida axlatxona yaratmoqchi edilar...

Bir kuni qo'shnimning eshigini taqillatdim, so'zimni kirish qismi bilan boshlab, endigina maqsadga o'tganimni bilanman, ayol xotirjam ovozda dedi:

— Biz uni qo'ydik, sepim edi, uyni ta'mirlagandan keyin olib chiqib qo'ydik, bizga endi kerak emas, kim istasa, olishi mumkin.

Men aytdim, onajon, o'rgilay sizdan, uni bu yerda kim ham ko'radi? Pastga olib tushib, birovning ko'zi tushishi uchun mos joyga qo'ying... U rozi bo'ldi, lekin...

O'shandan beri bir necha oy o'tdi, Kovid-19 o'zi bir joyda turmadi va infeksiyalar soniga mos tarzda vaziyat goh yumshadi, goh yana keskinlashdi. Almisoqdan qolgan sandiq zinapoya tepasida, devorga o'girilganicha turaverdi. Men sandiq ham o'z holatidan

noroz, uyalayotganini his qilaman. Bir paytlar kelin bilan birga idish-tovoq va kiyim-kechaklar bilan to'ldirilgan holda, "Vag'zali" navolari ostida kuyovning uyiga keltirilgan bu sandiq endi keksayganda ta'mirlangan uyga mos kelmagani uchun ko'chaga tashlandi... Axir, u ayol ham o'sha yosh va chiroyli kelin emas-da...

Sandiq egasidan hech qanday tovush chiqmagach, men unga ehtiyoji bor odamni izlay boshladim va topdim. Bu kambag'al, mehnatsevar ayol duo qila-qila sandiqni olib ketishga so'z berdi, lekin qandaydir sabablarga ko'ra olib ketolmadi. Hozir sandiqning xaridorlari ko'paygan.

Ikki kun oldin bu ayolning ham, shunday quvonch bilan yangi joyga ko'chib o'tishga tayyorlanayotgan sandiqning ham yo'liga to'g'anoq bo'lib, ketishga qo'ymadilar. Ma'lum bo'ldiki, sandiqning baxti boshqa joyda ochilganmish!.. Ammo, aytdilar-ku, it pichan yemas, otga ham bermas, deb. Qizg'anchilik sabab, biror bir o'zgarish bo'lmadi.

Yana qaytarib zinaning tepasiga, devorga qaratib qo'ydilar. Har gal yonidan o'tganda, u hatto xijolatdan biroz kichrayadi va devorga yanada yopishadi, nazarimda...

... Ota-bobolar qo'shni haqi — Alloh haqi, oxirat haqi, deyishgan. Ya'ni bu ikkisiga ishongan odam qo'shnisini bezovta qilmaydi. Bir hadisda qo'shnilik huquqiga rioya qilishning ahamiyati ta'kidlangan: "Jabroyil menga qo'shnisi haqida shunchalik qat'iyat bilan tavsiyalar berdiki, u qo'shnini qo'shniga voris qilib qo'yadi deb o'ylagandim" (Buxoriy, "Adab" 28, Muslim, "Bir" 141). Agar biz insonning eng yaqin odami uning vorisi bo'la olishini nazarga olsak, u holda aytilganlarni tushunish unchalik qiyin emas...

Endi men sandiqning ilhaqligi tugaydigan va mening xotirjamligim boshlanadigan kunni kutayman.

Bu safar ham ko'chish yuz bermasa.. yo'q, yo'q, keling, nekin bo'laylik, eski sandiqni yangi manzilga "Oh-ohlab" olib ketishadi, u ham kimgadir lozimligini his qilib, hayotga bog'lanadi, umri biroz uzayadi deb umid qilaylik. Xudo xohlasa, mening ham sandiq dardim axiyri tugaydi, qo'shnilik burchi haqida uzundan uzoq ma'ruzalar qilmayman...

Men yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini saqlab qolish uchun aynan shu yo'lni tutdim. Axir, qo'shni rishtalarining kuchi nafaqat moddiy masalalarga, balki ma'naviy tayanchlarga ham bog'liq-ku.

Afsuski, har bir sohada o'z muammolarini bunday arzon yo'l bilan hal qiladiganlar bor. Yaponlarning aytishicha, xayrixoh odam yolg'iz qolmaydi, doimo uning qo'shnisi bo'ladi!.. Xayrixohlik esa har kimning ham qo'lidan kelavermaydi...

SARXUSH

U kichkina televizorning tugmasini bosdi. Televizor biroz pir-pirab, xonaga ko‘kish shu‘la taratdi. Bunaqasi hozir hech kimda yo‘q, o‘yladi o‘zicha. Qayerdanam bo‘lsin? Bundan yigirma yil ilgari chiqarilgan oq-qora rangli matohning kimga keragi bor?

Lablari burishib pichirladi:

— Yo Rabbiy, o‘zing madad ber!

O‘zini toshdek qattiq eski divan ustiga tashladi. Stol tagida bir necha kundan beri turgan yarim shisha aroqning og‘zidagi tiqinni tishida ochib, ikki-uch qultum yutdi-da, tamshanib qo‘ydi. Kichik bolishni buklab, boshiga qo‘ymoqchi bo‘lganida dimog‘iga o‘g‘li To‘g‘rulning sut aralash hidi urildi.

Xotini Sudoba bolasini qo‘ltiqlab otasinikiga ketib qolmagani-da, bugun uning yetti oyligini nishonlagan bo‘lishardi.

Roppa-rosa yetti oy ilgari Sudoba unga otalik baxtini ravo ko‘rgandi. Ismini ham Sudobaning o‘zi qo‘ygan. Eri ham bunga qarshilik ko‘rsatmadi.

Er bo‘lib unga nima qiloldim, hech bo‘lmasa o‘g‘liga o‘zi istagan otni qo‘yaqolsin, dedi.

Bir paytlar o‘g‘il ko‘rsam, otamning ismini qo‘yaman, deb yurardi. Sudoba bir gal, “Otangiz nima ish ko‘rsatgan o‘zi?” deya kesatganidan keyin, dami ichiga tushib ketdi. “Bir yetimning peshonasi sho‘r bo‘lsa, shunchalik bo‘lar-da!” deya xayollandi va vaqtni bilish uchun qo‘l soatiga qaramoqchi bo‘ldi. Shu choq soatini ikki kun ilgari o‘n kundan beri yig‘ilib qolgan besh ming manat qarzidan qutulish uchun non do‘koniga topshirgani esiga tushirdi. Kulgisi qistadi. To‘g‘risi, uni hamma telbaga chiqarib qo‘ygan. Buni yuziga aytmasalar ham, orqavarotdan uni savdoyi deb bilishlaridan u ham voqif.

“Rostdan ham shunaqadir?” degan xayolga bordi.

Naq suvning ichida yotib-turib yurgan odamni kim ham jinni demasin?

Toshqin butun qishloqni suvga g'arq etayozgandi. Kundan kunga ko'tarilib borayotgan suv sathi u yashayotgan g'arib kulbani kichik bir orolchaga o'xshatib qo'ygandi. To'rt oydan beri suv o'rtasida qolib ketgan, xom g'ishtdan tiklangan bu boshpanasi bir paytlar uning ko'ziga hashamatli qasr bo'lib ko'rinardi. Hozir esa zax tortib ivib ketgan devorlar yiqilishga mahtal turardi.

“O'zimam g'alatiman, o'yladi u, bu yerda Sudoba qanday qilib yashashi mumkin edi? Uch oylik chaqalog'i-chi? Uyda yegulik yo'qligi, pul yo'qligi uchun ona sho'rlikning siynasidan sut qochib ketgani rost-ku? Sho'rlik Sudoba, hozir nima qilayotgan ekan-a?”

To'g'rulni eslashga tirishdi. Yuzini ko'z oldiga keltirolmadi. Faqat ko'zlari yumuq go'dakning tili bilan og'zidagi so'rg'ichni chiqarib tashlagani yodida qolgan. Bechora chaqaloq shunaqa chinqirib yig'lardiki, eshitgan odam hozir jigari yorilib ketadi, deb o'ylardi. Keyin yodiga Sudobaning qarg'ishlari tushdi.

— Hammang, senam, otang ham qirg'inga uchrasalaring bo'l-masmidi?

Bu gap qulog'i ostida jaranglarkan, yuziga sovuq suv sepilgan-dek bo'ldi. Joyidan irg'ib turdi. Divanda o'tirganicha televizor sari egilib, uning ovozi ko'tardi. Jini suymaydigan bir qo'shiqchi ayol kuylayotgan edi.

— Padaringga la'nat, qanjiq! Atayin g'ashimga tegish uchun har kuni televizorga pul berib chiqadimi deyman!

Bu fikridan o'zining ham kulgisi keldi: “Qara-ya, seni tanir-kan-da, g'ashingni keltirmoqchi bo'larkan”.

Ehtimol, tanishi ham mumkin edi. Agar maktabni bitirgan yili poytaxtga borib o'qishga kirganida, ana shunday mashhur qizlarni ko'rishi, ular bilan tanishishi mumkin edi.

Eh, yetimlik qismati shu bo'lganidan keyin u qayerda-yu, Bokuga borib institutda o'qish qayoqda?

Yana nimalar haqida fikr yuritishi mumkin?.. Boshqa mavzu qolmadimikin? To'rt oydirki, mana shu divan ustida, shu oynayi jahon qarshisida yakka-yu yolg'iz o'y surib yotishdan boshqa ishi yo'q edi.

— Kecha Neftchilar tumanidagi Kur daryosidan qayiqda kesib o'tmoqchi bo'lgan 16–22 yoshlardagi ikki kishi suvga cho'kib ketdi. Ularning jasadlari haliyam suv tubidan qidirilmoqda.

16–22 yoshli... Suxandon qiz buncha sovuqqonlik bilan gapirmasa? To'g'ri-da, cho'kkan bo'lsa unga nima? O'zi bir tarafda toshqinlar, bir tarafda qochqinlar millatni qiyin vaziyatga solib qo'ydi.

... Shu choq ich-ichidan azobli og'riq turganini his etdi. Og'riq kuragi tomon o'rmaladi. Turmoqchi bo'ldi, majoli yetmadi. Qo'lini divandan pastga tushirib, eski sholcha ustiga tiradi. Bor ovozi bilan qichqirgisi keldi, ovozi chiqmadi. Nafasi yetmayotganini his qildi. Yo Rab, bu qandayin og'riq bo'ldi?

O'g'li, hatto yuzi ham xotirasidan sidirilib ketgan jigarbandi esiga tushdi. Keyin xotini...

Uzoqdan esa onasini ko'rgandek bo'ldi. Bor kuchini to'plab, xonasi tarafga intildi. Ammo onasi unga yaqinlashishi o'rniga tobora uzoqlashib borardi. Sudrala-sudrala ayvonga chiqdi. Havo yetishmayotganini sezdi. Hovliga uzangan zinapoyaga yaqinlashdi. Pog'onalar ustidan dumalab, bir necha oydan beri hovli yuzini bosib yotgan ko'lmakka quladi. Bir zumda badani suv tagida qoldi.

... Ertasi kuni oynayi jahonda, jumladan, Sudobaning ota uyidagi oq-qora televizordan ham ushbu xabar tarqatildi:

— O'ttiz-o'ttiz besh yoshlardagi kishining jasadi o'z hovlisidan topib olindi. U spirtli ichimlik oqibatida vafot qilgan deb gumon qilinyapti.

QATL

O'shanda, bir qo'lida non, ikkinchisida tovuş patlaridan yasalgan piriak bilan dunyoga sig'may yurgan bu rangpar, ozg'in va oyoqyalang bolaga vaqti kelib, dengiz sohilida uch qavatli uying, ayvonlari chor tarafga qaragan hashamatli mulking bo'ladi, desalar, ehtimolki u taajjublanmasdi. Bundan g'ururlanib, "Samolyotim ham bo'ladimi?", deb so'ragan bo'lardi.

Undagi bu kibr, bu xudparastlik qayoqdan paydo bo'ldiykin? Buni hech kim aytolmasdi.

Maktabda yomon o'qimasdi. Janjalkash, jangari ham emasdi. Ammo, hamma uning tezroq maktabni bitirib, kattaroq o'qishga kirishini, yoki Bokuda kattaroq ishga ilinib, bu qishloqqa qaytib kelmasligini istardi.

U dunyoga kelgan kuni onayizorning o'zi dorulfano bilan vidolashgandi. Aslida ko'plar bola ham o'lgan bo'lsa, kerak, deb o'ylovdi. Tug'gan xotinning atrofida girdikapalak bo'lib, qo'rquvdanmi, hayajondanmi tili kalimaga kelmay qolgan doya xotin bir tarafga e'tiborsizgina irg'itgan qop-qora go'sht parchasi kutilmaganida shundoq faryod soldiki, xonadagilarning esxonasi chiqib ketayozdi. Bu qichqiriqdan joni uzilayotgan ayol ham bir seskanib ketdi. So'nggi bor ko'zlarini katta-katta ochgancha, omonatini topshirgandi.

Bu voqeani qishloqdagi katta-kichik bilardi. Chaqaloqning chillasi chiqmay, hali bu so'z-suhbat tugamay turib, qishloqqa otasining ham mayitini olib kelishganda, ba'zilar uni tuman markazida moshin urib ketganini aytdi, ba'zilarning aytishicha, katta yo'lda jasadi topilgan, kimligini bilisholmay, o'likxonaga olib borishgan, tanish-bilishlari xabar topib, uni qishloqqa olib kelishgan.

Shu tariqa qirq kunlik chaqaloqni kim boqishi masalasi ko'ndalang bo'ldi. Hech kimning bu bexosiyat chaqaloqni katta qilishga yuragi betlamadi. Qarindosh-urug'lar bolani Bokudagi yetimxonaga eltib topshirishga kelishganida, Samoya ismli bir ayol indamay kelib, qo'ndoq bolani amakisining xotini qo'lidan oldi va sassiz orqaga qaytdi. So'ngra orqasidan qadalgan savol to'la ko'zlarga boqib, aytdi:

— Erim yo'q, otam, aka-ukalarim yo'q. Balki shu bola mening suyanchig'im bo'lar.

Lekin bu bola yemay yegizib, kiymay kiygizib katta qilgan Samoyaga ham, o'zining tug'ishgan qavm-qarindoshiga ham suyanchiq bo'lmadi. Maktabni bitirar-bitirmas, hammadan yuz o'girib Bokuga ketdi. Samoya ham bundan ortiqcha ranjib o'tirmadi.

— Birovning qornidan tushgan bola boshqaga el bo‘larmidi? Hozirgi kunda o‘z tug‘gan bolangdan oqibat ko‘rmaysan-ku! — Samoya lablari titrab-titrab yana shuni ham ilova qilgandi. — Xudoning yozgani shu ekan-da! Taqdir...

O‘shanda odamlar bilgandiki, Samoya bolaga bergan non-tuziga rozi bo‘lsa-da, qismatidan rozi emas. Shu bois, hech kim uning yongan yuragiga moy ham sepmadi, taskin ham bermadi, hamma sukutga toldi. Oradan yillar o‘tib, uning suratini gazetada, oynayi jahonda ko‘rganlar ham bu eski suhbatga qaytmadi. Samoya ham dunyodan o‘tib ketdi.

Ammo o‘shangacha, bir kimsa uning o‘zi bilan olib ketgan g‘am-anduhidan xabar topmadi.

Bola esa, ulg‘ayib, o‘sib, ko‘tarilib bordi. Uylandi. Shunday bir oilaning qizini olgan ediki, dunyodagi barcha eshiklar uning uchun ochilgandek edi. Lekin hech kim bilan chiqisha olmaydigan, injiq xotini, bola-chaqasi, qayinbo‘yinlari bir qo‘lida bug‘doy noni, birisida tovus patidan yasalgan pирpiragi bo‘lgan bu bolani seva olishmadi. Bunda qanday sir bor edi?

Xotini bir necha yil ilgari o‘g‘liga qo‘shilib xorijga ko‘chib ketganida bu haqda bir og‘iz maslahatlashish nega hech qaysisining xayoliga kelmaganini u tushuna olmasdi. Uni shunchalik unutishgan ediki, go‘yo bu odamning o‘zi umuman hayotda bo‘lmagandek.

“O‘lib ketmaydimi bari, — o‘ylagandi o‘shanda, — uy-joyim bo‘lsa, davlatim umrimning oxirigacha yetib ortsa, menga yana nima kerak? Harqalay o‘ligim ko‘chada qolib ketmas”.

U hozir uchinchi qavatda, ayyonda o‘tirgancha ana shularni xayolidan kechirardi. Va bu tushunchalar ichida badanini sovuq ter bosgandi. Orada ko‘ngliga bir yorug‘lik inar, ko‘p o‘tmay darrov so‘nib qolardi. Avvaliga sovuqotapman, deb o‘yladi. Dengiz sabosi uning yuzlarini siypalagani sari u sovuq ter ichiga g‘arq bo‘lib borardi. Ich-ichidan qandaydir haroratni his etsa-da, a‘zoyi badanini varaja tutib, tishlari taraqlay boshladi.

“Men o‘zi nima uchun bu haqda o‘ylab qoldim? Nega bularni eslashim kerak? Hammasi oldinda-ku! Tezroq tong ota qolmaydimi?”

Fikrlari yarmidan kesildi. Havo yetishmayotganini his etdi. Tavba, bu balandlikda, dengizdan bor-yo'g'i 50–60 metr uzoqda nima uchun unga havo yetishmayapti?

“Balki, qon bosimim ortgandir?” Miyasiga birinchi bo‘lib urilgan fikr shu bo‘ldi. Shippagini shoshilinch oyog‘iga ilib, xonaga kirdi. Aylanma zinalardan ikkinchi qavatga tushdi. Yotoqxonaga o‘tdi. Deraza ochiq bo‘lgani uchun uzun harir pardalar havolanib, uni quchoqlamoqchi bo‘lganida ko‘ngli behuzur bo‘ldi. O‘zidan chetga surmoqchi bo‘lgani sayin pardalar uni yanayam mahkamroq o‘z og‘ushiga olmoqchi bo‘lardi. Bu ne hayajon bo‘ldi? Nega hamma narsa uning g‘ashiga tegaveradi? Pardani zarb bilan uzib yerga itqitdi. Ayyonga chiqdi. Yana nafasi siqildi. Dengiz tomondan g‘alati shovullash eshitilardi. Shamol to‘xtagandi. To‘lqinlar ham tingan. Unda sukunat bag‘rini yorib chiqayotgan bu ovoz qayerdan kelyapti? Bu yerda ham halovat topmadi. Yotoqxonaning ayyonga ochilgan eshigini ham, bir necha kundan beri ochiq turgan derazalarni ham yopdi. Go‘yoki uni mahv etishga urinayotgan vahimaning yo‘lini to‘smoqchi bo‘ldi.

Joyiga uzanmoq istadi. Karavotning ustidagi choyshabni ko‘tardi. Lekin karavotga ham o‘tirolmadi. Go‘yo karavotga yotsa, uni so‘ngsiz bir uyqu olib ketadigandek. Xonada undan boshqa yana kimningdir borligini his qildi.

— Kim, — deb baqirmoqchi bo‘ldi, ovozi chiqmadi. Bo‘g‘ziga nimadir tiqildi, shekilli. Xirillashga tushdi...

Yo‘q, boshqa yozolmayman. Qo‘llarim qaltirayapti. Kaftlarim jiqqa terga to‘lgan. Bu vaziyatda boshqa davom ettirmoq mushkul. Yuragim ko‘ksimga sig‘mayapti. Dukillab urayotganinin eshit-yapman.

“Ko‘zlarini yumdi, xuddi uyquga ketgandek. O‘ldi...”

Shu ikki jumlanı yozib to‘xtataman.

Bu qotillik edi. Uni men o‘ldirdim. Dunyoga kelishi bilan o‘z volidasini o‘limga giriftor etgan bu kimsani men o‘ldirdim. Bilmadim, ko‘rinishi qanaqa edi, bo‘yi qancha edi? Faqat shuni bila-manki, bu uning uchun juda arzon o‘lim bo‘ldi. Lekin bu haqiqiy qatl edi. Men uni o‘ldirdim...

Qo‘llarim titraydi...

BANKNING TO‘RTINCHI QAVATI

Nima uchun biz har doim o‘zimiz umidvor bo‘lgan, ko‘z tutgan insonlardan ranjiymiz? Kim biladi, balki bu bizning yagona baxtimizdir? Axir, hech bo‘lmaganda o‘sha, biz arazlagan odamni qanchalik qadrlashimizni o‘lchashimiz mumkin. Biz undan naqadar ranjisak, uni shu qadar yaxshi ko‘ramiz...

* * *

Bank to‘rt qavatli binoda joylashgan edi. Birinchi qavat umumiy kredit amaliyotlari uchun ajratilgan. G‘aznachining xonasi ham shu yerda edi. Ammo u doimiy maxsus xavfsizlik tizimi bilan himoyalangandi. Ikkinchi qavatda bank direktori, buxgalter va amaliyotchilarning xonasi bor edi. Uchinchi qavat butunlay direktor muovini ixtiyorida edi. U katta xonadan kabinet sifatida foydalanar, kichkina xonada esa namoz o‘qirdi. Namozgohga faqat g‘aznachiga kirishga ruxsat berilgandi, xolos. Chunki u ham namozxon edi. Va to‘rtinchi qavatda...

Jayron buni aniq bilmas edi. Taxminan olti oydan buyon uning onasi ushbu bankda farrosh bo‘lib ishlardi. Kechqurun, ish vaqti tugagach, barcha xodimlar uylariga ketishardi. Ayrim holatlar-dagina buxgalter va direktor ishdan keyin qolishardi. Kun davomida buxgalteriya bo‘limi bankda amalga oshirilgan operatsiyalar natijalarini hisobot sifatida direktorga taqdim etar va birozdan so‘ng ular ham binodan chiqib ketardilar. Shunday qilib, bankda ikki farrosh va bir qorovul qolardi. Birinchi va uchinchi qavatlarini Jayronning onasi, ikkinchi va to‘rtinchi qavatlarini Olga xola tozalardi. Onasi rus va otasi ozarbayjon bo‘lgan bu ayol o‘zini shu qadar xushmuomala va axloqiy me‘yorlar doirasida tutardiki, Jayron unga to‘rtinchi qavatga chiqishni istayotganini aytishga jur‘at qilolmasdi...

Onasining qon bosimi ko'tarilgan paytda unga yordamga kelgan Jayron dastlab o'ziga tengdosh, rasmiy kiyimda bo'lgan o'g'il va qizlardan uyalardi. Ammo vaqt o'tishi bilan u boshini egib yurishni tashlab, qaddini tik tutishni o'rgandi. Axir u yomon ish qilmagan edi-da. U egilib, axlat qutilarini qo'llari bilan tozalasa nima bo'пти? Kezi kelganda tizzasini qo'yib, kimdir yerga tashlab ketgan saqichni tirnoqlari bilan tozalasa nima bo'пти? Asosiysi, u olachipor shim kiymaydi, pardozi qilmaydi va yo'lda hech bir yigit nafaqat gap otmaydi, balki unga qiyo ham boqmaydi. Jayron uchun fazilat, hayot huquqi aynan shu edi...

Oxirgi paytlarda bu bankka kelish Jayron uchun boshqacha ma'no kasb etgan edi. Uchinchi qavat derazasidan ro'parada joylashgan uy hovlisining bir parchasini ko'rish mumkin edi. Jimlik bo'lganda hovlidan shunday go'zal, quvnoq musiqalar yangrardiki... O'sha kuni bir qo'shiqni eshitib, so'zlarini yod oldi va internetdan qidirdi...

Mansum Ibrohimov kuylardi:

*Nega menga chap berasan,
Uzoqda kezasan, hoy qiz...
Parishon qalbim og'ritma,
Ranjir ko'nglim sendan, hoy qiz...*

Gohida esa hovlining chog'roq burchagida sport kiyimidagi bir yigit gullarni sug'orardi. U ko'pincha qizil yengsiz ko'ylakda bo'lardi. Dastlabki kunlari Jayron yigitga unchalik ahamiyat bermadi. Biroq kunlar o'tib, uni derazadan tomosha qilishdan xursand ekanligini sezdi. Uning qora sochlari, dadil harakatlari, biroz shoshilishi Jayron uchun maroqli bo'la boshladi. Bir kuni uni ko'chada uchratdi. U kun onasi bankka o'zi kelgandi. Sal o'tib o'zini yomon his qila boshladi va qo'ng'iroq qilib Jayronni chaqirdi...

Qiz yugura-yugura yetib keldi. Bank yonidagi do'kon oldida yerda bir bo'lak non yotardi. Jayron tezgina borib, nonni yerdan oldi. Lekin uni qayerga qo'yishni bilmay bir zum turib qoldi. To'g'ridagi favvora chetiga qo'yimoqchi bo'ldi hamki, orqasidan bo'yniga urilgan yengil nafas uni cho'chitib yubordi. O'girildi-yu, ko'zlari o'sha yigitning ko'zlariga duch keldi... Qahvarang

ko‘zlar, ular qanchalar horg‘in ko‘rinmasin, Jayron bu qorachiqlar tubida qiziqish va o‘ziga nistaban bir mahliyolikni his qildi... Yigit avvaliga unga diqqat bilan qaradi. Keyin jilmaydi va keyin kulib yubordi. Kulib dedi:

- Nima uchun mushukning nasibasini olding?
- Kim? Menmi?— Jayron nima deyishini ham bilmasdi...
- Qo‘lingdagi nonni deymen, go‘zal qiz...
- Qo‘limdagi?

Jayron tush ko‘rayotgandek edi... U hamma narsani unutgandi... U dunyoni boshqacha rangda ko‘rayotganday bo‘ldi... Anchadan beri bo‘y-bastiga yashirinch qarab yurgan o‘sha yigit bilan yuzma-yuz kelish qizni sehrlab qo‘ygandi. Vaqt to‘xtab qolgandek edi... Bu lahzalarda Jayron uchun dunyo ana shu jigarrang ko‘zlar edi... Uning yuragida yana allaqanday his-tuyg‘ular jo‘shurgandiki, ularni tushuntirish uchun so‘z topa olmasdi.

— Qo‘yaver, hazillashdim, xafa bo‘lma... Nonni sening o‘rningga mushukcha yeyaqolsin... Qara, u senga qanday yalinyapti...

Jayron egilib, gultuvakning takkinasida mushuk bolasini ko‘rdi. Nonni olgan joyiga qo‘ydi. Boya mushukchaga ahamiyat bermagani uchun o‘zini noqulay his qildi. Tortinchoq tabassum yonoqlarini qizartirdi. Mushukni siladi...

— Yaxshi ish bo‘ldi, go‘zal qiz... u senga “rahmat” deyapti...

Jayron uning yuziga qarashga botinolmadi. Boyagina yigitning ko‘zlaridan sehrlangan u emas edi go‘yo. O‘rnidan turib, tezda bank eshigidan kirib ketdi...

O‘sha kundan keyin har doim tasavvurida o‘sha lahzani jonlantirardi. Uni sehrlagan lahzani... Tez-tez Mamad Ilg‘or she‘rini yodga olardi:

*Yuzma-yuz, ko‘z ko‘zda sehrlanmishdik,
Na go‘zal bas qilur, na ko‘z bas qilur...*

Demak, shoir: “Yuzma-yuz, ko‘z ko‘zda sehrlanmishdik”, deganida, u bu lahzani aytgan ekan-da. Keyin u o‘ylanib qoldi, qiziq, yigit sehrni his qildimikan? His qilgan bo‘lsa, nega u ham uyalma-

di? Nega uning ham tili tutilmadi? Jayron javobsiz savollarining egasini topa olmasdi...

... Bugun esa odatdagidek hovlining burchagini tomosha qila-yotgandi. Negadir yigit ko'rinmadi. Qiz uni sog'inayotgandek edi. Kutilmaganda xayoliga kelgan fikrdan sevinib ketdi. Agar to'rtinchi qavatga chiqsa, butun hovlini bemalol ko'rishi mumkin. U zinapoya tomonga yugurdi. Olga xola ikkinchi qavatning yo'lagini artib yurardi. Ko'zlari bilan onasini izladi. Onasi oshxonadagi gaz plitasini tozalayotgandi. Zinalardan yuqoriga chiqib oldi. To'rtinchi qavatda xonalar bo'sh edi. Yo'lakda faqat singan stullar uyilgandi. U yurib borar ekan, izlari chang ustida munchoqlar singari tizilardi. Jayronning ongida g'alati fikr paydo bo'ldi:

— Demak, Olga xola bu joyni tez-tez tozalamaydi. Hech kim yo'qligi uchun artishga hojat yo'q. Ammo onam har kuni birinchi va uchinchi qavatni tozalashi kerak...

Deraza oldiga borganida, hamma narsani unutdi. Bu yerdan hovli kaftdek ko'rinardi... Yigit yozgi belanchakda o'tirardi. Uzun qora sochli qiz esa boshini uning tizzasiga qo'yib yotardi. Yigit uning sochlarini o'ynardi. U shunday baxtli jilmayardiki...

Jayronning ko'zlari to'ldi. Ko'nglidagi savollarga javob topgandi. "Yuzma-yuz", "ko'z-ko'zga" kelgan paytlarida yigit sehratlanmagan ekan. Uning butun siri, sehri yuziga boqib baxtiyor tabassum qilgan qizda edi... Jayron yig'lab yubordi.. Jimgina... Lablarini mahkam qimtididi... Bu yigitning hayotida boshqa qiz bo'lishini xohlamasdi axir... U qahvarang ko'zlar boshqa qizga qarashini xohlamasdi-ku... Jayron bularni hech istamasdi...

— Jayron ... namoz xonasini tozaladingmi?

Onasining ovozi bo'sh xonalardan aks-sado berib yangradi. Yaqindagina asta-sekin qadam bosgan yo'lakda endi yugurayotgan edi. Havoga chang ko'tarilardi... Zinalardan ham chopganicha pastga tushdi. Onasi yo'lakda turardi. Uning yuzida afsus namoyon edi. Jayron onasining yuzidagi bu ifodani odatdagidek shunday o'qirdi:

— Nima qilay, qizim? Biz ishlamasak nima qilamiz?

Bu safar esa Jayronning holi odatdagidek emasdi. Endi uning xayol dunyosi vayronaga aylangandi... U polyuvgichni olib, namoz xonasiga otildi. U shu qadar tez ishlardiki, yarim soat ichida ikkala qavatni ham tozalab tashladi. Onasi uning o'pkasi to'lganini o'zicha boshqacha ma'noga yo'ydi:

— Voy o'zimming qora qizim-ey, men yaxshiman....

Qizi uning so'zlariga e'tibor bermaganini ko'rib, bir savol ham berdi:

— Gazetada maqolang chiqdimi? Suratingni ham berganmiding?

Jayron beparvolik bilan dedi:

— Oldingi rasm-da...

Eshikdan chiqqanda onasi Jayronga har doimgi afsus bilan qaradi:

— Uyga boraqol...

— Yo'q, axlat tashlab kelaman, — dedi u va axlat solingan qoplarni oldi. Shoshib burchak orqasiga o'tdi-da, axlat qutisi tomon ketdi. Qoplar og'ir edi. Ularni yerga qo'yib nafasini rosladi. Axlat qutilariga yetish uchun hali o'n-o'n besh metr bor edi.

— O-o-o... Go'zal qiz, bugun ham ko'cha mushuklariga ulush keltirdingmi?

Jayron hayajondan titrab ketdi. Yo'q, bu safar o'girilmaydi va sehrlanmaydi.

— Xo'p, yaxshi, men ham savobga qolay, — yigit qoplarni olib, axlat qutilariga olib bordi. Jayron qilt etmadi. Yigit axlatni tashlab, qaytdi. Yaqinlashayotgan ko'yi Jayronga dedi:

— Bor, go'zal qiz, bor, onang kutib turibdi axir... Sen yaxshi qizsan, seni juda yaxshi ko'raman... Og'ir yuking bo'lsa, xabar berrasan, savobga qolay. Bo'ptimi?

Jayronning yoniga yetganda, uning sochlarini yengil tortib qo'ydi, kulimsiradi:

— Sen yo juda keksaygansan yoki hali ulg'aymagansan... Sen qaysi olamdan kelgansan? Boraylik...

Jayron indamay og'ir-og'ir yurib ketdi. Muyulishda yigit o'ngga burildi. Qiz beixtiyor qichqirayozdi:

— Ismingiz nima?

Yigit o‘girildi:

— Menikimi? Ismim Xayol, azizam... Biz bu uyda yashaymiz. Xotinimning ismi Parvoz. Qizchamiz ham bor, jingalak sochli... Qachon xohlasang, kel, u bilan o‘ynaysan. Aytgancha, bir enaga ham izlayapmiz...

U yana jilmaydi... Qo‘lini silkib, hovliga kirib ketdi. Jayron go‘yo bo‘shliqda edi. Uning miyasida faqat “Xayol” degan so‘z takrorlanardi...

— Axir xayol hech qachon haqiqat bo‘lmaydi-ku...

Onasi uni bank eshigi oldida kutib turardi. Jayron onasining qadoqli qo‘llarini kaftlari orasiga oldi, yuziga surtdi, boshiga qo‘yib, sochlarida yurg‘izdi. Onasiga mehr bilan qaradi, dedi:

— Bankning to‘rtinchi qavatida hech narsa yo‘q ekan... hech narsa...

* * *

Qiziq, umid qilmasak, xafa bo‘lishimiz mumkinmi? Xo‘sh, nima uchun biz umid qiladigan odam har doim uzoqda bo‘ladi? Nega dardini chekayotganimiz dard bilmasimiz bo‘ladi? Hamisha shunday bo‘lgan, hamisha... Qalbimizga eng yaqin bilganlarimizdan kunda o‘n marta xafa bo‘lganmiz... Chunki undan kuniga o‘n mahal umidvor bo‘lganmiz... Faqat undan...

PARVIN

“GUCCI FATOSH”

Hikoya yoki monologdan parchalar

Yana ma'nosiz, g'ayriestetik quyosh chiqdi... Sariq rangni yaxshi ko'rmayman. Shuning uchun quyosh menga yoqmaydi. Moviy ko'k qubbasiga hech yarashmaydi. Jilla qursa malla bo'lganida moviy osmonga juda uyg'un bo'lardi. Quyosh yog'dusidan Guccining ifori kelsa, issiqligi kishining terisini Vichi kremi kabi go'zallashtirsa, sochlarini Schwarzkopf shampuni kabi yaltiratsa qaniydi... Yo'qsa... Bu eng yuksakka chiqib olgan o'taketgan saviyasizlik, uyg'unsizlik timsoli. Shunday bo'lgach, yerdagilarga nima deyish mumkin?! Ko'rasan, hali yerda nelar sodir bo'lmaydi. Dahshat! Bu nima o'zi? Bular qaydan paydo bo'ldi o'zi? Sapsariq sochlarini "sharlotta" tarzida qirqtirgan, egniga Promodin guldor ko'ylak ilgan, tirnoqlarini qip-qizil rangga bo'yab olgan bir qiz ekranga chiqib olib, jiddiy siyosiy xabarlarini o'qimoqda... Qarab tursang, dunyo siyosati bu qizning ko'ylagida gullagan, deb o'ylash mumkin. Bu turish-turmushida hech bo'lmasa kino-teatrdan so'zlasaydi, chidasa bo'lardi... Buning ustiga uning og'iz-burun o'ynatishiga bir qara! Liviyadagi isyon haqida shunday so'zlayaptiki, ko'rgan odam Oygunning Nomiqdan ajralishining falsafiy-psixologik jihatlarini tushuntiryapti, deb o'ylashi turgan gap. Ee... Boshqa kanallar bundan beshbattar... Tomosha qilsang, yeganing tomog'ingga tiqilib qoladi. Ovqat degani, koshkiydi, ovqatga o'xshasa: nuqul pishloq va saryog'... Me'dangga uradi... Soatning jirkanch millari ishga ketadigan vaqt bo'lganini ko'rsatmoqda. Bu soatning rangi devorning rangiga mos emas, uni almashtirish kerak, deya necha karra so'yladim. Befoyda. Bu uyda gapga quloq soladigan kishi bormidi o'zi?

... Yana yarim qorong'i, irkit lift... Ko'chalar balchiq... Butunlay bema'ni, havosi buzuq shahar va yam-yashil avtobuslar. Dugonalarim hech narsani yoqtirmasligimni aytishadi. Axir, men bu

shaharning nimasini yoqtirishim mumkin?! Dunyoning biron joyida palma daraxtining yoniga archa ekishadimi? Ekishmaydi, chunki biri sovuq shimolning, ikkinchisi esa issiq janubning og‘ochi... Umuman, bir-biriga mos tushmaydi. Yoki Chanelin firmasining mollari sotiladigan do‘kon peshtaxtasiga sharqona naqshlar tushirilgan sopol buyumlar tizilganini ko‘rganmisiz? Qadimiy bir binoning birinchi qavatida Avangard tipidagi mebel do‘koni joylashishi mumkinmi? Bu shaharning har bir narsasi, bezatilishi uyg‘unlikni buzishga qaratilgan shekilli... Na ranglar uyg‘un, na shakllar, na o‘lchamlar... Xullas, bu shaharning odamlari ana shunday... Ol, marhamat! Ana, qip-qizil “Porsche” sport mashinasidan “Pyer Carden” firmasining qop-qora kastum-shimini kiygan yosh yigit tushib kelayotir. Bu sport avtomobili ish kiyimiga mos tushadimi, axir?! Bunda uyg‘unlik degan narsadan asar bormi o‘zi?! Aslo! Anava qanaqa ko‘ylak? O‘ho‘o‘o‘! “Lagoste” markali ko‘ylak va “Casio” soati... Ana sizga yuksak madaniyat belgisi... Bu yerdan tezda ketaqolay. Chunki ko‘nglim aynidi... Afsus! Qarang, buning ustiga bu yigit ko‘rkam. Sen haftafahm, “Porsche” sport mashinasini minar ekansan, shunga yarasha “Lacoste” firmasining yengil sport kastumini, “Adidas” firmasining “makasini” turidagi poyabzalini kiysang o‘lasanmi?! Yo‘q... Bo‘lmaydi... Unday bo‘lsa, hech kim e‘tibor bermaydi-da! Holbuki, juda yarashib tushgan bo‘lardi. Men bu dunyoning ishlarini hech anglab yetolmayman-da! Magazin degani to‘lib-toshib yotgan bo‘lsa... Qarang, ko‘cha bo‘ylar qatorlashgan: “Emporio”, “Mexx”, “Levis”, “Prada”... Hozir sovet davri emaski, hovuchingda pul bo‘lsa-yu, olishga narsa topolmasang! Endi har narsa bor... Normal, estetik tomondan uyg‘un bir uslub tanlash u qadar qiyin ish emas-ku. Faqat kallani biroz ishlatsang kifoya! O‘ylab o‘yimga yetolmayman, axir, Alloh odamga kallani nega bergan? Ee-eh... Hay mayli... Axir, ko‘p narsa kerak emas-ku! Jilla qurmasa bir kishi, bir park, bir ko‘cha ideal darajada uyg‘un bo‘lsa, qiyomat qo‘parmidi? Shakli, bezatilishi hech o‘zgartirilmagan bir butikda o‘tgan oy “Samsun” firmasining texnikasi, so‘ngra “Ivanovka” sut mahsulotlari sotilgan edi, endi bo‘lsa “Dior” markali atirlar sotilmoqda. Magazinning ko‘rinishi bilan sotiladigan mollar orasida uyg‘unlik bo‘lishi ke-

rakligini tushunishmasa ne qilay?! Xaridorning didini mana shunday uyg'unlik shakllantiradi-ku! Internetda o'qiganman. Ayniqsa, ishxonalarning nomiga bir qarang, o'qchiq keladi. Modern uslubda qurilgan bir restoranning nomi "Oziq", nim qorong'i bir qahvaxonaning nomi "Nurafshon" emish... Asabiylashmay bo'ladimi? Asabiylashmaslik uchun bunday joylarga qadam bosmay deyman. Lekin to'y-po'y bo'lib qolsa, iloj ne? Majburan borasan. Bormasang, hurmat qilmadi yoki pul bergisi kelmadi, deb o'ylashlari turgan gap. Endi to'ylarimizni asti qo'yaverasiz! Suhbatdoshingning toqati bo'lsa, bir to'y haqida 10 yil gap sotish mumkin. Bu odamlarni hech tushunolmayman. To'y boshlar-boshlamas, "Qudalar" ashulasi varanglaydi, katta-yu kichik o'yinga tushib ketadi. Go'yo hammasi mehribon. Bu ham yetmaganday, hammasi bir xil rangdagi ust-bosh kiyib olgan... Bundoq bozorga chiqib, bir-biriga mos kiyim olsalar, asakasi ketarmidi? Shunday qilishganida go'zal uyg'unlik hosil bo'lmasmidi? Kelinning onasi kishilik ko'ylagi bilan yassitovon kavush kiyib olganiga o'laymi? Kuyovning onasi bo'lsa, har daqiqada o'g'lini o'pib, mehmonlarga o'zini ko'z-ko'z qilish uchun to'yga kelganga o'xshaydi... O'zingni ko'rsatmoqchi bo'lsang, yuksak saviyangni ko'rsat... O'zingni ko'rsatmoqchi bo'lsang, "Escada" firmasining eng so'nggi model kishilik ko'ylagini olib kiy, qo'lingga shu markali qizil sumkachani osvol, oyoq'ingga poshnasi 10 santimetrlik tufisini il... So'ng o'zingni ko'z-ko'z qilaver. Shunda senga "Ofarin, ana endi kuyovning onasiga o'xshading", dey. Kelin bilan kuyovdan so'z ochmasam ham bo'laveradi. Bu harir kelin ko'ylaklar jonga tegib ketgan... Xuddi harir pardani kesib egniga ilvolganga o'xshaydi. Agar o'z to'yingda Italiya molidan bir dekolte kelin libosi kiymasang, erga tegishning ma'nosi bormi? Albatta, yo'q. Kuyovga kelsak... Bu yog'ini so'ramay qo'yaqoling. Bu mavzu yuragimning bitmas yarasiga aylangan. Kuyovlar ilgarilari, hech bo'lmasa, kastum-shim kiyguvchi edilar. Qaysi firmaniki ekanining ahamiyati yo'q, o'lib ketmaydimi?.. Endi bo'lsa, kim o'zarga chopishyapti. Teatrlarga borib, milliy ust-bosh olib, shuni kiyib chiqishyapti. Tomoshadan tomoshaga kiyilavergani uchun bu liboslarning uvadasi chiqib ketgan. Bamisoli it tatalaganga o'xshaydi. Bu ahmoqlar bo'lsa, to'y

kuni shuni kiyishadi. Bu libosni kiygan kuyovni bit bossa ajab emas! Egningda “Versace”ning zulukday qora ipak kastum-shimi, oyog‘ingda baland poshna “Baldini” poyabzali bo‘lmasa, sen ham kuyov bo‘ldingmi? Shuni ko‘ra-bila turib, menga “Turmushga chiq” deyishadi. Xo‘sh, kimga tegay? Bizda turmushga chiqishga arziydigan yigitning o‘zi bormi? Uydagilar har hafta meni birov bilan tanishtirishadi. Tanishganlarimning hammasi qusurli chiqqan bo‘lsa, menda nima ayb? Bittasi bor edi: daroz, kelishgan yigit edi. Anchagacha telefonda so‘zlashib yurdik. Gapimiz gapimizga mos kelardi. Markalar masalasida tushunchasi bor edi, hech bo‘lmasa, nomlarini bilardi. Estetika borasida ham yomon emasdi... U bilan gaplashish oldiniga menga ko‘p ma‘qul tushgandi. Faqat telefonda gaplashib, hech ko‘rishmay yuraversak, ming chandon yaxshi bo‘lardi. Lekin bunday bo‘lmadi, bir kuni meni ko‘rgani kelib qoldi. Egnida “Nike” jinsi kastum, ammo qo‘liga “Cerriti — 1881” klassik soatini taqib olgan edi. Ola-a!.. Bunday kishi bilan turmush qurib bo‘larkanmi? Bo‘lmaydi! Hech bo‘lmasa “Benetton” markali soat taqsa ham go‘rgaydi... Yo‘o‘q... O‘sha kuniyoq u bilan xayrma‘zur qildim. ... So‘ngra yana boshqa biri keldi. Onam bilan birga ishlar edi. Birinchi kuniyoq ismi menga ko‘p lazzat berdi: Habib! Bu ism menga mumtoz sharq uslubini eslatdi. Ammo Habib ikkinchi uchrashuvimizdayoq hammasini barbod qildi! Mashinasi bilan ishxonamning oldiga keldi. Chiqib qaragam, Maykl Jeksonni eshitib o‘tiribdi. Hey bola, modomiki, isming Habib ekan, “Habibim” ashulasini tinglasang o‘lasanmi? O‘sha zahotiyoyq kavushini to‘g‘rilab qo‘ydim, jo‘nadi ketdi... Alloh meni jazolayotganga o‘xshaydi. Qachon qaramay, oldimga mana shunaqa hariflar chiqadi. Yana bittasiga duch keldim. U idealimdagi odamga o‘xshadi... U menga tamomila mos edi. Birinchi bor meni dengiz sohiliga taklif qilganida “United Colors of Benetton” do‘konidan olgan kiyimini kiyib kelgandi. Qo‘lida “Blackberri” telefon, bilagida asl “Seico” soati, ko‘zida “Oacly” ko‘zoynagi... Sochini chiroyli taragan, xullas, har jihatdan to‘kis, qusursiz. O‘zimda yo‘q xursand bo‘ldim. Orzumdagi yigitni topdim, deya boshim ko‘kka yetdi. O‘sha kunga oid hech bir narsa: na dengiz, na suhbatimiz, na yurgan yo‘lim esimda qoldi... Es-hushimdan ayrilganga o‘xshardim...

Ammo Alloh menga bu baxtni ham ko‘p ko‘rdi. Ikkinchi uch-rashuvga ishdan chiqib keldi. Yana turish-turmushi a‘lo... Faqat cho‘ntagidan “Camel” sigaretasini chiqarsa bo‘ladimi?! Go‘yo sahroda ketayotganga o‘xshardi. Yohu, bu kiyim-bosh nimasi-yu, “Camel” nimasi?! Bir Alloh biladi, uyimga kuzatib qo‘yganiga qadar nechog‘li sabr qilganimni. Uyga kirar-kirmas, sms yozdim: “Meni qaytib bezovta qilmang”. Tamom vassalom, shu bilan hammasiga nuqta qo‘yildi. Lekin bu muvaffaqiyatsizlik menga juda yomon ta‘sir qildi... O‘zimni qo‘yishga joy topa olmasdim. Oilamizdagilar bundan qattiq tashvishga tushishdi. Endi magazinlarga ham bormay qo‘ydim. Ishdan uyga, uydan ishga... Hozir, ming shukrki, biroz o‘zimga keldim. Voh, yana esimga tushdi-yu, yomon bo‘ldim! Ee-eh... Bu yolg‘izlik ba‘zan meni juda tahlikaga soladi... Buning oxiri nima bo‘ladi? Bu kap-katta mamlakatda nahotki o‘zimga mos yigitni topolmasam?! Hamma bu masalaga qiziqadi, kim ko‘rsa: “Shaxsiy hayotingda nima gap?” deb so‘raydi. Ularga “Normal odamni uchratsam shaxsiy hayot bo‘ladi-da” degim keladi. Hay mayli... Aslida faqat bir yo‘li bor: bu mamlakatdan chiqib, xorijsa ketish, tamom vassalom. O‘zga o‘lkalarda, xususan, Yevropada uyg‘unlik tuyg‘usi biznikidan kuchliroq. Balki u yerlarda o‘zimga mos kishini uchratib, turmush quraman... Bu kun menga buyuk kelajak va‘da qilmoqda. Chunki ishxonamizga bugun inglizlar keladigan! Ularning vazirligimiz bilan hamkorlik loyihasi bor. Lekin inglizlar bizning qizlarimizga ko‘z qirini tashlagan hamono qochib qolishiga ishonavering. Yana hamishagidek meni ro‘para qilishadi. Chunki ishxonamizda mendan boshqa bironta zamonaviy ayolning o‘zi yo‘q!.. Shuning uchun bugun eng bejirim kiyimlarimni kiydim. “Gucci” firmasining so‘nggi kolleksiyasi — jiddiy uslubdagi zig‘ir tolasidan to‘qilgan kamzulimni, oq-qora katak etagimni kiydim, bilagimga charm bog‘ichli soatimni taqdim... Sochim hamishagidek yaltiroq va xushbichim. “Gucci Guilty” atirimning iforidan barchasi hushdan ketsa kerak... Mening bunday estetik turish-turmushimni ko‘rsa, inglizlar u yoqda tursin, kosmosdan tushganlar ham og‘zini ochib qolsa kerak. Atigi bittagina qusur ham topolmasliklari turgan gap.

... Birdan tezlashishim lozim, ishxonamga tez yetib bormasam, inglizlar ketib qolishadi, shuncha chekkan zahmatim bekor ketadi, degan xayol boshimga urildi...

... Voy Xudoyim, bu kim o‘zi? Alloh buni qanday yaratgan o‘zi? Mana, men istagan yigitning xuddi o‘zi: uzun bo‘yli, sochlari ham uzun... Egnida eng so‘nggi uslubdagi “Armani” kastum-shim, oyog‘ida shunga mos “Prada” tuflisi, “Vakko”ning oq ko‘ylagi va galstugi, soati “Roleks”, ko‘zoynagi “Raybon”... O‘ziga ishonch bilan o‘tirishini aytmaymizmi?!.. Yo Xudoyim, nima men tush-push ko‘ryapmanmi o‘zi? E-e-e... Bu telefon qurg‘ur zap chaladigan vaqtini topdi-da!

— Aloo...

— Salom, Fotima! Qayerda qolding? Yoki yana “Gucci” magaziniga ilakishib qoldingmi? Inglizlar keidi. Seni kutishyapti. Tez bo‘l, Fatosh...

— E, birpas jim tursang-chi, hozir inglizlarga balo bormi?

... Men bu imkoniyatni boy bermayman... Hayotimning bunday hal qiluvchi onida inglizlar bilan shug‘ullana olmayman. Balki bu mening uchun oxirgi imkoniyatdir! Bu yigit albatta meniki bo‘lishi kerak. Hoziroq borib uning yoniga o‘tiraman... Balli, men jasoratli qizman. Bu yigitning qo‘lidan ham ushlayman, boshimni yelkasiga ham qo‘yaman... Vujudimni bir lazzat qamray boshladi... Atrofimdagi olam asta-sekin yo‘q bo‘ldi... Olamda faqat ikkovimiz qoldik... Men va U...

* * *

Erkaklar kiyimi do‘konidagi sotuvchi qizlar choy ichib o‘tirishardi. Ulardan biri eshik tomon yurarkan, vitrinadagi qiz manekenni tasodifan ko‘rib, hayron bo‘ldi, taajjublanib ko‘zlarini ish-qalab ko‘rdi. Diqqat bilan boqqandan keyin, qizlarga yuzlandi:

— Bu manekenni bu yerga kim qo‘ydi, bizda bunaqasi yo‘q edi-ku?

— Kecha kechqurun olib kelishgan bo‘lishsa kerak.

— Yo‘q, kecha keltirishganida men, albatta, bilgan bo‘lardim.

— Unday bo‘lsa, bu maneken osmondan tushdimi? Yoki o‘zi kelib vitrinada o‘tirib olganmikan?

Qizlar qahqaha otib kulishdi:

— Xohlasang, uni u yerdan ol-da, omborga uloqtir...

Sotuvchi qiz vitrinaga biroz tikilib turganidan keyin bosh chay-qadi:

— Yo‘q, olib ketmayman. Qo‘ying, shu yerda turaversin. Qarang, bir-biriga qanday yarashib tushishibdi. Asl uyg‘unlik degani shu-ku.

SAMIR UCHUN...

... Ovozidan ahvoli chatoq ekanini sezdim. Tushlik bahonasi-da meni ishxonasi yaqinidagi qahvaxonaga taklif qildi. Binodan yugurib chiqdim. Sovuqdan boshim, quloqlarim muzlaganday bo‘ldi... Oyog‘imni qo‘limga olib, qahvaxonaga chopib kirdim. Chekkadagi stol orqasida o‘tirgancha, sigaret burqsitayotgandi. Unga ko‘zim tushdi deguncha, havoning sovuqligini birdaniga unutdim, vujudimni qandaydir bir iliqlik qopladi. Meni ko‘rdi deguncha, oyoqqa qalqib, peshvoz chiqdi. Go‘yo ming yildan beri ko‘rishmagan odamlarday, quchoqlashdik, yonoqlaridan o‘pdim. Hol-ahvol so‘rashgandan so‘ng, qiziqsinib so‘radim:

— Tinchlikmi, nima gap o‘zi?

— Hech gap yo‘q, sog‘ligim joyida, faqat biroz shamolladim, xolos.

— Ovozing bo‘g‘iqligidan buni sezdim. Boshqa nima gap?

— Boshqa hech gap yo‘q...

— Nima, meni aldamoqchimisani, koshki, seni bilmasam ekan!

Bu gapimga xiyla kuldi. Biroq kulgusida qandaydir tashvish bor edi. Uni tashvishga solgan narsani tezda bilgim keldi. Shu chog‘da negadir sochlariidagi oqlarga ko‘zim tushdi.

— Sochingdagi oqlar ancha ko‘payibdi.

— Qariyapman-ku!..

Bu so‘zlarni shunchalik g‘amgin so‘yladiki, har bir jumlasini ichimni kuydirganday bo‘ldi. Kulimsirashga urindim.

— Bu irsiyatdan. Buning oqarishga nima aloqasi bor? Otamning sochlari yoshligidayoq oqargan edi. Nega tashvishli ko‘ri-

nasan? Bolalar yaxshimi? Yoki uyda biron gap bo‘ldimi? — Shu yo‘sinda uni savol yomg‘iriga tutdim...

— Uyda hammasi zo‘r. Bolalar ham yaxshi. Faqat o‘zim biroz charchaganman. Bu chirkin muhit meni charchatdi. Tushunyapsanmi? Dam olishni istayman, hammadan, hammasidan...

... Shu pallada ofitsiant buyurtma olish uchun bizga yaqinlashdi. U ovozining ohangini hech o‘zgartirmay va ofitsiantning yuziga ham qaramay:

— Hamishagiday, — dedi.

Ofitsiant bosh irg‘ab, “xo‘p bo‘ladi”, dedi va uzoqlashdi.

U yana bitta sigareta yoqdi va so‘zida davom etdi:

— O‘zing bilasan, sendan hech narsani sir tutolmayman. Buning ustiga maslahatingga muhtojman. Bir ish qilmoqchiman. Buni uydagilarga qanday aytishni bilolmay garangman!

Barmoqlarining titrashini ko‘rib, men ham hayajonga tushdim. Chunki u har narsaga yuqoridan, istehzo bilan qaray oladigan yigit edi. Uni bunchalik tashvishga solgan ne ekan o‘zi?! Bardoshim tugadi:

— Samir, Xudo haqqi, nima gapligini tez ayt. Yuragim yorilay deyapti. Nima gap o‘zi?

— Ketyapman... Chet elga... Ishlashga... Bir kompaniya bilan besh yilga shartnoma imzolamoqchiman.

— Qayoqqa? Qanaqa ish?

— Bir qurilish kompaniyasi. Yevropaning qaysidir mamlakatiga yuborishlari mumkin. Qayoqqa yuborsalar, o‘sha yoqqa ketaveraman.

— Xo‘sh, nima ish qilasan? Qurilishda ishlash qo‘lingdan keladimi?

— Nega qo‘limdan kelmas ekan?! Dala hovlimizni ko‘targan usta, Kolya yodingdami? Uning qo‘lida tinmay ishladim-ku...

U bu gaplarni so‘zlar ekan, boshim ustidan qaynagan suv to‘kilganday bo‘ldi. Nechog‘liq asabiylashganimni aytish uchun so‘z topolmayotgandim.

Agar qahvaxonada o‘tirmaganimizda, baqirib bergan bo‘lardim. Onam bergan o‘gitlarni eslab, ovozimni bir parda pasaytirdim:

— Jinni bo‘lib qoldingmi? To‘qqiz yil o‘qib-o‘qib, endi chet elda loy qormoqchimisan? Boshqa ish qurib qoldimi?

— Yaxshi, loy qormayman. G‘isht tashiyman...

— Ol-a! Juda aqlisan-da!? Savolimga darrov zo‘r javob topding-a?!.. To‘g‘risini aytsam, miyang suyulganga o‘xshaydi... Xotin, bola-chaqa, ota-onangni tashlab qayoqqa ketmoqchisan?

— Besh yil nima degan gap, ko‘z ochib yumguncha o‘tadi-ketadi. Xorijda ishlab, hech bo‘lmasa, qora qozon qaynatgulik pul topaman, moddiy ahvolimni yaxshilab olaman. Bu muhitdan ham anchagacha uzoqlashgan bo‘lardim. Bolalarni ro‘kach qilmay qo‘yaqol, ular otamnikida yashab turishar. Bilsang, qarorim qat‘iy. Fikrimni o‘zgartiraman deb urinmay qo‘yaqol. Agar menga yordam qilmoqchi bo‘lsang, yaxshisi, bu gapni uydagilarga qanday tushuntirishim kerakligini ayt. Hech kimni ranjitmoqchi emasman. Ammo rosa charchadim. Bu yerdan sal bo‘lsa ham nariroqqa ketgim kelyapti. Odam degani qachongacha saviyasiz, ahmoq kishilarning qo‘lida ishlashi mumkin?! Buning ustiga beradigan maoshlari qora chaqa, biring ikki bo‘lmaydi... To‘qqiz yil o‘qiding deysan. Nima qipti? To‘qqiz emas, to‘qson yil o‘qiganimda ham ahvol shu bo‘lardi! O‘qiganni qadrlyadigan kishi bormi o‘zi?

... Savollari qarshisida ojiz edim. Lekin bir yo‘lini topib, uni fikridan qaytarishim kerak. Ofitsiant dasturxon tuzaguncha, nima deyishim kerakligini o‘yladim. Ananas sharbatidan qultumlab, nutq irod qila boshladim:

— Samir, bu dunyo hamma joyda bir xil. Chet elga ketsam, hamma narsa birdaniga yaxshi bo‘lib qoladi, deb o‘ylayapsanmi? Unday emas, akajon. Xudo haqqi, unday emas. Agar xorij jannat bo‘lganida, ular ruhshunosga bizdan ko‘ra ko‘proq yugurmagani bo‘lishardi. Nega ularda qo‘ydi-chiqdi, o‘z-o‘ziga suiqasd, jinoyatchilik bunchalik ko‘p? Chunki ularning turmushi biznikidan battar...

Aslida bo‘lmag‘ur gaplar aytayotganimni o‘zim ham bilib turardim. Qo‘ydi-chiqdi, suiqasd, jinoyatchilikdan lof uradigan payt emasdi. Ammo so‘ylashga boshqa gap topolmagandim. Hamisha bulbulgo‘yodek tinmay sayraydigan singlisining bu gal jo‘yali gap

topolmayotganini Samir ham sezdi shekilli, yuzimga mehr bilan boqib dedi:

— Yaxshi, singiljon. Ovqatingni ye, osh bo‘lsin. Birozdan keyin ishga qaytishing kerak. Sen ishingga bor, men bo‘lsam, bu yerda o‘tirib, uydagilarga nima deyishim kerakligini o‘ylab olay. Bilaman, bolalar ko‘nmaydi. Onamiz bo‘lsa, qarshi chiqadi. Lekin sen qo‘llasang, ularni rozi qilish oson ko‘chgan bo‘larmidi...

Og‘zimdagi luqmani, buvimning ta‘biri bilan aytganda, “tomog‘imga qadalgan tikanni” sharbat ichib, bir balo qilib yutdim va Samirning yuziga ters qarab dedim:

— Shunday mushkul bir masalada yordam so‘rayapsanki... Endi senga nima desam ekan?.. Qaysarsan... Aytganingdan qaytmaysan...

Bu gaplarni aytar ekanman, o‘zimni yanada yomonroq his qila boshladim. Vaziyatni yumshatish uchun gapni boshqa yoqqa burish kerak, lekin qani o‘sha mavzu?! Ko‘zoynagimni yechib, ko‘zlarimni ishqalay boshladim... Boshqa gap topishim kerak. Xarxasha ohangida dedim:

— Sen nega mening oxirgi hikoyam haqida hech narsa demayapsan? Hamma o‘qibdi, meni tabriklab yotishibdi. Akajonim bo‘lsa, haligacha o‘qimabdi...

— Sening-cha, men hikoya o‘qiydigan ahvoldamanmi? Hozir adabiyotning vaqtimi?

— Albatta, aslida ayni hozir hikoya o‘qishing kerak. Miyang dam oladi, keraksiz fikrlardan chalg‘iysan ham.

— Sen shu romantikadan qutulmading qutulmading-da!.. Senga qolsa, adabiyot qorinni ham to‘yg‘azadi, deysan...

— Ana qara, senga ham yozuvchilik yuqdi, kinoyali so‘zlay boshlading... Adabiyot urushlarni ham to‘xtatadi. Insonlarni bir-lashtirgan ham adabiyot emasmi? Sevgan qizingning boshini aylantirish uchun mendan she‘rlar o‘rganib, sms yuborgan sen emas-miding? O‘shanda adabiyot senga ko‘mak bermadimi?!..

Kuldi.

— Alloh hech bir bandasining sirini senga oshkor etmasin ekan. Xotira emas, kompyuter... Endi sen bu ahvolimga hikoya shifo bo‘ladi, demoqchimisani?

— Albatta. O‘rni kelsa, bir hikoya, bir roman oq sochlarni qoraytirishi ham mumkin. Nima, ishonmayapsanmi? Gap shundaki, bu asarni kim va qanday yozganiga bog‘liq.

— O‘ho‘o‘... Siz naqadar mistik masalalarga kirishib ketdingiz, oyimqiz, — dedi. Xayoliga kelgan fikrdan ovozi keskinlashdi. — Men bog‘dan kelsam, sen tog‘dan kelayotirsan. Osmon-u falakda uchganing yetar, endi pastga tush. Oyog‘ing yerga tegsin...

Jahli chiqqanini sezdim. Ammo ichimda bir sas to‘g‘ri yo‘ldasan, deyayotgandi. Bu gaplar bilan uni chet elga ketish fikridan qaytara olarman, deb o‘ylayotgan edim. Mushkul matematik masalani yechish yo‘lini topgan o‘quvchiday quvonib:

— Kel, sen bilan bir shartnoma imzolaymiz, — dedim. — Tug‘ilgan kuninggacha shunday zo‘r hikoya yozamanki, uni o‘qib, besh yil u yoqda tursin, besh kun ham bu yerdan uzoqda yashay olmasligingni tushunasan va hech qayoqqa ham ketmaysan...

— Chindanmi? Nima ham derdim? Qani bir yoz-chi, ko‘raylik... Lekin bunga ko‘pam ishongim kelmayapti. Yozgan hikoyang hamyonimni qappaytiradimi? Yoki yashashdan bezganim shu muhitni o‘zgartiradimi?

Birdan “Casio” esimga tushdi. Soatimni aytyapman. Ishga qaytishim kerak edi. Badbinona xayrlashishni istamadim. Gapni hazilga burdim:

— Ishga borishim kerak. Ovqat ham chala qoldi. Ovqat yegani fursat ham bermading-da... Bu odat senga qo‘ndoqda tekkan-ku... Mening ovqatimni ham qo‘shib yeyish uchun ataylab meni gapga solding.

— Ol-a... Sening bu bemaza parhez ovqatingni yer ekanmanmi?

— Ha-a, yoshligimizda qo‘limdagi shokoladlarni tortib olib yegan sen emasmiding?! — deya kuldim va oyoqqa qalqib, paltomni kiydim. U ham o‘rnidan turdi. Sochlarini to‘zg‘itib, yonog‘idan o‘pdim. — Gap bir, kelishdikmi? Sen yozadigan hikoyamni kut, ko‘rasan, singilginang nimalarni yozar ekan, — shunday dedim-u, tezda qahvaxonadan chiqdim.

... Mart oyining bo‘ylarini his ettim deguncha, badbin xayollarga berildim. O‘zimdan jahlim chiqayotgan edi: “Uddasidan chiqolmasang, nima qilarding bahs boylashib! Undoq yozadur-

man, bundoq yozadurman, bundoq yakunlaydurman, deb lof urgan kim edi? Xo‘sh, nima bo‘ldi? O‘sha kundan beri bir hafta o‘tdi, bir satr ham yozmading-ku!”

Ha, yoza olmayotgandim. Uning hayotiga aloqador istalgan bir voqeani hikoyaga aylantirishim mumkin edi. Biroq bu mavzu uning fikrini o‘zgartirishga qodir emasligini yaxshi tushunardim. Unga bu yerdagi hayotining go‘zalligini anglatadigan bir narsa yozishim darkor edi... Kun o‘tgan sayin jig‘ibiyron bo‘laverdim.

... Hafta oxirida bog‘imizda yig‘ilishga qaror qilgandik. “Balki, ota-onamni ishga solarman”, deb o‘yladim. Saharmardondan dala hovliga yetib bordik. Samir rafiqasi va bolalarini yuborgandi. O‘zi bo‘lsa oqshom pallasi kelishi kerak edi.

Televizorda suyuqli yozuvchimga bag‘ishlangan ko‘rsatuvni tomosha qila boshladim. Oshxonadan onamning ovozi eshitildi:

— Kompyuteringni unga oid videolar, yozuvlar bilan to‘ldirib tashlaganing yetmaydimi?!.. Bu yozuvchi haqida bilmagan narsang qolganmi o‘zi? Tur o‘rningdan, bu yoqqa kel, hamma bilan birga o‘tir...

Oshxonaga kirib, onamning sochlari unga belanganini ko‘rdim va shu zahoti Samirning oqargan sochlari esimga tushdi...

— Akamning tug‘ilgan kuniga atab bir hikoya yozmoqchi edim. Bir mavzu aytsang-chi.

Onam buni so‘rashimni xuddi oldindan bilgandek, birdan javob berdi:

— Qaydan bilay... Aka-singil munosabatlari haqida yozaqol. Seni u katta qilgan. Biz ishlar edik. Sen kuni bo‘yi u bilan qolar-ding. Qilg‘uliklaring uchun senga jazo bermoqchi bo‘lganimizda, u chiday olmay yolvorar, “Singlimni urishmang... Singlimni ur-manglar”, derdi. Sendan “Onangni yaxshi ko‘rasanmi yoki otang-nimi?” deb so‘rashganida nuqul “Akamni” deb javob berarding...

Onam o‘sha yillardan qolgan xotiralarni esladi, shekilli, uzoq-larga tikilib qoldi.

— Otang kasallanganida u to‘rt kunda sakkiz kilo ozdi. Hafta-larcha uxlamadi... Esingdami?

Onam shunday derkan, huzn bilan qo‘lidagi xamirni qora boshladi. Bu menga ishora edi. Gapni cho‘zmasligim kerak. Osh-

xonadan chiqib, mehmonxonaga bordim. Otamga yaqinlashdim, mehr bilan undan-bundan suhbatlashdik. Keyin unga ham ayni savolni berdim:

— Samirning tug‘ilgan kuniga bir hikoya yozmoqchi edim. Bu haqda biron narsa deya olasanmi, nima haqda yozsam ekan?

— Ko‘p narsa yozishing mumkin... Bolalik yillaringizda bo‘lgan voqealarni yozgin. Eslaysanmi, u institutga kirganida hecham quvonmagandi. Chunki o‘sha yili sen imtihondan “yiqilgan”ding... Bu voqeani hikoyaga aylantir qo‘y...

Otamning bunday teran, falsafiy masalada haqida o‘ziga xos, og‘ir, biroq sodda, shavqsiz yo‘sinda so‘zlashidan mamnun bo‘ldim. Lekin mahalliy shevada gapirgani uchun bir qitmirlik qilmasam, ko‘nglim joyiga tushmasdi:

— Dunyoning qayerida bo‘lsa bo‘lsin, sen bilan gaplashgan odam o‘zini Absheronda his qiladi. Hazar ham, Shani ham, Neft ham, Dushbara ham sening tilingda so‘ylaydi... Maslahating uchun rahmat. Lekin bu xiyla mushkul ish, — dedim va xonadan chiqdim.

... Yo‘q... Yanada ta’sirliroq bir narsa topishim darkor! Chunki bularni Samir yaxshi eslaydi. Yozganim uning uchun yangilik bo‘lmaydi. Samirning chet elga ketish qarori haqida ota-onamga hech narsa deya olmadim... Butun umidim yozadigan hikoyamdan edi...

Bog‘ga chiqib, tut ostida keza boshladim. Telefonimni ochib, eski smslarni, qaydlarim, yarim qolgan yozuvlarimni o‘qishga tutindim. Ularning orasidan bir o‘q jumla, ilhom beradigan biron gap chiqib qolishidan umidvor edim... Miyam ishlamas, hamma narsa ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketganga o‘xshardi. To‘satdan uy eshigi ochilib, bog‘ga Samirning o‘g‘li kirib keldi...

— Bor, uyga kir, shamollab qolasan.

— Vini...

— Men Vini emasman... Menga “amma” degin.

— Amma, yoningga borsam bo‘ladimi?

Bildimki, Allohning bu balosiga “yo‘q, kelma” desam, yig‘ilashi turgan gap.

— Yaxshi, kelaqol. Lekin qalinroq kiyinib chiq, keyin kelaver.

Ikki daqiqa ham o'tmay yonimda paydo bo'ldi.

— Vini...

— Hali aytdim-ku, menga “amma” degin deb.

— Amma...

— Jonim... Ismingdan aylanay sening! Ayt, nima deysan?

— Sen yig'layapsanmi?

Bu so'zlardan keyin haqiqatan ham yig'lagim keldi. Besh yashar bola ichimdan o'tayotganlarni qanday his qildi ekan?! Qo'lidan tutib, taxta o'rindiq tomonga boshladim. O'tirdim. U quchog'imga kirib, men bilan yuzma-yuz o'tirdi. Boshini siladim. U ham isirg'alarim, sochlarimni o'ynay boshladi. Bola go'zallikning tilini biladiganga o'xshardi.

— Amma, senga nima bo'ldi?

— Sen ammingning nimasisan?

— Joniman... Amma, senga nima bo'ldi?

Quchog'imda yosh bola emas, kap-katta kishi o'tirganga o'xshardi. Endi men bilan gaplashib barcha masalalarni hal qiladigandek edi. Hikoyani ham yozadi, otasining ishlarini yo'lga qo'yadi, hatto uni bu diqqinafas muhitdan ham qutqaradi. Bilmadim, ammo negadir bu besh yashar farishta bilan ochiq-oydin gaplashgim keldi.

— Otang uzoqlarga ketishni xohlayapti, jonim. Amma shuning uchun ham o'nga botgan, bolam.

— Nega? — bolaning ko'zlari yoshga to'ldi.

— Ko'p ishlash, ko'p pul topish uchun ketadi, so'ngra qaytib senga o'yinchoqlar, mashina olib beradi...

So'zlarimni tamomlamay turib, bola sakrab yerga tushdi va uy tomonga chopa ketdi.

“Voy Xudoyim-ey... Endi borib onamga aytsa, ish rasvo bo'ldi”. O'zimdani jahlim chiqdi: “Sen ham dardlashadigan odamni topding-da!”... Lekin u ko'p o'tmay uydin chiqib, yana yonimga keldi. Hayajonlanib, tez-tez gapira boshladi, ammo nima deyayotganiga tushunmayotgan edim.

— Nima bo'ldi, qo'zichog'im?

— Amma, bularni otamga ber... — deya bir to'da tangani hovuchimga bitta-bittalab qo'ya boshladi: o'n, besh, uch va bir tiyin-

lik tangalar. Hammasi o‘n to‘qqiz tiyin. Shu chog‘da butun vujudim titray boshladi.

— Bularni qayerdan olding, bolam?

— Buvim bergan. Sen bularni otamga ber, uzoqlarga ketmasin. Hammasini ber, bular senga yetadi, de...

— Xo‘p bo‘ladi, aqlli bolaginam mening. Beraman. Endi uyga boraqol. Havo sovub ketdi...

Hovuchimdagi o‘n to‘qqiz tiyinga uzoq tikilib o‘tirdim. Nima qilishimni bilolmasdim. Telefonni olib, Samirga sms yozdim: “O‘g‘ling sen uchun o‘n to‘qqiz tiyin to‘plabdi. Shu yetadimi? Mana shu sening HIKOYANG...”

P.S. — Meni kechir, aqlli bolajonim, senga bag‘ishlab bir hikoya yoza olmadim. Hali juda kichkinasan. Biroz katta bo‘l... O‘ttiz yoshga kirganingda yozaman. Bu hikoyaning nomini ham “Samir uchun” deb ataymiz...

10-SENTABR

Kasalxonadan chiqib mashinasi tomon yurdi. Eskigina “06” jigulisini sakson oltinchi yilda, sho‘ro zamonida muhandis bo‘lib ishlab yurgan kezlarda, zavodda navbatda turib olgandi.

Old eshikni ochib, “taksi” deb yozilgan peshlavhani oldi-da, moshin tomiga o‘rnatdi.

Xastaxonaga jarroh bilan ko‘rishish uchun kelgandi. O‘rtancha qizini operatsiya qilishi kerak. Qaysi doktor bilan gaplashmasin og‘zidan uch yuz dollarning isi keladi. Harbiy jarrohlarning biri eski bir og‘aynisini tanishtirib qo‘ydi, “ham ishining ustasi, ham ko‘zi to‘q odam” deya tavsif ham berdi.

Gapi chin chiqdi. Yuz ellikka ko‘ndi. Yana yordamchilariga ellik dollarcha xarjlasa — ish bitdi hisob. Yuz ellik “ko‘ki”ni nari-beri qilib topdi. Do‘xtirlar operatsiya qilmasa bo‘lmasligini aytish-gach, bola-chaqsining rizqini qiyib bo‘lsa-da, shuncha pul yiqib qo‘ygandi. Yana ellikni qayerdan topsa bo‘larkin?

Undan-bundan qarz-qavola qilarkan, deb o‘yladi. “Zamonasiga o‘t tushsin, birovga og‘iz ochishga ham beting chidamaydi. Puli borda himmat yo‘q, himmati borda – pul” .

Metroning “Narimonov” bekatiga yetgan paytda oilasidan birrov xabar olib o‘tgisi ham keldi. Ammo, har doim odam olib ketadigan bekatda boshqa moshin yo‘qligini ko‘rib, fikridan qaytdi. Yetti yildirki, bu bekat uning ishxonasiga aylangan. O‘n yetti yil ishlagan, hatto davlat mukofotlarini ham olgan zavod bora-bora quvvati kamayib, yopilib ketdi. 7–8 oy u yer bu yerdan ish qidirdi. Harakatlari zoye ketgach, butun umidini moshiniga tikdi. Qo‘shnisi Islomning maslahati bilan kirakashlik qilishga o‘tdi. Islom bir paytlar dong‘i ketgan madaniy mollar bazasida ishlagan. Topish-tutishi yaxshiydi. Qo‘ni-qo‘shni so‘ragan narsani ombordan o‘z narxiga keltirib berardi. Baza yopilgach, Islom tijoratga

qo‘l urib ko‘rdi, ishi ters ketib, katta ziyon ko‘rgach, qulog‘igacha qarzga botdi. Amallab qarzlaridan qutulgach, non pulini moshin ketidan topa boshlagandi.

Oldiniga Islomning taklifini qaytardi. Keyin rozi bo‘lishdan boshqa iloji qolmadi. Boshida yomon uyaldi. Ba‘zida moshiniga tanish-bilishlari, sobiq hamkasblari chiqib qolardi. Pul olish noqulay. Bora-bora ko‘nikdi. Bekatdan yangi “hamkasblar” — yangi do‘stlar orttirdi. Ular orasida sobiq rayqo‘m xodimlari, do‘xtirlar, muhandislar bor edi.

Moshinning oynasi chertilgach, xayoli bo‘lindi. Ajnabiylar ekan. Biri pakana va semiz erkak, ikkinchisi o‘rta bo‘yli ozqin ayol. Qo‘llarida bir nechta to‘la xalta bor edi. “Pliz, pliz” degan-cha orqa eshikni ochdi. Xotin amallab shaharga tomon borishlarini tushuntirdi. Moshin metro qarshisidan burilib Moskva dahasi tomon uchib ketdi. Ko‘zgudan erkakning lunjlari tinimsiz silkinyotganini ko‘rdi. “Bular ovqatni yaxshi yeyishadi”, o‘yladi u. Xaltadan chiqarayotganida ko‘rdiki, kavshayotgan xo‘ragi pahlava ekan. Aslida bu amrikon pahlavani chaynamay yutayotgandi.

Yaqinda tiklangan past binolarni aylanib o‘tib, ayol ko‘rsatgan baland, chiroyli imorat yonida mashinasini to‘xtatdi. Ayol oldindan tayyorlab turgan bitta o‘n ming manatni uzatib “Sag‘ol” (sog‘ bo‘l) dedi. Tushib eshikni ochdi. Erkakni jag‘i haliyam tinmasdi. Xaltalarni qo‘ltiqiga arang joylab eshikdan chiqdi. Er-xotin “Senk yu” degan-cha yangi bino taraf ketdilar. Moshinni o‘z uyi tomonga burdi.

Chog‘roqqina hovlida yashashardi. Otasi o‘sha zamonlarda, o‘g‘li endi uylangan kezlari mol-qo‘yini sotib sho‘roning yetti ming so‘miga olib bergandi. Ichma-ich ikki xonasi, torgina oshxonasi, bitta mashina arang sig‘adigan maydonchasi bor edi. Hovlining bir kunjida o‘zi kichkina bir hammom, bir xalajoy qurib oldi. Zavodda oylab navbatda turdi. Bir xonali uy berar bo‘lishgandi, nozlandi. Uch bolam bilan bitta katakka qanday sig‘aman, dedi. Ozroq chidasam, uch xonali uy olaman, deb yurdi. U bo‘ldi-bu bo‘ldi, hukumat o‘zgarib, zavod ham yopildi. Endi “O‘l” deydi o‘ziga o‘zi. O‘sha payt bir xonali uyga bo‘lsa ham ilinib qolardi-da, harna!

Eshigiga yetib signal berdi. Xotini darvozani ochdi. Odatan peshin mahallar mashinasini hovliga kiritmasdi. Hozir biroz tamaddi qilib, birpas mizg'ib olgisi keldi. Xotini darvozani yopdi. Ikki ko'zini eridan uzmasdi.

Xotiniga harbiy do'xtirning gapini aytib berdi. Sal chiroyi ochildi ayolning. Oshxonada yeganini yeb, orqa yotoqqa o'tdi. Xonaning derazasi qo'shnining hovlisiga ochilardi. Qozon-tovoqning taq-tuqi, suvning shirillashi uxlagani qo'ymasdi. Ammo, bu gal nechukdir hammayoq jimjit. Xotini qo'shnilarni ogohlantirgan ko'rinadi. Xotin avvallar zavod bog'chasida tarbiyachilik qilardi. Sho'ro davrida bog'chada faqat Leninga oid kitoblar bo'lardi. Hukumat ag'darilgach, kimdir Erondan keltirgan kirillcha alifbodagi kitoblardan to'rt-beshtasini bog'chaga hadya qilgandi. Zavod tugab, bog'chaniq eshigiga qulf tushdi. Xotini bog'chadagi o'sha kitoblardan bitta-ikkitasini uyga olib keldi.

Xotining soatlab kitob o'qib o'tirishi unga g'alati tuyulardi. Ayol tez-tez Qur'ondan, Muhammad payg'ambarning hayotidan gapirib qolardi. Uning kofirlarga beriladigan azoblar haqidagi afsonalari erkakning yuragiga vahima solardi. Shunday paytda xotining sep sandig'iga to'rt buklab yashirib qo'ygan partileti yodiga tushardi. O'n ikki yil qo'mfirqa a'zosi bo'ldi. Har oy maoshidan badal to'lab turdi. Sho'raviylar 20-yanvarda Bokuga qo'shin kiritib, tinch aholini qonga botirgan payti firqa pattani yirtib otgisi keldi. Yana fikridan qaytdi. U ayb firqada emas, Gorbachyovda deb bilardi. Shu uchun firqa pattasini saqlab qo'ydi.

Kun kelib Yelsin firqa faoliyatini to'xtatish to'g'risida qaror chiqardi. O'shandayam pattani tashlamadi. U kommunistlarning ortga qaytishiga ishonardi. Shunday katta mamlakatnig jimgina yo'qolib ketishiga ishonmasdi.

Avvallari xotining dinga qiziqishini ham o'tkinchi sanardi. Lekin uyidagi diniy kitoblar soni orta bordi. Xotini uyda ham boshiga ro'mol o'rab yurishga o'tdi. Qo'shni xotin-xalaj ham tez-tez uning uyiga kirib-chiqib turardi. Kun sayin begona ayollar ham uyiga serqatnov bo'lib qoldi.

Kunlarning birida xotini qiziq gap aytib qoldi. Ayoli tushida oq sallali bir nuroniy cholni ko'ribdi. Unga chol jimirlab turgan oltin

kosada nimadir ichiribdi. Ertalab turib u o'zida g'alati alomatlarini seza boshlabdi.

Xotinidagi bu o'zgarishlarni ishsizlik, pulsizlik va kambag'allikdan bildi. Xotinini bir-ikki yaxshilab urishib berdi. Uyga begonalarni umuman kiritmaslikni aytdi.

Bir kun Islom uni bir piyola choyga chaqirdi. U Mashhadga borib kelgach, ichishni tashlagan, ancha bosilib qolgan, kaltagina soqol ham qo'yib machitga qatnay boshlagandi. Islom undan bor gapni eshitib, uni tinchlantirdi. Har bandaga bunday karomat nasib etavermaydi, dedi. Uyingga ilinj bilan kelgan ayollarni noumid qaytarma, mayli, xotining ularning hojatini chiqarsin, savob bo'ladi, dedi. Islom uning o'zini ham yo'lga solar bo'ldi. "Ichishni tashla, hajga borib kel, firqa pattani yo'qot, u uyda bunday nojoiz narsalarni saqlash harom", dedi.

Boshida Islomning gaplariga uncha e'tibor qilmadi. Keyin xotining g'ayrioddiy xislatlariga o'zi ham ishona boshladi. Bir kuni ayol o'rtancha qizining kasal bo'lishi haqida tush ko'rganini aytdi. Ikki haftadan keyin rostdan ham qizini do'xtirga ko'rsatar bo'ldi. Qizcha kundan kun ozib borar, hech narsa yemasdi. Do'xtirlar uning bitta buyragi ishdan chiqqani, shoshilinch chora ko'rish lozimligini aytishdi. Shundan u xotining yangi xislatiga ishondi, hatto unga biroz qo'rquv bilan qaray boshladi.

... Ko'zini ochgan paytda xotini burchakdagi qutining ichidan nimanidir qidirardi.

— Mashaalloh. Yaxshi yotib turdingizmi?

Soat beshga yaqinlashib borardi. Yuz-qo'lini yuvib uyga qaytdi. Stol ustida bir stakan choy va sariq tusli ayollar sumkasi turardi.

— Bu nimaydi?

— Qizlaringiz moshinning ichidan topibdi.

— Ochib ko'rdinglarmi?

— Ochishgan ekan, qo'llaridan olib, yopib shu yerga opkeb qo'ydim.

Sumkaning og'zini ochdi-da ichidagilarni birma-bir stol ustiga qo'ya boshladi. Ayol tik turgancha uning harakatlarini qiziqish bilan kuzatardi. Qizlari ham eshik oldida bo'yinlarini cho'zganча otalari tomon bo'ylashib turardi. O'rtanchi qizning yuziga tabas-

sum yugurdi. Taroq, kredit chiptasi va... o‘n yetti dona beli sinmagan yuztalik dollar, ikkita ellik mingtalik, bir dasta o‘n ming va mingtalik manatlar.

Hammasidan oldin ko‘z oldiga ajnabiy erkakning lo‘qillab turgan jaqlari keldi.

— Boya moshinimga er-xotin amrikonlar minuvdi. O‘shalarniki bo‘lsa kerak. Uylarini bilaman.

Qizlar eshik og‘zidan ketdilar. Xotini stakanni qo‘liga oldi.

— Sovub qopti. Boshqa opkelaman, — dedi.

Radiodan so‘nggi xabarlar o‘qilardi. Bokuga Qorabog‘ armanilari kelganmish, ertaga 11-sentabr kuni ketisharkan. Qorabog‘ Ozodlik tashkiloti vakillari norozilik namoyishi o‘tkazibdilar va hokazo...

Choyni ichib, sumkani oldi-da, uydan chiqdi. Darvozani ochib, moshiniga o‘tirdi. Hovlidan chiqarkan, xotiniga darvozani yopishni tayinladi. Xotini darvozaning bir tavaqasini yoparkan, eri eshitadigan tovushda, “ulardan yorug‘lik chiqadiganga o‘xshamaydi”, deya pichirladi. Xotining muzdek sovuq so‘zlari boyagina ichiga oqib kirgan iliqlik uzra yoyildi. O‘sha iliqlik nimaligini endi tushundi. Hozirgina u boyagi semiz kishining xotini uni ko‘rishi bilan quvonib ketadi, o‘n yettita yuztalikning hech bo‘lmasa bittasini karmonidan chiqarib suyunchi deya qo‘limga tutqazadi, ertagayoq harbiy do‘xtir bilan hisob-kitob qilaman, deb turgandi. Xotining bu gapidan keyin yuragiga g‘ashlik oraladi.

Moshinni metro yaqinidagi bekatga qo‘ydi. Yana uchta moshin turardi. Haydovchilar odatan yo‘lovchi kutayotganda moshinning ichi qizib ketmasin uchun eshiklarni ochib, o‘zlari daraxt soyasida gaplashib o‘tiradilar. Akif bilan “do‘xtir” uni ko‘rishgani hamono oyoqqa qalqdilar.

— Ikkita amrikon kim bilsin, seni qidirib kelishdiyov. Vizitka ham tashlab ketishdi. Yonida tilmochi ham bor edi. O‘zlarning aytishicha, qizil jiguliga o‘tirishgan ekan, xotinning sumkasi moshinda qop ketibdi, shopirning senikidaqa qora mo‘ylovi borakan. O‘sha sen bo‘lsang kerak-da? O‘v, so‘mkasida biror narsa bor ekanmi, o‘zi?

Endi javobga oqiz juftlaganida “do‘xtir” tilga kirdi:

— Be, bo‘lmasa, shuncha yo‘lga ovora bo‘lib kelarmidi? Ular mayda-chuyda narsalarga o‘zini urintirib o‘tirmaydi, hey! Kamida mingta “ko‘kidan” bordir-ov? Oborib bersang, indamay yuz dollari-ni senga ilinishadi. Ho‘y, akasi jonidan, bitta ziyofatga tushding-a?

— Mingdan ko‘p, moshinimda turibdi. O‘zi oborib bermoqchi bo‘p turuvdim.

Akif tashrifnomani uzatdi.

— Manzilni bilaman, — dedi, lekin, vizitkani oldi. Ingilizcha bitiklarga tishi o‘tmadi. Faqat “Jim” deganini o‘qiy oldi xolos. Qog‘oz orqasida sxema chizilgan, yashaydigan uyining 11-qavatiga belgi qo‘yilgandi.

— Yana haq bermay qochib qolmagin-a?

Ulardan osonlikcha qutulib bo‘lmasligini bilardi, shuning uchun:

— Xotirjam bo‘llaring, yuzta cho‘zsa, haq berish mendan, — dedi.

Moshinni Baksovet tomon haydadi. Mana, boyagi binoga ham yetib keldi. Temir panjarali bino eshigiga yaqinlashib vizitkani ko‘rsatdi. Qora kiyingan, qotma qorovul ko‘z uchida vizitkaga qarab joyiga qaytdi. Kim bilandir telefonda gaplashib, “O‘n birinchi qavatga chiqasan, kutishyapti seni” dedi. Moshindan sumkani olib, liftga kirdi.

Dahlizdagi ikki eshikning biri qiya ochiq turardi. Ichkaridan ovoz kelardi. Egilib ochiq eshikdan mo‘raladi. Boyagi semiz erkak uni ko‘rgan zahoti “pliz, pliz” degancha, quchog‘idagi paxmoq ko‘ppakni siypalay-siypalay dahlizning orqa tarafiga o‘tdi. Jimlik cho‘kdi. Ko‘p o‘tmay erkak kirib ketgan xonadan boyagi xotin chiqib unga yaqinlashdi. Sumkani olib ochdi, ichiga ko‘z yugurtirdi. Keyin karmonni ochib dollarlarni sanadi. “To‘g‘ri”, dedi va qo‘lidagi shaqildoq pullarni silkitdi:

— Bunga Jim i-it olmoqchi, bilasan? — dedi chuchmal talafuzda.

Keyin pullarni sumkaning ichiga solib, qo‘lini cho‘zdi:

— Sog bul, dju-uda xursanman.

Semiz erkak orqa yotoqdan chiqib, yana quchog‘idagi itini yalab-yulqab, tirjayganicha bu xonaga o‘tib ketdi. Yo‘l-yo‘lakay nimanidir kavshab borardi.

Hafsalasi pir bo‘lib, ayolning qoqsuyak qo‘llarni siqib qo‘ydi-da, tashqari chiqdi. Lift tugmasini bosdi. Ko‘z oldiga avval xotini, keyin qizining kasalvand chehrasi keldi. Keyin daraxt soyasida gurunlashib o‘tirgan shopir og‘qaynilarini yodga oldi. “Keltirib bermasam bo‘larkan, – o‘yladi o‘zicha, – mening moshinimda qolib ketganini hech kim isbotlay olmasdi-ku?” Keyin xayoliga urilgan bu fikrdan o‘zi uyali ketdi.

Eshik ochilishi bilan qarshisidan chiqqan kichik bir laycha akillagancha uning oyog‘iga yopishdi. Kapalagi uchdi. Laychaning ipidan ushlab olgan yoshgina yigit istehzo bilan “qo‘rqma, indamaydi”, deb qo‘ydi. Eshik oqzida yap-yangi “Jip” turardi. Ochiq havodan bir to‘yib nafas oldi-da, moshiniga o‘tirdi.

“Bu yulg‘ichlardan bizga naf yo‘q”. Anchadan beri siyosiy gurunlarga qo‘shilib qolsa, sho‘ro davrini, o‘rislarni maqtab ketardi. Amriqoning neftimizni ayovsiz talayotgani, faqat o‘z manfaatlarini o‘ylayotgani haqida tinimsiz gapirar, fikrini isbotlash uchun qator misollar ham keltirardi. Hozir umrida ilk bor unga ro‘para kelgan amrikonlarning bu muomalasi ular haqidagi tasavvurlarini yana ham tiniqlatdi. Oshnalari bilan dardlashib, yuragini bo‘shatgisi keldi. Metro yaqinida, qadrdon daraxt yonida to‘xtadi.

Bari suyunib qarshi oldi. Akif so‘radi:

— Ishlar qalay, jigar? Biror nima undirdingmi?

— Ha, — dedi, — yuzta berishdi.

— O, yaxshigina eriydigan bo‘psan-ku? — bu gapni “do‘xtir” aytdi.

— Moshinni qo‘yib kelsam, maylimi?

— Nima, biz bilan senam otmoqchimisan, — so‘radi Akif.

Moshinni darvoza oldiga qo‘ydi. Ichkariga kiritgisi kelmadi. Eshikdayoq xotini “qalay bo‘ldi” deya so‘radi.

— Sening aytganing bo‘ldi.

Poyafzalini yechib, yotoqxonaga o‘tdi. Sandiqni ochib, qizining operatsiyasi uchun yig‘ib qo‘ygan pullar orasidan o‘nta o‘n mingtalikni olib cho‘ntagiga soldi. Yana sandiqning og‘zini yaxshilab bekitti.

Tuflisini kiyayotganida xotini so‘radi:

— Yo‘l bo‘lsin?

— Kechroq qaytsam kerak. Jo‘ralar bilan o‘tirishimiz bor edi.

Xotining yuzida norozilik alomati zuhurlandi.

Akif eshik olida turardi. Mashinasiga borib o‘tirdi.

— Moshiningni qo‘yib ketmoqchiyding-ku?

— Men ichmayman, do‘xtir bilan olasanlar.

Har doim o‘tiradigan kafega kelishdi. Tashqaridagi stollar bo‘sh edi. Joylashib kabob buyurishdi. O‘n daqiqa o‘tmay, “do‘xtir” ham keldi. Voqif aslida bolalar hakimi edi. Laqabi o‘shandan qolgan. Tibbiyot oliygohini bitirgan. Bir-ikki yil ishlagach, tushum kam deya o‘zini savdoga urgan, Islomga o‘xshab ziyon ko‘rgach shu kasbni tanlagandi.

Akif esa, tarix fakultetini bitirib, ancha vaqt akademiya ishlagan, hatto ilmiy ishi ham himoyaga tayyor edi. Sho‘ro qulagach, bor-e, dedi-yu, moshinga o‘tirib, kirakashlikka o‘tdi. Besh yildirki to‘rtta g‘ildirakning ketidan oila tebratadi.

Birinchi qadahni uning, oilasining va kasal qizining sog‘lig‘i uchun oldilar.

Keyin, Akif va “do‘xtir”ning sog‘lig‘i uchun qadah ko‘tardilar. Shisha oxirlab qolgan edi. O‘zi ichmasa-da qadah so‘zi aytgisi keldi:

— Shu qadahni o‘z sihatimiz, o‘z xalqimizning sog‘lig‘i uchun oling. Men har doim bu amrikonlarning bizga bir chaqalik nafi yo‘qligini aytardim. Bugun yana bir bor amin bo‘ldim. Kim bo‘lmasin, yo‘q joydan topilib kelgan bir ming yetti yuz dollar-ning yuzidan kechardi-ku? Ammo ular bir chervon ham bermadi. Ular menga otasidan qarzdor odamga qaragandek qaradi. O‘ris bo‘lsa berardi, nemis bo‘lsa berardi, — u biroz peshonasini qashib, qo‘shib qo‘ydi, — boringki, armani bo‘lsayam, berardi. Bu ... amirkon bermadi.

Do‘xtir bilan Akif joylarida bir-biriga qaragancha qotib qolishdi. Keyin baravariga dasturxon ustidagi sovigan quyruq va lo‘la kaboblarga tikilishdi. U esa hamon gapida davom etardi.

— Ajablanmang, og‘aynilar! Men bu ziyofatni so‘zimning rostligiga amin bo‘lganim uchun beryapman. Nasib bo‘lsa, bolamni bir amallab operatsiya qildiraman. Shu paytga qadar o‘sha tullak amrikonlardan hech bo‘lmasa bittasi bilan yuzma-yuz kelishni

istagandim. Mana, ko‘rdim. Va hammasiga ishondim. Ular guldek bir mamlakatni tag-tugi bilan yo‘qotdilar. Ichimizga nifoq soldilar. Ishsiz-kuchsiz qoldirdilar. Hozir ham bizni talab yotishibdi. Nef-timizni suvtekinga olib ketishyapti. Bizni esa odam o‘rniga ko‘rish-maydi... Garson, bitta aroq...

Akif nimadir demoqqa chog‘langandi, ulgurmedi:

— Ichaman, quy, bugun to‘ygunimcha ichaman.

... Kafedan chiqishganda soat birga yaqinlashgan edi. Akif avval uni, keyin do‘xtirni eltib qo‘yishi kerak edi. Darvozaning oldida to‘xtadilar. U yo‘l-yo‘lakay boyagi mavzuda gapirib keldi. Akif zo‘rg‘a uni gapidan to‘xtatib moshindan tushirdi.

— Moshiningni o‘zim ichkari kiritib qo‘yaymi, — so‘radi Akif darvoza oldida turgan mashinaga imo qilib. — E‘tiroz bildirdi. Cho‘ntaklarni paypaslab, kalitni qidirdi. Topolmay ichkari kirdi. Xotini shovqindan uyg‘onib hovliga chiqqan edi.

— M... mo-o-shin-nni...qo‘ya-veyer, qqolib kketavversin tash-qqarida-a, o‘-o‘lmaydi-ii!

Xotini “moshin tashqarida qolmasin, o‘tgan bor, qaytgan bor”, deb aytmochi bo‘ldi. Keyingi paytlarda moshinlarning old oynaklari, g‘ildiraklarini o‘g‘irlab ketish hollari ko‘paygan. Uning ichkariga kira solib kiyim-piyimi bilan o‘zini yotoqqa urganini ko‘rib indamadi.

— Xafa bo‘lmang, hali hammasi yaxshi bo‘ladi, — dedi xotini unga yuzlanib. U esa allaqachon tarashadek qotgan edi.

Sahar payti miyasida turgan qattiq og‘riqdan uyg‘onib ketdi. Xotini uning qarshisida to‘shak ustiga o‘tirib olgandi.

— Yomon tush ko‘ribman, katta-katta binolar yonib, kultepaga aylanayotganmish.

— Moshinga qarab qo‘ydingmi?

— Joyida turibdi.

— Qizing qalay?

— Yaxshi. Lekin... ko‘nglim nimanidir sezyapti. Baraka top-gur, shu zahri zaqqumni ichmang!

— Bo‘pti, endi ichmaganim bo‘lsin. Ertadan machitga bora-man. Tavba qildim, — deya boshini yostiqaq burkadi.

SINFKOM SAYLOVI

Bokuning jazirama yozi ortda qoldi. Kuzning sarin nafasi bilina boshladi. 1 “A” sinf o‘quvchilari maktab hayotining ilk ikki oyini ortda qoldirishdi. Bu fursat ichida kitob-daftarlarini olib, o‘qish-yozishni ham anchagina o‘rganib qolishgandi.

Eshik ochilib, Xadicha muallima sinfga kirishi bilan bolalar hammasi oyoqqa turdi. Muallima bolalar bilan salomlashgach, stol orqasiga o‘tib gap boshladi.

— O‘tiringlar. Bugun dars o‘tmaymiz. Uyda o‘tgan darslarimizni takrorlab kelasizlar. Bugun sinfkom saylab olishimiz kerak. Bu haqda sizga ilgari ham aytgan edim shekilli. Bolalar, bilasizki, biz demokratik o‘lkada yashayapmiz. Har bir kishining saylash va saylanish huquqi bor. Bugun shu yerda birinchi qadamni qo‘yasizlar. O‘tgan vaqt ichida bir-biringizni tanib oldinigiz. Bugun siz o‘z ishonchingizni qozongan do‘stingizni, dugonangizni sinfkom qilib saylashingiz mumkin. Anavi, sinfda ishlab yurgan chilangar amakiga e‘tibor qilmanglar. U o‘z ishi bilan band. Biz ham ishga kirishishimiz kerak. Qani, kim menga aytadi: sinfkom o‘zi nima degani? Nima ish qiladi?.. Balli... Hamma javob bermoqchi. Birinchi Jamila qo‘l ko‘tardi. Qani, qizim?

— Sinfkom o‘qituvchining yordamchisi bo‘ladi. Unga ko‘maklashadi.

— To‘ppa-to‘g‘ri. Keyin-chi, Lola, sen ayt.

— Sinfkom bo‘r olib keladi. Sinfning tozaligini nazorat qiladi.

— Juda soz. Ofarin. Ali, sen nima deysan?

— Sinfkom “stukach”lik qiladi. Chaqimchi va laganbardor...

Xadicha muallim ko‘zoynagini olib, orqa partada o‘tirgan o‘quvchiga qaradi.

— Nima? Bu gaplarni senga kim o‘rgatdi?

— Otam.

Birinchi partada o'tirgan qiz unga qo'shimcha qildi:

— Alining otasi — “julik”. Onam shunaqa deydi. Uning do'konidagi kolbasalarning hammasi eski. U yerdan olingan sutni qaynatsa, achib qolarkan.

— Nima qipti. Mening otam ham sening onangni “demagog” deydi.

Vaziyat izdan chiqa boshlagan, o'quvchilarning suhbatini noxush tomonga yo'nalib bormoqda edi. Xadicha muallim oyoqqa turib, munozaraga qo'shildi.

— Bolalar, bu qanaqasi, bunaqa gaplarni gapirish uyat bo'ladi. Ali, o'g'lim, menga qara... Otang bu gaplarni hazillashib aytgan bo'lsa kerak. Masalan bugun uyga borib, sinfkom sayladik, desang, xursand bo'ladi. Seni maqtaydi. Laylo, qizim sen ham boyagi gaplariningni onangga aytib bersang juda uyalib qolishi mumkin. Bolalar, bitta gapni quloqlaringga quyib olinglar. Hech qachon uydagi gapni ko'chaga chiqarmanglar.

Xadicha muallim zarda bilan qo'lini siltab turgan qizni turg'izdi.

— Ha, Jola, sen nima deysan?

— To'g'ri aytasiz, muallim, mening otam ham har kuni uyda hukumatni so'kadi. Lekin, bizga bu gaplarni ko'chaga chiqar-masligimizni aytadi.

— Bolalar, mavzudan uzoqlashib ketdik. Bugun sinfkom saylab olishimiz kerak. Aytinglar, kimni saylasak bo'ladi?

— Alini!

— Lolani!

— Eldorni!

— Orifni!

— Matonatni!

— Noila muallimani!

Xadicha muallim taajjub ila oxirgi taklifni ilgari surgan bolaga qaradi:

— O'g'lim, sinfkom sizning sinfda o'qiyotgan bolalar orasidan saylanadi. Musiqa o'qituvchisining bunga nima aloqasi bor?

— Chunki, u dahshat narsa. Kalta yubkada ishga keladi. Amalim uni ko'rsa o'lib qoladi. Noila muallimani meni maktabga olib

kelgan payti ko‘rib qolgan ekan. Mendan, bu jonon kim o‘zi, deb so‘ragan edi.

— Jovid, o‘g‘lim, hozir uydagi gaplarni ko‘chaga chiqarmanglar, deb aytdim-ku!

— Malim, bu gapni bizam uyda gaplashmadik. Amakim bu gapni menga ko‘chada, mashinaning ichida aytdi-da!

— Bo‘pti, demak takliflar berildi. Nomzodlardan biri Ali. Alining qaysi sifatлари, xislatları sizga ma‘qul? Xo‘sh, Somir, bu taklifni sen beruvding. Nega Alini tanlayapsan?

— Chunki, uning ikkita “telex”i bor. Ana, eshikda poylab turibdi. Kimni desangiz, sochib tashlashadi.

— O‘g‘lim, bu ishning tansoqchilarga hech qanday aloqasi yo‘q. Siz sinfdoshiningizning insoniy fazilatları haqida gapiring.

— Malim, Fomilni saylaylik.

— Yo‘q, uni saylab bo‘lmaydi. U — ekstremist. Oppozitsiya.

Xadicha xonim darrov muzokaraga qo‘shildi. Birinchidan, bu nima degan gap? Birinchi sinfda o‘qiydigan bolaning siyosiy maqomi bo‘ladimi? Bunaqa gaplarni qayerdan oldinglar?

— Hammamiz bir xil kiyimda kelamiz. U bo‘lsa, har xil kiyinadi. Katta bo‘lsa vazir bo‘larmish.

Xadicha muallim kulimsirab, fikrini bildirdi.

— Vazir bo‘lsa, nimasi yomon? Ertaga sizlar hammaningiz katta vazifalarda ishlaysiz. Taniqli fan va madaniyat arboblari bo‘lib yetishasiz. Buning uchun o‘qish kerak.

— Malim, Farangizni saylaymiz. O‘ziyam, ja ketvorgan-da!

— Farangizni saylamaymiz, u parallel sinfdagi Metin bilan yuradi.

— Yo‘q, men hech kim bilan yurmayman, bildingmi, svoloch.

Farangiz bor ovozi bilan yig‘lashga tushdi. Keyin esa, o‘rnidan turib, o‘zini eshikka urdi. Kutilmaganda ochilgan eshikning tutqichi tansoqchilardan birining yelkasiga urildi. Og‘riqdan uning basharasi burishib ketdi. Ikkinchi tansoqchi ichkariga boshini suqib, Xadicha xonimga yuzlandi.

— Hammasi joyidami?

Xadicha xonim ham juda tez fursatda yuz bergan bu jarayon oldida shoshib qolgandi.

— Ha, ha, xavotir olmang. Hammasi joyida.

Tansoqchi eshikni yopdi. Xadicha xonim asabiy holatda Mehmonga yuzlandi:

— Uyatsiz! Sinfdoshinigni ham shunaqa haqorat qilasanmi? Uyalmaysanmi? Qizlarga osilish o‘g‘il bolaga yarashmaydi.

— Malim, direktorimiz unda nimaga har doim xotinlarga osilib yuradi... Xolam “U suyuq g‘irt seksualniy manyak” degan edi.

Xadicha muallima qip-qizarib ketdi. Maktab direktorining xotinbozligi hech kimga sir emasdi. Xadicha xonimning o‘zi ham bolaning fikrini ichida qo‘llab-quvvatlab turardi. Lekin, bu qadar oshkoralik..

— Bolalar, kelinglar, saylovni davom ettiramiz. Sen Mehmon, Farangizdan uzr so‘rashing kerak. Uning ko‘nglini ol. Hali o‘tgan hafta qilgan ishingni nima desa bo‘ladi? Hovlida to‘p o‘ynab, derazani sindirding. Direktor ota-onangni chaqirtirib yuborgan edi. Sen kimni boshlab kelding?

— Vasya amakini.

— Vasya amaki senga kim bo‘ladi?

— Vasya amaki har doim uyimizning yonidagi pivoxona oldida o‘tiradi. Odamlardan pul tilanadi. Keyin o‘sha pulga bo‘kkuncha ichadi.

— Xo‘sh keyin nima qilding?

— Maktabda bufetdan ovqat olib yeyishim uchun berilgan bir shirvonni Vasya amakiga berdim. Keyin uni otam o‘rniga maktabga olib keldim.

— Direktorning yoniga-ya?

— Ha, direktor shikoyat qilishni boshladi. Keyin Vasya amaki mening qulog‘imni buradi. Keyin men uning oyoqiga tepdim. Keyin u meni “Sukin sin” dedi. Meni nimaga so‘kadi bo‘lmasa?

— O‘zing ham uni otang o‘rniga maktabga sudrab kelibsanku? Qani kundaligingni bir ko‘ray-chi?.. Iye, bu nimasi? Nega kundaligingda shuncha bo‘sh varaq tashlab ketding?

— Reklama uchun joy qoldirdim. Axir, gazeta-jurnallar, telekanallar reklamadan pul ishlash uchun bo‘sh joy qoldirishadi-ku!

— Bu zamonning bolalari meni jinni qilib qo‘yishadi. Maqsaddan uzoqlashmaylik. Nima deyotgandik?

— Noila xonim haqida gaplashayotgan edik, — dedi Jovid qo‘lini ko‘tarib.

Xadicha xonimning jahli chiqq boshladi:

— Vey bola, hali yetti yoshdasan. Noila xonim esa 25 da. Senga kattalik qiladi u.

— Menam o‘zim uchun so‘rayotganim yo‘q. Amakim aytdiki, men ularni topishtirib qo‘ysam, menga velosiped olib berarmish.

— Ertaga o‘sha amakingni mening oldimga chaqirib kel.

— Malim, amakim sizni boshiga uradimi? Unga Noila xonim kerak. Siz uchun velosiped olib bermaydi menga.

— Bo‘ldi, bas, yetar!

Xadicha muallim o‘zini tinchlantirishga urinayotganda, eshik ochilib, Farangiz ko‘rindi.

— Kirsam maylimi? Kechirasiz, sizdan so‘ramay tashqariga chiqib ketganim uchun. Hojatga ketuvdim.

Muallima qizga yaqinlashdi. Boshini silab, muloyim tovushda dedi:

— Tushunaman, qizim, bor joyingga o‘tir. Faqat, Mehmon senga bir narsa demoqchi edi. Qani, Mehmon, nima demoqchisan? Muallimaning ishorasi bilan Mehmon oyoqqa turdi.

— Farangiz, sendan kechirim so‘ramoqchi edim. Lekin, sen birdan tualetga ketib qolding. Malim o‘zingiz aytuvdingiz-ku, tualetga tanaffusda boringlar, dars vaqti o‘zingizni tutib turing, deb.

Bolalar hiringlab kula boshlashdi. Farangizning ko‘zlari yoshlandi. Yana tezlik bilan sinfdan yugurib chiqdi.

Xonaning eshigi ochilib, tansoqchilar xonaga bosh suqishdi va atrofga ko‘z yugurtirishdi.

— Muallima, tinchlikmi? Manavi qiz har ikki daqiqada bir yig‘lab tashqariga chiqadi?

Xadicha muallima endi javob berish uchun og‘iz juftlagan paytda gapga Alining o‘zi qo‘shildi:

— U qizning tomi ketibroq qolgan. Sizlar ham har zamonda ichkariga suqilib, erkin saylovga soya solyapsiz. Sinfkomlikka nomzodlardan biri menman.

Tansoqchilar tashqari chiqib, eshikni yopishdi. Muallima taajjub ila Aliga tikildi:

— Sen bunaqa gaplarni qayerdan o‘rganding?

— Saylov o‘tkazilganda televizorda ertadan kechgacha shunaqa gaplarni gapirishardi.

— Ha... Endi tushundim. Ali, Sen o‘tir, Mehmon sen yana ishini chigallashtirding. Sinfdoshing qaytib kelsa, ortiqcha gap qilma. Kechirim so‘ra, tamom. Tushundingmi? Yaxshi. Bolalar, demak, oltita nomzod ilgari surilyapti. Ali, Lola, Eldor, Orif, Farangiz va Matonat. Ha, Jovid, nima deysan? Voy aytdim-ku, Noila xonimni sinfkom qilib bo‘lmaydi. Endi har biringiz qaysi nomzodga ovoz berish uchun aniq bir qarorga kelishingiz kerak. Har bir nomzod o‘zi haqida doskaga chiqib gapirib bersin. Istagan savolinigiz bo‘lsa bering, Marhamat, avval qizlardan boshlaymiz. Qani, Lola, chiq doskaga!

Lola chiqdi. Keyin sinfdoshlariga qarab, gap boshladi.

— Mening otim Lola. Birinchi sinfda o‘qiyman. Hamma darslardan besh olyapman. Musiqa tinglash, raqs tushishni yoqtiraman. Meni saylasangiz, sinfda tozalikni saqlashga harakat qilaman.

Xadicha muallima mamnuniyat bilan bolalarga yuzlandi:

— Savollaringiz bo‘lsa, marhamat, beraveringlar. Qani Gulnora, tur, nima savoling bor?

— Lola, sen qaysi gulni yoqtirasan?

Lola savolga javob bermoqchi bo‘lganida, sinfxona eshigi ochildi. Farangiz uyalib-qimtinib sinfga kirdi. Xadicha muallima o‘rnidan turib unga yaqinlashdi. Keyin qovoq uyib, Mehmonga qaradi.

Mehmon ham o‘rnidan turdi:

— Farangiz, meni kechir, lekin...

Xadicha muallima shogirdining gapini qoq yarmida bo‘ldi:

— Bo‘ldi shu yetadi, Farangiz katta qiz. Sening uzringni qabul qildi. O‘tir qizim joyingga. Xo‘sh, davom etamiz. Qayerda to‘xtagandik?

Shu payt kutilmagan hodisa yuz berdi. Ko‘zlari yoshga to‘lgan Sadoqat ismli qiz qichqira solib tashqariga otildi.

Eshik og‘zida ishlayotgan chilangar noroziligini bildirdi:

— Bolalar, joyingizda o‘tirsangiz-chi! Saylovingizni tinchgina o‘tkazavering. Har ikki daqiqada eshikni ochib-yopaverasizmi?

O‘zi saylov degani shunaqa g‘alva bilan o‘tadi. ”Vechni” o‘rtada bir ishkal chiqib turadi.

Xadicha xonim ham bu holga shoshib qoldi. Taajjub ila bolalardan so‘radi:

— Bunga nima bo‘ldi? Kim xafa qildi?

Savolga Sadoqatning partadoshi Aytan javob berdi:

— Malim, Sadoqat ham sinfkom bo‘lmoqchiydi. Lekin hech kim uning nomzodini ko‘rsatmadi.

Xonaning eshigi ochilib, ichkariga ikkita devday tansoqchi kirib keldi. Sinfga cho‘kkan sukunatni bir tansoqchining yo‘qon ovozi bo‘ldi:

— Muallima, o‘zi bu yerda nimalar bo‘lyapti? Har uch-to‘rt minutda eshik bir ochilib, bitta bola yig‘lab chiqadi? Nima bezovtalik? Ruxsat bersangiz, qarshilik bo‘lmasa, biz ham ichkariga kirib, saylovlarga kuzatuvchi bo‘lib qatnashsak?

Xadicha muallima nima qilarini bilmay qolgandi. Har qalay bu ikki barzangiga rad javobi berishni o‘ziga ep ko‘rmadi:

— Marhamat, faqat jim o‘tirishingizni so‘rayman.

Ikki barzangi orqadagi kichik partalarga arang siqilishib o‘tiridilar. Xadicha muallima nazoratni yana o‘z qo‘liga olishga tirishdi:

— Xo‘sh bolalar, qayerga kelgandik?

Gulnora savolini takrorladi:

— Lola, sen eng ko‘p qaysi gulni yoqtirasan?

— Atirgulni.

Xadicha muallima stolining orqasiga o‘tdi. Ko‘zoynagini taqib, bolalarga yuzlandi:

— Lolaga boshqa savolingiz bo‘lmasa, ikkinchi nomzodga o‘tamiz. Ha, Jayron, nimani so‘ramoqchisan?

— Malim, men sizga savol bermoqchiman.

— Eshitaman.

— Nega kelinlar oq ko‘ylak kiyishadi?

— Oq rang poklikni, iffat va to‘g‘rilikni, ezgulik va sofdillikni, sevgi va muhabbatni bildiradi, qizim.

— Malim, bo‘lmasa nima uchun kuyovlar qora kiyim kiyishadi.

— Hmm... haligi... Bolalar, maqsadga o‘tamiz. Kimning navbati? Matonat, kel. Ana shunday. Qani o‘zing haqingda gapir.

— Mening otim Matonat. Mening otam vazir. Uyimizda bir it bor. Men itimni yaxshi ko‘raman. Darslarimni bajarib bo‘lib, o‘yinchoqlarimni o‘ynayman. Kitob o‘qiyman. Menga savolinglar bormi?

Gulnora qo‘lini ko‘tarib, savol berdi:

— Sen eng ko‘p qaysi gulni yoqtirasan?

— Men eng ko‘p atirgulni va qalampirgulni yoqtiraman.

— Balli, qizim. Bor o‘tir. Endi Farangiz chiqsin. Qani bolam gapir-chi?

— Men haqsizlik va yomonliklarni yomon ko‘raman. Tuhmatchilarni yoqtirmayman. Sinfkom bo‘lsam, yolg‘onchilarni, tuhmatchilarni muallimimizga aytib beraman. Savolingiz bormi?

— Sen eng ko‘p qaysi gulni yoqtirasan?

— Men eng ko‘p atirgulni, qalampirgulni, keyin, kartoshkagulni yoqtiraman.

Xadicha muallima gapga aralashdi:

— Ana, bolajonlar, ko‘rdinglarmi? Qizimiz rejalarani aniq aytib berdi. Endi yigitlarimizga o‘tamiz. Qani, kel-chi, Ali. Gapir, sinfkom bo‘lsang, nimalar qilasan?

— Birinchidan otam, butun sinfga restoranida ziyofat beradi. Malim, sizam borasiz. Ikkinchidan sinfxonamizga to‘riq palos to‘shattiraman. Uchinchidan, otam butun sinfga yangi stullar olib beradi. To‘rtinchidan...

— Sen xuddi siyosatchilarimizga o‘xshab gapiryapsan. Bu ishlarning sinfkomlikka nima aloqasi bor? Otang maktabga yordam bermoqchi bo‘lsa, sen sinfkom bo‘lmasang-da, bu ishlarni qila-veradi.

— Yo‘q, malim. Otam sen saylanmasang, bu ishlarning nima keragi bor, deb aytdi. Yana aytdiki, saylanguncha va‘da beraver, asosiysi saylanish, u yog‘i uncha muhim emas.

Muallima nima deyishni bilmay, yana sinfga yuzlandi.

— Bolalar, savolingiz bo‘lsa, marhamat.

— Men savol bersam bo‘ladimi, — Jovid muallimidan tasdiq javobini olib, o‘rnidan turdi. — Ali, restoranga Noila muallimani ham chaqirasanmi?

— Chaqiraman.

— Mening amakim ham kelsa bo‘ladimi?

— Albatta bo‘ladi, nega bo‘lmasin?

Jovid xursand bo‘lib, kaftlarini ishqaladi. Keyin yonidagi qizning qulog‘iga pichirladi:

— Men Aliga ovoz beraman.

Keyingi savolni Gulnora berdi:

— Ali, sen eng ko‘p qaysi gulni yoqtirasan?

— Hammasini, va‘da beramanki, men sinfkom bo‘lsam, sinfga har kun yangi gullar opkelaman.

— Juda yaxshi o‘g‘lim. O‘tir. Qani Eldor, sen chiq!

— Muallima, men sinfkom bo‘lishni istamayman. Ovozimni Farangizga berdim.

Orqa partada o‘tirgan tansoqchilardan biri kulimsirab, sherigi bilan ko‘z urishtirdi:

— Hozirgi bolalar juda abjir bo‘lib ketishgan. Biz bu yoshda juda bo‘sh-bayov bo‘lganmiz. Qara, bitta gap bilan qizni qo‘lga oldi-qo‘ydi.

O‘zini eshitmaslikka olgan Xadicha muallima o‘quvchisining fikriga munosabatini bildirdi:

— Bolalar, bu juda ixtiyoriy ish. O‘rtog‘ingiz istamasa, uni majbur qilolmaymiz. Endi kimning gali? Ha, Orif, doskaga chiq. Nima deysan?

— Mening otim Orif. Uyda televizor ko‘rishni, hovlida to‘p tepishni yaxshi ko‘raman.

— O‘g‘lim, katta bo‘lsang, kim bo‘lmoqchisan? Otangga o‘xshab, matematik bo‘lishni, fan doktori bo‘lishni, akademiyada ishlashni istasang kerak?

— Yo‘q, men amakimga o‘xshab sozanda bo‘laman.

— Juda yaxshi, musiqaga qiziqishing ba‘zilarga o‘xshab, Noila muallimaga aloqador emasmi?

— Yo‘q, pulga aloqador.

— Tushunmadim. Pulga musiqaning nima daxli bor?

— Mening otam matematik. Lekin, har doim amakimdan qarz olib turadi. Amakim bo‘lsa, institutni bitirgani yo‘q. O‘zi garmon chaladi. To‘ylarga boradi. Ko‘p pul topadi. Menam amakimga o‘xshagan bo‘laman.

— O‘g‘lim, pul hamma narsani hal qilaveradimi? Bilim olish kerak. Agar yaxshi o‘qimasangiz, ahvolingiz... mana! Mana shu odamga o‘xshab qolasiz, — deya eshik og‘zida, yerda o‘tirgan chilangarni ko‘rsatdi. Butun sinf shu tomonga qaradi. Muallimaning gaplaridan ranjigan chilangar xaltasini qo‘ltiqlab, tashqari chiqib ketdi. Xadicha muallima uni chaqirib, ortidan kechirim so‘rab qolsa ham, vaziyat o‘zgarmadi. Xadicha muallima chor-norchor eski mavzuga qaytdi. Vaziyatdan chiqish uchun so‘zni Gulnoraga berdi.

— Orif, sen eng ko‘p qaysi gulni yaxshi ko‘rasan?

— Men eng ko‘p Nargisni yaxshi ko‘raman.

Hamma bolalar birinchi partada boshini egib o‘tirgan Nargisga qaradi. Shu choq xonaning eshigi ochilib, qimmat farang atrining hidi sinfga taraldi. Maktab direktori kirib keldi. O‘quvchilar, tansoqchilar va Xadicha muallima o‘rnidan turib u bilan salomlashdilar. Alibobo muallim sinf rahbariga yaqinlashdi:

— Xadicha xonim, bu yerda nimalar bo‘lyapti o‘zi? Sinfingizdan bir qizning yig‘lab muallimlar xonasiga kelganini, onasiga telefon qilganini eshitdim. Keyin chilangar keldi. Avzoyi buzuq.

— Alibobo muallim, bugun sinfkom saylovi o‘tkazayotuvdik Sadoqat qizimizning nomzodini hech kim ko‘rsatmadi. U keyin arazlab ketib qoldi. Chilangarni esa, men xafa qildim. Bilmasdan, albatta. Kechirim so‘radim, ammo quloq solmadi.

— Xadicha muallima, sizni bir daqiqaga mumkinmi?

Direktor va sinf rahbari birgalashib, sinfdan chiqishdi. Alibobo muallim sinf eshigini yopib, shosha-pisha gapga tushdi.

— Vey, nima qilasiz boshimizga g‘alva orttirib? Saylov-paylov degan gapni qayerdan chiqardingiz? Odatdagidek bir a‘lochi bolani saylang-qo‘ying-da! Sadoqatning onasi RAYONoda ishlashini bilasiz-a?

Shu choq sinfningsh eshigi ochilib, tansoqchilar ham chiqib keldi:

— Biz albatta maktabingizning ishiga aralashishni istamaymiz. Lekin, Alini saylashingizni maslahat beramiz. Bilasiz — Og‘abola muallim katta bir xoldingning rahbari. Maktabingizga ham foydasi tegadi.

— Meni bu ishga aralashtirmang. Mana, sinf rahbari bor. Xadicha muallima, agar mening maslahatim sizga kerak bo'lsa, yo RAYONOni yo mana bu xoldingni bolasini sinfkom qiling.

— Alibobo muallim, unda sinfdagi vazirning qizini nima qilaylik? Nomzodlardan birining otasi vazir ekan.

— Bilmadim, boshim qotib qoldi. O'zingiz bir yo'lini toping. Menam sinfga kirib o'tiraman, qani, oxiri nima bo'larkin? Qani, sizlar ham kiringlar. Ha, qizim, kel senam. Oting nima edi?

— Sadoqat. Ruxsatsiz chiqib ketganim uchun kechiring.

— Hechqisi yo'q qizim. Kir.

Hamma ichkariga kirdi. Direktor bolalarga murojaat qildi.

— Bolalar, bu saylovlarda hech kimning ko'ngli sinib qolishini istamaymiz. Shuning uchun Sadoqatning ham nomzodini ilgari suramiz. Menda savolingiz bormi? Nima deysan qizim?

— Malim, siz qaysi gulni yoqtirasiz?

— Nima? Esing joyidami qizim? O'zimning gulim chiqib turibdi. Mening qaysi gulni yaxshi ko'rishimga saylovning nima daxli bor? Muallima siz davom eting.

Xadicha muallima gapga tushdi:

— Bolalar, mana sinfdoshlaringizni eshitdilaring. Nomzodlarning rejaları bilan tanishdinglar. Endi saylovni boshlaymiz. Demak, gap bunday: ism-familiyalarni o'qiymiz. Siz o'zingizga yoqqan nomzod uchun qo'l ko'tarib ovoz berasiz. Keyin ovozlarni sanaymiz. Eng ko'p ovoz to'plagan sinfkom bo'ladi. Qani, Latif, chiq. Natijalarni doskaga yoz. Birinchi nomzodimiz Lola. Kim Lolaga ovoz beradi? Ofarin, yaxshi. Ikkinchi nomzod Matonat. Latif, qo'llarni sanayapsanmi? Uchinchisi Farangiz. Juda yaxshi. To'rtinchi Ali. Keyin kim qoldi? To'g'ri, Eldor sinfkom bo'lishni istamadi. Demak, oxirgisi Orif ekan. Endi natijalarni ko'ramiz.

Xonaning eshigi ochildi. Direktorning kotibasi kirib keldi. Sinfga ko'z yugurtirib, Alibobo muallimni ko'rdi va qichqirdi:

— Alibobo Vaysalovich, sizni shoshilinch telefonga so'rashyapti.

Alibobo muallim chiqib ketdi. Xadicha muallima direktorsiz natijalarni e'lon qilishni o'ziga ep ko'rmadi. Shuning uchun gap boshladi.

— Bolajonlar, siz bugun birinchi bor demokratik saylovlar ishtirokchisi bo‘ldingiz. Demokratiya mana shu. Hali haqiqiy saylovlarga ishtirok etishga yoshingiz yetmaydi. Ammo, siz birinchi qadamni tashladingiz. Mustaqil davlatimizning kelajagi sizning qo‘lingizda. Shuning uchun har doim demokratiyaga sodiq qo‘lishingizni, shu yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatishingizni istayman. Siz bizning umidimiz, ertangi kunimizsiz. Sizni bugungi saylovlar bilan tabriklayman. Mana, bu saylovda sizning katta amakilaringiz kuzatuvchi bo‘lishdi. Endi so‘zni ularga bersak.

Xadicha muallima tansoqchilarni doskaga chiqardi. Tansoqchilar biroz o‘ng‘aysizlanib bolalarga yuzlanishdi. Birinchi tansoqchi gap boshladi.

— Voobshem, masala ravshan. Qo‘linglarni ko‘tarib ovoz berdiyla. Yaxshi bo‘ldi. Demokratiya bo‘ldi. Haqiqiy saylov tochniy mashinaqa bo‘ladi. Endi biz nimayam derdik. Hamma narsa kak nado o‘tkazildi. Shu!

Ikkinchi kuzatuvchi gap boshladi:

— Men kuzatuvchi sifatida aytishni istardimki, saylov paytida hech qanday qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmadi. Yevropa Ittifoqida ham bunaqa odil saylov bo‘lmagan. Bitta bola “samootvod” berdi. Avtomaticheski, saylovga kirmadi. Bu saylov eng yuqori standartlarga...

Xonaning eshigi ochilib, tansoqchining so‘zlari qoq yarmidan kesildi. Direktor ichkariga kirdi. Doskadagi natijalarga qaradi. Keyin yuzini Xadicha muallima va tansoqchilarga o‘girib, dedi:

— Sizlar men bilan bir daqiqa tashqariga chiqinglar. Bolalar, siz shovqin ko‘tarmay turinglar. Biz hozir kelamiz.

Xadicha muallima va tansoqchilar zalga chiqar-chiqmas direktor shovqin sola ketdi:

— Shu saylovingiz boshga bitgan balo bo‘ldi. Avval rayonodan telefon qilishdi. Keyin ishga gorono aralashdi. Oxirida vazirlikdan ham qo‘ng‘iroq qilishdi. Hatto, markaziy saylov komissiyasi ham masalaga aralashib, ishimizning gayriqonuniy va xato ekanini aytdi. Bulletinlar tayyor emas. Saylovchilar ro‘yxatga olinmagan. Xorijdan betaraf kuzatuvchilar ishtirok etgani yo‘q. Saylovning legitimligi aniqmas.

Tansoqchilarning biri suhbatga aralashdi:

— Bularni tomi ketib qopti o‘zi. Bular uxlashyaptimi o‘zi? Xuddi haqiqiy deputat saylashyaptimi deysan.

Direktor norozi ohangda ularning ovozini bo‘ldi:

— Sizning esa, gapirishga umuman haqqingiz yo‘q. Rasmiy kuzatuvchi vazifasini olganingiz yo‘q. Ro‘yxatdan o‘tmagansiz. Kuzatuvchimiz deb quloqqa lag‘mon osasizlar.

— O‘v, brat, qanaqa lag‘mon, qanaqa vazifa? Boshizga ot tepganmi sizni? Gaplashasanmi, o‘v?! Chiq buyoqqa...

Ikkinchi tansoqchi birinchisini tinchlantirishga urindi:

— Alishka, ne nado! Bizani o‘z ishimiz bor. Nima qilsa qiluvirmiydimi? Bizga nima?

— Bu nima deganing. Og‘abola Vaysalovichga nima deysan? O‘g‘lini qonuniy yo‘l bilan sinfkom qilib saylashdi-ku. Bu qurum-soq ishni buzyapti.

— Men bilan bunaqa gaplashishga haqqingiz yo‘q. Ikkovingiz ham maktabdan chiqib keting. Yo‘qsa, politsiya chaqiraman.

— O‘v nimalar deyapsan? San manga “pont” bilan gapirmagin, xo‘pmi? Gaping bormi, chiq chekkada gaplashamiz. Politsiyani san emas, man chaqiraman. O‘v, Gosha, bu farmazonning mashinasini GAIdagi bolalarga topshir, shtrafnoyga bosishsin, keyin miyasi joyiga keladi. Man bilan munaqa tonda gaplashmagin, a tak sindiraman, o‘v!

— Alishka, tinchlan...

Suhbatga Xadicha muallima ham qo‘shildi:

— Bas qiling. Bolalardan ham battarsiz. Shoshmanglar, vaziyatdan qanday chiqamiz?

Alibobo muallimning boshi qotib qolgandi. Buning sababi qo‘ng‘iroqlarmi yoki tansoqchilarning so‘zlarimi, bilib bo‘lmasdi. Kadarli nigoh bilan muallimaga qaradi.

— Yana uch daqiqadan keyin telefon qilishadi. Ichkari kirib bolalarga biror nima deb turing. Chindan ham Yevropadan kuzatuvchi chaqirmaymiz-ku! Ovoz berish oshkora o‘tdi. Bulletin-mulleten yo‘qki, biror balo qilsak. Tfu, tentakka o‘xshab hamma natijalarni doskaga yozib qo‘yibsiz. Nima qilishga ham

hayronman. Boring, bolalaringizga bir nima deb turing. Men ham yuqoridagilar bilan maslahatlashib ko‘ray.

Xadicha muallima eshikni ochib, sinfga kirdi. Bolalar oyoqqa turdi. Muallima ularni o‘tqizib, stoliga o‘tirdi va ko‘zoynagini taqdi. Qarshisida o‘tirgan bolalarning samimiy ko‘zlari bilan to‘qnashdi. Yuzaga kelgan vaziyatni bolalarga qanday tushuntirsa ekan? Dunyoda adolat hech qachon ustun bo‘lolmasligini bularga qanday aytin? Qonun-qoidalar kitobdagi kabi tatbiq etilmasligini qay tarzda bildirsin? Biroz o‘ylab keyin gapga tushdi:

— Bolalar, aytganimday, bugun ilk demoratik imtihon topshirdinglar. Juda zo‘r bo‘ldi. Biroq, hali demokratik tamoyillarga o‘tishimizga ancha fursat bor. Saylov ham oson masala emas. Bu juda murakkab jarayon. Saylovchilarning senga ishonishi, senga ovoz berishi, seni yaxshi ko‘rishi yetarli emas. Buni to‘g‘ri tushuninglar. Natijalar tasdiqdan o‘tishi lozim. Biz saylovlarni o‘tkazib bo‘ldik. Albatta dastlabki natijalar ma‘lum. Ammo, rasmiy natijani e‘lon qilish uchun bir necha kun kutishimiz kerak bo‘ladi. Buni yurtimizdagi yuqori idoralar, xalqaro tashkilotlar ham tan olishi kerak. Qoidasi shunaqa. Tushundinglarmi?

1 “A” sinf o‘quvchilavri bir ovozdan “yo‘q” deb javob qaytarishdi. Xadicha muallima bolalarga qarab, chuqur oh tortdi va “Ochig‘i bu ishlarni menam tushunolmadim” dedi.

Maktab qo‘ng‘irog‘i chalindi.

AYRILIQ

Ona-bola saharlab yo'lg'a chiqishgan, yuraverib charchashgani bois oyoqlaridan mador keta boshlagan, ikkisi ham bir og'iz gapirmasdan borardi.

Ona qosh qoraymasdan turib manzilga yetish lozimligini, aks holda o'g'li yolg'iz qaytsa, yo'lda turli yirtqichlarga ro'para kelishini o'ylab, so'nggi kuchini to'plab bo'lsa-da, olg'a intilardi. O'g'il esa o'z onasidan, so'nggi kunlarda boshiga qanchadan-qancha ko'rgiliklarning tushishiga sabab bo'lgan bu ayoldan tezroq qutulmoqqa oshiqardi.

El-yurt ichida obro'si bir pul bo'ldi, odamlarning ko'ziga ko'rinishga uyalib qoldi. Chunki odamlar uning onasi armani ekani endi yaxshi bilishadi.

Alloh qaysi aybi uchun unga bunday qismatni ravo ko'rdi? Yo'q, unga bu zulmni Alloh emas, har kuni siymosi ko'z o'ngidan ketmaydigan otasi yetkazmadimi? Agar o'sha paytlar qishloqning barcha yigitlari kabi o'z qavmidan halol sut emgan bir musulmonning qiziga sovchi yuborib uylanganida, sho'ri qurib bir armani qizga ro'para kelmaganida bunday savdolar yo'q edi.

U boyadan beri jim kelayotgan onasining yuzida azobli og'riq nishonasini ko'rdi. U oqsab borayotganini sezdirmaslik uchun oyog'i emas, yuzi bilan yurib borardi, go'yo.

O'tgan yozda qo'shni ayolning o'g'li armanilar bilan bo'lgan urushda nobud bo'lgandi. Ayol qo'shnisinikiga hol so'ragani chiqqanida marhumning onasi uning oyog'iga qo'lga ilingan temir parchasi bilan aylantirib soldi. Ayol issiq ustida og'riqni sezmedi, ovozi chiqarmay uyiga qaytdi. Baqirib-chaqirgandan ne naf? O'tgan ishga salavot. Uni ham tushunish kerak, bir kunda ham o'g'lidan, ham eridan ajralib o'tiribdi. Kichkina qizi bilan bir haftacha uy kunjida berkinib, xaloyiqning ko'ziga ko'rinmadi.

Hozir ham yarador oyog‘i qaqshayotgan ona uydagi kasal qizini o‘ylardi.

Qizaloq bir necha kundan beri isitmalab yotardi. Tunov kuni uni kelib ko‘rgan do‘xtir ham “Xavotirga o‘rin yo‘q, shamollamagan, hammasi o‘tib ketadi, nimadandir qattiq qo‘rqgan, uning yonida baland ovozda gapirmang”, deb ketdi.

Anchadan buyon jimgina kelayotgan ona o‘g‘liga “Qizimga hushyor bo‘linglar” degisi keldi, ammo nimanidir mulohaza qilib, indamay yarador oyog‘iga zo‘r berdi.

Yigit singlisini ham o‘yladi. Bekorga shoshildi-da! Singlisining sog‘ayishini kutsa bo‘larkan. Ehtimol, hozir singlisi uyg‘onib, isitma aralash onasini chaqirayotgandir, kuyib-yonayotgandir?

E, o‘lib ketmaydimi? Hamma kulfat o‘sha qizchanning dunyoga kelishi bilan boshlandi-ku? Tug‘ilishi hamono ikki olamni bir-biriga qorishtirib yubordi. Bu vaqtga qadar onasining armani ekanini birov yuziga solmagan edi. Hozirga qadar qishloq ayollari onasining nomini hurmat ila tilga olardi. Qishloqning azasida onasidek yonib-kuyib yig‘laydigan, to‘yida undan-da ziyod raqs tushadigan ayol yo‘q edi.

— Tezroq yursangiz-chi, toshbaqadek sudralmasdan!

Bu tahqiromuz so‘z tilidan qanday uchganini o‘zi ham bilmay qoldi. Aslida u onasining oyog‘i og‘riyaptimi-yo‘qmi, shuni so‘ramoqchi edi. Ona zo‘rg‘a qadamlarini tezlatdi.

Yo Rab, endi onasi unga ishonib tashlab kelgan singlisiga kim qaraydi? Onaizor qizini qanchalik sevishini so‘z bilan ifodalamoq qiyin. Shu qiz tug‘ilguncha o‘g‘lining bir tarafini kemtik ko‘rardi. Oilada qiz tug‘ilgach, uning bag‘ri to‘ldi. Qiz ana shu kemtiklikni to‘ldirdi. Ona endigina o‘zini mutlaq baxtiyor seza boshlagandi. Biroq, ikki farzandining unga ehtiyoji yo‘qligini yaxshi bilardi. Ular bir-biriga suyanib-tayanib ulg‘ayishi mumkin edi.

Eri bo‘lsa, usiz bir kunini o‘tkazishi mumkin. Xotini bormi-yo‘qmi, endi unga farqi yo‘q. Bolalari uchun ham uncha yonib-kuymaydi. Agar Alloh unga o‘n farzand berib, yettitasini qaytarib olsa ham, u bundan zarracha g‘am chekmasdi. Yigirma yil bir tom ostida yashab, erining nasabini yaxshilab o‘rgangan edi u. Ho‘, bir

paytlarda, juda istab qolganida, “Qani, bo‘l!” deb qo‘yar, o‘shanda ham javobni ilhaqlik bilan kutib o‘tirmasdi.

Hozir ham yaxshi biladiki, o‘g‘li uni bu yerlarga tashlab qayt-gach, eri undan xotini qayerga yo‘qolgani haqida so‘rab o‘tirmay-di. Xudo umr bersa, oradan uch, besh, o‘n yil o‘tsa-da, xotini qay manzilda g‘oyib bo‘lganiga qiziqib o‘tirmaydi. Chunki u erkak o‘z yonida kim yotgani bilan ham ishi bo‘lmasdi. U hayotni faqat o‘zidagina iborat deb bilardi, xolos. Buni ayol eri bilan bir yos-tiqqa bosh qo‘ygan kundayoq sezgandi.

— Otangga ehtiyot bo‘l!

Otasi o‘zi kim ediki, uni esga olsin?

To‘g‘risi, yo‘l juda uzayib ketdi. Ertalab uyidan chiqayot-ganda qosh qoraymasdan uyiga qaytishni ko‘zlagandi. Hisob-dan adashganga o‘xshaydi. Kun allaqachon botgan, ammo onasining qishlog‘i hali-veri ko‘rinay demasdi. Nogoh o‘g‘il-ning yuragini vahima chulg‘adi. Rost-da, yarim kechasi uyiga qanday qaytadi?

Yo‘q, bu yo‘l bunchalik uzoq emasdi. Bir paytlar bobosini ko‘rib kelish uchun bu yo‘ldan onasi bilan ko‘p bor o‘tishgan. Har doim kun qizimay turib, ona-bola manzilga yetib kelishardi. Bu-gun esa yo‘lning adog‘i ko‘rinmaydi.

— Namuncha imillaysiz, yursangiz-chi?

Bu gal o‘g‘ilning ovozi boyagidek qahrli chiqmadi. Bu ohang-da boyagi iddao va g‘azab sezilmasdi.

Balki haliyam kech emasdir? Balki hali ham ortga qaytmoq, hammasini boshdan boshlamoq mumkindir? Balki orqaga qaytish uchun hali kech emasdir, degan o‘y kechdi o‘g‘ilning xayolidan. Bir paytdagi kabi ona-bola birga ortga qaytishsa, nima qipti? Hatto “Ona, yuring, uyga ketaylik” deyishiga oz qoldi. Ammo, ayolning kechagina aytgan gapi esiga tushib, bu niyatidan qaytdi.

— Nega bu bechoralarni o‘z uyida tinchgina yashagani qo‘y-maysizlar? — degandi onasi bir kun ilgari.

Bu gapdan keyin o‘g‘ilning ko‘ziga uyqu kelmadi. Kechasi bi-lan to‘shakda to‘lg‘ana-to‘lg‘ana tong ottirdi.

“Qaysi bechoralar? Nahotki, millatimizning ashaddiy dush-manlarini bechora atamoq mumkin?”

Kimning uyida? Axir bu bizning o‘z uyimiz, o‘z yerimiz emasmi?”

Kun yorisha boshlashi bilan onasini uyg‘otish uchun uning yotog‘iga keldi. Ayolning ko‘zlari ochiq edi. Boyagi gapni aytganidan buyon to yotog‘iga kirgunicha u bir og‘iz ham gapirmagan, o‘g‘li kelib uyg‘otishini bilgani uchunmi, kuta-kuta tong ottirgan edi. O‘g‘li tepasiga kelib to‘xtaganini ko‘rgach, indamay o‘rnidan turdi. Kiyim boshini to‘g‘rilab, jimgina o‘g‘lining oldiga tushdi.

“Nega bu bechoralarni o‘z uyida tinchgina yashagani qo‘ymaysizlar?” O‘z uyida hamma narsani tartibga solib kelgan saranjom-sarishta ayol o‘ylamay aytib yuborgan bir og‘iz so‘zi tufayli hamma narsani ostin-ustun qilib yuborishini bilgani uchun kechadan beri ich-etini yeb yotardi. Lekin, bo‘lar ish bo‘lgan, g‘isht qolipdan ko‘chgandi. Endi sabr kosasi to‘lgan o‘g‘liga hech gap kor qilmasligini bilardi. Xullas, subhi sodiqda o‘sha uydan boshlangan bu yo‘lning oxiri ko‘rinay demasdi. Ona oldinda, o‘g‘il orqada bordilar.

O‘g‘il tushundiki, endi kech, onasini o‘zi bilan qaytarib olib ketolmaydi. Keta ketguncha yo‘l ham yomg‘irda yumshab qol-ganga o‘xshar, poyonsiz dengizga aylangan edi, go‘yo. Ona-bola ana shu dengizning o‘rtasida turishardi. Ikkovining anchadan beri halovat topmagan joni toqatdan ayrilgan, yura-yura holdan toygan onasini yelkasiga ko‘tarib, dengizni ortga qaytarish bu notavon farzandning qo‘lidan kelmasdi.

— Tezroq yuring, — dedi o‘g‘li. Bu gal uning ovozi qahr va iddao emas, nechukdir samimiyat bor edi.

Shu choq o‘g‘il dahshatli bir uyqudan uyg‘ongandek bo‘ldi. Bu qandoq gap? O‘z onasini oldiga solib qayerga olib bormoqchi? Bu narsa uning xayoliga qayerdan keldi?

Nogoh o‘g‘ilning vujudiga bir titroq oqib kirdi. Muzlab qolgan yuragiga harorat o‘rmaladi. Shu choq qulog‘iga dunyoning narigi chetidan bir sado keldi:

— Onamni orqaga qaytar!!!

Bu singlisining ovozi edi.

Yigitning ichida nimadir portlagandek bo‘ldi. Axir singlisi undan ancha uzoqda-ku, uning ovozi qanday eshitishi mumkin?

To'xtadi. Onasi ham to'xtadi. Balki singlisining bu nidosini onayizor ham eshitgandir?

— Singlingga ham ehtiyot bo'l.

Keyin onasi chiroqlar g'ira-shira ko'zga chalinib turgan qishloq so'qmog'i bo'ylab qorong'ilik qa'riga singib ketdi.

* * *

Onasi ko'zdan yo'qoldi, ammo zulmat o'z o'rnida qoldi. O'g'il umrida qora rangning qanchalik quyuq bo'lishini birinchi daf'a ko'rib turardi. Demak, ish bitdi, hamqishloqlari orasida yuzini shuvut qilgan ayoldan birato'la qutuldi, endi ortiga xotirjam qaytishi mumkin. Yigit vujudi allanechuk yengillashib qolganini his etdi. U onasini emas, butun o'tmishini chetga uloqtirgan edi, go'yo. Inson yuragi hamma narsani boshqatdan boshlashga qodir.

Yigitning yelkasidan tog' qulagandek bo'ldi. Alloh, o'zingga ming qatla shukur, deya pichirladi. U ayni chog'da ichidagi va tashidagi bor narsalardan, noxush o'y-xayollardan tamomila qutulib, butunlay boshqa qiyofiga kirmoqchi edi.

U kelgan yo'lidan orqaga qarab kelayotganida to'g'ridan kelayotgan bo'rini ko'rib taxtadek qotdi. Jonivorning qarashlarida vahshiylik va ochlik nishonasi sezilmasdi, negadir. Aftidan, u ona-bolaning ortidan izma-iz yo'lga chiqqan, yo'l-yo'lakay ularga o'rganib qolgan, shundan bo'lsa kerak, hozir ro'parasidan chiqqan yigitga indamay o'tib ketdi.

Ertalab onasini olib yo'lga chiqqan yigit uyiga qoq yarim tunda kirib bordi. Qishloqning chiroqlari allaqachon o'chgan, hech bir tirik jon ko'zga chalinmasdi. U hovlisining darvozasini lang ochiq ko'rib, dong qotdi. Shundagina ertalab ona-bola yolg'iz tashlab ketgan, isitmalab yotgan singlisi esiga tushdi.

... Shundan keyin nima bo'lganini eslay olmaydi.

O‘TISH DAVRINING TOVUG‘I

Men o‘tish davrining odamiman. Bu davrning hamma qoidalariga amal qilaman. Elektr haqining ham to‘rtidan birini to‘layman, shuning uchdan birini hisoblagichdan o‘chirib tashlayman. Albatta, insof bilan. Eshikka kelgan “elektrchilar”ning ham bola-chaqasi bor. Davlatga qiyin bo‘lmasin deymen. To‘g‘ri, o‘tish davriga oid vazifalarim bu bilan bitmaydi.

O‘tish davrining odami sifatida eshik qoqqan odamning kimligini bilish uchun tuynukdan mo‘ralayman. Chunki o‘tish davrining odami uyiga kelgan odamning kimligini bilishi kerak. Suv, kanalizatsiya, gaz pulini yig‘ib yuradiganlarning hammasini taniyman. Har gal bitta bahona bilan ularni orqaga qaytaraman. “Uyning egasi uyda yo‘q”.

Eshik odamlar uchun aksilrobita, ehtimolki, robita vositasi hamdir. Yaxshiyam eshik bor ekan. Bo‘lmasa, lo‘lilarga o‘xshab pul yig‘ib yurgan odamlar ko‘z ochirgani qo‘yishmasdi. Ular eshik ortida turib, o‘tish davrining talablariga muvofiq menga “ishonadilar”.

Ya‘ni, ishonishga majburdirlar. O‘tish davrining bolasiga nima deya olardilar? Nima, bizam qonun-qoidani bilmaymizmi? Ularni ham o‘zimiz tuzganmiz-ku? O‘tish davrining konstitutsiyasiga, deputatlariga... hammasiga o‘zimiz ovoz berganmiz. Fuqarolarning so‘z va mulk erkinligini o‘zimiz qo‘llab-quvvatlaganmiz.

Ba‘zida o‘tish davrining tushlarini ko‘raman. Tasodifan topib olgan bir diplomat dollarni sarflashga tushaman, padarla‘nati shunaqa tez tugab qoladiki... Odamning och-yalang‘och qarindosh-urug‘i, xesh-aqrabosi, tanish-bilishi bo‘lganidan keyin shuda! Ko‘rgan tushlarimni xotinimga umuman aytmayman. Bo‘lmasa, pulni behuda xarjlaganim uchun kunimni ko‘rsatadiki, bunaqa

tushni ko'rganim uchun ming pushaymon bo'laman va minba'd bunday tush ko'rmaslikka qasam ichishim mumkin.

Pul masalasi — og'ir masala. Chunki bizning oilada almisoqdan beri, to'g'rirog'i, men aqlimni taniganimdan buyon pul ta'minotini to'g'ri tushunmaganlar va pulga xuddi ertakdek qarashgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, men tushimda topib olgan pullarimni ham tez sarflab yuboraman, hammasi ertakka aylanadi. Men esa subhdan shomgacha, shomdan yana subhgacha (agar uyda bo'lsam) xotinimga kelgusida boyib ketishim, uni pulga ko'mib tashlashim haqida maroqli ertaklar aytib beraman, ishonadi bechora.

Gangsterlik amaliyoti, oliy martabali odamlar bilan uchrashuvlar, suluv qizlar qurshovidagi bazm-u jamshidlar ham tez-tez tushimga kirib turadi. Bular hammasi bir oqshomlik rohatim mahsulidir.

Men bunaqa tushlarni ko'p ko'raman. Ko'rmasam o'zim tashkillashtiraman. Ko'pincha ko'radigan tushlarim avvaldan tuzilgan ssenariy asosida bo'ladi. Gohi-gohida ahmoqona hikoyalar yozib turaman. Siz esa ularni soddalik bilan o'qib chiqasiz. Siyosatchilarning dazmollangan gaplarini o'qigandan ko'ra, mening yozganlarim qiziqarliroq emasmi?

Ba'zida muxolifatning piket, mitinglariga shunchaki hush-takvoqlik uchun chiqib turaman. Shunchaki ermak-da buyam. Imtihonlardan o'tish uchun domlalariga pora ham uzatib turaman.

Ana endi maqsadga ko'chdik. Bilaman, siz aqlli o'quvchi sifatida (mening o'quvchilarimning hammasi aqlli odamlar) boyadan beri tishingizni-tishingizga bosib, gapning indallosiga o'tishimni kutyapsiz. To'g'ri topdingiz, hikoyam pora haqida. Xullas, bir muddat nafas rostlab, yangi satrga, asosiy masalaga o'tsak bo'lar...

Bir kuni ertalab uyqudan turdim. Gapimni tahrir qilishga urinmang. O'zi kamdan-kam hollarda ertalab uyg'onaman. Bo'lmasa kunning istalgan paytida ko'z ochishim mumkin. Bu daf'a erta turdim. Aniq esimda, sut, qatiq, qaymoq sotadigan xolalarimiz butun "do'm"larni boshlariga ko'tarib baqirib-chaqirishardi. Biz tarafda bu opalarimiz har qanday xo'roz yoki budilnikning vazifasini

a'lo darajada bajarishadi. Qo'lim bilan og'zimni bekitib, chuqur esnadim. Odatim shunaqa. Kaspiy dengizi ustidan ko'tarilayotgan hovurga boqdim. Shahar ko'chalarida o'tlab yurgan mol-qo'ylarga qaradim. Reflektik (shunaqa so'z bormi o'zi lug'atda?) tarzda qishlog'imizni esladim. Maza qilib qichqirgim keldi — ovozim chiqmadi. Qo'limni kissamga soldim. Uyimiz tagidan o'tib ketayotgan aravakashga qaradim. Uyam bir vaqtlar odam edi, endi aravakash bo'ldi. Shu payt uning har doim gapirib yuradigan va men ko'rmagan kabobxonasi esimga tushib, og'zim suvlandi.

Yana chalg'ib ketdim. O'tish davri-da! Maqsadga o'tish uchun allaqayerlarda o'tlab ketishga to'g'ri keladi. O'sha kuni ertalab meni telefonda so'rashdi... Yo'q, shu yerda yanglishdim. Anchadan beri puli to'lanmagani uchun telefonni uzib qo'yishgan. Demak, qo'ng'iroq eshikniki ekan. Men yana odatimga uyg'un o'laroq tuynukdan mo'raladim. Bu odam yangi edi.

Eshik ochilishi bilan qo'limga bir telegramma ushlatdi... Ha, telegramma ekani aniq. Chunki men imzo chekish uchun ancha vaqt qalam axtarganim esimda. Kostumimning kissalarini ag'darib tashladim. Xotinimning sumkasini ham titkiladim. Nima qilay, uning qosh qalami bilan qo'l qo'yishga majbur bo'ldim.

Erta uylansa shunaqa bo'ladi. Xotinning borligi ana shunday mushkul vaziyatlarda qo'l keladi. Telegrammada ikki og'iz gap bor edi: "Soat uchda avtobusni kut". Imzoning keragi ham yo'q. Telegrammani ukam jo'natgan. Moddiy, xotinim aytmoqchi, gumanitar yordamni onam yuboradi. Bu galgi yordam asosan kurkadan iborat bo'lishi kerak. Shunga kelishganmiz.

Ol-a, kurka deganim tovuq bo'lib chiqdi. To'rvaning ichida kaftdek bir qog'oz ham bor edi. Jiyanimning daftaridan yirtib olishgan bo'lsa kerak. "Aylanay bolam, kurka topolmadim, kuchim shunga yetdi... Menga qaytishda koptok ola keling". Oxirgi gapni jiyanim yozgan. Aji-buji yozuvini taniyman.

Tovuq ham tovuq ekan-da! Patlari hurpayib, rangi-quti uchib, tumshug'i xuddi yig'lashga moyil bolaning lab-lunjidek bir yonga osilib turibdi.

Xuddi qizil qalam bilan chizilgan, yomg'irning tagida ikki kun turgach, oftoabda quritilgan suratga o'xshaydi-ey!

Avtobusda uyga qaytayotganimda tovuq qo‘qqisidan to‘rvadan uchib chiqdi-da, o‘zini gaplashib ketayotgan ikki qizning oyoqlari orasiga urdi. “Bu kimning xo‘rozi?” deyishdi... Yo‘q, tovuq demadilar. Xo‘roz-da! Garchi noo‘rin bo‘lsa-da, bu anglashilmovchilik menga yoqib tushdi. Qaddimni g‘oz tutib, g‘urur bilan “meniki”, deb qo‘ydim. Yuzimdagi tabassum uyga ketguncha so‘nmadi.

Tovuqni ko‘rishi bilan xotinimning labi cho‘chchaydi: “Bu qanaqa tovuq o‘zi? Puf desa o‘ladi-ku, yeb bo‘larmidi buni?!”

“Ishing bo‘lmasin, -- dedim, — haliyam sen yegin deb olib kelganim yo‘q. Yeydigan odamning ham sho‘ri bor ekan. O‘tish davrining tovug‘i shunaqa bo‘ladi”, dedim ensam qotib.

Hammasi o‘sha bolalarni deb bo‘ldi. Ularga men pora berolmayman, deb aytdim-ku, bo‘lmasa? O‘zi bu kurka... yo‘g‘-e, tovuq tarix o‘qituvchimizga atalgan. Ikki kun ilgari yotoqxonaga kursdoshlarimdan kitob so‘rab turish uchun borgandim. “Kitobning nima keragi bor? — dedi kursdoshlarim, — uy quradigan odam tarixni boshiga uradimi?” Boshqalari ham bu gapni qo‘llab-quvvatlashdi. “Undan ko‘ra yuzta-yuzta qilamiz, yur. Zacho‘tkaning ichiga beli sinmagan o‘ntalik qistirsang, masala hal”. Men pora berolmayman, dedim. Unda sovg‘a olib bor, deyishdi. Ular kurka olib borishni maslahat berishdi. Shayton yo‘ldan urib, ularning gapiga kirdim.

...Tovuqning oyog‘idan karavotga bog‘lab qo‘ydim. Tagiga bitta gazet ham to‘shadim. Har holda, mehmon, biznikiga har kuni kelib turibdimi? U menga, men unga termilib charchamaymiz.

Bir-birmizga o‘xshab ketamiz. Ikkovimizning ham rangiro‘yimiz so‘lg‘in. Ayollarga maza. Har qanday qurum bosgan yuzni upa-elik bilan epaqaga keltirishadi. Sho‘rlik erkaklar. Biz ham shunaqa qilsak bo‘ladi-yu, lekin darrov “anavinaqa ekan” deb shubhalanib qolishadi. Aha, zo‘r fikr keldi. Tovuqniyam yaxshilab pardozi qilsam-chi? Odam eng yaxshi qarorni o‘z-o‘zi bilan gaplashgan paytda chiqaradi.

Tovuqni qarindoshlarimizdan ham qizg‘angan hammomga olib kirdim. Manavi xotinning shampuni. Bunaqa narsani tovuqning avlod-u ajdodi ko‘rmagan. Lekin xotin ko‘rib qolsa bormi?

Hozir xotin darsda. Bo'lg'usi do'xtir. Manavi uning lab bo'yog'i. Tumshuqlarini qizartirdim. Bu boshqa gap. Keyin tovuqni isitkichning ustiga qo'ydim. Bechora sovuqdan dir-dir titraydi. Qishda sovuq urgan-da bechorani. Anavi xotinning feni. Oh, zo'r bo'ldi-da! Tovuuq emas, naq tovusning o'zi bo'ldi. O'zim ham u yer-bu yerimni to'g'rilab, patlari oppoq, momiq, babaqi, yuzlari qip-qizil tovuqni qo'ltiqqa urdim-da, domlaning uyiga yugurdim. Odamlar unga qarab dedilar: "Ketvorgan tovuq ekan-da o'ziam".

"O'yinchoq bo'lsa kerak-da". "Yo'g'e, ana tirik-ku". Qarab-qarab shundoq suluv... tovuqqa hayfim kep ketdi, lekin na iloj? Omonatga xiyonat qilib bo'lmaydi. Tovuuq — domlaniki.

Indamaygina borardi jonivor. "Yarim kilo bo'lsa kerak" o'yladim o'zimcha. Juda yengil-da! Ha' endi, qishloqning tovuq'i-da! Buyog'i oshpazning mahoratiga bog'liq.

Ertalab hammadan oldin auditoriyaga kirdim. Ular mening yuzimda qoniqish alomatini ko'rib, ishim joyida ekanini tushundilar va ma'noli ko'z qisdilar. Men ulardan rozi edim...

Marraga ham yetib keldik. Domla auditoriyaga kirdi. Odati shunaqa o'lgurning. Imtihonni hammaning ko'z oldida oladi. Bitta-bitta chaqirib so'rash yo'q.

Xonaning u yog'idan bu yog'iga tomon yurib, hammani bir-bir nazardan kechira boshladi. Bitta orkestr kam. Yurishlari shunaqa shaxdamki... Tovuuq yoqibdimi, deyman. Bardamligi shundan. Pora odamni shunaqa bardam, tetik qilib qo'yadi.

Auditoriyaning o'rtasida turib, ko'zoynagi tagidan yuzimga sinchkov tikildi. O'zimda yo'q xursandman. "Albatta, men olib bordim, domlajon!" Ichimda aytdim buni. Uyidagilarga hech narsa demagan bo'lsam-da, o'zi hammasini tushunibdi. Menga ancha tikilib turgach, mamnun bosh irg'ab qo'ydi.

Shu payt kutilmaganda (rostdan ham hech kim kutmovdi, hamma g'alabani men bilan baham ko'rishga hozir turardi) domlaning yuzi burishib ketdi:

— Kecha anavi fohisha xotinga o'xshagan pason tovuqni uyimga kim olib boruvdi, pichoqqa yetmay jon berdi sho'rlik...

BUQA

Siz umrida salom bermagan odamni ko'rganmisiz? Shaxsan men ko'rganman. Bashir odamga umuman salom bermaydi. Salom tugul, ozg'in, ko'rimsiz qad-qomati bilan shunaqa yurib qo'yadiki, go'yo G'arb bilan Sharq orasidagi chegarani shu belgilab bergan yoxud Sho'ro hukumatini shu odam ag'dargan-ov, degan xayolga ham borasiz. Faqat qovog'idan qor yog'ilib turadi. Ehtimol, xotinidan erta ajraganidan yoki bo'lmasa o'g'lining uzoqda ekanidan DARDI ICHIDA bo'lsa kerak. Har holda, birovning ko'ziga baqrayib qarab, g'o'ddayib o'tib ketadi.

Meni maydagaplikda ayblashingiz ham mumkin. Lekin, bu faqat mening fikrim emas-da! Bashirning salom bermasligi deyarli har kuni qishloqda muhokama etiladi. Agar sho'rlik amerikalik bo'lganida uning masalasi allaqachon xalqaro doiraga ko'tarilgan bo'lardi. Qishloqda esa har kim har xil taxmin va farazlarni o'rtaga solsa-da, yakuniy xulosaga kelinmagan edi.

Chunki qishlog'imizda salom berishni bolalikdan o'rgatib boradilar. Ya'ni, salom — tarbiyaning boshi. Qishloq xotinlarining bayonotiga ko'ra, Bashir kechasi ajina, jinlar bilan oldi-berdi qilarmish.

Aytsam ishonmaysiz, meni lofchiga ham chiqarasiz, ammo haqiqat shuki, Bashir bir marta menga salom berdi. Tasavvur qil-yapsizmi? Umrida birovga kulib qaramagan, qoqsuyak yelkasida oltmish yilning yukini orqalab yurgan oqsoqol men bilan salomlashdi. Endi bu ro'parangizdan chiqib qolgan begona odam cho'ntagingizga yuzta "ko'ki"dan solib, ko'z qisib ketganday gap edi. Bu hol sizni qanchalik taajjubga solishi mumkin bo'lsa, men ham hozir ana shunday holga tushib qolgandim.

O'shanda aravaga xashak yuklayotgan edim. Esim og'ib, aravaga yuklangan xashak bog'larini qaytadan yerga tushira boshlaganimni ham sezmadman.

Avvaliga yo'lni kesib o'tib, bog' tomonga tushib keldi. Boshini u yon-bu yonga ham burmay, to'ppa-to'g'ri kelib tepamda turdi. Asli uni ko'rganim ham yo'q edi. Faqat qurigan o't-alafni yanchib kelayotgan qadam tovushlarini eshitdim. Sigaret hidi

kelib turgan nafasini o'ng qulog'imning tagida his etdim. Shoshib qoldim.

— Salom jijan. Charchamayapsanmi? — deb so'radi shivirlab.

U mening taajjubdan olayib ketgan ko'zlarimga ham qaramadi. Qo'lidagi "Astra" sigaretini sarg'aygan barmoqlari orasida o'ynatib, cho'nqayib tutning soyasidan joy oldi. Ancha payt jim qoldi. Bir-birimizga tikilib qoldik. Hozir o'z holiga o'zi hayron edi, xuddi to'satdan tilga kirgan soqov singari. Bir payt yerga qarab gap boshladi.

— O'sha taraflarda bizning o'g'ilni ham ko'rib turasanmi?

Boya aytganimdek, Bashirning o'g'li qishloqdan ketganiga ko'p bo'ldi. Askarlikdan qochib, hozir Rossiyaning qaysi bir shahrida daydib yurganini eshituvdim.

— Yo'q, — dedim, — men boshqa shaharda turaman.

Biroz yana jim qoldi. Uning keyingi gaplari sizga ham g'alati tuyulishi mumkin.

— Bu qanday qarindoshlik bo'ldi? Qanaqa amakivachchazilar? Nahot musofirlikda bir-biringizning holingizdan xabar olmasangiz?

Uning savoldan ko'ra ko'proq ta'naga o'xshab ketuvchi bu gaplari meni tamoman shoshirib qo'ydi.

Mening ham o'zimga yarasha aql-hushim bor. Besh yil bekor-ga universitet tuprog'ini yalaganim yo'q. Kimsan Dono boboning nevarasi bo'lsam. Aha!!! Barmoq o'rniga ketmon dastasini tishlab, o'yg'a toldim. Masala ravshan. Bashir otaning salomi bejiz berilmaganga o'xshaydi. Demak, uning o'g'li mening amakivachcham, o'zi menga amaki bo'p chiqadi. Uyg'a borib, yana so'rab ko'rish kerak. Qariyani kuttirib qo'ygim kelmadi:

— Gap undamas, biz boshqa-boshqa shaharda turamiz, — dedim.

— Oralaring bizning uydan Aliaskar mahsido'zning do'konicha bormi?

— Yo'q, — dedim, — ancha uzoq.

— Unda Humbat semizning uyigacha ekan-da? Ha, mayli, sog' bo'lsalaring bas. Bu og'ayningni shu yil boshini ikkita qilsam devdim, — deya gapirayotib o'rnidan turdi va sigaret hidi ufurib

turgan nafasini yuzimga yopishtirdi. — Ho‘kiz ham tayyor. — U keyingi gapini qulog‘imga engashib aytdi, — Pulini berib qo‘yganman, — shunday deb qo‘shni bog‘da o‘tlab yurgan mollarni ko‘rsatdi. Orasida bitta ola buqacha ham ko‘rinardi, — lekin bir ishda yordaming kerak, jiyan.

Qiziq, unga qanaqa yordam berishim mumkin? Sovchilik bo‘lsa, bu ishni dadamga aytgan bo‘lardi. Nima bo‘lganda ham, favqulodda salom menga qimmatga tushishini angladim. U ham mening ahvolimni tushundi, chamamda.

— Bilasanmi, men anavi buqachani ham olganman, ham olganim yo‘q, — dedi pichirlab.

— Tushunmadim, bu nima deganingiz? — so‘radim istaristamas.

— Manov mollarning egasini taniysan-a? Mamadali rais. Qishda qor so‘rasang bermaydi. U bilan kelishgan edik — men unga qishda xashak beraman, u esa bitta buqacha berishi kerak. O‘tgan qishda xashakning hammasini unga berdim. Endi esa g‘irromlik qilyapti. “Biz kelishgan paytimizda hali kichkina edi. Endi katta bo‘ldi. Bu zotdor buqachalardan. Uning kattarishiga sening xashaging emas, zotdorligi sabab, uni molbozorga chiqarib sotmoqchiman”, deydi. Keyin yana fikri o‘zgardi, “Bunaqa zotdor buqacha hech kimda yo‘q, uni urug‘liqqa opqo‘yaman, sening o‘sha daydi bolangni deb shunaqa zo‘r molni so‘yib yuborish uvol”, deydi ablah.

Pul quturtirgan buni. Lafzidan tongani mayli, bolamni daydi dedi-ya! Sen o‘qigan odamsan! Yozib-chizib turarmishsan, o‘zing ayt, bu qanaqa bedodlik? Sen shu ishda menga yordam qilolasanmi?

Qishloqda raislikka umuman aloqasi bo‘lmasa-da, shirkatda yuqoriroq lavozimda ishlagani uchun shu nomga sazovor bo‘lgan Mamadali tog‘ani yaxshi tanirdim.

— Qanaqa yordam?

— Gap shundaki, ertaga qishloq oqsoqollarining majlisi bo‘ladi. Hammasi unga yon bosadi. Bilasan, u hozirgi hukumat odamlari bilan yaxshi tanish. Organda qarindoshlari ishlarmish. Men bir besavod odamman, yonimda tursang, hammasi sendan qo‘rqadi.

Uning gaplarini hali idrok etib ulgurmasimdan, “Demak, bo-rasan-a?” dedi-da, ketib qoldi. Nima qilishni bilmay qoldim. Sho‘rlik umrida birinchi marta birovga salom berib, unga hasbi holini aytgan, inchunin, meni o‘ziga yaqin tutib, katta odam bilib yordam so‘ragandi. Shuni hisobga olib, eski klubda o‘tadigan yig‘ilishga yo‘l oldim.

Avvaliga buqachaning egasi, Mamadali rais gapirdi. Masalalani o‘z foydasiga hal etishlarini so‘rab, navbatni Bashirga berdi. Bashir ham o‘z navbatida buqachani buzoqligidan yaxshi bilishi, uning tarbiyasiga katta ulush qo‘shgani, o‘z tomorqasida o‘tlab katta bo‘lgani haqida shunaqa to‘lqinlanib gapirdi, hatto ko‘z yosh qilib ham oldi va cho‘ntagidan kir ro‘molcha chiqarib, yoshini artdi.

Bunaqa otashin nutq uchun har qancha qarsak chalinsa bo‘lar-di. Chunki u majlis ahlining e‘tiborini to‘la-to‘kis o‘ziga qaratgan edi. Deputatlikka nomzodi qo‘yilgan bo‘lsa, hamma unga ovoz berishi tayin edi. Faqat, Mamadali bir-ikki yo‘talib qo‘ygach, majlis ahli sergak tortib unga qaradi.

Mamadali qani sen gapir, degandek Mamish cho‘ponga o‘girildi. Mamish cho‘pon aytdiki, buqacha oshib borsa, ellik manatlik yem yegandir, lekin hozir bu buqachani bozorda kamiga besh yuz manatga pullasa bo‘ladi. Ancha-muncha gap-so‘zdan keyin yana Mamadali so‘z oldi.

Gap boshlashdan ilgari hammaga bir-bir ko‘z tashlab chiqdi. Eng oxiri uning nigohlari Bashirga qadaldi. Bashir o‘zi o‘tirgan stul barobarida kichrayib qolgandek edi. Majlis ahlining bir ko‘zi Bashirda bo‘lsa, bir ko‘zi Mamadalida edi. Bu uzoq muddat davom etgan jimlikdan ko‘pchilik Mamadali Bashirga rahm qilib buqachani unga berar, degan xayolga borgandi.

— Bilasizki, mol — o‘z oti bilan mol. Tilla yoki olmos emas. Topiladi. Shuning uchun bu masalada bosh qotirib, hammani ishdan qoldirish yaramaydi.

Bu gaplardan keyin yana bir muddat jimlik cho‘kdi. Bashir ham sekin-sekin kattara boshladi. Ko‘zlarida minnatdorlik uch-qunlari chaqnay boshlagan, mamnun nigohlari bilan hamqishloqlariga boqardi. Bir-ikki mening tizzamni ham nuqilab qo‘ydi.

Chamasi, bog‘da Mamadalining unvoniga o‘zi yog‘dirgan ta‘na-yu malomatlardan xijolat chekardi. Klub ham allanechuk yorishib ketgandek bo‘ldi. Chuqur nafas olib, Mamadali yana so‘zida davom etdi:

— Gapning qisqasi, ola sigirning bolasini Bashirga bersam. Bir-ikki oyda katta bo‘ladi. Inshoolloh, kuzgacha buqaga keladi. Kelgusi yilda bitta erkak buzoq tug‘ib bersa, masala hal. O‘g‘lini bemalol uylantirsa bo‘ladi.

Majlis ahli ham Mamadalining bu taklifini ma‘qulladilar. Yig‘ilish tugagach, Mamadali menga bir tirjayib, yonimdan o‘tib ketdi.

Bashirning g‘azabi qaynagan edi. “Molxonangga o‘t qo‘yaman, sigirlarningning hammasini burdalab tashlayman”, derdi asabiy ohangda. Uning bu dag‘dag‘alari tuman sudiga qadar davom etdi. Shikoyat arizasini ham menga yozdirdi.

— Yoz, onasini emsin, bu Mamadalini quloq deb yoz, yot unsur de. Sovetlarning dushmani deb yoz.

— Bashir amaki, — dedim (o‘zi meni jiyan deydi-ku!), — Sovet tamom bo‘lganiga o‘n yildan oshdi. Endi hukumat yangi bo‘lgan.

— Hukumat yangi bo‘lsa, sud, pirokuror eski, yigirma besh yildan beri ishlaydi, hammasini taniyman. Yoz, jiyan. O‘tgan yil qishloqning hamma ekin yeriga g‘alla ektirdi. Pulini esa kissaga urdi. Kuyovi hokimiyatda poraxo‘rning biri, o‘g‘li olibsotar.

Xullas, Bashir menga bir quloch maktub yozdirdi va qog‘ozni to‘rt buklab, yirtiq kamzulining ko‘krak cho‘ntagiga solib, tuman-ga ketdi.

Shu bilan qishloqqa keyingi yilning kuzagida keldim. Bog‘i-mizdagi qurigan xas-xashakni yig‘ishtirib yurgandim. Bashir yana bog‘ning bir chetidan o‘tib qoldi. O‘zi oldinda, orqasidan o‘ziday ozg‘in bir g‘unajinni ergashtirib, allanarsalarni g‘uldirab borardi.

— Ha, Bashir amaki, nima bo‘ldi? — deb so‘radim.

Javob bermadi va asabiy qo‘l siltadi. Bir-ikki qadam yurib, ortiga qayrildi.

— Tamom bo‘ldi, — dedi.

“Nima tamom bo‘ldi, salom-alikmi?”, degim keldi. U biroz yurib yana to‘xtadi. Yuzimga tik qaradi.

— Hammasi sotilgan, itvachchalar, — dedi. — Senga ham qoyil emasman. Bu it emganlarning orasida bir o‘zimni tashlab ketding.

— Nima bo‘ldi o‘zi?

— Nima bo‘lardi, o‘g‘lim o‘sha tomonda bir o‘ris marjaga uylandi. Unga unashilgan qiz boshqasi bilan qochib ketdi. Men esa buqa qidirypman, buqa! Anavi itdan tarqagan ham buqasini g‘unajinimga yaqin yo‘latmaydi, — dedi va xirillab kuldi. Keyin g‘unajinini ko‘rsatib, — manavi qirchang‘idan qaysi ovsar buqa bahra topardi, — deya kula-kula yo‘lida davom etdi.

Bashirning oyoqlari ostidan Mamadali raisning insofi qadar yengilgina chang ko‘tarildi.

ATILLANING OCHIQ DERAZASI

Talabalik davri do'stim tabrizlik Atilla Maralanli uchun

Bu ham mening talabalik davrimda qayd etgan daftarim. Tasodifan qo'lyozmalarimning ichidan topdim. Ustiga qora siyohda "oltinchi daftar" deb yozilgan. O'n to'rtinchi sahifadagi qaydni o'qidim: "Qizi va o'g'li zindonga tashlangandan keyin namoz o'qimay qo'ydi". Bu jumla Daniyada yashagan, aslida Janubiy ozarbayjonlik bo'lgan Rizo Farmonningsovuq Skandinaviya o'lkasida chop etilgan "Onam o'zini topolmadi" kitobidan misol keltirgan qaydlarimdandir. Buni menga muallifning ukasi o'qib berdi: — Ukasiyillar davomida zindonda yotgan, so'ngra Mustaqil Ozarbayjonga kelib tahsil olgan. Fors tilini bilmagan va Rizoning kichik ukasi Atillani tanimagan kishi u yerda nima yozilganini bilishi dargumon edi. O'sha bir jumlalik qaydda tilga olingan onaning qizi zindonga tashlanib, to'qqiz oy azob-uqubatlarni boshdan kechirgan. Zindondan chiqqach, oila qurgan va mamlakatni tark etib, Kanadaga ko'chib borgan. Atillaning tag'in bir opasi zindon ko'rgandi. Nafaqat kunlab va yoki oylab, balki yillar davomida quyosh nuridan mosuvo rutubatli tosh zindonda yashagandi. U yerdan chiqib, opasi kabi ob-havosi o'zgacha, ruhiga yaqin vatani Janubiy Ozarbayjonnini tark etib, Ovrupaga yo'l olgandi.

Bu hikoya, aslida, ma'lum bir oilaning emas, balki dunyo bo'ylab sochilib ketgan millatimning fojiasini aks ettiradi.

— Atilla tikish mashinasini uyning bir chetiga qo'yib, ustini oq bo'z bilan yopdi, so'ngra biroz o'ygaga tolib, ilova qildi: — Onamdan keyin...

Uning nima deyayotganini tushunmayotgandim, biroq og'zidan chiqqan so'zlar meni go'yo qamchilayotgandek edi. U bu so'zlarni aytganda ko'zlari yoshga to'lgandi. Yuzini chetga olib,

ko‘zlarini mendan yashirishga urindi. Ehtimol, bu bilan u erkaklar yig‘lamaydi demoqchi bo‘lgandir.

Biz onai zorimizning umrini uzaytolmadik. Yo‘q, adashdim, biz umr uzaytadigan ham emasmiz. Aslida umrini uzaytish o‘rniga zomin bo‘ldik.

Onam vafot etgach, qo‘limni bu mashinaga tegizolmay qoldim. Onam hayotligida barchamiz — butun oilamiz uchun mashinada kiyim tikardi.. Mashina endi hech kim qo‘l tegiza olmaydigan ashyoga aylangandi. Aslida, barchamiz unga qo‘l tegizish asnosida o‘tmish hislarning jonlanishidan qo‘rqardik. Onamizni eslash, onalik kunlarga qaytish oson emasdi. Onamizning ruhi, nafasi uyimizda, hamma narsada yashamoqda edi. Ayniqsa, mashina... U mashinada kiyim tikkanda go‘yo mohir bastakor o‘zining sevimli asarini yaratayotgandek tuyulardi menga. Mashinaning bir maromda tiqqilashi esa meni xayolan uzoq-uzoqlarga olib ketardi.

Onam qishda sovuqda, yozda issiqda yayov mening va opamning yoniga kelardi. Bilmayman, qishning sovug‘idanmi yoki yozning jazzirama issig‘idanmi, qo‘llarining usti doim qavarib turardi. U yillaring g‘ubori, qayg‘u va alami o‘z ishini qilgandi — rahmatli yurak og‘rig‘idan o‘ldi.

Atilla Ozarbayjonning qadim poytaxti, inqiloblar beshigi Tabriz shahrining naq markazida yashardi. Men Tabrizda qayerga borgan bo‘lsam, yon-atrofga do‘stimning ko‘zi bilan boqardim. Uzoq ayriliqdan so‘ngra uning bu yerlarni ko‘rib, qanday tuyg‘ular girdobiga g‘arq bo‘lishini anglashga harakat qilardim. Ularning uyi aynan qayerda joylashganini bilmaganim uchun Tabrizning butun mahalla va uylariga boqib, bir vaqtlar uning bu yerlarda yashaganini, kezmanini, bolaligining og‘ir kunlarini boshidan kechirganini tassavvur qilishga urinardim. Uylarini bilsaydim, u uyning shaklini ko‘zlarimga joylardim va Bokuga qaytgach, u jonli albonni Atilla uchun bir-bir varaqlardim...

Tabriz teleko‘rsatuvi uchun mendan intervʼyu olgan, yaqin yillarda Bokudan bu shaharga kelin bo‘lib tushgan Elmira ismli jurnalist qiz menga shunday savol berdi: “Tabriz sizda qanday taassurot qoldirdi?” Xayolimga kelgan ilk jumla shu bo‘ldi: “Tabriz men uchun ertak dunyosi edi. Bugun u ertak haqiqatga aylandi”.

Uni menga ertaklashtirganlardan biri Atilla bo'ldi. Uning bu shahar bilan bog'liq xotiralari xayol dunyomda o'z xaritasini chizgandi. Mening Tabrizni ko'rishga bo'lgan istagim do'stlarimning xotiralarini xayolan jonlantirish edi. Qolaversa, xaritada ko'z bilan ko'ringan kichik miqyoslar u yerga oyoqqo'yganda bir necha bor kattalashadi. Ba'zan ming, ba'zan esa millyon karra...

Opasi va o'zi tashlangan zindon hujralarida qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirganini bilmasam-da, onasi chekkan azoblarni tasvirlaganda his qilardimki, u bechora ayol bolalariga olib borayotgan ikki ozuqa qopini, og'irligidan, yo'lda toliqib, bir necha bor qo'lidan tushirib yuborgan...

— Biz bilan uchrashganda onam qadoqqo'llari bilan boshimni silardi. Men esa har uchrashganda onamning yanada erib, ado bo'layozganini, bukchayib qolayozganini ko'rib xijolat chekardim.

Uning aytgan gaplariga e'tiroz bildirishni hech ham istamadim. Na savol berar, na fikrlarini tasdiqlar, na-da oldida turgan choyni sovutmasdan ichishiga ishora qilardim. Chunki u dilidagini tilga chiqarib, bizsiz ham to'lib ketgan yuragini bo'shatardi.

Riza tez-tez onasining qiyofasini chizardi. Yigirmanchi sahifada Atillaning akasining qo'li qog'oz uzra titray boshlaydi. O'ng qo'lidagi tamakining burqsigan tutuni atrofga xush hid taratmayotgan bo'lsa-da, bu gal kuli suvrat uzra to'kildi. Kulni tozalab turib, o'z-o'ziga pichirlagandek o'qiy boshladi: "Oynada onamning aksini ko'rmayapman, menimcha, u chindan ham mening bu yerdaligimni unutgandir". U bu gaplarni aytarkan, haqiqatan ham, mening borligimni unutgandi. O'zini qo'lga olishda ancha qiynalgan do'stim deraza yoniga bordi. Ko'z yoshlarini artgach, qo'llarini cho'ntagiga soldi va oh chekib:

— Bolalari hayotda zada bo'la-bo'la ishonchlarini yo'qotishgandi, — dedi. So'ngra nimanidir eslab, sekingina pichirladi, biroq ovozi chiqmadi. Ehtimol, shunday demoqchi edi: "Ona chekkan azobu uqubatlarini bolalariga oshkor qilmasligi kerak. Biroq bunga erishish uchun bechora onam qanday mushkul yo'llardan borishi kerak edi?!"

Talabalar yotoqxonasining derazalari katta-katta oynaband derazalar edi. Ular go'yo talabalarning hayotdagi ulkan umidlarini

aks ettirardi. Xona havosini yangilash uchun turib derazaning bir tabaqasini lang ochdim. Ko‘chaning sovuqhavosi ichkariga urib, butun xona musaffo havoga to‘ldi. Bu hol menga Tabriz, Daniya, Kanada bo‘ylab kezman ona ruhi Bokuda bir manzilda birlashib, Atilaning derazasidan ichkari esib qo‘nim topgandek tuyuldi.

QUM USTIDA CHUMCHUQLAR

Hali sevilmadim deb achinma sira,

Aksincha, aldanmadim deb sevin!

Osif Otali

Yolvorishni yoxud nolishni sira yoqtirmayman. Bular tabiatimga yot tushunchalardir. Menga bog‘liq bo‘lgan ishning oxiri baxayr bo‘lishiga doim ich-ichimdan ishonaman. Mabodo, menga bog‘liq bo‘lgan narsa boshqaga ham bog‘liq bo‘lsa, u holda men o‘z zimmamdagini astoydil bajarishga intilaman. Biroq mening ishim boshqalarga bog‘liq bo‘lgan bir paytda narigi tomonning ishonchimni ochofatlik bilan suiste‘mol qilganini ko‘rsam, odamlarning bu qadar past ketganlaridan juda ham achinaman.

Biroz oldin, “Seni aldatish oson bo‘lsa kerak”, deding. Gapingga qo‘shilaman. Ko‘p bora aldanganman. Biroq men o‘zimga emas, aldanganlarga achinaman. Qiynalغانlarida mendek evaz kutmay yordam qo‘lini cho‘zgan kishini yo‘qotganlari uchun. Balki meni takabbur deb o‘ylarsan. Rostini aytsam, meni yaxshigina bilgach, sen buning yanglish ekanligiga amin bo‘lasan.

Bilasanmi, ta‘riflanganimda nega achinmayman? Chunki o‘zimda kuch topa olaman, qulab tushmayman va meni yo‘qotganning tabiatimga begona bo‘lganini tushunaman. Kishi o‘ziga yaqin bo‘lgan insonni aldatmaydi-ku... seni anglamagan sening menligingga yuk bo‘ladi. Insonlar shu sababli azob chekishadiki, yomonga ham yaxshi kiyimini kiydirib, buni ichdan yashirishadi. Mening ichim sinib to‘kilganlar uchun omborxonaga bo‘lolmaydi. Zero, yomonlik qilganlar men uchun qiladilar.

Insonlar osonlik bilan nimaga erishsalar, uni besh qo'llab tutadilar. Men ilk qaraganda suvda darhol erigan shakarni eslataman. Meni bilib bo'ladi, yeyilaman ham, ichilaman ham. Biroq sindirish qiyin. Sindirish bu kerak bo'lmaganda tashlabyuborish demakdir. Yo'qsa, u ichingni xarob qiladi, azabga aylanadi. Insonlar shu sababli ham meni sindirolmaydilarki, bus-butunlikda ishonchga aylanaman.

Inson to'yanini istamaydi.

Istamaganingning ortida qoladi ko'zing. Chunki bo'shliqni nima evaziga to'ldirishni bilmaysan. Hamma narsani rad eta olasan, biroq ishonchingdan kechish imkonsiz bo'lganidek, ishonchli kishidan ham voz kecholmaysan. Hayot qiyin ahvolga solgan sari inson ishonchga qaytadi va u qutulish yo'lini ko'rsatadi deb o'ylaydi.

Mendan "to'yanlar" mendan yanada kattasini topolmagan ekanlar bu bo'shliqqa qo'yish uchun. Ko'rmaslikka olish baxtli bo'lmaganlar uchun tabiiy holdir. Ichlari bo'sh bo'lgani uchun. Hamma narsadan nimadir kutish va bu kutishda ham ichlari to'lishini kutish. Mana shuni burnidan uzoqni ko'rolmaslik dey-dilar. Inson burnidan bir qarich uzoqni ko'rsa, dunyo ulkan ekanligini tushunadi. Va u ulkan dunyoda o'zi va uning muammosi qum zarrasidan ham kichik bo'lib qoladi.

Holbuki, biz qanday bo'lsak, dunyo ham shundaydir!

Biz ichimizdan boqamiz dunyoga. Burnidan narini ko'rolmaganlar uchun dunyo uning oshxonasidan va kunlik hayotidan iboratdir. Tushunchaning torligi insonning yon-atrofini, dunyosini devor bo'lib to'sadi. Narigi tomonni ko'rish bo'ydan baland sakrashni talab qiladi. Balki bu satrlarni o'qiganingda doim yuziga aytishim mumkin bo'lgan insonga nega og'zaki emas, yozuv vositasida xitob qilganimni anglarsan. Hamda ko'p emas, oz emas, kunda yigirma to'rt soat o'tirib gapirish mumkinligini. Ha, to'g'ri, agar shunday tushunsang, haqlisan. Biz har mavzuda gaplasha olamiz. Aytish mumkinki, ko'pincha ayni narsalarni o'ylaymiz. Avvalo siyosat bobida ishtiyoq bilan gaplashamiz. Boshqalarini kuzatganimizda ham adashmaymiz. Boqishlarimiz, yondashuvlarimizdagi yaqinlik oramizda muammo chiqarmaydi. Toliqquncha

gaplashamiz yoki mavzuni davom ettirish uchun sovugan choyimizni ho‘plab, qurigan tomog‘imizni ho‘llaymiz. Yoxud yangi choy damlab, yumshoq, issiq joyimizda suhbatimizni tugatamiz. Faqat shaxsiy hayotdan tashqari.

Qayerdagi insonlarning muammosi boshqa-boshqa bo‘lsa, uyerda bir-birini tushunish ham dargumon. Biroq sen shuni bilki, bir kun menga daxldor bir muammo ertaga senga taalluqlibo‘lishi mumkin. Albattaki, meni sevsang va meni yo‘qotishdan qo‘rqsang.

Mening dardim idrok etilmagan joyda mening borligim dushvor.

E’tiqodli dunyodan katta bo‘lganning idrok etmagan dunyosi uning uchun bir qafasdir. Qo‘shig‘i esa temir devordan osholmagan ovoz. E’tiqodli kimsalar o‘z qo‘shiqlarining bastasini o‘zlari yaratadilar. O‘zlari kuylaydilar, lekin boshqalar zavqlanadilar. O‘zlari esa qo‘shiqlari kuylangan joyda faxr tuyadilar.

Boshqalariga oid narsaga ko‘z tikmayman. Hech qachon hamkorlikdagi molni yoqtirmayman. Menga tegishli bo‘lgan narsani idrok etishga harakat qilib, doim o‘zimdagi bo‘lishiga intilganman.

Idrok etolmaganimni, hayotimda keraksiz bo‘lganlarni o‘z dunyomga kirishiga imkon bermaganman. Ortiqchaliklar, keraksiz narsalar xas kabidir. Uning hidi burunni achishtiradi, olomon oyoq ostida toptaladigan xas bilan inson jismi o‘rtasidagi muvofiqlikni tasavvur qila olmaganingda esa ichingni toraytiradi. Qisqasi, qo‘l-oyog‘ingni bog‘laydi.

Shu payt yozishni to‘xtatdim, garchi xayolimda hali yozadiganlarim ko‘p bo‘lsa ham... Va bu tushunchalarimning barchasi bir mavzuni ochishimga xizmat qilsa ham hatto. Yozishdan to‘xtashim bilanoq stolim ustidagi bo‘z rang quyonga boqdim. Ne ajabki, u hech nima yemas, yurmas, hurkak boqishlari hamisha bir nuqtaga boqardi. Karam, sabzi bersam ham yemaydi. U bir o‘yinchoq. Holbuki, uning jonsiz ekanini ko‘pdan beri unutganman. Bir paytlar unga shunchalar ko‘nikdimki, bo‘sh vaqt topdim deguncha darhol quyon nasli haqida bilganlarimni gapira boshlardim. U ham jimgina tinglardi, kechalari yonimda uxlatardim. Nazarimda u yolg‘izlikdan sovuq qotardi. Menimcha, bu o‘yinchoqni yasaganlarni rostdan ham sevardi. Goho men unga termulib turib, yon-atrofdagi o‘ynagan biror-bir bola ko‘rmagani uchun o‘zini yetim

hisoblaydi deb o‘ylayman. Lekin qo‘lingga olib, burnidan to quloqlari, sirti, quyrug‘igacha silasang isinadi. Sevgiga, shafqatga ehtiyoji bo‘lganga iliq bir mehr baxsh etsang, demakki, ertangi kun uchun yaxshilik derazasini ochgan bo‘lasan. Ammo siylab turib bergan va‘dangdan aslo kechma. Hayvon bo‘lsang nima qilardi? Ular instinkt bo‘lsa ham yolg‘onni, to‘g‘rini osonlikcha tushunishadi.

Hayvonlar anglaydi, ular hassosdirlar. Insonlar esa hassoslik bilan birga tuyg‘ularini tilga olish qobiliyatiga ega. Shu sababli ham nimani yozsam, aytmoqchi bo‘lgan mavzum roman bo‘ladi. Aslida uzun yozuv o‘qishga senda sabr qani? Shuningdek, sening hamma narsani darhol tushungan hamda ziyrak, hamma narsani tekshirish layoqating borligiga diqqat qilib, birgina so‘z bilan senda insonni tushunish uchun nima kerak bo‘lsa, barchasi mujassam, deya olamiz. Shuning uchun ham boshqa gapni ortiqcha deb bilaman. Hamma nasaning oxiriga o‘zing yetsang, yanada a‘lo bo‘ladi deb o‘ylayman. Majburlab bahorga yetib bo‘lmaydi, majburlab inqilobga erishiladi.

Men sendan saodat istamayman, chunki o‘zim nur taratyapman. Zotan, yolvorish, nolish menga yot. Sen bilan gaplashganimda juda ham hayajonlanaman, bo‘g‘zimga bir nimalar tiqiladi. Meni ojiz deb bilishingni istamayman.

Har gal sen bilan gaplashib yig‘lagach, azobim ikki barobar ortadi. Menga achinishingni istamayman. Ishqda achinish tuyg‘usi — bu tuyg‘ularning alg‘ov-dalg‘ov bo‘lishidir. Bu munosabatlarning tugab bitishiga sabab bo‘ladi, lekin inson buni his qilmaydi. Xuddi ichidan chiruvchi toshbaqa o‘limiga o‘xshaydi.

Meni aldagan insonlar menga hayron qolishadi. Haqiqatdan ham mozor toshlariga boqqanimda yuragim ortga tortib ketgani uchun hech qachon o‘likar dunyosida bo‘lishni yoqtirmayman. Qiziqqon bo‘lganim uchun mozor turg‘unligi, jimligi o‘zim izlagan va topgan joy emas.

Chunki hali aldaganiga o‘zimni ishontirmasam-da, ammo uning to‘g‘ri yo‘lda ekaniga ishonaman. Avvalgi suhbatimizda, bu muhitga ko‘nik, ishla, mashina ol... deganding. Pul bilan bog‘liq hamma narsani sotib olish mumkin, lekin o‘zlikni sotib olib bo‘lmay-

di. Men muhit odami emasligimni unutmaganingga hayronman. Shu suhbatimizdan soʻngra “kelishim” yaxshi boʻlishiga ishonmay qoʻydim.

Insonlarning gʻalati bir feʻli bor, oʻziga bogʻliq boʻlganni kibr bilan egib, uning ezilishidan yo zavq tuyadilar, yoki bu ezilishga nisbatan eʻtiborsiz boʻladilar. Goʻyo buning ularga ahamiyati yoʻqdek.

Sen ham aldaganlar qatorida boʻlsang, sen bilan bir joyda nafas olish men uchun azobga aylanadi. Shu bois ham oxirgi gapingni aytish mavridi keldi. Bugun mening shaxsiy muammom boʻlgan mavzu ertaga seniki boʻlishi mumkin. Albatta, meni yoʻqotib qoʻyish qoʻrquving boʻlsa.

Afsuski, sevgini bitta soʻz bilan vasf qilib boʻlmaydi. Aks holda men uchun kim ekaningni anglarding.

Bir paytlar kechalar uxlash men uchun azobga aylangandi. Senga hech nima demasdim, hassos inson boʻlganing uchun. Agar bu azob yana davom etsa, telba boʻlaman deb oʻylardim. Boʻlib oʻtganlarni oʻylasam, telba boʻlish shuurostining uygʻonishi, oʻtmishning butunlay ortga qaytishi va uni yana bir bor qayta boshdan kechirishga seni majbur qilishidir. Zotan, kun boʻyi uxlab, oʻzimni atrofdagi tashvishlardan bir yoʻla mosuvo eta ol-sam-da, oʻtmishning ham tushimga mehmon boʻlishi, oʻzini kelajagimga suqilib kirish istagi faqatgina tushimga emas, haqiqatimga, kunimga ega boʻlib, chin hayotimda qanday izma-iz suringani koʻz oldimda namoyon boʻlardi.

Koʻzimni yumdimmi, oʻtmish uyimizning yonida yangi qurilgan uy uchun toʻkilgan qumda oʻynagan bolalarni, qizaloqlarni tushimda koʻrardim. Har doim men ishdan uyga qaytganimda men tomonga yugurib, boʻynimdan quchib, yuzimdan oʻpishardi. Ular bugʻdoy dalasiga toʻplangan chumchuqlarga oʻxshardilar. Goʻyo meni koʻrganlarida hurkib, yegan boshoqlarni tashlab “pir” etib uchib ketishardi. Men bilan koʻrishgach, tagʻin ishlariga qaytishardi. Bogʻ yoʻlagi boʻylab, uyning zinalariga qadar olib borishardi.

Bir gal qoʻshni ayol, yaʻni har kun meni koʻrgach, yonimga chopqillab keladigan bolalardan birining onasi “Saida seni juda yaxshi koʻradi. Uyda doim sen haqingda gapiradi”, dedi. Ayol bi-

lan tasodifan uchrashgandik. U uy bekasi bo'lgani va deyarli hech qayerga bormagani uchun uni kam ko'rardim. Shu sababli bu galgi uchrashuvimiz kutilmaganda ro'y bergandi. Yurib turib gaplashmoqda edik. Go'yo bekatga qadar yuragini to'kib solmoqchidek edi. Balki bu menga shundan shunday tuyulayotgandir. Oxirida kulib, mahalla bolalariga bo'lgan sevgimning sababini go'yo yangilik yaratgandek quvona-quvona gapirdi: "Sening o'z bolang bo'lmagani uchun shunaqasan. O'z bolang bo'lsaydi, bu bolalarga bunday xushmuomala bo'lolmasding. U sening toqatingni toq qilib, shunchalar qiynardiki, bolalarning barchasidan nafratlanarding".

Holbuki, bu birgina uning fikri emas edi. Bolalarning asabbuszar ekanligini atrofimdagi barcha onalar aytishardi. Tabiiy ravishda farzand tushunchasi ularni xavotirga solgan sari onalik tuyg'usidan ham ortiq xavotir tuyg'usi ularni ko'proq o'yga toldirardi.

Barcha bolalar bizni zinapoyagacha kuzatishardi. So'ngra Otanur bilan birga zinalardan tepaga ko'tarilardik. Otanur ortga qaytmasdi. Nega qaytsin, axir? Xolasidan so'raydigan shuqadar ko'r narsasi bor ediki... Boshlardi: "Nega avval Saidani o'pdingiz? Siz uning xolasimisiz?" o'zimni tutolmay kulib yuborardim. Xolasiga bo'lgan sevgisida o'rtog'ini chetlatishga, chang solishga doim tayyor turgan kichik bir qoplon, bilardimki, bu dam hamlaga shay edi.

"Menga kulib qaramang... Menga javob bering-chi. Siz hammaning xolasimisiz? Yoki men ham borib yangi bir xola topaymi?" Bunday paytlarda uni ovuntiradigan biror vaj topmasam, gapirmasam, bu mahkama tergovni hali uzoq davom etardi. Shu sababli ham barcha savollariga umumiy qilib javob berardimki, lekin bu javob ikkinchi savoliga sabab bo'lardi. Uni qoniqtiradigan eng yaxshi javob esa shu edi: "Saida sendan ancha katta, shu sababli oyoqlari ham uzun. U hammadan oldin yugurib mening oldimga keladi. Men unga, kutib tur, Otanur kelsin, avval uni o'pay, keyin seni o'paman, deya olmayman-ku axir?!". Bu javob uni biroz ovutardi. Balki ko'nglida Saidaning uzun oyoqlariga nisbatan nafrat tuyardi, unga xolasini barchadan oldin quchib o'pishiga yordam qilgani uchun. Biroq buni hech qachon mening yonimda

oshkor etmasdi. Balki uning oyoqlariga boqqach, o'zining nozik, kichik oyoqlarini tez yugurmagani uchun yoqtirmay qo'ygandir. Nima bo'lganidan qat'inazar, ikkinchi savolni so'raganda meni kechirganini angladim. Binobarin, savolning ikkinchi qismi uchun bemalol yo'l ochilardi: "Menga nima olib keldingiz?" Shubha yo'qki, bu savolning javobi so'z bo'lolmasdi. Bil'aks, uning hov-uchlariga moddiy bir narsa berilishi kerak edi. Oxirgi kunlarda qum ustidagi chumchuqlar shuqadar hurkkan ediki, endi tushimga ham kirmay qo'ydi. Balki u uy endi qurib bitkazilgan, tayyor va uy a'zolari boshqa joyga ko'chishgandir. Ehtimol, chumchuqlar ham avvalgi joylarida o'ynamayotgan bo'lsa bordir. Balki mendan arazlashgandir. Endi ular men tomonga yugurishmas, yo'limni to'sishmasdi. Bir-birlari bilan o'yinga kirishib ketgan bolakaylarning jumbushi sababli yaxshi ham qulog'im tom bitmaydi. Balki ulg'ayishgan, qum uzra chordana qurib o'tirgan paytlari o'tgandir. Balki men tomonga yugurgan to'da birligini buzgandirman. Balki u tosh hofizalariga tegib ketib, mening ismimni u manzildan o'chirishgan. Ularni mening tushimdan uchirgan sabab nima edi, ajabo?

Eh, bir bilsayding ular ketgach tushlarimning huvillab qolganini. Kechalar yostig'imni quchib uxlayman. Uyg'onganimda tong otgan bo'ladi. Mehmonlarim esa eshigimni ochishmagan...

Ilgarilari har kecha ularni ko'rish men uchun iskanjadedek edi. Go'yo har bir bola ipak gazmolga nina sanchayotgandek edi. Ko'p o'tmay ipak ilma-teshik bo'lardi. Ular harakat qilgan sari ipak cho'zilar, xarob bo'lar va oxir-oqibat yirtildirdi. Ko'pincha esa yig'lab uyg'onardim. Xafa bo'lgan Otanurni, oyoqlari uzun Saidani, tilga olganimiz jurnalist Petruchni, gazetada ishlovchi qo'shnimiz Qurbonning ikki jajjigina bolalarini ko'rmasam o'ksinardim. Ko'z ochishim bilanoq ularni ranjitgandek tuyardim o'zimni go'yo.

Yaxshi hamki, bolalar kin saqlamaydilar. Yo'qsa bunchalik sevilmas edilar. Ularni "quvishimga" qaramay, tag'in yonimga kelishardi. Yo'q, aslida ular kelishmasdi, men borardim ularning yoniga. Ular esa, mening ular tomonga yurganimni ko'rib, o'yinlarini to'xtatishar, bolakaylar qumga to'ldirgan yuk mashinalarini

bo'shatishmas, qizaloqlar olovga qo'ygan qozonlaridagi ovqat kuyib kul bo'lishiga e'tibor bermay, hamma narsalarini tashlab mening yonimga chopqillab kelishardi. Uzoq yo'lni jadal bosib o'tsam-da, uyga olib borgan qisqa yo'lda bolalar qurshovida ancha vaqt turib qolardim. Qizlar yelkamdagi hamda qo'limdagi to'la sumkamni olib surgalagancha odim otishardi. Balki bu hol bolalar uchun o'yindan boshqa narsa emas edi. Yoki qum ustidagi o'yinning bir qismi yoxud menga bo'lgan sevgilarining alomati edi. Har holda, har kun takrorlangani uchun bu hol ko'nikmaga aylangan va qisman bahs mavzusi bo'lgandi. Ko'chamizda yangi uylar qurilganda ularning komandasiga yangi bolalar ham qo'shilishardi. Men esa barchasining sevimlisi edim. Otanur boshqargan komanda doim yugurishga tayyor edi.

Har doim chindan ham boshimdan kechirganim bir kun tushimda haqiqatga aylandi. Yaxshi hamki, inson miyasi taxayyul qilishga moslashgan. Endi u bolalarni qumdan yasalgan devorga tirmashgan, uyimizning yonidan o'tgan ulkan gaz, neft quvurlarini taxta parchalari bilan taqillatib, u yerdan chiqqan g'alati ovozlardan kulganlarini, qizaloqlarning esa tashqarida yoqqan o'choqlarini so'ndirib, qozonlarini uydagi o'choqlarining ustiga qo'yganlarini xayolimdan o'tkazaman. Bu o'rinda taxayyulim aytadiki, ular qozonlarining kuyib qolishidan qo'rqqanlari uchun ham olovini o'chirmasdan mening yonimga kelmasdilar.

Taxayyulim ko'p narsalarga yetaklardi, barchasini tilga olsam, hayotga hurmatimni yo'qotaman. Faqat u aytgan so'nggi haqiqatni aytay. U derdiki, hayot turfa iliq tuyg'ularni sovuvtadi. Yosh ortgan sari aql tuyg'uni yengadi. Pirovardida utoliqadi, soviydi, mahv bo'ladi. Mahv bo'lgan tuyg'ularga yig'lamayman. Balki, ishon-ganim kimsa aldagani uchun achinaman.

Xullas, titilib, sinib o'lganimni ko'rmasligingni xohlaymanni-ma bo'lganda ham. Qolaversa, jasadim sening yoningda hid taratishini istamayman. Chunki har turli jonlining o'ligi ufunat taratadi. Naqadar yaqining bo'lsa ham, oxir-oqibat u hid insonni bezdiradi.

MUNDARIJA

So‘zboshi. (<i>Boboxon Muhammad Sharif</i>).....	3
Hidoyat. Umrдан uzun kecha. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	8
Elchin. Bulbul haqida ertak. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i>	20
O‘n yildan so‘ng. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i>	28
Bo‘rilar. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	54
Nushoba Asad Mammadli. Imtihon. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	71
Komil Afsaro‘g‘li. Qon hidi. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	76
Oqlov. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	80
Firuz Mustafo. Oq raqs. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	87
Eski kitoblar dardi. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	96
Ofoq Mas‘ud. Inspektor Vaysman. <i>Nabijon Boqiy tarjimasi</i>	102
Komron Nazirli. Qo‘rqinchli muhabbat. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	117
Uch million dollarlik yurak. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	126
Keksa go‘dak. <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	134
Voqif Sultonli. Qumri navosi. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	148
O‘n uchinchi palata. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	153
Arslon Quliyev. Ko‘r jangchi. <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	160
Ganira Pashayeva. Yo‘qotilgan quvonch. <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	167
Gunel Anar qizi. Otamga. <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	179
Ilg‘or Fahmiy. Uchrashuv. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	182
Akbar Qo‘shali. Hasrato‘g‘li yoxud Uchar tobut. <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	186
Maqsad Nur. Telefon o‘yini va ayanchli intiho <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	191
Hijron Husayinova. Oygunning tushlari yoxud baxtiyorlik havasi. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	208

Qochqinchilik. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	212
Sulaymon Husaynov. Qabr toshi. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	216
G'arib Mehdi. Sinmagan vafo. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	221
Naringul Nodir. Qirmizi. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	228
Bo'tako'z. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	233
Ali Ja'faro'g'li (Aliyev). Besh tiyin.	
<i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	237
Tarona Vohid. Topilmagan tuproq. <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	240
Ulviy Bunyodzoda. Sadoqat. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	245
Inson. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	249
Ofoq Shixli. Uzoqlarda bir qishloq bor edi.	
<i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	253
Oydin Tagiyev. Tuman. <i>Shohista Komronli tarjimasi</i>	265
Shahnoz Shahin. Sandiq hikoyasi yoxud qo'shnichilik burchi.	
<i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	269
Aziza. Sarxush. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	273
Qatl. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	275
Shifo Valiyeva. Bankning to'rtinchi qavati.	
<i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i>	279
Parvin. "Gucci Fatosh". <i>Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi</i>	285
Samir uchun... <i>Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi</i>	291
Rashod Majid. 10-sentabr. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	300
Turol Anoro'g'li. Sinfkom saylovi.	
<i>Rustam Jabborov tarjimasi.</i>	309
Yashar Aliyev. Ayriliq. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	323
Elchin Husaynbeyli. O'tish davrining tovug'i.	
<i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	328
Buqa. <i>Rustam Jabborov tarjimasi</i>	333
Eluja Otali. Atillaning ochiq derazasi. <i>Shermurod Subhon tarjimasi</i>	339
Qum ustida chumchuqlar. <i>Shermurod Subhon tarjimasi</i>	342

O 33 Ozarbayjon zamonaviy nasri antologiyasi [Matn]: nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar Boboxon Muhammad Sharif, Shahlo Qosimova. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 352 b.
ISBN 978-9943-8733-8-4

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)



OZARBAYJON ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

71-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrirlar: *Lola Fattoyeva,*
Dildora Abduraimova
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhah *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 ¹/₁₆.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 22,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 20,53.

Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 138-1/22. Buyurtma raqami № 22-354

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

“O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OZARBAYJON
ZAMONAVIY
NASRI
ANTOLOGIYASI